

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDUVOXIDOV AKMAL ABDULAZIZOVICH, ZIKRIYAYEV ZOKIRJON
MA‘MIROVICH, MAMATOV MAMAJON AXMADJONOVICH, BERDIYEV
G‘AYRAT IBRAGIMOVICH, BO‘RIBOYEV ERKINJON NORBOY O‘G‘LI,
ESHPUKATOV DOSTONBEK BOXODIR O‘G‘LI**

IQTISODIY O‘SISH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 70310102 -Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

GULISTON-2022

UO‘K: 330.35.01(075)

KBK: 65.012.2ya7

Iqtisodiy o‘shish: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/ A.A. Abduvoxidov, Z.M. Zikriyayev, M. A. Mamatov, G‘.I. Berdiyev, E.N. Bo‘riboev, D.B. Eshpulatov Guliston, Ziyonashr - matbaa, 2022.- 535 b.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning samarali ijro etilishi orqali iqtisodiy islohotlarning yuqori natijalariga erishildi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy- iqtisodiy siyosati tubdan o‘zgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o‘tdi. Harakatlar strategiyasining uzviy davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, jadal iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish, 2030 yilgacha bo‘lgan muddatda mamlakatimizni innovatsion jihatdan taraqqiy etgan kuchli elliklik mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur holatlarning barchasi iqtisodiy o‘shish masalalariga alohida yondashuvni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur darslikda iqtisodiy o‘shish va rivojlanish masalalari o‘rganilgan, iqtisodiy o‘shishning asosiy tushunchalari, uning omillari va qarama -qarshiliklari tahlil qilingan.

Darslik oliy ta‘lim muassasalarining Iqtisodiyot mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan magistratura talabalari, o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va iqtisodiy o‘shish masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, i.f.d. A. A. Mamatov

Taqrizchilar:

Sattorqulov O. – Guliston davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Rasulev A. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil 25 - noyabr dagi 388-sonli buyrug‘iga asosan chop etishga ruxsat etilgan (ro‘yxatga olish raqami 388)

ISBN 978-9943-8681-6-8

© Guliston davlat universiteti, 2022

© Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2022

© “ZIYONASHR - MATBAA” 2022

KIRISH

Yangi O‘zbekiston iqtisodiy farovon davlat, keng iqtisodiy imkoniyatlar mamlakatidir. Bu-har bir fuqaro boy bo‘lsa- davlat boy bo‘ladi, har bir oila farovon bo‘lsa-mamlakat farovon bo‘ladi, demakdir.

Yangi O‘zbekistonni halol mehnat qilib, muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o‘z va oilasi farovonligini ta‘minlashga intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz shart va zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

Aytishlaricha, qadimgi Xitoyda insonlar o‘z dushmanlariga qarata “Senga ajabtovur davrda yashashni tilayman” deb, yomon tilak bildirishgan ekan. Bu iboraning kelib chiqishi borasida olimlar turli fikr va qarashlarni ilgari sursalarda, uning mohiyatiga e‘tibor qaratsak, mazkur ibora bizning hayotimizga mavhumlik qanchalik salbiy ta‘sir ko‘rsatishini anglaymiz. Shubhasiz, ”ajabtovur” vaqtlar – inqiroz, notinchlik va noaniqlik davri – tarixchilarning e‘tiborini ko‘proq o‘ziga tortadi, iqtisodchilar ongi-shuuriga ozuqa beradi, siyosat borasida tezkor martabaga erishish va tez boyish uchun yangi imkoniyatlar taqdim qiladi. Biroq, hamma ham o‘zining tinch, sokin va to‘kin hayotini yuqori xatarlarga to‘la bo‘lgan “AJABTOVUR” davrlarga almashishga rozi bo‘lavermaydi. O‘z-o‘zidan ayonki, bunday “ajabtovur” davrlar iqtisodiy o‘shish uchun noqulay hisoblanadi. Inqirozlar, urushlar jiddiy ofatlar bo‘lmagan paytlarda ham, noaniqlikning o‘shishi iqtisodiyot uchun katta xatarlarni yuzaga keltiradi. Iqtisodiyotda noaniqlik darajasini aniqlashtirishda Skott Beyker, Nikolas Blum va Stiven Devis tomonidan taklif etilgan Economic Policy Uncertainty (EPU) – iqtisodiy siyosatning noaniqlik indeksi muhim o‘rin tutadi. Ushbu indeks iqtisodiy siyosatning noaniqlik darajasini o‘lchashga xizmat qiladi va AQShning eng yirik 10 ta nashrlarida iqtisodiy siyosatni muhokama qilish asnosida “iqtisodiyot” va “noaniqlik” so‘zlarining tez-tez takrorlanishi asosida hisoblanadi. Iqtisodiy tadqiqotlar makroiqtisodiy noaniqlikning iqtisodiy o‘shishga salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Bunday salbiy ta‘sirilar uch yo‘nalishda, xususan investitsion faollikning pasayishi, jamg‘arishga bo‘lgan

moyillikning o'sishi, moliya bozorlarining faoliyatida uzilishlarning vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Odatda, iqtisodiy inqirozlar davrida makroiqtisodiy noaniqlik keskin oshadi. Iqtisodiy noaniqlik kamdan-kam hollarda inqirozlarga sabab bo'lsa-da, tilga olib o'tilgan ta'sirlar inqiroz hodisalarini sezilarli darajada kuchaytirishi va barqarorlashtiruvchi makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarini jiddiy ravishda murakkab-lashtirishi mumkin.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida noaniqlik darajasi indeksi kun sayin o'sib bormoqda. Bu o'z navbatida COVID-19 pandemiyasining hali davom etayotganligi, jahonda geosiyosiy vaziyatning chigallashuvi, energetik inqirozning kun sayin kuchayishi, global inflyatsion jarayonlarning jadallashishi, ekologik xatarlarning ortishi kabi omillar bilan bog'liqdir. Bugungi kunda Jahon banki dunyo mamlakatlarning markaziy banklarini inflyatsiyani jilovlash borasida o'z hatti-harakatlarini muvofiqlashtirishga chaqirmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasining bashoratlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo yalpi ichki mahsulotining 86 foizi to'g'ri keluvchi 143 ta mamlakatda iqtisodiy o'sish shart-sharoitlari yomonlashadi.

Rossiya-Ukraina mojarosi tufayli Yevropa, Osiyo, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalarining oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslarini import qiluvchi mamlakatlari katta aziyat chekadilar. Jahon bozorlarida xomashyo narxlarining o'sishi neft, tabiiy gaz va metal eksport qiluvchi mamlakatlar uchun bir muncha qulay shart-sharoitlarni taqdim qilsa-da, mazkur mamlakatlar ham o'sib borayotgan noaniqlikdan aziyat chekadilar, ularning yutuqlari dunyo iqtisodiyotining zaiflashishini qoplay olmaydi. COVID-19 pandemiyasi keyingi oylar ichida jahondagi geosiyosiy vaziyatning chigallashishi tufayli bir muncha e'tibordan chetda qolayotgan bo'lsa-da, virusning yangi va favqulodda xavfli shtammlarining paydo bo'lish xavfi saqlanib qolmoqda, bu esa o'z navbatida dunyo iqtisodiyoti uchun qo'shimcha iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, tahlilchilar dunyo iqtisodiyoti inqiroz ichidagi inqirozni boshidan kechirishi haqida ogohlantirmoqdalar.

Pandemiya tufayli ta'minot zanjiridagi uzilishlar, oziq-ovqat va energiya tashuvchilar narxlarining ko'tarilishi sababli rivojlangan mamlakatlarda so'nggi 40 yil ichida inflyatsiya darajasi keskin ko'tarildi.

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyada YaIMning pasayishi 2022 yilda 11,2 foizni, Ukrainada esa 45,1 foizni tashkil etadi, mazkur mamlakatlarda inflyatsiya mos ravishda 22 va 15 foizgacha o'sadi. Jahon banki iqtisodchilari 2022 yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarining YaIM yo'qotishlari 4,1 foizni tashkil etishini ta'kidlashmoqda. Bu yo'qotishlar 2020 yilgi retsessiya davriga qaraganda ikki martadan oshiqroq-ni tashkil qiladi. Tahlilchilar Yevropa va Markaziy Osiyoning barcha davlatlari Rossiya va Ukraina bilan yaqin aloqalar, jumladan, savdo, moliyaviy va migratsiya aloqalari tufayli jiddiy iqtisodiy zarar ko'rishini ta'kidlashmoqda.

Rossiya rangli va qora metallar va energiya tashuvchilarning eng yirik eksportchilaridan biri hisoblanadi, shuningdek, jahonda bug'doy eksportining to'rttdan bir qismidan ko'prog'i Rossiya va Ukraina ulushiga to'g'ri keladi, Yevropada tabiiy gazning 47 foizi, neftning 25 foizi Rossiyadan import qilinadi. Armaniston, Gruziya, Qozog'iston va Turkiya jami iste'mol qilinadigan bug'doyning 75 foizdan oshiqrog'ini Rossiya va va Ukrainadan import qiladi, xuddi shu kabi Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlarida ham hozirgi mojarolar asnosida oziq ovqat xavfsizligi bilan bog'liq jiddiy xatarlar yuzaga kelishi kutiladi. Ta'minotdagi uzilishlar, oziq-ovqat va energiya tashuvchilar narxining o'sishi butun dunyoda inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keladi. Tahlilchilarning fikricha, Rossiya va Ukrainaga dunyo eksportining atigi 3 foizi to'g'ri kelsada, xalqaro savdo yo'laklarini tashkil qilishdagi muammolar barcha tarmoq va sohalarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuningdek, Rossiyada o'z mehnat faoliyatini olib borayotgan fuqarolarning pul o'tkazmalari Qirg'iziston va Tojikistonda YaIMning qariyb 30 foizini tashkil qilsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich qariyb 11 foizga etadi. 2022 yilda bunday pul o'tkazmalari 17-22 foizgacha qisqarishi kutilmoqda. Jahon bankining bashoratlariga ko'ra, 2022 yilda Belarus Respublikasida (6,5%); Kirg'iz Respublikasida (5%); Moldovada (0,4%);

Tojikistonda (1,8%) pasayish kuzatilsa, Armanistonda (1,2%); Ozarbayjonda (2,7%); Gruziyada (2,5%); Qozog‘istonda (1,8%); O‘zbekistonda (3,6%) iqtisodiy o‘shish kutiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, jahondagi geosiyosiy vaziyatning chigal-lashishi, pandemiyaning hali davom etayotganligi, logistika va yuk tashish xarajatlarining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya tashuvchilar narxining muttasil o‘shib borayotganligi, iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq muammolarning yanada keng quloch yozishi, global inflyatsion bosimning kuchayishi kabi omillar va shart-sharoitlar iqtisodiy o‘shish muammosiga alohida e‘tibor qaratishni talab qiladi.

Dunyoda noaniqlik hukm surayotgan bir paytda dunyo hamjamiyati mamlakatlari barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish borasida o‘z dastur va rejalarini ishlab chiqib, hayotga izchil joriy qilishga intilmoqdalar. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari tajribasini o‘rganish asosida pandemiya davridan keyingi davrda mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda hatti-harakatlarni jamlashimiz lozim, degan xulosaga kelamiz:

- barcha hatti-harakatlarimizni bilimlar asosiga qurish. Bugungi kunda “**bilimlar iqtisodiyoti**”ga asoslangan milliy iqtisodiyotlarning taraqqiyotning cho‘qqisiga erishganligi hech kimga sir emas.

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar pirovard natijada aholi farovonligiga, bir so‘z bilan aytganda **inson kapitali** sifatini yaxshilashga xizmat qilishi lozim;

- butun dunyo mamlakatlari uchun ekologik xatarlar, yerlarning cho‘llanishi, tabiiy resurslar miqdorining keskin kamayib ketishi xavf solayotgan bir paytda “yashil iqtisodiyot” unsurlarini hayotga izchil joriy qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi;

- hech kimga sir emaski, hozirda dunyo tobora raqamlashib bormoqda, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot kundalik hayotimizga yanada chuqur kirib keldi, shundan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, istiqbolda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi raqamli iqtisodiyot unsurlarining qanchalik izchil joriy etilishiga bog‘liqdir;

- iqtisodiy taraqqiyotga erishish sanoatlashtirishsiz amalga oshishi mushkul ekanligini bugungi hayotning o'zi ko'rsatib turibdi, shu bois taraqqiyotga erishishni istagan mamlakat sanoat ishlab chiqarishini jadal rivojlantirishga har tomonlama intilishi lozim;

- iqtisodiy taraqqiyotga erishishning yana bir muhim sharti jadal iqtisodiy integratsiya hisoblanadi. Bu borada keyingi yillarda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan faol ochiqlik siyosatini olqishlash lozim.

Ilmiy hamkorlik, informatsion resurslardan birgalikda foydalanish, tinchlik va barqarorlik yo'lida siyosiy va iqtisodiy intilishlarni birlashtirish orqaligina pandemiyadan eson-omon chiqib olishimiz mumkin-deb yozadi Hidistonning "Tanderberd" xalqaro menejment maktabi dekani Sandjiv Xagram (Sanjeev Khagram).

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi hisoblanuvchi Taraqqiyot Strategiyasida yuqori texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish zarurati alohida ta'kidlanadi. Bugungi kunda aholini ish bilan bandligini ta'minlash, bozorni arzon va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, korxonalariga investitsiyalarni kiritish, modernizatsiyalash jarayonini chuqurlashtirish, yuksak texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish oldimizdagi asosiy vazifalardan biridir. Korxonalarni erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi darajasida barqaror rivojlantirish uchun sifatli moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, raqamli texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, raqamli iqtisodiyot bo'yicha davlatning siyosati, korxonalarining daromadlarini ko'paytirish yo'llarini asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarishida innovatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalar ,shu bilan bir qatorda, korxonalar mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga keskin talablar qo'yilmoqda. Ushbu talablarga javob berish uchun "Iqtisodiy o'sish" fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy o'sishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy o'sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sish borasida asosiy nazariy bilim va yondashuvlar, iqtisodiy rivojlanishga doir asosiy tushunchalar, iqtisodiy qonunlar va tamoyillar, iqtisodiy o'sish modellari borasida atroflicha amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada har qanday iqtisodiy siyosatning pirovard maqsadi bo'lgan iqtisodiy o'sishning asosiy tushuncha va tamoyillarini ochib berishga xizmat qiluvchi "Iqtisodiy o'sish" fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur darslik oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan magistratura talabalari uchun mo'ljallangani holda, undan professor-o'qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

I BOB. IQTISODIY O‘SISH

Shu narsa kundek ravshanki, iqtisodiy o‘shish favqulodda murakkab hodisa hisoblanadi. Barchani birdek qanoatlantiruvchi iqtisodiy o‘shish nazariyasi tabiiy resurslar, siyosiy institutlar, qonunchilik, shuningdek, bir qator ijtimoiy va psixologik omillarni inobatga olishi lozim. Bu xil keng qamrovli iqtisodiy o‘shish nazariyasini ishlab chiqishning amalda deyarli imkoni yo‘q.

Ben B. Seligmen

- 1. Iqtisodiy o‘shishning mazmuni va turlari**
- 2. Iqtisodiy o‘shishning ko‘rsatkichlari va omillari**
- 3. Iqtisodiy o‘shishni o‘lchash**

O‘zbekiston iqtisodiyoti xalqaro tashkilotlar nigohida

Jahon banki 2022 yil yanvar oyi uchun “Jahon iqtisodiyoti istiqbollari” hisobotini taqdim etdi. Unda ta’kidlanishicha, jahon iqtisodiyoti tiklanishda davom etmoqda, lekin bir vaqtning o‘zida ba’zi xavflarga ham duch kelmoqda. Koronavirus infeksiyasi qayta avj olgani, davlatlar tomonidan iqtisodiy o‘shishni fiskal rag‘batlantirish choralari susayishi va global etkazib berish zanjirlaridagi muammolar tufayli jahonda iqtisodiy o‘shish 2021 yildagi 5,5 foizdan 2022 yilda 4,1 foizgacha sekinlashishi kutilmoqda. 2022 yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy o‘shish 3 foizgacha sekinlashishi mumkin, bu 2021 yildagiga nisbatan taxminan ikki baravar kam. Bu mintaqada mamlakatlarda amalga oshirilayotgan yanada qattiqroq makroiqtisodiy siyosat va koronavirus epidemiyasi bilan davom etayotgan kurash pasaymaganligi bilan bog‘liq. Mintaqadagi markaziy banklar iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan monetar siyosatdan voz kechgach, ichki talab va mehnat bozorlari tiklanishi bilan bir vaqtda inflyatsiya bosimi ham kuchaydi. Boshqa sabablar valyutaning zaiflashuvi davom etayotgani, global ta’minot zanjiridagi muammolar va xomashyo narxlarining oshishi bilan bog‘liq. 2022 yilda Markaziy Osiyoda real iqtisodiy o‘shish 4,3 foizni tashkil qilishi mumkin. Nisbatan yuqori iqtisodiy o‘shish O‘zbekistonda (5,6%) bo‘lishi kutilmoqda. Tojikistonda 5,5%, Qirg‘izistonda 4,7% va Qozog‘istonda 3,7% o‘shish kuzatilishi mumkin. O‘zbekistondagi iqtisodiy o‘shish, xuddi avvalgidek, pandemiya davrida joriy qilingan islohotlarning kelgusida amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘lishi ta’kidlanmoqda.

BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti (UNDESA) tomonidan “Jahondagi iqtisodiy vaziyat va uning 2022 yildagi istiqbollari” hisoboti chop etildi. UNDESA ekspertlarining baholariga ko‘ra, 2021 yilda jahon iqtisodiyotining o‘shishi 5,5 foizni tashkil etgan, YaIM esa 2019 yilga nisbatan 1,9 foizga oshgan. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda YaIM 6,4 foizga, rivojlangan davlatlarda 4,8 foizga, o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda (bu guruhga O‘zbekiston ham kiradi) 4,4 foizga, kam rivojlangan mamlakatlarda esa 1,4 foizga o‘sdi. UNDESA prognoziga ko‘ra, MDH davlatlari 2022 yilda 3%, 2023 yilda esa 2,7% iqtisodiy o‘shishga erishadi. Jumladan, 2022 yilda Turkmaniston iqtisodiyoti 5,6 foiz, O‘zbekiston – 5,6 foiz, Gruziya va Armaniston iqtisodiyotlari 4,4 foizga o‘sadi. Biroq, Belarus va Rossiya Federatsiyasida iqtisodiy o‘shish mos ravishda 1,8% va 2,7% tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Iqtisodiy o‘shishning sustlashuvi iste‘mol talabining pasayishi, vaktsinatsiya jarayonining sekinlashishi, jahonda siyosiy beqarorlikning kuchayishi xavfi va MDH davlatlari markaziy banklarining cheklovchi makroiqtisodiy siyosati davom etishi bilan bog‘liq.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “IHTT davlatlarida inflyatsiya” nomli ma’ruzasiga ko’ra, koronavirusning iqtisodiy oqibatlariga qarshi kurash doirasida iqtisodiyotni rag’batlantirish bo’yicha choralar ko’rildi, bu esa pul massasining to’g’ridan-to’g’ri o’sishiga xizmat qilib, inflyatsiya kuchayishiga olib keldi. IHTT davlatlarida yillik inflyatsiya 2021 yil noyabr oyida 5,8 foizga etdi (dekabrda 6,6%). Bu 1996 yil may oyidan buyon qayd etilgan eng yuqori ko’rsatkichdir (1996 yil noyabr oyida IHTTda inflyatsiya 5,6 foizni, 2020 yil noyabrda esa 1,2 foizni tashkil etgan edi). Narxlarning oshishi IHTTga a’zo bo’lmagan mamlakatlarga ham o’z ta’sirini ko’rsatdi. Rossiyada yillik inflyatsiya 5,2 foizdan 8,4 foizgacha (2015 yildan beri rekord ko’rsatkich), Qozog’istonda 7,5 foizdan 8,9 foizgacha, Gruziyada 5,2 foizdan 13,9 foizgacha tezlashdi. Taqqoslash uchun, O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlariga ko’ra, mamlakatimizda 2020 yilda iste’mol narxlari indeksi 11,1 foizni tashkil etgan bo’lsa, u 2021 yilda 10 foizga tushgan. Oziq-ovqat mahsulotlari narxi bir yil davomida 13 foizga (2020 yilda 15,3%) nooziq-ovqat tovarlari bo’yicha – 7,8 foizga (8,8%) oshgan. Xizmatlar narxi o’tgan yilga nisbatan yuqori sur’atlarda, ya’ni 2020 yildagi 7,1 foizga nisbatan 7,7 foiz o’sdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va taraqqiyot bo’yicha konferentsiyasi (YuNKTAD) tomonidan “O’zbekistondagi investitsiya siyosatiga oid sharh” nomli hisoboti chop etilgan bo’lib, unga ko’ra 2001-2020 yillarda O’zbekiston iqtisodiyotiga jami 17,8 mlrd. AQSh dollari miqdorida to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) kiritilgan. 2019 yilda O’zbekistonga TTXI hajmi 2,3 mlrd. dollarga etib, rekord qayd etilgan, bu TTXIni jalb qilish bo’yicha Markaziy Osiyoda Qozog’istondan keyingi 2-natija. Investitsiyalarning asosiy qismi qurilish materiallari ishlab chiqarish (35%), neft va tabiiy gaz konlarini qidirish va qazib olishni yo’lga qo’yish (25%), to’qimachilik (11%) hamda qurilishga (9%) yo’naltirildi. Qishloq xo’jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek, ijtimoiy yo’naltirilgan investitsiyalar (sog’liqni saqlash, ta’lim, madaniyat) jami tushumning 5 foizini tashkil etdi. YuNKTAD ekspertlarining ta’kidlashicha, O’zbekistonda yaqin yillarda kuzatilgan ijobiy o’zgarishlar xususiy investitsiyalar va TTXI jalb qilish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va yanada mustahkamlashga qaratilgan ko’plab yangi qonunlar, me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishiga olib keldi. 2021 yilda Markaziy Osiyoda o’zlashtirilgan TTXI hajmi 10 mlrd. dollarni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 59 foizga o’sdi. Markaziy Osiyoda yangi loyihalar soni 1 foizga oshgan bo’lsada, bu ko’rsatkich pandemiyadan oldingi davrga nisbatan 3 baravar pastligicha qolmoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) yanvar oyida ETTBga a’zo mamlakatlarda raqamlashtirish jarayoni to’g’risidagi hisobotni e’lon qildi. Raqamlashtirish darajasi 4 ta komponent: mamlakatning raqamli infratuzilmasi, bilim va ko’nikmalar, AKT xizmatlarini ko’rsatish uchun zarur huquqiy baza, davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish imkoniyati bo’yicha baholandi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida raqamlashtirish indeksi bo’yicha Qozog’iston 1-o’rin (71,1 ball), O’zbekiston 2-o’rinni egalladi (52,6 ball), Qirg’iziston, Tojikiston va Turkmaniston mos ravishda 47,1, 29,7 va 23,7 ball to’pladi. Hisobotda O’zbekiston bo’yicha quyidagi ma’lumotlar keltirilgan. O’zbekiston 2020 yilda ETTBga a’zo davlatlarning raqamlashtirish bo’yicha reytingida 51 ta davlat orasida 39-o’rinni egalladi (raqamlashtirish indeksi 52,6 ballni tashkil qildi), 2015 yilgi reytingda O’zbekistonning raqamlashtirish indeksi 35 ballga teng edi. O’zbekistonning raqamlashtirish indeksiga raqamli infratuzilmaning ommaboplik komponenti salbiy ta’sir ko’rsatgan bo’lib, u 36,1 ballga baholandi. Ushbu indeksning boshqa komponentlari: AKT xizmatlari ko’rsatishning qonunchilik bazasi (44,5 ball), raqamlashtirish bo’yicha bilim va ko’nikmalarning mavjudligi (51,9 ball), davlat xizmatlarini elektron shaklda taqdim etish (77,8 ball) nisbatan yuqori hisoblanadi. Shuningdek, ETTB hisobotida 2011-2019 yillarda ETTBga a’zo mamlakatlarda raqamlashtirish darajasi yuqori bo’lgan sektorlardagi bandlik ko’rsatkichi raqamlashtirish darajasi past sektorlarga qaraganda 3 baravar tezroq o’sgani qayd etib o’tilgan. Shu bilan birga, “Covid-19” bilan bog’liq inqiroz davrida raqamli ko’nikmalarga ega bo’lgan ishchilar ko’proq ustunlikka ega

bo'lishdi, bu esa, ayniqsa, raqamli iqtisodiyoti kam rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy tafovut va ijtimoiy keskinlikni kuchaytirdi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan birgalikda 2021 yilda "Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi davlat korxonalarini to'g'risida"gi hisobotini chop etdi. Ushbu mamlakatlar orasida O'zbekiston davlat korxonalarini (DK) soni bo'yicha ikkinchi o'rinni egallagan (1735 ta). Jahon bankining baholashlariga ko'ra, O'zbekistonda band aholining o'rtacha 18%i DKda faoliyat olib boradi. Bundan tashqari, O'zbekistonda DK jami aktivlarining YaIMga nisbatan hajmi 2019 yilda 102%ni tashkil etdi (Qozog'istonda – 105%, Marokashda – 111%). 2019 yilda O'zbekistonda zarar ko'rib ishlayotgan DKlarning ulushi davlatga tegishli korxonalar umumiy sonining 10% foizini (Qozog'istonda – 30%, Tojikistonda – 40%), DK aktivlari rentabelligi – 4,2 foizni (Qozog'istonda – 3,9%, Qirg'izistonda – 3,7%) va byudjetga tushumlar ulushi YaIMning qariyb 10% foizini tashkil etgan (Qozog'istonda – 2,5%, Qirg'izistonda – 1%). O'zbekiston DKni to'g'ridan-to'g'ri kredit berish va hukumat kafilligi ostida xorijiy kreditlar orqali izchil qo'llab-quvvatlamogda, ularning umumiy qiymati YaIMning 4,2 foiziga to'g'ri keladi. 2018 yilda DKga ajratilgan aniq davlat subsidiyalari miqdori unchalik ko'p bo'lmay, YaIMning atigi 1 foizini tashkil etgan, ammo hisobotda qayd etilishicha, YaIMning 6 foizi qo'shimcha kvazifiskal taqchillik deb atalmish ulushga to'g'ri kelgan. O'zbekiston DKni boshqarish indeksida (7,5 punkt) Gruziya (7 punkt) va Qozog'istondan (6,4 punkt) yuqori o'rinni egallab turibdi. DKning moliyaviy va operatsion faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha Armaniston (3 punkt) va O'zbekiston (2,5 punkt) Markaziy Osiyo va Kavkazning boshqa mamlakatlariga qaraganda eng yaxshi natijaga ega.

“Ekonomicheskoe obozrenie” jurnali, 2022 y. № 2 son.

O'qitish maqsadi: iqtisodiy o'sish tushunchasi va iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy tushunchalar va ularniig mazmuni, iqtisodiy yondashuvlar, ikki tarmokli yondashuvlar, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari to'g'risida tushuncha, ularning mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirish.

Tayanch iboralar: iqtisodiy o'sish, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, ekstensiv omillar, intensiv omillar, talab, taklif, taqsimot, qisqa muddatli o'sish, uzoq muddatli o'sish, tabiiy resurs, moddiy resurs, moliyaviy resurs, tarmoq iqtisodiyoti, barqaror iqtisodiy o'sish.

1.1. Iqtisodiy o'sishning mazmuni va turlari

Har qanday mamlakat hukumati iqtisodiy siyosatining uzoq muddatli maqsadlaridan biri- bu shubhasiz iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Ushbu holatda qaysi omillar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va qaysi omillar iqtisodiy o'sishni cheklashi borasida aniq tasavvurga ega bo'lish lozim. Iqtisodiyot nazariyasida samarali uzoq muddatli iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, muayyan bir mamlakat

doirasida iqtisodiy o'sishning maqbul sur'atlariga erishish imkonini beruvchi iqtisodiy o'sishning dinamik modellari ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixining taniqli namoyondalaridan biri bo'lgan B. Seligmanning epigrafda keltirib o'tilgan fikri shuni angla-tadiki, iqtisodiy o'sish nazariyalarining mualliflari, taniqli iqtisod-chilar har jihatdan mukammal iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratishga da'vo qilmagan bo'lsalarda, ular keng qamrovli iqtisodiy o'sish fenomenini tushuntirishga harakat qilganlar. Shu bois, iqtisodiy o'sishning mohiyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi ahamiyatli omillarni ochib berishga qaratilgan har qanday nazariya yoki modelda muayyan bir taxmin va farazlarga yo'l qo'yiladi

Iqtisodiy o'sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o'sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo'paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi. Agar muayyan bir mamlakat iqtisodiyoti o'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'proq yalpi ishlab chiqarish imkoniga ega bo'lsa, u holda biz kengaytirilgan takror ishlab chiqarish borasida so'z yuritishimiz o'rinli bo'ladi. Aynan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish dinamikasi iqtisodiy o'sishning tabiiyatini ochib beradi. Shu o'rinda iqtisodiy o'sish nima? Uni qanday o'lchash mumkin? Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?-degan savollar tug'ilishi tabiiydir.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko'rsatkichi bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) asos bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy o'sishning muayyan davr mobaynida real YaIM hajmining ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari YaIM o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi.


YaIMning o'sish sur'atlari joriy davrdagi va o'tgan davrdagi real YaIM o'rtasidagi farqning o'tgan davrdagi real YaIM qiymatiga nisbati sifatida topiladi:

$$Y=(Y_t-Y_{t-1})/Y_{t-1} *100\%=\Delta Y_t / Y_{t-1} *100\% (1)$$

Bu yerda: Y_t - qarab chiqilayotgan davrda real YaIMning qiymati; Y_{t-1} - o'tgan davrdagi YaIMning real hajmi.

Iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real YaIM hajmining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyoti holati va dinamikasi to'g'risida ma'lumot bersada, iqtisodiy o'sishni to'liq aks ettirmaydi. Mamlakat aholisining o'sish sur'ati 3% ni, real YaIM ning O'sish sur'ati ham 3% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi YaIM hajmi o'sgan bo'lsada, kishilarning daromadlari o'zgarmay qoladi. Shu sababli iqtisodiy o'sishni to'laroq aks ettirish uchun boshqa bir ko'rsatkich — aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real YaIMning o'zgarishi qo'llaniladi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi. Ma'lumki, makroiqtisodiy barqarorlik mamlakatning YaIM da namoyon bo'ladi va u davlatning iqtisodiy qudratiga baho beradi. **2017–2021 yillarda** O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning samarali ijro etilishi orqali iqtisodiy islohotlarning yuqori natijalariga erishildi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy- iqtisodiy siyosati tubdan o'zgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o'tdi. 2021 yilda dunyo bo'yicha ayrim mamlakatlarning iqtisodiyotlarida tiklanish jarayoni boshlangan bo'lsa, ba'zi davlatlar pandemiya sababli yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozdan hali ham chiqib keta olganlari yo'q. Global miqyosda davom etayotgan pandemiya hamda iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq mavhumliklar saqlanib qolayotgan shunday sharoitida, O'zbekiston iqtisodiyoti o'z vaqtida muvofiqlashtirilgan fiskal va monetar siyosat natijasida 7,4 foiz o'sishni qayd etib, jadal ravishda tiklanishda davom etdi. Shuningdek, 2021 yil yakunlari bo'yicha e'lon qilingan Jahon banki hisobotiga ko'ra, O'zbekistonning yirik iqtisodiy hamkor davlatlarining iqtisodiyotlarida o'sish qayd etilgan. Xususan, Rossiya

Federatsiyasining iqtisodiyoti 2020 yilda 3,0 foizga qisqarganidan so‘ng, 2021 yilda 4,3 foizga o‘sganligi hisoblangan.




1.1-rasm. Dunyoning ayrim mamlakatlarida 2019-2021 yillar mobaynida iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari.

Manba: Jahon banki va O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Xalqaro valyuta jamg‘armasining yanvardagi hisoboti bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 4,5 foizga etgan. Shu bilan birga, Xitoy iqtisodiyoti 2020 yilda 2,2 foizga sekinlashgandan so‘ng, 2021 yilda, Jahon bankiga ko‘ra 8,0 foizga va Xalqaro valyuta jamg‘armasiga 8,1 foizga o‘sgan. Bundan tashqari, Jahon bankiga ko‘ra, 2021 yilda Qozog‘iston iqtisodiyoti 3,5 foizga va Turkiya iqtisodiyoti 9,5 foizga o‘sganligi qayd etilgan.

2021 yilda YaIMning nominal hajmi 734,6 trln. so‘mni yoki 69,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, qishloq ho‘jaligi YaIMning 25,0 foizini yoki 183,5 trln. so‘mni, xizmatlar 35,7 foizini yoki 262,5 trln. so‘mni, sanoat 25,8 foizini yoki 189,6 trln. so‘mni, qurilish 6,2 foizini yoki 45,8 trln. so‘mni va eksport import mahsulotlariga sof soliqlar 7,2 foizini yoki 53,2 trln. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2021 yilda YaIM tarkibida sanoatning ulushi 0,4 foizga ko‘paygan. Bungacha, 2020 yilda koronavirus inqirozi sababali sanoatning ulushi 25,7 foizdan 25,4 foizgacha kamaygan edi.


Bundan tashqari, yalpi qo‘shilgan qiymat 2021 yilda 7,5 foizga ko‘payib, 681,4 trln. so‘mni tashkil qildi. 2020 yilda yalpi qo‘shilgan qiymatning o‘shishi 1,9 foizgacha sekinlashgan va 557,8 trln. so‘mga teng bo‘lgan.



1.2-rasm. 2019-2021 yillarda YaIM hajmi va tarkibi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Shu bilan bir qatorda, 2021 yilda iqtisodiy o‘shishning asosiy drayverlari sanoat va xizmatlar sohasi bo‘lib, mos ravishda 9,2 va 8,7 foizga o‘sgan. Bundan tashqari, 2021 yilda qishloq xo‘jaligi 4,0 foizga hamda qurilish sohasi 6,8 foizga o‘sgan. Shuningdek, YaIMning 7,4 foizlik o‘shishining 3,3 foiz bandi xizmatlar va 2,2 foiz bandi sanoat sohasi hisobiga to‘g‘ri keladi. 2020 yilda pandemiya sababli, mazkur sohalarning iqtisodiy o‘shisdagi ulushi eng ko‘pkamaygan sohalar bo‘lgan. Qishloq ho‘jaligi iqtisodiyot o‘shishining 1,0 foiz bandini ta‘minlagan bo‘lsa, sof soliqlar va qurilishga o‘shishning mos ravishda 0,5 foiz band va 0,4 foiz bandi to‘g‘ri keladi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kelgusi besh yilda aholi jon boshiga YaIMni 1,6 baravarga (1750 AQSh dollaridan 2800 dollargacha) ko‘paytirish, 2030 yilga borib aholi jon boshiga daromadlarni 4000 AQSh dollaridan oshirish va O‘zbekistonni “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kiritish yetakchi maqsad sifatida belgilandi.



1.3-rasm. 2019-2021 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarining YaIMo'shidagi hissasi va dinamikasi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Bunga erishish uchun "O'rta muddatli daromadlar strategiyasi"ni ishlab chiqish rejalashtirilgan bo'lib, hujjat loyihasini joriy yilning 1 sentyabriga qadar taqdim etish ko'zda tutilgan. Strategiyada makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish maqsad qilingan. Buning uchun joriy yilda xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda kelgusi 5 yilga mo'ljallangan makroiqtisodiy prognoz, shuningdek, iqtisodiy o'sish darajasining o'rtacha 6,5 foizdan yuqori bo'lishini va inflyatsiyani 2024 yildan 5 foiz target ko'rsatkichi darajasida ushlab turishni nazarda tutuvchi 2023- 2025 yillarga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, yil davomida inflyatsiyaning monetar omillarini pasaytirish, jumladan, iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari o'sish sur'atlarini (16-18%) YaIM nominal hajmi o'sish sur'atlariga mutanosib darajada ushlab turish hamda 2-3 foizlik real ijobiy foiz stavkalari shakllanishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'riladi. Monopoliyaga qarshi siyosat,shuningdek, respublika hududlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ham inflyatsiyani jilovlashga qaratiladi va bu raqobatni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Oziq- ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishini cheklash maqsadida har yili ichki

bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha hududiy ma'muriyatlarning uni ta'minlash bo'yicha vazifalari aniq belgilab berilgan "Yo'l xaritasi" tasdiqlanadi. Shuningdek, tashqi qarzning o'sish darajasini yiliga 4,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida ushlab turish ham makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ko'mak beradi. Bunga o'rta muddatli istiqbolda davlat qarzi YaIMga nisbatan 60 foizdan oshmasligini nazarda tutuvchi davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini berish tartibini takomillashtirish orqali erishiladi va bu ish joriy yilda amalga oshiriladi.

Kelgusi besh yilda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlar davom ettiriladi. Strategiyada xususiy sektorning YaIMdagi ulushini 80 foizga, eksportdagi ulushini esa 60 foizga etkazish maqsadi qo'yilgan bo'lib, bu jarayon monopoliyaga qarshi faol siyosat bilan birgalikda olib boriladi.

Shu maqsadda joriy yilda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini liberallashtirish davom ettiriladi. Xususan, mashinasozlik, kimyo, neft-gaz, energetika, kon-metallurgiya sanoati, transport sohalaridagi 23 ta yirik korxonalar joriy yil 21 martga qadar kapital bozorlariga mustaqil chiqish va xalqaro kredit reytinglarini olish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishi kerak. 2022-2023 yillarda Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda "Farg'onaazot" AJ va "Dehqonobod kaliy kombinati" AJ xususiylashtiriladi. Xususiy biznesni rivojlantirish uchun respublika bo'ylab qo'shimcha 200 ta sanoat zonasi tashkil etilib, bunda zarur infratuzilmani etkazib berish va ularning har birida kamida 15 tadan korxonani joylashtirish ko'zda tutilgan, buning uchun 2022 yilda byudjetdan 1,5 trln. so'm ajratiladi. Sharoiti "og'ir" hududlarda faoliyati yo'lga qo'yilgan biznes subyektlar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumani, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Ko'kdala, Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor va Nishon tumanlarida, Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlarida, Toshkent viloyatining Bo'ka, Piskent, Oqqo'rg'on, Bekobod tumanlarida soliq solishning yanada qulay sharoitlari joriy etiladi.

Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tuzilmalari faoliyatini yaxshilash, ishsizlik va kambag'allik darajasini pasaytirish sohasida tuman va shaharlarda tadbirkorlikka ko'maklashadigan tuzilmalar negizida mahallalarda hokimlarning yordamchilari bilan yaqin hamkorlikda ish olib boruvchi Tadbirkorlik kengashlari tashkil etiladi. Avgustda Prezidentning tadbirkorlar bilan an'anaviy "Ochiq muloqot"ini o'tkazish rejalashtirilgan. Strategiyada 2026 yilga borib eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat ishtirokidagi kompaniyalarni xususiy lashtirish hisobiga 25 ta faoliyat turlari bo'yicha monopoliyalarni tugatish ko'zda tutilgan.

Joriy yilda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish maqsadida davlat kompaniyalarini xususiy lashtirish yo'li bilan 14 ta iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha mutlaq huquqlarni bekor qilish va bu sohalardagi monopoliyani tugatish rejalashtirilgan (aholi va ijtimoiy obyektlarga suyultirilgan gaz etkazib berish, rangli metall parchalarini ishlab chiqarish va sertifikatlashtirish xizmatlari va boshq). Energetika sohasida elektr energiyasini etkazib berishga monopoliya bekor qilinadi va ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda bozor mexanizmlari joriy etiladi. Shuningdek, neft-gaz sohasida transformatsiya jarayonlari jadallashadi. "O'ztransgaz" AJ faqat gaz tashish bilan shug'ullanuvchi kompaniyaga aylantiriladi. "O'zbekneftgaz" AJ tashkiliy-huquqiy tuzilmasi jahonning yetakchi neft-gaz kompaniyalari standartlariga muvofiq lashtiriladi. "Hududgazta'minot" AJ faoliyatiga, jumladan, iste'molchilarni gaz bilan ta'minlash tizimiga xususiy operatorlar jalb etiladi. Temir yo'l sohasida xususiy transport operatorlari faoliyati yo'lga qo'yiladi, asosiy faoliyat turiga taalluqli bo'lmagan aktivlar optimallashtiriladi va transport xarajatlari kamaytiriladi. "Raqobat to'g'risida"gi va "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonunlar birlashtiriladi, davlatning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish doirasi qonunchilik bilan aniq belgilab qo'yiladi, tabiiy monopoliyalar holatini va bozordagi ustun mavqega egalikni aniqlash mezonlari kengaytiriladi, davlat ko'magi shakllari va ularni taqdim etishga nisbatan talablar belgilanadi va raqobatni chegaralash uchun javobgarlik kuchaytiriladi. Iqtisodiy munosabatlarga erkin bozor tamoyillarini keng joriy etish

uchun xomashyo etkazib berish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlarini shakllantirishda bozor mexanizmlariga to'liq o'tish, shuningdek, ayrim tovarlar uchun belgilangan ma'muriy narxlarni bosqichma- bosqich bekor qilish nazarda tutilgan.

Shuningdek, Strategiya doirasida mamlakatdagi investitsiyaviy muhit ham izchil takomillashtirilib, 2026 yilga qadar xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb etish strategiyasi amalga oshiriladi. Kelgusi besh yilda 120 mlrd. dollar, shu jumladan, 70 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan. Davlat-xususiy sheriklik asosida 14 mlrd. dollar miqdoridagi investitsiyalar jalb qilinadi. Joriy yilda Strategiyani amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturida 2026 yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini ishlab chiqish, investitsiyalardan samarali foydalanish va "quyidan yuqoriga" tamoyili asosida eksport hajmlarini oshirish bo'yicha yangi tizimni yaratish ko'zda tutilgan.

Hududlarning xorijiy davlatlar bilan, xususan, Sirdaryo viloyatining Xitoy bilan, Surxondaryo viloyatining Rossiya bilan, Jizzax viloyatining Hindiston bilan tashqi iqtisodiy aloqalari yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari, joriy yilda hududlarda Sanoat va infratuzilmani rivojlantirish banki, Surxondaryo viloyatida "Investorlarga ko'mak markazi", Toshkent shahrida "Ilg'or loyihalar va injiniring markazi", Navoiy kon- metallurgiya kombinatida "Biznesga ko'maklashish markazi" tashkil etiladi. Toshkent shahrida har yili "Toshkent xalqaro investitsiya forumi" o'tkazib boriladi. Strategiyada raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" – iqtisodiy rivojlanish sohasiga aylantirish, uning hajmini kamida 2,5 baravarga oshirish rejalashtirilgan. 2026 yil yakuniga qadar ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizga, dasturiy ta'minot industriyasi hajmini 5 baravar, uning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 mln. AQSh dollariga etkazish maqsad qilingan. Bu yo'nalishda joriy yilda raqamli infratuzilmani rivojlantirish hisobiga barcha turar-joy massivlari, ijtimoiy obyektlar va avtomobil yo'llarini internetga keng polosali tezkor ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish rejalashtirilgan. Iqtisodiyotning real sektori va moliya sohasida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish

bo'yicha maqsadli dasturni tasdiqlash ko'zda tutilgan. Maqsadli dastur loyihalarini amalga oshirish hisobiga raqamlashtirish darajasi 30 foizga oshiriladi. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida IT-klaster tashkil etiladi. Shuningdek, "2023-2030 yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi" ishlab chiqiladi va axborot texnologiyalari sohasida 700 nafar mutaxassis tayyorlanadi.

Eksportga ko'maklashish tizimini takomillashtirish orqali 2026 yilda eksport salohiyatini 30 mlrd. dollarga etkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Eksportchi korxonalariga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimi takomillashtiriladi, buning hisobiga eksportchi korxonalar soni 6500 tadan 15000 taga, tovarlar eksporti geografiyasi esa yana 35 ta mamlakatga kengayib, 150 mamlakatga etishi kutilmoqda.

Joriy yilda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Eksportni rivojlantirish dasturi doirasida eksport hajmini 14 mlrd. dollarga etkazish rejalashtirilgan bo'lib, bunda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 32 foizdan 42 foizga ortadi, eksport tarkibida xomashyo resurslari ulushi xomashyoni qayta ishlash quvvatlarini oshirish hisobiga 34 foizdan 24 foizga kamaytiriladi, xizmatlar eksporti hajmi esa 3,3 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Sanoatning har bir sektori uchun eksportni ko'paytirish bo'yicha ish rejalari ishlab chiqiladi, "Oyko-teks", "Sedeks", "BiEsSiAy", "GOTS", "ISO 9001" va boshqa xalqaro talablarga mos standartlar joriy etiladi, "H&M", "ZARA", "LC Waikiki", "PUMA", "Reebok", "Uniqlo" kabi dunyoga mashhur brendlar mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun hamkorlikka jalb qilinadi, taniqli poyabzal brendlari buyurtmalarini jalb etish hisobiga 130 mln. dollarlik oyoq kiyimlar eksporti ta'minlanadi. Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti geografiyasi va nomenklaturasini kengaytirish bo'yicha choralar ko'riladi. Eksportda xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida joriy yildan eksportchi korxonalariga kompensatsiya va kafilliklar hamda qo'l mehnati mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonlari orqali eksport qilish xarajatlarini qoplash joriy etiladi. Bundan tashqari, yaqin xorij mamlakatlariga eksport qilinayotgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor

mahsulotlar uchun eksportchi korxonalar transport xarajatlarining bir qismini qoplab berish tizimi ham qo'llaniladi.

Strategiyada 2026 yilda qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atlarini kamida 5 foizga etkazish va ushbu sektorda band bo'lganlarning daromadini kamida 2 baravar oshirish ko'zda tutilgan. Bunga tumanlarni aniq mahsulot turini etishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, sug'urtalashning yangi mexanizmlarini joriy etish orqali erishish rejalashtirilgan. 2022 yilda qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish hisobiga mahsulot tannarxini 30-35 foizga pasaytirish, paxtadan har gektardan o'rtacha 37 tsentner va g'alladan 70 tsentner hosil olishga erishish ko'zlanmoqda.

Meva-uzumchilikda "in-vitro" laboratoriyalari va 4 ta zamonaviy ko'chatxonalar tashkil etish orqali har yili kamida 10 mln. dona virussiz ko'chatlar etishtirish maqsad qilingan. Meva-sabzavotchilikda intensiv bog'lar maydonini 1,5 baravar, issiqxonalar maydonini 1,2 baravar ko'paytirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini ikki baravar, eksport salohiyatini esa 1 mlrd. dollarga oshirish rejalashtirilgan. 129 ming gektar yangi va foydalanishdan chiqarilgan erlar o'zlashtiriladi. Hududlarda 110 ta meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari va 35 ta g'allachilik klasterlari tashkil etiladi, 25 ming gektar maydonda intensiv bog'lar va 50 ming gektarda yangi uzumzorlar barpo etiladi, chorvachilikda o'sish sur'atini o'rtacha 6,2 foizga oshirish choralari ko'riladi. 2022 yilda 2,7 mln. tonna go'sht, 12,2 mln. tonna sut, 8,2 mlrd. dona tuxum, 468,4 ming tonna parranda go'shti, 700 ming tonna baliq ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Shuningdek, joriy yilda qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, elektr energiyasi va issiqxonalarda muqobil energiya texnologiyasini joriy etish uchun yillik xarajatlarning bir qismini subsidiyalash ko'zda tutilgan. Qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimi takomillashtiriladi, "Qishloq xo'jalik sohasidagi tavakkalchiliklarni sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun qabul qilinadi.

Qishloq xo'jaligi xizmatlari tizimini takomillashtirish davom ettiriladi. Farg'ona, Samarqand, Jizzax, Andijon, Navoiy, Xorazm viloyatlarida agroxizmat markazlari tashkil etiladi va qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning xizmatlar bilan qamrab olish darajasi 30 foizgacha oshiriladi. Agrologistika markazlari soni 73 taga, ularning mahsulot saqlash sig'imi esa 1,1 mln. tonnaga etkaziladi.

Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish sohasida Urug'chilik va ko'chat etishtirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqiladi, "Qishloq xo'jaligida standartlashtirish markazi" DUK tarkibida Andijon viloyatida, shuningdek, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida xalqaro darajada akkreditatsiyaga ega zamonaviy laboratoriyalar yaratiladi. Bundan tashqari, 2022/2023 o'quv yilida kamida 200 talabani qabul qiladigan Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti tashkil etiladi.

Hududlarni rivojlantirish sohasida Strategiyada 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning besh yillik hududiy dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Kelgusi besh yilda hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyot hajmining 1,4-1,6 baravarga oshishi kutilmoqda.

Joriy yildan hududlar bilan ishlashning yangi tartibi joriy etilmoqda. Yangi tartib har bir tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini o'rganib, "o'sish nuqtalari"ni belgilab olgan holda hududlarni rivojlantirish dasturlarining har yili ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Shuningdek, 2022 yilda statistik ko'rsatkichlar va so'rovnomalar natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reytingi ham joriy etiladi. Reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar uchun ularni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora- tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi.

Hududiy rivojlanishda joylarda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini takomillashtirish katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi "Shaharlar qulayligi" indeksi joriy etiladi.

Real YaIM hajmining o'zgarishi umuman mamlakat iqtisodiyotining muayyan davr oralig'idagi rivojlanishini ifodalasa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM hajmining o'zgarishi iqtisodiy rivojlanishga kishilar turmush darajasi orqali baho berishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan YaIM ishlab chiqarish omillari — yer, kapital va mehnat resurslarining o'zaro ta'sirida shakllanadi. Bular iqtisodiy o'sishning miqdoriy omillariga kiradi (mas, foydalanilayotgan ekin maydonlarni kengaytirish YaIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi). Ushbu omillarni ishlab chiqarish jarayoniga kengroq jalb etish natijasida yuz beradigan iqtisodiy o'sish ekstensiv o'sish deb ataladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy va barcha boshqa muammolarni hal qilishning asosiy yo'li - bu milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy rivojlanishidir. Aholi farovonligini oshirib borish ham pirovard natijada iqtisodiy rivojlanish darajasi va sur'atlariga bog'liq.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarini, ijobiy va salbiy natijalarini olib notekis boradi. Iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YaMM (YaIM) hajmi va uning aholi jon boshiga ko'payishida topadi. Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil sur'at va me'yorlarda bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar jahon xo'jaligi va milliy iqtisodiyotda katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish bu yalpi milliy mahulot mutloq hajmning aholi jon boshi va

iqtisodiy resurs birligi hisobiga nisbiy miqdorining ko'payishi hamda sifat o'lchamlarining borishidir. Ishlab chiqarish natijalarining o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning mavjud texnikaviy asosi saqlanib dolgan holda iqtisodiy resurslar miqdorini ko'paytirib borish orqadi erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha huddi o'shancha korxonalar ko'riladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining yaxshilanishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirishga ishlab turgan korxonalarni rekonstruktsiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin. Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikka, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda ro'y beradi. Shu sababli ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

1.2. Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari va omillari

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lganligi sababli uni baholash uchun qandaydir bitga ko'rsatkich kifoya qilmaydi, balki muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida o'lchamdagi va klimat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi. Iqtisodiy o'sishning jismoniy o'lchamdagi ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi),

lekin universal emas, ya'ni har xil o'lchamdagi mahsulot va xizmatlarni ishlab umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin. Klimat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doim ham uni inflyatsiyadan xuliq "tozalash" mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli ko'pincha iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish quyidagi qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi:

1. YaMM (YaIM), SMM yoki milliy daromadning mutloq hajmi va ularning o'sish sur'atlari.

2. YaMM (YaIM), SMM yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'atlari.

Z.YaMM (YaIM), SMM yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga turli keladigan miqdori va uning o'sish sur'atlari.

Iqtisodiy o'sishni baholashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha.

Agar diqqat markazida mamlakat iqtisodiy salohiyati muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va hududlardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o'sish sur'ati % (foiz)da joriy yildagi real YaMM (SMM, MD) ni bazis davridagi hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bir qator kamchiliklarga ham ega.

Birinchi, ular mahsulot sifatining o'zgarishini to'liq aks ettirmaydi va shu sababli farovonlikning xaqiqiy darajasini to'liq xarakterlab berolmaydi:

- Ikkinchidan, real Ya MM va uning aholi jon boshiga o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi.

- Uchinchi, iqtisodiy o'sishni qiymat ko'rsatkichlarda miqdoriy hisoblash boshqa tomonlama uning atrof-muhitga va insonning hayot sharoitiga

salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi jismoniy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat bo'lib, ular ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda miqdori, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi va shu kabilar hisoblanadi.

1.1-jadval.

O'zbekistonda YaIM va asosiy tarmoqlar mahsulotlarining o'sish sur'atlari oldingi yilga nisbatan % hisobida

Ko'rsatkichlar	2018 yil		2019 yil		2020 yil		2021 yil	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da
Yalpi ichki mahsulot	424 729	105,4	529 391	105,7	602 193	101,9	734 588	107,4
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	379 153	105,3	484 129	105,8	557 831	101,9	681 424	107,5
<i>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	113 661	100,3	130 307	103,1	151 280	102,9	183 518	104,0
<i>Sanoat</i>	95 804	110,8	136 103	105,0	153 188	100,9	189 607	108,7
Tog' -kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	20 057	126,5	31 338	99,4	22 619	78,0	28 869	110,7
Ishlab chiqaradigan sanoat	68 972	107,9	94 750	106,6	118 251	107,9	146 734	108,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	5 870	103,1	9 055	105,1	11 220	106,8	12 633	113,0
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	905	111,3	961	102,2	1 098	99,1	1 371	82,3
Qurilish	22 101	114,3	30 595	122,9	37 548	109,5	45 802	106,8
Xizmatlar	147 587	105,2	187 123	106,0	215 816	100,7	262 496	109,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	45 576	105,9	45 263	104,7	44 362	101,6	53 164	106,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

a) Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi;

- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
- g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

1.2-jadval.

O'zbekiston milliy iqtisodiyoti tarmoqlari bo'yicha YaIM ulushining o'zgarishi (joriy baholarda YaIM ga % hisobida)

№	Tarmoqlar	Yillar			
		2018	2019	2020	2021
1.	YaIM	100	100	100	100
2.	Qishloq xo'jaligi	31,5	28,0	28,2	35,7
3.	Sanoat	26,5	29,3	28,5	25,8
4.	Qurilish	6,1	6,6	7,0	6,2
5.	Xizmatlar	35,9	36,1	36,3	25,0
6.	Sof soliqlar	11,2	8,9	7,6	7,2

Manba: Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa jismoniy ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqadigan mahsulot ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish tahlilida iqtisodiyotning ichidagi asosiy nisbat ham o'rganiladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:

- Tabiiy resurslarning miqdori va sifati.
- Mehnat resurslarining miqdori va sifati.
- Asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi.
- Texnologiya va fan - texnika taraqqiyoti.

Mamlakatimizda o'tish iqtisodiyoti davrida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda.

Ikkinchi guruh talab omillaridir. Bular:

1. Investitsion resurslar talab darajasi.

2. Aholining umumiy farovonlik darajasi.

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan to'liq foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratdi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi.

Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'lsada, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Bu avvalo, mehnat unumdorligining o'sishiga olib keluvchi omillardir.

Fan — texnik taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnik taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda, fan-texnika taraqqiyoti deyilganda, pirovard mahsulot chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyotda texnika taraqqiyoti va kapital quyilmalar (investitsiyalar) mustahkam o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti ko'pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo'yishga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo'yicha texnologiyani qo'llash uchun atom elektrostantsiyalarini ko'rish zarur bo'ladi. Birinchi qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli ro'y berish xarakteriga ega bo'ladi. Gaz va yoqilgi dvigatellari, konveyer va yig'ma liniyalar bizni hayotga o'tmishning eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi.

1.3. Iqtisodiy o'sishni o'lchash

Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potentsial ishlab chiqarish plaridarajasini uzoq muddatli ko'payishi tendentsiyasini anglatadi.

Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potentsial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o'sish muammosini o'rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi – cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga echim topiladi. Demak, iqtisodiy o'sish omillari va ular samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishini ham anglatadi. Shu sababli ham iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan o'lchanadi.

Birinchi usulda iqtisodiy o'sish real YaIMni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi.

Bunda, joriy yildagi real YaIM (Y_t) hajmining bazis yildagiga (Y_{t-1}) (asosan oldingi yilga) nisbatan foiz ko'rinishidagi o'sishi aniqlanadi, ya'ni:

$$I_o = \frac{Y_t}{Y_{t-1}} \times 100$$

Ikkinchi usulda iqtisodiy o'sish aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIMning o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi.


Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida YaIM o'rniga SIM, YaMD, SMD ko'rsatkichlaridan ham foydalanilishi mumkin. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o'sish daromadlarni qanday nisbatlarda iste'mol va investitsiyalarga bo'linishiga bog'liq deb qaraladi. Iste'mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning pirovard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o'zgarishi resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini aks ettiradi. Iste'mol va investitsiya o'rtasida etarlicha muqobilik mavjud, chunki, joriy

iste'mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromadagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi.

Iqtisodiy o'sish real kattaliklarda, qiyosiy baholarda o'lchanadi.

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish:

- **birinchidan**, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga;
- **ikkinchidan**, resurslardan samarali foydalanishga;
- **uchinchidan**, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga;
- **to'rtinchidan**, xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.



1.4-rasm. Real ishlab chiqarish hajmini oshirish yo'llari.

Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, real mahsulot ikki asosiy yo'lda ko'paytirilishi mumkin:

- 1) ko'proq resurs jalb etish;
- 2) resurslardan samarali foydalanish.

Respublikamizda hozirgi kunda texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini o'sishini aniqlab beruvchi asosiy omillar bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqt

ichida, kapitalning hajmi mutloq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o'ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta'lim va malakali tayyorgarlik, mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo'yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi.

Real voqelikda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud. Bunday omillar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- mehnat muhofazasi;
- atrof-muhit va ekologik vaziyat;
- ekologik muammolar;
- xodimlarning mehnat sharoiti;
- sog'liqni saqlash;
- tabiiy ofatlar;
- favqulodda ro'y beradigan iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun ustuvor vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda

- davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash.

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlash-tirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibli va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'рни va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Iqtisodiy o'sish iqtisodiy sohada mamlakat hukumatining faoliyat samaradorligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish tanlab olingan vaqt oralig'ida milliy ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlar

sur'atini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sishni ijobiy, nol va salbiy sur'atga ega bo'lishi mumkin bo'lgan milliy ishlab chiqarish hajmini miqdoriy aniqlash jarayoni orqali ifodalash mumkin. Iqtisodiy nazariya iqtisodiy o'sishning mohiyatini ko'rib chiqar ekan, iqtisodiy o'sish yalpi mahsulot hajmining miqdoriy o'zgarishlari orqali aks etishini uqtiradi. Ko'pgina tadqiqotchilar iqtisodiy o'sishni ko'rib chiqishda milliy ishlab chiqarish tizimidagi miqdoriy va sifat o'zgarishlarining umumiylikini tushunishni taklif qiladilar. Shu bilan bir qatorda, ustun nuqtai nazar shundan iboratki, unga ko'ra mustaqil muhim tarkibga ega bo'lgan ikkita atama ajralib turadi - iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish. Iqtisodiy o'sishning mohiyati miqdoriy o'zgarishlarni aks ettirishda ifodalansa, iqtisodiy rivojlanish esa iqtisodiyotdagi yaxshilanish va sifat jihatdan rivojlanishlarni aks ettiradi. Ko'pgina hollarda iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanish bilan birga bo'lishi kerak, ammo o'sish sifatning progressiv o'zgarishi, ishlab chiqarish hajmining ijobiy va sifat o'zgarishlari bilan birga kechmaydigan holatlar ham mavjud. Iqtisodiy o'sish-bu milliy iqtisodiyotning harakati va rivojlanishi bo'lib, eng avvalo yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni o'z ichiga oluvchi makroiqtisodiyot ko'rsatkichlari majmuining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Odatda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ikkita katta guruh: miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga ajratiladi. O'z navbatida miqdoriy ko'rsatkichlar umumiy va xususiy ko'rsatkichlarga bo'linadi. Umumiy miqdoriy ko'rsatkichlarga o'sish sur'ati va yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot va milliy daromad ko'rsatkichlari kiradi. Xususiy miqdoriy ko'rsatkichlarga mehnat unumdorligi, mahsulotlarning mehnat sig'imi ko'rsatkichlari, kapital sig'mi, fond qaytimi va fondlar sig'imi ko'rsatkichlarini kiritish mumkin. Sifat ko'rsatkichlari ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish ko'rsatkichlari, inson kapitalini shakllantirishga investitsiyalar darajasi, aholining bo'sh vaqti dinamikasi ko'rsatkichlari, jamiyatning ijtimoiy himoyalanganlik darajasi, ekologiya sohasidagi xavfsizlik va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy o'sishda miqdor va sifat ko'rsatkichlariga erishish o'rtasida ma'lum qarama-qarshiliklar mavjud

bo'lishi va namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, miqdoriy ko'rsatkich sifatida o'sish sur'atini oshirish uchun ish vaqtini ko'paytirish va ta'tillar sonini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, ushbu jarayonni amalga oshirish jamiyat a'zolari bo'sh vaqtining qisqarishiga olib keladi, pirovardida esa iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini yomonlashtiradi. Iqtisodiy o'sishning eng ko'p tarqalgan miqdoriy ko'rsatkichi YaIM o'sish sur'ati va aholi jon boshiga YaIM o'sishi ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkichlar foiz sifatida o'lchanadi. Yalpi ichki mahsulotning o'sishi yuqori, o'rta, past va hatto salbiy o'sish sur'atlariga ega bo'lishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Iqtisodiy o'sishning asosiy maqsadi milliy ishlab chiqarish hajmining izchil yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashdan iborat. Iqtisodiy o'sish tamoyillari qatorida barqarorlik, muvozanatlilik, izchillik va ko'p qirralilik, sifat, tartibga solinuvchi ekologik xavfsizlik, innovatsiyalar kabilarni sanab o'tishimiz mumkin.

Iqtisodiy o'sishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish; milliy ishlab chiqarish ko'lamini oshirish; yangi ish o'rinlari yaratish va ishsizlikni kamaytirish; daromadlar va jamiyat farovonligi darajasini oshirish; mahalliy korxonalarining rentabelligini oshirish; alohida kompaniyalar va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish; soliq bazasini kengaytirish, byudjet daromadlarini oshirish va davlatning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish; ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash borasida qulay iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, Xalqaro aloqalarni kengaytirish va jahon hamjamiyatiga izchil qo'shib borish; jamiyat a'zolarining iqtisodiy, siyosiy ta'sirini kengaytirish.

Iqtisodiy o'sishning tabiati va turiga ko'ra ekstensiv va intensiv omillarni ajratish mumkin. Ekstensiv omil ko'rsatkichlari orasida ishchilar sonining o'sishi, iste'mol qilinadigan materiallar va xom ashyo hajmi, texnika va texnologiyaning oldingi holatini saqlab, asosiy fondlarga investitsiyalarning ko'payishi kabilarni alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Intensiv omillar ko'rsatkichlari orasida FTT ning tezlashishi, mehnat unumdorligining o'sishi va ishchilar malakasi, asosiy va aylanma mablag'lardan foydalanishni yaxshilash kabilarni sanab o'tishimiz

mumkin.

Ta'sir qilish usuliga muvofiq bevosita va bilvosita omillarni ajratish mumkin. Bevosita omillar qatorida mehnat resurslari sifati, tabiiy resurslar, asosiy kapital hajmi, tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanish darajasini ko'rib chiqishimiz mumkin. Bilvosita omillarga quyidagilar kiradi: bozorlarning monopollashuv darajasi; rivojlangan bank tizimi; mamlakatdagi investitsiya va soliq muhiti; jamiyatda daromadlarning adolatli taqsimlanishi. Ekstensiv iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish jarayonlariga yangi qo'shimcha ishlab chiqarish omillarini jalb qilish orqali yalpi ichki mahsulotning milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishini ifoda etadi. Ushbu o'sishga erishish bir muncha osonroq hisoblanadi va mamlakatning ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatini nisbatan tezroq oshirishga imkon beradi. Shunday bo'lsa-da, unumdorlik va samaradorlik ko'rsatkichlarining o'zgarishsiz qolishi, fan-texnika taraqqiyotining mavjud emasligi, o'sishning xarajatli tavsifga egaligi kabi kamchiliklar ekstensiv o'sish uchun xosdir. Intensiv iqtisodiy o'sish bu mehnat unumdorligini oshirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali milliy ishlab chiqarish hajmining oshishidir. Ushbu o'sishga erishish qiyin kechishi va katta xarajatlarga bilan ajralib tursada, u bir qator afzalliklarga ega. Ushbu turdagi o'sish ilmiy va texnologik taraqqiyotni rag'batlantiradi, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va cheklangan resurslar muammosini hal qilishga imkon beradi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi, uning asosiy mohiyati va maqsadlari.
2. Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish tushunchalarining bir-biridan farqi.
3. Iqtisodiy o'sishning sifat va miqdor ko'rsatkichlari.
4. Iqtisodiy o'sish omillari va ularning tasniflanishi.
5. Iqtisodiy o'sish turlari.

Referat mavzulari:

1. Iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha mamlakatlarning tasniflanishi.

2. Fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiy o'sish.
3. Iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasi.
4. Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy omillar.
5. Iqtisodiy o'sishning demografik omillari. Migratsion jarayonlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri.
6. Geografik determinatlar va iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy o'sishga tabiiy omillarning ta'siri.

Mushohada uchun:

1. "Iqtisodiy o'sish" kategoriyasining mohiyatini ochib bering? Iqtisodiy o'sishni ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'ida aks ettiring?
2. Iqtisodiy o'sish va turmush darajasi, iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasida qanday bog'liqliklar mavjud?
3. Iqtisodiy o'sish tipi va omillarini tasniflash belgilari. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda qaysi omillarga asosiy urg'u qaratilishi lozim?

Masalalar:

1. Jadvalda keltirilgan iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish variantlarini tavsiflang. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va o'sishini qanday baholaysiz?

Iqtisodiy o'sish	Progressiv	Iqtisodiy rivojlanish O'zgarishsiz daraja	Regressiv
Ijobiy	Iqtisodiy rivojlanish asosida yoki u bilan hamohanglikda o'sish	Rivojlanishsiz o'sish	Regressiv rivojlanish sharoitida o'sish (subintensiv o'sish)
Ishlab chiqarishning o'zgarmas hajmi	O'sishsiz rivojlanish	Rivojlanish va o'sishning mavjud emasligi	O'sishning mavjud emasligi va ishlab chiqarishni amalga oshirish imkoniyatlarining yomonlashuvi
Salbiy	Pasayib borayotgan ishlab chiqarish hajmi sharoitida rivojlanish	Ishlab chiqarishni yuritish sifat darajasining pasayishsiz inqiroz	Rivojlanish darajasining pasayishi bilan kechuvchi inqiroz

2. 2005 yilda X mamlakatda milliy daromad 5000 shartli pul birligini tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda milliy daromad hajmi 200 shartli pul birligiga ko'proq bo'lgan. Mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atini aniqlang.

Yechish usuli: Iqtisodiy o'sish sur'atlari quyidagi formula bo'yicha

aniqlanadi: $n = \frac{Y_t}{Y_{t-1}}$, ma'lumotlarni o'z o'rniga qo'yib, quyidagi natijani olamiz:

$$n = \frac{(5000 + 200)}{5000} = 1,04.$$

3. Mamlakatda ishlab chiqarish funktsiyasi quyidagi formula orqali ifodalanadi: $Y = A * K^{0,4} * N^{0,6}$, bu yerda: A – Ishlab chiqarish omillarining umumiy unumdorligi. Agar, kapital yillik 3%, bandlar yiliga 2 %, omillarning umumiy unumdorligi yillik 1,5% bilan o'ssa, iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini aniqlang.

Yechish usuli: Iqtisodiy o'sish sur'ati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$n = \text{Ishlab chiqarish omillarining umumiy unumdorligi} + (\text{kapitalning o'sish sur'ati} * \text{YaIMda kapitalning ulushi}) + (\text{ish o'rinlarining o'sish sur'ati} * \text{YaIMda mehnatning ulushi}).$$

Berilgan qiymatlarni o'z o'rniga qo'yib, quyidagi natijaga ega bo'lamiz:

$$n = 1,5 \% + 3 \% * 0,4 + 2 \% * 0,6 = 3,9 \% .$$

4. Agar kapital 10%, omillarning umumiy unumdorligi 1,6 % ga o'ssa, ishlab chiqarish funktsiyasi $Y = A * K^{0,3} * N^{0,7}$ ko'rinishga ega bo'lsa, YaIMning 6 % ga o'sishi uchun iqtisodiyotda bandlar soni qanchaga ko'payishi lozim, bu yerda A – ishlab chiqarish omillarining umumiy unumdorligi.

Yechish usuli: Ish o'rinlarining o'sishini aniqlash uchun iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashning quyidagi formulasidan foydalanish lozim:

$$n = \text{Ishlab chiqarish omillarining umumiy unumdorligi} + (\text{kapitalning o'sish sur'ati} * \text{YaIMda kapitalning ulushi}) + (\text{ish o'rinlarining o'sish sur'ati} * \text{YaIMda mehnatning ulushi}).$$

Ma'lumotlarni o'z o'rniga qo'yib, quyidagi natijaga ega bo'lamiz:

$$6 \% = 1,6 \% + 10 \% * 0,3 + x * 0,7 , \text{ bu yerda } x - \text{ bandlikning o'sish sur'ati.}$$

Bundan $0,7x = 1,4$, ya'ni $x = 2 \% .$

5. A mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 2005 yilda 1600 shartli pul birligini tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda 1840 shartli pul birligini tashkil qilgan. 2006 yilda iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini aniqlang.

Yechish usuli: iqtisodiyotning o'sish sur'atlari 2006 yildagi YaIM real qiymatini 2005 yildagi real YaIM qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi: $1840 : 1600 * 100 \% = 115 \%$, ya'ni 2006 yilda real YaIM 2005 yilga nisbatan 115% ni tashkil qiladi. Yillik o'sish sur'atlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{YaIM}_{2006} - \text{YaIM}_{2005}}{\text{YaIM}_{2005}} * 100 \% = \frac{1840 - 1600}{1600} * 100 \% = 15 \%$$
, ya'ni 2006 yilda real YaIM 2005 yilga nisbatan 15%ga o'sgan.

6. Ikki yil davomida 2000 mln. shartli pul birligidan 2300 mln. shartli pul birligiga ko'paygan. Aholi soni 50 mln. kishidan 60 mln. kishigacha o'sgan. YaIM va aholi farovonligi borasida qanday o'zgarishlar yuz bergan.

Yechish usuli: YaIMning o'zgarishini aniqlash maqsadida YaIMning o'zgarishini topishimiz va uni foizlarda aks ettirishimiz lozim:

$$\frac{2300 - 2000}{2000} * 100 \% = 15 \%$$

Farovonlik aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIMni aks ettiradi. Bazis yilda u aholi jon boshiga $2000 : 50 = 40$ shartli birlikni tashkil qilgan bo'lsa, ikki yildan so'ng $2300 : 60 = 38,33$ shartli birlikni tashkil qilgan. Shu tariqa, ikki yil ichida farovonlik quyidagicha pasaygan: $\frac{38,33 - 40}{40} * 100 \% = 4,175 \%$.

7. 2004 yilda nominal YaIM 2500 shartli pul birligini, 2006 yilda 3772 shartli pul birligini tashkil qilgani holda, YaIM deflyatori ushbu davrda 150%ni tashkil etgan. Iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini aniqlang.

Yechish usuli: Dastlab 2006 yil uchun real YaIM hajmi aniqlanadi: $3772 : 1,5 = 2514$ shartli pul birligi. So'ngra, o'sish sur'atlarini aniqlaymiz:

$$\frac{(2514 - 2500)}{2500} * 100 \% = 0,56 \%$$

8. Quyidagi ma'lumotlar mavjud:

YaIMq 7200 mlrd. shartli pul birligi, iste'mol xarajatlari $S = 4200$ mlrd. shartli pul birligi, davlat xarajatlari Gq 1100 mlrd. shartli pul birligi, sof eksport Xq 100 shartli pul birligi. Quyidagilarni aniqlashtiring: a) Investitsiyalar hajmi; b) eksport 350 mlrd. shartli pul birligiga teng bo'lsa, import hajmini; v) amortizatsiya 450 mlrd. shartli pul birligiga teng bo'lganda SIM hajmini.

Yechish usuli:

a) Investitsiyalarq YaIM-davlat xarajatlari-iste'mol xarajatlari-sof eksport: Investitsiyalarq7200-4200-1100-100q 1800 mlrd. shartli pul birligi;

b) Sof eksportqeksport-import: Sof eksportq350-100q250 mlrd. shartli pul birligi;

v) SIMqYaIM-amortizatsiyaq 7200-450q6750 mlrd. shartli pul birligi.

Keys:Bashariyat oldidagi tanlov muammosi

Insoniyat oldida o'z echimini kutayotgan muammolarning keti cheksiz. OITS, ochlik, harbiy nizolar, global iqlim isishi, tabiiy ofatlar, pandemiya bu ro'yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Muammolar soni va ko'lami qanchalik katta bo'lmasin, afsuski bizning resurslarimiz cheklangandir. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi, birinchi navbatda e'tiborni nimaga qaratish lozim, qaysi muammoning echimi uchun kuch va imkoniyatlarni safarbar qilish lozim.

Bir qarashda muayyan bir muammoni hal etishga ustivorlik berilishi bir muncha erish tuyulsada, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va milliy hukumatlar juda katta miqdordagi mablag'larni muayyan muammolarni hal qilishga, muhtojlarga ko'mak ko'rsatishga yo'naltiradilar. Bunday holatda yo'naltirilayotgan mablag'lardan kutilayotgan samaraga erishilishi borasidagi savol ochiq qoladi.

G'arb ommaviy axborot vositalari Osiyodagi tsunamini keng yoritar ekanlar, xayrehsonlar daryoday oqib boradi. Pokistonda yuz bergan zilzila halokatli ko'lamlarda yuz bergan bo'lsada, bu holatga rivojlangan mamlakat-lar deyarli e'tibor qaratmaydilar. Ushbu holatda qanday yo'l tutgan ma'qul.

Bu borada maqbul yo'l mavjud. Yo'naltirilgan mablag'lardan eng yuqori navfga ega bo'lish uchun sarf-xarajatlarni amalga oshirishning ustivor yo'nalishlarini belgilab olishimiz mumkin.

Buning uchun dunyodagi ko'lami eng katta muammolarni aniqlashtirish va ularni hal etish uchun birinchi navbatdan nima qilish kerakligini anglab olish lozim. Bu "Kopengagen kelishuvi" konferentsiyasining bosh g'oyasi hisoblanadi, mazkur konferentsiyada dunyoning eng mashhur sakkiz nafar iqtisodchilari uchrashadilar, mazkur iqtisodchilarning besh nafari Nobel mukofoti laureatlari hisoblanadi.

Ushbu tadbir xuddi Olimpiada o'yinlari kabi to'rt yilda bir marta Daniya poytaxtida o'tkaziladi. Olimlar mazkur tadbir doirasida insoniyat oldida turgan asosiy muammolarni hal etish borasida samarali echimlarni izlab topadilar, birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan muammolarga asosiy e'tiborni qaratadilar.

Ushbu holatda yuqoridagi fikrlarimizni asoslash uchun atigi birgina misol keltirib o'tamiz: Janubiy-Osiyoda yuz bergan tsunami oqibatida halok bo'lganlarning soni butun dunyoda OITS / OIV kasalligidan bir oyi ichida vafot etayotganlar soniga teng. OITS / OIVdan eng ko'p aziyat chekayotgan hududlarda havfsiz jinsiy aloqa borasida ma'lumotlar taqdim etuvchi kompleks profilaktik dasturlarni amalga oshirish uchun 27 milliard AQSh dollari talab etilsada, buning

hisobiga 28 million insonning hayotini saqlab qolish mumkin bo'лади. Kopengagen kelishuvi qatnashchilarining fikricha, bu dunyodagi eng yaxshi investitsiyalardan biridir. Bunda xarajatlar qirqqa bir nisbatda o'zini oqlaydi va katta ijtimoiy navf keltiradi.

Iqtisodchilar tomonidan ma'qullangan yo'nalishlardan yana biri ochlikdan aziyat chekayotganlarga mikroelementlarga boy ozuqa moddalarini etkazib berish, erkin savdoga keng yo'l berish, moskit to'rlar va doirlar yordamida bezgakka qarshi kurashishni o'z ichiga oladi. Boshqa bir tomondan esa, Kioto protokoli kabi iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalsha oshirish, olingan natijalarga qaraganda, bir muncha katta xarajatlarni taqozo qiladi, shu bois iqtisodchilar uni zudlik bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan yumushlar ro'yxatidan chiqarib tashlaganlar.

Biz iqtisodchilarning fikriga qo'shilish yoki qo'shilmasligimizdan qat'iy nazar, biz kun tartibida turgan barcha muammolarni birdaniga hal qila olmasligimiz tayin. Shu sababli ustivorliklarni aniqlashtirib olish favqulodda muhim sanaladi.

Navbatdagi Kopengagen kelishuvida iqtisod darg'alari insoniyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal etish samaradorligini oshirish maqsadida 30 ta iqtisodiy samarasi yuqori bo'lgan loyihalar reytingini yaratishdi. Mazkur ro'yxatga murojaat qilar ekansiz, iqtisodiy mo'jizalar davri allaqachon poyoniga etganligini anglab etasiz. Olimlarning xulosa-lari agar yer yuzasida yagona butunjahon hokimiyati o'rnatilsa, birinchi navbatda, byudjet mablag'larini vitaminlarga sarflash lozimligini ko'rsatadi. Yosh bolalar va onalarni A vitamini va ruh bilan ta'minlashga atigi 1 dollar sarflansa, sarflangan mablag' inson umr ko'rish davomiyligining uzayishi va mehnat unumdorligining ortishi ko'rinishida 17 dollar iqtisodiy samara taqdim qilar ekan. Ushbu choralar global iqlim isishi, fuqroluk urushlarini ham ortda qoldirib, konferentsiya ishtirokchilari tomonidan tuzilgan ro'yxatning birinchi pog'onasini band qilgan.

Oziq-ovqat va ovqatlanish muammolarini hal etish yo'llari iqtisodiy jihatdan asoslangan loyihalar o'ntaligining beshta joyini band qilgan. Ularning hech biri iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat miqdorini ko'paytirish bilan bog'liq hisoblanmaydi, bunda asosiy e'tibor uning sifatini oshirishni ko'zda tutadi. Ro'yxatning 3-qatorida mahsulotlarni temir va yod moddalari bilan boyitish band qilgan bo'lsa, keyingi o'rinlarda ekin maydonlaridagi o'simliklarni aynan shu moddalar bilan to'yintirish, gijjalarga qarshi kurashish va insonlarni to'g'ri ovqatlantirishga o'rgatish kabilar qayd etiladi. Ovqatlanish sifatini oshirishga qo'yilmalar kasalliklarga qarshi kurashishda samarali hisoblanadi: vitaminlar dorilarga nisbatan arzon hisoblanadi, yaxshi ovqatlanadigan insonlar kamroq kasal bo'ladilar. Besh yoshgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda uchraydigan kasalliklarning 35 foizi to'yib ovqatlanmaslik va sifatsiz oziq-ovqatlar tufayli kelib chiqadi. Bolalarni majburiy emlash ro'yxatda beshinchi o'rinni egallagan.

Ovqatlanish va salomatlik sohasidagi echimlar samaradorligini hisob-kitob qilish Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan foydalaniluvchi DALY (Disability Adjusted Life Years) ko'rsatkichiga asoslangan holda amalga oshiriladi, unga ko'ra, inson o'z umrining necha yilini "kasallik varaqasi"da o'tkazishi hisob-kitob qilinadi. DALY ko'rsatkichini agar inson sog'-salomat bo'lsa, ushbu yillar davomida keltirishi mumkin bo'lgan navfni pulga chaqish orqali ham hisoblashimiz mumkin. O'z-o'zidan ayon bo'ladiki, kattalarga qaraganda, yosh bolalarning hayotini saqlab qolish, ularni sog'lom voyaga etkazish bir muncha samarali-roqdir. Shu sababli dunyo bo'yicha eng katta mablag'lar ulushi bolalar hayotini yaxshilashga yo'naltiriladi.

Agar Kopengagenlik "donishmandlar"ga ishonadigan bo'lsak, havoning ifloslanishi tufayli keng tarqaluvchi respiratorli kasalliklarga qarshi kurashishda avtomobillardan foydalanishni cheklash emas, balki qattiq yoqilg'i bilan isitiluvchi pechkalardan foydalanishni cheklash samarali hisoblanadi (23-o'rinda qayd etilgan). Dunyoda insonlarning juda ko'pchilik qismi hozirgacha ovqatni ochiq havoda tayyorlaydi va yillar davomida tutunni ichiga yutib keladi.

Mikrodarajada ham ijtimoiy muammolarning echimiga yo'l topish mumkin. Mikroqarzarlar evaziga insonlar kambag'allik domidan chiqib olishlari mumkin. Masalan insonlar motorli arra sotib olib o'z hayotlarini tubdan o'zgartirib yuborishlari mumkin. Aynan shu tufayli, Bangladeshlik mahalliy bankir Muhammad Yusuf tinchlik uchun Nobel mukofotiga loyiq

ko‘rilgan. Odatda, bunday mikroqarzarlar asosan ayollarga taqdim etilganligi bois, u ayollarning jamiyatdagi mavqeining o‘shishiga olib keladi va juda katta iqtisodiy samara beradi (reytingda 22-o‘rin).

Ushbu holatda bitta jihat e‘tiborni tortadi: “Kelishuv” ro‘yxatidagi ba’zi bir muammolar turlicha samaradorlik darajasiga ega bo‘lgan bir qancha echimlarga ega bo‘lsa, fuqarolik urushlaridan chiqishning birgina yo‘li mavjud xolos. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, tinchlikparvarlik operatsiyalari uchun 1 dollar sarflash o‘lim va yaralanishlar, shuningdek, urushning iqtisodiy oqibatlarining oldini olish ko‘rinishida 12,6 dollar iqtisodiy samara keltiradi.

Agar so‘nggi o‘n yilliklarning bosh muammosi sifatida ko‘p bor tilga olinuvchi terrorism haqida so‘z borar ekan, iqtisod ilmi daholarining ishonchi so‘nib boradi. Terrorismga qarshi kurashish borasida dunyo davlatlari juda katta mablag‘ va kuch sarflayotgan bo‘lsalarda, bu muammoni hal etishning deyarli imkoni yo‘qdek ko‘rinadi.

Savollar

1. Resurslarning cheklanganlik muammosi xalqaro ko‘mak ko‘rsatish ustivorliklarini aniqlashtirishga qay darajada ta’sir ko‘rsatadi?
2. Kopengagen kelishuvi doirasida taklif qilinayotgan xalqaro yordam dasturlarining samaradorlik darajasini qanday baholaysiz?
3. Resurslarni adolatli taqsimlash borasida siz qanday takliflarni ilgari surgan bo‘lar edingiz?
4. Keys materiallari yordamida iqtisodiy tanlov va muqobil xarajatlar tushunchalarini aniqlashtiring?

Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-“Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
3. Абдувоҳидов А.А. ва бошқалар. Инновациялар иқтисодиёти. Ўқув кўлланма.- Т.: “Мумтоз сўз”, 2020-636 бет.
4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.

9. Хажиев Б.Д., Ахмедов Д.Қ., Захидов Г.Э., Мамбетжанов Қ.Қ. Иқтисодий ривожланиш назариялари. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2018. - 428 бет.

10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.

11. Хажиев Б.Д., Абдуллаев С.О., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. Дарслик. – Т.: “Зебо юлдузлари МЧЖ”, 2018. - 417 бет.

12. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.

13. Дарон Асемоглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асемоглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова- М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).

14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018

15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.

16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.

17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.

18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018

19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. 2018

20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.

21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.

22. www.cer.uz - Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази расмий сайти.

23. www.stat.uz- Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.

24. [https://mineconomy.uz/-](https://mineconomy.uz/) Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги расмий сайти

25. [https://cbu.uz/-](https://cbu.uz/) Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий сайти.

26. <https://mf.uz/uz> - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий сайти

27. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси

28. [https://www.mininnovation.uz/-](https://www.mininnovation.uz/) Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий сайти

29. <https://uza.uz/uz> - Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий сайти

30. <https://www.worldbank.org/en/home>- Жаҳон банки расмий сайти

II BOB. SOLOU MODELI

Yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish- bu iqtisodchilar bajaradigan ishning bir qismidir. Ammo bu xato qilishdan ko'rada mushkul va ayni vaqtda maroqliroqdir.

Robert Solou

- 1. Solouning iqtisodiy o'sish nazariyasi modeli**
- 2. Solouning neoklassik modeli**
- 3. Kapital va mehnat tushunchalari**
- 4. Solouning neoklassik iqtisodiy o'sish modeli**

Taraqqiyotning ildizi ta'limda

Taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitali investitsiyalar mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida ko'riladi. Inson kapitalining jamg'arilishini va boyitilishini ta'min etish, insonlarning butun hayotiy faoliyati davomida uzluksiz ta'lim asosida o'zlarining kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirib borishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida joriy etishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida nisbat o'zgarayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Jahon banki dunyoning "141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiy qiymatidagi ulushi 64 %ni tashkil etishi va so'nggi 20 yil davomida uning hajmi 55 %ga o'sgani ma'lum bo'lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41 %ga to'g'ri keldi". Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyoti-ning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, "mamlakatlar o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 % aynan inson kapitali bilan izohlanishi" ma'lum bo'lmoqda. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy o'sish omillari o'zgarimoqda. An'anaviy omillar (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar o'rniga fan va ta'lim, ya'ni umumlashtirib aytilganda millatning intellekti bo'lgan omillar birinchi o'ringa chiqmoqda.

Har qanday milliy iqtisodiyotda inson kapitali – ishlab chiqarishning hal qiluvchi omili, milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va uning raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Aynan shu sababli ham, bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitaliga iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash-ning muhim omili sifatida qaralmoqda. Iqtisodiy o'sishning xom-ashyo manbalaridan innovatsion manbalariga o'tish milliy boylikni ko'payishini ta'minlovchi, qo'shimcha qiymat yaratishning asosiy resursiga aylanayotgan inson kapitalini birlamchi omil sifatida yuzaga chiqarmoqda. Inson kapitalining jamg'arilishi va boyitilishini ta'minlash, insonlarning butun hayotiy faoliyati davomida uzluksiz ta'lim asosida o'zlarining kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida joriy etishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Jahon banki mutaxassislarining fikriga ko'ra dunyoning barcha mamlakatlarining milliy boyliklari tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o'rtacha 16 % ni, tabiiy kapital - 20 % ni, inson kapitali - 64 % ni tashkil etadi. (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari bunday mamlakatlarda inson kapitali ulushi 80% ga etadi). O'zbekistonda bu ko'rsatkich 62 % ga teng bo'lsada uning ulushi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda pastroqdir.

Hozirda jahon miqyosida inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini aniqlash, milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish, undan samarali foydalanish, to'liq namoyon etish uchun shart-sharoitlarni yaratish masalalari mamlakatlarning xalqaro hamjamiyatdagi o'rnini, aholining munosib hayot kechirishi va barqaror rivojlanishini ta'minlash jihatidan ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada ilmiy tadqiqotlarda inson kapitali rivojlanganlik darajasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tadqiq etish, inson kapitali tarkibiy unsurlarining o'zaro munosabatini baholash, innovatsiyalarning joriy etilishi va tarqalishiga ta'sirini aniqlash, inson kapitalini rivojlantirishning samarali usullarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsion rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar qatoriga hududiy sharoitda o'zgarishlarning ko'lami, tezligi va chuqurligidagi farq ham kiradi. Shuningdek, barcha turdagi resurslarning nihoyatda notekis taqsimlanishi, ma'muriy-hududiy assimetriya, aholining turmush darajasi va sifatidagi tafovutlar, davlat tomonidan tartibga solinish modellari darajalari va boshqalar haqida ta'kidlash lozim. Har xil qarama-qarshiliklarning to'planishi va shu tariqa nomutanosibliklarning o'sishi hududning innovatsion rivojlanishidagi nomutanosibliklariga olib keladi, bu esa innovatsion rivojlanish va uni belgilovchi omillarni atroflicha o'rganishni taqozo etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida 52-maqсад sifatida: "Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish" - belgilab berilishining o'ziyiq, innovatsion iqtisodiyotni qaror toptirish masalasi milliy iqtisodiyot uchun naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda har qanday davlatda mamlakatning o'ziga xos va etarlicha samarali bo'lgan milliy innovatsion tizimini barpo qilish muhim vazifa hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, innovatsion taraqqiyotning yangi modeliga o'tish birdaniga to'planib qolgan salbiy jarayonlarni engib o'tish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish imkonini bermaydi. Yangi innovatsion taraqqiyot modeliga o'tishda innovatsion salohiyatdan foydalanishni jadallashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, innovatsion xo'jalik tizimlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga imkon beruvchi yangi xo'jalik mexanizmlarini barpo qilishga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Hozirda jahonda biznes, fan va hukumatning o'zaro aloqalariga asoslangan innovatsion taraqqiyotning to'rtta modeli mavjud bo'lib, mamlakatlar muayyan shart-sharoit va omillarni hisobga olgan holda, u yoki bu modelni tanlashni ma'qul ko'radilar. Mavjud innovatsion taraqqiyot modellarining afzalliklarini taqqoslash va ularni o'rganish asosida universitet, sanoat va davlatning o'zaro munosabatlariga asoslanuvchi, "uchlamchi spiral" modeli katta qiziqish uyg'otadi. Mazkur modelda innovatsion iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalariga katta e'tibor qaratiladi.

Inson kapitali barqaror o'sish va qashshoqlikni kamaytirish borasida hal qiluvchi kuch ekanligini tan olgan hukumatlar ham inson kapitali sifatini yaxshilash borasida davlat siyosatini ishlab chiqishlari va uni to'la-to'kis amalga oshirishlari uchun yillar va hattoki bir necha o'n yillar talab qilinishi mumkin.

COVID-19 dunyo mamlakatlarida mashaqqat bilan qo'lga kiritilgan inson kapitalining o'sishiga halokatli ta'sir ko'rsatmoqda. O'tmishdagi pandemiya va inqirozlarning sabog'i shundaki, ularning ta'siri bevosita aziyat chekkanlargagina emas, ko'pincha aholining barcha guruhlariga va aksariyat vaziyatlarda esa butun boshli avlodlarga ta'sir ko'rsatadi. Hozirda davom etayotgan inqirozdan olingan dastlabki saboq shundaki, dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun inson kapitalini tiklash va uning erishilgan darajasini qo'llab-quvvatlash uchun barcha hatti-harakatlarini birlashtirishlari talab qilinadi. Hayotning muayyan bosqichlarida, asosan, erta bolalik davridagi muvaffaqiyatsizliklar - inson kapitalini to'plash borasida ayniqsa halokatli va uzoq muddatli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bolalikda ota-onalarning daromadlari va bolalar salomatligi o'rtasidagi

bog'liqlik ayniqsa kuchli bo'ladi. Avvalgi inqirozlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, homilador ayollarning sifatsiz ovqatlanishi va ularning sog'liq darajasining yomonlashishi o'sha davrda tug'ilgan bolalarning katta bo'lganlarida kognitiv qobiliyatlarining yomonlashishi, surunkali kasalliklarga moyilligining ortishiga olib kelgan. Hozirda davom etayotgan inqiroz iqtisodiy larzalar bilan birga pandemiyaning o'tkir bosqichida tibbiy xizmat ko'rsatishdagi uzilishlar bilan bog'liq holda tibbiy xizmatlar sifatining yomonlashishida ham o'z aksini topadi. Shu tariqa, pandemiyaning davomiyligi vaqtinchalik bo'lsa ham, u uzoq yillar davomida o'z salbiy oqibatlarini ko'rsatishi mumkin.

Kambag'al oilalarning farzandlari pandemiya bilan bog'liq inqiroz-ning oqibatlariga nisbatan kurashuvchanligi boshqa oilalarning farzand-lariga nisbatan yanada past bo'ladi, bu esa mavjud tafovutni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Pandemiya paytida tug'ilgan yoki hozirda besh yoshga to'lmagan yosh bolalar uchun sog'liqni saqlash tizimidagi muvaffaqiyat-sizliklar, tibbiy yordamdan foydalanishning qisqartirilishi va oila daromadining yo'qolishi bolalar o'limi, to'yib ovqatlanmaslik va o'sishdan orqada qolish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu bois o'sishdan orqada qolish va o'qitish natijalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lgani holda, pandemiya bu xil yoshlarni o'qitish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. HCI (inson kapitali indeksi) asosida modellashtirish natijalariga ko'ra, past daromadli mamlakatlarda yosh bolalar inson kapitali darajasining bugungi kunda inson kapitalining COVID-19 mavjud bo'lmagan sharoitdagi daraja-sidan 1 foizga past bo'lishini kutishlari mumkin.

HCI, bugungi kunda tug'ilgan bolalarning kelgusi 18 yil mobaynida ushbu yosh oraliqidagi bolalar kabi bir xil ta'lim imkoniyatlari va sog'liq uchun xavfga ega bo'lishini taxmin qilib, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi yaxshilanishlarning keyingi avlod ishchilarining samarador-ligiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishga qaratilgan. HCI bolaning tug'ilishdan boshlab to katta yoshga to'lgunga qadar bo'lgan traektoriyasining asosiy bosqichlarini aks ettiradi. Dunyoning eng kambag'al mamlakatlarida bola o'z beshinchi tug'ilgan kunini ko'rmaslik borasida katta xavflar mavjud. Maktab yoshiga etsa ham, uning maktabga bormaslik xavfi saqlanib qolmoqda. Hattoki, yuqori daromadli mamlakatlarda ham 14 yillik maktab ta'limi davrining 12 yillik davrini tugallashning o'zi ham odatiy holat hisoblanadi. Maktab va o'qituvchilar sifati ham bolaning o'qish davri davomiyligiga turlicha ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Bola 18 yoshga to'lgandan keyin ham, uning bolalikda to'yib ovqatlanmaganligi, salomatlik darajasining zaifligi kabi omillar uning katta bo'lgani sari jismoniy va aqliy qobiliyatlarining cheklanishiga olib keladi.

Inson kapitalining shakllanishi nafaqat ta'lim va sog'liqni saqlashning, balki oila, nodavlat va ishlab chiqarish tashkilotlari va butun jamiyatning ta'sirini hisobga olgan holda o'zaro bog'liq jarayonlar tizimini amalga oshirish natijasidir.

Inson kapitalini tadqiq etishda uning rivojlanishida ta'limning o'rniga nisbatan ikkita yondashuvni ajratish mumkin. Inson kapitali rivojlanishiga bo'lgan birinchi "iqtisodiy" yondashuv asosida inson kapitali bugungi kunda jamiyatning qimmatbaho resursi, milliy boylukning unsuri, iqtisodiy o'sishning omili va mamlakat raqobatbar-doshligining manbai sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv doirasida milliy inson kapitalining rivojlantirishdan maqsad mos ravishda iqtisodiy o'sish, milliy boylukning shakllanishi va mamlakat raqobatbardoshligini oshirishni nazarda tutadi.

Ikkinchi "ijtimoiy" yondashuv inson kapitalining rivojlanishini mamlakat iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligining sharti sifatida emas balki, oliy qadriyat sifatida qaraydi. Unga ko'ra inson kapitalini rivojlantirishdan asosiy maqsad aholi farovonligining maksimal daraja-siga erishishdir. Bu maqsad BMT tomonidan ishlab chiqilgan inson taraqqiyoti kontseptsiyasining asosiy g'oyasi hisoblanadi. Ya'ni inson salohiyatini rivojlantirish insonlarga uzoq va sog'lom hayot kechirish, bilimlarni olish, ularni kengaytirish va yangilash imkoni, insonga munosib hayot darajasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha omillarga etishish imkonini yaratadi.

Inson taraqqiyoti kontseptsiyasining asosiy tamoyillariga asoslangan inson kapitali rivojlanishini ta'minlash mamlakatimiz uchun dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunga kelib,

mamlakatimizda barcha sohalarda chuqur islohotlar olib borilar ekan, ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishida o'rni qanchalik muhim ekanligi ayon bo'lib bormoqda.

Bugungi kundagi globallashuv jarayonlarini hisobga oladigan bo'lsak, XXI asrning asosiy qimmatbaho aktiviga aylangan, muvaffaqiyat sari intiluvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning dolzarbligi muqarrar bo'ladi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Xususan, qo'shimcha bir yil tahsil olish Djini koeffitsientini 1,4 punktga qisqartirish imkonini beradi.

Qashshoqlik, ishsizlik va ta'lim chambarchas bog'liq. buning sababi shundaki, kambag'allik bolalarning maktabga borishlariga imkon bermaydi, ularga kelgusida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarning egallashlariga to'sqinlik qiladi. Dunyo mamlakatlari tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kambag'allik chegarasida kun kechiruvchi aksariyat insonlar boshlang'ich ta'limga ham ega emaslar.

Kambag'al oilalarning bolalari ko'pincha maktabni tashlashga majbur bo'ladilar, bu esa doimiy takrorlanib turuvchi jarayon sifatida kambag'al oilalarning farzandlari yana kambag'allar safini to'ldirishiga zamin yaratadi. Sifatli boshlang'ich ta'lim butun dunyoda kambag'allikni qisqartirishning muhim omili sifatida qaraladi. Oliy ta'limning mavjudligi esa insonlarga yuqori maoshli ish topishga imkon beradi va qashshoqlik domidan chiqib olish va jamiyatning faol a'zosiga aylanishga imkon beradi.

"Birja" iqtisodiy gazetasi, #10(2893) 08.02.2022

O'qtish maqsadi: Robert Solou modelining asosiy iqtisodiy mazmunini tushuntirish, Solou modelidan foydalangan holda iqtisodiyot-dagi asosiy bog'liqliklarni aniqlashtirish.

Tayanch iboralar: ishlab chiqarish, mehnat, kapital, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy muvozanat, investitsiya, innovatsiya

2.1. Solouning iqtisodiy o'sish nazariyasi modeli

Iqtisodiy o'sish modellari tahlilidan maqsad - bu muvozanatli va barqaror o'sish uchun shart-sharoitlarni aniqlash hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy o'sishning barcha modellarida "ishlab chiqarish funksiyasi" kabi mahsulot chiqarish hajmi va sarf qilingan iqtisodiy resurslar miqdori o'rtasidagi bog'liklik aks etadi. Ishlab chiqarish funksiyasi mahsulot chiqarish hajmi (Y), asosiy kapital (K), mehnat(L) va "yer" (tabiiy va moddiy resurslar) - N miqdoriga bog'liqligini ko'rsatadi.

$$Y=F(K, L, N)$$

Iqtisodiy o'sishning barcha hozirgi zamon modellari Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi va neoklassik ishlab chiqarish nazariyasi asosiga ko'riladi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish modellari iqtisodiyotning real sektoridagi uchta asosiy bog'liklikni aks ettiradi. Bular:

➤ ishlab chiqarish funksiyasi;

- mehnat taklifi funktsiyasi;
- kapital taklifi funktsiyasi.

Makroiqtisodiy muvozanatlikning keynscha modelida funktsional bog‘liklikning uchta turi ajratilib ko‘rsatiladi:

1. Foiz stavkasi (F)ning daromad (Y) ga bog‘likligi: $R=F(Y)$. Aholi daromadlari qanchalik yuqori bo‘lsa, banklar tomonidan pulga talab va foiz stavkasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

2. Investitsiyalar hajmi (I) ning foiz stavkasi (R)ga bog‘liqligi: $I=F(R)$. foiz stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiyalar hajmi shunchalik kam bo‘ladi.

3. Daromadlar miqdorining (Y) investitsiyalar (I) hajmiga bog‘liqligi: $Y= F(I)$. Milliy daromad hajmining investitsiyalar umumiy miqdoriga bog‘liqligi multiplikator (lot - ko‘paytiruvchi) samarasi ko‘rsatkichida ifodalanadi.

Iqtisodiy o‘shning nisbatan sodda Xarrod-Domar modeli ingliz iqtisodchisi R.F. Xarrod va amerikalik iqtisodchi E.Domar tomonidan yaratiladi.

E.Domar mehnat bozorida uning ortiqcha taklifning mavjudligi va narx darajasining nisbatan doimiy bo‘lishi mahsulot ishlab chiqarish hajmi faqat yagona omil - kapital miqdoriga bog‘liq bo‘lishini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra investitsiyalarning o‘sh sur‘ati iqtisodiyotda talab va taklif ko‘payishining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

R.F.Xarrod “tabiiy”o‘sh sur‘ati tushunchasini kiritadi. Bu faol aholi soni ko‘payishi va texnika taraqqiyoti natijasida kelib chiqadigan o‘sh sur‘ati bo‘lib, u mehnat va kapital omillarining to‘liq bandligini ta’minlaydi.

Mazkur modelni ishlab chiqishda abstraktsiya usulidan foydalaniladi:

- milliy daromadning o‘shishi faqat kapital jamg‘arishning oqibati deb hisoblanadi, boshqa omillarning o‘rni e’tiborga olinmaydi;
- mahsulotning kapital sig‘imiresurslarning narxiga bog‘liq emas, u faqat ishlab chiqarishning texnik sharoiti bilan belgilanadi, deb qaraladi.

2.2.R.Solouning neoklassik modeli

Yalpi talab-yalpi taklifi modeli yordamida makroiqtisodiy jarayonlarni tahlil kilar ekanmiz qisqa davrda real YaIMni oshirish imkoniyatlari yalpi taklifning vertikal kesmasi bilan chegaralanganligi muammosiga duch keldik. To'liq bandlilik darajasiga erishilgandan so'ng real YaIM hajmini bundan keyingi ko'paytirish uchun yalpi taklif egri chizigini o'ngga siljishiga erishishimiz, ya'ni foydalanilayotgan resurslar miqdorini ko'paytirishimiz zarur.

Agar iqtisodiyotning qisqa muddatli holati ko'prok yalpi talab bilan belgilansa, uzoq davrga iqtisodiyotning rivojlanishi ko'prok ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli iqtisodiy o'sishni modellashtirishda diqqat markazida real sektor turadi.

Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potentsial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko'payishi tendentsiyasini anglatadi.

Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potentsial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishini ham anglatadi. Shu sababli ham iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan o'lchanadi.

Birinchi usulda iqtisodiy o'sish real YaIM ni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usulda iqtisodiy o'sish axoli jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM ning o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida YaIM o'rniga SIM, YaMD, SMD ko'rsatkichlaridan ham foydalanilishi mumkin. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o'sish daromadlarni qanday nisbatlarda iste'mol va investitsiyalarga bo'linishiga bog'liq, deb qaraladi.

Iste'mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning provard maksadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o'zgarishi resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi.

Iste'mol va investitsiya o'rtasida etarlicha mukobillik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromadagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kiskartiradi.

Iqtisodiy o'sish real kattaliklarda, kiyosiy baxolarda o'lchanadi..

Xar bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanishga, uchinchidan, yangi-yangi extiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan, xalkaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

2.3.Kapital va mehnat tushunchalari

Iqtisodiy o'sishning sifat omillari ham mavjud bo'lib, ularga mehnat, kapital va yer (tabiiy) resurslari unumdorligi kiradi. Sifat omillari hisobiga yuz beradigan iqtisodiy o'sish intensiv o'sish deb yuritiladi.


Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi ekstensiv o'sishning imkoniyatlarini chegaralaydi. Shu sababli resurslar cheklanganligi sharoitida intensiv o'sish samarali hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti ham intensiv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Keyingi yillarda bir qator ijtimoiy qo'rsatkichlar iqtisodiy O'sish sharti va natijasi tarzida qaralmoqda. Ishlab chiqarish sohasida - bandlikning ijobiy dinamikasi; taqsimot sohasida - aholining real daromadlari va boshqalar bir qator ko'rsatkichlar dinamikasi; ayirboshlash sohasida - savdo va umumiy ovqatlanish moddiy bazasining rivoji, chakana savdo aylanmasi dinamikasi; iste'mol sohasida - iste'molning va noishlab chiqarish jamg'arishning o'sishi shunday ko'rsatkichlarga kiradi. Iqtisodiy o'sishning asosiy ijobiy tomoni - uning ishlab chiqarish va iste'mol tuzilmasi o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatishidir.

2.4. Solouning neoklassik iqtisodiy o'sish modeli

Neoklassiklar keynschilardan farkli o'larok iqtisodiy o'sish modellarini tuzishganda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning barcha omillari, shu jumladan texnik tarakkiyot tomonidan ta'minlanadi, kapital va mehnat substitutlar, ular bir-birini alishtirishi mumkin, bozor mexanizmi va barqaror pul tizimi muvozanatni avtomatik tiklashi mumkin degan nazariy asoslarga tayanadilar. Neoklassik

modellar barcha iqtisodiy jarayonlarning aniq holatini kamrash xususiyatiga egadir.

Birinchi neoklassik model R. Solou tomonidan 1956 yilda "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga hissa" asarida tasvirlab berildi va so'ngra 1957 yilda "Texnik taraqqiyot va yalpi ishlab chiqarish funksiyasi" nomli asarida rivojlantirildi.




2.1-rasm. Solou modeli.

R.Solou modeli mutanosib iqtisodiy o'sishning zarur sharti yalpi talab va yalpi taklifning tengligi hisoblanadi. R. Solou keyns modellaridagi dinamik muvozanatning beqarorligi ishlab chiqarish omillarining o'rni almashtirish imkonining yo'qligi bilan bog'liq, deb hisoblaydi. U Leontevning ishlab chiqarish omillarining qat'iy nisbati belgilangan ishlab chiqarish funksiyasi o'rniga $Y_q \min [aX_1, bX_2]$ o'z modelida Kobba-Duglasning ishlab chiqarish funutsiyasidan foydalanadi: $Y=F(K,L)$, bunda mehnat (L) va kapital (K) substitut hisoblanadi.

Iqtisodiy tizim muvozanatining asosiy sharti bo'lib, yalpi talab va yalpi taklifning tengligi hisoblanadi. Taklif ko'lamining doimiy qaytimiga ega bo'lgan ishlab chiqarish funksiyasi $Y = A \cdot K^\alpha \cdot L^{1-\alpha}$ bilan ifodalanadi, bunda har qanday ijobiy z uchun $zF(K,L) = F(zK, zL)$ tengligi o'rinli bo'ladi. Bunday holatda agar $z=1/L$; $Y/L = F(K/L)$. Shu tariqa, bitta ishchiga to'g'ri keluvchi solishtirma ishlab chiqarishning ishlab chiqarish funksiyasiga ega bo'lamiz. Y/L ifodasini y orqali, K/L ifodasini k orqali ifodalaymiz, funktsiyaning dastlabki ko'rinishini

unumdorlik va fond bilan qurollanganlik (kapital bilan qurollanganlik) o'rtasidagi bog'liqlik ko'rinishida yozamiz: $y=f(k)$.




2.2-rasm. Solou modelida muvozanat sharti.

R.Solou bitta ishchiga to'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini kapital bilan qurollanish darajasining funktsiyasi deb qaraydi. Kapital bilan qurollanganlik darajasining o'sishi esa jamg'arish normasiga bog'liq. Jamg'arish normasining o'sishi, kapital bilan qurollanganlik darajasining oshishiga va ishlab chiqarishning yuksalishiga olib keladi.

Solou modelida yalpi talab iste'mol va investitsiya orqali ifodalanadi: $y=c+i$, bu yerda: c va i bitta band xodimga to'g'ri keluvchi iste'mol va investitsiyalar hajmi. Daromad jamg'arish me'yoriga mos ravishda iste'mol va jamg'armalarga bo'linadi, shundan kelib chiqqan holda, iste'molni quyidagicha tasavvur qilishimiz mumkin: $c=(1-s)*y$, bu yerda: s - jamg'arish me'yori.

Ushbu holatda $y=c+iq(1-s)*y+i$; bundan $i=s*y$ ifodasiga ega bo'lamiz. Muvozanat sharoitida daromadga proporsional ravishda investitsiyalar

jamg'armalarga teng bo'ladi. Talab va taklifning o'zaro tengligi quyidagicha ifodalanadi: $f(k)=c+i$ yoki $f(k)=(1-s)*y+i$



2.3-rasm. Solou modelida iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar.

Ishlab chiqarish funksiyasi tovar va xizmatlar bozorida taklifni aks ettirsa, kapitalning jamg'arilishi – ishlab chiqarilgan mahsulotga talabni ifoda etadi.

Investitsiyalar fond qaytimi va jamg'arish me'yoriga bog'liq sanaladi, bu o'z navbatida iqtisodiyotda talab va taklifning tengligi shartidan kelib chiqadi: $i=s*f(k)$. Jamg'arish me'yori k ning har qanday qiymatida mahsulot-ning investitsiyalar va iste'molga bo'linishini belgilab beradi: $y=f(k)\Rightarrow iqs*f(k), cq(1-s)*f(k)$

Amortizatsiya ajratmalari quyidagicha tarzda hisobga olinadi: agar har yili kapitalning eskirishi natijasiga uning muayyan bir belgilangan d qismi chiqib ketsa (chiqib ketish me'yori), chiqib ketish qiymati kapital hajmiga mutanosib bo'ladi va $d*k$ ga teng bo'ladi.


Ammo kapital jamg'arish normasi yukori bo'lmasa kapitalning chiqib ketishi, axoli sonining o'sishi tufayli kapital bilan qurollanganlik darajasi o'zgarimasdan kolishi yoki pasayib ketishi mumkin.

R.Soluning fikriga ko'ra, barqaror muvozanat sharoitida kapital, mehnat va milliy daromad darajasi bir xil, axoli soni o'sishiga teng sur'atda o'sib boradi. Iqtisodiyotning barqaror sharoitida bir ishchiga to'g'ri keluvchi kapital va ishlab chiqarish hajmi, ya'ni fond bilan qurollanganlik (k) va mehnat unumdorligi (y) o'zgarmasdan qoladi. Aholi sonining o'sishi sharoitida fondlar bilan qurollanganlik o'zgarmasdan qolishi uchun, kapital ham aholi sonining o'sish sur'atlarida o'sishi lozim:

$$\frac{\Delta Y}{Y} = \frac{\Delta L}{L} = \frac{\Delta K}{K} = n$$


Shu tariqa, aholi sonining o'sishi muvozanat sharoitida muttasil iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sanaladi.

Aholi sonining tez o'sishi iqtisodiyotning o'sish sur'atlari jadallashishiga ta'sir etadi, ammo barqaror muvozanat holatida axoli jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamayadi. O'z navbatida, jamg'arish normasining oshirilishi axoli jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdorini oshiradi va kapital bilan qurollanganlik koeffitsientini ko'tarilishiga olib keladi, lekin barqaror holatdagi o'sish sur'atiga ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli barqaror holatdagi iqtisodiy o'sishning yagona sharti texnik tarakkiyotning o'sish sur'ati hisoblanadi.



2.4-rasm. Solou modelida jamg'arish me'yori.

Model asosida jamg'arishning "oltin qoidasi" yotadi. E.Felpsning "oltin qoidasi" mohiyati shundaki **jamg'arishning shunday optimal normasi mavjudki, u iste'molning maksimal darajasida muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.**



2.5-rasm. Solou modelida jamg'arishning oltin qoidasi.


R.Solou modeli iqtisodiy o'sishning uch manbai- investitsiyalar, ishchi kuchi soni va texnik tarakkiyotning o'zaro aloqasini ochib berish imkonini beradi. Davlat iqtisodiy o'sishga jamg'arish normasi hamda texnik taraqqiyotning tezligiga ta'sir etish bilan jadallashtirishi mumkin.

Solou modelida texnologik taraqqiyotni hisobga olish dastlabki ishlab chiqarish funksiyasining ko'rinishini o'zgartiradi, chunki mazur o'rinda texnologik taraqqiyotning mehnat tejoychi shakli ko'zda tutiladi. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: $Y=F(K,L*E)$, bu yerda: E- mehnat samaradorligi, $(L*E)$ - doimiy mehnat samaradorligi E ga teng bo'lgan sharoitda shartli mehnat birliklari soni. E qanchalik katta bo'lsa, mavjud xodimlar soni bilan shuncha ko'p mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo'ladi. Texnologik taraqqiyot doimiy g sur'atda mehnat samaradorligi E ning o'sishi orqali ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda mehnat samaradorligining o'sishi bandlar sonining o'sishi hisobiga erishiluvchi natijaga o'xshash bo'ladi: agar

texnologik taraqqiyot $g=2\%$ sur'atga ega bo'lsa, 100 nafar ishchi avvallari 102 nafar ishchi ishlab chiqargan mahsulotni ishlab chiqarish imkoniga ega bo'ladi. Agar bandlar soni (L) n sur'at bilan o'ssa, mehnat samaradorligining o'sish sur'ati g ga teng bo'lsa, u holda $(L*Y)$ ning o'sish sur'ati $(n+g)$ ga teng bo'ladi.

Tahlil sohasiga texnologik taraqqiyotning kiritilishi sosiy faraz-lar saqlanib qolsada, barqaror muvozanatli holatni tahlil qilishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Agar k- doimiy samaradorlikka ega bo'lgan mehnat birligiga to'g'ri keluvchi kapital miqdori deb olsak, u holda samarali mehnat birliklarining o'sishi bandlar sonining o'sishiga o'xshash bo'ladi (doimiy samaradorlikka ega bo'lgan mehnat birliklarining ko'payishi bitta shunday birlikka to'g'ri keluvchi kapital miqdorini kamaytiradi). Muvozanat sharoitida fond bilan qurollanganlik darajasi k^* muvozanatning uzoq muddat davomida saqlanib turishiga sharoit yaratadi: $S*\Delta k=(d+n+g)*k$.

Texnolik taraqqiyot sharoitida barqaror muvozanat holatida (k^*) umumiy kapital hajmi (K) va yalpi ishlab chiqarish hajmi (Y) $(n+g)$ sur'atlarda o'sa boshlaydi. Biroq, aholi o'sishidan farqli o'laroq, bir ishchiga to'g'ri keluvchi fond bilan qurollanganlik K/L va ishlab chiqarish Y/L g sur'atda o'sadi, bu esa o'z navbatida aholi farovonligini oshishiga xizmat qiladi. Solou modelida texnologik taraqqiyot aholi turmush farovonligini oshirishning yagona sharti hisoblanadi, chunonchi texnologik taraqqiyot mavjudligi sharoitida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarishning o'sishini kuzatishimiz mumkin.



2.6-rasm. Solou modelida ilmiy-texnik taraqqiyot.

Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potentsial ishlab chiqarish potentsial YaIM hajmining uzoq muddatli ko'payishi tendentsiyasini anglatadi.

U o'sish ishlab chiqarish natijalari va omillarida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarini tavsiflaydi.

Iqtisodiy o'sish real YaIM ning, yoki axoli jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM ni o'sish sur'ati bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy o'sish taklif, talab va taksimot omillari bilan belgilanadi.

Iqtisodiy o'sishni belgilovchi talab omillariga tabiiy resurslar soni va sifati, mexnat resurslari soni va sifati, kapital, texnologiya va boshqalar kiradi.

Bulardan foydalanish usuliga ko'ra iqtisodiy o'sish ekstensiv va intensiv turlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish resurslar miqdorini o'zgartirmagan holda o'ssa, intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish modellari deganda iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda foydalaniladigan, ularning manbalarini aniqlash va qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi modellar tushuniladi.

Keynschilar (Xarrod, Domar) modellarida iqtisodiy o'sishning asosiy omili investitsiyalar deb qaraladi. Jamg'arish normasini ko'tarish orkali investitsiyalarni ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sish sharti deb qaraladi.

Klassik modellarda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning barcha omillariga bog'liq, mexnat va kapital o'zaro almashiniladi deb qaraladi. Shunga ko'ra kapitalning ma'lum darajasida mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi, o'z navbatida ishlab chiqarish hajmi ham turlicha bo'ladi.

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Neoklassik yo'nalishda inson doimo o'z foydasini maksimal darajada oshirishga intiluvchi oqilona mavjudot sifatida qaraladi. Bundan tashqari, tadbirkorlar, uy xo'jaliklari va yollanma ishchilar jismoniy shaxs sifatida qaraladi. Narx talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish doirasida, shuningdek, ma'lum bir tovar shaxsga olib kelishi mumkin bo'lgan marjinal foyda nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Neoklassiklarning klassiklardan asosiy farqi shundaki, ular narx ishlab chiqarish taklifi orqali emas, balki talab tufayli shakllanadi, deb uqtiradilar. Neoklassiklar, shuningdek klassik siyosiy iqtisod vakillari kabi iqtisodiy liberalizm va erkin raqobat pozitsiyasiga rioya qilishadi. Ya'ni ular iqtisodiy jarayonlarga davlatning har qanday aralashuvini qoralaydilar. Shu bilan birga, neoklassiklar matematik usullar va miqdoriy tahlilni qo'llash orqali amaliy muammolarni hal qilishga intilishadi. Mazkur o'rinda hozirgacha ham, iqtisodiy nazariyaga tegishli masalalarga katta e'tibor berib kelinmoqda. Neoklassik maktab cheklangan resurslar sharoitida jamiyat ehtiyojlarini to'laqonli qondirish masalalari bilan shug'ullanadi. Neoklassiklar ushbu yondashuvni mikroiqtisodiy tizimlarga – uy xo'jaliklari va korxonalariga nisbatan qo'llaydilar.

Zamonaviy iqtisodiyot neoklassik tendentsiya asosida qurilgan deb aytishimiz mumkin. Aksariyat olimlar ko'plab unsurlarni o'z ichiga olgan eng

murakkab iqtisodiy jarayonlarni tavsiflash uchun modellashtirish uslubiga murojaat qiladilar. Bunday tuzilmalarni yaratish va ulardagi qonuniyatlarni kuzatishni soddalashtirish uchun iqtisodchilar ba'zi taxmin va umumlashmalardan foydalanadilar. Iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadigan jarayonlar olimlarning katta e'tiborini tortdi. Shunday qilib, iqtisodiy tizimda ijobiy tendentsiyalarni shakllantirish sabablari va usullarini tushuntirishga harakat qiluvchi modellardan biri- bu Solou modeli hisoblanadi. Solou modeli – bu tashqi texnologik taraqqiyotning ta'sirini, shuningdek ishlab chiqarish omillari-kapital va ishchi kuchining ta'sirini hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishni tahlil qilishni nazarda tutadi. Ushbu modelning quyidagi uch asosiy maqsadini ajratib ko'rsatish mumkin: barqaror va yuqori iqtisodiy o'sish usullarini izlash; iste'mol hajmini maksimallashtirish; demografik o'sish omillarining ta'sirini tahlil qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish. Kapital bilan qurollanganlik darajasini hisoblash uchun ishlab chiqarish funksiyasini $y=F(k)$ mehnatga bo'lish kerak, bu yerda $k=K/L$, bitta mehnat birligiga kiritilgan (qo'yilgan) kapitalning qiymatiga ega bo'lamiz. Ushbu holatda daromadni faqat kapital bilan qurollanganlik darajasiga bog'liq holda ko'rib chiqish mumkin. Kapital qaytimining hajmini y egri chizig'ining siljishi orqali kuzatish mumkin, bunda bitta xodimning kapital bilan qurollanganlik darajasi oshsa, ishlab chiqarish hajmining o'sishini kuzatish imkoniga ega bo'lamiz. Solou ne'matlarga bo'lgan talabni investorlar va xaridorlar belgilab beradi, degan fikrni ilgari suradi. Shu bilan birga, muvozanat holatida yaratilgan archa ne'matlar to'liq sotiladi va omborlarda moddiy va ishlab chiqarish zahiralari qolmaydi. $I=s(k)$ bir ish birligiga to'g'ri keluvchi investitsiyalar funksiyasi. Ta'kidlash joizki, vaqt o'tishi bilan kapitalning unumli qaytimi kamayib boradi, shuning uchun tadbirkorlar o'z kapitalini to'ldirishga harakat qiladilar. Kapitalning mehnatga nisbatining o'sishi har doim kapitalnig chiqib ketishi bilan yuz beradi, bu holatga yo'l qo'ymaslik maqsadida investitsiyalar oqimini ko'paytirish talab qilinadi. Solou modelida iqtisodiy muvozanatga kapital chiqib ketishi, iste'mol darajasi va investitsiya hajmi ko'rsatkichlarining o'sishi to'xtagandagina erishiladi. Ushbu holat yuqorida sanab o'tilgan uchta

ko'rsatkichning barqarorlashishi asnosidagi kapital bilan qurollanganlikning chegaraviy darajasi deb ataladi. Iqtisodchilarning asosiy vazifasi iqtisodiy siyosat sohasidagi amaliy muammolarni hal qilish uchun echim topishdir. Solou modeli iqtisodiy o'sishning hozirgi sur'atlarida jamiyatning iste'mol qobiliyatini maksimal darajada oshiradigan ishlab chiqarish darajasini topishga yordam beradi. Ushbu model jamg'arishning oltin qoidasi deb ham ataladi. Chegaraviy iste'mol kapital bilan qurollanganlikning barqaror ko'rsatkichi sharoitida ishlab chiqarish va kapitalning chiqib ketishi o'rtasidagi maksimal farqqa erishilganda qaror topadi. Ko'rinib turibdiki, iste'molning maksimal hajmiga kapitalning chegaraviy rentabelligi ishlab chiqarishning o'sish sur'atiga teng bo'lgandagina erishish mumkin. Kapitalning chiqib ketishi kabi demografik o'sish omili ham o'sish imkoniyatlarini cheklaydi. Xodimlar sonini ko'paytirish bitta xodimning mahsuldorligini pasaytiradi. Ushbu yo'qotishlarni qoplash uchun aholi o'sishini hisobga olgan holda investitsiyalar hajmini oshirish talab qilinadi. Iste'mol hajmi ham kamayishga moyil bo'ladi. Solou modeli shuni ko'rsatadiki, aholi o'sishining yuqori darajasi bilan kapital bilan qurollanganlik darajasi pasayadi, bu esa kishi boshiga to'g'ri keluvchi daromdaning pasayishini anglatadi. Texnologik taraqqiyot, birinchi navbatda, mehnatning ishlab chiqarish qaytimiga ta'sir qiladi. Solou modeliga ko'ra, ishlab chiqarishda foydalaniluvchi texnologiyalarning murakkablashishi va takomillashishi uzoq muddatli istiqbolda investitsiyalar, kapital va samaradorlikni muvozanatlashtirishi mumkin.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy o'sish modellarini tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalardan iborat?
2. Iqtisodiy o'sish jarayonlarini tahlil qilishda Solou modelining ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
3. Iqtisodiy o'sishning Solou modelida tahlil sohasiga kiritilgan asosi iiiiitiiy determinantlar nimalardan iborat, ularning har biriga alohida to'xtalib o'ting?

4. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda fan-texnika taraqqiyotining o'rnini nimalarda namoyon bo'ladi?

Referat mavzulari:

1. Robert Solouning iqtisodiy o'sish modeli.
2. Solou modelida texnologik taraqqiyot va iqtisodiy o'sish.
3. Aholi soni va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.
4. Solou modelida investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlili.
5. Solou modelida jamg'armalar va investitsiyalar. Jamg'arishning oltin qoidasi.

Mushohada uchun:

Solou modelidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda iqtisodiy o'sish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatiga baho bering.

Masalalar:

1. Muayyan bir mamlakat iqtisodiyotida birinchi yilda 10 mln. kishi band bo'lgani holda, ularning har biri o'rtacha 1000 birlik mahsulot ishlab chiqaradi. Ikkinchi yilda bandlar soni o'zgarmagani holda, ishchilar avvalgiga nisbatan 50 birlik ko'p mahsulot ishlab chiqara boshladilar. Uchinchi yilda iqtisodiyotga qo'shimcha 1 mln. nafar ishchi jalb qilindi va ularning har biri 1050 birlik mahsulot ishlab chiqara boshladilar. Quyidagilarni hisoblang:

a) yillar bo'yicha YaIM hajmi;

b) YaIMning intensiv va ekstensiv omillar hisobiga o'sishi.

Yechish usuli:

a) YaIMni hisoblash uchun iqtisodiyotdagi bandlar sonini mehnat unumdorligiga ko'paytirish lozim:

Yil	Bandlar soni (mln. kishi)	Mehnat unumdorligi (pul birligi)	YaIM (mlrd. pul birligi)
1	10	1000	10
2	10	1050	10,5
3	11	1050	11,55

b) Ikkinchi yilda YaIMning o'sishi mehnat unumdorligi, ya'ni intensiv omillar hisobiga amalga oshgan:

$$\frac{YAIM_{2-yil} - YAIM_{1-yil}}{YAIM_{1-yil}} * 100 \% = \frac{(10,5 - 10)}{10} * 100 \% = 5 \% .$$

Uchinchi yilda YaIMning o'sishi iqtisodiyotda bandlar sonining o'sishi, ya'ni ekstensiv omillar hisobiga amlga oshgan:

$$\frac{YAIM_{3-yil} - YAIM_{2-yil}}{YAIM_{2-yil}} * 100 \% = \frac{(11,55 - 10,5)}{10,5} * 100 \% = 10 \% .$$

2. Muayyan bir vaqt mobaynida X davlat iqtisodiyotida korxonalar soni 180 dan 252 tagacha ko'paydi, kapitalning unumdorligi 100 dan 110 birlikka oshdi. Iqtisodiyotda YaIMning o'sish sur'atlarini aniqlang.

Yechish usuli: Davr boshiga va davr oxiriga YaIM hajmini aniqlaymiz: $YAIM_1 = 180 * 100 = 18000$ pul birligi, $YAIM_2 = 252 * 110 = 27720$ pul birligi. YaIMning o'sishi: $27720 - 18000 = 9720$ pul birligi. O'sish sur'ati $\frac{9720}{18000} * 100 \% = 54 \% .$

3. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha ifodalangan: $Y=K^{1/2}L^{1/2}$. Jang'arish me'yori s 0,2 ga teng, chiqib ketish me'yori $d=5\%$, aholining yillik o'sish sur'ati $n=2\%$, resurs tejankor texnologik taraqqiyotning o'sish sur'ati $g=3\%$. Barqaror vaziyatda bir ishchiga to'g'ri keluvchi kapital zahirasi a ishlab chiqarish hajmi nimaga teng bo'ladi? Fondlar bilan qurollanganlik darajasi eng yuqori iste'mol hajmi ta'min etiluvchi ("oltin qoida") darajasiga mos tushadimi? "Oltin qoida"ga ko'ra, jang'arish me'yori qanday bo'lishi kerak?

Yechish usuli:

Ishlab chiqarish funksiyasini L ga bo'lib, uni o'zgartiramiz. Hamma ko'rsatkichlarni bitta ishchi hisobida olamiz va quyidagilarga ega bo'lamiz:

$$Y/L = (K^{1/2}L^{1/2})/L = \sqrt{(K/L)} = \sqrt{k}, \text{ bu yerda } k=K/L$$

Iqtisodiyotning barqaror holati shartiga muvofiq, investitsiyalar chiqib ketish ko'rsatkichiga teng bo'lishi lozim, ya'ni $iqdk$, yoki $syqdk$, yohud $s\sqrt{k}qdk$.

Texnologik taraqqiyot va aholi o'sishini hisobga olgan holda, formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: $s\sqrt{k} = (d+n+g)k$.

Ushbu formuladan k ni topamiz: $\sqrt{k}=s/(d+n+g)$.

Tegishli ko'rsatkichlar qiymatini belgilangan joylarga qo'yib, $k=4$, $y=2$ qiymatlariga ega bo'lamiz.

“Oltin qoida” shartiga ko'ra $MPK=d+n+g$.

Kapitalning chekli mahsuloti (MRK) ni $y = \sqrt{k}$ funktsiyasining hosilasi sifatida e'tiborga olamiz. U $y' = 1/2\sqrt{k}$ teng bo'ladi. Bunda $1/2\sqrt{k} = d+n+g = 0,1$, bu eradan $\sqrt{k}=5$, $k=25$.

Shu tariqa, fon bilan qurollanganlikning boshlang'ich darajasi k^q iste'molning eng yuqori darajasiga erishish shartiga mos kelmaydi. “Oltin qoida” ga ko'ra, jamg'arish me'yori bir muncha yuqori bo'lishi lozim. “Oltin qoida” sharoitida iqtisodiyotning holati barqaror bo'lishi borasidagi qoidadan kelib chiqqan holda, jamg'arish me'yorini topamiz: $s_y = (d+n+g) k$, bundan $s = ((d+n+g) k)/y = ((d+n+g) k) / \sqrt{k}$.

Ko'rsatkislarni o'z o'rniga qo'yib quyidagilarga ega bo'lamiz: $\sqrt{k} = 5$, $k = 25$, $s = 0,5$.

Shu tariqa, “oltin qoida” ga ko'ra, jamg'arish me'yori 0,5 yoki 50%ga teng bo'lishi lozim. U boshlang'ich davrda 20 %ga teng bo'lgan edi.

3. Milliy daromadni ishlab chiqarish quyidagi ishlab chiqarish funktsiyasi bilan tavsiflanadi: $y_t = L_t^{0,5} K_t^{0,5}$. t_0 davrda xo'jalik muoamalasiga 10 birlik mehnat va 640 birlik kapital jalb qilingan. Mehnat resurslarining o'sish sur'ati tahlil qilinayotgan davrda 3 %ga teng.

1. Solou modeliga ko'ra, muvozanatli o'sish amalga oshishi uchun mazkur iqtisodiyotda jamg'arma me'yori qanchaga teng bo'lishi lozim? Muvozanatli o'sish sur'ati qanday bo'ladi?

2. Jamg'arish me'yori 50 % bo'lgan sharoitda dastlabki holatda kapital hajmi nimaga teng bo'lishi lozim?

Yechish usuli:

1.Solou modelida muvozanatli o'sish sharti $s_y = nk$. Tahlil qilinayotgan iqtisodiyotda kapital bilan qurollanganlik $k = K/L = 640 / 10 = 64$. Bitta ishchiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish quyilagiga teng $y = k^{0,5} = (64)^{0,5} = 8$. Bundan $s =$

$nk/y = 0,03 \cdot 64/8 = 0,24$. Muvozanatli o'sish sur'ati aholining o'sish sur'ati $n = 3\%$ ga teng.

2. Solou modelida muvozanatli o'sish sharti $sy = nk$. Jamg'arish me'yori $s = 0,5$ bo'lganda, mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi quyidagiga teng bo'ladi: $k = sy/n = 0,5k^{0,5}/0,03$. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz: $k^{0,5} = 0,5/0,03$ $k = (0,5/0,03)^2$. Bundan $K = 10 \cdot (0,5/0,03)^2 = 2777,8$ birlik.

Keys:Singapur mo'jizasi

O'tgan asrning 60-yillarida Afrikadagi qashshoq davlatlar qatorida e'tirof etilgan Singapur keyingi 50 yil ichida rivojlanish strategiyasida favqulodda jadal o'sish sur'atlarini qayd etdi. Qisqa muddat ichida ulkan iqtisodiy, moliyaviy va inson kapitalini jamlashga muvaffaq bo'lgan mazkur davlat taraqqiyotining asosiy omillari nimada?

Mustamlakachilik zulmi ostida uzoq vaqt jabr ko'rgan va o'tgan asrning 60-yillarida qashshoq davlatlar qatorida bo'lgan Singapur bir qancha omillardan unumli foydalanish evaziga favqulodda jadal o'sish sur'atlariga erishdi.

Qisqa muddat ichida Osiyo mintaqasi va dunyo siyosiy maydonida muhim rol o'ynash darajasiga ko'tarildi.

Ko'pchilik mutaxassislar va ekspertlar 1965 yilda mustaqillikni qo'lga kiritgan Singapur yaqin kelajakda demografik tanglik va ishsizlik muammosiga duch kelishini prognoz qilishardi. Bu kabi qarashlarning yuzaga kelishiga ikki sabab bor edi.

Birinchi, Singapurning iqtisodiy imkoniyatlari va siyosiy tuzumi haqida G'arbda salbiy kayfiyat yuzaga kelgandi.

Ikkinchi, Singapur amalga oshirayotgan eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirishning afzalliklari fanda nazariy jihatdan hali to'liq asoslanmagandi.

Bundan tashqari, har bir davlat farovonlikka erishishni maqsad qilib olar ekan, birinchi o'rinda o'z rivojlanish strategiyasini tanlab oladi. Bunda ushbu maqsadga erishish uchun turli omillar bor edi. Shunday omillardan biri – bu etuk boshqaruvchilikka, siyosiy bilimga va mahoratga ega bo'lgan yetakchining bo'lishidir. XX asrning ana shunday siyosiy arboblardan biri bu Li Kuan Yudir.

Mutaxassislar Li Kuan Yuni g'ayrat-shijoatda, tafakkur va jasoratda bir vaqtlar o'zining mashhur "Ochiq eshiklar siyosati" bilan Xitoy iqtisodini baland cho'qqiga olib chiqqan, yalpi ichki mahsulotning bardavom o'sishini ta'minlagan Den Syaopinga qiyoslashadi. Singapur bosib o'tgan yo'lga e'tibor bersak, bu qiyosning g'oyat o'rinliligiga ishonch hosil qilamiz.

– Mendan qisqa vaqt ichida Singapur qanday qilib dunyoning rivojlangan mamlakatiga aylangani haqida so'rashadi, – deydi Li Kuan Yu. – Men ularga "Bu yerda hech qanday sir yo'q, mo'jiza yaratganim ham yo'q. Shunchaki Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos", deb javob beraman. Ishni shunday tashkil qildimki, davlat byujetining katta qismini ta'lim sohasiga yo'naltirdim. Muallimlar mavqeini jamiyatning quyi tabaqasidan yuqori martabaga ko'tardim. Bizda mo'jiza yaratgan kishilar, shubhasiz, muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnatni sevadigan, haqiqatni qadrlaydigan yangi vatanparvar, ayni chog'da kamtarin avlodni tarbiyalab etishtirdilar.

Mamlakat aholisi 5 million kishi. Erkaklar o'rtacha 80, ayollar 85 yosh umr ko'rishadi. Biznes bilan shug'ullanish sharoiti bo'yicha jahon Doing Business reytingida Singapur 1-o'rinda turadi. Li Kuan Yu mamlakat bosh vaziri bo'lib ishlagan 1965–1990 yillarda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishi o'rtacha 9,2 foizni tashkil etgan. YaIM aholi jon boshiga 400 AQSh dollaridan 12,2 ming dollargacha ko'tarilgan. 2014 yilda bu ko'rsatgich 81364 dollarga teng bo'ldi. Singapur raqobatdoshlik bo'yicha 2015 yil ma'lumotlariga ko'ra, Shveysariyadan keyin

ikkinchi o‘rinda turadi. Bundan ko‘rinadiki, Singapurda, garchi buni janob Li Kuan Yu e’tirof etmasa-da, chinakam “mo‘jiza”, farovonlik sari “buyuk sakrash” yuz bergan. Davlat arboblari, siyosatdonlari iqtisodchilarni ayni shu fenomenning siri qiziqtiradi.

O‘tgan asrning etmishinchi yillarida AQSh rahbari Richard Nikson, siyosatshunos Genri Kissinjer, keyinchalik Oq uyga kelgan mamlakat prezidentlari singapurlik donishmand hayoti va davlatni boshqarish siyosatiga jiddiy qiziqishgan, imkoni bo‘ldi deguncha, Li Kuan Yu bilan uchrashib, suhbatlarini tinglashgan. Margaret Tetcher Singapur rahbarining nutqlarini o‘qib chiqib, u hech qachon xato qilmasligiga amin bo‘lganini aytadi. “Li Kuan Yu Singapurni uchinchi dunyodan birinchi dunyoga olib chiqishga muvaffaq bo‘ldi”, degan edi BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan. G.Kissinjerning fikri yanada muhim: “Favqulodda iste’dodli odamlar o‘rtamiyona tafakkur bilan tuzilgan rejalarni o‘zgartirib yuborishganiga tarix ko‘p bor guvoh bo‘lgan. Singapur davlatchiligi asoschisi Li Kuan Yuga kelsak, bunda voqealar rivoji bilan bog‘liq vaziyat hamda individuallik o‘rtasidagi azaliy raqobatda shaxsiyat mutlaqo g‘olib bo‘lganini ko‘rish mumkin”.

AQShning sobiq Prezidenti Barak Obama Singapur rahbarini Osiyoning XX-XXI asrlardagi afsonaviy shaxslaridan biri deb hisoblaydi. Chunki u o‘zining aql-zakovati bilan Osiyo iqtisodiy mo‘jizasini yuzaga keltirdi. Frantsiyaning sabiq Prezidenti Jak Shirak shunday yozadi: “Li Kuan Yu hukumat tizimida g‘oyat muhim talablarga javob bera oladigan standartlarni shakllantirib, atrofiga yuksak malakali aql-idrok egalarini to‘pladi. Uning rahbarligida umumiy manfaatlarining ustuvorligi ta‘minlandi, ta‘lim, mehnat va jamg‘arma madaniyati, shahar ehtiyojlarini oldindan ko‘ra olish salohiyati yuzaga keldiki, bu holat Singapurga yuksalishning eng qisqa va samarali yo‘lidan borish imkonini berdi”.

Li Kuan Yu 1923 yil 16 sentyabrda kelib chiqishi xitoylik bo‘lgan oilada tug‘ilgan. Ikkinchi jahon urushi tugagan yili Singapurdagi Rafflz kollejini bitirgach, o‘qishni davom ettirish uchun Londonga borib, dastlab iqtisod maktabida, so‘ng Kembrijdagi Fitsuilyama kollejida tahsil oladi. Talabalar orasida o‘ta ziyrak va tirishqoqligi bilan ajralib turadi. Huquqshunoslik va iqtisodiyot bo‘yicha ikkita a‘lo darajadagi diplom egasiga aylanadi. Singapurga qaytgach, ish faoliyatini “Leykok eng On” advokatlik idorasida boshlaydi. Oradan ikki yil o‘tgach, o‘zining mustaqil advokatlik kontorasini yo‘lga qo‘yadi. Advokat sifatida oddiy ishchilarning haq-huquqlarini himoya qiladi. Aloqa xodimlari kasaba uyushmasining Buyuk Britaniya mustamlakachilar ma‘muriyatiga qarshi da‘vosi bilan shug‘ullanib, sudda yutib chiqqadi va mashhur bo‘lib ketadi. 1955 yili Singapur qonunchilik assambleyasiga saylanadi. 1959 yili Singapur o‘zini o‘zi boshqaruvchi davlat maqomini oladi, Li Kuan Yu a‘zo bo‘lgan Xalq harakati partiyasi parlamentda 51 o‘rindan 43 tasini egallaganidan keyin, mamlakatning birinchi Bosh vaziri bo‘ladi. Uning oldida iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish, xalqning turmush sharoitini yaxshilashdek o‘ta murakkab vazifa turardi, negaki, turli irqalar o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik yakdil bo‘lib olg‘a qadam qo‘yishga imkon bermasdi. Mahalliy sanoat rivojlanmagan, xomashyo chetdan keltirilgan, aholining 40 foizi savodsiz, mamlakatda yagona ish beruvchi – Britaniyaning harbiy-dengiz floti bo‘lib, bunday sharoitda har bir qaror puxta o‘ylangan, aholi manfaatlariga to‘la mos kelishi zarur edi.

1965 yili Singapur rasmiy ravishda mustaqil davlat deb e‘lon qilingach, Li Kuan Yu o‘zining mamlakatda tartib-intizom o‘rnatish, xorijiy investorlarga soliq va eksport imtiyozlari berish, korruptsiyaga qarshi ayovsiz kurash boshlash dasturini e‘lon qildi. Turli darajadagi amaldorlar, ularning oila a‘zolari jazoga tortilmaslik huquqidan mahrum qilindi. Sudlarga korruptsiya va boshqa noqonuniy yo‘llar bilan orttirilgan daromadni davlat foydasiga musodara qilish vakolati berildi. Bu to‘g‘rida bosh vazir shunday yozadi: “Korruptsiyaga ruju qo‘yganlarni jazolash muammosiga duch kelar ekanmiz, biz, avvalo qonunlarimizni kuchaytirdik. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va korruptsiya holatlarini aniqlash byurosi rahbariga to‘la ishonch bildirdim, unga qonun doirasida cheklanmagan vakolat berdim, u har kuni 24 soat davomida menga bevosita murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Iqtisodiy masalalarni hal qilish, investitsiya kiritishdagi muammolarni hal qilish muddatini bir kun qilib belgiladim. Korruptsiya qadamba-qadam bartaraf etila boshlandi...”

Mamlakat miqyosida o'tkazilayotgan islohotlarning qamrovi kengayib bordi. Xavfsizlik ehtiyojidan kelib chiqib, mamlakatda yoshlar, keksa yoshlilar va xotin-qizlarga ham taalluqli umumiy harbiy majburiyat joriy etildi. Ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, savodsizlik tugatildi. Dunyo davlatlari tarixida bunday jadallikni uchratish qiyin. Ammo Singapur rahbari savodsizlikni tugatish masalasini bir kunga bo'lsin, kechiktirish mumkin emasligini hammadan ko'ra yaxshiroq bilardi. Faqat shu emas, mamlakatda omonatlarning markazlashgan jamg'armasi tashkil etilib, har bir singapurlik unga oylik maoshining 20 foizini o'tkazib borishi kerak, degan qoida joriy etildi. Yig'ilgan mablag' mamlakatda sog'liqni saqlash, pensiya tizimini rivojlantirish, turar-joy binolari barpo etish imkonini berdi. Kommunal islohotlar natijasida mamlakat aholisining 90 foizi ko'p qavatli uylarga ko'chib o'tdi.

Dunyo siyosatdonlari Li Kuan Yu qat'iyat va ishonch bilan o'tkazgan islohotlarni bejjiz "inqilobiy" deb atashmagan. Uning birgina tozalikka rioya qilish borasidagi siyosati bugun ham dunyoning ko'pgina mamlakatlari uchun noyob namuna bo'lib turibdi. O'tgan asrning etmishinchi yillarida Singapurda umummilliy tozalik kompaniyasi o'tkaziladi. Unga ko'ra, belgilanmagan joyga chiqindi (to'kindi, axlat) tashlagani, ko'chaga (jamoat joylariga) tupurgani uchun katta miqdorda jarima joriy etiladi. Masalan, sigareta qoldig'ini erga tashlagani uchun 1000 dollargacha, bu ish qayta takrorlansa 2000 dollargacha, uchinchi martasida 5000 dollargacha jarima undiriladi. To'plangan pullar axborot texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi.

Singapur islohotlari haqida fikr yuritganda, Yaponiya va Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan ba'zi voqealar yodga tushadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya oldida izdan tamomila chiqqan mamlakat iqtisodiyotini qisqa muddat ichida tiklash vazifasi turar edi. Manbalarda qayd etilishicha, o'shanda bu vazifani amalga oshirish uchun hukumatga uchta taklif kiritiladi. Birinchisi – yirik davlatlardan qarz ko'tarish, ikkinchisi – ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, uchinchisi – byujetning asosiy qismini maktabga sarflash. Uchinchi taklif qabul qilinadi va zamonaviy texnologiyalar ilmini puxta o'zlashtirgan yangi avlod mamlakatni qutqarib qoladi.

Bundan o'n-o'n besh yil avval Janubiy Koreyada tashqi investorlarning og'ir shartlari bois defolt holati yuzaga kelganida mamlakat rahbarlari xalqqa murojaat qilib, yordam so'rashadi. Bu da'vatga birinchi bo'lib ayollar javob berishadi: ular qimmatbaho taqinchoqlarini davlat xazinasiga ixtiyoriy ravishda topshiradilar. Bu bilan muammo hal bo'lmaydi, albatta, ammo davlatni davlat maqomida asrab qolish istagi, bu boradagi yakdillik, vatanparvarlik hissi iqtisodiyotni qayta yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Li Kuan Yu ingliz, malay, xitoy va yapon tilini yaxshi bilgani bois, taxmin qilish mumkinki, u savodsizlikka qarshi kurashda, aniqrog'i, mamlakatda yangi ilmi avlodni tarbiyalashda Yaponiyaning urushdan keyingi tajribasini, shubhasiz, inobatga olgan. Uning "Singapur: taraqqiyot yo'li haqida achchiq haqiqat", "Singapur: uchinchi dunyodan birinchi dunyo sari", "Dunyo kelajagi xususida shaxsiy qarashlarim" kitoblarini o'qigan kitobxon o'zi uchun ko'p savollarga, jumladan, yalpi ichki mahsulotning aql bovar qilmas darajada o'sishi, Singapurning Nyu-York va Londondan keyin dunyoning eng yirik moliya markaziga aylanishi sabablarini bilib oladi. Uning rossiyalik talabalar bilan uchrashuvda aytgan quyidagi so'zlariga e'tibor beraylik: "Hokimiyat tepasiga kelganimizga qadar mamlakatda korrupsiya keng tarqalgan, barcha sohalarida chuqur ildiz otgan edi. Britaniyaliklar o'z hukmronliklaridan foydalanib, mahalliy rahbarlar bilan hokimiyatni bo'lishib olgan, ayniqsa, o'tish davrida ularga katta vakolat berib qo'yishgan edi. Bu kelishuv poraxo'rlikni avj oldirdi, sovg'a olish, keyinchalik pul bilan "minnatdorlik" bildirish yalpi odat tusiga kirdi. Biz bunga qat'iy chek qo'yishga qaror qildik. Korrupsiya illatini engishning boshqa yo'li yo'q edi. Qo'shni davlatlarda ulkan tabiiy zahiralari – neft, gaz, o'rmonlar, daryo va gidroelektrostantsiyalar bor. Bizda-chi? Kichik bir orolmiz, xolos. Nima qilishimiz kerak? Eng avvalo butunlay boshqacha yashash tamoyillariga suyanmog'imiz kerak, degan fikrga keldik. Ya'ni, sen – poraxo'rsan, men esa bundan hazar qilaman, sizning mamlakatingizda yashash xavfsiz emas, bizda esa buning tamomila aksi, ya'ni tinchlik, xotirjamlik hukmron. Ayol kishi tungi soat uchda ko'chaga chiqsa

ham, unga hech bir tahdid bo'lmaydi, deya olishimiz kerak. Shunday bo'ldi ham. Sizlar mendan "Bunga qanday erishdingiz? – deb so'ramoqdasiz. Odamlarga toki o'z yo'limizni topa olmas ekanmiz, yashab qololmasligimizni tushuntirdik. Bizda neft ham, gaz ham yo'q, ammo mintaqadagi eng yirik neftni qayta ishlash majmualari mamlakatimizda gurillab ishlab turibdi..."

Singapur rahbari xorijiy safarlari haqida xotiralar yozar ekan, siyosatdonlar, turli soha mutaxassisleri va, ayniqsa, talabalarning savollariga bergan javoblarini umumlashtirib, shunday deydi: "Siyosiy yetakchi bo'lish shuki, atrofingizdagi odamlar, eng avvalo xalq, mamlakat sizning oqilona rahbarligingiz tufayli boyib borayotganini e'tirof etsinlar", "Bugungi dunyoda har bir kishining, ayniqsa, rahbarning qadr-qimmati uning bilimi va ko'nikmalari bilan o'lchanadi. Agar siz dohiy darajasiga ko'tarilgan bo'lsangiz-u, mehnat bozorida odamlarga hech nima taklif etmasangiz, qadringiz bir pul deyavering", "Iqtisodiy hamkorlar o'rtasida o'zaro ishonch bo'lishi zarur. Biz har bir shartnomani imzolashdan avval, uning shartlarini chuqur o'rganib chiqamiz, keyin yo imzolaymiz yo imzolamaymiz. Imzo qo'ygan bo'lsag-u, biror kamchiligi ayon bo'lib qolsa ham, uni, albatta bajaramiz. Biror kelishuv natijasi bo'yicha yutqizib qo'ygan bo'lsangiz ham, oqibatda siz, albatta, yutuqqa erishasiz", "Rahbarlik lavozimlarini ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar, qobiliyatli kishilar egallashlari lozim", "Agar biz kuchsiz insonlar bo'lganimizda, shubhasiz, halokatga yuz tutar edik... Singapur mintaqadagi boshqa mamlakatlarga nisbatan yanada uyushqoq, yanada samarador va shijoatli bo'lishi kerak", "Kichkinagina, bor-yo'g'i 150 nafar baliqchi yashaydigan qishloqcha o'rnida ekvatoridan ikki gradus masofada joylashgan dunyoning eng yirik shaharlaridan birini qurdik..."

Li Kuan Yu o'zi bilan birga ishlayotgan fidoyi, tashabbuskor va bilimli xodimlarni rag'batlantirish masalasiga alohida e'tibor bergan. To'g'ri rag'batlantirish tashkilot, korporatsiya yoxud mamlakatning uzoq muddatli yutuqlarini belgilovchi omildir, deb hisoblaydi u. Ayni paytda, Li Kuan Yu hokimiyat boshqaruvidagi barcha xodimlarga yuqori maosh berish tarafdori emas. Yuqori maosh ishbilarmon, izlanuvchan va yaxshi natijalarga erishadigan rahbarlarga berilmog'i kerak. Bu juda muhim.

Zahmatkash ikki olimning sa'y-harakati bilan o'quvchilar qo'liga etib borgan va qiziqish bilan o'qilayotgan ushbu kitobda Li Kuan Yuning o'zi uchun belgilagan ko'pdan-ko'p hayotiy qoidalari ham keltirilgan. Mana, ularning ayrimlari:

"Hayotning barcha sohalarida yutuqqa erishish hamma narsani bilaman deb o'zingizni aldashga emas, hayotiy voqelikni to'g'ri anglash va baholashga asoslanadi".

"Qo'lingizdan keladigan ishlarni bilganingiz yaxshi, ammo nima ishlarga qodir emasligingizni bilganingiz yanada yaxshiroq".

"O'zingizni anglang, imkoniyatlaringiz doirasidan chiqib ketmang".

"Agar siz iqtisodiy rivojlanishni xohlasangiz, yaqin qo'shnilar bilan janjalga bormang, aksincha, ular bilan savdo-sotiq va boshqa aloqalarni kuchaytiring".

"Umr bo'yi o'qing, hamisha o'quvchi maqomida qoling, mutolaa qilishdan charchamang, eng yaxshi g'oyalarni o'zlashtiring. Muvaffaqiyatga erishishning yagona formulasi – o'qish, o'rganish".

"O'z ustidan kulishlariga yo'l qo'ygan rahbar rahbar emas. Faqat irodasi kuchli insonlarga haqiqatni gapira oladi. Rahbarning yonida shunday insonlar ko'p bo'lishi shart".

"Yoningizdagilar sizga sadoqatli bo'lishlari uchun, avvalo, siz o'zingiz ularga sadoqatli bo'ling. Ishonchli odamlarni ishonchsizlardan farqlay olmaydigan rahbarlar tanazzulga yuz tutadi".

Li Kuan Yuning bu qoidalari faqat Singapur uchun emas, dunyoning ko'plab davlatlari uchun ham bevosita taalluqli desak, yanglishmagan bo'lamiz. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, AQSh va Evropadagi ko'plab nufuzli oliy o'quv yurtlari, ilmiy va iqtisodiy taraqqiyot markazlarida Singapur tajribasi o'qitiladi va tahlil qilinadi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, Li Kuan Yu o'zining "Hamisha o'quvchi, yaxshi g'oyalarni o'rganuvchi talaba maqomida qoling", degan qoidasiga avvalo o'zi qat'iy amal qilganini sezish qiyin emas. Bizningcha, u ulug' muallim Konfutsiyning bugun ham o'z

mohiyatini yo‘qotmagan nazariy ta‘limotini, Xitoy rahbari Den Syaopinning amaliy tajribasini juda chuqur o‘rgangan. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin.

Konfutsiy shunday deydi: “Haqiqatparvar rahbarning dastlabki qadamlari qiyin kechishi mumkin, ammo bu qadamlarning kelajagi porloq bo‘lishi aniq”, “Olijanob kishilar hamisha o‘zlarini anglashga harakat qiladilar, pastkashlar esa boshqalardan bir nimalarni qidirib kun kechirishadi”, “Hayot aslida juda oddiy, uni o‘zimiz murakkablashtiramiz”, “Ortda qolgan, o‘tmishga aylanib bo‘lgan ishlar to‘g‘risida bahslashib, ularni qoralashdan zarracha naf yo‘q”, “Agar sen xalqingni bir yil boqmoqchi bo‘lsang, bug‘doy ek, o‘n yil boqmoqchi bo‘lsang, daraxt ko‘kartir, asrlar davomida boqmoqchi bo‘lsang, ilmli qil”.

Li Kuan Yu siyosatida Xitoy rahbari Den Syaopinning ham salmoqli “iz”lari ko‘zga tashlanadi. Bu ulug‘ islohotchi Xitoy davlati rahbarligiga kelgach, eng avvalo G‘arb davlatlari bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishga harakat qiladi. 1979 yili Oq uyda AQSh Prezidenti Jimmi Karter bilan uchrashadi. Yapon-Xitoy munosabatlarida iliqlik paydo bo‘ladi. 1984 yili Xitoy-Buyuk Britaniya kelishuviga imzo chekiladi. Keyinroq Portugaliya bilan ham bitim qabul qilinadi. Mamlakat iqtisodiyotida g‘oyaviy printsiplarning roli kamaytiriladi. Rasmiy yig‘ilishda “Kapitalizmmi yoki sotsializmmi?” degan mavhum bahsga o‘ralashib qolmaslik kerakligini uqtiradi. “Mushukning rangi qanday bo‘lishi muhim emas, sichqonni tutsa bo‘ldi”, degan qoidasi dunyo bo‘ylab qanot qoqadi. Mamlakatda “Ochiq eshiklar siyosati” amalga oshiriladi.

Savollar

1. Iqtisodiy o‘shishning qaysi omillari Singapurning jadal rivojlanishiga turtki berdi, deb o‘ylaysiz?
2. Singapurda mustaqillikka erishish chog‘ida ekstensiv va iintensiv iqtisodiy o‘shishning qaysi omillari mavjud edi?
3. Singapur iqtisodiy mo‘jizasida davlat iqtisodiy siyosatining o‘rni qanday?
4. Singapur tajribasidan O‘zbekiston iqtisodiyotida foydalanish imkoniyatlarini qanday baholaysiz?

Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-“Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
3. Абдувоҳидов А.А. ва бошқалар. Инновациялар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма.- Т.: “Мумтоз сўз”, 2020-636 бет.
4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Хажиев Б.Д., Ахмедов Д.Қ., Захидов Г.Э., Мамбетжанов Қ.Қ. Иқтисодий ривожланиш назариялари. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2018. - 428 бет.
10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новоси�. гос.

архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.

11. Хажиев Б.Д., Абдуллаев С.О., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. Дарслик. – Т.: “Зебо юлдузлари МЧЖ”, 2018. - 417 бет.

12. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов тахрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.

13. Дарон Асеомглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асеомглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова-М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).

14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018

15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.

16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.

17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.

18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018

19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. 2018

20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.

21. www.cer.uz - Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази расмий сайти.

22. www.stat.uz- Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.

23. [https://mineconomy.uz/-](https://mineconomy.uz/) Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги расмий сайти

24. [https://cbu.uz/-](https://cbu.uz/) Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий сайти.

25. <https://mf.uz/uz> - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий сайти

26. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси

27. [https://www.mininnovation.uz/-](https://www.mininnovation.uz/) Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий сайти

28. <https://uza.uz/uz> - Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий сайти

29. <https://www.worldbank.org/en/home>- Жаҳон банки расмий сайти

III BOB. TUTASH AVLODLAR IQTISODIY O‘SISH MODELI

“Mening bobom tuyada yurardi, otam tuyada yurardi, men “Mercedes”da yuraman, o‘g‘lim “Lend-Rover”da yuradi, nevaram “Lend-Rover”da yuradi, lekin evaram tuyada yuradi...”

Shayx Muhammad ibn Rashid al-Maqtum

- 1. Tutash avlodlar (OLG) modelining iqtisodiy mazmun-mohiyati**
- 2. Tutash avlodlar (OLG) modelidan amalda foydalanish**
- 3. Inson omili va inson kapitali**

Tashqi qarz muammosi: tahdid va imkoniyatlar

Bugungi kunda tashqi qarz muammosi barchani birdek qiziqtirmoqda. Kimdir O‘zbekistonning o‘zib borayotgan tashqi qarzidan xavotir bildirsa, yana kimdir bu holatni globallashtirishning o‘ziga xos jihati sifatida baholamoqda. Haqiqatdan ham, tashqi qarz muammosiga o‘z vaqtida echim topilmasa mamlakatlar qiyin ahvolga tushib qolishlari va qarzlarni tabiiy resurslar va hududlar bilan to‘lashlariga to‘g‘ri keladi. Umuman olganda tashqi qarz haqida gapirar ekanmiz, bir hayotiy haqiqatni anglab etishimiz lozim. Agar jalb qilinayotgan tashqi qarzlarni joriy iste‘mol uchun sarflansa, bu jarayonlarda korrupsiya unsurlari aralashsa, kelgusida bu jiddiy iqtisodiy muammoga aylanishi aniqdir. Iqtisodiy jarayonlarning globallashtirishi, mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqa-larning chuqurlashuvi sharoitida hamisha qarz beruvchi topiladi. Qarz beruvchilar shunday yo‘l tutishadiki, ular quyosh charaqlab turgan paytda sizga yomg‘irdan himoyalash uchun soyabon tutqazishadi, yomg‘ir yog‘ayotgan paytda esa, sizdan soyabonni qaytarib berishingizni talab qiladi. Demakki, biz ham jalb qilinayotgan tashqi qarzlardan o‘zimiz uchun soyabon yasash uchun foydalanishimiz kerak.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendentsiyalaridan biri sifatida globallashtirish jarayonlari maydonga chiqmoqda va muttasil tezlashib bormoqda. Jahon xo‘jaligining globallashtirishi milliy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning o‘ziga xos imkoniyatidir. Globallashtirish milliy iqtisodiyot uchun qator ijobiy imkoniyatlarni taqdim etishi bilan bir qatorda, u mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga putur etkazuvchi tahdid manbaiga ham aylanishi mumkin. O‘zbekistonning zamonaviy jahon iqtisodiyotiga izchil integratsiyalashuvi jahon iqtisodiyoti globallashtirishning milliy iqtisodiyotga ta‘sirini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi. So‘nggi yillarda tashqi qarz muammosi global tavsifga ega bo‘lib bormoqda. Davlat tashqi qarzga xizmat ko‘rsata olish qobiliyati mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. Qarz muammosini hal etishning tabiati mamlakat byudjet salohiyatiga, valyuta zahiralarning holatiga va shuningdek, milliy valyutaning barqarorligiga, foiz stavkalari darajasiga, investitsiya muhitiga va ichki moliya bozori barcha segmentlarining hatti-harakatlariga bog‘liq. Shu bilan birga, tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha izchil davlat siyosatining yo‘qligi tashqi qarzning oshishiga olib keladi va bu iqtisodiy o‘zgarishlarga jiddiy to‘siq bo‘ladi.

Hozirda pandemiya tufayli butun dunyo mamlakatlari uchun o‘zib borayotgan tashqi qarz xosdir. Xususan, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020 yil yakunida butun dunyo mamlakatlarining mutloq ifodadagi qarzi 89,6 trln. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2011 yilda qariyb ikki barobar kam bo‘lgan yoki 44,65 trln. dollarni tashkil qilgan. 2006 yilda esa dunyo mamlakatlarining jami tashqi qarzi 26,58 trln. dollarga teng bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, keyingi 15 yil ichida dunyo mamlakatlarining davlat qarzi 3,37 martaga oshgan. 2018 yilning so‘ngida butun dunyo mamlakatlarining davlat qarzi dunyo yalpi ichki mahsulotining 82,3 foizi tashkil qilgan bo‘lsa, bo‘ ko‘rsatkich 2020 yilga kelib 97,6 foizga etgan.

Ko‘rinib turibdiki, butun dunyo mamlakatlarida davlat qarzining muttasil o‘shib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Xuddi shuningdek, bu jarayonlar O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham xosdir. O‘zbekiston Respublikasi Markazi y bankining ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi joriy yil boshiga nisbatan 16 foizga yoki 5,4 mlrd. dollarga oshib, 2022 yil 1 yanvar holatiga 39,6 mlrd. dollarni (2021 yilning 1 yanvar holatiga 34,2 mlrd. dollar) tashkil qildi. Xususan, 2021 yil boshiga nisbatan davlat tashqi qarzi 11 foizga yoki 2,4 mlrd. dollarga o‘shib 23,7 mlrd. dollarni, davlat tomonidan kafolatlanmagan tashqi qarz esa 24 foizga yoki 3,0 mlrd. dollarga o‘shib 15,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. 2021 yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmi salkam 70 mlrd.dollarni tashkil etgani holda, davlat tashqi qarzining YaIMga nisbatan ulushi 57 foizni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, 10 yildan ortiq muddatga jalb qilingan qarzlarning ulushi jamiga nisbatan 61,4 foizni tashkil etishi jalb etilgan mablag‘lardan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiy imkoniyatlarni o‘nglab olish imkonini beradi.

Davlat qarzi kontseptsiyasi bilan davlat byudjeti kontseptsiyasi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. ularning birinchisi, davlat qarzini tahlil qilishning asosiy vositalari bo‘lgan bir qator byudjet tushunchalaridan foydalanadi. Byudjet taqchilligi davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishini anglatadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi aksariyat hukumatlar xarajatlarni daromad bilan qoplay olmaydilar va pirovardida davlat byudjetida kamomadning vujudga kelishiga sababchi bo‘ladilar. Shu sababli ham davlat byudjetini shakllantirishda hukumat mamlakat uchun davlat qarzining maqbul miqdorini nazarda tutishi kerak. Qisqa va uzoq muddatda byudjet taqchilligining ichki iqtisodiyotga ta‘sirini hamda byudjet taqchilligini moliyalashtirish yo‘llarini hisobga olish shart.

Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar uchun davlat tashqi qarzining doimiy ravishda oshib borishi bilan bog‘liq muammolar byudjet taqchilligi va uni qoplash borasida moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalariga murojaat qilishga sabab bo‘lmoqda. Mazkur mamlakatlarda sog‘lom iqtisodiy siyosatning yo‘qligi ijtimoiy moliyaviy majburiyatlarning haddan tashqari yuqori darajasiga olib keladi. Davlat qarzlari byudjet taqchilligini moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalariga murojaat qilinishi asnosida o‘shib boradi. Muammo shundaki, mamlakatlar avvalgi majburiyatlarini to‘lash bilan bir vaqtda yangi qarz majburiyatlarini ham o‘z zimmlariga oladilar.

Aksariyat holatlarda mamlakatlarning avvalgi qarzlarni to‘lash maqsadida yangidan qarz olishga murojaat qilishdan o‘zga chorasi qolmaydi. Qarz inqirozi qarzdor mamlakat iqtisodiyotining holati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy o‘shishning pastligi va davlat byudjeti holatining keskinlashuvi oqibatida yuzaga keladi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotda mamlakatlarning “qarz ko‘tarish va qarzni uzish” muammosiga bag‘ishlangan nazariy yo‘nalish shakllandi. Qarz oluvchi davlatning kelajakda qarzni to‘liq to‘lay olmasligi borasidagi kreditor-larning hadiksirashlari mazkur yo‘nalishning mohiyatini tashkil qiladi. Shu bilan birga kreditorlarning shaxsiy va jamoaviy manfaatlari o‘rtasida muayyan ziddiyat mavjud bo‘lib, u qarz oluvchining yangi kreditlar olishiga yanada to‘sqinlik qilishi mumkin.

Har qanday mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati tashqi iqtisodiy qarzni keltirib chiqaradi, mazkur qarz o‘z navbatida davlatning mamlakat norezidentlari oldida yig‘ilib qolgan qarz yig‘indisini ifoda etadi. Tashqi iqtisodiy qarz o‘z ichiga:

- 1) mamlakatning xalqaro moliyaviy tashkilotlarga tashqi iqtisodiy qarzi;
- 2) mamlakatning boshqa moliya institutlariga tashqi iqtisodiy qarzi;
- 3) xususiy kreditorlar oldidagi tashqi iqtisodiy qarz.

Davlat tashqi qarzining beqaror iqtisodiy tizimga ega bo‘lgan mamlakat YaIMiga ta‘sirini aniqlash juda mushkul. Bunday mamlakatlar qatoriga aksariyat MDH davlatlarini kiritishimiz mumkin. Ta‘sirni aniqlashdagi qiyinchilik qarzga bog‘liq bo‘lmagan muammolardan kelib chiqadigan tez-tez yuz beruvchi iqtisodiy inqiroz va pasayishlar bilan uzviy bog‘liq. Tashqi qarz ushbu mamlakatlardagi bunday iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy sababi sifatida ko‘riladi.

Albatta, davlatning tashqi qarzlari ma'lum darajada iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi resurslarni ko'paytirishga xizmat qilsada, shu bilan bir qatorda, o'z navbatida ularga xizmat ko'rsatish (asosiy qarz va foizlarni to'lash) muammosini ham yuzaga chiqaradi. Xalqaro kreditning pul-kredit va moliyaviy shart-sharoitlarini aniqlashtirishda qarz beruvchi qarz oluvchining kreditga layoqatlilik (qarz oluvchining kredit olish qobiliyati) va to'lov qobiliyati (qarz oluvchining o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olish qobiliyati) dan kelib chiqib ish tutadi.

Kelgusidagi to'lovga qobillik inqirozining belgisi bo'lib, davlat tashqi qarziga xizmat ko'rsatish borasidagi to'lov jadvalining buzilishi hisoblanadi.

Xalqaro qarzidorlik inqirozi-mamlakat o'zining tashqi majburiyatlarini to'lay olmasligini e'lon qilishi yoki davlat o'z tashqi qarzi summasini bekor qilishi holatida vujudga keladi.

Mamlakatdagi real iqtisodiy holatni baholash uchun nisbiy qiymat ko'rsatkichlardan, xususan, davlat tashqi qarzining YaIMga nisbatidan foydalaniladi. Davlat qarzining YaIMga nisbatan miqdori mamlakat iqtisodiyotining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Davlat qarzini shakllantirish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha moliyaviy munosabatlar davlat moliyasi, mamlakatning investitsion muhiti, iste'mol tuzilishi, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining boshqa ko'plab unsurlariga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlat qarzlari mamlakatning kelgusidagi taraqqiyotida ko'p qirrali rol o'ynaydi. U mamlakat ichida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tashqi qarzining miqdori qanchalik katta bo'lsa, uning milliy iqtisodiyotga, moliya sohasiga ta'siri va mamlakatning keyingi iqtisodiy rivojlanishi shunchalik og'ir kechadi. Davlat tashqi qarzining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini hisobga olib, davlat tashqi qarzining haddan tashqari o'sishi davlat byudjeti va mamlakatning xalqaro kreditga layoqatliligi uchun xavfli ekanligini hisobga olish zarur.

Qarzdin samarali foydalanish iqtisodiy tebranishlar silliqlash va qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin, Mamlakatning xalqaro kapital bozoridagi barqaror mavqei va qarz majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi uning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi va yanada qulay shartlarda qo'shimcha investitsiya kiritilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, uning valyutasiga bo'lgan ishonch ortadi, shu bilan birga tashqi savdo aloqalari mustahkamlanadi. Biroq tashqi qarz inqirozi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy tavsifdagi jiddiy salbiy omilga aylanishi ham mumkin. Davlat qarziga xizmat ko'rsatishga katta miqdorda davlat byudjet mablag'lari ajratilib, bu milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga va shuningdek, ijtimoiy ehtiyojlarga sarf-xarajatlarni kamaytirishni taqozo etadi, bu esa pirovardida aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat qarzi -bu iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, uning ko'pgina unsurlariga, xususan, davlat byudjeti, pul-kredit va valyuta tizimlariga, inflyatsiya darajasiga, ichki va tashqi jamg'armalarga va xorijiy investitsiyalarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tashqi qarziga xizmat ko'rsatish siyosati yo'nalishining keskin o'zgarishi qarzning ko'payishi, inflyatsiya darajasining oshishi, milliy valyutaning konvertatsiya layoqatining pasayishi va pirovardida mamlakat obro'sining o'z aholisi ko'z o'ngida barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Davlat qarzining milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sirini ko'rib chiqamiz:

1. Davlat qarzlari bozori haddan tashqari rivojlangan taqdirda hukumat milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni cheklashga majbur bo'ladi. Bunda davlat iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarining muayyan bir qismidan voz kechib qarz mablag'lariga xizmat ko'rsatishga majbur bo'ladi. Davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilik darajasining haddan tashqari yuqori bo'lishi ham, davlat qarzining iqtisodiyotga salbiy ta'sirini oshiradi.

2. Davlatning kredit operatsiyalariga haddan tashqari berilib ketishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlariga yo'naltirilib mumkin bo'lgan byudjet mablag'larining qarz to'lovlariga yo'naltirilishiga olib keladi.

3. Davlatning tashqi qarz olishga mukkasidan ketishi ichki moliyaning xalqaro moliyaga haddan ziyod qaramligiga va kelgusida davlatning o'z siyosiy mustaqilligini yo'qotishiga olib keladi.

4. Davlat qarzlari orqali jalb qilingan mablag'lar soliqlar tushumidan oldin olinganligi va ular hali biror-bir qiymat yaratmaganligi bois, olingan qarz mablag'larini foiz to'lovlari bilan birga qaytarish talab etiladi.

Davlat qarzining milliy iqtisodiyotga ta'sirining ijobiy tomonlari quyidagicha:

1. Mamlakat uchun asosiy navf- bu mamlakat byudjetiga qarz pul mablag'larini jalb qilish va qarzning nisbiy miqdorini saqlab qolish imkoniyatidir.

2. Byudjet saldosi miqdori va real YaIM hajmi davlat qarzlari dinamikasini belgilovchi eng muhim omillar hisoblanadi. Byudjet taqchilligi davlat qarzining oshishiga olib keladi, byudjet ortiqchaligi esa qarzni qaytarish imkonini beradi. Doimiy iqtisodiy o'sish sharoitida davlat qarzi bo'yicha asosiy va foiz to'lovlarini to'lashga ko'mak beruvchi byudjetning daromad qismi oshib boradi

3. Muoamalaga chiqarilgan uzoq muddatli qarz majburiyatlarining jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan sotib olinishi vaqtincha erkin moliyaviy resurslarning xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan investitsiyaga yo'naltirish va aholi jamg'armalarining shakllanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat qarzining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri va iqtisodiy o'sish istiqbollari masalasida iqtisodchilarning qarashlari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Davlat tashqi qarzi milliy iqtisodiyotga uchun katta yuk hisoblanadi, chunki u asosiy qarz summasi va foiz to'lovlarini to'lashi, xorijiy mamlakatlarga qimmatbaho tovarlar berishi va ular talab qilgan muayyan bir xizmatlarni ko'rsatishiga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakat real milliy mahsulotning ma'lum bir qismini xorijga o'tkazadi, bu esa aholi joriy iste'molining kamayishiga va jami talabning qisqarishiga olib keladi. O'z navbatida, bu iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va istiqbolda milliy ishlab chiqarishning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atiga nisbatan davlat qarzining bir-ikki yil mobaynida qisqa muddatli o'sishi maqbul sanaladi. Barro-Rikkardo ekvivalentligi nuqtai nazaridan davlat qarzlarini oshirish yo'li bilan davlat xarajatlarini moliyalashtirish - bu soliqlarning muqobil oshirilishi sanalsa, davlat qarzining o'sishi milliy iqtisodiyotning o'sishini rag'batlantiradigan chora sifatida ko'riladi. qarz o'sish sur'atlarining iqtisodiy o'sish sur'atlariga nisbatan qisqa muddatli o'sishi kelgusida davlat qarzi o'sish sur'atlarining sekinlashishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuvi evaziga qoplanishi lozim

Tashqi qarzning doimiy ravishda o'sib borishi qarzdor mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sining pasayishiga olib keladi va kelgusida qarzdor mamlakat aholisining ertangi kunga ishonchini so'ndiruvchi psixologik ta'sirni yuzaga keltiradi.

Binobarin, shuni ta'kidlash joizki, mamlakat o'z qarzining iqtisodiy yukini kelajak avlodga o'tkazib, bir so'z bilan aytganda kelajak avlodga qolishi lozim bo'lgan boylikning kamayishiga sababchi bo'ladi.

Davlat tashqi qarzining muttasil o'sib borishi milliy valyutaga bo'lgan ishonchning susayishiga va inflyatsiyaga qarshi kurash borasida muayyan qiyinchiliklarning vujudga kelishiga olib keladi. Mamlakatning tashqi qarzini boshqarish unsurlaridan biri tashqi qarz olish dasturini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tashqi qarzdorlik miqdori chegarasi jahon amaliyotida, shu jumladan, qarz va qarz to'lovlarini YaIM va eksport bilan taqqoslash asosida qo'llaniladigan qarz qaramligi ko'rsatkichlarini ma'lum chegaralarda saqlab turish uchun belgilanadi.

Rivojlanayotgan yoki o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham davlat tashqi qarzlari bo'yicha foiz stavkalari milliy iqtisodiy o'sish sur'atlaridan sezilarli darajada oshmoqda. Yangi qarz olish va tashqi davlat qarzini qayta moliyalash imkoniyatlarining chippakka chiqishi natijasida mamlakatlar soliqlarni oshirishga majbur bo'ladilar, bu esa o'z navbatida milliy daromad hajmi va uni taqsimlash tuzilmasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi qarzning tuzilmasidan kelib chiqqan holda, milliy daromadni qayta taqsimlash tuzilmasi ham o'zgaradi.

Bugungi kunda, davlat moliyasini boshqarish yaqin-yaqingacha navf va ustuvorliklarni taqdim etgan global kapital bozori sharoitida amalga oshiriladi. Biroq, ayrim qarzidor mamlakatlarning salbiy tajribasi ko'rsatishicha, chet el kapitali oqimlarining yo'nalishi va umumiy iqtisodiy vaziyat aniq shart-sharoitlarga qarab keskin o'zgarishi mumkin. Tashqi qarzning yuqori ulushi, ya'ni. xorijiy valyutalarda ko'rsatilgan qarz mamlakatni investor kayfiyatidagi o'zgarishlarga sezgir qilib qo'yadi va kapital oqimlarining to'satdan va kutilmagan o'zgarishlari kelajakda jiddiy muammolarga olib keladi.

Qulay kon'yunkturadan foydalanish sharoitida xorijiy resurslarni mamlakatga jalb qilish borasida muayyan bir ustuvorliklarga ega bo'linsada, tashqi qarzidorlikning oshishi bilan kredit, valyuta, foiz risklari ortishi va ayrim kompaniyalar kapitali tuzilmasining yomonlashuvi riski vujudga kelishi mumkin.

Davlat va xususiy qarz olish sohasida muvozanatli siyosat olib borish, iqtisodiyotning davlat sektorini boshqarish va xususiy sektorning tashqi qarzini tartibga solishda davlatning mavqeini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida qabul qilish mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Haddan tashqari tashqi qarz pirovardida mamlakatning kreditga layoqatliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda mumkin bo'lgan barcha pessimistik stsenariylar, ya'ni asossiz va kuchsiz strategiyalar amalda sodir bo'lsa, hukumatning fiskal pozitsiyalarining qulashiga olib keladigan jarayonlar ko'rib chiqilishi kerak. Milliy iqtisodiyotning aktiv va passivlarining iqtisodiy asoslari va moliyaviy holati hukumatning fiskal holatiga va uning tashqi davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Shuning uchun tashqi qarzlarni boshqarish rejasida mumkin bo'lgan umumiqtisodiy larzalar va davlat sektorining qarz majburiyatlari hisobga olinishi kerak.

“Birja” iqtisodiy gazetasi

#28(2911) 14.04.2022

O'qitish maqsadi: Tutash va bir-birini qoplovchi avlodlar iqtisodiy o'sish modeli to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish.

Tayanch iboralar: tutash avlodlar) modeli, firmalar, ishlab chiqarish, kapital, uy xo'jaligi, raqobat, inson omili, inson kapitali

3.1. Tutash avlodlar (OLG) modelining iqtisodiy mazmun-mohiyati

Tutash avlodlar modeli (overlapping generations model) – bir-birini qoplovchi avlodlar, Daymond modeli, Daymond-Samuelson modeli ham deb yuritiladi.

Tutash avlodlar modeli-bu mukammal raqobat sharoitida ekzogen iqtisodiy o'sish modeli bo'lib, u inson o'sib ulg'aygan sayin iste'molchining xulq-atvoridagi o'zgarishni aks ettiradi.

Mazkur modelniing yaratuvchisi Piter Daymond hisoblanadi, u Pol Samuelsonning g'oyalariga asoslangan holda, 1965 yilda ushbu modelni yaratadi. Ushbu model avlodlar o'rtasidagi altruistik aloqalarni tan olmaydi. Shuningdek, modelda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bo'yicha mamlakatlar o'rtasidagi farqlar bo'yicha ham aniqliklar keltirilmaydi.



3.1-rasm. Barqaror rivojlanish.

Tutash avlodlar modelini yaratishdan maqsad - bu kapitalning shaxsning yoshiga va u o'tgan davrda faoliyat ko'rsatgan iqtisodiyot holatiga bog'liqligini tahlil qilishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, har qanday iqtisodiyot jamiyat va ekologiya bilan uzviy bog'liqlikda barqaror iqtisodiy rivojlanishga intiladi.

Mazkur modelda ham jamiyat a'zolarining iqtisodiy xulq-atvori barqaror iqtisodiy rivojlanishga qay darajada ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanish- bu bir so'z bilan aytganda, kelajak avlodlarning ehtiyojlari qondirilishini shubha ostiga qo'yimagan holda, bugungi jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini to'laqonli qondirish borasidagi hatti-harakatlar majmui va ularning ijobiy natijasidir.

Mazkur model mehnat va kapital bozorini tadqiq qilishda keng qo'llaniladi.


1958 yilda Pol Samuelsonning navbatdagi kitobi chop qilinadi va unda kapital bozorining shakllanishi borasidagi qarashlar bayon qilinadi. Unda turli yoshdagi ikki guruh-yoshlar va qariyalar qamrab olinadi. Tutash avlodlar

nazariyasining mohiyati quyidagilarda ifodalanadi: ishlayotgan va ish haqi o'layotgan yoshlar o'z kapitalini asta-sekin oshirib boradilar. Daromad manbaiga ega bo'lmagan qari insonlar to'plangan jamg'armalari hisobiga kun kechiradilar. Shu tariqa, kapitalning qari insonlardan yoshlar tomonga oqib o'tishi va o'z navbatida bu jarayonning teskarisi amalga oshadi.

Samuelson nazariyasiga ko'ra iqtisodiyotning rivojlanishi sakrash tavsifiga ega bo'lgan davrlar asnosida yuz beradi. Ularning farqi shundan iboratki, bir davrning boshlanishida kapital qari insonlar qo'lida mujassamlashsa, keyingi davrning boshida esa yoshlar qo'lida to'planadi.

Piter Daymond mazkur modelni 1965 yilda Solou va Romelarning iqtisodiy o'sish modellariga xos unsurlarni qo'shish orqali takomillashtirdi. Ushbu asar jamoatchilikka "tutash avlodlar modeli" nomi bilan tanildi.

Model etarlicha sodda hisoblanadi. Uning asosida jismoniy shaxslarning iste'mol va jamg'armalari ularning hayot kechirish davrlariga bog'liqligini hisobga olish yotadi. Vaqtning diskretligi, natural ish haqi, iqtisodiyotda import va eksportning mavjud emasligi modelning asosiy shartlari sanaladi.



3.2-rasm. "Tutash avlodlar" modeli.

Model doirasida iste'mol va kapitalni shakllantirishda foydalaniluvchi birgina mahsulot ko'rib chiqiladi. Tutash avlodlar modeliga ko'ra, aholi o'sish

sur'ati doimiy hisoblanadi. O'z hayotining yakunida inson o'zining barcha jamg'armalarini sarflab tugatsa, yoshlar o'zlariga hech bir narsani me'ros sifatida olmaydilar.

Tutash avlodlar modelida faqatgina ikkita ishlab chiqarish omili kapital va mehnat ko'rib chiqiladi. Iste'molchining vazifasi pul bilan bog'liq sarf- xarajatlarni maqbullashtirishdan iboratdir.

Pul xarajatlarini maqbullashtirish navflilik darajasini oshirish, xarajatlarni tejash va jamg'armalarni ko'paytirishni anglatadi.

Ish haqi iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarga sarflanadi. Daromadning doimiy o'sishi jamg'armalarning ko'payishiga olib keladi. Investitsiyalar jamg'armalarga teng bo'ladi. Ne'matlardan voz kechish orqali mablag'larni tejash ushbu modelda ko'zda tutilmagan. Farovonlikka faqat daromadlarni oshirish va xarajatlarni maqbullashtirish orqali erishiladi.

Soliq stavkalarining ko'tarilishi shaklida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi o'z navbatida jamg'armalar va iste'mol hajmining kamayishiga olib keladi. Bu omil insonning har qanday yoshida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

3.2. Tutash avlodlar (OLG) modelidan amalda foydalanish

Ramsey-Kassa-Kupmans modelining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, mazkur model mualliflari barcha omillar va shart-sharoitlarni o'rtasini topish va standartlashtirishga intiladilar: iqtisodiy agentlar bir xil xohishlar to'plamiga, uy xo'jaliklari bir xil navflilikka, firmalar esa bir xil ishlab chiqarish funksiyasiga ega bo'ladilar. Zamonaviy makroiqtisodiyotda ushbu o'rtacha an'anani buzish borasidagi dastlabki muhim urinishlardan biri bu Samuelson tomonidan taklif qilingan (OLG, overlapping generations model) va Daymond (1965) tomonidan to'ldirilgan model bo'ldi. OLG modelida iqtisodiy agentlar-ning ikkita katta guruhi mavjud: mehnat bozoriga kiradigan yoshlar va nafaqaga chiqqan qariyalar. Shunga ko'ra, ushbu ikki aholi guruhining foydali funksiyalari bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Yana ham aniqroq to'xtaladigan bo'lsak, vaqt diskret hisoblanadi: $t = 1, 2, \dots$ aholi p sur'at bilan o'sadi: $L_t = (1 + n) L_{t-1}$, bilimlarning to'planishi g sur'at bilan o'sadi:

$A_t = (1 + g)A_{t-1}$. Reprezentativ iqtisodiy agentning navfililik funktsiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$U_t = \frac{C_{1t}^{1-\theta}}{1-\theta} + \frac{1}{1+\rho} \frac{C_{2(t+1)}^{1-\theta}}{1-\theta},$$

Bu yerda: $s_{1t}, s_{2(t+1)}$ – hayot kechirishning birinchi va ikkinchi davri oralig‘ida iqtisodiy agentning iste‘moli, shunga mos ravishda; $r > -1$ subyektiv diskon stavkasi; $\nu > 0$.

Yuqoridagi kabi ishlab chiqarish omillari bozorlari to‘liq raqobatbardosh deb hisoblanadi, bu omilning bozor narxining (kapital, ishchi kuchi) tengligini va ushbu omilning cheklangan unumdorligini (qat’iy aytganda, faqat muvozanat holatida) talab qiladi. Kapital uchun $r_t = f'(k_t)$, mehnat uchun quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$w_t = f(k_t) - k_t f'(k_t),$$

Bu yerda $f(k_t)$ – intensiv ko‘rinishdagi ishlab chiqarish funktsiyasi; $k_t = K_t - d \cdot j^t$ – t vaqtidagi kapitalning keltirilgan qiymati.

Ushbu holatda mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasini hisobga olgan holda yosh iqtisodiy agentning daromadi $w_t A_t$, ga, uning jamg‘armalari esa $w_t A_t - s_{1t}$ ga teng bo‘ladi. Ushbu jamg‘armalar hayotning ikkinchi davrida iste‘molga sarflanadi:

$$C_{2(t+1)} = (1 + r_{t+1})(w_t A_t - C_{1t}),$$

Bu yerda: r_{t+1} – ikkinchi davrda bozor foiz stavkasi.

Yuqoridagi tenglikka o‘zgartirishlar kiritgan holda, iqtisodiy agentning byudjet chekloviga ega bo‘lamiz:

$$C_{1t} + \frac{1}{1 + r_{t+1}} C_{2t+1} = w_t A_t.$$

Shunday qilib, OLG modelida iqtisodiy agentning xulq-atvori quyidagicha yoziladi:

$$U_t = \frac{C_{1t}^{1-\theta}}{1-\theta} + \frac{1}{1+\rho} \frac{C_{2(t+1)}^{1-\theta}}{1-\theta} \rightarrow \max_{C_{1t}, C_{2(t+1)}}$$

Cheklov sharoitida esa quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$C_{1t} + \frac{1}{1+r_{t+1}} C_{2t+1} = w_t A_t.$$

Ushbu masalani yechish uchun Lagranj formulasidan foydalanamiz:

$$\mathcal{L} = \frac{C_{1t}^{1-\theta}}{1-\theta} + \frac{1}{1+\rho} \frac{C_{2(t+1)}^{1-\theta}}{1-\theta} + \lambda [w_t A_t - (C_{1t} + \frac{1}{1+r_{t+1}} C_{2t+1})]$$

Birinchi tartibdagi optimallik shartlari: $S i'$. o‘zgaruvchisi bo‘yicha:

$$C_{1t}^{-\theta} = \lambda,$$

- CW_{t+ij} o‘zgaruvchisi bo‘yicha:

$$\frac{1}{1+\rho} C_{2(t+1)}^{-\theta} = \frac{\lambda}{1+r_{t+1}}.$$

λ ni formuladan olib tashlab quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{C_{2(t+1)}}{C_{1t}} = \left(\frac{1+r_{t+1}}{1+\rho} \right)^{1/\theta}.$$

Bu yerda CW_{t+i} aks ettirib va byudjet cheklovini kiritib quyidagi ifodaga

$$C_{1t} + \left(\frac{(1+r_{t+1})^{(1-\theta)}}{1+\rho} \right)^{1/\theta} C_{1t} = A_t w_t,$$

ega bo‘lamiz:

Bu yerdan

$$C_{1t} = \frac{(1+\rho)^{1/\theta}}{(1+\rho)^{1/\theta} + (1+r_{t+1})^{(1-\theta)/\theta}} A_t w_t$$

yoki

$$C_{1t} = (1 - s(r_{t+1})) A_t w_t,$$

Bunda jamg‘arish me‘yori quyidagiga teng bo‘ladi:

$$s(r) = \frac{(1+r)^{(1-\theta)/\theta}}{(1+\rho)^{1/\theta} + (1+r)^{(1-\theta)/\theta}}.$$

Jamg'arish me'yori $s(r)$ 9 argumenti $v < 1$ holatida o'sishini, $9 > 1$ holatida pasayilishini ilg'ash qiyin emas.

Ikkinchi vaqt oralig'ida kapital hajmi quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_{t+1} = s(r_{t+1})L_t A_t w_t,$$

yoki keltirilgan ko'rinishda quyidagicha ko'rinish oladi

$$k_{t+1} = \frac{1}{(1+n)(1+g)} s(r_{t+1})w_t.$$


Ko'rib chiqilayotgan modelda omillar bozori mukammal raqobatli bozor hisoblanadi. Shuning uchun foiz va ish haqining bozor darajasi mos ravishda kapital va mehnatning cheklangan mahsulotiga teng. Kapital va ishchi kuchining cheklangan mahsuloti uchun yuqorida olingan ifodalardan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$k_{t+1} = \frac{1}{(1+n)(1+g)} s(f'(k_{t+1})) (f(k_t) - k_t f'(k_t)).$$

Ushbu tenglama OLG modelida markaziy o'rinni egallaydi. Shunga e'tiborni qaratish lozimki, u keltirilgan kapital uchun mavhum echimni beradi, chunki k_{t+i} o'zgaruvchisi formulaning o'ng va chap tomonida ham mavjud. k_{t+i} uchun aniq nazariy echimlarga bir qator xususiy holatlarda ega bo'lishimiz mumkin. $0 = 1$ holatida quyidagiga ega bo'lamiz $s(r) = \text{const}$, Kobb-Duglas ishlab chiqarish funktsiyasi uchun: $f(k) = k^a$, $w = (1 - a) k^a$, bu yerda $0 < a < 1$. Bundan quyidagiga ega bo'lamiz


$$k_{t+1} = \frac{1}{(1+n)(1+g)(2+\rho)} (1 - \alpha) k_t^\alpha.$$

$0 < a < 1$ bo'lganligi bois, ushbu tenglama k_o –kapitalning har qanday boshlang'ich qiymatda k^* ko'rsatkichining statsionar barqaror echimiga ega bo'ladi.



3.3-rasm. OLG modeli: keltirilgan kapital dinamikasi.

Umumiy holatlarda bir nechta statsionar echimlar, beqaror statsionar holatlar va statsionar echimlarning mavjud emasligi holatlarini ham kuzatishimiz mumkin.




3.4-rasm. OLG modeli: umumiy holat.

Aytaylik, tutash avlodlar modeli tenglamalari tizimi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lsin:

$$\begin{aligned}
f(k) &= k^\alpha; \\
w &= f(k) - kf'(k) = (1 - \alpha)k^\alpha; \\
r &= \alpha k^{\alpha-1} \\
s &= \frac{(1 + r)^{(1-\theta)/\theta}}{(1 + \rho)^{1/\theta} + (1 + r)^{(1-\theta)/\theta}}; \\
k &= \frac{s}{(1 + n)(1 + g)} (1 - \alpha)k_{-1}^\alpha; \\
c_1 &= (1 - s)(1 - \alpha)k^\alpha; \\
c_2 &= c_1 \left(\frac{1 + r}{1 + \rho}\right)^{1/\theta},
\end{aligned}$$


Bu yerda model o'lchamlari quyidagiga teng: $a = 0.3$; $p = 0.4$; $\theta = 0.5$; $g = 0.02$; $n = 0.01$.

Ushbu holatda keltirilgan kapital va iste'molning fazaviy yo'nalishlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



3.5-rasm. Tutash avlodlar modeli: keltirilgan kapitalning fazaviy traektoriyasi.

Bevosita ko'rish mumkinki, ushbu traektoriyalar ko'rib chiqilayotgan tizimning statsionar nuqtasiga mos keladigan muvozanat qiymatlariga yaqinlashadi.



3.6-rasm. Tutash avlodlar modeli: 1 va 2 vaqt oraliqlarida keltirilgan iste'molning fazaviy traektoriyasi.

Xulosa o'rnida biz tutash avlodlar modeli uchun dinamik samarasizlik tushunchasiga e'tibor qaratamiz. Shuni yodga olish lozimki, oltin qoidaga ko'ra, keltirilgan iste'molni maksimallashtiradigan kapital miqdori quyidagi nisbatni qondiradi:

$$f'(k_{GR}) = \delta + n.$$

Agar $k^* > kcR$ bo'lsa, u holda iqtisodiyot ortiqcha kapitalga egalik qiladi va dinamik jihatdan samarasiz hisoblanadi, ya'ni bunda uzoq muddatli istiqboldda keltirilgan iste'molni oshirish mumkin bo'ladi. Solou modelida jamg'arish me'yori haddan tashqari oshirilgan holatda ushbu vaziyat o'rinli bo'lsa (amalda mumkin bo'lmagan holat), Ramsey modeli uchun $k^* < kcR$, ya'ni dinamik samarasizlik mumkin bo'lmaydi.

3.3. Inson omili va inson kapitali

Yangicha iqtisodiy munosbatlarning qaror topishi sharoitida inson kapitalining milliy iqtisodiyotni barqaror taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rnini aniqlash, undan samarali foydalanish borasida tegishli shart-sharoitlarni yaratish

masalalari mamlakatlarning xalqaro hamjamiyatdagi oʻrni, aholining munosib hayot kechirishi va barqaror rivojlanishini taʼminlash jihatidan ilmiy izlanishlarning muhim yoʻnalishlaridan birini tashkil qiladi. Bu borada ilmiy tadqiqotlarda inson kapitali rivojlanganlik darajasining iqtisodiy oʻsishga taʼsirini tadqiq etish, inson kapitali tarkibiy unsurlarining oʻzaro munosabatini baholash, innovatsiyalarning joriy etilishi va tarqalishiga taʼsirini aniqlash, inson kapitalini rivojlantirishning samarali usullarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsion rivojlanishga toʻsqinlik qilayotgan muammolar qatoriga hududiy sharoitda oʻzgarishlarning koʻlami, tezligi va chuqurligidagi farq ham kiradi. Turli ziddiyatlarning vujudga kelishi asnosida nomutanosibliklarning oʻsishi hududlarning innovatsion taraqqiyotida farqlanishlarni keltirib chiqaradi, bu esa oʻz navbatida innovatsion rivojlanish darajasini belgilab beruvchi omillarni har jihatdan oʻrganishni taqozo etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonida 52-maqсад sifatida: “Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar boʻyicha Oʻzbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yoʻnalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish” -belgilab berilishining oʻziyiq, innovatsion iqtisodiyotni qaror toptirish masalasi milliy iqtisodiyot uchun naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda har qanday davlatda mamlakatning oʻziga xos va etarlicha samarali boʻlgan milliy innovatsion tizimini barpo qilish muhim vazifa hisoblanadi. Shuni alohida taʼkidlab oʻtishimiz lozimki, innovatsion taraqqiyotning yangi modeliga oʻtish birdaniga toʻplanib qolgan salbiy jarayonlarni engib oʻtish va iqtisodiy oʻsishni tezlashtirish imkonini bermaydi. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning yangi innovatsion modelini qaror toptirishda innovatsion salohiyatdan foydalanishni jadallashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, innovatsion xoʻjalik tizimlarining samarali faoliyat koʻrsatishiga imkon

beruvchi yangi institutsional tuzilmalarni yaratishga alohida urg‘u berish talab qilinadi. Hozirda jahonda biznes, fan va davlatning o‘zaro aloqalariga asoslangan innovatsion taraqqiyotning to‘rtta modeli mavjud bo‘lib, mamlakatlar muayyan shart-sharoit va omillarni hisobga olgan holda, u yoki bu modelni tanlashni ma’qul ko‘radilar.

3.1-jadval.

Mavjud innovatsion rivojlanish modellarining taqqoslanma tavsifi va tahlili

Maqsad	Vazifalar	Model yadrosi	Innovatsion tsikl
I. “Evroatlantik model” (Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Italiya)			
To‘liq innovatsion tizim tsiklini yaratish	-xususiy ishlanmalarni tijoratlashtirish; - zaruriy ishlanmalarni import qilish; -yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni eksport qilish	Universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari	To‘liq innovatsion tsikl
II. “Sharqiy Osiyo modeli” (Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan)			
Jahon innovatsion tizimiga integratsiya qilingan innovatsion tizimni barpo qilish	-zaruriy ishlanmalarni import qilish; yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni eksport qilish	Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va korporatsiyalar qoshidagi amaliy tadqiqot markazlari	Fundamental fanning mavjud emasligi
III. “Muqobil model” (Tailand, Chili, Turkiya, Iordaniya, Portugaliya)			
Taraqqiy etgan mamlakatlarning innovatsion tizimlari bilan itegratsiya qilish	yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni import qilish	Universitet va texnoparklarning innovatsion infratuzilmasi	Fundamental va amaliy fanning mavjud emasligi
IV. “Uchlamchi spiral” modeli (AQSh, mazkur modelning ayrim unsurlari Yevropa mamlakatlarining milliy innovatsion tizimida o‘z aksini topgan)			
Boshqa mamlakatlarning innovatsion tizimlarini yutib yuborig asosida moliyaviy resurslarni jamlash	-xususiy ishlanmalarni tijoratlashtirish; - yuqori texnologiyali mahsulot eksportini yo‘lga qo‘yish	Fan-davlat va biznesning o‘zaro hamkorligi	To‘liq innovatsion tsikl

Manba: Ахмедов Д.К., Нуманов К.Ф. Теоритические аспекты инновационной модели экономики. Иктисодиёт ва таълим/2020№4

Mavjud innovatsion taraqqiyot modellarining afzalliklarini taqqoslash va ularni o'rganish asosida universitet, sanoat va davlatning o'zaro munosabatlariga asoslanuvchi, "uchlamchi spiral" modeli katta qiziqish uyg'otadi.

Mazkur modelda innovatsion iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda universitetlarga katta e'tibor qaratiladi.

1995 yilda Buyuk Britaniyada Nyukastl universiteti professori Genri Itskovits Amsterdam universiteti professori Loyet Leydesdorflar tomonidan "uchlamchi spiral" modeli taklif qilinadi.

Innovatsion rivojlanishning boshqa modellaridan farqli o'laroq, "uchlamchi spiral" modelida uchta tashkil etuvchi: universitet, biznes va davlatning o'zaro ta'sirlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon banki kabi yirik xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar uzoq yillardan buyon "nomoddiy" inson kapitali va ijtimoiy kapitalni yaxlit hodisa sifatida o'rganish bilan shug'ullanib keladi. Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, "inson kapitali"ni ta'riflash borasida yaxlit bir yondashuv mavjud emas. Bir qator tadqiqotchilarning izlanishlarida inson kapitalining intellektual (bilim, ko'nikma va boshqalar) va ijtimoiy (ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy tarmoqlar va ularga jalb qilinganlik va shu kabilar) jihatlari ajratib ko'rsatilgani holda, inson kapitali shuningdek, maxsus yoki individual (bilim va ko'nikmalarni uzatish imkoniyatisiz va oddiy (bilim va ko'nikmalarni uzatish imkoniyati) bo'lishi mumkinligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Innovatsion rivojlanishning mavjud modellari tahlili va taqqoslanma tavsifi

Davlatning o'рни	Innovatsion faollikni rag'batlantirish usullari	ITTKIlarini moliyalashtirish jihatlari	O'ziga xos farqli xususiyatlari
I. “Evroatlantik model” (Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Italiya)			
-davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi orqali innovatsion korxonalarni qo'llab-quvvatlash; -innovatsion sohada davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rag'batlantirish; -innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, tijoratlashtirishda ko'maklashish	-qonunchilik bazasini takomillashtirish; -moliyaviy; -soliq	-davlat grantlari; -xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish; -davlat tomonidan qo'shimcha xarajatlarning amalga oshirilishi	Innovatsion taraqqiyotni ta'minlash strategiyasini amalga oshirishda davlatning islohotchilik vazifasi va innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda xususiy biznesning katta o'rin tutishi
II. “Sharqiy Osiyo modeli” (Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan)			
-korporatsiyalarning innovatsion faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish; -yuqori texnologiyali mahsulot eksportiga mo'ljal olish	Innovatsion faollikni shakllantirish borasida tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish	Davlat va xususiy sektor xarajatlari. Xususiy sektor xarajatlarining ustunligi (qariyb 80%)	Innovatsiyalarning asosiy buyurtmachisi va iste'molchisi-yirik biznes
III. “Muqobil model” (Tailand, Chili, Turkiya, Iordaniya, Portugaliya)			
-innovatsion infratuzilmani yaratish va rivojlantirish; -innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash; -yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish; -innovatsion taraqqiyotni ta'minlash borasida ustuvor sohalarni tanlab olish	Innovatsion faollikni ta'minlash borasida tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish	Davlat va xususiy sektor xarajatlari. Innovatsion infratuzilma uchun kadrlar tayyorlash asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladi	Innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va innovatsiyalarni moliyalashtirishda davlatning yetakchi mavqei
IV. “Uchlamchi spiral” modeli (AQSh, mazkur modelning ayrim unsurlari Yevropa mamlakatlarining milliy innovatsion tizimida o'z aksini topgan)			
-innovatsion faoliyat ishtirokchilarining faol	-qonunchilik bazasini	Davlat va xususiy sektor	Innovatsion faoliyat

<p>hamkorligini yoʻlga qoʻyish borasida barcha shart-sharoitlarni yaratish; -texnologik rivojlanishni qoʻllab-quvvatlash; ITTKIlari natijalarini tijoratlashtirishni ragʻbatlantirish</p>	<p>takomillashtirish; -moliyaviy; -soliq</p>	<p>xarajatlari; -venchur kapitaldan foydalanish; - xususiy sektor xarajatlarining ustun mavqei (qariyb 60%)</p>	<p>ishtirokchilarining bir-birini toʻldirish mexanizmi</p>
---	--	---	--

Manba: Axmedov D.K., Numanov K.F. Teoriteticheskie aspekty innovatsionnoy modeli ekonomiki. Iqtisodiyet va taʼlim/2020№4

Jamg'arilgan bilimlar ko'rinishida shaxsning nomoddiy boyligi sifatida inson kapitalini turli yo'llar bilan ko'paytirish mumkin: ta'limni davom ettirish, yangi bilimlar yaratish va ixtirolarni patentlash, boshqaruv ko'nikmalarini takomillashtirish. Bundan xulosa qilish mumkinki, inson kapitali shaxs egalik qiluvchi bilim, ko'nikma va tajribalarning umumiyligini ifoda etsa, ijtimoiy kapital esa undan insonlarning birgalikdagi faoliyatida foydalanishni aks ettiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, qo'shilgan qiymat yaratish yoki hayot sifatini yaxshilash jarayonida foydalanilmaydigan yuqori sifatli inson resurslarini inson kapitali sifatida baholab bo'lmaydi.

3.3-jadval.

Inson kapitali va ijtimoiy kapital tushunchalarining ta'rifi

Inson kapitali	Ijtimoiy kapital
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti	
Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda talab qilinuvchi va muayyan bir shaxs tomonidan egallangan bilim, malaka, ko'nikma va shu kabi sifatlarning yig'indisi	Belgilangan maqsadlarga erishish borasida insonlarga o'z hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi ijtimoiy tuzilmalarda qaror topgan me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar
Jahon banki	
Inson tomonidan egallangan va uning mehnat samaradorligini oshirishga imkon beruvchi bilim, malaka va ko'nikmalarning yaxlitligi. Inson kapitalini ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik kabi-larga sarmoya kiritish orqali ko'paytirish va sifatini yaxshilash mumkin	Jamoaviy hatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi o'zaro aloqalar, urf-odatlar va institutlarni o'z ichiga oladi
Yevropa Ittifoqining ijtimoiy o'lchovlar va bandlik bo'yicha oliy darajadagi guruhi	
Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy farovonlikka imkon beruvchi xaxsga tegishli bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetentsiyalar	Umumiy maqsadlarga erishish uchun guruh ichida yoki guruhlar o'rtasida o'zaro hamkorlikka zamin yaratuvchi o'zga shaxslarning qadriyatlarini, urf-odatlarini, axloqiy me'yorlarini hurmat qilgan holda ijtimoiy hayotda ishtirok etish (European Council,2003)
Qirollik texnologik instituti tadqiqotchilari KTH (Stokgolm)	
Ijtimoiy kapital- ijtimoiy tarmoqlar orqali yaratiluvchi, to'planuvchi va uzatiluvchi munosabatlar, me'yorlar va qoidalarining jamlanmasi (Westlund, Gawell,2012.P.104)	

Manba: <https://mgimo.ru/upload/iblock/19f/19fe6395e5a15150f715f072dd07a1fa.pdf>

[murojat vaqti 05.05.2022y]

Quyidagi 3.4- jadvalda bilimlarning turlari keltirib o‘tilgan. Bilimlar aniq ma’lumotlarga asoslangan bilimlardan tortib, ijtimoiy hamkorlik jarayonida foydalaniluvchi bilimlarga bo‘lgan turlarga bo‘linadi. Inson kapitalini nafaqat muayyan bir shaxs, balki butun bir jamiyatning farovonligi va raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida baholash lozim, chunonchi mamlakatning taraqqiyoti birinchi navbatda intellektual salohiyatga bog‘liq ekanligi bugun kunning hayotiy haqiqatiga aylanib ulgurdi.

Ma’lumki, innovatsion rivojlanishni belgilashda olimlar ushbu jarayonning quyidagi jihatlariga e’tibor berishadi:

- miqdoriy (texnik ixtirolarning soni) va sifat o‘lchamlarini hisobga olgan holda (transformatsiyalarda tashkiliy va kadrlar salohiyatidan foydalanish) -

M.A.Batkovskiy, V.P.Bojko, I.V. Bulaeva, T. Lukyanova;

3.4-jadval.

Bilimlar kategoriyasi

Know-what	Amaliy bilimlar
Know –whu	Jamiyat, tafakur, tabiat qonunlari va tamoyillari haqidagi bilimlar
Know- how	Ko‘nikmalar, yaratuvchanlik qobiliyati (ijodiy faoliyat)
Know- who	Hamkorlikka, turli insonlar va ekspertlar bilan muloqotga kirishuvchanlikka bo‘lgan layoqat

Manba:OECD,2001.P.18-19.

- transformatsiyalarning strategik, keng qamrovli xususiyati (iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi jarayonlarni hisobga olish zarurati; hayotning barcha jabhalarida yangilik va ixtirolardan foydalanishni turli yo‘llar bilan qo‘llab-quvatlash) - V.E. Roxchin, G.V. Klimenkov, E.A. Gorin, S. V. Kuznetsov, M. E. Oseevskiy;

- o‘zgarishlarning yo‘naltirilganligi, boshqaruv ierarxiyasining turli darajalarida taqsimlanishi, innovatsion faoliyat subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik (L.G. Simkina, V.V. Svechnikova, A.I.Shishkina, P.V. Drujinina, E.G. Nemkovich, A.E. Kurilo);

- transformatsiyalarda shaxsning faolligi (texnologik o'zgarishlarning uzoq muddatli sur'atlarini shakllantiruvchi va o'z hatti- harakatlarida atrof-muhit omillarini, shuningdek, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarni hisobga oluvchi strategik innovatorlar) - S. Litovchenok, M. Shexovtsov, A. Do'nin, S. Kostrov, V. Evseev, A. Grishunin, O.A. Stroeva;

- homashyoga bog'liqlikni kamaytirish va nomoddiy aktivlar ta'sirini oshirish orqali raqobat kurashida afzalliklarning mavjudligi (L.G.Simkina, P.V.Drujinina, A.I.Shishkin va boshqalar);

- demografik jarayonlarning qulay dinamikasi, aholining turmush darajasining o'sishi, atrof-muhit holatining yaxshilanishidan iborat bo'lgan o'zgarishlarning ijobiy natijalari (E.A.Mixurinskaya).

Xulosa qilib aytganda, innovatsion rivojlanishning ijtimoiy yo'naltirilganligi bir tomondan inson hayotining sifat jihatdan o'zgarishiga ta'sir ko'rsatsa, boshqa bir tomondan esa, jamiyat a'zolarining qobiliyat, kasbiy ko'nikma va malakalarini o'zgartirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion rivojlanishni yuqoridagi xususiyatlar va yondashuvlarni hisobga olgan holda, uni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar va islohotlarda insonlarning faol ishtiroki, faoliyat uslubi va vosita-larini takomillashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish bilan tavsiflanuvchi strategik jarayon sifatida talqin qilishimiz mumkin bo'ladi.

Inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ta'sirini baholash hamda aks ta'sirni tahlil qilish bo'yicha qo'llanilgan turli xil nazariy yondashuvlar, usullar va ma'lumotlardan foydalanilgan tadqiqotlar xilma-xil natijalar beradi, bu esa ushbu holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni atroflicha o'rganishni taqozo qiladi.

Tadqiqot natijalaridagi farqlanishlarning asosiy sabablaridan biri- bu inson kapitali va ilmiy-texnik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'sirini turlicha izohlab berishga xizmat qiluvchi nazariy qoidalardan foydalanilganligida namoyon bo'ladi. Jang'arish nazariyasi nuqtai nazaridan yondashilganda, inson kapitali mehnat unumdorligi va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz

mumkin bo'лади. Assimilyatsiya nazariyasiga ko'ra, inson kapitali texnologik taraqqiyotni jadallashtiradi, o'z navbatida texnologik taraqqiyot esa iqtisodiy o'sishga turtki beradi.

Dastlabki nazariy shart-sharoitlarning turli tumanligi tufayli tadqiqotlarda qo'llaniladigan modellar ham bir-biridan farq qiladi. Modellarining bir guruhida texnik taraqqiyot iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va tashqi ta'sirlar bo'lmagan taqdirda ishlab chiqarish omillari (shu jumladan, inson kapitali) rentabelligi pasayishi tufayli iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi.

Ikkinchi guruhda esa, inson kapitaliga investitsiyalar ishlab chiqarish omillarining rentabelligini pasaytirmaydi, aksincha yangi bilim va texnologiyalarni yaratishni ta'min qiladi, o'z navbatida ishlab chiqarish omillari va ko'rsatkichlaridan birining doimiy o'zgarishi iqtisodiy o'zgarishlarning tezligiga ta'sir qilishi mumkinligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu modellar guruhida inson kapitali mamlakat yalpi ishlab chiqarishi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'riladi. Iqtisodiy rivojlanishga bilim va ilmiy salohiyat ta'sirini o'rganish borasidagi tadqiqotlar rossiyalik iqtisodchi olimlar V.V. Kiseleva, T.E. Kuznetsova, V.L. Makarova va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

XX asrning dastlabki yillaridan boshlab, inson kapitalining hududlarning innovatsion rivojlanishiga ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshira boshlangan. Akademik S.G. Strumilin 1920-yillarda ta'limning mamlakatlar iqtisodiy o'sishiga ta'sirini tahlil qilgan.

1960-1970 yillarda rossiyalik olimlar (A.I. Anchishkin, T.S. Xachaturov, Yu.V. Yaremenko) iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasini ishlab chiqadilar va bunda ular intensiv o'sish va uning miqdoriy jihatlariga alohida urg'u beradilar. 1980-yillarning boshlariga kelib, iqtisodiy o'sish nazariyasi shakllandi, mazkur nazariyada ishlab chiqarish kuchlaridan samarali foydalanish va rivojlantirish borasidagi qarashlar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga xizmat qiluvchi tarmoq va sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

Ushbu masala makro va mikro darajalarda o'rganilgan. Xususan, O.G.Golichenko makroiqtisodiy vositalarning iqtisodiy o'sishga, innovatsiyalarga asoslangan ta'sirini hisobga oladigan yondashuvni taklif qilgan bo'lsa; T.V. Teplova intellektual kapitalning mikro darajadagi iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilgan. Inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri borasida keng ko'lamlı tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, bunday tadqiqotlar sirasiga: bilimlar iqtisodiyotiga o'tish davrida ta'lim xizmatlari bozorlarini shakllantirish (Makarov V.L., 2005); ilmiy-texnik va innovatsion sohada kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish (Bartolomyu D., 1985; Varshavskiy L.E., 1999); ilmiy xodimlarning mahsuldorligi (Terexov A.I., Mirabyan L.M., 1998); bilimlarni uzatish mexanizmlari (Varshavskiy AE, 2005; Golichenko O.G, 2006) kabilarni qo'shishimiz mumkin.

G'arblik iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan ham inson kapitalining innovatsion taraqqiyotga ijobiy va salbiy ta'siri borasida keng ko'lamlı tadqiqotlar amalga oshirilgan. Inson kapitali borasidagi fundamental nazariy g'oyalar ta'limning tashqi samarasidan foydalangan holda o'sish manbalarini izohlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy o'sish modellarida tushuntirib berilgan. Bu boradagi tadqiqotlar sirasiga "birinchi to'lqin" endogen iqtisodiy tadqiqotlarni kiritishimiz mumkin, bunda ishlab chiqarish omillarining cheklangan mahsuldorligi kamaymasligi yoqlanadi. Keyinchalik texnik taraqqiyot ko'lamlari, innovatsiyalarni yaratish va ulardan amalda samarali foydalanish bilan bog'liq jihatlar ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topa boshladi, bu esa navbatida iqtisodiy o'sishda innovatsiyalarning o'rni to'g'risida nazariy qoidalarni shakllantirish uchun asos bo'lib hizmat qildi endogen iqtisodiy o'sish borasidagi tadqiqotlarning "ikkinchi to'lqini" sifatida Romer, 1990; Agion, Xovit 1990, 1992; Grossman, Xelpman, 1991 kabi tadqiqotchilarning asarlarida o'z aksini topdi.


Yuqorida tilga olib o'tilgan tadqiqotlar quyidagi jihatlar bilan bir-biridan ajralib turadi:

- tahlil jarayonida foydalanilgan modelning o'ziga xos jihatlari;

- ta'limni o'lchashdagi xatolarning o'zgaruvchanligi (ta'limning o'rtacha davomiyligini hisoblashda boshlang'ich maktab ta'limi va doktorlik darajasini olish hisobga olinadi, bu esa inson kapitali tuzilishi bo'yicha noaniq xulosalarga olib kelishi mumkin);

- tahlil ko'rsatkichlari doirasini shakllantirishda o'rganishning sifat xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirish;

- baholash natijalarining bir xilligi va multikollinarligi (olingan natijalarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar o'rtasida nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki teskari aloqaning ham mavjudligi) va shu kabilar.



3.7 - rasm. Inson kapitali nazariyasining rivojlanishi.

Manba: Akramova Sh.G. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2019.

Jumladan mazkur sohada tadqiqot olib borgan mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh. G. Akramova inson kapitali to'g'risidagi xorijiy va mahalliy iqtisodiy fikrlarni tizimlashtirish natijasida inson kapitali nazariyasi rivojlanishini quyidagi 7-rasmda ko'rsatilgan bosqichlarga ajratishni tavsiya qiladi.

Inson kapitali bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining rang-barangligi hududlarni innovatsion rivojlantirishda inson kapitalining o'rnini baholash borasida amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlari sifati va ko'lamiga ta'sir ko'rsatadi.

Inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rni borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning **birinchi guruhiga** inson kapitalining ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatish ko'lami va sifati asoslab berilgan ilmiy izlanishlar mansub bo'lib, bunday tadqiqotlar sirasiga Romer, 1990; Barro, 1991; Templ, 1999; Kruger va Lindal, 2001; De la Fuente va Dominik, 2005 kabi olimlarning asarlarini kiritishimiz mumkin. Bu o'rinda aksariyat tadqiqotlarda inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasida muhim ijobiy bog'liqlik mavjudligi tasdiqlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi (R. Solou 1992).

Ikkinchi guruh tadqiqotlari sirasiga inson kapitalining innovatsion rivojlanishga (chiziqli bo'lmagan va bilvosita) to'g'ridan-to'g'ri statistik ta'sirini ochib berishga xizmat qilgan Barro, Kalaytzidakis va Xodjo kabi olimlarning izlanish natijalarini kiritishimiz mumkin.

Uchinchi guruhga inson kapitali va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi statistik bog'liqliklar aniqlashtirilgan Knovl, Ouen, Nonneman, Vanxaud, Xoeffler, Pritchett kabi olimlarning asarlari kiritilgan. Boulxolning ta'kidlashicha, uzoq muddatli istiqbolda inson kapitalining hududlarning innovatsion taraqqiyotiga ta'siri masalalari hali etarlicha tadqiq qilinmagan.

Inson kapitaliga investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlili natijalari ham bir-biriga zid xulosalar beradi. 2000 yillarning boshlarida Yevropa mamlakatlarida AQSh bilan taqqoslaganda oliy ta'limga investitsiyalarning past darajasi kuzatilgan, xususan Yevropa Ittifoqida YaIMning 1,4%i, AQShda esa YaIMning 3,0%i oliy ta'limga investitsiya sifatida yo'naltirilganligi, bugungi kunda Yevropa Ittifoqining orqada qolishining sabablaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo, Ikkinchi Jahon urushidan keyingi dastlabki yigirma yil ichida Yevropa davlatlari boshlang'ich va o'rta ta'limga investitsiyalarning nisbatan past bo'lishiga qaramasdan AQShga nisbatan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga

erishganligi Agiyon tadqiqotlarida tilga olib o'tilgan. Osiyo yo'lbarzlari sanaluvchi Gonkong, Tayvan, Janubiy Koreya va Singapur mamlakatlari boshlang'ich va o'rta ta'limga investitsiyalarni yo'naltirish evaziga o'ziga xos mo'jiza yaratganlari holda, yuksak iqtisodiy natijalarga erishdilar.

Inson kapitalining texnologiya va innovatsiyalarning ommalashishiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi ilmiy izlanishlar etarlicha ko'p emas, bunday izlanishlar sirasiga Findlay, 1978; Vang va Blomstraom 1992; Das, 1987; Meyer-Folkis va Nunnenkamp, 2009 kabilarning asarlarini kritish mumkin.

Texnologiyalar borasida yetakchi mamlakatlar bilan farqni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan inson kapitalining minimal darajasini hisoblab chiqish borasida sanoqli tadqiqotlar mavjud (Borenszteyn va boshq. 1998; Crespo va boshq. 2004; Benhabib va Shpigel 2005; Kiruelos va Vang 2005), texnologiyalar almashish yo'llarini tadqiq etuvchilar (Findlay, 1978). Tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan asosiy ilmiy masala - bu texnologiyada mujassamlashgan "kapitalning to'lib toshishi" rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarni taqqoslaganda iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi farqni bartaraf etish uchun zarur vaqt oralig'ini kamaytira olishi mumkinmi yoki yo'qmi degan savolga javab topishdan iboratdir.

Texnologik jihatdan qoloqlikni bartaraf qilish va shu asnodan innovatsion taraqqiyotni ta'minlash milliy xo'jalikda texnologiyalarni yaratish yoki ularni texnologik jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlardan qarzga olish evaziga ta'minlanishi mumkin.

Texnologiyalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish yoki texnologik jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga taqlid qilish mamlakatlararo va mamlakat darajasida, shuningdek mikro darajada ham o'rganiladi. Bu borada so'nggi yillarda e'lon qilingan ilmiy izlanishlar salmog'i ozchilikni tashkil qiladi.

Jon Veyli va Xiliang Jao tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni makro ko'lamdagi tadqiqotlar sirasiga kiritishimiz mumkin, mazkur olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida 1978-2008 yillar oralig'ida Xitoyning iqtisodiy o'sishiga

inson kapitalining qo‘shgan ulushi baholangan va inson kapitalidan samarali foydalanish hisobiga mamlakatdagi iqtisodiy o‘zgarishlarning 38%i amalga oshirilganligi ilmiy jihatdan isbotlab berilgan. Nikola Gennayoli, Rafayl la Porta, Florenzio Lopez de Silanes, Andrey Shleyfer 110 ta mamlakat doirasida iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlarini R. Lukas ishlanmalariga asoslangan model yordamida iqtisodiy tahlil qilish asnosida mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlar bevosita inson kapitali sifati va samarasiga bog‘liq, degan xulosaga kelishgan. Inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini mikro darajada tadqiq qilish borasidagi adqiqot natijalari ham tarqoq tavsifga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Inson kapitalining korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta’siri atroflicha o‘rganilgan bir qator ilmiy izlanishlar mahsuli bo‘lgan tadqiqot natijalari mavjudligini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bunday tadqiqotlar qatorida 1980-1990 yillar davomida 42 ta mamlakatda 37 ta sanoat tarmoqlari ma’lumotlarini tahlil qilish asosida inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ijobiy ta’sirini asoslab bergan Karina Xitch va Jovanni Sulis va inson kapitalining iqtisodiy o‘shishga ta’sirini statistik jihatdan o‘rgangan Di Libertoning ilmiy izlanishlarini sanab o‘tishimiz mumkin.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni ta’kidlab o‘tamiz:

1. Hududlarning innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining ta’sirining tabiati har xil bo‘lishi tabiiydir, chunki bu “ta’lim” ni o‘lchashdagi xatolar, uning sifati, endogen xususiyati va ko‘p qirraliligini hisobga olmaslik bilan bog‘liq.

2. “Innovatsion rivojlanish” kontseptsiyasini aniqlash borasidagi yondashuvlar - omil, jarayon - innovatsion rivojlanish subyektlari faoliyati, tashqi va ichki muhitni o‘zgartirish imkoniyati nuqtai nazaridan ochib beriladi. Innovatsion rivojlanishni o‘rganish mazkur jarayonning xususiyatlarini, shu jumladan jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar sharoitida shaxsning faol o‘rni va

o'zgarishlarning ijtimoiy yo'nalishini hisobga olishni nazarda tutadigan tizimli yondashuvni qo'llashga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi.

3. Aholining savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan siyosat inson kapitalining jamg'arilish darajasi, mamlakatdagi fan va texnika taraqqiyoti darajasiga ta'sir ko'rsatadi, texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mamlakatning innovatsion taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4. Ta'limga mablag' sarflash va aholining kasbiy saviyasini oshirish aholi farovonligi va innovatsion faolligini oshirishga xizmat qilish bir qatorda, inson kapitali sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Inson kapitali innovatsion o'zgarishlarni tezlashtiruvchi va yoki aksincha sekinlashtiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, inson kapitalining hududlarning innovatsion rivojlanishiga ta'sirining o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish muhim sanaladi.

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Barcha davrlarda ham olimlar insonlarning kundalik hayotida sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganishiga intilib kelganlar. Qadimgi davrlarda ham faylasuflar va ilohiyotchilar o'zlarining asarlarida o'sha davrlarda mavjud bilimlarga tayangan holda, muayyan bir qonuniyatlarni kuzatadilar va ular borasidagi o'zlarining turli qarashlari va farazlarini ilgari suradilar. Iqtisodiy nazariya va ekonometrikaning rivojlanishi olimlarga turli xil iqtisodiy quyi tizimlarning modellarini yaratishga, shuningdek ularni statistik usullar va matematik modellashtirish yordamida tushuntirishga imkon berdi.

P.Daymond tahlil sohasiga ishlab chiqarish sektorini kiritadi, buning natijasida mazkur model bir muncha keng qamrovli makroiqtisodiy modelga aylanadi. U iqtisodiyotdagi quyidagi bog'liqliklarni bayon qilishga imkon beradi: Turli avlod vakillari o'rtasida pul mablag'larining harakatlanishi; Davlat qarzining individlar xulq-atvoriga ta'siri; Pensiya tizimining samaradorligi.

Tutash avlodlar modeli iqtisodiy o'sishni mukammal raqobat sharoitida joriy iqtisodiy jarayonlarni o'tgan davrdagi iqtisodiy jarayonlar bilan aloqadorligini

kuzatish asnosida iqtisodiy o'sishni ko'rib chiqadi ushbu model ikkita alohida qismlarni birlashtirish asosida quriladi. Ularning birinchisi P. Samuelson tomonidan 20 asrning 60-yillarida takomiliga etkazilgan kapital hisobiga foiz daromadlari nazariyasini o'z ichiga oladi. U mazkur jarayonlarni ikki avlod – yoshlar va qariyalar nuqtai nazaridan qarab chiqishni taklif qiladi. Yoshlar mehnat qiladilar va daromad oladilar, qariyalar esa o'z jamg'armalarini safr qiladilar. Ushbu nazariya iqtisodiyotda jamg'armalarning shakllanishi va ularning keyinchalik investitsiyalarga aylanishini kuzatish imkonini beradi. Modelning ikkinchi qismi Samuelson, Solou va Ramsay modellarini birlashtirish asosiga quriladi va bunda bir qator umumiy xulosalar ilgari suriladi: Vaqt sakrab o'zgaradi; Iqtisodiyot yopiq tizim sifatida ko'riladi; Bozorda iste'mol qilish va investitsiyalash mumkin bo'lgan birgina ne'mat ishlab chiqariladi; Ishlab chiqarishning asosiy omillari kapital va mehnat hisoblanadi. Piter Daymond yuqorida sanab o'tilgan modellarni birlashtirgan holda, Daymond-Samuelson modeli deb nom olgan etarlicha samarali modelni yaratdi. Tutash avlodlar tushunchasi-ning o'zi bir paytning turli vaqt oraliqlarida tug'ilgan bir necha avlodlar mavjud bo'lishini anglatadi. Uy xo'jaliklari guruhlarini umumlashtirish uchun ularni yosh va qariga ajratish qabul qilingan. Ushbu holatda t va $t+1$ vaqt oraliqlarida istiqomat qiluvchi avlodlar soni L_t ko'rsatkichiga tenglashtiriladi. Dastlabki davrlarda uy xo'jaliklari mehnat qiladi va w_t miqdorda daromad oladi, bunda noelastik mehnat taklifi- L_t ni yaratadilar. Keyingi davr oralig'ida xuddi shu uy xo'jaliklari mehnat bilan shug'ullanmaydilar va daromad olmaydilar. Eng oddiy holatda uy xo'jaligi mehnat qilib, so'ngra hech bir qo'shimcha kapital va me'rosga ega bo'lmagan holda pensiyaga chiqishi qarab chiqiladi. Birinchi davr mobaynida olingan daromadlar joriy iste'mol va jamg'armalarga ajratiladi. Keyingi davrda uy xo'jaligi o'tgan davrdagi jamg'armalaridan olinuvchi yalpi daromadlardan foydalanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, jamg'armalar bo'yicha foiz stavkalarining o'sishi uy xo'jaliklari tomonidan jamg'arishga yo'nal-tirilayotgan pul mablag'larining o'sishiga o'lb keladi. Ishlab chiqarish sektori doirasida mehnat (L_t)

va kapital (Kt) ko'rsatkichlar, shuningdek yalpi ishlab chiqarish hajmi Yt qarab chiqiladi. Birinchi davr oralig'idagi investitsiyalar ikkinchi davrda kapital hajmini oshirish imkonini beradi. Kapital daromadlilikligi ikkinchi davrga nisbatan qarab chiqiladi. Bunda yosh va qari avlod mavjud kapitalgagina egalik qiladi yoki uni sotib oladi, ular o'zlaridan so'ng, hech qanday aktiv va me'rosga ega bo'lmaydilar, deb faraz qilinadi. Agar kapital ishlab chiqarishda foydalaniluvchi yagona aktiv deb, faraz qilsak, u holda yosh avlod o'z jamg'armalarini ko'paytira borib, joriy ishlab chiqarish kapitaliga qo'yilma kiritadilar, deb so'z yuritsak o'rinli bo'ladi. Ushbu holatda har bir davrdagi kapital qiymati o'tgan davrlar mobaynida uy xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilgan jamg'armalarga nisbatan hisoblanadi. Shunday qilib, aholining farovonligi kapital nisbatiga bog'liq hisoblanadi, agar yuqoridagi shartlar bajarilsa aholi farovonligi va o'z navbatida yollanma ishchilarning mehnat daromadlari ham ortadi. Ya'ni, har bir keyingi avlodning turmush darajasi avvalgisining turmush darajasidan yuqori bo'ladi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Tutash avlodlar modelining asosiy jihatlari va undan amalda foydalanish borasida fikrlaringizni bayon qiling?
2. Kapitalga bo'lgan talab va kapital turlari to'g'risida tushuncha bering?
3. Uy xo'jaliklarining iqtisodiy xulq-atvori qanday omillar va shart-sharoitlar asosida shakllanadi?
4. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda inson omili va inson kapitalining o'rni qanday?

Referat mavzulari:

1. Samuelson-Daymond yoki tutash avlodlar modeli.
2. Ekonometrika iqtisodiyot nazariyasining muhim o'g'ini sifatida.
3. Tutash avlodlar nazariyasi va uning iqtisodiyotda amaliy qo'llanilishi

Mushohada uchun:

Pandemiya va pandemiya bilan bog'liq global inqiroz sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi qarashlar qanday o'zgardi, deb o'ylaysiz?

Masalalar:

1. Tarmoqda ikkita firma faoliyat ko'rsatadi va ularning xarajat funktsiyalari quyidagicha: $c_1(y_1) = y_1^2 + 7y_1$, $c_2(y_2) = 13y_2$. Tarmoq mahsulotiga talab $D(p) = 100 - p$ funktsiyasi bilan berilgan. Firmalar Kurno modeliga ko'ra o'zaro aloqada deb faraz qilsak, har bir firma uchun muvozanatli ishlab chiqarish hajmini, tarmoq ishlab chiqarishini va mahsulot narxini aniqlang.

Yechish usuli: Kurno modelida firmalar bir vaqtning o'zida o'z foydasini maksimallashtirish mezoniga asoslangan ishlab chiqarish hajmini tanlaydilar:

$$p(y_1 + y_2)y_1 - (y_1^2 + 7y_1) \rightarrow \max$$
$$y_1 \geq 0$$

Firma o'z mahsulotini sotishi mumkin bo'lgan narx bozor talabidan kelib chiqib belgilanadi va raqobatchining ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'ladi: $p(y_1 + y_2) = 100 - (y_1 + y_2)$

Ishlab chiqarishning ijobiy holatida birinchi tartibli shartlar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: $100 - 2y_1 - y_2 - (2y_1 + 7) = 0$ va $100 - 2y_2 - y_1 - (2y_2 + 13) = 0$.

Olingan tenglamalarni echib $y_1 = 19$, $y_2 = 17$ qiymatlarga ega bo'lamiz. Tarmoqning muvozanatli ishlab chiqarish hajmi $Q = 36$, muvozanatli narx $P = 64$ ga teng bo'ladi.

2. Quyidagi ma'lumotlar majud:

Ko'rsatkichlar	Shartli pul birligi
Yalpi ishlab chiqarish	1100
Mahsulotlar va importga soliq (egri soliqlar)	100
Mahsulot va importga subsidiyalar	60
Tovar va xizmatlar importi	120
Oraliq iste'mol	580
Iste'molchilar va davlatning yakuniy iste'mol uchun xarajatlari	380
Tovar va xizmatlar eksporti	110

Yalpi investitsiyalar	200
-----------------------	-----

Quyidagilarni aniqlang:

A) bozor narxlaridagi YaIMni ikki usul bilan.

B) statistik farqlanish qanchaga teng.

Yechish usuli:

A) mavjud ma'lumotlar asosida yalpi ichki mahsulotni ikki usul bilan o'lchash mumkin: qo'shilgan qiymat usuli va yakuniy foydalanish (xarajatlar) usuli.

Qo'shilgan qiymat usuli bo'yicha YaIM quyidagi formula bilan hisoblanadi: YaIMq yalpi ishlab chiqarish- oraliq iste'mol + egri soliqlar-mahsulot va importga subsidiyalar; YaIM=1100-580+100-60=560 shartli pul birligi.

Xarajatlar bo'yicha YaIM quyidagicha hisoblab topiladi:

YaIM= PI+ YaI+(E-I); YaIM=380+200+ (110-120)=570 shartli pul birligi.

B) Statistik farqq ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIM- yakuniy foydalanish usulida hisoblangan YaIM;

Statistik farqq 10 shartli pul birligi.

3. Quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Ko'rsatkichlar	Qiymati, shartli pul birligi
Ish haqi	220
Davlat xaridlari	110
Amortizatsiya	35
Sof investitsiyalar	90
Renta to'lovlari	51
Mahsulot va importga soliqlar	59
Kiritilgan kapital uchun foizlar	30
Tovar va xizmatlar importi	40
Foyda	120
Tovar va xizmatlar eksporti	25
Iste'mol xarajatlari	270

Aniqlang:

A) bozor narxlaridagi YaIMni ikkita usul bilan.

B) Milliy daromad.

Yechish usuli:

A) Daromadlar bo'yicha YaIMq ish haqi+foyda+foizlar+renta +amortizatsiya + egri soliqlar;

$$YaIM = 220 + 120 + 30 + 51 + 35 + 59 = 515$$

Yakuniy foydalanish yoki xarajatlar usuli bo'yicha YaIM.

$$YaIM = IX + YaI + (E - I); YaIM = (270 + 110) + (35 + 90) + (25 - 40) = 490'$$

B) MDq YaIM-amortizatsiya-mahsulot va importga soliqlar: MD=515-35-59=421.

4. Ma'lumotlar asosida har bir yil uchun nominal YaIM, o'tgan davr narxlarida real YaIM, har bir yil uchun deflyator va iste'mol narxlarini indeksini aniqlang.

Yillar	Oziq-ovqat mahsulotlari		Ustki kiyimlar		Tokarlik stanoklari	
	Narx, pul birligi	Miqdori, dona	Narx, pul birligi	Miqdori, dona	Narx, pul birligi	Miqdori, dona
2010	850	465	1050	305	10500	100
2011	870	485	1100	285	10600	105

Yechish usuli:

2010 yil uchun YaIM=850*465+1050*305+10500*100=1765500 pul birligi.

2011 yil uchun YaIM=870*485+1100*285+10600*105=1848450 pul birligi.

Real YaIM= 485*850+285*1050+105*10500=1814000 pul birligi.

Deflyatorq 1848450/1814000=1,02

INI= ((870*465)+ (1100*305))/((850*465)+(1050*305))= 1,034

5."Uy xo'jaliklari" sektorining daromadlari to'langan soliqlarni hisobga olgan holda, o'tgan yildagi 2850 pul birligidan 3050 pul birligiga qadar ko'paydi. Bunda iste'mol xarajatlari 140 pul birligiga oshgan.

Quyidagilarni aniqlang:

A) Iste'molga chegaraviy moyillik.

B) jamg'arishga chegaraviy moyillik.

Yechish usuli:

Iste'molga chegaraviy moyillikni quyidagi formula bo'yicha topamiz:

$$MPC = \Delta C / \Delta Y = 140 / 200 = 0,7$$

$MPC = 0,7$ daromadning o'sishi sharoitida o'sayotgan daromadning 70 foizi iste'molga yo'naltirilishini anglatadi.

B) Jamg'arishga chegaraviy moyillikni quyidagi formula bo'yicha topamiz:

$$MPS = \Delta S / \Delta Y = (200 - 140) / 200 = 0,3 \text{ yoki } MPS = 1 - MPC = 1 - 0,7 = 0,3$$

$MPS = 0,3$ daromadning o'sishi sharoitida o'sayotgan daromadning 30 foizi jamg'arishga yo'naltirilishini anglatadi.

Keys: Oziq-ovqat xavfsizligi- erkinlik va farovonlik asosi sifatida

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida noaniqlik darajasi indeksi kun sayin o'sib bormoqda. Bu o'z navbatida COVID-19 pandemiyasining hali davom etayotganligi, jahonda geosiyosiy vaziyatning chigallashuvi, energetik inqirozning kun sayin kuchayishi, global inflyatsion jarayonlarning jadallashishi, ekologik xatarlarning ortishi kabi omillar bilan bog'liqdir. Bugungi kunda Jahon banki dunyo mamlakatlarining markaziy banklarini inflyatsiyani jilovlash borasida o'z hatti-harakatlarini muvofiqlashtirishga chaqirmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasining bashoratlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo yalpi ichki mahsulotining 86 foizi to'g'ri keluvchi 143 ta mamlakatda iqtisodiy o'sish shart-sharoitlari yomonlashadi.

Rossiya-Ukraina mojarosi tufayli Yevropa, Osiyo, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalarining oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslarini import qiluvchi mamlakatlari katta aziyat chekadilar. Jahon bozorlarida xomashyo narxlarining o'sishi neft, tabiiy gaz va metal eksport qiluvchi mamlakatlar uchun bir muncha qulay shart-sharoitlarni taqdim qilsa-da, mazkur mamlakatlar ham o'sib borayotgan noaniqlikdan aziyat chekadilar, ularning yutuqlari dunyo iqtisodiyotining zaiflashishini qoplay olmaydi. COVID-19 pandemiyasi keyingi oylar ichida jahondagi geosiyosiy vaziyatning chigallashishi tufayli bir muncha e'tibordan chetda qolayotgan bo'lsa-da, virusning yangi va favqulodda xavfli shtammlarining paydo bo'lish xavfi saqlanib qolmoqda, bu esa o'z navbatida dunyo iqtisodiyoti uchun qo'shimcha iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, tahlilchilar dunyo iqtisodiyoti inqiroz ichidagi inqirozni boshidan kechirishi haqida ogohlantirmoqdalar.

Pandemiya tufayli ta'minot zanjiridagi uzilishlar, oziq-ovqat va energiya tashuvchilar narxlarining ko'tarilishi sababli rivojlangan mamlakatlarda so'nggi 40 yil ichida inflyatsiya darajasi keskin ko'tarildi.

Jahon banking ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyada YaIMning pasayishi 2022 yilda 11,2 foizni, Ukrainada esa 45,1 foizni tashkil etadi, mazkur mamlakatlarda inflyatsiya mos ravishda 22 va 15 foizgacha o'sadi. Jahon banki iqtisodchilari 2022 yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarining YaIM yo'qotishlari 4,1 foizni tashkil etishini ta'kidlashmoqda. Bu yo'qotishlar 2020 yilgi retsessiya davriga qaraganda ikki martadan oshiqroq-ni tashkil qiladi. Tahlilchilar Yevropa va Markaziy Osiyoning barcha davlatlari Rossiya va Ukraina bilan yaqin aloqalar, jumladan, savdo, moliyaviy va migratsiya aloqalari tufayli jiddiy iqtisodiy zarar ko'rishini ta'kidlashmoqda.

Rossiya rangli va qora metallar va energiya tashuvchilarning eng yirik eksportchilaridan biri hisoblanadi, shuningdek, jahonda bug'doy eksportining to'rtidan bir qismidan ko'prog'i Rossiya va Ukraina ulushiga to'g'ri keladi, Yevropada tabiiy gazning 47 foizi, neftning 25 foizi Rossiyadan import qilinadi. Armaniston, Gruziya, Qozog'iston va Turkiya jami iste'mol qilinadigan bug'doyning 75 foizdan oshiqrog'ini Rossiya va va Ukrainadan import qiladi, xuddi shu kabi Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlarida ham hozirgi mojarolar asnosida oziq ovqat xavfsizligi bilan bog'liq jiddiy xatarlar yuzaga kelishi kutiladi. Ta'minotdagi uzilishlar, oziq-

ovqat va energiya tashuvchilar narxining o'sishi butun dunyoda inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keladi. Tahlilchi-larning fikricha, Rossiya va Ukrainaga dunyo eksportining atigi 3 foizi to'g'ri kelsada, xalqaro savdo yo'laklarini tashkil qilishdagi muammolar barcha tarmoq va sohalarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuningdek, Rossiyada o'z mehnat faoliyatini olib borayotgan fuqarolarning pul o'tkazmalari Qirg'iziston va Tojikistonda YaIMning qariyb 30 foizini tashkil qilsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich qariyb 11 foizga etadi. 2022 yilda bunday pul o'tkazmalari 17-22 foizgacha qisqarishi kutilmoqda. Jahon bankining bashoratlariga ko'ra, 2022 yilda Belarus Respublikasida (6,5%); Kirg'iz Respublikasida (5%); Moldovada (0,4%); Tojikistonda (1,8%) pasayish kuzatilsa, Armanistonda (1,2%); Ozarbayjonda (2,7%); Gruziyada (2,5%); Qozog'istonda (1,8%); O'zbekistonda (3,6%) iqtisodiy o'sish kutiladi.

Bir so'z bilan aytganda, jahondagi geosiyosiy vaziyatning chigal-lashishi, pandemiyaning hali davom etayotganligi, logistika va yuk tashish xarajatlarining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya tashuvchilar narxining muttasil o'sib borayotganligi, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq muammolarning yanada keng quloch yozishi, global inflyatsion bosimning kuchayishi kabi omillar va shart-sharoitlar oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi.

Nega bashariyat farovonligi va kelajagiga xizmat qiluvchi mana shunday nufuzli tashkilot bu boradagi nuqtai nazarlarni yangilash g'oyasini ilgari surmoqda?

Sababi, bugungi kunda tabiatga befarq munosabat, unga antropogen ta'sirning kuchayib borishi, isrofgarchilik, ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi oziq-ovqat balansi bo'yicha farqning o'sayotgani, iqlim o'zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqaryapti. Oqibatda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda jahon aholisining 919 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050 yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga etadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat emaslik natijasida kelib chiqadi. Hozirgi kunda har yili 3,1 million nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko'z yummoqda. Qolaversa, sayyoramizdagi har to'rt bolaning bir nafari o'z yoshiga nisbatan o'smay qolgani aniqlangan. Maktab yoshidagi 66 mln. o'g'il-qiz darslarga beixtiyor och keladi. Shulardan 23 million nafari Afrikada istiqomat qiladi. 2021 yilda jahonda ovqatlanish va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida ishlarning holatiga bag'ishlangan YuNISEF, BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotida keltirilishicha, COVID-19 pandemiyasi sharoitida 2020-2021 yillar mobaynida dunyoda ochlik ko'lami yanada ortgan. Keyingi bir yil ichida to'yib ovqatlanmaslik indeksi 1,5 foizga ortgan va qariyb 9,9 foizni tashkil qilgan, bu esa jahonda ochlikni bartaraf etish muammosi naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi. BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining narxlar indeksi joriy yilning mart oyida mazkur tashkilot faoliyatining butun davri mobaynida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil qildi. O'tgan oyda narxlar indeksining o'rtacha qiymati 159,3 punktini tashkil qildi. Bu 2022 yilning fevral oyiga nisbatan 12,6 foizga ko'p bo'lgan bo'lsa, 2021 yilning mart oyiga nisbatan esa 33,6 foizga ko'pdir. Mazkur vaziyat o'simlik moylari, don va go'sht narxlarining rekord darajada oshishi, shuningdek shakar va sut mahsulotlari narxlarining sezilarli darajada o'sishi bilan bog'liq. Umuman olganda, 2022 yilning mart oyida bug'doy va ozuqa donlari bo'yicha BMT oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining narxlar indeksi o'tgan oyga nisbatan 17,1 foizga o'sgan.

Oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (The Global Food Security Index)- bu global ko‘lamda amalga oshiriluvchi tadqiqot hisoblanadi va mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha reytingini o‘zida aks ettiradi. Mazkur sohadagi tadqiqotlar Amerikaning Dupon transmilliy kompaniyasi ko‘magida Buyuk Britaniyaning The Economist Intelligence Unit tadqiqot kompaniyasi tomonidan (Economist jurnalining tahliliy bo‘limi) amalga oshiriladi. Tadqiqot 2012 yildan beri o‘tkazib kelinmoqda va hozirgi kunda dunyoning turli mamlakatlaridagi oziq-ovqat xavfsizligi holati bo‘yicha keng qamrovli ko‘rsatkichlarini aks ettiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi bu iqtisodiyotning shunday holatiki, bunda ichki va tashqi bozorlardagi tebranishlardan qat’iy nazar bir tomondan, ilmiy asoslangan ko‘rsatkichlarga mos miqdorlarda, ikkinchi tomondan tibbiy me‘yorlar darajasida iste‘molni qondirish uchun shart-sharoit yaratilgan holda, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash kafolatlanadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda barqarorlik, foydalanish, mavjudlik va ega bo‘lish tamoyillariga to‘lig‘icha amal qilish talab qilinadi. Aynan mazkur tamoyillar har qanday mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi siyosatini ishlab chiqishda hal qiluvchi o‘rin tutishi lozim. 2021 yilda O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi indeksida jahonning 113 ta mamlakati orasida 53,8 bal to‘plab, 78 o‘rinda qayd etilgan.

Savollar:

1. Jan Jak Russoning “Davlat mustaqilligini ta‘minlash va mustahkamlashning birdan - bir ishonchli vositasi - bu qishloq xo‘jaligidir. Dunyoning barcha boyliglariga ega bo‘lsangiz-da, ammo qorin to‘qlashga hech vaqongiz bo‘lmasa, siz baribir kimgadir qaram bo‘lasiz. Savdo boyligini yaratadi, qishloq xo‘jaligi esa erkinlik va farovonlikni ta‘min etadi”- degan fikriga qanday qaraysiz.

2. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini qanday baholaysiz.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent- “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘rsida”gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.

3. Abduvoxidov A.A. va boshqalar. Innovatsiyalar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma.- T.: “Mumtoz so‘z”, 2020-636 bet.

4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.

5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.

6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.

7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.

8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Xajiev B.D., Axmedov D.Q., Zaxidov G.E., Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. Darslik. – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2018. - 428 bet.
10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.
11. Xajiev B.D., Abdullaev S.O., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. – Т.: “Zebo yulduzlari MChJ”, 2018. - 417 bet.
12. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – Т.: Iqtisodiyot, 2013. – 542 b.
13. Дарон Асемоглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асемоглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова-М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).
14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018
15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.
16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.
17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.

18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018
19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. · 2018
20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.
21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.
22. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi rasmiy sayti.
23. www.stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
24. <https://mineconomy.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti
25. <https://cbu.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
26. <https://mf.uz/uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
27. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi
28. <https://www.mininnovation.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi rasmiy sayti
29. <https://uza.uz/uz> - O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti
30. <https://www.worldbank.org/en/home>- Jahon banki rasmiy sayti

IV BOB. IQTISODIY O‘SISH NEOKLASSIK MODELLARINING EMPIRIK QO‘LLANISHI

Iqtisodiyot aniq fan emas. Aksincha, uni hatto fan ham deb bo‘lmaydi, u shunchaki mantiqiy fikrlash algoritmi xolos. Iqtisodiyot hamisha hayot bilan birdek o‘zgaradi, shu bois uning bir necha yillardan keyin qay holatda bo‘lishini hech kim bashorat qila olmaydi.

Saymon Vayn

1. Neoklassik o‘shish modellarining asosiy mazmuni

2. Neoklassik modellarning emperik talqini

O‘zbekiston uglerod neytralligini ta‘minlash yo‘lida

Global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va uglerod neytralligiga erishish masalasi bugungi kunda jahon hamjamiyati kun tartibi markazida turibdi. O‘tgan yili Iqlim bo‘yicha Parij bitimining 5 yilligi nishonlangan bo‘lib, unda global iqlim isishini 1,5°C dan past darajada ushlab turishda zarur sanalgan issiqxona gazlari tashlanmalarini kamaytirish asosiy maqsad sifatida belgilangan edi. Buning uchun 2030 yilga borib havoga chiqayotgan zararli CO2 gazlarini 2010 yilga nisbatan 45 foizga kamaytirish va 2050 yilga borib uning miqdorini nol darajasiga tushirish zarur. Global darajada havo isishini 2°C lik chegarada ushlab turish uchun esa 2030 yilgacha zararli gazlar hajmini 25 foizga qisqartirish va 2070 yilga borib nolga tushirish talab etiladi. 2021 yil 31 oktyabrdan 12 noyabrgacha Shotlandiyaning Glazgo shahrida BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Dastlabki konventsiyasi (COR26) konferentsiyasining 26-sessiyasi tashkil etilgan bo‘lib, unda Parij bitimining besh yillik tsikli yakunlari ma‘lum qilindi. Anjuman ishida qariyb 200 ta davlatdan tashrif buyurgan delegatsiyalar ishtirok etdi. Mazkur anjuman samarali o‘tgan bo‘lib, uning yakunida global isishga qarshi kurashishga qaratilgan bir qator muhim kelishuvlar qabul qilindi.

Yashil hududlarni kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Masalan, 133 ta davlat, jumladan, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon tomonidan o‘rmonlar qisqarishining oldini olish va kelgusida ularni qayta tiklashni nazarda tutuvchi O‘rmonlar va erdan foydalanish to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi. Ta‘kidlash joizki, mazkur hujjatni imzolagan mamlakatlar hissasiga dunyodagi barcha o‘rmonlarning 90 foizdan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Erishilgan kelishuvlarda ushbu maqsadlar uchun 20 mlrd. dollar ajratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, shundan 11 ta rivojlangan davlat (jumladan, Frantsiya, Germaniya, AQSh) tomonidan ajratilgan 12 mlrd. dollar mablag‘ cho‘llanishga, o‘rmon yong‘inlariga qarshi kurashish va zarar ko‘rgan o‘rmon maydonlarini tiklash maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlarga yo‘naltiriladi.

Yashil texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha kelishuv doirasida 26 ta davlat vakillari toza energiyaga o‘tishni qo‘llab- quvvatlash to‘g‘risidagi bayonotga imzo qo‘yishdi.

To‘rtta yo‘nalish bo‘yicha nol darajadagi tashlanmalar bilan toza texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutuvchi “yuksalish dasturi” bo‘yicha bir qator bayonotlar imzolandi: energetika sohasida 31 ta davlat, transport tarmog‘ida – 28 ta davlat, po‘lat bo‘yicha – 26 ta davlat, vodorod bo‘yicha – 33 ta davlat o‘z zimmasiga tegishli majburiyatlarni oldi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari va xususan, qayta tiklanadigan energiyaning o‘zaro bog‘langan global tarmog‘ini yaratish tashabbusi – “bir quyosh” deklaratsiyasi ham imzolangan bo‘lib, unga 5 ta davlat vakillari imzo chekdi, 80 ta mamlakat esa uning ijrosini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha rozilik berishdi.

Konferentsiyada Buyuk Britaniya “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga 4,1 mlrd. dollarlik moliyaviy yordam ko‘rsatishini e‘lon qildi. Shuningdek, Britaniya taraqqiyotni moliyalashtirish instituti kelgusi 5 yil ichida yashil energetikani rivojlantirish uchun 3 mlrd. funt sterlingdan ortiq mablag‘ ajratishni maqsad qilgan.

Hindiston Havoga chiqayotgan zararli gazlarni qisqartirish bo‘yicha kelishuv doirasida 2070 yilga borib uglerod gazi neytralligiga erishish niyatini bildirdi (Hindistonda 2018 yilda atmosferaga CO₂ ajralishi aholi jon boshiga 1,8 tonnani tashkil qilgan, taqqoslash uchun O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich – 3,4 tonna CO₂ ajralishi aholi jon boshiga 2,7 tonnaga teng bo‘lgan Vetnam ushbu maqsadga 2050 yilgacha, Tailand (3,7) – 2065 yilga qadar etishni, Rossiya esa (11,1) o‘rmon ekotizimlari hamda ularning karbonad anhidrid va kislorod emissiyasini qabul qilish salohiyati hisobiga 2060 yilgacha erishishni rejalashtirgan.

Dunyoning qariyb 50 rivojlangan mamlakatlari 2030 yilga qadar (yoki ”2030 yildan keyin imkon qadar tezroq“) ko‘mirdan butunlay voz kechish niyatlarini ma‘lum qildilar, rivojlanayotgan mamlakatlar esa bu maqsadga 2040 yilgacha etishni rejalashtirmoqda. AQSh, Kanada, Daniya, Finlyandiya va yana 16 ta davlat kelasi yil oxirigacha neft va gaz kabi qazilma yoqilg‘ilardan foydalanish bo‘yicha xorijiy loyihalarni davlat tomonidan moliyalashtirishni bekor qilish majburiyatini olishdi. Xalqaro energetika agentligining baholashlariga ko‘ra, tashlanmalarni nol darajaga tenglashtirish bo‘yicha sammitda e‘lon qilingan barcha va‘dalarning bajarilishi hamda metan gazlarini kamaytirish bo‘yicha global kelishuv global isishni 1,8 °S darajagacha cheklashga imkon beradi. Shu o‘rinda, belgilangan maqsadlarga erishish katta miqdordagi moliyaviy xarajatlarni talab qilishini ta‘kidlab o‘tish joiz. Mutaxassislarining baholashicha, uglerod neytralligiga erishish uchun 2050 yilga borib Shveytsariyaga har yili 14 mlrd. dollar (YaIMning 2foizi), Germaniyaga 2045 yilga kelib jami 6 trln. dollar yoki yashil texnologiyalar va infratuzilma uchun yiliga 240 mlrd. evro kerak bo‘ladi.

Janubiy Koreya 2050 yilgacha uglerod neytralligiga erishishga oid maqsadlari uchun kelasi yil byudjetida 10 mlrd. dollar (YaIMning 0,6 foizi) ajratishni, Buyuk Britaniya esa 2020-2037 yillarda 137-159 mlrd. funt mablag‘ sarflashni rejalashtirgan.

O‘zbekiston 2030 yilga borib YaIM birligiga to‘g‘ri keladigan CO₂ tashlanmalarini 2010 yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 35 foizga qisqartirishni maqsad qilgan. Ushbu ko‘rsatkichga 2018 yildayoq erishilgan. O‘zbekiston YaIMning uglerod hosil qilish bo‘yicha sig‘imi 2010 yildagi YaIM birligiga 4,7 kg.dan 2018 yilda 2,9 kg.gacha tushdi. Bu natijaga YaIMning yuqori o‘shish sur‘atlari hisobiga erishildi. Issiqxona gazlari tashlanmalari hajmi 2 foizga oshib, 225 mln. tonnani tashkil qildi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, O‘zbekiston tashlanmalarni yanada qisqartirish uchun salmoqli salohiyatga ega. O‘zbekistonda CO₂ tashlanmalarining asosiy qismi tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash va uni tashishga to‘g‘ri keladi (2018 yilda 60 mln. tonna CO₂, 2010 yilga nisbatan 23 foizga kamayish). Gaz yo‘qotishlarini 1,5 baravarga, 1,8 mlrd. kub metrdan 1,2 mlrd. kub metrgacha qisqartirish har yili 1,3 mln. tonnalik CO₂ tashlanmasining bartaraf etilishiga xizmat qiladi. IESlarida yangi texnologiyalarni qo‘llash va elektr energiyasi ishlab chiqarishda tabiiy gazdan foydalanish samaradorligini 30 foizga oshirish 5 mlrd. kub metr hajmdagi gazni tejash va tashlanmalarni 5,9 mln. tonnaga kamaytirish imkonini beradi. (Samaradorlikni 30% oshirish elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun gazdan foydalanishni 2018 yildagi 1 kVt-s uchun 0,33 kub metrdan 0,23 kub metrgacha kamaytiradi).

Transport sektoriga kelsak, Jahon bankining baholashlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ushbu sektorda tashlanmalar 2010 yildagi 16,5 mln. tonnadan (zararli tashlanmalar hajmining 8,2 foizi) 2018 yilda 20,8 mln. tonnagacha (11,2%) oshgan. Asosiy o‘shish avtomobilda tashish sohasida qayd etilgan (6 mln. tonna). Bu orada, temir yo‘l transportida tashlanmalarning 16 foizga, boshqa transport turlarida esa 28 foizga kamayishi kuzatildi.

Transportni muqobil yoqilg‘i turlariga o‘tkazish, transport parkining 80 foizini yangilash, elektrlashtirish va gazlashtirish, yo‘l infratuzilmasi va logistika sxemalarini takomillashtirish

natijasida 2030 yilga borib sektorda uglerod ajratmalari hajmining 3 mln. tonnaga kamayishi prognoz qilinmoqda.

Shu o'rinda, issiqxona gazlarining havoni ifloslantirishini kamaytirishi uchun O'zbekistonda yashil maydonlarni kengaytirish imkoniyatlari haqida gapirib o'tish joiz. Yevropa atrof-muhit bo'yicha agentligi va AQSh Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, yosh daraxt yiliga 5,9 kg.gacha, katta daraxt esa 22 kg.gacha karbonat angidrid gazini o'zlashtiradi. Shu sababli, 5 yil davomida har yili 200 mln. dona daraxt ekish rejalashtirilgan bo'lib, 2030 yilga borib daraxt ko'chatlarining "o'rtacha o'sishi" stsenariysida qo'shimcha 25 mln. tonna va "tez o'sish" stsenariysida (kamida 80% daraxtlarning o'sishi sharoitida) – 41 mln. tonna karbonat angidrid gazini singdirib olishga imkon beradi. Lekin shuni ham hisobga olish kerakki, O'zbekiston aholisi va iqtisodiyotining jadal o'sishida 2030 yilga borib mamlakatimizda elektr energiyasiga bo'lgan talab 120 mlrd. kVt/soatga etadi va agar talab an'anaviy tarzda tabiiy gaz yoqish yo'li bilan qondirilsa, u holda o'sha davr uchun qo'shimcha 13,7 mlrd. kub metr gaz talab qilinadi. Agar 2030 yilga kelib qayta tiklanadigan energiyaning ulushi generatsiyaning umumiy hajmida 25 foizga etkazilsa, "yashil" elektr ta'minotiga o'tish qo'shimcha gaz hajmidan foydalanishni tejaydi va CO2 tashlanmalarining 37,4 mln. tonnaga oshishiga yo'l qo'ymaydi.

Yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlar amalga oshirilsa, 2030 yilga borib yillik issiqxona gazlari tashlanmalari 24 foizga (YaIMning 2010 yilgi ko'rsatkichga nisbatan o'rtacha yillik 5-6 foizga o'sishida) kamayib, 169 mln. tonnani tashkil etadi, agar bu chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmasa, issiqxona gazlari tashlanmalari 270 mln. tonnagacha oshadi.

Birinchi bosqichda (2020-2030 yillar) gaz-energetika kompleksini modernizatsiya qilish – gidroenergetika salohiyatini oshirgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish nazarda tutilgan, bu esa ko'mir sarfini kamaytirish va 54 mlrd. kub metr hajmdagi gazni tejashga imkon beradi. 2030 yilga kelib qayta tiklanadigan energiya quvvatlari 8 GVt, issiqlik energiyasi quvvatlari esa 18 GVt.ni (hozirda 14 GVt) tashkil qiladi. 2040 yilgacha kam uglerodli bosqichga o'tish amalga oshiriladi, bu jarayonda gazda ishlaydigan elektr stantsiyalari qurilishini to'xtatib, ulardan muvozanatlashtiruvchi sifatida foydalanish rejalashtirilgan. Qayta tiklanadigan energiyani joriy etish yiliga 1,3 TVt/soat bilan ta'minlovchi 15 GVt quvvatga ega yanada yirik elektroenergiya saqlash joylarini o'rnatish bilan birga amalga oshiriladi. 2040 yilga kelib qayta tiklanadigan energiya manbalari 47 GVt energiya, issiqlikdan olinadigan elektr energiyasi manbalari esa 12 GVt quvvatni ta'minlashi kerak. Buning uchun taxminan 49 mlrd. dollar investitsiyalar talab qilinadi.

“Экономическое обозрение” jurnali, №2, 2022

O'qitish maqsadi: *Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellaridan foydalangan holda iqtisodiy o'sish holati va ko'rsatkichlarini tahlil qilish.*

Tayanch iboralar: *neoklassik model, talab, taklif, taklif tenglamasi, talab tenglamasi, investitsiya, diskontlashtirish, kredit, talab va taklif tengligini ifodalovchi tenglama firmalar, ishlab chiqarish, kapital, uy xo'jaligi, raqobat, inson omili, inson kapitali, eksport, import, kredit*

4.1. Neoklassik o'sish modellarining asosiy mazmuni

Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu

modellar o'z mazmuniga ko'ra bir-birlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy muvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda neoklassik nazariya namoyondalari bizningcha bir tomonlama bo'lgan quyidagi noto'g'ri nazariy shartlarga asoslanadilar:

1) mahsulotning qiymati barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;

2) ishlab chiqarish omillarining har biri o'zining keyingi qo'shilgan mahsulotiga tegishli ravishda mahsulot qiymatini yaratishga hissasini qo'shadi. Shunga ko'ra, bunga javoban barcha keyingi qo'shilgan mahsulotga teng keluvchi daromad ham oladi;

3) mahsulot ishlab chiqarish va buning uchun zarur bo'lgan resurslar o'rtasida miqdoriy bog'liqlik mavjud;

4) ishlab chiqarish omillarining erkin tarzda amal qilishi hamda ular o'rtasida o'zaro bir-birining o'rnini bosish imkoniyati mavjud.

Bizningcha, neoklassik va boshqa ayrim yo'nalishdagi nazariyotchilar bu yerda ham ikkita uslubiy xatoga yo'l qo'yadilar:

1) ular ishlab chiqarish omillarining barchasi bir xil qiymat yaratadi, ular qiymatni yaratishda baravar ishtirok etadi, deb hisoblaydilar. Xolbuki, barcha ishlab chiqarish vositalari hech qanday yangi qiymat yaratmaydilar, balki o'zlarining qiymatlariga teng miqdordagi qiymatni jonli mehnat yordamida yangi yaratilgan mahsulotga o'tkazadilar. Lekin barcha omillar yaratilgan va o'sgan (ko'paygan) mahsulotning naflliligini yaratishda qatnashadilar;

2) ular doimo barcha omillar ichida jonli mehnatning faol rol o'ynashini, qolganlari esa passiv rol o'ynashini unutadilar. Chunki hech bir tabiiy resurs, kapital resurslari jonli mehnat tomonidan harakatga keltirilmasa, o'zicha harakatga kela olmasligi, irib-chirib o'z joyida ham jismonan, ham qiymati yo'q bo'lib

ketishi, ularning qiymati faqat jonli mehnat tomonidan saqlab qolinishi million yillardan beri milliard martalab tasdiqlanib kelmoqda. Lekin negadir ularning bunga e'tibor bergisi kelmaydi.

Neoklassik model ko'p omilli hisoblanib, amerikalik iqtisodchi P.Duglas va matematik Ch.Kobb yaratgan ishlab chiqarish funksiyasi asos qilib olingan. Kobb-Duglas modelida ishlab chiqarish hajmining o'sishida ishlab chiqarish turli omillarining ulushini aniqlashga harakat qilinib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = AK^{\alpha}L^{\beta},$$

bu yerda:

Y – ishlab chiqarish hajmi;

K – kapital sarflari;

L – ishchi kuchi sarflari;

A – mutanosiblik koeffitsienti;

α va β - ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi va kapital sarflari bo'yicha elastiklik koeffitsienti.

Elastiklik koeffitsienti bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi natijasida boshqa bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi darajasini ifodalaydi. Shunga ko'ra, α koeffitsienti kapital sarflarining 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini, β koeffitsienti esa ishchi kuchi sarflarining 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi. α va β ning yig'indisi ishchi kuchi va kapital sarflarining bir vaqtning o'zida 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.

Ch.Kobb va P.Duglas o'z tadqiqotlarida AQSh qayta ishlash sanoatining 1899-1922 yillar mobaynidagi ish faoliyatini tahlil qilib, ishlab chiqarish funksiyasining ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilganlar:

$$Y = 1,01 \times K^{0,25} \times L^{0,75}.$$

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'sha davrda AQSh qayta ishlash sanoatida kapital sarflarining 1%ga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini 0,25%ga,

ishchi kuchi sarflarining 1%ga oshirilishi esa ishlab chiqarish hajmini 0,75% ga oshishiga olib kelar ekan.

Keyinchalik Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funktsiyasini golland iqtisodchisi Yan Tinbergen yanada takomillashtirib, unga yangi omil – texnika taraqqiyoti ko‘rsatkichini kiritdi. Natijada ishlab chiqarish funktsiyasi formulasi quyidagi ko‘rinishni oldi:

$$Y = AK^{\alpha}L^{1-\alpha}e^{rt},$$

bu yerda: e^{rt} – vaqt omili.

Ishlab chiqarish funktsiyasiga vaqt omilining kiritilishi endilikda nafaqat miqdor, balki “texnika taraqqiyoti” atamasi orqali uyg‘unlashuvchi sifat o‘zgarishlari – ishchi kuchi malakasining o‘shishi, innovatsiya jarayonlarining kuchayishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashuvi, jamiyat miqyosida ma’lumotlilik darajasining oshishi va boshqalarni ham aks ettirish imkonini berdi.

Iqtisodiy o‘shishning keynscha modeli makroiqtisodiy muvozanatning keynscha nazariyasini rivojlantirish va unga tanqidiy yondashish natijasida vujudga kelgan. Bu modellar orasida ingliz olimi R.Xarrod va amerikalik olim E.Domarning iqtisodiy o‘shish modellari e’tiborga molik hisoblanadi. Har ikkala modelning umumiy jihatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar orqali shartlanadi:

1) ular neoklassik modellardan farqli o‘laroq bir omilli model hisoblanadi. Ya’ni bu modellarda milliy daromadning o‘shishi faqat kapital jamg‘arishning funktsiyasi hisoblanib, kapital samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ishchi kuchi bandligining oshishi, FTT yutuqlaridan foydalanish darajasining o‘shishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi kabi boshqa barcha omillar nazardan chetda qoldiriladi; 2) ishlab chiqarishning kapital sig‘imi ishlab chiqarish omillari narxlarining nisbatiga bog‘liq bo‘lmay, faqat ishlab chiqarishning texnik sharoitlari orqali aniqlanadi.

Neokeynscha modelda investitsiyalarning o‘shishi iqtisodiy o‘shish va uning sur’atlarini belgilovchi omil hisoblanib, u bir tomondan, milliy daromadning o‘shishiga imkon yaratadi, ikkinchi tomondan esa, ishlab chiqarish quvvatlarini

kengaytiradi. O'z navbatida daromadning o'sishi bandlikning oshishiga imkon yaratadi. Investitsiya hajmining ko'payishi natijasida kengaygan ishlab chiqarish quvvatlari daromadning o'sishi orqali to'liq ishga tushirilishi lozim. Shunga ko'ra, E.Domarning modelida quyidagi tenglik orqali muvozanatning ta'minlanishi shart qilib qo'yiladi:

Pul daromadining qo'shimcha o'sishi (talab)	=	Ishlab chiqarish quvvatlarining qo'shimcha o'sishi (taklif)
--	---	--

Bu tenglikni formula tarzida yozilsa, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta I \times \frac{1}{a} = I \times \sigma \quad \text{yoki} \quad \frac{\Delta I}{I} = \sigma \times a,$$

bu yerda:

I – har yillik sof kapital qo'yilmalar;

ΔI – sof kapital qo'yilmalarning qo'shimcha o'sishi;

$\Delta I/I$ – sof kapital qo'yilmalarning o'sish sur'ati;

$1/a$ – multiplikator, bu yerda a – jamg'arishga bo'lgan o'rtacha moyillik;

σ - kapital samaradorligi.

Shunday qilib, iqtisodiyotdagi ishchi kuchining to'la bandligini hamda ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishlashini ta'minlovchi sof investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalarning o'sish sur'ati $\sigma \times a$ ga teng bo'lishi lozim. Agar iqtisodiyotdagi investitsiyalarning potentsial o'rtacha samaradorligi 0,3 ga, jamg'arishga bo'lgan o'rtacha moyillik 0,2 ga teng bo'lsa, u holda investitsiyalarning o'sish sur'ati 6% $(0,3 \times 0,2) \times 100\%$ ga teng bo'ladi.

R.Xarrodning iqtisodiy o'sish modeli investitsiya va jamg'armalar o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanat, ya'ni $I = S$ ga asoslanadi. U statik holdagi makromuvozanat uchun alohida, dinamik holdagi makromuvozanat uchun alohida formuladan foydalanadi. 1-formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$G \times C = S,$$

bu yerda:

G – milliy daromadning o‘shish sur‘ati ($\Delta Y/Y$);

S – kapital sig‘imi ($I/\Delta Y$);

S – milliy daromad tarkibidagi jamg‘arishning ulushi (S/Y).

2-formula quyidagi ko‘rinishda o‘z ifodasini topadi:

$$G_w \times C_r = S ,$$

bu yerda:

G_w – haqiqiy jamg‘arma va taxmin qilinayotgan investitsiyalar o‘rtasidagi dinamik muvozanatni ta‘minlovchi o‘shishning kafolatlangan sur‘ati;

C_r – kapital koeffitsientining talab etilayotgan miqdori.

Neokeynschilarning fikriga ko‘ra bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy kafolatlangan o‘shish sur‘atiga avtomatik ravishda erishib bo‘lmasligi sababli, ular dinamik muvozanatga erishish uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi to‘g‘risidagi xulosaga keldilar.

Iqtisodiy o‘shishning muhim modellaridan biri bo‘lib **tarmoqlararo balans** hisoblanadi. Tarmoqlararo balansning dastlabki nazariy asoslari sobiq ittifoq davrida ishlab chiqilgan edi. Keyinchalik u asli Rossiyalik bo‘lgan AQSh iqtisodchi olimi V.Leontev tomonidan **“xarajatlar – natijalar”** modeli sifatida takomillashtirilgan holda ishlab chiqildi.

V.Leontev iqtisodiy tahlilning «xarajatlar – ishlab chiqarish» usulida eng avvalo e‘tiborni iqtisodiyotdagi miqdoriy aloqalarga qaratadi. Tarmoqlar o‘rtasidagi bu aloqalar texnologik koeffitsientlar (I kvadrantdagi a_{11} , a_{12} , a_{13} va h.k. belgilar) orqali o‘rnatiladi.

II kvadrantda – S – (shaxsiy iste‘mol); I – (investitsiyalar); G – (davlat xaridi); X (eksport).

III kvadrantda – W – ish haqi;

P – foyda;

M – import.

Tarmoqlararo balans jadvali to‘rtta kvadrantdan iborat. Birinchi kvadrantga mahsulot ishlab chiqarishga moddiy sarflar ko‘rsatkichlari joylashtirilgan. Ikkinchi

kvadrantga shaxsiy iste'mol, jamg'arish, davlat xaridi va eksport sifatida foydalaniluvchi pirovard mahsulot ko'rsatkichlari joylashtirilgan. Uchinchi kvadrantdan qo'shilgan qiymat (ish haqi, foyda, soliqlar) va import ko'rsatkichlari o'rin olgan. To'rtinchi kvadrantda sof milliy mahsulotni qayta taqsimlash ko'rsatkichlari joylashgan. Tarmoqlararo aloqalar jadvali ustunlari bo'ylab xarajatlarni, ya'ni har bir tarmoq bo'yicha mahsulot qiymatini tashkil etuvchi unsurlarni, satrlar bo'yicha esa – milliy iqtisodiyot har bir tarmog'i mahsulotini taqsimlash tarkibiy tuzilmasini aks ettiradi.

Tarmoqlararo balans modelida bir tarmoqdagi pirovard talab yoki ishlab chiqarish sharoitidagi o'zgarishlar boshqa barcha o'zaro bog'liq tarmoqlarning miqdoriy ta'sirini kuzatish orqali o'rganiladi. Bu esa qandaydir tovarga bo'lgan ehtiyojlar yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasidagi har qanday o'zgarishlar muvozanatlashgan narxlar tarkibini o'zgartirib, texnologik koeffitsientlarning ham o'zgarishiga olib kelishini anglatadi.

“Xarajatlar – natijalar” tarmoqlararo balansi usuli nafaqat iqtisodiyot turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganishga, balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini, uning tarmoqlar tuzilmasining o'zgarishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarini bashoratlashga imkon yaratadi.

Iqtisodiy o'sish modellari to'g'risida so'z yuritganda “nol darajadagi iqtisodiy o'sish” kontseptsiyasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur kontseptsiyaga XX asrning 70-yillarida asos solingan. Bu kontseptsiya tarafdorlarining fikricha texnika taraqqiyoti va iqtisodiy o'sish atrof-muhitning ifloslanishi, tabiatga zaharli moddalarning chiqarilishi, shahar qiyofasining yomonlashuvi va boshka shu kabi ko'plab salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Aholi sonining tezlik bilan ko'payib borishi, ishlab chiqarish mikyoslarining kengayishi natijasida ishlab chiqarish, ayniqsa, tabiiy resurslarning kamayib borishi pirovardida iqtisodiy o'sish chegaralarini cheklab qo'yadi. Buning oqibatida ocharchilik, ekologiyaning buzilishi, resurslarning tugashi ro'y berib, tez orada aholi soni va sanoat ishlab chiqarish hajmi keskin qisqara boshlaydi. Shunga

ko'ra, "nol darajadagi iqtisodiy o'sish" kontseptsiyasi tarafdorlari iqtisodiy o'sishni maqsadga muvofiq ravishda ma'lum chegarada ushlab turish zarur, deb hisoblaydilar. Ular iqtisodiy o'sish tovar va xizmatlar hajmining ko'payishini ta'minlashini tan olsalarda, bu o'sish bir vaqtning o'zida turmush darajasining yuqori sifatini ta'minlay olmasligini ta'kidlaydilar. O'z navbatida, mazkur kontseptsiya muholiflari iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini yoqlab, uning o'zi cheksiz ehtiyojlar va cheklangan resurslar o'rtasidagi ziddiyatni yumshatishini, aynan yuqori darajadagi o'sish sharoitida jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyati vujudga kelishini ko'rsatadilar. Atrof-muhitning ifloslanishi esa iqtisodiy o'sish oqibati bo'lmay, u tabiiy resurslardan foydalanishdagi narx shakllanish tizimining noto'g'riligidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, mazkur muammolarni hal etish uchun tabiiy resurslardan foydalanishda qonuniy cheklovlar yoki maxsus soliqlarni kiritish, ifloslantirish huquqi bozorini shakllantirish lozimligini ta'kidlaydilar.

4.2. Neoklassik modellarning emperik talqini

Iqtisodiy o'sishning xilma-xilligi va ko'p qirraliligi turli nazariy modellarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bir omilli, ikki omilli va ko'p omilli modellar, statik va dinamik, yangi keynsiancha, neoklassik, "xarajat-ishlab chiqarish" modellari, o'tish davrining bashoratli modellari kabi modellar mavjud.

Dastlabki neoklassik o'sish modellari 1950-1960 yillarning boshlarida, yangi texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish orqali mumkin bo'lgan o'sish sur'atlariga erishish muammosi paydo bo'lganda vujudga keldi.

R.Solou, J.Mid, A.Lyuis mazkur yo'nalishning asosiy vakillari hisoblanadilar. Mazkur olimlarning o'sish modellarining uslubiy asosini ishlab chiqarish omillarining klassik nazariyasi va chegaraviy unumdorlik nazariyasi tashkil etadi. Klassik modellar quyidagi taxminlarga asoslanadi:

1) bir hil mahsulotni yaratadigan o'z tabiatiga ko'ra ikkita bir xil omil (mehnat va kapital) mavjud;

2) erkin raqobat ustunlik qiladi, natijada har bir omil chegaraviy mahsulotga teng daromad oladi, shuning uchun daromadning taqsimlanishi bir vaqtning o'zida har bir omilning tovar qiymatiga qo'shgan hissasini ko'rsatadi;

3) iqtisodiyotda to'liq bandlik mavjud bo'ladi;

4) jamg'armalar investitsiyalarga teng bo'lganligi bois, iqtisodiyotda sotish borasida muammo yo'q;

5) ishlab chiqarish ko'lamini oshirish samaradorlikka ta'sir qilmaydi, ya'ni ishlab chiqarishning doimiy miqyosli ta'siri mavjud;

6) ishlab chiqarish omillarini almashtirishning egiluvchanligi birga teng, shuning uchun ish haqi va foyda o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi mehnat va kapital o'rtasidagi nisbatning o'xshash o'zgarishiga olib keladi va aksincha;

7) o'zgarmas ishlab chiqarish texnologiyasiga ega bo'lgan ishlab chiqarish omillarining chegaraviy unumdorligi pasayadi, chunki chegaraviy unumdorlikning kamayish qonuni amal qiladi;

8) texnologik jarayon neytral va muxtor hisoblanadi;

9) kapital bir turli sanaladi va u ishlab chiqarish omillari narxlarining o'zgarishiga moslashuvchan tarzda javob berishga qodir hisoblanadi.

Ushbu qarashlardan chetga chiqqan holda, Ch. Kobb va P. Duglas klassik yondashuvlar doirasida ishlab chiqarish funktsiyasi nazariyasini shakllantirdilar. Umumiy holatda u quyidagicha tenglama orqali ifodalanishi mumkin:

$$Y = A * K^{\alpha} * L^{\beta}, \text{ bu yerda } \alpha + \beta = 1,$$

A – proportsioanallik koeffitsienti;

K va L – iqtisodiyotda mavjud bo'lgan kapital va mehnat hajmi;

α va β – ishlab chiqarishning 1 % o'sishiga kapital va mehnatning ta'sirini ko'rsatuvchi egiluvchanlik koeffitsienti.

Asosiy kapital dinamikasi, ishchilar va ishchilar ishlagan ish soatlari va 1899-1922 yillarda AQShda qayta ishlovchi sanoat mahsulotlarining jismoniy hajmi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarga asoslanib, ular ishlab chiqarish

funktsiyasining quyidagi o'lchamlarini empirik ravishda aniqlaganlar:

$$Y=1,01 \times K^{0,25} \times L^{0,75}$$

Kapital xarajatlarning 1% ga oshishi mahsulot hajmining 0,25% ga oshishiga olib keladi; mehnat xarajatlarning 1% ga oshishi mos ravishda ishlab chiqarish hajmini 0,75 % ga oshiradi.

Ushbu nazariyaning yanada rivojlanishi ishlab chiqarish funktsiyasining yangi modellarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ko'pchilik Kobb-Duglas funktsiyasining an'anaviy ko'rinishi iqtisodiy rivojlanishning ekstensiv turini aks ettiradi, deb hisoblay boshlashdi. Intensiv tipni aks ettirish uchun elastiklik koeffitsientlari yig'indisi birdan katta bo'lishi zarur. Agar u birdan kam bo'lsa, unda bu holda iqtisodiyot past sur'atlarda rivojlanadi.

FTTning rivojlanishi iqtisodiy o'sish modellariga yangi omillarni kiritishni taqozo qiladi. Bu borada Tinbergenning modeli bir muncha mashhur sanaladi:

$$Y = A * K^{\alpha} * L^{\beta} * e^{rt},$$

Bu yerda: e – logarifm asosi,

r – FTT sur'ati,

t – ko'rib chiqilayotgan davr.

Ishlab chiqarish funktsiyasi nazariyasi asosida J. Midning iqtisodiy o'sish nazariyasi yaratildi, mazkur nazariya Tinbergenning iqtisodiy o'sish modelini o'sish tenglamalariga aylantiradi:

$$y = U * k + Q * l + r,$$

y – YaIMning o'sish sur'ati (%),

U – kapital hisobiga olinuvchi daromad ulushi,

k – kapitalning o'sish sur'ati (%),

Q – mehnat hisobiga olinuvchi daromad,

l – mehnatning o'sish sur'ati (%),

r – texnologik taraqqiyot hisobiga YaIMning o'sish sur'ati (%).

Ushbu modellarda iqtisodiy o'sish bilan ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi nisbat o'zgar olmaydi va shunga muvofiq ishlab chiqarish omillari egalarining olgan daromadlari ham o'zgarishsiz qoladi, deb hisoblanadi. Biroq, yaqinda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishii asnosida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi nisbatlarning o'zgarishini aks ettiruvchi yangi modellar paydo bo'ldi. Ishlab chiqarish omillarining o'zgaruvchan egiluvchanligi bo'lgan bunday modellardan biri:

$$Y = A * K^{v(1-hw)} * (L + (w - 1) * K)^{vhw} ,$$

Bu yerda: h – muayyan texnologiya asnosida kapitaldan foydalanish intensivligi darajasini tavsiflovchi taqsimot ko'rsatkichi,

w – almashtirish ko'rsatkichi, u mehnatning kapital bilan almash-tirish imkonini beruvchi texnologiya qulayligini tavsiflaydi,

v – egiluvchanlik darajasini tavsiflovchi koeffitsient.

Klassik nazariyada Robert Solouning iqtisodiy o'sish modeli eng taniqlisi hisoblanadi, mazkur modelning asosiy jihatlari “Iqtisodiy o'sish nazariyasiga ulush” (1956) maqolasida keltirib o'tiladi. Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda u quyidagilardan kelib chiqib, ish ko'radi:

- birinchidan, mahsulot tannarxi barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;

- ikkinchidan, ishlab chiqarishning har bir omili barcha chegaraviy mahsulotlarga muvofiq mahsulot qiymatini yaratishga yordam beradi va ushbu chegaraviy mahsulotga teng daromad oladi;

- uchinchidan, mahsulot va uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar o'rtasida miqdoriy bog'liqlik, shuningdek resurslarning o'zi o'rtasida bog'liqlik mavjud;

- to'rtinchidan, ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va kapital va mehnat o'rtasidagi mutanosiblik o'zgaruvchan bo'lib, ishlab chiqaruvchilar ushbu ishlab chiqarish omillarining narxlariga qarab xarajatlarni minimallashtiradilar.

Model ko'p omilli model hisoblanadi.

U chiziqli-bir turli ishlab chiqarish funksiyasini $Y = f(K, L)$ ko'rib chiqadi, chunki u yer ishlab chiqarish omili sifatida o'zining hajmi va ishlab chiqarish natijasiga ta'siri jihatidan o'zgarishsiz qoladi va uni mehnat birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichga aylantiradi. Shuni hisobga olgan holda, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:


$$\frac{Y}{L} = f\left(\frac{K}{L}, 1\right),$$

bu yerda: $\frac{Y}{L}$ – ijtimoiy mehnat unumdorligi (y bilan belgilanadi),

$\frac{K}{L}$ – mehnatning kapital bilan qurollanganligi, bitta ishchiga to'g'ri keluvchi kapital miqdorini ko'rsatadi (k bilan belgilanadi).

Buni hisobga olgan holda, ishlab chiqarish funksiyasi mehnat birligining kapital bilan qurollanganligi va uning unumdorligi o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi va quyidagi shaklga ega bo'ladi: $y = f(k)$

Grafik jihatdan unumdorlik va tarkib topgan kapital bilan qurollanganlik nisbati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash mumkin. Chegaraviy unumdorlikning pasayish qonuni amalda bo'lganligi sababli, mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining o'sib borishi sharoitida chizma tobora tekislashib boradi.



4.1-rasm. Solouning ishlab chiqarish funksiyasi.

Bitta xodimning mahsuldorligi bir xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi sifatida qaralishi mumkin. Biz har bir xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yakuniy iste'mol nuqtai nazaridan ko'rib chiqishimiz mumkin. Bu iste'mol (c) va bitta xodim hissasiga to'g'ri keluvchi investitsiyaga (i) bo'linadi. Ayni chog'da har bir xodim ishlab chiqarishga qo'shgan hissasiga teng daromad oladi va uni iste'mol (c) va jamg'arishga (s) yo'naltiradi. Daromad ishlab chiqarilgan mahsulotga teng bo'lganligi sababli, jamg'arma investitsiyalarga teng bo'lishi kerak:

$$\left. \begin{array}{l} y = c + i; \\ y = c + s; \end{array} \right\}$$

O'z navbatida: $i = s$

Iste'molni (c) uni ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot hajmidagi ulushi sifatida ifodalaymiz:

$$c = (1 - s)y$$

Ushbu ifodani ishlab chiqarish hajmiga kiritamiz:

$$y = (1 - s)y + i$$


Olingan tenglamani o'zgartiramiz va investitsiyalarning jamg'arma me'yori va bir xodimga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligiga ega bo'lamiz:

$$sy = i$$

Ushbu tenglik investitsiyalarning bir xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmiga funktsional bog'liqligi sifatida ifodalanishi mumkin, bu esa o'z navbatida mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi:

$$i = sf(k)$$

Bunda jamg'arma me'yori (s) $[0; 1]$ oralig'idagi qiymat sifatida qarab chiqiladi; $0 \leq s \leq 1$. Mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining o'sishi asnosida investitsiyalarning o'sish sur'ati pasayib boradi.




4.2-rasm. Investitsiyalar funktsiyasi.

Turli mamlakatlarda investitsiya funktsiyasi jamg'arish me'yoriga bog'liq. Shu bilan birgalikda iqtisodiy o'sish davlatning jamg'armalarni rag'batlantirishga qaratilgan siyosati bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti bu ma'lum bir kapital zahirasi mavjudligi hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida u eskiradi va uni almashtirish taqozo etiladi. Doimiy miqyosda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun kapitalning eskirishi amortizatsiya fondi yordamida qoplanishi talab qilinadi.

Uning o'lchami bir xodimga to'g'ri keluvchi kapital zahirasi (k) va amortizatsiya me'yori (δ) ga bog'liq bo'ladi. Fond o'lchami (δk) bir xodimga

to'g'ri keluvchi kapital zahirasini amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish orqali topiladi.




4.3-rasm. Eskirgan kapitalni almashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar funksiyasi.

Muvozanat sharoitida investitsiyalar eskirgan va almashtirilishi lozim bo'lgan kapital zahirasiga teng bo'lishi lozim:

$$\delta k = sf(k)$$

Agar investitsiya talab qilinadigan kapital zahirasidan kam bo'lsa, demak, eskirgan mashina va uskunalarning hammasi ham yangilari bilan almashtirilmaydi va kelajakda ishlab chiqarishning qisqarishi uchun sharoit yaratiladi. Agar investitsiya qayta tiklash uchun zarur bo'lgan kapital zahirasidan kattaroq bo'lsa, demak, bu sof investitsiyalarning mavjud-ligini anglatadi, buning natijasida yangi uskunalar sotib olinadi va iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Shunday qilib, kapital zahirasi va investitsiyalarning tengligi ishlab chiqarishning barcha omillari, ehtiyojlari va resurslarining muvozanatli bo'lishi sababli, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotda muvozanatni ta'minlovchi muhim shart sanaladi. Bunday muvozanatni ta'min etuvchi kapital zahirasi kapitalning barqaror zahirasi deb ataladi va k^* bilan belgilanadi. k^* holatga erishilganda iqtisodiyot uzoq muddatli

muvozanat holatida bo‘ladi. Muvozanat barqaror hisoblanadi, chunki k ning boshlang‘ich qiymatidan qat‘iy nazar iqtisodiyot o‘zining boshlang‘ich muvozanat holati, ya‘ni k^* nuqtaga intiladi.



4.4-rasm. Iqtisodiyotdagi muvozanat.

Solou eng yuqori iste‘mol darajasiga ega bo‘lgan iqtisodiyotning barqaror holatini tavsiflovchi iqtisodiyotning muvozanat shartlarini ishlab chiqdi. Iqtisodiy nazariyada E.Felpsning " kapital jamg‘arishning oltin qoidasi " mavjud, unga ko‘ra, agar jamg‘arish me‘yori kapital ishlab chiqarishning elastikligiga teng bo‘lsa, unda doimiy sur‘atlarda o‘sib boradigan iqtisodiyotda o‘rtacha iste‘mol darajasi mehnat va kapitaldan to‘liq foydalangan holda maksimal darajaga etadi.

Iste‘mol xarajatlari ishlab chiqarish hajmi va investitsiya xarajatlari o‘rtasidagi farq sifatida hisoblanganligini hisobga olgan holda, barqaror kapital zahirasi sharoitida iqtisodiyotning holatidan foydalanib, ushbu bog‘liqlikni quyidagi shaklda taqdim etish mumkin: $c = y - i$

Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$y = f(k^*)$$

Investitsiyalar funksiyasini quyidagicha ifodalaymiz: $i = sf(k^*) = \delta k^*$

Tegishli qiymat va ko‘rsatkichlarni qo‘yib, iste‘mol funksiyasi ko‘rinishiga ega bo‘lamiz: $c^* = f(k^*) - \delta k^* \rightarrow \max$

Ushbu funktsiyaning maksimal qiymatini topish uchun biz hosilani olib, uni nolga tenglashtirishimiz kerak. Bu holatda:

$$f'(k^*) - (\delta k^*) = 0$$


Echim bizni maksimal iste'mol ta'minlanadigan holatga olib keladi:

$$\delta = f'(k^*)$$

Bizning funktsiyamizda funktsiya hosilasi kapitalning chegaraviy mahsulotiga (MR_k) teng bo'lganligi bois, oltin qoida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\delta = MP_k$$

Agar bu shart bajarilsa, unda iqtisodiyot muvozanat holatida bo'ladi va iqtisodiy o'sish farovonlikning maksimal darajasini ta'minlaydi. Bu holat Solou-Felpsning oltin qoidasi deb ataladi.




4.5-rasm. Solou modelida muvozanat.

Aholi o'z daromadlarining bir qismini iste'molga sarflaydi. Uning bir qismi esa jamg'armalarga yo'naltiriladi. Jamg'arma natijasida olingan kapitalning haqiqiy zahirasi kapital zahirasi bilan qanday bog'liqligiga qarab, oltin qoidaga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish tendentsiyasini aniqlash mumkin.

Agar kapitalning haqiqiy zahirasi oltin qoidaga ko'ra kapital zahirasidan katta bo'lib chiqsa, u holda iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish tendentsiyasi mavjud bo'ladi. Bu sof investitsiyalarning mavjudligini anglatadi, chunki uy

xo'jaliklarining jamg'armalari eskirgan kapitalni qoplash uchun zarur bo'lgan mablag'lardan katta bo'ladi. Sof investitsiyalar tufayli iqtisodiyotga kapitalning yangi hajmi jalb qilinadi, shu tufayli xodimlar soni o'zgarmagan holda mehnatning kapital bilan qurollanganligi o'sadi. Natijada xodimning mahsuldorligi oshadi va ishlab chiqarish hajmi kengayadi, iste'mol va aholi farovonligi oshadi. Shu bilan birga, oltin qoidaga ko'ra iqtisodiyot muvozanatga erishguncha iqtisodiy o'sish davom etadi.



4.6-rasm. Investitsiya, iste'mol va ishlab chiqarish hajmi dinamikasi.

Agar vaqt o'tishi bilan iste'mol, investitsiya va ishlab chiqarish hajmlarini tasavvur qilsak, dastlab (t_1, t_2 oralig'ida) uy xo'jaliklari iqtisodiyotga jamg'arma va investitsiyalarni ko'paytirish maqsadida o'z iste'molini biroz kamaytirishlarini ko'ramiz. Keyinchalik iqtisodiyotda jamg'arma va investitsiyalar barqarorlashganidan so'ng, ishlab chiqarish va iste'molning (t_2, t_3) inertsiya o'sishi kuzatiladi.

Agar iqtisodiyotdagi kapitalning haqiqiy zahirasi oltin qoidaga ko'ra kapital zahirasidan kam bo'lib chiqsa, u holda iqtisodiyot ishlab chiqarishning pasayishiga moyil bo'ladi. Buning sababi shundaki, ushbu jamg'arma me'yorida yalpi investitsiyalar eskirgan kapital zahirasini qoplash imkoniga ega bo'lmaydi. Natijada kapitalning bir qismi iqtisodiyotdan olib qo'yiladi, bu esa ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi. Haqiqiy kapital zahirasi oltin qoida bo'yicha

talab qilinadigan jamg'arma va investitsiyalar o'rtasidagi tenglikni kafolatlamaguncha u kamayadi. Shu bilan birga, iste'molning ko'payishi oxir-oqibat kelajakda iste'molning pasayishiga olib keladi, chunki investitsiyalarning etishmasligi YaMMning pasayishiga olib keladi.

Solou modelida jamg'arish me'yori faqat iqtisodiyot barqaror rivojlanish traektoriyasiga kiringunga qadar muhim ahamiyatga ega: jamg'arish me'yorining qiymati qanchalik katta bo'lsa, oltin qoidaga ko'ra kapital bilan qurollanganlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Ammo o'sish muvozanatli bo'lishi bilan oq, uning keyingi sur'ati aholi o'sishi va texnologik taraqqiyotga bog'liq bo'lib boradi. Ushbu ikki omilning kiritilishi iqtisodiy o'sishning uzluksizligini tushuntirishga imkon beradi.

Buning uchun Solou ilk marotaba mehnatga layoqatli aholi sonining o'zgarishini dastlabki modelga kiritdi. Shu bilan birga, n bilan belgilanuvchi aholi sonining o'sish darajasi tushunchasini kiritadi. Har bir yangi kirgan ishchiga mavjud kapital bilan qurollanganlikning muayyan nisbatiga mos keladigan ma'lum bir kapital zahirasi talab qilinadi, bu esa investitsiya funksiyasining o'zgarishiga olib keladi.

Agar aholi o'sishining doimiy sur'atini (n) hisobga olsak, unda jamg'arma va investitsiyalar o'rtasidagi tenglik bajarilishi kerak:

$$sf(k)=(d+n)k.$$

Investitsiyalar nafaqat eskirgan kapitalni almashtirishni ta'minlashi, balki yangi ish o'rinlarini mavjud kapital darajasida kapital bilan ta'minlashi kerak. Va buning uchun jamiyatdagi jamg'arma darajasi o'sishi kerak.

Kapitalning o'sish sur'atini quyidagicha yozish mumkin

$$\frac{dk}{k} = \frac{dK}{K} - \frac{dL}{L} = \frac{sY}{K} - n = s - \frac{L}{K} f'(k) - n$$

yoki

$$dk^* = sf(k) - nk$$

Solouning ushbu “asosiy tenglamasi” deb ataluvchi formulasi shuni anglatadiki, bitta xodimning kapital bilan qurollanganlik darajasining o‘shishi - bu barcha qo‘shimcha xodimlarni kapital ne‘matlar bilan ta‘minlab bo‘lgandan keyin investitsiyalarning qoldig‘ini aks ettiradi.

Mehnatga layoqatli aholi sonidagi o‘zgarishlarning ta‘sirini modelga kiritish oltin qoida shartlarini o‘zgartiradi. Iqtisodiyot barqaror muvozanatda bo‘ladi, agar

$$MP_K = \delta + n$$

Bundan biz mehnatga layoqatli aholi soni ko‘paysa va iqtisodiyot muvozanat holatida bo‘lsa, iqtisodiy o‘shish nimaga teng bo‘lishini xulosa qilishimiz mumkin, ya‘ni bunda iqtisodiy o‘shish ishlab chiqarishga jalb qilingan mehnatga layoqatli aholining o‘shish sur‘atlariga teng bo‘ladi

$$n = MP_k - \delta$$

Iqtisodiy o‘shishning intensiv tipini Solou FTT orqali tushuntiradi va bunda ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$y = f(K, LE),$$

Bu yerda: LE – mehnatning samarali birligi, ya‘ni u FTTning xodimlarning unumdorligiga ta‘sirini ko‘rsatadi.


Agar mazkur funktsiyani samarali mehnat birligining unumdorligini tavsiflovchi funktsiyaga aylantirsak, FTT sur‘atlarini g bilan belgilasak, unda iqtisodiyot muvozanat holatida bo‘lishi uchun muvozanat shartlari bajarilishi kerak:

$$sf(k) = k(\delta + n + g)$$

Muvozanat sharoitida uy xo‘jaliklarining maksimal iste‘moli, agar MP_K eskirgan kapital zahirasini tiklash, ishlab chiqarishga qayta kirgan mehnatga layoqatli aholiga asbob va jihozlar bilan berish va FTTni zarur mablag‘ va uskunalar bilan ta‘minlash uchun etarli bo‘lsagina ta‘minlanadi.

$$MP_K = \delta + n + g$$

Solou modelidagi texnologik taraqqiyot turmush darajasini doimiy ravishda oshirishning yagona shartidir, chunki uning mavjudligi sharoitida aholi jon boshiga ishlab chiqarishning barqaror o'sishi kuzatiladi. Solou modeli iqtisodiyotdagi muvozanatni va omillarning to'liq bandligini ta'minlaydigan uzoq muddatli iqtisodiy o'sish mexanizmini tavsiflashga imkon beradi.



4.7-rasm. Bandlar sonining o'sishi va FTTni hisobga olgan holda Solou modelidagi muvozanat.

U texnologik taraqqiyotni farovonlikning barqaror o'sishi uchun yagona asos sifatida ta'kidlaydi. FTT darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyot shunchalik tez rivojlanadi.


$k(\delta+n+g)$ egri chizig'i bo'lajak xodimlarni kapital tovarlar bilan ta'minlash va kapital tovarlarning yangi avlodlarini ishlab chiqarishga joriy etish uchun har bir xodim o'z daromadidan qanchasini jamg'arishi va investitsiyalashi lozimligini ko'rsatadi.

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Xarrod tomonidan o'sishning kafolatlangan va tabiiy sur'atlari borasida farqlanishlar mavjudligi borasidagi qarashlari iqtisodchi-larning jiddiy noroziliklariga sabab bo'ldi. Ularning Keynes modellarini tanqid qilishdagi aosiy dalillari, shundan iborat ediki, unga ko'ra, ishlab chiqarish sabab va omillarini

o‘zaro almashtirish uzoq muddatli istiqbolda tabiiy va kafolatlangan o‘shishning o‘zaro mos tushishi sharoitida xalq xo‘jaligining o‘shishi ta‘minlanadi.

1956 yilda amerikalik iqtisodchi R. Solou moliyaviy o‘shishning elementar modelini taklif qildi, bu neoklassik modellar deb ataladigan sohada ko‘plab tadqiqotlar paydo bo‘lishiga turtki berdi, xususan mutlaq raqobat taxminini qo‘llovchi, mehnat va kapital o‘rtasida doimiy almashinuvga imkon beradigan modellar shular jumlasidandir. Britaniyalik iqtisodchi J. Mid Solou modelini texnologik taraqqiyot mezonlari assnosida moliyaviy tiklanish jarayonlarini tahlil qilish bilan boyitdi. Ishlab chiqarish funksiyasining neoklassik talqinida bir xil ishlab chiqarish hajmiga kapital va ishchi kuchining turli xil kombinatsiyalari bilan erishish mumkin deb taxmin qilinadi.



4.8-rasm. Ishlab chiqarish funksiyasida o‘zgaruvchan koeffitsientga ega bo‘lgan izokvantalar.

Bunday ishlab chiqarish funksiyasi o‘zgaruvchan koeffitsientli funksiya deb ataladi. U yuqoridagi rasmda ko‘rsatib o‘tilgan.

Izokvanta deb nom olgan Y_1, Y_2, Y_3 egri chiziqlar kapital va mehnatning turli nisbatlaridagi yalpi ishlab chiqarish hajmini aks ettiradi.

Masalan, Y_1 miqdordagi yalpi daromadni K_1 i L_1 , shunindek, K_2 i L_2 nisbatida ham olish mumkin. Qo‘shimcha mehnat resurslarini (L) jalb qilish bilan bog‘liq ishlab chiqarish hajmining o‘shishi kapitalning K qiymatga ga kamayishi tufayli ularning qisqartirilishi bilan muvozanatlashadi. Boshqacha qilib aytganda,

natijaga ta'sir ko'rsatishi jihatidan L va K o'zaro o'rinbosar sanaladi. K/L nisbati ishlab chiqarish omillarini almashtirishning chekli me'yori deb ataladi.

1956 yilda amerikalik iqtisodchi R. Solou iqtisodiy o'sishning oddiy modelini taklif qildi, bu neoklassik modellar deb ataladigan sohada ko'plab tadqiqotlarni yuzaga chiqishiga olib keldi, bunday omillar sirasiga mukammal raqobat gipotezasini qo'llaydigan va mehnat va kapital o'rtasida doimiy almashinuvga imkon beradigan modellarni kiritish mumkin.

Solou modelini quyidagi tenglamalar tizimi to'liq tavsiflaydi:

1. o'zgaruvchan koeffitsientli ishlab chiqarish funktsiyasi.
2. daromadga bog'liq bo'lgan jamg'arish funktsiyasi ($s = \text{const}$).
3. sof investitsiya - bu kapitalning o'sishidan boshqa narsa emas.
4. jamg'arma va investitsiyalarni muvozanatlashtiradigan mexanizm mavjud.
5. mehnat resurslari doimiy sur'atlarda o'sib boradi.
6. real ish haqi chegaraviy mehnat unumdorligiga teng.

Solou modelida texnik taraqqiyot hisobga olinmaganligi sababli, ishchilar sonining ko'payishi tabiiy o'sish sur'ati sifatida ifodalanadi. Agar aholining tabiiy o'sishi natijasida ishchi kuchi taklifi ko'paygan bo'lsa, unda avvalgi "kapital-ishchi kuchi" kombinatsiyasida ishchi kuchining bir qismi ishsiz qoladi. Biroq, mavjud ishsizlik ish haqini pasaytiradi va tadbirkorlar kapitaldan nisbatan kamroq foydalanish bilan tavsiflanuvchi kombinatsiyani tanlaydilar va shu asnoda muvozanat qayta tiklanadi.

Ishlab chiqarish funktsiyasiga mos ravishda tarkib topgan kombinatsiya umumiy daromad darajasini, u esa o'z navbatida jamg'arma miqdorini belgilaydi. Jamg'arma investitsiyalar bilan tenglashtirilganligi va ular kapital o'sishi bilan bir xil bo'lganligi sababli, iqtisodiyot yuqorida aytib o'tilgan barcha tengliklar tasdiqlangan yangi holatga o'tadi. Iqtisodiy o'sishning yangi tsikli mehnat resurslarining tabiiy o'sishidan turtki oladi.

Shunday qilib, Solou nafaqat to'liq bandlik, kapitaldan to'liq foydalanish, yalpi talab va yalpi taklifning o'zaro mosligi sharoitida muvozanatli iqtisodiy

o'sish imkoniyati mavjudligini, balki iqtisodiyotning bunday holati barqaror ekanligini ham ta'kidlaydi. Tizimning muvozanat holatidan chetga chiqishida muvozanatni tiklashga qodir bo'lgan omillarning o'zaro almashinuvchanligiga va ularning cheklangan samaradorligini muvozanatlashga asoslangan ichki mexanizm kuchga kiradi.

Biroq, Solou modeli iqtisodiy tizimlardagi yaqqol ko'zga tashlanuvchi haqiqiy tebranishlarni tushuntirmaydi. Keyingi neoklassik modellarda ushbu kamchilikni bartaraf etishga harakat qilingan. Ingliz iqtisodchisi J. Mid Solou modelini texnologik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy o'sishni tahlil qilish bilan to'ldirdi.

Mid modelida eng avvalo, texnologik taraqqiyot turlarining tasnifi keltirib o'tiladi. Ularni uchga bo'lish mumkin:

- neytral texnologik taraqqiyot-kapital (Y/K) va ishchi kuchi (Y/L) ning chegaraviy unumdorligining teng o'sishiga olib keladi, shuning uchun u ishlab chiqarish omillarini almashtirishning cheklangan tezligini o'zgarishsiz qoldiradi;


- kapital sig'imli yoki mehnatni tejavchi texnologik taraqqiyot-kapitalning chegaraviy unumdorligi mehnatning chegaraviy unumdorligidan yuqori sur'atlarda o'sib boradi;

- mehnat sig'imli yoki kapital tejavchi texnologik taraqqiyot kapitalning cheklangan unumdorligini tezroq oshirishga olib keladi.

Ushbu sharoitda mavjud bo'lgan texnologik taraqqiyotning u yoki bu ustun turi kapital va ishchi kuchini muvozanatlash jarayonini biroz o'zgartiradi, chunki chekli almashtirish stavkasining qiymati o'zgaradi. Biroq, texnologik taraqqiyot yo'nalishlari, uning sur'ati va tabiatidan qat'i nazar, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va Solou modelini ko'rib chiqishda belgilangan to'liq bandlikka erishish mexanizmi saqlanib qoladi.

Mid modelida texnologik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilovchi omillarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Ular quyidagi guruhlarga birlashtirish mumkin:

1. Kapital jamg'arish sur'ati. U kapital o'sishining bazis davrdagi kapital miqdoriga nisbati sifatida hisoblanadi.



4.9-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i.

Agar texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig'ini siljitsa, u holda kapital qaytimining o'rtacha qiymati oshadi. Shuning uchun daromadning o'sish sur'ati Y hatto kapitalning o'sish sur'atidan ham jadalroq o'sadi.

2. Jamg'arishga moyillikning o'sishi. Bu daromad o'sishi natijasida (Keynsning asosiy psixologik qonunini eslang) va daromadni tejashga moyil bo'lgan subyektlar foydasiga daromadni qayta taqsimlash natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Qoidaga ko'ra, foydadagi jamg'armalarning ulushi ish haqiga qaraganda ko'proq ekanligini payqash qiyin emas.

Masalan, agar texnologik taraqqiyot kapital sig'imli tavsifga ega bo'lsa, unda kapitalning cheklangan unumdorligining tezroq o'sishi ish haqiga qaraganda daromadning tezroq oshishiga olib keladi.

Qat'iy belgilangan daromadlar darajasida ham jamg'arishga bo'lgan moyillik pirovardida investitsiyalarga aylanadigan jamg'armalar miqdorining o'sishiga olib keladi. Sof investitsiyalar kapital o'sishi bilan bir xil bo'lgani uchun, avval ko'rib chiqilgan iqtisodiy o'sishni tezlashtirish mexanizmi ishga tushadi.

Agar biz mehnat va kapital bozorlarida mukammal raqobat mavjud deb hisoblasak (va bu barcha klassik modellarning boshlang'ich pozitsiyasi), unda ishlab chiqarish omillaridan birining ko'pligi bilan unga bo'lgan talab cheklangan samaradorlikka nisbatan kamayadi. Bu ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyasiga olib keladi, ammo bu o'rinda mehnat va kapitaldan ham to'liq foydalanish kafolatlanadi.

Moliyaviy o'sish modellarining ushbu bobda keltirilgan qisqacha bayoni mazkur sohaning uzoq muddatli taraqqiyot bosqichini bosib o'tganligini ko'rsatadi. Olimlar asta-sekin statik iqtisodiy jamiyat modellaridan dinamikani tahlil qilishga o'tdilar. Modelga tobora ko'proq yangidan yangi sabab va omillar kiritila boshlandi: texnologik taraqqiyot, daromadlarni taqsimlash, "mehnat-asosiy kapital", "asosiy kapital-mahsulot" nisbati va boshqalar.

Ilk modellar bir mahsulotli modellar sanalgan bo'lsa, bugungi kunda chiziqli dasturlash asosida ko'p mahsulotli modellar yaratilmoqda. Modellar davlat tomonidan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim o'rin tutadi

Ammo tezkor va uzoq muddatli natijalarni o'zgartirish mexanizmlari turlicha bo'lganligi sababli, bashoratlashda ishlatiladigan modellar orasida 3 ta asosiy toifadagi modellar farq qiladi:

- uzoq muddatli tadqiqotlar (15 yildan 25 yilgacha);
- o'rta muddatli bashoratlash (4-5 yil);
- qisqa muddatli davrni o'rganish.

Makroiqtisodiy modellarga asoslangan bashoratlar dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida keng qo'llaniladi. Biroq, qo'llanilayotgan modellar va tahlil usullarining hech birini to'kis deb hisoblashning imkoni yo'q. Real iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri aks ettiruvchi modellarni yaratish borasidagi tadqiqotlar hanuz davom ettirilmoqda.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Solou modelidan amalda foydalanish borasida to‘xtalib o‘ting?
2. Neoklassik o‘shish modellari to‘g‘risida tushuncha bering?
3. Kobba- Duglas modelini misollar yordamida izohlab bering?
4. Leontev modelining boshqa modellardan farqi nimada?
5. E. Domar va R.F. Xarrod modellari haqida tushuncha bering?

Referat mavzulari:

1. Neoklassik iqtisodiy o‘shish omillarining iqtisodiy mazmuni.
2. Neoklassik iqtisodiy o‘shish omillarining empirik talqini.
3. Neoklassik iqtisodiy o‘shish modellarida inson omili.
4. Fan –texnika taraqqiyoti iqtisodiy o‘shishni harakatlantiruvchi kuch sifatida.

Mushohada uchun :

“Nol darajadagi iqtisodiy o‘shish” kontseptsiyasi to‘g‘risida mushohada yuriting. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati to‘g‘risida fikrlaringizni bayon qiling.

Masalalar:

1. Quyidagi ma’lumotlar berilgan:

Yillar	Aholi soni (mln. kishi)	Real YaIM (mlrd.so‘m)
2001	30	100
2002	45	150
2003	50	180
2004	55	200
2005	65	250
2006	70	260

Quyidagilarni aniqlang: A) aholi jon boshiga real YaIM; B) yillar kesimida iqtisodiy o‘shish sur‘atlari; V) maqbul aholi soni.

Yechish usuli:

A) aholi jon boshiga YaIM hajmini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:
 Aholi jon boshiga real YaIMq YaIM/aholi soni; YaIM (2001)=100/30=3,3 ming so‘m.

Barcha davrlar uchun aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIMni hisoblaymiz va jadvalga kiritamiz.

B) Iqtisodiy o'sish sur'atini quyidagi formula asosida aniqlaymiz:

Iqtisodiy o'sish sur'atiq (joriy davrdagi real YaIM-o'tgan davrdagi YaIM)/o'tgan davrdagi YaIM *100%;

$$\text{YaIM (2002)}=(150-100)/100*100=50\%$$

Barcha davr uchun ma'lumotlarni hisoblab, jadvalga kiritamiz.

$$\text{YaIMning 2002 yil uchun o'sishi}=(3,3-3,3)/3,3*100\%=0\%$$

Yillar	Aholi soni, mln. kishi	Real YaIM (mlrd. so'm)	Aholi jon boshiga real YaIM (ming so'm)	YaIMning o'sishi, %	Aholi jon boshiga YaIMning o'sishi
2001	30	100	3,3	-	-
2002	45	150	3,3	50	0
2003	50	180	3,6	20	9
2004	55	200	3,63	11	0,8
2005	65	250	3,84	25	5,8
2006	70	260	3,71	4	-3,38

V) Aholining optimal soni aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIMdan kelib chiqib aniqlanadi. Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining optimal soni 65 mln. kishini tashkil qiladi, chunki ushbu holatda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM miqdori eng ko'p bo'lgan.

2. Iqtisodiyotda jamg'armalar quyidagi formula bilan berilgan: $S=0,02*DI^2 - 5$; bu yerda: DI- tasarrufdagi (sof) daromad. $DI=12$ bo'lgan sharoitda jamg'arishga va iste'molga chegaraviy moyillikni toping.

Yechish usuli:

Nazariy asoslanishi	Tahliliy usul
$MPS=(S(DI))$	$MPS=(0,02*DI^2-5)=0,04DI=0,04*12=0,48$
$MPS+MPC=1; MPC=1-MPS$	$MPC=1-0,48=0,52$

3. Investitsiyalarning 40 birlikdan 50 birlikka o'sishi sharoitida daromad 300 birlikdan 345 birlikka ko'paydi. Xarajatlar multiplikatorini va iste'molga chegaraviy moyillikni toping.

Yechish usuli:

Nazariy asoslanishi	Tahliliy usul
$M_G = \Delta GDP / \Delta i$	$M_G = (345 - 300) / (50 - 40) = 4,5$
$MPS = 1 / M_G$	$MPS = 1 / 4,5 = 0,22$
$MPS + MPC = 1; MPC = 1 - MPS$	$MPC = 1 - 0,22 = 0,78$

4. Firmaning ishlab chiqarish funksiyasi $Q = K^{0,5} * L^{0,5}$ Aytaylik, bir kunda 4 soat mehnat ($L=4$) va 4 soat kapital ($K=4$) sarflanadi.

Quyidagilarni aniqlang:

- 1) Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning maksimal miqdori;
- 2) Mehnatning o'rtacha mahsuloti;
- 3) Aytaylik, firma ikkala omillardan foydalanish xarajat-larini ikki barobarga oshirdi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori qanday bo'ladi?

Yechish usuli:

- 1) Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning maksimal miqdori mavjud ishlab chiqarish omillaridan maksimal darajada foydalanish holatida ta'minlanadi: $Q_{\max} = 4^{0,5} * 4^{0,5} = 4$
- 2) Mehnatning o'rtacha mahsuloti $-ATL = Q/L = 4/4 = 1$
- 3) Aytaylik, firma ikkala omillardan foydalanish xarajat-larini ikki barobarga oshirdi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori $Q_{\max} = 8^{0,5} * 8^{0,5} = 8$

Keys: Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish asoslari

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyasi shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalarida, ayniqsa global iqlim o'zgarishi ta'sirida sayyoramizning ko'plab mintaqalarida tobora avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning xo'jalik yuritish faoliyatlarini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etib, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi sohasining taraqqiyoti iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Xitoy, Hindiston, Braziliya, Chili va Vetnamdagi iqtisodiy o'sishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining jadal o'sishi bilan bog'liq bo'lgani holda, ayrim Afrika mamlakatlarining rivojlanishdan ortda qolishi, mazkur mamlakatlarning qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining etarli darajada ta'minlay olmayotganliklari bilan izohlanadi

Bu, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi sektorining bandlik va YaIMda ulushi yuqori bo'lgan iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqich-larida iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarni rivojlantirishda qishloq xo'jaligining muhim o'rin tutishi bilan izohlanadi. Ushbu

holatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish omillarini (xom ashyo, mehnat, kapital jamg'arish, xorijiy valyutani jalb qilish) taklif etish orqali iqtisodiyot-ning boshqa sohalari o'sishiga yordam beradi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng qadimiy, hech qachon o'z o'rnini va ahamiyatini yo'qotmaydigan tayanch tarmoqlardan biridir. Lekin sayyoramizdagi global iqlim o'zgarishlari hamda mintaqamizdagi ekologik muammolar oqibatida qishloq xo'jaligida har yili ilgari ko'rilmagan yangi-yangi sinov va qiyinchiliklar paydo bo'layotgani ushbu agrar sohaga e'tiborni yanada kuchaytirishni taqozo qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning 1 dollarga o'sishi, iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida ham mahsulot ishlab chiqarishning 1 dollarga o'sishiga olib keladi, ayni paytda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning 1 dollarga o'sishi qishloq xo'jaligida 0,18 dollarlik o'sishni ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi o'sishining mazkur multiplika-torlari odatda, daromadi past mamlakatlarda yuqori bo'lishi kuzatiladi, chunki mazkur mamlakatlarda sanoat sektorining asosiy ulushi (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash) va xizmatlar sohasi qishloq xo'jaligi ko'rsatkchilariga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi.

Boshqa bir tomondan, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining o'sishi qishloq xo'jaligidan tashqari faoliyat bilan shug'ullanuvchi aholining ortib borayotgan ulushini oziq-ovqat bilan ta'minlash imkonini beradi va shu bilan birgalikda shahar aholisining o'sishiga yordam beradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida unumdorlikning oshishi oziq-ovqat mahsulotlari narxini pasaytirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida shahar-larda nominal ish haqini kamaytirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi bevosita bog'liqlikning mavjudligi evaziga qishloq xo'jaligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan uzluksiz ta'min etadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligining moliyaviy saldosi deb ataluvchi, ya'ni qishloq xo'jaligidan keladigan pul oqimlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari-ning o'sishini qo'llab-quvvatlagan holda, investitsiya sifatida yo'naltirilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun iqtisodiyot-ning boshqa sektorlari mahsulotlari, xususan sanoat mahsulotlari (o'g'itlar, asboblar va mashinalar)ga talab paydo bo'ladi, qishloq xo'jaligida band bo'lgan va qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholi daromad-larining o'sishi asnosida zaruriy iste'mol tovarlariga talab ortib boradi. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi daromadlarning o'sishi sanoatlashtirishni rag'batlantiradi. Mazkur omil o'z paytida Hindiston va Xitoyda yer islo-hoti siyosatining asosini tashkil qilgan edi. Xususan, Xitoy erdan foyda-lanuvchilarga erga egalik huquqini berish orqali 800 million qishloq uy xo'jaliklari o'rtasida sanoat mahsulotlarining ichki bozorini rivojlan-tirishga erisha oldi.

Bundan tashqari, daromadi past mamlakatlar aynan qishloq xo'jaligida taqqoslanma afzalliklariga ega bo'lganliklari bois, qishloq xo'jaligini rivojlantirish ochiq iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy rivojlanish bo'yicha tadqiqot olib boruvchi yetakchi mutaxassis olimlarning ta'kidlashicha, qishloq xo'jaligi qisqa muddatda qiyosiy afzalliklar taqdim etadi, agrosanoat majmuasini rivojlantirish esa uzoq muddatli istiqbolda sanoatlashtirishga katta yo'l ochib beradi. Mazkur mamlakatlar uchun qishloq xo'jaligiga investitsiyalar sanoatlashtirish va muvaffaqiyatli tarkibiy o'zgarishlar borasida iqtisodiy jihatdan samarali o'sish strategiyasi bo'lib xizmat qiladi. Osiyo mamlakatlarida qashshoqlik darajasini qisqartirishda qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirish muhim asos bo'lib xizmat qilganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida bugun talablaridan kelib chiqqan holda, ustuvorliklarni aniqlashtirish borasida muayyan bir qiyinchiliklar mavjud, xususan bu borada quyidagi masalalarga oydinlik kiritish talab etiladi:

- ochlik darajasini kamaytirish va aholining real daromadini oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini pasaytirish yoki fermerlarni qishloq xo'jaligiga ko'proq sarmoya kiritishga undash maqsadida mazkur narxlarning oshishishni rag'batlantirish;

-byudjet mablag'laridan qisqa muddatli oziq-ovqat muammosini yumshatish uchun foydalanish (masalan, oziq-ovqat yordam dasturlari orqali) yoki mazkur mablag'larni qishloq xo'jaligiga investitsiya qilish va uzoq muddatli mahsuldorlik muammosini hal qilishga yo'naltirish;

- o'zini –o'zi ta'minlash hisobiga oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilishga katta e'tibor qaratish yoki qiyosiy ustunliklardan foydalangan holda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosini kengaytirish;

- qashshoqlikni kamaytirishda samarali bo'lgan mayda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish yoki hosildorlikni oshirish va qiymat yaratishning integratsiyalashgan zanjirlari orqali murakkab bozorlarga chiqish borasida samarali hisoblanuvchi yirik xo'jaliklarini jadal rivojlantirish.

Shu tariqa, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish borasida qishloq xo'jaligining mavjud salohiyatidan foydalanish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida ushbu salohiyatdan foydalanish borasida samarali yondashuvlarni tanlab olish va qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanishning zamonaviy usul va vositalarini o'zlashtirish daromad darajasi past mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2019 yilning oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning "2020-2030 yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi va Strategiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab berildi:

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;

qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversi-fikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

yer va suv resurslari, o'rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muho-faza qilish tizimini takomillashtirish;

qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlarini samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash;

qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va maslahat xizmatlari-ning ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko'maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;

zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi doirasida 2021 yilda amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilar ekanmiz,

2021 yilda O‘zbekiston Respublikasining 2 ta qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi (03.02.2021y. PF-6159-son), “Yer munosabat-larida tenglik va shaffoflikni ta‘minlash, erga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (08.06.2021 y.PF-6243-son) Farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” g (03.02.2021 y. PQ-4975-son), “G‘alla etishtirish va sotishda erkin raqobatni ta‘minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida”gi (15.11.2021 y PQ-10-son) Qarorlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Organik qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ixtiyoriy sertifi-katlashtirishdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi (23.02.2021 y.96-son), “Ichki iste‘mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini kafolatli ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (15.03.2021 y. 135-son) Qarorlari va qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan 4 ta hukumat dasturlari qabul qilindi.

2021 yilda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlash, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash maqsadida 1 million 31 ming gektar yer maydoniga paxta, 1 million 223 ming gektar boshqli don, 199 ming gektar moyli ekinlar, 348 ming gektar sabzavot, 78,2 ming gektar kartoshka, 171,5 ming gektar poliz, 725,6 ming gektar ozuqa ekinlari, 448 ming gektar dukkakli ekinlar va 516 ming gektar yer maydoniga boshqa ekin turlari ekildi. Bundan tashqari mamlakatimizda tashkil etilgan mevali bog‘lar 64 ming gektarni, uzumzorlar esa 37,5 ming gektarga etkazilishi natijasida jami mevali bog‘lar 293 ming gektarni, tokzorlar 134 ming gektarni, issiqxonalar 5,5 ming gektarni tashkil qilmoqda. Hududlar kesimida 2021 yilda barpo qilingan mevali bog‘lar va tokzorlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, bu borada eng katta ulush Jizzax viloyati (18078 gektar mevali bog‘, 11382 gektar tokzor), Surxondaryo viloyati (11067 gektar mevali bog‘, 520 gektar tokzor), Qashqadaryo viloyati (5877 gektar mevali bog‘, 3051 gektar tokzor), Toshkent viloyati (4943 gektar mevali bog‘, 3580 gektar tokzor)ga to‘g‘ri keladi. 2021 yilda mamlakatimiz bo‘yicha 644 ming gektar qo‘shimcha yer maydoniga qishloq xo‘jaligi ekinlari joylash-tirildi. 2021 yilda dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida 313,1 trln.so‘mlik mahsulotlar etishtirilishi mo‘ljallanmoqda, bunda yillik o‘shish 105,8 foizni tashkil qiladi. 2021 yilda 3,4 million tonna paxta, 6,6 million tonna don, 2 million tonnadan oshiq kartoshka, 565 ming tonna dukkakli ekinlar, 11,2 million tonna sabzavotlar, 2,3 million tonna poliz mahsulotlari, 4,7 million tonna meva va uzum etishtirildi. 2021 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksporti dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra 3 milliard 803 million dollarni, shundan to‘qimachi-lik mahsulotlarining eksporti 2 milliard 753 million dollarni tashkil qilishi kutilmoqda. Mamlakatimizda organik qishloq xo‘jaligini tashkil qilishga alohida e‘tibor qaratilishi natijasida respublika bo‘yicha 2021 yilda 5292 gektar yer maydonida organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish yo‘lga qo‘yildi. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish masalalariga alohida e‘tibor qaratilayotganligi quvonarlidir. Bugungi kunda mamlakatimizda 665 ta agrosanoat klasterlari faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularga 2,2 million gektar yer maydoni birlashtirib berilgan. Birgina 2021 yilda g‘allachilik klasterlari 80 taga, meva-sabzavotchilik klasterlari soni 60 taga ko‘paygan. Hozirda mamlakatimizda suv tanqisligi kun sayin kuchayib borayotgan bir paytda, suv tejavchi texnologiyalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda, 2021 yilda mamlakatimizda 512 ming gektar yer maydonida suv tejavchi texnologiyalardan foydalangan holda hosil etishtirish yo‘lga qo‘yildi.

COVID-19 pandemiyasi nafaqat inson hayotiga, balki uning kun kechirish manbalariga ham katta xavf solmoqda.

Ayrim mamlakatlarda pandemiyaning tarqalishi sekinlashib, infek-tsiya holatlari soni kamayib borayotgan bo'lsa, boshqalarida esa COVID-19 tez tarqalishda davom etib, zararlanishlar soni yana ko'paya boshladi. Bir so'z bilan aytganda pandemiya global javob talab qiladigan global muammo bo'lib qolmoqda. Favqulodda choralar ko'rilmasa, millionlab bolalar va kattalar uchun uzoq muddatli oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan favqulodda global tusga ega bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelishimiz tabiiydir.

Bu asosan oziq – ovqat mahsulotlarining taqchilligi bilan bog'liq bo'lib, daromadlarning tushishi, pul o'tkazmalarining qisqarishi va ma'lum bir holatlarda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi ko'tarilib borishida namoyon bo'lmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi jiddiy tus olgan mamlakatlarda, bugungi kunga kelib oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligi bilan bir qatorda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish inqirozi katta xavf tug'dirmoqda. O'zbekiston 2021 yilda global ochlik indeksida 5,9 ball to'plab, 135 ta dunyo mamlakatlari o'rtasida 21-o'rinda qayd etildi.

Global ochlik indeksi (GHI) har yili Concern Worldwide va Welthungerhilfe xalqaro nodavlat tashkilotlari tomonidan e'lon qilinadi. Baholashlar turli manbalardan olingan ma'lumotlarga tayangan holda, uch bosqichli jarayondan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Global ochlik indeksini hisoblashda har bir mamlakat uchun to'rtta ko'rsatkichdan foydalaniladi: To'yib ovqatlanmaslik: aholining to'yib ovqatlanmaydigan ulushi (ya'ni oziq-ovqat kaloriyasining pastligi holatida); Bolalarning to'yib ovqatlanmasligi: to'yib ovqatlanmaydigan besh yoshgacha bo'lgan bolalar nisbati (ya'ni, to'yib ovqatlanmaslik natijasida ular bo'yining tana vazniga mos kelmasligi); Bolalar o'sishidagi kechikishlar: o'sishdan kechikayotgan besh yoshgacha bo'lgan bolalarning nisbati (ya'ni, bolalarning yoshiga nisbatan o'sishdan kech qolayotganligi, ularning surunkali ravishda to'yib ovqatlanmasliklarini ko'rsatadi); Bolalar o'limi: etarlicha ovqatlanmaslik va nosog'lom muhit kabi omillarning natijasi sifatida besh yoshgacha bo'lgan bolalarning o'lim darajasi.

Tadqiqotlar davomida global ko'lamda so'nggi o'n yillikda kuzatilgan eng yuqori ko'rsatkichga tayanilgan holda, 100 ballik shkala bo'yicha to'rttala ko'rsatkichning har biri baholanadi. Agar mamlakat 0 va 10 ball oralig'ida ball to'plagan bo'lsa, bu mamlakatda "ochlikning past darajasi" kuzatiladi. To'plangan ballar 10 va 19,9 ball atrofida bo'lsa bu "o'rtacha ochlik", 20 ball dan 34,9 ballgacha bo'lsa – "ochlikning yuqori", 35 ball dan 49,9 ballgacha bo'lsa "ochlikning kritik" darajasini ko'rsatadi. To'plangan ballar 50 va undan yuqori bo'lsa, bu mamlakatda ochlik darajasi "halokatli" ko'lamda ekanligidan dalolat beradi.

BMT hisobotida keltirilishicha, COVID-19 pandemiyasi natijasida surunkali ochlikdan aziyat chekayotganlar soni 132 million kishiga ko'payishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, Oziq-ovqat inqirozlari bo'yicha global ma'ruzada ta'kidlanishicha, bugungi kunda dunyoda 850 milliondan oshiq insonlar to'yib ovqatlanish baxtidan mosuvo bo'lgani holda, yana 700 milliondan oshiqroq insonlar oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq xatarga duch kelmoqda, ustiga-ustak dunyoda 1,3 milliard inson kerakli darajada oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanmagan. Jahon bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyaning iqtisodiy oqibatlari natijasida 100 millionga yaqin kishi qashshoqlik domiga tushib qolishi mumkin. Ishsizlikning muttasil o'sishi, daromad manbalarining yo'qotilishi va oziq-ovqat mahsulotlariga narxning o'sishi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham iste'molchilarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashni xavf ostiga qo'yadi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida jiddiy xatarlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, pandemiya milliy iqtisodiyotlarni chuqur retsessiyaga olib kelishi bois, dunyo mamlakatlari pandemiyaning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimlariga salbiy ta'sirini yumshatish borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirishlari talab etiladi.

Xalqaro oziq-ovqat tashkiloti (FAO) mutaxassislari COVID-19 tu-fayli insonlar ochlik domiga tushib qolishlariga sabab bo'luvchi uchta omil-ni ajratib ko'rsatishadi:

- Bandlik darajasining pasayishi va daromadlarning qisqarishi fuqarolarning oziq-ovqat mahsulotlariga sarflashlari mumkin bo'lgan xarajatlarning qisqarishini anglatadi. Migrantlarning pul o'tkazmalari-ning qisqarishi ham mazkur muammoni yanada chigallashtiradi. Shu bilan birga, dunyo mamlakatlari orasida siyosiy, irqiy, iqtisodiy, millatlararo ziddiyatlarning kuchayishi oziq-ovqat mahsulotlari narxining ko'tarili-shiga va taqchilligiga sabab bo'lmoqda.

- Pandemiya oqibatida yuzaga kelgan turli majburiy to'siqlar va uzilishlar va sog'liqni saqlash bilan bog'liq pandemiyaga qarshi chora-tadbirlar ham oziq-ovqat ishlab chiqarish va oziq-ovqat ta'minoti borasida jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

- Davlat daromadlarining keskin pasayishi turli tavsifga ega bo'lgan ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashni mushkul holatga solib qo'yadi va davlatning o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondira olmasligini anglatadi.

Mamlakatimizda pandemiyaning salbiy oqibatlarini bartaraf etish borasida amalga oshirilgan izchil chora-tadbirlar natijasida, qishloq xo'jaligiga pandemiyaning ta'siri halokatli darajada bo'lmadi, deb aytishga to'la haqqimiz bor.

Jahon tajribasini o'rganish asosida qishloq xo'jaligini rivojlan-tirishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillari sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo'ladi:

Narx orqali rag'batlantirish. Jahonning ilg'or tajribasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari narx rag'batlariga ta'sirchan ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli qishloq xo'jaligi mahsulotlari "to'g'ri" narxlarni belgilash qishloq xo'jaligi o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biri sanaladi.

Qo'shilgan qiymat yaratishning integral zanjirlarini tashkil etish. Oziq-ovqat bozorlari tobora supermarketlar kabi rivojlangan integral qiymat zanjirlariga aylantirilmoqda. Ular fermerlar, mahsulotni qayta ishlovchilar, chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar va iste'molchilarni o'zaro birlashtirgani holda, qimmatli ma'lumotlarni almashish, zarur bo'lganda mablag' bilan ta'minlash, sanitariya va fitosanitariya standartlarini aniqlashtirish va ularga rioya etilishni ta'minlash, xavf-xatarlarni taqsimlashni rag'batlantirish va tadqiqot va innovatsiyalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiya, transport va energetika kabi qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ham o'z navbatida engil ko'chadi. Ko'lam samarasiga va iste'molchiga etkazib berilayotgan mahsulotlar sifatining sezilarli darajada oshishiga erishiladi. Boshqa bir tomondan, supermarketlar an'anaviy chakana do'konlarning yo'qolishiga va ko'plab ish o'rinlarining yo'qolishiga olib kelsada, jarayon ishtirokchilari narxlar-ning pasayishidan birdek manfaatdor bo'ladilar.

To'g'ri texnologiyalarni tanlash. Yer resurslarining cheklanganligi tufayli qishloq xo'jaligining istiqbolda taraqqiy etishi mazkur resurslardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Bu borada texnologiya katta rol o'ynaydi. Mehnat tejoychi, yer va suv tejoychi, xatarlarni kamaytiruvchi, mahsulot sifatini oshirishga imkon beruvchi va ekologik sof texnologiyalar farqlanadi. Moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda texnologiyalarni tanlashda ustuvorlik ishlab chiqarish resurslarining nisbiy narxlariga bog'liq sanaladi.

Savollar:

1. Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilishdagi eng asosiy muammolarni sanab o'ting?
2. Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda tashkil etish masalalariga siz o'z munosabatingizni bildiring?
3. Qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish ishlarini yanada jonlantirish uchun nima yo'l tutish lozim, deb o'ylaysiz?

4. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorini erkinlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tanqidiy baholang?

Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent-“O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘rsida”gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.
3. Abduvoxidov A.A. va boshqalar. Innovatsiyalar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma.- T.: “Mumtoz so‘z”, 2020-636 bet.
4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Хайиев В.Д., Ахмедов Д.Қ., Захидов Г.Е., Мамбетжанов Қ.Қ. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2018. - 428 bet.
10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.
11. Хайиев В.Д., Abdullaev S.O., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. – T.: “Zebo yulduzlari MChJ”, 2018. - 417 bet.

12. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 542 b.
13. Дарон Асеомглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асеомглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова-М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).
14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018
15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.
16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.
17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.
18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018
19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. · 2018
20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.
21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.
22. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi rasmiy sayti.
23. www.stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

24. <https://mineconomy.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti
25. <https://cbu.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
26. <https://mf.uz/uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
27. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi
28. <https://www.mininnovation.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi rasmiy sayti
29. <https://uza.uz/uz> - O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti
30. <https://www.worldbank.org/en/home>- Jahon banki rasmiy sayti

V BOB. DAVLATNING BYUDJET-SOLIQ (FISKAL) SIYOSATI

Mamlakatning taraqqiyot darajasi avtomobil qiymatining soch oldirish qiymatiga nisbati bilan o'lganadi. Ushbu qiymatlar qanchalik bir-birlariga yaqin bo'lsa, mamlakat shunchalik rivojlangan bo'ladi.

Devons Semyuel

- 1. Davlat byudjeti va uning iqtisodiy mazmuni**
- 2. O'zbekistonda byudjet tuzilishi va byudjet tizimi**
- 3. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi**

Islohotlar shiddati tobora oshmoqda

Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanib, 2021 yil ushbu maqsadga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. O'tgan yili iqtisodiy o'sish sur'ati 7,4%ni tashkil etdi, bu esa avval berilgan prognozlardan 5-6% yuqori va bu salmoqli ko'rsatgich (ayniqsa, 2020 yilda pandemiya bilan bog'liq bo'lgan 1,6 foiz past iqtisodiy o'sish fonida). Aholi jon boshiga YaIM 1955 dollarni tashkil qildi, 2020 yili esa bu ko'rsatkich 1750 dollarga teng edi.

Iqtisodiy o'sishga sanoatning 9,5%, xizmatlarning 20%, qishloq xo'jaligining 4%, qurilishning 6% o'sishi hisobiga erishildi. Shu bilan birga, YaIMning umumiy o'sishida xizmat ko'rsatish va servis sohasining ulushi 2,8%, sanoat – 2,3%, qishloq xo'jaligi – 1% va qurilish – 0,4%ga teng bo'ldi.

2021 yili konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 203,5 trln. so'mni yoki YaIMga nisbatan 28,2%ni tashkil qildi, negaki, soliq tushumlari pandemiyagacha 2019 yilning mos davriga nisba tan 1,6 baravar, 2020 yilga nisbatan esa 1,3 baravar oshdi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 7,4% o'sish sur'ati bilan 253,6 trln. so'mga etdi. Respublika tovar-xomashyo birjasining umumiy savdo hajmi 82,2 trln. so'mni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 63,7 foizga o'sdi. Davlat tashqi qarzi 25,5 mlrd. dollarni (YaIMning 37,6%) tashkil etdi, iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari hajmi esa 331,8 trln. so'mga teng bo'ldi.

Valyuta tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida yil davomida davlat qarz portfeli diversifikatsiya qilindi va milliy valyutadagi qarzar hajmi bosqichma-bosqich oshirildi. Xususan, o'tgan yili O'zbekiston tomonidan milliy valyutada chiqarilgan suveren evroobligatsiyalar hajmi 2020 yilga nisbatan 500 mlrd. so'mga oshib, 2,5 trln. so'mni tashkil qildi. Kupon stavkasi oldingi yillarga nisbatan 50 bazaviy punktga tushib, 14%ni tashkil etdi.

Inflyatsiya darajasi 2020 yil oxirida 11,1%ga etgan bo'lsa, bu yil esa so'nggi oylarda kuzatilgan narxlar o'sishiga qaramay, mazkur ko'rsatkich 10%dan past darajada bo'ldi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilangani tufayli o'tgan yili S&P xalqaro reyting agentligi O'zbekiston Respublikasining suveren kredit reytingini "salbiy"dan "barqaror"ga, Moody's xalqaro reyting agentligi esa mamlakat reytingini "barqaror"dan "ijobiy"ga ko'tardi.

O'tgan yil davomida iqtisodiy faoliyatning barcha yo'nalishlarida islohotlar faol davom ettirildi. Eng muhimlari orasidan, jumladan, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish tarkibiy islohotlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi, negaki, 2021 yil boshida mamlakat YaIMning qariyb 50% va tashqi savdo

hajmining beshdan bir qismi davlat korxonalari tomonidan yaratildi. Tijorat banklari, shuningdek, barcha yirik sug'urta kompaniyalari aktivlarining 80%dan ortig'i ham davlatga tegishli edi, bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligini susaytiradi. Davlatimiz Prezidentining 2021 yil 11 fevraldagi "Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to'g'risida"gi Farmoni xususiylashtirish miqyoslarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonga muvofiq, professional tashkilotlar tomonidan aniqlangan qiymat yoki qiymatlar oraliq'i (baholash faoliyatining milliy standarti talablaridan qat'i nazar) savdo jarayonida mo'ljal sifatida hisobga olinishiga ruxsat berildi.

Davlat aktivlarining boshlang'ich narxni e'lon qilmagan holda sotish to'g'risida e'lonlar berish, shuningdek, 2 tadan kam bo'lmagan takliflar orasida eng yaxshisi asosida sotish bo'yicha qarorlar qabul qilish vakolati berildi. Farmonda kimoshdi savdosiga to'liq qo'yilgan davlat aktivlari, shuningdek, aktsiyalarida davlat ulushi sotilishi lozim bo'lgan 18 ta korxonalar ro'yxati tasdiqlandi. Mazkur Farmon tufayli o'tgan yili xususiylashtirish jarayoni yanada jadallashdi. Agar 2020 yilda 804 ta obyekt xususiylashtirilib, undan 1092 mlrd. so'm mablag' tushgan bo'lsa, 2021 yilda, dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 903 ta obyekt xususiylashtirishdan 6030 mlrd. so'm yig'ildi.

Xususan, "Ichan qal'a" mehmonxonasi, Milliy xavfsizlik xizmatining sobiq binosi kabi yirik obyektlar sotildi.

Yer munosabatlarini tijoratlantirish biznes uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'nalishda Prezidentimizning 2021 yil 8 iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, erga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni muhim o'rin egalladi. Unga muvofiq, 2021 yildan boshlab yer uchastkalari xususiylashtirishga – mulk va ijara huquqi asosida, davlat tashkilotlariga esa – doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilmoqda. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlar ochiq elektron tanlov yakunlariga ko'ra, faqat ijara huquqi asosida ajratilib, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar esa mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilinmoqda.

Shuningdek, joylarda davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlariga oid bir qator vakolatlari bekor qilindi.

Yer uchastkalarini ro'yxatga olishni ta'minlash maqsadida o'tgan yili 1 maydan boshlab O'zbekiston tarixida birinchi marta qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarni elektron ro'yxatga olish jarayoni boshlandi. Yil davomida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarning mavjud 24,1 mln. ga (169,6 mingta uchastka) maydonidan 23,1 mln. gektarida (96%) elektron kartalar yaratildi, 21,8 mln. ga (95%) yoki 127,1 mingta uchastka ro'yxatga olindi.

Ekspart salohiyatini amalga oshirish islohotlarining eng muhim maqsadlaridan biridir. Negaki, iqtisodiyotdagi ichki talab aholi farovonligini oshirish muammolarini hal etish uchun etarli emas. Prezidentimizning 2021 yil 7 sentyabrdagi "Ekspartchi korxonalarini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bu borada muhim ahamiyat kasb etdi.

Farmonda Ekspartni rag'batlantirish agentligi tomonidan yillik ekspart hajmi 20 mln. AQSh dollaridan oshgan korxonalariga ekspart bilan bog'liq savdo operatsiyalari uchun bir martalik moliyaviy resurslar 5 mln. AQSh dollarigacha miqdorda hamda bir yilgacha muddatga taqdim etilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, 1 mln. AQSh dollaridan ortiq tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ekspart qilgan korxonalariga mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur buyumlarni olib kirishda bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha foiz hisoblanmagan holda 120 kunga to'lovni kechiktirish imkoniyatini taqdim etish belgilangan. Bundan tashqari, yuqori sifat va nazorat tizimiga ega mamlakatlardan ishlab chiqarish uchun zarur buyumlar importida milliy sertifikat olish talabi bekor qilinadi. Mazkur farmon ekspartchilar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatni sezilarli darajada engillashtirdi, buning natijasida, dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, tashqi savdo aylanmasi YaIMga nisbatan 61,7%ni tashkil etgan holda 41 897 mln. dollarga etdi,

2020 yilda esa bu ko'rsatkich 60,6%ga teng edi. Eksport 2020 yildagi 15 128 mln. dollardan 2021 yilda 16,5 mlrd. dollargacha deyarli 1,3 mlrd. dollarga oshdi.

Investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni rivojlantirishga ichki investitsiyalarni yanada faol jalb etish borasida mamlakatimiz Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi hamda 2021-2023 yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturi va uni amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkichlar tasdiqlandi.

Kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, quyidagilar: kapital bozorining kapitallashuvini 2023 yil yakuniga qadar 45 trln. so'mga etkazish; barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirish; 2023 yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlarining qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali moliyalashtiriladigan qismini 5 foizga etkazish; fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo'naltiriladigan investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; kapital bozorini zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish; kapital bozori ishtirokchilari hamda aholi keng qatlamlarining bilimlarini oshirishni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida 2023 yil yakuniga qadar 40 ming nafar aholini qamrab olish. Umuman olganda, ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli, yilning dastlabki natijalariga ko'ra, markazlashmagan investitsiyalar hajmi 6,7%ga ortib, 201,6 trln. so'mga etdi. Ulardan xorijiy investitsiyalar va garovsiz tashqi kreditlar 19,7%ga oshib, 89 trln. so'mni, tijorat banklarining kreditlari esa 35,5 trln. so'mni (o'sish 98,3%) tashkil qildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish olib borilayotgan islohotlarning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'tgan yil davomida tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, biznes uchun byurokratik xarajatlarni yanada qisqartirishga yo'naltirilgan tegishli choralar ko'rildi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2021 yil 23 martda qabul qilingan "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonga muvofiq, 2021 yil 1 iyundan boshlab davlat organlari va tashkilotlar tomonidan fuqarolar va tadbirkorlardan ko'plab hujjatlarni talab qilish bekor qilindi.

Biznesda soliq solish sohasida tadbirkorlik uchun sharoitlarni yaxshilashga ham e'tibor qaratildi. 2021 yil 7 sentyabrdagi "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlarig yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonga asosan, 2022 yil 1 yanvardan boshlab, kameral soliq tekshiruv natijalari bo'yicha aniqlangan huquqbuzarliklar uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq hisobotini belgilangan muddatlarda taqdim etmaganlik uchun moliyaviy sanksiyalar ham bekor qilindi.

2021 yil 15 sentyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonga muvofiq, 2021 yil 1 oktyabrdan qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchisi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq organlariga soliq hisobotini topshirish majburiyati bekor qilindi. Bundan tashqari, ushbu Farmon bilan 2022 yildan boshlab tadbirkorlik subyektlariga ma'muriy bosim darajasini aniqlash va engillashtirishga qaratilgan Tadbirkorlik faoliyati erkinligi indeksi joriy etiladi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida tadbirkorlik sektori jadal rivojlandi. Shunday qilib, o'tgan yil mobaynida ro'yxatga olingan kichik biznes korxonalarini soni 430 793 tadan 484 085 taga, faoliyat olib borayotganlari 405 019 tadan 458 538 taga, yangi tashkil etilganlari esa 85 476 tadan 91 218 taga ko'paydi.

Olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri — yangi ish o'rinlari yaratish hamda ishsiz aholining bandligini ta'minlashdan iborat. O'tgan yili ham ushbu

yo'nalishda ahamiyatli sa'y-harakatlar qilindi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 457 mingdan ortiq ish o'rni yaratildi. Jumladan, sanoatda 62,8 mingta, xizmat ko'rsatish sohasida 48,6 mingta, qishloq xo'jaligida 28,5 mingta ish o'rni yaratilgan. Ish so'rab murojaat qilgan 590,5 ming nafar fuqaroning 378,9 mingtasi (64,1%) doimiy ishga joylashtirildi. Vaqtinchalik haq to'lanadigan jamoat ishlariga 238,1 ming nafar ishsiz fuqaro jalb etilgan bo'lib, ularning ish haqi uchun Jamoat ishlari jamg'armasidan 209,9 mlrd. so'm ajratildi. 95,5 ming nafar ishsizga ishsizlik bo'yicha nafaqa to'landi. Ishsiz fuqarolarga ish qidirish va daromad manbalarini kengaytirishda davlat tomonidan jiddiy yordam ko'rsatildi. Jumladan, davlat fondidan ajratilgan 102,3 mlrd. so'm subsidiya hisobiga 47,3 ming nafar ishsiz va qisman band fuqarolar ishga joylashtirildi. 17,7 mingta xususiy yer egalari engil issiqxonalar qurish, urug'lik, ko'chat va sug'orish uskunalari xarid qilishi uchun 49 299,7 mln. so'm, shuningdek, 6,4 ming nafar ishsiz fuqaroni tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish, tadbirkorlikka o'qitish va kredit sug'urta polislarini sotib olishi uchun 1,6 mlrd. so'm miqdorda subsidiyalar ajratildi. Ushbu subsidiyalar tufayli faoliyatning turli yo'nalishlarida 475 ta kooperativ tashkil etildi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga hamma vaqt alohida e'tibor qaratilgan. O'tgan yil ham bundan mustasno bo'lmadi. Ayniqsa, ehtiyojmand fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar yil davomida keng ko'lamda davom etdi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2021 yil 25 martdagi "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni zamonaviy ijtimoiy himoya mexanizmlarini hayotga tatbiq etishga qaratildi. Farmonga muvofiq, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi negizi- da O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari, Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi, hududiy reabilitatsiya markazlari, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriy va pansionatlar hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Agentlik tizimiga o'tkazildi. Agentlik shaklidagi davlat tomonidan vakolat berilgan yagona organ tomonidan boshqaruvning bunday markazlashtirilishi ko'rsatilayotgan yordam sifatini oshirish imkonini berdi. 2021 yil 11 avgustda Prezidentimizning "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonga ko'ra, 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa hamda bola ikki yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi o'rniga, kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi joriy etildi. Shu bilan birga, bolalarning inobatga olinadigan yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha, to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha oshirilib, nafaqa miqdori oiladagi bolalar sonidan kelib chiqqan holda belgilanishi nazarda tutiladi, yakka-yolg'iz fuqarolarga, farzandi bo'lmagan yoki barcha farzandlari 18 yoshdan katta bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanadi.

Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari ham davom ettirildi. Xususan, mamlakatimiz rahbarining 2021 yil 11 martdagi "Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan, 2021 yil 1 iyundan boshlab ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar to'lashning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Shu bilan bir qatorda, 2021 yil 9 dekabrda qabul qilingan xuddi shu yo'nalishdagi farmon bilan 2021 yil 10 dekabrda boshlab daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj fuqarolarga davlat byudjetidan subsidiyalar to'lashda kvartira maydonining eng ko'p me'yori belgilash amaliyoti bekor qilindi. Bundan tashqari, subsidiyalar sotib olinayotgan kvartiraning maydoni va narxi 2021 yil uchun o'rnatilgan kvartira maydonining eng ko'p me'yori va uy-joyning hisoblangan qiymatidan oshgan taqdirda ham

to'lanadi. Shuningdek, o'tgan yili kam ta'minlangan oilalarga ikki marta bir martalik moddiy yordam mablag'lari ajratildi. Davlatimiz Prezidenti tomonidan 2021 yil 30 iyulda "Kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror imzolangan bo'lib, unga ko'ra "Temir daftar"ga kiritilgan, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqasini oluvchi oilalar, nogironligi bo'lgan 18 yoshga to'lmagan bolalarga davlat byudjetidan 500 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam pullari ajratildi.

Prezidentimiz tomonidan o'tgan yilning dekabr oyida imzolangan xuddi shunday Qarorga muvofiq, 2021 yilda "Temir daftar" ro'yxatiga kiritilgan oilalarga; 18 yoshga to'lmagan farzandlari bor boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqasini oluvchi oilalarga; 18 yoshgacha bolalar uchun nogironlik nafaqasini oluvchi oilalarga 800 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam pullari dekabr oyi oxirigacha to'lab berildi.

2021 yildagi islohotlarning asosiy yo'nalishi kambag'allikka qarshi kurashish bo'ldi. «Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo'ladi», – dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida.

Kambag'allikka qarshi kurashishda asosiy e'tibor kam ta'minlangan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, ularni to'g'ri aniqlash zarur. Buning uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida "Temir", "Ayollar" va "Yoshlar daftarlari", "Mahallabay" ish uslublari joriy etilib, ijtimoiy himoyaga olingan oilalar soni ikki barobarga ortdi va ularning moddiy ta'minoti oshirildi. Shu asosda o'tgan yili muhtoj oilalar haqida barcha ma'lumotlar kiritilgan va ularga elektron shaklda ijtimoiy xizmat ko'rsatishga imkon yaratuvchi "Ijtimoiy reestr"ni shakllantirish ishlari yakunlandi. Ayni damda davlat tomonidan "Yagona darcha" asosida taqdim etilayotgan barcha ijtimoiy xizmatlar ushbu tizim orqali amalga oshirilayotgan bo'lib, unda ijtimoiy nafaqa olayotgan oilalar qayd etilgan. Shunga qaramay, kambag'allik muammosini tezroq hal etish uchun buning o'zi kifoya bo'lmadi va shu sababdan 2026 yil yakuniga qadar o'ta kambag'allikni butunlay yo'q qilish, nisbiy kambag'allik darajasini 2 baravarga qisqartirish, daromadlar tengsizligini 2020 yildagi 7 baravardan 2026 yilda 4-5 baravargacha kamaytirish vazifasi qo'yildi. Shuning uchun yil so'ngida har bir mahallada kambag'allikka qarshi samarali kurashni ta'minlashga imkon beradigan qaror qabul qilindi. 2021 yil 3 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmon hamda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror imzolandi. Farmon bilan 2022 yil 1 yanvardan boshlab har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi lavozimi joriy etilib, uning zimmasiga keng ko'lamlı vazifalar yuklandi. Ular aholining bandlik darajasi, daromad manbalari va ehtiyojlarini baholab, muammolarni hal qilish imkoniyatlarini izlashlari lozim. 2022 yilda hokim o'rinbosarlarining o'z vazifalarini bajarishda foydalaniladigan moliyaviy vositalar manbalari ham belgilab olindi.

2022 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiq- bollari qanday? YaIM va sanoatning o'sishini kamida 7%ga oshirish, xizmatlar hajmini esa 30%ga ko'paytirishni ta'minlash maqsadi qo'yildi. Aholi jon boshiga YaIM hajmi 2105 AQSh dollariga etishi kutilmoqda. Iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'lib, buning uchun yillik inflyatsiya darajasini 9%gacha pasaytirish, tashqi qarz darajasi YaIMning 60%dan oshmasligi uchun taqchillik darajasi 3 foizdan oshmaydigan muvozanatli byudjetga o'tish zarur.

2022 yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 298,7 trln. so'mni tashkil etishi kutilmoqda, bu o'tgan yilga nisbatan 7,4% ko'pdir.

Markazlashtirilgan sarmoyalar hajmi 20,1% ga ortib, 51,3 trln. so‘mni, markazlashmagan investitsiyalar hajmi esa 11,9%ga (247,5 trln. so‘m) oshiriladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, olib borilayotgan islohotlar izchillik xususiyatiga ega va shuning uchun ular 2022 yilda bosqichma-bosqich chuqurlashtiriladi. Islohotlarning asosiy yo‘nalishlari o‘zgarishsiz qoladi. Iqtisodiyotdagi davlat ulushi qisqarishda davom etadi. 2022 yilda xususiylashtirishdan byudjetga kamida 10 trln. so‘m olish, shundan kamida 8 trln. so‘m mablag‘ 36 ta yirik davlat aktivlarini sotish hisobiga tushishi rejalashtirilmogda.

Shuningdek, davlat korxonalarining 380 ta asosiy faoliyatga tegishli bo‘lmagan va samarasiz aktivlari hamda mintaqaviy miqyosdagi 770 ta davlat aktivlari ham sotiladi. “O‘zsanoatqurilishbank”, “Ipotekabank”, “Turon-bank”ni transformatsiya qilish va xususiylashtirishga tayyorlash ishlari davom ettiriladi. Mikrokreditbank mikromoliyalashtirish xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq yangi taraqqiyot strategiyasiga muvofiq o‘zgartiriladi. Davlat banklaridagi korporativ boshqaruv Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) standartlariga muvofiq lashtiriladi. Energetika sektoridagi islohotlar monopoliyaga barham berish va bozor mexanizmlarini joriy etishga, jumladan, energiya bozorini tartibga soluvchi mustaqil organni yaratishga qaratiladi. Neft-gaz sektorida tabiiy gazning raqobatbardosh ulgurji bozorini bosqichma-bosqich shakllan tirish uchun “O‘zbekneftgaz”ning tashkiliy-huquqiy tuzilmasini jahonning yetakchi neft-gaz kompaniyalari standartlariga uyg‘unlashtirish hamda “Hududgazta‘minot“ faoliyatiga xususiy operatorlarni jalb etish ko‘zda tutilmogda. Qishloq xo‘jaligida klasterlashtirishni rivojlantirish jarayonlari davom ettiriladi va shu orqali rag‘batlantiruvchi davlat ko‘magi taqdim etiladi. Xususan, paxta-to‘qimachilik klasterlariga imtiyozli kreditlar ajratiladi, meva-sabzavot klasterlari uchun sug‘urta badallari davlat hisobidan qoplanadi. Kichik intensiv meva-sabzavot loyihalari uchun 100 mln. so‘mgacha kreditlar taqdim etiladi. Faol ijtimoiy siyosat va kambag‘allikka qarshi kurash davom ettiriladi. 2022 yil uchun Davlat byudjeti parametrlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga 16,5 trln. so‘m, ya‘ni 2021 yilga nisbatan 1,2 baravar, 2016 yilga nisbatan 16 baravar ko‘p mablag‘ yo‘naltirish ko‘zda tutilgan. Xususan, 1,4 mln.dan ortiq bolalar va kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlashga 7,5 trln. so‘m (o‘tgan yilga nisbatan 2,4 trln. so‘m ko‘p) yo‘naltiriladi.

Aholi bandligini ta‘minlash sohasida yirik tarmoq va hududiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, yangi kichik va mikrokorxonalar tashkil etish hisobiga 2022 yilda 528,8 mingta doimiy yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha prognoz rejalar ishlab chiqildi. Shu o‘rinda, qariyb 110 mingta yangi kichik korxonalar yaratiladi. Kambag‘allikka qarshi kurashish va uni hokim yordamchilari orqali mahallalar darajasida tashkil etish siyosati davom ettiriladi. Buning uchun oilaviy biznes dasturlari doirasida har bir mikrotumanda yangidan tashkil etilgan korxonalarga kreditlar taqdim etish uchun 10 trln. so‘m miqdoridagi mablag‘ ajratiladi.

“Экономическое обозрение” jurnali, 2022 y. № 2 son.


O‘qitish maqsadi: iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qaratilgan davlat fiskal siyosati borasida amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tayanch iboralar: davlat byudjeti, soliq, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, fiskal siyosat, soliq yuki, byudjet jarayonlari, dikretsion fiskal siyosat, nodiskretsion fiskal siyosat, boj, qo‘shimcha qiymat solig‘i.

5.1. Davlat byudjeti va uning iqtisodiy mazmuni

Byudjet – daromadlar va xarajatlarning hisob-kitob va chegaralovchi smetalari hamda ularning ma’lum bir muddatga tuzilgan ro‘yxatini anglatuvchi umumiy terminning nomidir. Byudjet tegishli qaror bilan tasdiqlanib, individual yoki jamoa subyekti tomonidan ijro qilinadi.

Davlat byudjeti moliya iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli davlat byudjeti iqtisodiy kategoriya – davlatning o‘z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan markazlashgan pul mablag‘larining to‘planishi, taqsimlanishi va sarflanishida yuzaga keladigan obyektiv pul munosabatlari yig‘indisi sifatida tavsiflanishi mumkin. Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari uning shakli, moddiy mazmuni va mohiyati (iqtisodiy tabiati)da namoyon bo‘ladi. Byudjet qonun chiqaruvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjat shakliga ega. O‘zbekistonda Davlat byudjeti bir yilga mo‘ljallab qabul qilinadi. Byudjetni tayyorlashdan tortib byudjetni ijro etish to‘g‘risidagi hisobotni tasdiqlashgacha bo‘lgan butun jarayon byudjet jarayoni deb ataladi.



5.1-rasm. O‘zbekistonda byudjet jarayoni.


Shakl jihatidan davlat byudjeti – bu davlatning asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib, unda byudjet pul munosabatlari tizimi sifatida miqdor jihatidan ifodalanadi.

Binobarin, aynan byudjet rejasi mamlakatning muhim moliyaviy hujjati sifatida tuziladi, ko‘rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi. Unda pul mablag‘larining markazlashtirilgan jamg‘armasini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanishga doir iqtisodiy munosabatlar aks etadi.

Moddiy mazmun jihatidan davlat byudjeti – davlatning byudjet rejasini ijro etish jarayonida tashkil topadigan va foydalaniladigan asosiy markazlashtirilgan pul mablag‘lari jamg‘armasidir.

Mohiyat jihatidan davlat byudjeti – davlat boshqaruvining muhim vositasi bo‘lib, uning yordamida davlat takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi, inson irodasiga bo‘ysunmaydigan bozor kuchlarining salbiy ta’sirini bartaraf etadi.

Davlat tomonidan tartibga solish, soliqlar, byudjet mablag‘lari va moliyaviy yordam, ijtimoiy kafolatlar, byudjet mablag‘lari hisobiga maxsus jamg‘armalar va iqtisodiyotning rivojlanishidagi nomutanosiblikning oldini olish zahiralari tashkil etish yordamida amalga oshiriladi.



5.2-rasm. Davlat byudjeti tushunchasi.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – bu davlatning vazifa va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etish va sarflashning qonun bilan belgilangan shaklidir.

Byudjet huquqiy akt shakliga ega bo'lib, vakolatli hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadi va shu sababdan qonuniy kuchga egadir. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq **Davlat byudjeti** – davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.


2. Har qanday iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Davlat byudjeti moliya iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy bo'linmasi hamda byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangani uchun ularga pul shakli xosdir va ular taqsimlash (qayta taqsimlash) va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Taqsimlash funksiyasini soliq, zayom, davlat mulkidan tushgan daromadlar, qog'oz pullar emissiyasidan tushgan daromadlarni o'z ichiga oluvchi byudjet daromadlari amalga oshiradi. Bunda byudjet jamg'armasi xo'jalik subyektlari (yuridik va jismoniy shaxslar) daromadlari hisobiga shakllanadi. Bu daromadlar sof milliy mahsulotning birlamchi taqsimoti (ishchi va xizmatchilarning ish haqi, yollanma ishchilarning daromadlari, tadbirkorlik foydasi, renta, foiz) natijasida yuzaga keladi.

Byudjet daromadlari tarkibi doimo bir xil emas, u har bir mamlakatning iqtisodiy shart-sharoitlariga bog'liqdir. Byudjet daromadlari tarkibining o'zgarishi iqtisodiy jarayonlar dinamikasi bilan bog'liq o'zgarishlarni aks ettiradi. Shunday qilib, soliqlar va zayomlar o'rtasidagi nisbatning zayomlar ulushi oshib borishi tomonga o'zgarishi ishlab chiqarishning pasayganligi, jamiyatda iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi nisbat o'zgarganligidan dalolat beradi.

Byudjetning **qayta taqsimlash funksiyasi** aniq maqsadli byudjet xarajatlariga tegishlidir. Davlat umumiy xo‘jalik subyekti sifatida faoliyat yuritib, takror ishlab chiqarish jarayoni barcha ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini hisobga oladi, shuning uchun ham byudjet xarajatlari xo‘jalikning hamma tarmoqlari va sohalarini qamrab oladi. Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy mutanosibliklarga rioya qilishga ehtiyoj alohida tarmoqlar, ijtimoiy soha, iqtisodiy hududlar, mulkchilikning turli shakllari, alohida xo‘jalik subyektlarini byudjetdan moliyalashtirish hajmlarini boshqarishni taqozo etadi.

Byudjetning **nazorat funksiyasi** byudjet mablag‘larining o‘z vaqtida va to‘liq tushishi va ularning maqsadli ishlatilishi ustidan davlat nazorati o‘rnatilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, taqsimlash funksiyasi byudjet jamg‘armasi (byudjet daromadlari)ning vujudga kelishini ta‘minlaydi; qayta taqsimlash – byudjet jamg‘armasining sarflanishiga (byudjet xarajatlariga); nazorat – byudjetga mablag‘lar tushishi va undan foydalanish ustidan nazorat olib borilishiga sharoit yaratadi.



5.3-rasm. Davlat byudjeti funksiyalari.

3. Davlat byudjeti takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga faol ta‘sir ko‘rsatadi, milliy daromadni milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o‘rtasida, shu jumladan moddiy ishlab chiqarish sohasidan nomoddiy sohaga (ishchi kuchini

takror ishlab chiqarish, jamiyatning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga, aholining kam ta'minlangan qatlami – pensionerlar, talabalar, ishsizlar, ko'p bolali kam ta'minlangan oilalar va boshqalarning turmush darajasini barqaror ushab turish uchun sharoitlar yaratadi) qayta taqsimlanishini ta'minlaydi; mahsulotlari va xizmatlari jamiyat uchun juda muhim va zarur bo'lgan, lekin barqaror past daromadli tarmoqlar (energetika, transport, aloqa va boshqalar)ni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet daromadini shakllantirishning asosiy manbai hisoblangan soliqlar yordamida alohida tarmoqlarning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faolligini ular ixtiyorida qoladigan pul mablag'lari ulushini ko'paytirish yoki kamaytirish orqali, tiyib turish yoki rag'batlantirish siyosatini amalga oshirish yo'li bilan tartibga soladi va shu tariqa, iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi.


Shu bilan birga, byudjet orqali byudjet tizimining darajalari o'rtasida daromadlar qayta taqsimlanadi (subventsiyalar, transfertlar), hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini tenglashtirish imkoniyati yaratiladi (3-sxema).

Shunday qilib, davlat byudjeti **iqtisodiyotni samarali tartibga solish vositasi** bo'lib, u davlatga zarur bo'lgan moliyaviy resurslar hajmini aks ettiradi, mamlakatda soliq siyosatini belgilaydi, mablag'larni sarflash, milliy daromad va yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlashning aniq yo'nalishlarini qayd etadi.

Tarixning turli davrlarida davlat byudjeti milliy iqtisodiyotga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kapitalistik taraqqiyot davrida davlat iqtisodiyotga faol aralashmas edi – davlat byudjeti orqali milliy daromadning 19% qayta taqsimlanardi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, davlat byudjeti makroiqtisodiy jarayonlarni boshqaruvchi kuchli vositaga aylandi – hozirgi vaqtda davlat byudjeti orqali milliy daromadning 30-50% qayta taqsimlanmoqda.

4. Davlat byudjetining faoliyatini alohida iqtisodiy shakllar hisoblangan daromadlar va xarajatlar ta'minlaydi.

Byudjet daromadlari – qonunchilikda belgilangan tartibga binoan davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari ixtiyoriga beg‘araz va qaytarib bermaslik shartlari bo‘yicha kelib tushayotgan pul mablag‘laridir.



5.4-rasm. Yalpi milliy mahsulotni byudjet orqali qayta taqsimlash.


Jahon amaliyotida byudjetga pul tushumlarining uch asosiy yo‘nalishi mavjud:

- yuridik va jismoniy shaxslardan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan soliqlar va yig‘imlar ko‘rinishida undiriladigan majburiy to‘lovlar; foydalanish evaziga to‘lovlar va badallar undiriladigan davlat mulki va umumdavlat resurslari;
- davlat zayomlari, boshqa qimmatli qog‘ozlar, lotereyalar sotishdan tushgan daromadlar, davlat banklariga qo‘yilgan omonatlarning qismlari va boshqalar ko‘rinishida jalb qilingan resurslar.

Byudjet daromadlarining hajmi soliq solishning belgilangan soliq stavkalari bilan aniqlanadigan YaIMning o'sishi va soliq yukiga bog'liqdir. Daromadlarning asosiy vazifasi byudjet xarajatlarini ta'minlashdir.

Byudjet xarajatlari – bu davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarining vazifa va funksiyalarini bajarish uchun yo'naltirilayotgan pul mablag'lari; davlat pul mablag'lari fondini taqsimlash va uni tarmoq, maqsadli va hududiy yo'nalishlarda foydalanish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Byudjet xarajatlari kategoriyasi aniq xarajatlar turlari orqali namoyon bo'ladi va ularning har biri son va sifat jihatidan tavsiflab berilishi mumkin. Sifat tavsifi byudjet xarajati har bir turining iqtisodiy tabiati va ijtimoiy maqsadini belgilash imkonini bersa, son tavsifi ularning hajmini belgilaydi.



5.5-rasm. Byudjet tizimining holati.

5. Byudjetning uch asosiy **holati** farqlanadi: taqchillik, profitsit va mutanosib holat.

Byudjet xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi (byudjetning salbiy saldosi) byudjet **taqchilligini** anglatadi.

Byudjet daromadlarining xarajatlardan oshib ketishi (byudjetning ijobiy saldosi) byudjet **profitsitini** anglatadi.

Mutanosib byudjet – xarajatlar va daromadlar summasi bir-biriga teng bo‘ladi. Iqtisodiy nazariyada byudjet taqchilligi yoki profitsiti umumiy xarajatlar hajmidan 1 foizga oshib ketmasa, bunday byudjet mutanosib deb hisoblanadi.

Byudjet taqchilligi – davlat uchun nomaqbul bo‘lgan hol. Shunday bo‘lsa ham, byudjet taqchilligini favqulodda, fojiali holatga yo‘yish noto‘g‘ridir.

Chunki taqchillik tabiati turlicha bo‘lishi mumkin. Davlat byudjeti taqchilligi nazorat ostida va iqtisodiyot uchun xavfli emas deb uning hajmi YaIMga nisbatan 3 foizdan oshmaganda (Maastrixt mezonlari) ta’kidlash mumkin. Aks holda u pul, kredit tizimi va umuman iqtisodiyotning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Byudjet taqchilligining quyidagi **shakllari** farqlanadi:

tarkibiy byudjet taqchilligi – hukumatning iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirish maqsadida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni pasaytirish choralarining qo‘llanilishi natijasida yuzaga keladigan taqchillik bo‘lib, u ijtimoiy jarayonlarning inqirozini ifodasi emas, balki davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish tarkibida progressiv siljishlarni amalga oshirishi natijasidir.

tsikli byudjet taqchilligi – ishlab chiqarishning tsikli pasayishi natijasida kelib chiqadigan va iqtisodiyotdagi inqiroz holatlarini, hukumatning moliyaviy holatni nazorat qila olmasligini ifoda etadigan taqchillik.

Byudjet taqchilligini **moliyalashtirish manbalari** bo‘lib ixtiyordagi va qarz mablag‘lari namoyon bo‘lishi mumkin. Ixtiyordagi mablag‘lar – qaytarmaslik xarakteriga ega bo‘lgan, davlat va mahalliy hokimiyat tasarrufidagi mol-mulkdan tushgan resurslar. Ichki va tashqi moliya bozorlarida qarz olish qaytarilish xarakteriga ega va davlat qarzining oshishiga olib keladi, ularga xizmat ko‘rsatishga foiz xarajatlari talab qilinadi.

6. Byudjet davlatning amal qilishi zaruratidan kelib chiqadi, chunki davlat amal qilishi va faoliyat yuritishi uchun ma’lum bir mablag‘larga ega bo‘lishi kerak. Feodalizm davrida davlat xarajatlari ikki turga bo‘lingan edi: doimiy (qirollik saroyi, davlat muassasalarini saqlash) va vaqtincha (yo‘llar va inshootlar qurish va

boshqalar), uning daromadlar va xarajatlar qismini aks ettiruvchi va mujassamlashtiruvchi yagona hujjat mavjud emas edi. Xarajatning har bir turiga tegishli daromad turi pul yoki natural ko‘rinishda topilib biriktirilar edi. Xarajatlar va ularga biriktirilgan daromadlar mustaqil smetalar ko‘rinishida rasmiylashtirilib, juda ko‘p hajmda to‘planar edi. Hamma xarajatlar hujjatlashtirilmas edi. Davlat rahbari davlatning barcha mablag‘larini nazoratsiz idora qilar, buning natijasida isrofgarchilik yuzaga kelar edi. Burjuaziya davri monarxlarning moliyaviy huquqlarini chegaralash, davlat xarajatlari ustidan nazorat o‘rnatish va soliqlarni tayinlash va bekor qilish huquqini chegaralash bilan xarakterlanadi. Shularning barchasi byudjetning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sababchi bo‘ldi.

Davlatning xarajatlar va daromadlarini yagona umumiy smetaga (byudjetga) birlashtirishga birinchi urinish Angliyada XVII asr oxirida amalga oshirildi. «Budget» termini Angliyada o‘rta asrlarda “sumka, hamyon, pulli qop” mazmunini anglatar edi. Shu nom bilan Angliya g‘aznachiligi vazirining pul va hisobotlari solingan portfeli nomlanar edi. Vazir doimo lordlar palatasi oldida chiqish qilayotganda shu portfeli yonida bo‘lardi. Vaqt o‘tishi bilan bu termin bilan “g‘aznachilik vazirining parlament oldidagi hisoboti” nomlana boshlandi. XVI-XVII asrlarda Angliyada quyi palata qirolga subsidiyalarni tasdiqlashda, majlis tugashi arafasida g‘aznachilik kantsleri tegishli qonun loyihasi saqlanayotgan portfelni ochar edi va bu byudjetning ochilishi deb nomlangan edi, keyinchalik portfelning nomi hujjatning o‘ziga ham berildi.

XIX asr boshiga kelib, dunyoning ko‘pgina mamlakatlari davlatning daromadlari va xarajatlari aks ettiriladigan byudjetlarni shakllantira boshladilar. O‘zbekistonda davlat byudjeti **1868** yilda paydo bo‘lgan deb hisoblash mumkin. Bunda xonning shaxsiy xarajatlari davlatnikidan ajratilgan edi.

Bu bilan Turkiston hududida mustaqil davlat byudjetining tashkil topishiga asos solindi. Rossiya Chor hukumati Turkiston general-gubernatorligi hududida Turkistonning davlat daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi nizomni (davlat

byudjeti to'g'risidagi nizomni) ishlab chiqish va ijro etish vazifasini bajaruvchi moliyaviy qo'mitani ta'sis etdi.

1924 yilda O'zbekiston SSR tashkil topishi bilan birga, Sovet hukumati qarori bilan O'zbekiston SSRning birinchi davlat byudjeti shakllantirildi.

Ushbu byudjet 1924 yildan 1991 yilga qadar, SSSR davlat byudjeti tarkibiga kirgan.

1991 yilda O'zbekiston suverenitetni e'lon qildi va **1992** yildan boshlab mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti shakllan-tirila boshlandi.

5.2. O'zbekistonda byudjet tuzilishi va byudjet tizimi

Byudjet tuzilishi – bu byudjet tizimini tashkil etish, uni tuzish printsiplari. Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, byudjet tizimiga kiruvchi byudjetlarning faoliyat yuritishi huquqiy asoslarini, byudjetlarning tarkibi va tuzilishini, byudjet mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartib-tamoyillari va hokazolarni belgilaydi. Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, ularning alohida bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, byudjetlarning tarkibini belgilaydi.

Byudjet tuzilishi davlat tuzilishi bilan belgilanadi. Mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi byudjet tizimlari bo'g'inlari sonini belgilaydi, har bir darajadagi davlat hokimiyati organiga tegishli byudjet konstitutsiyaviy yo'l bilan birlashtirilgan bo'ladi. Mamlakatlarning davlat tuzilishidagi, hokimiyat turli darajalarining byudjet huquqlaridagi farqlar turli shakldagi va modeldagi byudjet tizimlarini mavjudligini belgilaydi.

Byudjet tuzilishining markazlashtirilgan, markazlashtirishdan chiqarilgan va aralash **modellari** mavjud. **Markazlashtirilgan** model barcha byudjetlar yagona davlat byudjetida markazlashtirilishi bilan tavsiflanadi, bunda har bir yuqori byudjetga boshqaruvchilik roli birlashtirilgan bo'ladi (Frantsiya, Italiya, Qozog'iston, O'zbekiston).

Markazlashtirishdan chiqarilgan model byudjet tizimi markaziy va mahalliy byudjetlarining erkinligi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu byudjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta'minlovchi o'z daromadlar manbalariga ega bo'ladi (AQSh).

Aralash model markaziy byudjetga mahalliy byudjetlarni tartibga solish roli biriktirilishi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu byudjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta'minlovchi o'z daromadlar manbalariga ega bo'ladi (Rossiya Federatsiyasi).

O'zbekiston Respublikasining byudjet tuzilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi:

1) byudjetga doir huquqiy munosabatlarning ayrim masalalarini tartibga soluvchi, uzoq muddat amal qiluvchi hujjatlar – O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi va “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonunlari;

2) har yili qabul qilinadigan (navbatdagi moliya yili byudjeti to'g'risidagi va boshqa) hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq **byudjet tizimi** turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi (5-sxema).

Moliya yiliga mo'ljallangan barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi. Mamlakat byudjet tuzilishi davlat tuzilishi shakliga, uning ma'muriy- hududiy bo'linishiga bog'liqdir.

Davlat tuzilishi shakliga, ya'ni davlatning ma'lum bir qismlarga bo'linishi va ularni boshqarish bo'yicha hokimiyatning tegishli tarzda ajratilishi usuliga ko'ra davlat ikki xil – unitar va federativ bo'ladi.

1) **Unitar** davlatlar vertikal bo'yicha yagona davlat hokimiyati tizimi bilan boshqariladigan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi. Unitar davlatlarda byudjet tizimi **ikki bo'g'indan** – davlat byudjeti va ko'p sonli mahalliy byudjetlardan iborat bo'ladi (Qozog'iston, Polsha, Turkmaniston va boshqalar). Unitar davlatlarda avtonom birlashmalar tashkil etilishi mumkin.

Unitar davlatlar byudjetning markazlashtirishdan chiqarilish darajasi, hududlar hukumat organlarining vakolatlari bilan belgilanadigan **ko'p darajali byudjet** tizimiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, markazlashtirishdan chiqarilgan unitar davlat – Frantsiya **to'rt darajali** byudjet tizimiga, mahalliy hokimiyatlarning soliqqa oid vakolatlari konstitutsiya bilan belgilangan markazlashgan unitar davlat – Shvetsiya **uch darajali** byudjet tizimiga ega.

2) **Federatsiya** tarkibiy qismlari keng ko'lamli davlat avtonomiyasiga ega bo'lgan yagona davlatni namoyon etadi. Ma'lum ma'noda bu davlat hokimiyatining vertikal bo'yicha taqsimlanish usulidir. **Federativ** davlatlarning byudjet tizimi **uch bo'g'indan** iborat: davlat byudjeti (federal byudjet yoki markaziy hukumat byudjeti), federatsiya a'zolari byudjeti va mahalliy byudjetlar (Avstriya, Germaniya, Kanada, Meksika, Rossiya, AQSh va boshqalar).

4. Jahon amaliyotida byudjet tizimlarining tuzilishi quyidagi **printsiplarga** asoslanadi:

- **umumiylik** – huquqiy bazani, pul tizimini, yagona byudjet tasnifidan va byudjet hujjatlari shakllaridan foydalanishni, byudjet jarayoni printsiplarini, byudjet qonunchiligini buzganlik uchun sanksiyalarni, xarajatlarni moliyalashtirish va byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining buxgalteriya hisobini yuritish tartibining yagonaligini anglatadi;

- **to'liqlik** – byudjet tizimi byudjetlarining va byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlarining daromadlar va xarajatlari ularda majburiy ravishda va to'liq aks ettirilishi lozimligini anglatadi;

- **ishonchlilik** – tegishli hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognoz ko‘rsatkichlarining obyektivligini hamda byudjet daromadlari va xarajatlari hisoblanishining realligini anglatadi;

- **oshkoralik** – byudjetning shaffofligini nazarda tutadi, bu o‘z navbatida erkin nashrda tasdiqlangan byudjetlar va ularning ijrosi bo‘yicha hisobotlar majburiy ravishda bosib chiqarilishini, taqdim etilayotgan axborotning to‘liqligini, jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun byudjet loyihalarini ko‘rib chiqish va qarorlar qabul qilishning ochiqqligini anglatadi;

- byudjet tizimi byudjetlarining **mustaqilligi**. Federal tipdagi va byudjet tuzilmasi markazlashtirishdan chiqarilgan va aralash modeli mamlakatlarga xosdir. Bu davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruv organlari mustaqil ravishda, byudjet jarayonini amalga oshirishlari, daromadlarning mustaqil manbalari mavjudligi va tegishli byudjetlar mablag‘larining xarajatlari yo‘nalishini belgilashni, davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining tegishli byudjetlarning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini mustaqil belgilash huquqin anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi **byudjet tizimi** o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, uning **asosiy printsiplari** O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi qonunida belgilab qo‘yilgan byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;

- byudjet tuzilishining O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

- turli darajadagi byudjetlarning o‘zaro bog‘liqligi;

- Davlat byudjeti balansliligi;

- davlat daromadlarini aniq manbalar bo‘yicha va xarajatlarini yo‘nalishlari (moddalari) bo‘yicha rejalashtirish;

- Davlat byudjeti xarajatlarini byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag‘lar doirasida va xarajatlar smetalarida ko‘rsatilgan maqsadlarda amalga oshirish;

- barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi.

5. O‘zbekiston Respublikasida **Davlat byudjeti** – davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat byudjeti respublika byudjetini va Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni o‘z ichiga oladi. Davlat byudjeti **tarkibida** davlat maqsadli jamg‘armalar jamlanadi.

Respublika byudjeti – Davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti – Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetini hamda respublikaga (Qoraqalpog‘istonga) bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga **Mahalliy byudjet** – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Viloyat byudjeti viloyat byudjetini, viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlarning byudjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanlarga bo‘linadigan **shaharning byudjeti** shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini o‘z ichiga oladi.

Tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan **tumanning byudjeti** tuman byudjetini va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari – Davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushish me'yorlari va shartlari, shuningdek, bu mablag'lardan qay maqsadlarda foydalanilishi mumkinligi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti umumdavlat soliqlari va majburiy to'lovlari hisobiga shakllantiriladi va umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishga ishlatiladi.

Davlat byudjeti **daromadlari** quyidagilar hisobiga shakllan-tiriladi:

- qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aktsiz solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, alohida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq, davlat boji va bojxona to'lovlari);

- davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;

- qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar.

Davlat byudjeti **xarajatlari** tasdiqlangan byudjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- byudjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;

- joriy byudjet transfertlari shaklida;
- kapital xarajatlar shaklida: asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga; chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga; davlat ehtiyojlari uchun erga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga; davlat zahiralarini vujudga keltirishga;
- kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari shaklida;
- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari shaklida;
- davlat maqsadli jamg‘armalariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;
- davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar shaklida;
- qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida. Respublika byudjetidan xarajatlarni **moliyalashtirish** qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:
 - fan, ta‘lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo‘ysunadigan byudjet tashkilotlari bo‘yicha);
 - ijtimoiy ta‘minot;
 - mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta‘minlash;
 - sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta‘minlash;
 - davlat zahirasi va safarbarlik zahirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash;
 - davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish;
 - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalarini hamda missiyalari faoliyatini ta‘minlash;
 - iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo‘ysunadigan byudjet tashkilotlarini saqlash;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

- yer tuzish, meliorativ, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurash;

- gidrometeorologiya, do‘lga qarshi kurash chora-tadbirlari;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Respublika byudjeti taqchilligi davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag‘larni jalb qilish, respublika byudjeti mablag‘larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobiga **moliyalashtiriladi**.

Byudjet tizimining ikkinchi darajadagi byudjetlari: Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti – Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetini hamda respublikaga (Qoraqalpog‘istonga) bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga **Mahalliy byudjet** – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar **daromadlari** quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo‘naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar (mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga soliq, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, alohida tovar turlarini chakana sotish va xizmat ko‘rsatish huquqini olish uchun yig‘imlar);

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga hamda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig‘imlari, bojlari va boshqa majburiy to‘lovlar;

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

- yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subvensiyalari va byudjet ssudalari;

- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar **xarajatlari** tasdiqlangan byudjetdan mablag‘lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining joriy xarajatlari shaklida joriy byudjet transfertlari shaklida;

- kapital xarajatlar shaklida:

- asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

- davlat ehtiyojlari uchun erga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlar **moliyalashtiriladi:**

- fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha);

- ijtimoiy ta'minot;

- aholini ijtimoiy himoya qilish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash; iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjet tashkilotlarini saqlash;

- qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti o'zining **xususiyatlariga** ega, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti hamda mahalliy byudjetlar balansli daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi kerak. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

5.3. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi


Byudjet daromadlari – bu davlat byudjet tizimning byudjetlariga qonun hujjatlarida belgilangan beg'arazlik va qaytarib bermaslik tartibida kelib tushadigan pul mablag'lari. Byudjet daromadlari soliq va soliqsiz daromatlardan iborat, shuningdek ularga beg'araz pul o'tkazmalari ham kiradi.

Soliq – bu (davlat / mahalliy) byudjetga majburiy badal bo‘lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Soliqlar, o‘z moddiy mazmuniga ko‘ra, milliy daromadning xo‘jalik subyektlaridan va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undiriladigan qismidir. **Soliqli daromadlarning** asosiy **manbasi** yangidan yaratilgan qiymat va uni birlamchi taqsimlash natijasida olingan daromadlar (foyda, ish haqi, qo‘shilgan qiymat, ssuda foizi, renta, dividendlar va boshqalar), shuningdek jamg‘armalardir.

Soliqlar quyidagi belgilarga qarab **tasniflanishi** mumkin (5.5-rasm):

- hokimiyat organlarining vakolat darajasiga ko‘ra (davlat, mahalliy soliqlar va yig‘imlar / federal, federatsiya subyektlari va mahalliy soliqlar va yig‘imlar);
- zimmaga yuklanishiga ko‘ra (to‘g‘ri va egri soliqlar);
- to‘lanish manbasiga ko‘ra (tovar narxining oshishi, mahsulot tannarxining oshishi, moliyaviy natijalar, sof foydaga nisbatan soliqlar);
- undirilish davriyligiga ko‘ra (muntazam va nomuntazam soliqlar);
- soliq solish obyektiga ko‘ra (daromad, kapital, yer, xo‘jalik oboroti, alohida tovarlar);
- soliq to‘lovchilarga ko‘ra (jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar, yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar, shuningdek aralash – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadiga soliqlar);
- boshqa soliqlar.

Byudjetning **soliqsiz daromadlari** asosan davlatning iqtisodiy faoliyati va byudjet tizimining turli darajalarida olingan daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida paydo bo‘ladi. Ko‘pgina soliqsiz daromadlar doimiy fiskal xususiyatga ega emas va ularning qat’iy belgilangan stavkasi yo‘q.



5.6-rasm. Soliqlarning tasnifiy belgilari va tasniflanishi.

Byudjetning **soliqsiz daromadlari** quyidagi belgilarga ko'ra **tasniflanadi**:

- hududiy belgi, byudjetning belgilangan darajasiga o'tkazish;
- jalb qilish va shakllantirish (majburiy va ixtiyoriy);
- soliqsiz tushumlarni shakllantiruvchi, to'lovlarni undirish uchun asos yaratish (davlat mulkini sotishdan kelib chiqqan daromad).

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar byudjetining daromadlarida soliqlar ustuvor o'ringa egadir. Hozir dunyoda soliqlar byudjet tushumlarining 80-90 foizni tashkil etadi va O'zbekistonda ham bunday holatni kuzatish mumkin. Soliq kodeksiga muvofiq, muayyan

miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari soliq sifatida tushuniladi. **Boshqa majburiy to'lovlar** deganda, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli

organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan to'lovchilarga nisbatan yuridik ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imga, davlat boji tushuniladi.

Har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovga tatbiqan soliq to'lovchilar va soliqlarning elementlari belgilanadi.

Soliq solish **obyekti** soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, faoliyat natijasidir.


Soliq solinadigan baza soliq solish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasiga tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi **soliq davri** uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

2020 - 2022 yillarda soliq yuki va davlat byudjeti daromadlari



5.7-rasm. 2020-2022 yillarda soliq yuki va davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishi.

Soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.

Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi.


Qonunchilikda nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha **imtiyozlar** deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi **Davlat byudjeti daromadlari** ikki qismdan iborat: davlat maqsadli jamg'armalari hisobga olinmagan daromadlar va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni

hisoblab chiqish va to‘lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Davlat byudjeti **xarajatlari** – bu davlat o‘z funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun byudjetdan yo‘naltiradigan pul mablag‘lari oqimlari har qanday davlatda bo‘lganidek, O‘zbekistonning davlat byudjeti xarajatlari ham quyidagi asosiy **xarajatlar bloklarini** o‘z ichiga oladi: ijtimoiy maqsadlar xarajatlari; iqtisodiyot xarajatlari; ijtimoiy infratuzilma, qishloq xo‘jaligi va uy-joy kommunal sektorini rivojlantirishga yo‘naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari; boshqaruvga xarajatlar; milliy xavfsizlik va ichki huquq-tartibotni ta‘minlash xarajatlari; tashqi iqtisodiy faoliyat uchun xarajatlar; davlat qarzigacha xizmat ko‘rsatish xarajatlari (5.8-rasm).



5.8-rasm. O‘zbekistonda davlat byudjeti xarajatlarning asosiy bloklari.

Har qanday davlatning iqtisodiyot va siyosatidagi xususiyatlari uning xarajatlari ustuvorliklarida ham aks etadi. O‘zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishning ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda har yili mamlakatning soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanadi va ular davlat byudjetini ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qiladi. Mustaqil O‘zbekistonning umumiy taraqqiyot davri davomida byudjet xarajatlari ustuvor darajada ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga sarflangan va sarflanib kelinmoqda.



5.9-rasm. Davlat byudjeti xarajatlarining tasniflanishi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvoviq, O‘zbekiston Respublikasi nomidan va uning kafolati ostida jalb qilingan davlat

qarzining summasi yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 60%dan oshmasligi kerak.

2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasi nomidan va uning kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 4,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi.

Qonunga muvofiq quyidagi soliqlar bo'yicha asosiy stavkalar o'zgarishlarsiz qoldirildi:

- QQS – 15%;
- foyda solig'i – 15%;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – 12%;
- aylanmadan olinadigan soliq – 4%.

Foyda solig'i stavkasi 15%, dividendlar tarzidagi foyda bo'yicha soliq stavkasi 5% darajasida saqlanib qolindi.

Amortizatsiyaning yillik cheklangan normasi va investitsiyaviy chegirma miqdori o'rtacha 2 baravarga oshiriladi.

Soliq to'lovchilarga zarar summasini kelgusi davrlarga, zarar ko'rilgan soliq davridan keyingi 10 yilga ko'chirish huquqi beriladi. Bunda jami ko'chirilayotgan zarar summasi joriy soliq davridagi soliq bazasining 60%idan oshmasligi lozimligi to'g'risidagi talab bekor qilinadi.


Tabiiy gazni eksport qilishda, shuningdek import qilingan gazni ichki bozorda realizatsiya qilishda aktsiz solig'i stavkasi nolga tenglashtiriladi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan suyultirilgan gazni realizatsiya qilish aktsiz solig'idan ozod etiladi.

Bundan tashqari yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari neft va tabiiy gaz bo'yicha 10% gacha, oltin va mis bo'yicha – 7% gacha, volfram bo'yicha – 2,7% gacha, uran bo'yicha – 8% gacha pasaytirildi.

2022 yil uchun Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3%i miqdorida belgilandi. 2022 yilda

konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 254,6 trln so‘m yoki YaIMning 30,3%i miqdorida prognozlashtirilmoqda.

Davlat byudjeti daromadlari 200 trln so‘m yoki YaIMning 23,8%i miqdorida belgilandi. Ulardan soliq tushumlari 68,5 trln so‘m, shu jumladan foyda solig‘i – 43,7 trln so‘m, aylanmadan olinadigan soliq – 2,7 trln so‘m, JShDS – 22 trln so‘mni tashkil etadi.




5.10-rasm. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil uchun davlat byudjeti daromadlari tarkibi.

Bilvosita soliqlar bo‘yicha daromad summasi 73,2 trln so‘m, shu jumladan QQS – 53,3 trln so‘m, aksiz solig‘i – 15 trln so‘m, bojxona boji – 4,8 trln so‘mni tashkil etadi. Resurs va mol-mulk solig‘i 25,7 trln so‘mni tashkil qiladi. Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari 280, 13 trln so‘mni tashkil etadi. Davlat byudjeti xarajatlari 188, 91 trln so‘m, davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari – 58, 18 trln so‘m, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishi – 7, 73 trln so‘m miqdorida prognozlashtirilmoqda.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larining sarflanishi 14, 61 trln so‘m, tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar esa – 10,7 trln so‘mni tashkil etadi.

Byudjetni shakllantirishda barcha tumanlar va shaharlar byudjetlarining tasdiqlangan xarajatlarning 5%i jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.



5.11-rasm. Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi.

Bundan tashqari, mahalliy byudjetlar qo'shimcha manbalarining kamida 30%i jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Byudjetning **iqtisodiyotga** xarajatlariga alohida xo'jalik subyektlarini va milliy iqtisodiyot sektorlarini qo'llab-quvvatlashga xarajatlar, shu jumladan qishloq va suv xo'jaligi; uy-joy ekspluatatsiya xo'jaligi; shaharlarni obodonlashtirish, vodoprovod, kanalizatsiya va boshqalarga xarajatlar kiradi.

Boshqaruvga xarajatlar hokimiyatning barcha qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruvi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, sudlar, prokuratura organlari va boshqa muassasalarning xarajatlarini moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Milliy xavfsizlik va ichki huquq-tartibotni ta'minlash xarajatlari mudofaa kompleksiga (Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat chegarasini qo'riqlash qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqalarni ta'minlash xarajatlari), huquq-tartibot organlariga (Ichki ishlar vazirligi, Jazoni ijro etish Bosh boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligining moddiy-texnika va harbiy ta'minot boshqarmasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalarni ta'minlash xarajatlari) va boshqalarga xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Davlat qarzig xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlarga tashqi va ichki qarz bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash va boshqalar kiradi. Byudjet xarajatlari tranzit xususiyatiga ega. Byudjet xarajatlari orqali byudjetdan mablag' oluvchilar – byudjet mablag'larini oluvchi yoki taqsimlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tashkilotlari moliyalashtiriladi. Byudjetda sarf-xarajatlar moddalari bo'yicha byudjet xarajatlari belgilanadi, xarajatlarni esa byudjetdan mablag' oluvchilar amalga oshiradilar.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etish xususiyatiga qarab byudjet xarajatlari joriy va kapital bo'ladi.

Byudjetlarning **joriy xarajatlari** – davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlash uchun, boshqa byudjetlar va iqtisodiyotning alohida tarmoqlari joriy faoliyatiga ajratmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar ko'rinishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish uchun byudjet xarajatlarining qismi. Joriy xarajatlar byudjet xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi.

Byudjetlarning **kapital xarajatlari** – innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlovchi byudjet xarajatlari qismi bo'lib, u tasdiqlangan investitsiya dasturiga binoan faoliyat yuritayotgan yoki yangi tashkil etilayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalash uchun mo'ljallangan xarajatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Byudjet mablag'larini sarflash quyidagi **metodlar** yordamida amalga oshiriladi:

- byudjetdan moliyalashtirish (qaytarib berilmaydigan pul mablag'larini byudjetdan taqdim etish);
- byudjetdan kreditlashtirish va mablag'larni investitsiyalash;
- mablag'larni byudjet qarz majburiyatlarini qoplashga yo'naltirish.

Byudjetdan mablag‘ oluvchilarga o‘z joriy faoliyatini amalga oshirish uchun byudjet mablag‘larini taqdim etishning asosiy metodi **byudjetdan moliyalashtirish** hisoblanib, u quyidagi **printsiplarga** asoslanadi:

- byudjet ajratmalaridan foydalanishning maqsadliligi. Byudjetdan mablag‘ oluvchilar belgilangan maqsadlar uchun tasdiqlangan byudjet asosida mablag‘ oladilar. Ushbu printsipga qat‘iy rioya qilish mablag‘larni sarflashning samaradorligini ta‘minlaydi;

- byudjetdan moliyalashtirishning tekinligi;
- byudjetdan moliyalashtirishning qaytarilmasligi;
- minimal xarajatlar bilan maksimal samara olish;

- byudjet mablag‘larini ishlab chiqarish va boshqa ko‘rsatkichlarning bajarib borilishiga qarab va avvalgi ajratmalardan foydalanishni hisobga olgan holda taqdim etish. Bu printsip moliya organlariga byudjet mablag‘larini oluvchilar faoliyati ustidan ta‘sirchan va samarali nazoratni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Byudjetdan moliyalashtirish quyidagi **shakllarda** amalga oshiriladi:

- byudjetdan mablag‘ oluvchilarning joriy xarajatlariga (ishchilarga mehnat haqini to‘lash, davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalariga sug‘urta badallarini o‘tkazish, byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan kommunal xizmatlar, safar xarajatlarini to‘lash va boshqalar), shuningdek hukumatning boshqa darajalariga o‘tkaziluvchi alohida davlat vakolatlarini amalga oshirishga; davlat xaridlariga va boshqalarga ajratmalar;

- transfertlar (aholiga beriladigan majburiy to‘lovlarni moliyalashtirish uchun byudjet mablag‘lari: stipendiyalar, nafaqalar, kompensatsiyalar, pensiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlar);

- boshqa darajadagi byudjetlar va davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalariga byudjet ssudalari, subventsiyalari va dotatsiyalari;

- byudjetlararo transfertlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarga subventsiyalar va subsidiyalar;

- faoliyat yuritayotgan yoki yangidan yaratilayotgan yuridik shaxslarning ustav kapitaliga investitsiyalar;
- mulk shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslarni byudjetdan kreditlash;
- qarz majburiyatlariga xizmat ko'rsatish (davlat organlarining kafolatlari bilan).

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Iqtisodiy nazariya davlat tomonidan byudjet-soliq (fiskal) siyosatini amalga oshirish usullari borasida turli qarashlar borasidagi juda ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Xususan, Keynschilik oqimining davomchilari an'anaviy tarzda iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish sifatida samarali yalpi talabni shakllantirishga e'tibor qaratadilar. Shu sababli, soliq imtiyozlari ular tomonidan yalpi talabning o'sishining asosiy omili sifatida qaraladi, bu esa o'z navbatida real mahsulot hajmining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, qisqa muddatli davr ichida byudjet daromadlarining qisqarishi kuzatiladi, shundan so'ng byudjet kamomadi shakllanadi yoki avvalgiga qaraganda o'sadi. "Taklif iqtisodiyoti" nazariyasi tarafdorlari soliq stavkalarining pasaytiri-lishini yalpi taklif o'sishining omili sifatida ko'rib chiqadilar. Diskretsiyon fiskal siyosat eng avvalo, hukumat qarorlariga asoslanadi.

U soliq stavkalarini yoki soliqqa tortish tartibini, shuningdek, davlat xarajatlari darajasini boshqaradi, bu yalpi taklifning shakllanishiga, bandlik darajasiga, milliy mahsulotning real hajmiga va narxlar darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy tsiklning bosqichlariga muvofiq, diskretsiyon fiskal siyosat cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi siyosatga bo'linadi. Cheklovchi fiskal siyosat ortiqcha talab tufayli yuzaga keluvchi inflyatsiyani jilovlash maqsadida iqtisodiy tiklanish bosqichida amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatini cheklash, yalpi milliy mahsulotning real hajmini uning potentsial darajasiga nisbatan kamaytirishdan iboratdir. Bunday siyosatni amalga oshirish mexanizmida da sof soliqlarning ko'payishi (hukumatning soliq yig'ishdan olgan daromadlari, shuningdek davlat transfert to'lovlari o'rtasidagi farq), ularning o'sishi, davlat

xarajatlarining qisqartirilishi bir o'ringda nazarda tutadi. Iqtisodiyotning xususiy sektorida bu yalpi talabning kutilayotgan tiklanishini qoplashga yordam beradi.

Haddan tashqari talab (inflyatsion o'sish) oqibatida kelib chiqadigan inflyatsiyaning mavjudligida cheklovchi diskretion fiskal siyosat quyidagilardan tashkil topadi: xarajatlarni qisqartirish; soliqni oshirish; davlat xarajatlarini qisqartirish va soliq solishni oshirish kombinatsiyasi (davlat soliqlarini kamaytirishning multiplikator samarasi soliqlarning oshishini aks ettiruvchi multiplikator samarasidan yuqori bo'ladi).

Rag'batlantiruvchi fiskal siyosatni amalga oshirish ijtimoiy ishlab chiqarishning pasayish davrlarida, ishsizlikning sezilarli darajasi mavjud bo'lgan davrda amalga oshiriladi. Bunday holda, sof soliqlarni kamaytirishga yoki sof soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Pasayish davrida diskretion fiskal rag'batlantirish siyosati soliqlarni qisqartirish, davlat xarajatlarini ko'paytirish, bir paytning o'zida davlat xarajatlarini ko'paytirish va soliq imtiyozlarini qisqartirishni o'z ichiga oladi.

Davlat xarajatlari va soliqlarning iqtisodiy rivojlanishga barqarorlashtiruvchi ta'siri ular multiplikatsion ta'sirga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Ular yalpi talabga, fuqarolarning bandligiga va milliy ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Amaldagi davlat tomonidan tartibga solishning kontseptual modeli barqarorlashtirish siyosatining hukumat tomonidan amalga oshiriluvchi shakllari va choralarini tanlashni ko'zda tutadi. Davlatning nodiskret fiskal siyosati doirasida avtomatik stabilizatorlardan keng foydalaniladi.

Ular hukumat tomonidan qabul qilinuvchi qarorlardan qat'iy nazar iqtisodiyotda muvozanatlash vazifasini bajaruvchi davlat daromadlari doirasida muayyan bir jihatlarni ifoda etadi. Buni soliq tushumlari hajmi va davlat xarajatlari ulushining sezilarli darajada o'sishi xususiy sektor faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligi bilan izohlash mumkin. Soliq stavkalari milliy daromad oshgan taqdirda soliq tushumlari miqdori oshadigan tarzda amalga oshiriladi. Milliy

daromad hajmi pasayganda, aksincha, ularning pasayishi kuzatiladi. Shu qatorda, milliy daromad tebranishlariga bog‘liq bo‘lmagan ma’lum bir transfert to‘lovlari ham, muayyan darajada barqarorlashtiruvchi vazifasini bajaradi (masalan, bolalar uchun nafaqa va davolanish uchun to‘lov).

Shunga qaramay, transfertlarning katta ulushining o‘zgarishi (masalan, ishsizlik nafaqalari, qo‘shimcha to‘lovlar va boshqalar.) biznes tsiklidagi tebranishlarga teskari bog‘liqlikda yuzaga keladi. Iqtisodiy tiklanish sharoitida ushbu turdagi to‘lovlar sezilarli darajada kamayadi va ishlab chiqarishning pasyish davrida esa o‘sadi. Soliqlar va davlat xarajatlarining nisbiy darajalarida ma’lum darajada zarur o‘zgarishlar avtomatik ravishda kiritiladi, bu avtomatik (o‘rnatilgan) barqarorlik deb ataladi.

Soliq tizimi SMMning qiymatiga mutanosib ravishda sof soliqlarning undirilishini ta’min qilgan holda, Avtomatik (o‘rnatilgan) barqarorlikning yuza kelishiga sabab bo‘ladi

SMM ning o‘sishi asnosida soliq tushumlarining o‘sishi kuzatiladi, aksincha SMMning pasayishi sharoitida esa, barcha manbalar bo‘yicha soliq tushumlarining pasayishi kuzatiladi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda fiskal siyosatning o‘rnini qanday baholaysiz?
2. O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi, byudjet jarayonlari, to‘g‘risida tushuncha bering?
3. Mamlaktimizda ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirishda byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish borasida qanday maslahatlar bergan bo‘lar edingiz?
4. Byudjet va soliq islohotlarni chuqurlashtirish hamda soliq yukini kamaytirish yo‘llari borasida fikr bildiring?
5. Byudjet daromadlari va xarajatlari, byudjet taqchilligini qoplash

yo'llari borasida tushuncha bering?

Referat mavzulari:

1. Byudjet-soliq (fiskal) siyosatning iqtisodiy o'sishni ta'min-lashdagi o'rni.
2. O'zbekistonda byudjet sohasida olib borilayotgan islohot-larning o'ziga xosligi.
3. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini maqbullash-tirish yo'llari.
4. Byudjet-soliq siyosatining turlari va ularning amalda qo'llanish jihatlari.

Mushohada uchun:

Byudjet taqchilligining vujudga kelishi, uning turlari va byudjet taqchilligini kamaytirish borasida o'z fikrlaringizni amaliy misollarga tayanib bayon qiling?

Masalalar:

1. Davlat xaridlari 800, soliq funktsiyasi Tq 0,6 Y , transfertlar funktsiyasi $F = 0,4 Y$ ifodaga ega, foiz stavkasi $R = 0,1$ bo'lganda davlat qarzi $D = 2500$. Ishlab chiqarishning real hajmi 4000, potentsial hajmi 4750 ga teng. Davlat byudjetini tahlil qiling.

Yechish usuli: Davlat byudjeti-iqtisodiyotdagi daromadlar va xarajatlar majmui. Daromadlarning asosini soliqlar tashkil etadi, xarajatlarga iqtisodiyotga davlat xarajatlari, transfertlar, davlat qarzi bo'yicha foizlarni to'lash kiradi. Byudjet holati balansni tavsiflaydi (daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq). Davlat daromadlari soliqlar bilan aniqlanadi, bu yerda u quyidagiga teng: $0,6*4000 = 2400$. Bu davlatning haqiqiy daromadi. Davlatning haqiqiy xarajatlari: $800 + 0,4*4000 + 2500*0,1 = 2650$ tashkil qiladi. Shu tariqa, davlat byudjetida haqiqiy kamomad kuzatiladi: $2400 - 2650 = -250$. Tarkibiy kamomadni aniqlaymiz:

$$(0,6*4750) - (800 + 0,4*4750 + 2500*0,1) = 2850 - 2950 = -100.$$

Shunday qilib, davlat byudjetida haqiqiy kamomad 250 pul birligini, tarkibiy kamomad esa – 100 pul birligini tashkil qiladi.

2. Quyidagi ma'lumotlar mavjud: $YaIM$ -6500; Potentsial $YaIM$ -7200; Davlat xaridlari-900; Soliq koeffitsienti-0,4; Davlat mulkini xususiy-lashtirishdan

daromad-200; Davlat qarzi-600; Huquq-tartibot idoralarini saqlash xarajatlari-700; Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha xarajatlar-350; Transfertlar koeffitsienti-daromadga nisbatan 0,2.

Davlat byudjeti saldosi, davlat byudjetining tarkibiy va tsiklik kamomadini aniqlang?

Yechish usuli:

Haqiqatdagi kamomad real YaIM ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi. Davlat byudjetining daromad va xarajatlarini aniqlaymiz va ma'lumotlarni jadvalga kiritamiz:

Daromadlar		Xarajatlar	
Soliq daromadlari	6500*0,4q2600	Davlat xaridlari	900
Soliqsiz daromadlar	200	Davlat qarzi	600
Jami	3080	Huquq-tartibot idoralarini saqlash xarajatlari	700
		Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha xarajatlar	350
		Transfertlar	2800*0,2q560
		Jami	3110

Xarajatlar daromadlardan ortiqcha, demak byudjet tanqisligi mavjud.

Haqiqiy kamomad=3110-2800=310

Tarkibiy kamomad potensial YaIM bo'yicha hisoblanadi.

Davlat byudjetining daromad va xarajatlarini aniqlaymiz va ma'lumotlarni jadvalga kiritamiz:

Daromadlar		Xarajatlar	
Soliq daromadlari	6500*0,4q2600	Davlat xaridlari	900
Soliqsiz daromadlar	200	Davlat qarzi	600
Jami	3080	Huquq-tartibot idoralarini saqlash xarajatlari	700
		Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha xarajatlar	350
		Transfertlar	3080*0,2q616
		Jami	3166

Tarkibiy kamomad=3166-3080=86.

Tsiklik kamomadq haqiqiy kamomad-tarkibiy kamomad= 310-86=224.

3. Quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Ko'rsatkichlar	Qiymati
YaIM	2500
YaIM uzilishi, %	-5
Soliq stavkasi,%	35
Transfertlar, daromadga nisbatan %da	20
Tovar va xizmatlarning davlat xaridi, daromadga nisbatan %da	45
Davlat qarziga xizmat ko'rsatish	450
Soliq daromadlari, daromadga nisbatan %da	15

Davlat byudjetining tsiklik kamomadini aniqlang.

Yechish usuli:

Haqiqiy kamomadni real YaIM bo'yicha, tarkibiy kamomadni esa – potentsial YaIM asosida aniqlaymiz. Potentsial YaIMni YaIM uzilishi asosida hisoblab topamiz:

$YaIM_{uzilishi} = (YaIM_{pot} - YaIM_{haq.}) / YaIM_{pot} * 100\%$; Bundan:

$YaIM_{pot} = YaIM_{haq.} / (1 - uzilish)$; $YaIM_{pot} = 2500 / (1 - 0,05) = 2631,57$

Potentsial va real YaIM uchun davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini aniqlaymiz, ma'lumotlarni jadvalga kiritamiz:

YaIM _{haq.} =2500		YaIM _{pot} = 2631,57	
Daromadlar	Xarajatlar	Daromadlar	Xarajatlar
Soliq daromadlari $2500 * 0,35 = 875$	Transfertlar $= 1006,25 * 0,2 = 201,25$	Soliq daromadlari $= 2631,57 * 0,35 = 921,04$	Transfertlar $1059,19 * 0,2 = 211,84$
Soliqsiz daromadlar $875 * 0,15 = 131,25$	Davlat xaridlari $= 1006,25 * 0,45 = 452,81$	Soliqsiz daromadlar $= 921,04 * 0,15 = 138,15$	Davlat xaridlari $= 1059,19 * 0,45 = 476,63$
	Davlat qarziga xizmat ko'rsatish = 450		Davlat qarziga xizmat ko'rsatish = 450
Jami		Jami	
1006,25	1104,06	1059,19	1138,47
Byudjet saldosi = $1006,25 - 1104,06 = -97,81$		Byudjet saldosi = $1059,19 - 1138,47 = -79,28$	

Tsiklik kamomad = haqiqiy kamomad-tarkibiy kamomad= 97,81-79,28 =18,53

4. Yil boshi va yil oxiriga davlat qarzi ko'rsatkichlarini toping:

Ko'rsatkich	Miqdori
Yil boshiga aholi, soni, mln. kishi	130
Yil oxiriga aholi soni, mln. kishi	132
Yil boshiga davlat qarzi. mln. dollar	120
Yil boshiga YaIM, mln.dollar	600
Bank foizi, %	6
Soliq stavkasi, %	23
YaIMning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari,%	-9
Yil oxiriga davlat byudjetining defitsiti, daromadga nisbatan %da	5

Yechish usuli:

Yil boshiga uchta ko'rsatkich qiymatini aniqlaymiz:

1-ko'rsatkichq davlat qarzi/ aholi soniq $120/130=0,923$ mln.dollar;

2-ko'rsatkichq davlat qarzi/YaIM*100%= $120/600*100%=20\%$

Uchinchi ko'rsatkichni topish uchun davlat byudjeti xarajatlarini aniqlaymiz.

Yil boshiga daromadlar xarajatlarga teng, chunki kamomad yil oxiriga aniqlangan.

Daromadlarq xarajatlar= $600*0,3=138$ mln. dollar

3-ko'rsatkichq davlat qarzi / davlat byudjeti xarajatlari*100%
= $120/138*100%=86,95\%$

Yil oxiriga ko'rsatkichlarni aniqlaymiz. Yil oxiriga davlat qarziq yil boshiga davlat qarzi+ davlat byudjeti kamomadi+ kredit foizlari.

Davlat qarzi= $120+138*0,05+120*0,06=120+6,9+7,2=134,1$ mln.dollar:

YaIM= $600-600*0,09=600-54=546$ mln. dollar

1-ko'rsatkichq davlat qarzi/ aholi soniq $134,1/132=1,015$ mln.dollar;

2-ko'rsatkichq davlat qarzi/YaIM*100%= $134,1/546*100%=24,56\%$

3-ko'rsatkichq davlat qarzi/davlat byudjeti xarajatlari * 100%
= $134,1/138*100%=97,17\%$

5. Quyidagi ma'lumotlar mavjud: avtonom in'ektsiyalar-650 pul birligi, shu jumladan davlat xarajatlari – 100 pul birligi; MPC-0,7; soliq stavkasi-0,12.

Agar soliq stavkasi o'zgargandan so'ng, YaIM 15 %ga o'ssa (soliqlar davlat xarajatlar sifatida foydalanilganda) yangi soliq stavkasi qanday bo'lishi kerak?

Yechish usuli:

$$YaIM = 650 * \frac{1}{1-0,7*(1-0,12)} = 1692,7 \text{ pul birligi.}$$

$$\text{Soliqlar} = 0,12 * 1692,7 = 203,124 \text{ pul birligi.}$$

$$YaIM = 1692,7 * 1,15 = 1946,6 \text{ pul birligi.}$$

$$1946,6 = (650 + 203,124) * \frac{1}{1-0,7*(1-t)}$$

Bundan: $t = 0,2$; soliq stavkasi 20%.

6. Iqtisodiyotda talab funktsiyasi quyidagicha ko'rinishga ega: $S = 100 + 0,75Y$. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash maqsadida nafaqa to'lovlari uchun davlat xarajatlari 300 mln. dollarga ko'paytirildi. Byudjetning muvozanatlashganligini saqlab qolish maqsadida soliqlar ham 300 mln. dollarga oshirildi.

1) Avtonom xarajatlar multiplikatorini va soliq multiplikatorini hisoblang?

2) Soliqlarning oshirilishi va davlat xarajatlarining ko'paytirilishi sharoitida Y ning o'zgarishini hisoblang?

3) Muvozanatlashgan byudjet multiplikatori qoidasini shakllantiring?

Yechish usuli:

$S = 100 + 0,75Y$ funktsiyasi o'zida iste'mol funktsiyasini ham ifoda etadi, uni quyidagi umumiy ko'rinishda yozish mumkin: $S = S_0 + MPC * Y$, bu yerda S_0 -avtonom iste'mol; $S_0 = 100$, MPC – iste'molga chegaraviy moyillik; $MPC = 0,75$, Y - daromad. Multiplikator formulasini jamg'arishga chegaraviy moyillik orqali ifodalash mumkin:

$$k = 1 / (1 - MPC) = 1 / (1 - 0,75) = 4$$

Soliq multiplikatorini aniqlaymiz:

$$MRT = MPC / MPS = 0,75 / 0,25 = 3$$

Davlat xarajatlarining ko'payishi, byudjetni muvozanatlash uchun

solliqlarning ko'payishi bilan birga, daromadning bir xil miqdorga oshishiga olib keladi. Ya'ni, davlat xarajatlarining 300 mln. dollarga oshishi, solliqlarning 300 mln. dollarga oshishi bilan birga daromadning 300 mln. dollarga oshishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, muvozanatlashgan byudjetning multiplikatori 1 ga teng.

Keys: Hududda import o'rnini bosish siyosatini amalga oshirish mexanizmi

Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida hududlarni ijtimoiy-barqaror jihatdan barqaror rivojlantirishga imkon beruvchi iqtisodiy siyosat tamoyillarini ishlab chiqish va ularni hayotga izchil joriy etish kun sayin dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida: "Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun viloyatlar, tumanlar va shaharlarni kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish zarur"-deb ta'kidlanadi. Milliy iqtisodiyot taraqqiy topishi va mamlakat aholisi farovonligini ta'minlashning eng birlamchi omili mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va undan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. Zero, hududlarda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishmasdan turib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash haqida fikr bildirishning o'zi mantiqiy nuqtai nazardan samarasiz bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi rivojlanayotgan davrda va chuqur islohotlar fonida respublikamiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini atroflicha tahlil qilish muhim va oqilona iqtisodiy qarorlar abul qilishda har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Bu borada, respublikamiz hududlarini barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom-ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 mayda PQ-4702-son «Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida»gi qarori ga muvofiq statistik ko'rsatkichlar va so'rovnomalarni natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi. Bu esa, o'z navbatida respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish borasidagi muammolarning amaliy echimi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda qayd etishimiz joizki, bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy holatini chuqur tahlil qilishda istiqbolga yo'naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun uni kompleks baholashning hamda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar ishlab chiqqan holda ularga tezkorlik bilan va lozim darajada javob qaytarishning yagona muvofiqlashtirilgan mexanizmi mavjud emas edi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi endilikda respublika miqyosida yoki alohida olingan hududlar kesimida iqtisodiy-ijtimoiy sohalarga doir qarorlar qabul qilishda, ayni hududlardagi tizimli muammolarni aniqlashda, hududlarning real iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi turmush darajasi va daromadlarini tahlil qilishda, shuningdek, eng muhimi joylardagi mahalliy ijro organlari rahbarlarining faoliyatlarini doimiy kuzatib borish asosida mas'uliyatini oshirish va ularning faoliyati samaradorligini xolisona baholashda o'ziga xos metodologiya hisoblanadi.

Mamlakatimizning har bir hududi o'ziga xos. Bir viloyat ichidagi tumanlarning imkoniyatlari ham bir-biriga o'xshamaydi. Shu bois Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari alohida, manzilli tarzda muhokama qilib borilmoqda. Davlatimiz rahbari joylarga chiqib, aholi bilan gaplashib, belgilanayotgan chora-tadbirlarning dolzarb va amaliy bo'lishiga katta e'tibor qaratmoqda. Markazdagi rahbarlar qarorlar qabul qilishda hokimlarning umumiy hisobotlari bilan kifoyalanib qolayotgani tanqid

qilinib, bundan buyon hududlarga oid har bir masalani aniq tuman, qishloq, mahalla, soha va korxonalar kesimida, muammoning eng quyidagi ildizigacha tushib, uni hal qilish zarur. Dasturlar ishlab chiqishni har bir qishloqdan boshlash, qaysi qishloqda qaysi yoʻnalishni rivojlantirish, bunga qancha mablagʻ ajratish kerakligini aniq koʻrsatish talab etiladi.

Hududlar iqtisodiy taraqqiyotining strategik vazifalari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanish, xalqning turmush darajasi va daromadlarni oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xomashyo, sanoat, qishloq xoʻjaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni taʼminlash;
- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish miqyosini kengaytirish hisobidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqni kamaytirish, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oʻstirish yoʻli bilan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;
- yangi sanoat, ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobidan shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni faol rivojlantirish, yirik xoʻjalik birlashmalarining mablagʻlarini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- subvension tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar koʻrsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;
- sanoat va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining bugungi sharoitida hududlarning rivojlanishiga turtki beruvchi siyosat va uni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, har qachongidan koʻra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davom etayotgan global inqiroz va moliya tizimining beqarorligi dunyo hamjamiyatining koʻplab mamlakatlarini xarajatlarni qisqartirish yoʻllarini izlab topishga undamoqda. Mamlakat ichkarisida toʻliq yoki qisman ishlab chiqariluvchi mahsulotlar bilan import qilinuvchi mahsulotlar hajmini qisqartirish mazkur muammoning echimlaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining resurslar eksportiga yoʻnaltirilganligi va alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishga xizmat qiluvchi samarali davlat dasturlarining etarlicha emasligi mamlakat hududlarining iqtisodiy taraqqiyotida bir qator nomutanosibliklarni keltirib chiqardi. Bugungi kunda mamlakatimizda yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar soni hali etarlicha emas. Bir vaqtning oʻzida hududlarni rivojlantirish va mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash yoʻllaridan biri faol import oʻrnini bosish mexanizmini ishlab chiqishdir. Faol import oʻrnini bosish korxonalar faoliyatining tashkiliy, iqtisodiy va texnik sohalarida raqobat ustunliklarini yaratish asosida Sirdaryo viloyatida yuqori qoʻshilgan qiymatli sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini anglatadi, bu oʻz navbatida ishlab chiqarishga mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Import oʻrnini bosuvchi mexanizmining asosini import qilinuvchi xom ashyo va asbob-uskunalaridan ishlab chiqarish jarayonida foydalanishni kamaytirish yoki import qilinuvchi mahsulotlarni sifati, texnik xususiyatlari va raqobatbardosh narxi boʻyicha oʻxshash mahalliy mahsulotlar bilan almashtirishga qaratilgan kompleks maqsadli dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish tashkil qiladi. import oʻrnini bosishga qaratilgan maqsadli kompleks dastur taʼsir koʻrsatishning moslashuvchan vositasi boʻlgani holda, barcha iqtisodiy, geografik va boshqa xususiyatlarni, shuningdek mintaqaning cheklangan resurslarini hisobga olish imkoniga ega sanaladi.

Import o'rnini bosish siyosatni amalga oshirish shartlari va yo'llarini tahlil qilish maqsadida biz Sirdaryo viloyatini tanlab oldik. Sirdaryo viloyati bugungi kunda mamlakatimizning muhim iqtisodiy hududlaridan biri sanaladi.

Sirdaryo viloyatida O'zbekiston aholisining 2,5 foizi istiqomat qiladi va uning yer maydoni butun respublika hududining qariyb 1 foizini tashkil qiladi. Ammo, aholi soni kamligi va hududining kichikligiga qaramay, ushbu viloyat o'zining geografik joylashuvi va bir qator xususiyatlari bilan mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. 2017-2020 yillar davomida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 8,4% ga oshib, 12,9 trln. so'mni tashkil etdi. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 37% ga, 2016 yildagi 13,3 ming donadan 2020 yilda 18,2 ming donagacha o'sdi. Infratuzilmani rivojlantirish sohasida 2016-2020 yillarda 741 km suv ta'minoti tarmoqlari yotqizildi. Besh yil davomida Sirdaryo viloyatida 83 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Shu davr mobaynida viloyatda 1192 ming kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirildi, maktabgacha ta'lim muassasalarida 5,4 ming, maktablarda 10,2 ming, shifoxonada 1,4 ming o'ringa mo'ljallangan koekalar tashkil etildi. Sirdaryo viloyatida 2021 yil uchun 737 ta loyiha shakllantirilgan. Ularning umumiy qiymati 25 trillion 500 milliard so'm bo'lib, shundan qariyb 900 million dollarini xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Loyihalarni shakllantirishda to'qimachilik, qurilish materiallari, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati "drayver" sifatida belgilab olingan.

Sirdaryo viloyatida import o'rnini bosuvchi siyosatni amalga oshirish mexanizmini aniqlashtirish maqsadida hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida hududiy iqtisodiy taraqqiyot darajasini ko'tarish borasida biz ikkita asosiy nazariyani qarab chiqamiz. Ulardan biri eksport bazasi nazariyasi bo'lsa, ikkinchisi esa iste'mol nazariyasi hisoblanadi. Ushbu ikki nazariya an'anaviy tarzda bir-biriga muqobil sifatida ko'rib chiqiladi.

Eksport bazasi nazariyasi hudud rivojlanish borasida pul oqimlarini oshirishi lozimligini va eksport pul tushumlarining asosiy manbai ekanligini ta'kidlaydi[10]. Eksportdan olinuvchi daromad mahalliy xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda yangi ish o'rinlarini yaratgani holda, mahalliy darajada foydalanilishi lozim. Mahalliy xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ishlovchilar o'zlarining o'sib borayotgan daromadlarini hudud doirasida qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish uchun sarflashlari lozim. Eksport bazasi nazariyasi eksport hisobiga bandlik yoki daromadlarning o'zgarishi hududdagi umumiy bandlik va daromadlarning o'zgarishiga tengligini ta'kidlaydi.

Mazkur nazariyaning tarafdorlari ushbu holat amaliy jihatdan sektorlar o'rtasidagi muhim iqtisodiy munosabatlarni tushuntiradi, hududlarning ixtisoslashuvini aks ettiradi, hudud iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridagi o'zgarishlarning hudud iqtisodiyotiga ta'sirini ko'rsatadi va ko'lam hisobiga tejash hisobiga past narxlarda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatini beradi, deb hisoblaydilar. Shunday bo'lsada, eksport bazasi bir necha yo'llar bilan, xususan mono-sabab nazariyasi orqali tanqid qilinadi. Mazkur nazariya hamma narsa eksportga bog'liqligini uqtiradi, o'sish manbai sifatida ichki xo'jalik faoliyatini amalga oshirish, hukumatning rivojlantirish dasturlari kabi ichki o'sish omillarini inkor qiladi. U o'sish manbai sifatida unumdor-likni takomillashtirishni istisno qiladi, tarmoqlarning eksport bazasi bilan mahalliy xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni farqlashni chigallashtiradi, bu esa o'z navbatida import o'rnini bosuvchi siyosat va uning asosiy ko'rsatmalarini amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Iste'mol nazariyasi pul-kredit sohasida pul oqimlarining chetga chiqib ketishining pasayishi, hududning iqtisodiy rivojlanishiga olib kelishini va mahalliy xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar hudud iqtisodiyotiga xuddi eksport kabi ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Mahalliy investitsiyalar rezidentlar xarajatlarining oshishiga, hududga boshqa mintaqalardan fuqarolar va sayyohlar oqimining ko'payishiga va o'z navbatida mahalliy byudjetning daromadlar qismining o'sishiga zamin yaratadi. Hududda tovar va xizmatlarni mahalliy darajada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hisobiga yo'qotishlarni kamaytirishi mumkin, aks holda mazkur tovar va xizmatlarga bo'lgan talab import hisobiga qoplanadi, bu esa o'z navbatida pul oqimlarining

chetga chiqib ketishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, import o'rnini bosuvchi mexanizm ham muayyan bir kamchiliklardan holi emasligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Ushbu g'oya dastlab xalqaro darajada ishlab chiqilganligi bois, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni rag'batlantirish siyosati mamlakatda u yoki bu tarmoqqa ustivorlik berish maqsadida tariflarni jori qilish va oshirilgan ayriboshlash kurslarini o'rnatishni o'z ichiga olgan edi. Sun'iy boshqaruvning ushbu ko'rinishi bozor mexanizmining amal qilishiga qat'iy ishongan tarafdorlarning jiddiy tanqidiga sabab bo'ldi. Shuningdek, import o'rnini bosish jamiyat nuqtai nazaridan resurslardan to'laqonli darajada samarali foydalanishni ta'min etmaydi, chunonchi hudud darajasida ishlab chiqarish ko'lami samarasiga erishish mushkul. Bundan tashqari, bir nechta tarmoqlar, jumladan chakana savdo, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga import o'rnini bosish siyosatidan foydalanish maqsadga muvofiqligi isbotlangan xolos.

Bu ikki nazariya bir-biriga mutlaqo zid nazariya sifatida ilgari suriladi. Aksariyat iqtisodchilar va siyosatchilar ikkala nazariya ham o'zining kuchsiz va kuchli jihatlari ega bo'lsada, import o'rnini bosishning eksport bazasi nazariyasini afzal ko'radilar. X. J. Bruton import o'rnini bosish strategiyasida qo'llaniluvchi siyosat mamlakat iqtisodiyotining dunyo mamlakatlari uchun yopilib qolishga olib kelishi mumkinligidan ogohlantiradi. Himoyalashning yuqori darajasi tufayli ichki va tashqi narx darajalari bir-biridan katta farq qiladi. xorijiy tovarlar bilan raqobatning yo'qligini inobatga olgan holda, hukumat mazkur jarayonlarga aralashishi mumkin, ammo bunday yo'l tutish mamlakat iqtisodiyotining izdan chiqishiga olib kelishi tabiiy, zero bozor mexanizmiga har qanday aralashuv u yoki bu dajadagi jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Import o'rnini bosish strategiyasiga ko'ra, mahalliy tarmoqlar davlat tomonidan muayyan bir subsidiyalar yordamida himoya qilinishi mumkin.

Shunday bo'lsa-da, subsidiyalarning ushbu turi hukumat tomonidan byudjet taqchilligiga olib kelishi mumkin. X.J. Brutonning fikricha, himoyalash vositasi sifatida tariflar kvotalarga nisbatan bir muncha zararsizdir.

Shu tariqa, mamlakatlar kvotalash amaliyotidan voz kechgan holda ochiq savdoni amalga oshira boshlaydilar. Bundan tashqari, ochiq savdo uchun qulay muhit yaratish maqsadida tariflar darajasi ham kamaytirilishi lozim.

Rossiyalik mutaxassis O.S. Belokro'lova import o'rnini bosish yo'nalishida iqtisodiy siyosatni tubdan isloh qilish doirasida davlat miqyosida institutsional o'zgarishlar amalga oshirish zarurligini uqtiradi va import o'rnini bosishning samarali strategiyasini amalda qo'llashga xizmat qiluvchi yangi institutlar yaratishni taklif qiladi. Dunyo iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida, jumladan globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashib borishi sharoitida dunyoning ko'plab mamlakatlari mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'xshash import tovarlar tomonidan ichki bozorlardan siqib chiqarilishi bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqdalar. Ushbu holat oxir-oqibatda, davlatning vaziyat qurboniga aylanishiga, moddiy va intellektual ishlab chiqarish mahsulotlarini boshqa mamlakatlardan import qilishga majbur qiladi. Yuqorida tilga olib o'tilgan tovarlar bilan bozorni to'ldirishda davlatning u yoki bu mamlakatlarga qaramligi vujudga kelishi bilan bir qatorda, mamlakatda o'z sifati va xususiyatlariga ko'ra o'xshash import mahsulotlardan qolishmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoni mavjud bo'lishiga qaramay, hukumat mavjud salohiyatdan unumli foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'ladi, bunday imkoniyatlardan foydalanish qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishiga, umumiy farovonlik darajasining o'sishiga xizmat qilgan bo'lar edi. Import qilinuvchi mahsulot hajmini qisqartirish bilan bog'liq muammoning echimi sifatida import o'rnini bosuvchi siyosat, deb ataluvchi import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini keltirib o'tishimiz mumkin. Yangi keynschilik maktabining vakillari birinchilardan bo'lib, import o'rnini bosuvchi siyosatni qo'llash taklifini ilgari surganlar.

Bugungi kunda "import o'rnini bosish" tushunchasining bir qancha ta'riflari mavjud. Ko'pincha import o'rnini bosish deyilganda "... mamlakatda aynan shu yoki shunga o'xshash

tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali muayyan bir tovar importini qisqartirish yoki butunlay chek qo'yish tushuniladi". Import o'rnini bosishning yana bir keng tarqalgan ta'rifi sifatida "ichki bozorda talab bildirilgan import qilinuvchi ishlab chiqarish mahsulotlarini milliy ishlab chiqarish tovarlariga almashtirishga yo'naltirilgan davlat iqtisodiy siyosati va iqtisodiy strategiyasining bir ko'rinishidir"-degan ta'rifni keltirishimiz mumkin. Umumiy holatda import o'rnini bosish siyosatini zamonaviy iqtisodiyot sharoitida samarali yoki samarasiz deb tan olishning imkoni yo'q, shunga qaramasdan mamlakatimizda imort o'rnini bosish strategiyasini qo'llash ijobiy samara berishi tabiiydir. Ushbu chora nafaqat iqtisodiy xavfsizlikning umumiy darajasini oshirishga va mamlakatning tovar mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi, balki shu bilan bir qatorda real vaziyatdan kelib chiqqan holda, mamlakat hududlarini iqtisodiy jihatdan taraqqiy toptirishga zamin yaratadi. Bunda mamlakatimiz hududlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, import o'rnini bosishni mamlakat hududlaridan tashqarida ishlab chiqarilgan tovarlarni sifati va xususiyatlari bo'yicha ulardan qolishmaydigan mahalliy tovarlar bilan almashtirish jarayoni sifatida tushunish lozim degan xulosaga kelamiz. Zaif yoki etarlicha taraqqiy etgan ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash birinchi variant hisoblanadi, bu o'z navbatida zaif rivojlangan ishlab chiqarishlarning ichki bozorda mavqeining kuchayishiga, etarlicha rivojlangan ishlab chiqarishlarning esa tashqi bozorlarga mustahkam o'rnashishiga zamin yaratadi. Etarlicha rivojlanmagan ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash haqida so'z yuritir ekanmiz, davlat tomonidan mazkur ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish borasida proteksionistik siyosatning qo'llani-lishini ko'zda tutamiz. Taraqqiy etgan sanoat tarmoqlarini rag'batlantirish tashqi bozorlarda raqobat kurashiga kirishish uchun imkoniyat yaratadi.

Savollar:

1. Import o'rnini bosuvchi iqtisodiy o'sish modellari haqida atroflicha tushuncha bering?
2. O'zbekistonda import o'rnini bosuvchi iqtisodiy o'sish modelining amalda qo'llanilishi borasida o'z fikrlaringizni bayon qiling?
3. O'zbekistonning tashqi bozorlarga chiqishi borasida bugungi kunda qanday muammolar mavjud?
4. Hududlarni rivojlantirishda import o'rnini bosuvchi strategiyaning qaysi nazariyalari (eksport bazasi nazariyasi, iste'mol nazariyasi)dan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb o'ylaysiz?

Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent- "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'rsida"gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.
3. Abduvoxidov A.A. va boshqalar. Innovatsiyalar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.- T.: "Mumtoz so'z", 2020-636 bet.

4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Fisher S. R.Dornbush, R.Shmalenzi., «Ekonomika». «Delo». - М.: 1993. S.654.
10. Xajiev B.D., Axmedov D.Q., Zaxidov G.E., Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. Darslik. – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2018. - 428 bet.
11. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.
12. Xadjiev B.D., Abdullaev S.O., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. – Т.: “Zebo yulduzlari MChJ”, 2018. - 417 bet.
13. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – Т.: Iqtisodiyot, 2013. – 542 b.
14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018
15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.

16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.
17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.
18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018
19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. · 2018
20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.
21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.
22. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi rasmiy sayti.
23. www.stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
24. <https://mineconomy.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti
25. <https://cbu.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
26. <https://mf.uz/uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
27. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi
28. <https://uza.uz/uz> - O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti
29. [https://www.worldbank.org/en home](https://www.worldbank.org/en/home)- Jahon banki rasmiy sayti
30. <https://openbudget.uz/ru>
31. https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/Budjet_22_P_uz_11111.pdf

VI BOB. O‘SISH DVIGATELI

“Mamlakat o‘z tabiiy resurslari mavjud bo‘lmasa ham, boylik yaratishi va farovonlikni ta‘min etishi mumkin. Mamlakat boyligini yaratishning eng asosiy resursi-bu insondir. Davlat faqatgina, insonlarning iste‘dodini ro‘yobga chiqishi uchun poydevor yaratsa bas”.

Margaret Tetcher

- 1. Iqtisodiy rivojlanish omillari tasnifi**
- 2. Iqtisodiy rivojlanishni aks ettiruvchi asosiy modellar**
- 3. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatorlari**
- 4. Iqtisodiy o‘shish va rivojlanish tahlilining ekonometrik modellari**
- 5. Inson kapitali iqtisodiy o‘shishni harakatlantiruvchi kuch sifatida**

O‘zgarishlar shamolini his qilgan odam, shamoldan panalishi kerakmas, aksincha u shamol tegirmoni qurishi lozim

2021 yilning 10 mart kuni AQSh Kongressining tadqiqotlar markazi “COVID-19ning global iqtisodiy ta‘siri” nomli 159 sahifadan iborat ma‘ruzasini e‘lon qildi. Mazkur ma‘ruza joriy yilning 9 iyulida qayta yangilangan holda, omma e‘tiboriga havola qilindi. Mazkur ma‘ruzaga Covid-19 pandemiyasiga javoban dunyoning yirik mamlakatlari va katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan iqtisodiyotlari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarga doir qo‘shimcha manba va ma‘lumotlar ilova qilingan. Mazkur material dunyo mamlakatlari bo‘yicha xronologik tartibda guruhlangan bo‘lib, pandemiyaning dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ta‘sirini o‘rganish borasida har tomonlama qulay hisoblanadi. 2020 yilning 11 martida Covid-19 deb nom olgan yangi virusli kasallikning avj olishi butun dunyoda rasman “pandemiya” sifatida tan olindi. Virusli infektsiya mamlakatlar o‘rtasida tez tarqalgani va dunyo hamjamiyatiga birdek ta‘sir ko‘rsatgani holda, global iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqlik tavsifiga ega ekanligini yana bir bor namoyish qildi. 2020 yilning mart oyi boshida infektsiya markazi Xitoydan Evropaga ko‘chgani holda, ayniqsa Italiyaga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ammo 2020 yilning aprel oyida infektsiya markazi AQShga ko‘chdi. 2021 yilning aprel oyining o‘zidayoq, Braziliya va Hindistonda yangi kasallanish o‘choqlari paydo bo‘lgani holda, mazkur mamlakatlarda kunlik kasallanish va o‘lim holatlari rekord darajaga etdi.

Birinchi bosqichda pandemiya oqibatlariga qarshi iqtisodiy choralar moliya bozorlarini barqarorlashtirish va iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan kreditlar oqimini ta‘minlashga qaratilgan pul-kredit siyosati bilan bog‘liq bo‘ldi.

Ikkinchi bosqichda asosiy e‘tibor byudjet chora-tadbirlari orqali iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashga qaratildi.

Uchinchi bosqichda vaktsina yaratish, uni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va ommaviy emlashni amalga oshirish davlat siyosatining asosiy diqqat markazida bo‘lgani holda, mazkur bosqich hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Barchani voqealar rivoji kelgusida qanday tus olishi haqidagi savol birdek o‘ylantirishi tabiiy holdir.

2021 yilning iyul oyi boshida dunyo miqyosida 184 milliondan oshiqroq kishi kasallangan bo‘lsa, 4,0 milliondan oshiqroq kishi mazkur kasallikdan vafot qilganligi qayd etilgan. 2021 yilning iyul oyi boshiga AQShda 33,6 million kishi kasallangan bo‘lsa, 603 ming kishi kasallikdan vafot qilgan. ayni paytda, dunyoning 80dan ortiq mamlakatlari chegaralarni

yopishlari, qarantin cheklovlarini joriy qilishlari oqibatida, butun dunyoda qariyb 1,5 milliardga yaqin bolalar maktabga qatnab an'anaviy ta'lim olishdan bebahra qolishdi.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining qariyb yarmidan ko'p aholisi (230 million kishi) cheklovlar va o'z-o'zini yakkalash sharoitida kun kechirishdi, shu bilan bir qatorda 26 million evropaliklar koronavirus bilan kasallangani holda, ularning 580 mingdan ortig'i ushbu kasallikdan vafot qilishdi.

Pandemiya dunyo miqyosida iqtisodiy o'sish sur'atlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumotlarga ko'ra, koronavirus tufayli 2020 yilda dunyo iqtisodiyotining o'sishi 4,5 foizdan 6,0 foizgacha pasaygan. Shu bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining o'sishi 2021 yilda +2,5%dan +5,2%gacha o'sishi bashorat qilinmoqda. Iqtisodiy o'sishning hozirgi dinamikasida jahon iqtisodiy faolligining qariyb 60 foizi to'g'ri keluvchi rivojlangan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar kamida 2024 yilgacha bo'lgan muddatda o'z imkoniyatlari darajasida faoliyat ko'rsata olmaydilar.

2020 yilning birinchi yarmi va yilning uchinchi choragida global iqtisodiy inqirozdan so'ng, dunyo iqtisodiyotida jonlanish holatlari kuzatildi. AQSh va Yevropa iqtisodiyoti 2020 yilning uchinchi choragida tiklanish alomatlari sezila boshladi, xususan AQSh iqtisodiyotida yillik hisobda 5,0, Evrohududda esa uchinchi chorakda 12,5% o'sish kuzatildi. 2020 yilning 25 noyabrida Yaponiya hukumati mamlakat YaIMi uchinchi chorakda 4,7% ga o'sganligini ma'lum qildi.

2020 yilning 24 noyabrida AQShning Dow Jones birja indeksi 2020 yilning 14 fevralida qayd qilingan maksimal qiymatdan oshiqroq qiymatni qayd qildi.

Biroq 2020 yilning sentyabr oyidan boshlab Yevropa va AQShda koronavirusning yangi to'liqini avj olishi asnosida yangi cheklovlar joriy qilindi. Bu o'z navbatida 2021 yilning kamida uchinchi choragi yakuniga qadar iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda tiklanishini shubha ostiga qo'yadi.

Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo bo'ylab 100 milliondan 110 milliongacha odam qashshoqlik chegarasidan pastda turmush ko'rishga majbur bo'ladilar. Bundan tashqari, hisob-kitoblarga ko'ra, global savdo 2020 yilda 9,0% gacha pasayganligini ta'kidlashimiz mumkin. Pandemiyaning iqtisodiy oqibatlari 1930-yillarning Buyuk depressiyasidan beri kuzatilmagan yuqori ishsizlik darajasi bilan tavsiflanuvchi bandlikka, shuningdek, muttasil tarzda o'sib boruvchi qarzdorlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Koronavirusga qarshi kurash choralari tufayli ish o'rinlari yo'qotilishining eng katta ulushi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining baholashlariga ko'ra, 2020 yilda 93 foiz ishchi va xodimlar u yoki bu cheklashlar sharoitida mehnat faoliyatini olib borishga majbur bo'lganlar, buning natijasida global pandemiya tufayli 2020 yilda ish vaqtining salkam 9 foizi yo'qotilgan. Koronavirus tufayli 2020 yilda 2019 yilga nisbatan yo'qotilgan ish soatlarining umumiy miqdori Yevropada (14,6%) va Shimoliy va Janubiy Amerikada (13,7%) ni tashkil qilgan, bu o'z navbatida mazkur mamlakatlar va mintaqalarda qarantin cheklovlarining qat'iy va uzoq muddatli amal qilganligi bilan izohlanadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, 2019 yilga nisbatan 2020 yilda global miqyosda ish o'rinlarining yo'qotilishi 114 million ish o'rnini tashkil qilgan. Yuqori ishsizlik darajasi tufayli yo'qotilgan ish soatlarining eng katta ulushi Yevropa (6,0%), Amerika (2,7%) va arab davlatlarida (1,7%)ga to'g'ri kelgan.

Bir qator iqtisodchilar va mutaxassislar fikricha, pandemiya tufayli mehnat bozorida yuzaga kelgan nomutanosibliklar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Koronavirus pandemiyasining jahon iqtisodiyotiga ta'siri borasida XVF quyidagi xulosalarni ilgari suradi:

1) aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad hajmi bir necha yil davomida o'zining pandemiyadan oldingi darajasidan past bo'ladi, bu esa o'z navbatida joriy unumdorlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

2) pandemiyaga qarshi kurashish borasida milliy sog'liqni saqlash tizimlariga qo'yiladigan talablar boshqa kasalliklarni samarali davolashga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

3) korxonalarining bankrotligi milliy va global darajada unumdorlikning pasayishiga olib keladi;

4) qarz darajasining oshishi potentsial qarz olish imkoniyatlari va investitsiyalar oqimining cheklanishiga sabab bo'ladi.

XVJ bashoratlariga ko'ra, pandemiya natijasida 2020 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrda global iqtisodiy ishlab chiqarishning yo'qotilishi 28 trln. dollarni tashkil etadi. Birgina turizm sohasida 120 milliondan ziyod ish o'rnini yangidan tiklashning imkoni butunlay yo'qqa chiqadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) bankrotlik tufayli 40 foiz bank aktivlari xavf ostida qolishi mumkinligi haqida ogohlantirmoqda.

Masofadan turib ishni tashkil qilish hisobiga bunday xodimlarning ulushi rivojlangan mamlakatlarda 20 foizdan 25 foizgachani, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 20 foizgachani tashkil qiladi, bu o'z navbatida jamoat transporti, umumiy ovqatlanish korxonalari va chakana savdo shahobchalariga talabning qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Elektron tijoratning jadal rivojlanishi do'kon va restoranlarda kam haq to'lanuvchi ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelgani holda, onlayn-savdo va xizmat ko'rsatish markazlarida yangi ishchi o'rinlariga talabning oshishiga olib keladi.

Qo'yilgan cheklovlarining mehnat bozoriga ta'siri ishchilarni robotototexnika bilan almashtirishga undaydi.

Covid-19 pandemiyasi bilan bog'liq inqirozning tezkor rivojlanish tavsifiga ega ekanligi bir qator oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan muammolarni paydo qilmoqdaki, buning natijasida ehtimoli yo'qotishlarni baholash favqulodda mushkul vazifa hisoblanadi. Mazkur muammolar bilan bog'liq bo'lgan holda paydo bo'luvchi bir qancha savollarga javob izlab topish talab qilinadi, xususan:

- Covid-19 bilan bog'liq bo'lgan inqiroz qancha davom etadi;
- qancha ish o'rinlari vaqtinchalik cheklovlarga duch keladi yoki butunlay yopiladi;
- virusning yangi shtammlari bilan dunyo mamlakatlarining yana qancha qismi zararlanadi, buning natijasida iqtisodiy faollik qay darajada pasayadi, iqtisodiy tiklanish sur'atlari qanchalik sekinlashadi;
- koronavirus tufayli salbiy iqtisodiy samara o'zining eng past nuqtasiga qachon etadi;
- kasallikning yanada avj olishi tufayli kelgusida iqtisodiy faollik qay darajada bo'ladi;
- inqirozdan chiqish borasida milliy va global darajada pul-kredit va fiskal siyosatning qaysi shakl va usullaridan foydalangan ma'qul;
- inqirozning biznesga vaqtinchalik va doimiy ta'siri qanday bo'ladi;
- cheklovlar sharoitida ishlab chiqarishni qay tarzda tashkil etish maqbul sanaladi;
- iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va virus tarqalishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda iqtisodiy siyosat va sog'liqni saqlash borasida ilgari suriluvchi talab va ehtiyojlar o'rtasidagi nisbat qay darajada bo'lmog'i lozim?

Tan olib aytishimiz lozimki, bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti mavhumlik sharoitida rivojlanmoqda. Amerikalik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, pandemiya sharoitida iqtisodiy pasayishning asosiy omili bu iqtisodiy noaniqlik bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning qay darajada aniqligini belgilash borasida iqtisodiy siyosatning noaniqlik indeksi – Economic Policy Uncertainty (EPU) dan foydalaniladi. Agar 1997 yildan to 2017 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida EPU indeksini tahlil qilsak, dunyo yalpi

ichki mahsulotining uchdan ikki qismini ishlab chiqaruvchi dunyoning 18 ta mamlakatida iqtisodiy siyosatning noaniqlik indeksi 150- 300 oralig'ida o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, tahlilchilar pandemiya tufayli iqtisodiy siyosatning noaniqlik indeksi keyingi bir yarim yil ichida 450 punktdan pastga tushmayotganligini aytishmoqda.

Mana shunday noaniqlik hukm surayotgan bir paytda dunyo hamjamiyati mamlakatlari barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish borasida o'z dastur va rejalarini ishlab chiqib, hayotga izchil joriy qilishga intilmoqdalar. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari tajribasini o'rganish asosida pandemiya keyingi davrda mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda hatti-harakatlarni jamlashimiz lozim, degan xulosaga kelamiz:

- barcha hatti-harakatlarimizni bilimlar asosiga qurish. Bugungi kunda "bilimlar iqtisodiyoti"ga asoslangan milliy iqtisodiyotlarning taraqqiyotning cho'qqisiga erishganligi hech kimga sir emas.

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar pirovard natijada aholi farovonligiga, bir so'z bilan aytganda inson kapitali sifatini yaxshilashga xizmat qilishi lozim;

- butun dunyo mamlakatlari uchun ekologik xatarlar, erlarning cho'llanishi, tabiiy resurslar miqdorining keskin kamayib ketishi xavf solayotgan bir paytda "yashil iqtisodiyot" unsurlarini hayotga izchil joriy qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi;

- hech kimga sir emaski, hozirda dunyo tobora raqamlashib bormoqda, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot kundalik hayotimizga yanada chuqur kirib keldi, shundan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, istiqbolda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi raqamli iqtisodiyot unsurlarining qanchalik izchil joriy etilishiga bog'liqdir;

- iqtisodiy taraqqiyotga erishish sanoatlashtirishsiz amalga oshishi mushkul ekanligini bugungi hayotning o'zi ko'rsatib turibdi, shu bois taraqqiyotga erishishni istagan mamlakat sanoat ishlab chiqarishini jadal rivojlantirishga har tomonlama intilishi lozim;

- iqtisodiy taraqqiyotga erishishning yana bir muhim shart jadal integratsiyalashuv hisoblanadi. Bu borada keyingi yillarda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan faol ochiqlik siyosatini olqishlash lozim.

Ilmiy hamkorlik, informatsion resurslardan birgalikda foydalanish, tinchlik va barqarorlik yo'lida siyosiy va iqtisodiy intilishlarni birlashtirish orqaligina pandemiya eson-omon chiqib olishimiz mumkin-deb yozadi Hidistonning "Tanderberd" xalqaromenejment maktabi dekani Sandjiv Xagram (Sanjeev Khagram).

1972 yilda biolog olimlar Stiven Djeey Gould va Naylz Eldrejlar tomonidan uzluksiz muvozanat nazariyasi ilgari surilgan edi. Mazkur nazariyaga ko'ra, dunyoda tirik organizmlar populyatsiyasi tarixan qisqa, ammo murakkab sharoitlarda sezilarli darajada evolyutsion o'zgarishlarga uchraydi. Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning ta'kidlashlaricha, tirik organizmlarning evolyutsiyasi barqaror va davomli jarayon hisoblanmaydi, aksincha u biologik turlar yuqori bosim, xususan inqiroz sharoitiga tushib qolganida jadallashadi.

Hozirgi COVID-19 koronavirus infeksiyasi pandemiyasi sharoitida insoniyat huddi shunday murakkab vaziyatni o'z boshidan kechirmoqda. Insonlar, jamiyat va tashkilotlar ushbu inqiroz sharoitida sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalarki, bu holat biologik va raqamli dunyo chegaralarini birlashtirgani holda, to'rtinchi sanoat inqilobini tezlashtiradi. Pandemiya bizni XXI asr texnologiyalari-sun'iy intellekt, internet buyumlar, ijtimoiy media, raqamli o'qitish platformalari, virtual reallik, uchuvchisiz uchish apparatlari va shu kabilarga qanchalik bog'lanib qolganligimizni his etishga majbur qiladi. Bundan tashqari, bunday misli ko'rilmagan shart-sharoit va imkoniyatlar bizni raqamli, biologik va jismoniy texnologiyalarga ko'proq tayanishga

va bu istiqbolli texnologiyalarning yangi qadriyatlarini yaratish uchun qanday foydalanish mumkinligi haqida ko'proq bosh qotirishga undaydi.

To'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sanoatda axborot texnologiyalarini ommaviy joriy etish, biznes-jarayonlarni keng miqyosda avtomatlashtirish va sun'iy intellektni keng joriy qilishga asoslangan ishlab chiqarishga yangicha yondashuvni o'z ichiga oladi. To'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) tushunchasini ilmiy muomalaga dastlab 2016 yil Daos butunjahon iqtisodiy forumida nemis iqtisodchisi Klaus Shvab olib kirgan. Uning fikricha avvalgi inqiloblarda bo'lgani kabi, to'rtinchi sanoat inqilobi ham ishlab chiqarishga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib yuboradi. Sun'iy intellekt, robotlashtirish, uch o'lchamli chop qilish, internet buyumlar, bulutli texnologiyalar, virtual reallik, big-data, bio va neyrotexnologiyalar bizning kundalik hayotimizning ajralmas qisimga aylanib boradi.

Bugungi kunda dunyoda 7 milliarddan ortiqroq insonlar o'z-o'zini cheklash sharoitida kun kechirib kelmoqda. Bundan bir necha oy oldin tasavvurimizga sig'dirishimiz qiyin bo'lgan masofadan turib ishni tashkil qilish, masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yish bugungi kunda yangilik bo'lmay qoldi. Hozirda dunyoda 1,5 mlrd. talaba masofaviy tahsil olmoqda. Iqtisodiyotning turli sektor va sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar va biznes tuzilmalar o'zlarining biznes modellarini raqamli texnologiyalar asosida qayta qurishga intilmoqdalar.

Shuni ta'kidlash lozimki, muzonatli holatning keskin izdan chiqishi kuzatiluvchi tarixiy vaziyatlarda, iqtisodiyot hamisha yashab qolish uchun bor kuchi bilan intiladi. Aynan, mana shunday intilishlar natijasida jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborishga qodir bo'lgan yangiliklar va ixtirolar yaratiladi. Bugungi davrni olimlar "Antropotsen" deb atashadi, chunonchi insoniyat sayyoramiz ekotizimini shakllantirish borasida yetakchilik qiluvchi kuch sanaladi. Shu sababli, o'zgarishlarni his qilgan jamiyat hamisha dunyo hamjamiyatida yetakchilik qilib keladi, o'zgarishlarni vaqtida ilg'ay olmagan va bunday o'zgarishlarga moslasha olmagan jamiyatning kelajagi yo'q.

"Yangi O'zbekiston" gazetasi

O'qitish maqsadi: mamlakat iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida mavjud iqtisodiy siyosat modellarini tahlil qilish, jahonda ijobiy natijalar taqdim qilgan iqtisodiy o'sish modellaridan milliy iqtisodiyotda qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirishga doir bilimlarni shakllantirish.

Tayanch iboralar: iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, inson kapitali, innovatsion iqtisodiyot, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

6.1. Iqtisodiy rivojlanish omillari tasnifi

Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o'z mazmuniga ko'ra bir-birlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy

muvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

Iqtisodiy o‘shni tahlil qilishda neoklassik nazariya namoyondalari quyidagi noto‘g‘ri nazariy shartlarga asoslanadilar:

1. mahsulotning qiymati barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;
2. ishlab chiqarish omillarining har biri o‘zining keyingi qo‘shilgan mahsulotiga tegishli ravishda mahsulot qiymatini yaratishga hissasini qo‘shadi. Shunga ko‘ra, bunga javoban barcha keyingi qo‘shilgan mahsulotga teng keluvchi daromad ham oladi;
3. mahsulot ishlab chiqarish va buning uchun zarur bo‘lgan resurslar o‘rtasida miqdoriy bog‘liqlik mavjud;
4. ishlab chiqarish omillarining erkin tarzda amal qilishi hamda ular o‘rtasida o‘zaro bir-birining o‘rnini bosish imkoniyati mavjud.

Biz oldingi boblarda aytganimizdek, neoklassik va boshqa ayrim yo‘nalishdagi nazariyotchilar bu yerda ham ikkita uslubiy xatoga yo‘l qo‘yadilar:

1. ular ishlab chiqarish omillarining barchasi bir xil qiymat yaratadi, ular qiymatni yaratishda baravar ishtirok etadi, deb hisoblaydilar. Xolbuki, barcha ishlab chiqarish vositalari hech qanday yangi qiymat yaratmaydilar, balki o‘zlarining qiymatlariga teng miqdordagi qiymatni jonli mehnat yordamida yangi yaratilgan mahsulotga o‘tkazadilar. Lekin barcha omillar yaratilgan va o‘sgan (ko‘paygan) mahsulotning nafililigini yaratishda qatnashadilar;
2. ular doimo barcha omillar ichida jonli mehnatning faol rol o‘ynashini, qolganlari esa passiv rol o‘ynashini unutadilar. Chunki hech bir tabiiy resurs, kapital resurslari jonli mehnat tomonidan harakatga keltirilmasa, o‘zicha harakatga kela olmasligi, irib-chirib o‘z joyida ham jismonan, ham qiymati yo‘q bo‘lib ketishi, ularning qiymati faqat jonli mehnat tomonidan saqlab qolinishi million yillardan beri milliard martalab tasdiqlanib kelmoqda. Lekin negadir ularning bunga e‘tibor bergisi kelmaydi.

Neoklassik model ko'p omilli hisoblanib, amerikalik iqtisodchi P.Duglas va matematik Ch.Kobb yaratgan ishlab chiqarish funksiyasi asos qilib olingan. Kobb-Duglas modeli orqali ishlab chiqarish hajmining o'sishida ishlab chiqarish turli omillarining ulushini aniqlashga harakat qilinib, u quyidagicha ifodalanadi:

bu yerda:

Y – ishlab chiqarish hajmi;

K – kapital sarflari;

L – ishchi kuchi sarflari;

A, α , β - ishlab chiqarish funksiyasining koeffitsientlari:

A – mutanosiblik koeffitsienti;

α va β - ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi va kapital sarflari bo'yicha elastiklik koeffitsienti.

Elastiklik koeffitsienti bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi natijasida boshqa bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi darajasini ifodalaydi. Shunga ko'ra, α koeffitsienti kapital sarflarining 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini, β koeffitsienti esa ishchi kuchi sarflarining 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi. α va β ning yig'indisi ishchi kuchi va kapital sarflarining bir vaqtning o'zida 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.

Ch.Kobb va P.Duglas o'z tadqiqotlarida AQSh qayta ishlash sanoatining 1899-1922 yillar mobaynidagi ish faoliyatini tahlil qilib, ishlab chiqarish funksiyasining ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilganlar:

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'sha davrda AQSh qayta ishlash sanoatida kapital sarflarining 1%ga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini 0,25%ga, ishchi kuchi sarflarining 1%ga oshirilishi esa ishlab chiqarish hajmini 0,75% ga oshishiga olib kelar ekan.

Keyinchalik Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasini golland iqtisodchisi Yan Tinbergen yanada takomillashtirib, unga yangi omil – texnika

taraqqiyoti ko'rsatkichini kiritdi. Natijada ishlab chiqarish funksiyasi formulasi quyidagi ko'rinishni oldi:

$$Y=K^{\mu} \times L^{1-\mu} \times e^{\lambda \cdot t}$$

bu yerda: $e^{\lambda \cdot t}$ – vaqt omili.

Ishlab chiqarish funksiyasiga vaqt omilining kiritilishi endilikda nafaqat miqdor, balki “texnika taraqqiyoti” atamasi orqali uyg'unlashuvchi sifat o'zgarishlari – ishchi kuchi malakasining o'sishi, innovatsiya jarayonlarining kuchayishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashuvi, jamiyat miqyosida ma'lumotlilik darajasining oshishi va boshqalarni ham aks ettirish imkonini berdi.

Iqtisodiy o'sishning keynscha modeli makroiqtisodiy muvozanatning keynscha nazariyasini rivojlantirish va unga tanqidiy yondoshish natijasida vujudga kelgan. Bu modellar orasida ingliz olimi R.Xarrod va amerikalik olim E.Domarning iqtisodiy o'sish modellari e'tiborga molik hisoblanadi. Har ikkala modelning umumiy jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar orqali shartlanadi:

1) ular neoklassik modellardan farqli o'laroq bir omilli model hisoblanadi. Ya'ni bu modellarda milliy daromadning o'sishi faqat kapital jamg'arishning funksiyasi hisoblanib, kapital samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi kuchi bandligining oshishi, FTT yutuqlaridan foydalanish darajasining o'sishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi kabi boshqa barcha omillar nazardan chetda qoldiriladi; 2) ishlab chiqarishning kapital sig'imi ishlab chiqarish omillari narxlarining nisbatiga bog'liq bo'lmay, faqat ishlab chiqarishning texnik sharoitlari orqali aniqlanadi.

Neokeynscha modelda investitsiyalarning o'sishi iqtisodiy o'sish va uning sur'atlarini belgilovchi omil hisoblanib, u bir tomondan, milliy daromadning o'sishiga imkon yaratadi, ikkinchi tomondan esa, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi. O'z navbatida daromadning o'sishi bandlikning oshishiga imkon yaratadi. Investitsiya hajmining ko'payishi natijasida kengaygan ishlab chiqarish quvvatlari daromadning o'sishi orqali to'liq ishga tushirilishi lozim. Shunga ko'ra,

E.Domarning modelida quyidagi tenglik orqali muvozanatning ta'minlanishi shart qilib qo'yiladi.

Jahonda kechayotgan globallashuv va integratsiya sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillarini ekonometrik usullar va kompyuter texnologiyalari yordamida o'rganish, tadqiq qilish va ularni ilmiy asosda miqdoriy baholash zarur hisoblanadi. Umuman, bular, nafaqat butun iqtisodiyotning rivojlanishini tartibga solishda, balki tarmoqlar, birlashmalar va korxonalar rivojlanish ko'rsatkichlarining tahlilida, ular uchun uzoq muddatli prognozlar tuzishda ham e'tiborga olinishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillarini, talab va taklif tomon omillari, kabi guruhlash asosiysidir. Umuman, talab va taklif omillari o'zaro bog'liqdir. Jami talab oshsa va qo'shimcha resurslardan samarali foydalaniladigan bo'lsa, ishlab chiqarish potentsialining, taklifning oshishi kuzatiladi. Jami talab miqdori, uning o'zgarishlari va taqsimlash va iste'mol mexanizmining takomillashishi eng muhim omildir, lekin bu qanchalik muhim bo'lmasin, uzoq muddat qaralganda, iqtisodiy o'sish natijalari, taklif va ishlab chiqarish tomondagi omillar (xususan, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, inson salohiyati omili, intensiv omillar, 6.1-jadval) bilan belgilanadi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi mezon va ko'rsatkichlarni aniq bilish, ularning qaysi omillarga va qanday bog'liqliqda ekanligini aniq tasavvur qilish ham o'ta muhimdir. Iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini, aslida, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan birginasi emas, ularning kompleksi bo'yicha baholash mumkin.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning va makroiqtisodiy barqaror-likning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM), milliy daromad (MD) ning qator yillar davomida o'sishi (YaIM, MD o'sishi aholi o'sishidan yuqoriligi);
- aholi real daromadlarining o'sishi;

- aholi daromadlarida jamg'armalar ulushining ortishi;
- inflyatsiya darajasining tabiiy minimumi;
- ishsizlik darajasining tabiiy minimumi;

6.1-jadval.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar majmuasi

Miqdoriy xarakteristikaga ega omillar	Sifat omillari	Shartli (ballarda) baholanadigan omillar
Asosiy (birinchi darajali) omillar	Ikkinchi darajali omillar	Tasodifiy omillar
Bevosita kuzatiladigan (o'lchanadigan) omillar	Bevosita kuzatilmaydigan (o'lchanmaydigan) omillar	
Murakkab (kompleks) omillar	Oddiy (birlamchi) omillar	
Ichki omillar	Tashqi omillar	
Juda chuqur yashirin (yuqori tartibli) omillar	Yashirin (2-tartibli latent) omillar	Yuzaki ko'zga tashlanadigan (1-tartibli) omillar
Rostlanuvchi (boshqariluvchi) Omillar	Qisman rostlanuvchi omillar	Tartibga solinmaydigan omillar
Qisqa muddatli	O'rta muddatli	Uzoq muddatli ta'sirlar
Talab tomon omillari		Taklif tomon omillari
Iqtisodiy rivojlanishni bevosita tezlashtiruvchi omillar	Iqtisodiy rivojlanishga bilvosita ijobiy ta'sir etuvchi omillar	Iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiruvchi omillar (unga tahdidlar va xavflar)
Intensiv omillar	Ekstensiv omillar	Sintetik omillar
Iqtisodiy-ijtimoiy	Ilmiy-texnikaviy	Ma'naviy, ruhiy, axloqiy, siyosiy, ekologik, tabiiy-geografik tarzdagi va hokazo.

- davlat byudjeti kamomadi minimumi;
- joriy to'lov hisobi balansi kamomadi;
- tashqi va ichki qarzlarning barqarorlikka xavfsiz chegaradan oshmasligi;
- samaradorlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi (xususan, YaIMda energiya sig'imi ko'rsatkichining kamayishi; sanoat mahsulotlari material sig'imining kamayishi; qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligining oshishi; mehnat unumdorligining o'sishi; ishlab chiqarish rentabelligining oshishi; eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining oshishi).

Bular orasidan eng asosiysi, ya'ni eng asosiy makromaqsad: ishsizlik va inflyatsiyaning tabiiy minimumida maksimal iqtisodiy rivojlanishga (aholi turmush darajasining maksimumiga) erishishdir. Albatta, qolganlari ham, muhim, o'ta

zaruriy shartlardir. Shunday ekan, aynan ushbu makromaqsad bilan, shunday barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sish bilan bog'liq muammolar va ko'rsatkichlar asosiy hisoblanishi va aynan shularni o'rganish, shularga e'tiborni qaratish muhimdir.

Ma'lumki, BMT tomonidan iqtisodiy o'sishning va turmush darajasining asosiy indikatorini sifatida jon boshiga yalpi mahsulot (YaIM) yoki milliy daromad ko'rsatkichi tavsiya etilgan. YaIMning o'sishi to'g'ridan-to'g'ri aholining turmush darajasiga ta'sir qiladi. YaIMning o'sish sur'ati (dQ/Q) aholining o'sish sur'atidan (dL/L) qancha yuqori bo'lsa, uning turmush darajasi ham shuncha yuqori darajada o'sadi. Demak, bularni, iqtisodiy aksioma sifatida qabul qilib, sanalgan va quyida yana aniqlanadigan mezon va ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olishimiz zarur. Boshqa tomondan, YaIMning o'sishi, o'sib borayotgan aholini ish bilan ta'minlashda ham muhimdir. Shuning uchun ham, har bir mamlakatda davlat organlari iqtisodiy o'sishga o'z e'tiborini qaratadi va u davlatning iqtisodiy siyosatida muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiy rivojlanishning birlamchi manbasi - bu mamlakatdagi ishlab chiqarish omillari va resurslarning miqdori hamda sifatidir.

Asosiy ishlab chiqarish omillari quyidagilardan iborat:

- kapital - binolar, inshootlar, jihozlar, uskunalar, texnologik liniyalar va h.k.;
- mehnat - malakali va malakasiz mehnat, boshqaruv mehnati; hozirgi sharoitda tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo'lgan o'ziga xos mehnat resurslarini ham alohida ajratish muhim;
- axborotlar - ayniqsa, bozor segmentlari va talab bo'yicha, tovarlarning narxlari bo'yicha axborotlar, xomashyo, uning sifati, miqdori, yangi texnologiyalar, yangi uskuna-jihozlar va yangi mahsulotlar to'g'risidagi axborotlar rivojlanish uchun muhimdir; hozirgi sharoitda har qanday iqtisodiy faoliyatni kerakli axborotlarsiz va bilimlarsiz tasavvur qilish qiyin;
- materiallar - xomashyo, elektr energiyasi, gaz, butlovchi qismlar va yarimfabrikatlar. Xomashyo manbasining etarli darajada bo'lishi, ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy rivojlanishning yana bir muhim manbasi va omili - ilmiy-texnik taraqqiyot (ITT) dir. ITTning asosiy ko'rsatkichlari - bir yil davomida yaratilgan yangi jihozlar, uskunalar, texnologiyalar soni va ularni ishlab chiqarishga joriy qilinishi, yangi kashfiyotlar bo'yicha patentlar, ratsionalizatorlik takliflari soni, har ming kishiga to'g'ri keladigan mutaxassislar soni (ayniqsa, zamonaviy yo'nalishdagi oliy ma'lumotli mutaxassislar, fan nomzodlari, fan doktorlari, akademiklar soni).

Iqtisodiy rivojlanishning yana bir manbai - bu ishlab chiqarishni tashkil etishning yuqori samarali shakllari, xususan, ichki va tashqi ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiyalashdir.

Iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari, manbalari va omillarini o'rganish, ularning ishlab chiqarishning o'sishiga ta'sirini miqdoriy tahlil etish, ulardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini ochishga yordam beradi. Iqtisodiy rivojlanishni o'rganishda va omillar ta'sirini miqdoriy baholashda ishlab chiqarish funksiyasidan (IChF) foydalanish maqsadga muvofiq. Ishlab chiqarish funksiyasi - ishlab chiqarishga jalb qilingan asosiy ishlab chiqarish omillari (taklif tomon omillari) va ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori o'rtasidagi miqdoriy bog'lanishni aks ettiradi.

Iqtisodiy rivojlanishga yangi yondashuvlardan biri investitsiyalarga va ularning tashqi samarasiga asoslanadi. Investitsiyalar - nafaqat mehnatning, balki kapitalning ham samaradorligini oshiradi va "tashqi ijobiy ta'sirlarga" ega. Investitsiyalarning bu "tashqi samarasi" ko'pincha bevosita baholanmaydi, shuning uchun kapitalning iqtisodiy o'sishga qo'shgan "hissasi" odatda kamroq baholanadi. Ayniqsa, inson omiliga investitsiyalar o'ta muhimdir.

Jahonda va O'zbekistonda oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan munosabatda kuzatilayotgan ba'zi yangi tendentsiyalarni ko'rib o'tamiz. Keyingi paytlarda an'anaviy miqdoriy iqtisodiy o'sish nazariyalaridan inson salohiyotining barqaror rivojlanish kontsepsiyasiga o'tish kuzatilmoqda.

“Inson salohiyoti taraqqiyoti indeksi” (ISTI) - nafaqat moddiy farovonlikning oshishi, balki ta’lim, sog’likni saqlash, atrof-muhit muhofazasi kabi omillar bilan ham bog’liq. Ushbu indeks e’tiborga oladigan va baholaydigan asosiy ko’rsatkichlar: aholi jon boshiga real YaIM, o’rtacha kutiladigan umr va ma’lumot darajasidir.

ISTI indeksi 0 va 1 oralig’ida o’zgaradi. ISTI qanchalik yuqori bo’lsa, inson salohiyati rivojlanishi ham shunchalik yuqori bo’ladi.

Iqtisodiy jihatdan an’anaviy muammoning: mehnat unumdorligiga inson sifatleri va xarakteristikalarining ta’siri muammosining ham roli behad ahamiyatlidir, chunki “mehnat potentsialining” muhim komponenti - aholining ma’lumot va ta’lim olish darajasidir.

6.2. Iqtisodiy rivojlanishni aks ettiruvchi asosiy modellar

Barcha rivojlangan mamlakatlarda matematik va instrumental usullar va modellar, ham amaliy masalalarni echishda, ham ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni nazariy o’rganishda ishlatiladi. Yangi kompyuterlar va axborot texnologiyalarning takomillashib borishi jarayonida makroiqtisodiy ustuvor masalalarni echishda bu usullar va modellarning roli yanada oshib boradi. Xususan, dinamik tarmoqlararo balanslar (DTAB) modellarini boshqa modellar bilan birgalikda qo’llash, tashqi aloqalarni e’tiborga olish, zarurligi yuqorida eslatilgan tizimli va situativ yondashuvlar yanada dolzarb bo’lib boradi. Jahon miqyosidagi globallashuv va integratsiya jarayoni shuni taqozo qiladi.

Nazariy jihatdan ham makroiqtisodiy tahlil va prognozning turli bosqichlari, darajalari va muddatlari bo’yicha bu modellarni tartiblash va tasniflash talab qilinadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni o’zida aks ettirish imkonini beruvchi makromodellarning asosiy turlari va tasnifi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

Makroiqtisodiy modellarning tasnifi

№	Tasniflash alomatlari	Makroiqtisodiy modellarning asosiy turlari
1	Ilmiy-metodologik asos	Neoklassik, keynscha, monetar, endogen o'sish nazariyalari
2	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar turlari	Rivojlangan industrial va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti, o'tish davri iqtisodiyoti makromodellari; abstrakt makromodellar
3	Makroiqtisodiy maqsad, dasturiy vazifa	Nazariy tahlil, prognoz, milliy iqtisodiyotni rostdash va moliyaviy dasturlash; kontseptual-nazariy, konstruktiv va amaliy (davlat organlari, vazirliklar tomonidan ishlatiladigan va ishlatilmaydigan); empirik, grafik (illyustrativ) va analitik modellar
4	Asosiy muammoli	Iqtisodiy muvozanat (shartlari), muvozanatli o'sish, balanslangan o'sish (shartlari), magistral traektoriya bo'yicha rivojlanish va optimal iqtisodiy o'sish (optimallik shartlari)
5	Dinamika	Statik, kinematik (ko'p davrli, ko'p qadamli), dinamik makromodellar; iqtisodiy jarayonlar (tsikllar) e'tiborga olingan, olinmagan makromodellar; optimallik, magistral xossalr e'tiborga olingan, olinmagan dinamik makromodellar
6	Vaqt koordinatasi	Diskret (uzlukli-farqlar tenglamalari), uzluksiz vaqtli (differentsial tenglamalar)
7	Funksional bog'lanishlar turi	Chiziqli, qavariq, nochiziqli (kvadratik, eksponentsial va b.)
8	Stoxastika (ehtimollik elementi)	Stoxastik, determinatsiyalashgan makromodellar
9	O'lchami (sektor yoki tarmoqlar soni)	Bir sektorli, ikki sektorli va ko'p sektorli; kichik (kam) o'lchamli, o'rta va ko'p o'lchamli (katta makroekonometrik modellar, KMEM)
10	O'lchov birligi	Miqdoriy-natural, pul-qiyamat (doimiy va joriy narxlarda); absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar
11	Ko'rib chiqish muddati	Qisqa, o'rta va uzoq muddatli
12	Butun iqtisodiy tizim yoki ba'zi alohida elementlari; boshqarish darajalari	Global, lokal; butun iqtisodiyotning makromodeli, tovarlar, xizmatlar, mehnat, kapital, valyuta bozori modellari; tashqi aloqalar e'tiborga olingan va olinmagan modellar; iste'mol, jamg'arma, investitsiyalar modellari; boshqarish darajalariga mos
13	Tashqi bog'lanishlar	Ochiq va yopiq modellar; kapital oqimi erkin, cheklangan, yo'q; valyuta almashuv rejimlari e'tiborga olingan, olinmagan makromodellar
14	Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot	Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot e'tiborga olingan, olinmagan makromodellar; ekzogen, endogen ITTli (avtonom, neytral ITTli)
15	Muvozanat	Dinamik muvozanat e'tiborga olingan, olinmagan

16	Balans, optimallashtirish shartlari	Balans modellari, optimizatsiya modellari, ekonometrik modellar; matematik-statistik; imitatsion va h.k.
17	Tarmoqlararo balanslar (TAB)	TABga asoslangan, asoslanmagan makromodellar
18	Indikatorlar	Indikatorlar qatnashgan, qatnashmagan modellar
19	Stsenariylar	Stsenariylar imkonini beradigan, bermaydigan
20	Kompyuter dasturlari	Standart dasturiy ta'minotga ega, o'rta murakkablikka ega, o'ta murakkab (xususan, evristik) modellar; qisqa muddatli makroindikativ rejalar, uzoq muddatli strategik reja-prognozlar tuzish, monitoring va maslahat axborot tizimlari
21	MHT ma'lumotlari	MHT ma'lumotlari etarli, etarli emas; MHTga asoslangan, asoslanmagan makromodellar
22	Asosiy ifodalash shakli	Grafik, tahliliy, algoritmik va aralash

Makromodellar dinamik yoki statik turlarga bo'linadi. Barqaror va muvozanatli iqtisodiy o'sish dinamikasini – shunga mos dinamik modellar asosida o'rganish kerak. Ma'lumki, dinamik modellarda vaqt uzluksiz (t) yoki diskret tarzda (?) bo'lishi mumkin. Shuningdek, makromodellar chiziqli va nochiziqli turlarga bo'linadi. Bunday tasniflash alomatlari va shularga asoslanib ajratiladigan modellarning turlari 6.2-jadvalda ko'rsatilgan.

Makroiqtisodiy tahlil usullari va modellarning tasnifi ularning funktsional vazifalariga qarab ham bajarilishi mumkin. Masalan, mamlakat iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy jarayonlarni o'rganishda rivojlanishning umumiy tendentsiyalari va qonuniyatlarini ifodalovchi modellarni, makroiqtisodiy indikatorlarni, tahlil va prognoz qilish modellari, ichki va tashqi “turtkilarni” (shoklar) aks ettiruvchi, ularning iqtisodiyotning real sektorlariga ta'sirini baholovchi modellarni alohida ajratish kerak.

Bulardan tashqari, ba'zi amaliy masalalarni echishda umumiyroq tarzdagi modellar bilan birga, xususiy amaliy modellarni, jumladan, Milliy hisoblar tizimi

(MHT)ga, boshqa ma'lumotlarga asoslangan ekonometrik modellarni ham qo'llash mumkin va muhimdir.

Shuningdek, jami talab (QD) va taklif (QS) muvozanati dinamikasi modellarini, jami talabning asosiy tarkibiy qismlari: iste'molga sarflar (C), investitsion sarflar (I), davlat sarflari (G) modellari, jami taklif funktsiyasi sifatida qarash mumkin bo'lgan ishlab chiqarish funktsiyalarini (IChF), tovarlar, xizmatlar, kapital, mehnat, pul, valyuta bozorlarining umumiy muvozanati modellarini ham, qisqa muddatli prognozlar uchun ishlatish mumkin.

Aniq raqamlarga asoslangan katta makroekonometrik modellar biror mamlakat yoki jahon iqtisodiyotini ifodalovchi, yuzlab ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlarni aks ettiruvchi modellardir. Bularni amalda tuzish uchun ko'p mutaxassislar ishtiroki, ko'plab ma'lumotlar va kompyuterlar kerak bo'ladi. Ular, endogen (ekzogen) o'zgaruvchilarning konkret qiymatlariga ekzogen (endogen) o'zgaruvchilarning qaysi qiymatlari mos kelishini ko'rsatadi. Shuningdek, kichik o'lchamli makroekonometrik modellarning ham o'z o'ri bor. Iqtisodiy rivojlanishning yana bir tur modellarida vaqt lagi (vaqt bo'yicha kechikib bo'ladigan ta'sirlar) ham ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy o'sishga ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning (ITT) ta'sirini makromodellarda e'tiborga olishning ikki asosiy varianti bor: avtonom (ekzogen) ITTlik modellar va endogen ITTlik modellar. Bu modellar – mamlakat, hudud va katta korxonalar uchun ishlab chiqarishning uzoq muddat davomida fan va texnika yutuqlarini qo'llab o'sishini ifodalaydi.

Ko'p sektorli modellardan nisbatan chuqurroq o'rganilganlari tarmoqlararo balanslar (TAB) modellariga asoslanadi. TAB: bir tomondan, iqtisodiy o'sish maqsadlarini va omillarini o'zaro moslash uchun, ikkinchi tomondan, mumkin bo'lgan (potentsial, mobilizatsion) iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholash uchun qo'llaniladi.

Muvozanatli va balanslangan iqtisodiy rivojlanish – ishlab chiqarish omillarining (kapital, mehnat va h.k.), iste'mol va jamg'arma-larning o'zaro mutanosib bo'lishini talab qiladi.

6.3. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatorlari

Barcha mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishni ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, yalpi milliy mahsulot (YaMM) hisoblanadi. Chunki, YaMM mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidir. Uning asosida milliy iqtisodiyotning qanchalik samarali faoliyat olib borayotganligini aniqlash mumkin.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) ni hisoblash usullarini o'rganishdan oldin makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarga to'xtalib o'tamiz. Bu ko'rsatkichlarga:

- yalpi milliy mahsulot (YaMM), yalpi ichki mahsulot (YaIM), milliy daromad (MD);
- davlat byudjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari;
- ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;
- aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar kiradi.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini ifodalab, ijtimoiy ishlab chiqarishda barcha qatnashuvchilar (korxonalar, tarmoqlar, mintaqalar, davlat) va uy xo'jaligi faoliyatlari natijalari asosida aniqlanadi. Milliy hisoblar tizimiga ko'ra asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich YaMM ko'rsatkichi hisoblanadi va u iqtisodiyotda bir yil davomida ishlab chiqarilgan yakuniy tovar va xizmatlar jami hajmining bozor bahosi yig'nazar mahsulot joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hisoblanadi. Shu munosabat bilan YaMM tushunchasi ma'lum darajada izoh talab qiladi.

Birinchi, YaMM yillik ishlab chiqarishning bozor qiymati orqali o'lchanadi va pulda ifodalanuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Turli yillarda ishlab

chiqarilgan har xil mahsulotlar miqdorini solishtirish uchun ularning nisbiy qiymatini bilish lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bir marta hisobga olinish kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shu sababli YaMMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun, faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

Pirovard mahsulot iste'mol uchun sotib olinadigan tugal mahsulot (tovar va xizmat) lardir.

Oraliq mahsulot deganda, qayta ishlash yoki sotish uchun sotib olingan tovar va xizmatlar tushuniladi. YaMMda mahsulotlarning yakuniy sotish qiymati hisobga olinadi, oraliq qiymat esa hisobga olinmaydi. Chunki, oraliq qiymat hisobga olinsa ayrim mahsulotlar qiymati ko'p marta hisobga olingan bo'lar edi. Milliy daromadni hisoblashda ikki yoqlama hisobga olmaslik uchun, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni har tomonlama o'rganib chiqish va faqat, har bir firmada yaratilgan qo'shilgan qiymatni hisobga olish zarur. Qo'shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosidan ularni ishlab chiqarish uchun sotib olingan xomashyo va materiallar qiymati ayirib tashlanib topiladi.

Uchinchidan, YaMMga noishlab chiqarish bitimlari bo'yicha tushumlar qo'shilmaydi. Noishlab chiqarish bitimlariga sof moliyaviy bitimlar va ishlatilgan tovarlarni sotish kiradi.

Moliyaviy bitimlar o'z navbatida uchta asosiy turga bo'linadi: davlat byudjetidan transfert to'lovlari, xususiy transfert to'lovlar va qimmatli qog'ozlarni sotish.

Davlat byudjetidan transfert to'lovlariga ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar, ishsizlarga va nafaqaxo'rlarga, nogironlarga va kam daromadli oilalarga beriladigan nafaqalar, talabalarga stipendiyalar kiradi. Davlat transfert to'lovlarining asosiy xususiyati shundaki, nafaqaxo'rlar nafaqa evaziga davlatga

hech narsa bermaydi. Xususiy transfert to'lovlariga masalan, talabalarga ota-onasi beradigan pul va qarindosh urug'lari beradigan bir martalik to'lovlar kiradi.

Sotilgan qimmatli qog'ozlar (aktsiya va obligatsiyalar) va ishlatilgan tovarlarni sotish ham YaMM tarkibiga kiritilmaydi, chunki, bunday tovarlarni sotish joriy ishlab chiqirashni bildirmaydi (6.3-jadval).

6.3-jadval.

YaMM ikki xil usulda - ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlari bo'yicha aniqlash

Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha	Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar bo'yicha
1. Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari. 2. Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi xususiy ichki investitsiyalar. 3. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi. 4. Sof eksport.	1. Daromadlarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan xarajat va to'lovlar (amortizatsiya va biznesga bilvosita soliqlar). 2. Ish haqi. 3. Renta to'lovlari. 4. Foiz. 5. Individual mulkdan olingan daromad. 6. Korporatsiyalar foydasi.

To'rtinchidan, YaMMni hisoblashda ikki tomonlama yondashiladi. Birinchi yondashuvda YaMM iste'molchilarning yangidan yaratilgan yakuniy mahsulotlarni sotib olishga ketgan barcha xarajatlari miqdori bo'yicha aniqlanadi. Bu usul YaMMni hisoblashning xarajatlar usuli deyiladi. Ikkinchi yondashuvda esa YaMM tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan daromadlarning yig'indisi miqdori asosida aniqlanadi. Bu usul YaMMni daromadlar yordamida aniqlash usuli deyiladi.

YaMMni ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisoblashda asosan pirovard mahsulot va xizmatlarni yaratishga ketgan barcha xarajatlar hisobga olinadi. Bularga:

Uy xo'jaligining iste'moli xarajatlari (C):

- a) uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari;
- b) kundalik foydalaniladigan iste'mol buyumlari;
- v) iste'mol xizmatlariga ketadigan xarajatlar.

Yalpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):

- a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olish;
- b) korxonalar, omborlar, turarjoy binolarini qurishga sarflangan xarajatlar;

v) tovar zahiralari o'rtasidagi farqlar yoki zahiralarning o'zgarishlaridan iborat bo'ladi.

Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G) bo'yicha xarajatlarga, chunonchi, mahalliy va markaziy boshqaruv hokimiyat idoralari tomonidan korxonalarining pirovard mahsulotlar va resurslar xaridi (qurol-yarog' sotib olish, avtomobil yo'llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to'lanadigan ish haqi) xarajatlari kiritiladi. Lekin, bu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovlari kiritilmaydi.

Sof eksport (X_n) yoki mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq (6.4-jadval).

Shunday qilib, YaMMni xarajatlar orqali hisoblash, asosan yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 guruh xarajatlari orqali olib boriladi.

YaMM xarajatlar bo'yicha quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$YaMM = S + I + G + X_n.$$

YaMMni ishlab chiqaruvchilarning barcha daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

birinchidan, iste'mol qilingan kapital hajmi (CCA) yoki amortizatsiya, ya'ni, joriy yildagi YaMMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan investitsiya tovarlarini sotib olishga mo'ljallangan ajratmalar bo'yicha ko'rsatkichlardan;

ikkinchidan, biznesga egri soliqlar (T) - mahsulot bahosini oshiruvchi, ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan xarajatlar, hisoblanadi. Jumladan, sotishdan olinadigan soliq, aktsizlar, mulkka soliqlar, litsenziya to'lovlari va bojxona bojlari bo'yicha ko'rsatkichlar;

uchinchidan, yollanma ishchilarning ish haqlari (W), ya'ni xususiy va davlat kompaniyalarining ish haqi to'lashga sarflagan umumiy xarajatlari (ish haqi va quyidagi qo'shimchalar: ijtimoiy sug'urta, nafaqa, bandlik va boshqa ijtimoiy fondlarga ajratmalar hamda badallar) bojlari bo'yicha ko'rsatkichlar;

to'rtinchidan, ijara haqi ($R1$), xususan, bu iqtisodiyotni mulk resurslari bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining daromadlari (masalan, ijaraga berilgan turarjoylar, binolar, asbob-uskunalar, yer va boshqalardan olinadigan daromadlar) bo'yicha ko'rsatkichlar;

beshinchidan, foiz stavkalari yoki foizli daromadlar (R) - pul kapitalini etkazib beruvchilarga xususiy biznes daromadidan pul to'lovlari bo'yicha ko'rsatkichlar;

oltinchidan, mulkdan keladigan daromad yoki foyda (P), mulk egalarining daromadlari va korporatsiyalar olgan foyda ko'rsatkichlaridan.

Korporatsiyalarning foydasi quyidagilarga bo'linadi;

- a) olgan foydaga soliq yoki foyda solig'i;
- b) hissadorlar o'rtasida taqsimlanadigan dividendlar;
- v) taqsimlanmagan foyda.

6.4-jadval.

Yalpi milliy mahsulotni aniqlashga ikki xil yondashuv.

№	YaMMni tovar va xizmatlar sotib olishga mo'ljallangan barcha xarajatlar bo'yicha o'lchash	Shartli belgilar	Miqdor
1.	Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari	S	63,0
2.	Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi xususiy ichki investitsiyalar	I	18,0
3.	Tovar va xizmatlarning davlat xaridi	G	21,0
4.	Sof eksport	Xn	-2,0
Jami: YaMM = $S + I + G + Xn$		Y	100,0
YaMMni barcha daromadlar bo'yicha o'lchash			
1.	Iste'mol qilingan kapital hajmi	A	9,0
2.	Biznesga egri soliqlar	T	7,0
3.		Yollanma ishchilarning ish haqlari va	
Ijtimoiy sug'urta ajratmalari		W	61,0
4.	Ijara haqi	$R1$	1,0
5.	Foiz stavkasi	$R2$	7,0
6.	Individual mulkdan olinadigan daromadlar	$P1$	6,0
7.	Korporatsiyalar foydasiga soliqlar	$P2.1$	5,0
8.	Dividendlar	$P2.2$	2,0
9.	Taqsimlanmaydigan foydalar	$P2.3$	2,0
Jami: YaMM = $A+T+W+R+R1+P1+P2.1+P2.2+P2.3$		Y	100,0

Mamlakat milliy hisobchilik tizimida, YaMM ko'rsatkichidan tashqari, o'zaro aloqada bo'lgan bir nechta ko'rsatkichlar mavjud. Milliy hisobchilik tizimi to'g'risidagi tushunchalarni kengaytirish uchun aynan shu ko'rsatkichlarning tashkil topish manbalarini o'rganamiz. Bu ko'rsatkichlar sirasiga YaIM, SMM, MD, ixtiyordagi daromad va soliqlar to'langandan keyingi daromadlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni kiritishimiz mumkin.

YaIM ham YaMM kabi moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar natijasida tashkil topadi.

YaIM - bu biror mamlakat hududida joylashgan korxonada va tashkilotda ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy yig'indisidan iborat. YaIM YaMMdan muayyan mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarining xorijdan oladigan foyda va daromadlari hamda xorijiy investorlar shu mamlakatda olgan foyda va daromad o'rtasidagi farqlar bo'yicha ajralib turadi. Ya'ni:

YaMM =	YaMM +	Muayyan mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarining xorijdan oladigan foyda va daromadlari	-	Xorijiy investorlar va ishchilarni shu mamlakatda olgan foyda va daromadlari
---------------	---------------	--	----------	---

YaMMni hisoblashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilishi tabiiy. Chunki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga shu mahsulotni ishlab chiqarishda iste'mol qilingan asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati qo'shiladi. Shuning uchun ham milliy hisobchilik tizimida SMM ko'rsatkichi hisoblanadi. SMMning YaMMdan farqi, yuqorida aytganimizdek, amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng.

MD - bu, milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir. Demak, MD resurslarni etkazib beruvchilarning, shuningdek, boshqaruv xodimlarining hisobot yilidagi daromadlari miqdorini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, davlat o'zi oladigan biznesga egri soliqlar o'rniga ishlab chiqarishga hech narsa qo'ymaydi,

ya'ni davlatni iqtisodiy resurslar ta'minotchisi sifatida baholamaymiz. Demak, joriy yilda yaratilgan YaMM tarkibidan ish haqi, renta to'lovlari, foiz va olingan foydalarning umumiy miqdorini aniqlashda biz SMM tarkibidan biznesga egri soliqlar miqdorini olib tashlashimiz lozim. Shunday usulda olingan ko'rsatkich milliy daromad (MD) hisoblanadi. Resurslar ta'minlovchilar nuqtai nazaridan MD joriy ishlab chiqarishda qatnashish natijasida olgan daromadlar miqdorini bildirsa, kompaniyalar nuqtai nazaridan ishlab chiqarish omillari bahosini bildiradi. MD joriy ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurslarning bozor bahosini anglatadi. (6.5-jadval).

6.5-jadval.

Milliy hisobchilik tizimida o'lchaniladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro nisbatlari (raqamlar shartli)*

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Miqdor
1. Yalpi milliy mahsulot	<i>YaMM</i>	100
«Minus», amortizatsiya	<i>A</i>	8
2. Sof milliy mahsulot	<i>SIM</i>	92
«Minus», biznesdagi egri soliqlar		12
3. Milliy daromad	<i>MD</i>	80
«Minus»- ijtimoiy sug'urta to'lovlari		-14
- daromad (foyda) solig'i		-10
- taqsimlanmaydigan daromad (foyda)		-12
«Plyus» Q transfert to'lovlari		+ 10
4. Shaxsiy daromad	<i>MD</i>	54
«Minus»- individual soliqlar		-8
6. Soliq to'langandan keyingi daromad, ya'ni ixtiyordagi daromad	<i>ID</i>	46

Milliy daromad SMM ning biznesga bilvosita soliqlarni olib tashlagach, qolgan qismidan iborat.

Ishlab chiqarishda mehnat qilish evaziga olingan daromadlarning bir qismi (ijtimoiy sug'rtalarga to'lovlar, korporatsiya foydasiga soliq va korporatsiyaning

taqsimlanmagan foydasi) amalda uy xo'jaligiga tushmaydi. Aksincha, ya'ni uy xo'jaligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadlarning bir qismi, (masalan, transfert to'lovlari) mehnat natijalarini bildirmaydi. Transfert to'lovlariga sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lanadigan, ya'ni, qarilikda va baxtsiz hodisalar ro'y berganda, shuningdek, ijtimoiy dasturlarga asoslangan holda ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, ishsizlarga va pensionerlarga to'lanadigan nafaqalar, iste'molchilar va davlat tomonidan to'lanadigan foiz to'lovlari va boshqa to'lovlar kiradi.

MDdan shaxsiy daromadlar ko'rsatkichiga o'tishda, aholi tomonidan haqiqatda ishlangan, ammo olinmagan daromadlarni olib tashlaymiz, shuningdek aholi tamonidan olingan, ammo joriy mehnat faoliyati natijalarini bildirmaydigan daromadlarni qo'shamiz.

Shaxsiy daromad hisoblangan daromadning individual soliqlar to'lagandan keyingi qismidir. Individual soliqlar - daromad solig'i, xususiy mol-mulklarga va meros qolgan mulklarga soliqlardan iborat.

YaMMni hisoblashda kompaniyalarning moliyaviy hujjatlaridan statistik ma'lumotlarni olamiz va ular YaMMning haqiqiy nominal ko'rsatkichini aniqlashga imkon beradi. Chunki, biror-bir yilda yaratilgan nominal YaMMning o'sishi bir tomondan ishlab chiqarish hajmining o'zgarishini, ikkinchi tomondan bahoning o'zgarishini bildiradi deya olmaymiz. Muammo shundan iboratki, qiymat (vaqt, miqdor) ko'rsatkichlarini shunday tuzatishimiz kerakki, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar fizik hajmining o'zgarishini aniq ifodalasin.

Bu muammo echimi iqtisodchilar tomonidan topilgan. Ya'ni, baholar o'sib borganda nominal YaMM ko'rsatkichi kamaytiriladi va aksincha baholar kamayib borganda ko'paytiriladi. Bu to'g'rilashlar turli yillarda YaMM ko'rsatkichlarini solishtirish imkonini beradi. Joriy baholarda (baholarning o'zgarishini hisobga olmagan holda) hisoblangan YaMM nominal YaMM ni bildiradi. Demak, bunga teskari ravishda inflyatsiya darajasini (ya'ni, baholarning o'sishi) yoki deflyatsiya

(ya'ni, baholarning kamayishi) darajalarini hisobga olgan holda hisoblangan YaMM real YaMM sanaladi.

Real YaMM = (Nominal YaMM bo'lingan baho indeksi)*100%.

6.4. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish tahlilining ekonometrik modellari

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish eng dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish uchun quyidagi sharoitlar yaratishi lozim: jamiyat a'zolarining farovonligini oshirish, kambag'allikni tugatish, insonni har tomonlama rivojlantirish, mehnat va ijtimoiy hayot jarayonini insonparvarlashtirish. Iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori sifatini maqsadli shakllantirish zamonaviy iqtisodiyot fani tomonidan o'rganilayotgan murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun zarur barcha ishlab chiqarish omillari, kapital tuzilmasini modernizatsiyalash, ijtimoiy munosabatlar tizimi va iqtisodiy agentlarning harakat modellarini jiddiy isloh qilish jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional taraqqiyotini hamda hayot sifatini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Global iqtisodiy inqirozning jamiyatga umumiy tizimli ta'siri zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifatiga erishish vazifasini dolzarblikdan hayotiy zarur toifaga o'tkazadi va uni hal etishni oliy milliy ustuvorliklar qatoriga kiritadi. Uning ta'sirida shakllangan ijtimoiy buyurtma zamonaviy bosqichga mos amaliy echimlarni izlashni faollashtiradi, bu esa qonuniy ravishda boshlang'ich nazariy qoidalar bazasini qayta anglashga va o'sish nazariyasi metodologiyasi kengayishiga olib keladi.

Olimlar e'tibori markazida iqtisodiyotni uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo'liga olib chiquvchi iqtisodiy faoliyatni intellektual-lashtirish jarayoning shartlari va omillarini aniqlash hamda tahlil qilishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish motivatsiyalari tizimini qurish vazifasi paydo bo'ldi. O'sib borayotgan ehtiyojlar, ijtimoiy ishlab chiqarish texnologik usuli va tuzilmasida fundamental transformatsiyalar jarayoni yuzaga kelmoqda. Yangi imkoniyatlar va harakatlantiruvchi rivojlanish kuchlari shakllanmoqda: o'sib boruvchi

mahsuldorlik sharti, multiplikativ tarmoq samaralari, intellektual texnologiyalar va intellektual renta.

Iqtisodiy o‘shish nazariyasi rivojlanishining an’anaviy yondashuvni engib o‘tayotgan zamonaviy bosqichi o‘ziga xosligi umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini belgilab beruvchi rivojlanishning antropotsentrik sifati nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda iqtisodiy tizim dinamik beqarorligining endogen manbalari va tizimning o‘zi ko‘payib borayotgan sifat o‘zgarishlari holatlarini yuzaga keltiradigan ijobiy teskari aloqa natijasida hosil bo‘ladigan tuzilmaviy o‘zgartirishlar samarasi asosiy masalaga aylanadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati O‘zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotning yaqin o‘tmishdagi juda qulay jahon kon’yunkturasi va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik ko‘rinishi sharoitidagi rivojlanish traektoriyasi bo‘ylab harakati inson kapitaliga keng miqyosli investitsiyalar kiritish va asosiy kapitalni ommaviy o‘zgartirish bilan birga olib borilmadi. Qayta o‘zgartirilgan iqtisodiy fe‘l-atvorning nisbiy qulayligi barqaror rivojlanish makroiqtisodiy dasturini amalga oshirish va tegishli institutlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy bilimlarning ushbu sohasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan doimiy izlanishlar olib borilayotganiga qaramasdan zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati kontseptsiyasi etarlicha ilmiy asoslanmaganligini qayd etishimiz mumkin. Tadqiqotchilik yondashuvlarining beqarorligi sharoitida zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati nazariyasining ko‘pgina qoidalari noaniqligi ilmiy munozara uchun sharoit yaratadi, iqtisodiy siyosat yo‘nalishlarini aniqlashtirishga xizmat qilmaydi. Inqirozdan chiqish yo‘llarini izlash va barqaror iqtisodiy rivojlanish traektoriyasini tanlash mazkur sohadagi metodologik-nazariy tadqiqotlarni chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish o‘z tabiatiga ko‘ra xususiyatlari tez o‘zgaradigan dinamik jarayon hisoblanadi, bu to‘plangan bilimlardan uning yangi sifatini tahlil qilish va iqtisodiyotning harakatlanish traektoriya-sini Bashoratlash

uchun foydalanishni sezilarli darajada murakkab-lashtiradi. Iqtisodiyotni intellektuallashtirish sharoitida zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati sohasidagi asarlarni tizimlashtirish darajasi etarlicha emas, bu uning sifat holatlari transformatsiyalarini, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va uning zamonaviy xususiyatlarini belgilovchi va uni yaxshilash dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlovchi institutlarni qo'shimcha tahlil qilish zaruratini belgilaydi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati iqtisodiyotni globallashtirish va intellektuallashtirish uning ichki omillariga aylanishi bilan belgilangan iqtisodiy rivojlanish sifat va miqdoriy xususiyatlari dinamik nisbati bilan belgilanadi. Ushbu asosda zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifati mazmuni ochib beriladi, u texnologik tartiblar almashuvi, texnologik taraqqiyotning ekzogen rivojlanish omilidan endogen omilga aylanishi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni va natijalariga intellektual mehnat ulushning ortishi, shuningdek, u zamonaviy texnologiyalarning nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga jadal kirib kelishi umumiy iqtisodiy tendentsiyalarini aks ettiradi.

Iqtisodiy faoliyatni intellektuallashtirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifatining umumlashtiruvchi belgisi ekanligi isbotlandi, bu harakatning innovatsion traektoriyasini tanlashda o'z ifodasini topadi va ijtimoiy ishlab chiqarish texnologik asoslari va tuzilmasida hamda zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining multiplikativ samaralaridagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotni intellektuallashtirish integral indeksini qurishning quyidagilarga asoslangan metodikasi ishlab chiqilishi lozim: 1) iqtisodiyotni intellektuallashtirish salohiyati, jarayoni va natijalarini aks ettiruvchi boshlang'ich ko'rsatkichlarni aniqlash; 2) boshlang'ich ko'rsatkichlarni iqtisodiyotni intellektuallashtirish integral indeksi oqilona tuzilmasini shakllantiruvchi alohida indeksdarga aylantirish usulini asoslash, uni baholash milliy iqtisodiyot rivojlanishining sifat xususiyatlarini aniqlashni ta'minlaydi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifati qaror shakllanishining strategik yo'nalishlari belgilanganda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: 1) uning maqsadi va asosiy omili sifatida inson kapitalining roli

ortib borishi; 2) iqtisodiyotning ilm va texnika talab ishlab chiqarishlar ustuvorligiga yo'naltirilgan diversifikatsiyasi; 3) iqtisodiyotni texnologik modernizatsiyalash va kompaniyalarning innovatsion faolligini rag'batlantirish; 4) barqaror agentlararo va tizimlararo aloqalar rivojlanishiga xizmat qiluvchi tub institutsional islohotlarni o'tkazish; 5) ijtimoiy sohaning faoliyati samaradorligini oshirish.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifatini faqat uni ijtimoiy-lashtirish tendentsiyasi va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash hamda saqlashga yo'nalganligini hisobga olgan holda aniqlash mumkinligi isbotlanadi. Ushbu isbotlash asosini aniqlangan tendentsiyalar tashkil qiladi: jamg'arishning nomoddiy shakllari rivojlanishi, iqtisodiy faoliyatni intellektuallashtirish, mehnatga nisbatan shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatidagi munosabtning shakllanishi.

Tuzilmaviy-iqtisodiy daraja pozitsiyasidan iqtisodiy rivojlanish-ning yuqori sifati tuzilmaviy diversifikatsiya vositasida ta'minlanadi, bu ilm talab ishlab chiqarishlar, xomashyoni qayta ishlash darajasi yuqori korxonalar ustuvorligiga hamda kapitalni nomoddiy jamg'arish infra-tuzilmasi rivojlanishiga olib keladi. Tahlilning ijtimoiy-iqtisodiy jihatida zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning inson ehtiyojlarini qondirishga relevantlik darajasi bilan belgilanadi, uning o'lchovi insonning mehnat jarayonida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlar mavjudligi hisoblanadi.

Iqtisodiy-matematik model tahlili asosida belgilangan resurs-maqсад cheklovlarida zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning texnogen jihatini yuqori darajada mutloqlashtirish "noiqtisodiy o'sish"ga o'tishga olib keladi. Foydalanilayotgan o'zgaruvchan miqdorlar tegishli ravishda, ta'sir kattaligi, aholi soni, farovonlik va texnologiyalar rivojlanish darajasini baholaydi.

Noiqtisodiy rivojlanishga o'tishning ehtimoliy stsenariysida iqtisodiy rivojlanishning maksimum samarasiga erishilgandan so'ng muqobil xarajatlarning ko'payib boruvchi oshishi namoyish qilinadi. Iqtisodiy zarar (*ED*) jahon yalpi

mahsulot ishlab chiqarish hajmidan (*GWP*) orta boshlasa, iqtisodiy rivojlanish noiqtisodiy rivojlanishga o'tadi.

Zamonaviy antropotsentrik iqtisodiy rivojlanish faqat iqtisodiy zarurat paradigmasi yangi yanada yuqori darajadagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan paradigmaga almashtirilgan holdagina amalga oshishi mumkin bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanishning tsikllar xususiyatini shu bilan izohlash mumkin.

Mehnat iqtisodiy zarurat sifatida anglash iqtisodiy rivojlanish chegaralarining mavjudligini taqozo etadi. Ayni paytda mehnatga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida qarash, ushbu chegaralarni olib tashlaydi. Aholining ko'plab yuqori ehtiyojlari turli-tuman va bitmas- tunganmas va shuning uchun iqtisodiy rivojlanish salohiyati ham rang-barang va cheksizdir.

6.5 . Inson kapitali iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi kuch sifatida

Mamlakatning innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tishi asnosida inson kapitali sifatini yaxshilash va uni boshqarish samaradorligini oshirish muammolari dolzarb ahamiyat kasb ettirib boradi. Tashkiliy-iqtisodiy va texnologik jarayonlardagi o'zgarishlar, ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida raqobat kurashining shiddatli tus olishi kabilar ish beruvchi va xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarni yangicha tartibda tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.


Mazkur jarayonlar tadqiqotchi olimlar tomonidan atroflicha keng va tor talqinda tavsiflab o'tilgan. Keng talqinga ko'ra, inson kapitali inson hayotiy faoliyatining turli ko'rinishlari (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat sohasi) orqali iqtisodiy faoliyatning bugungi darajasi talab qiluvchi ko'nikmalarni jamg'arish va ularni amalda qo'llash imkoniyatlarini va bu xil ko'nikma va tajribalarni shakllantirishga imkon beruvchi faoliyat sohalarining yaxlitligini ko'zda tutadi. Inson kapitalini shakllantirish va undan amalda foydalanish darajasini ta'lim, xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, axloqiy-madaniy saviyasini ko'tarish, salomatligini mustahkamlash kabilarga mablag' ajratish imkoniyatlari bilan belgilashimiz mumkin bo'ladi.

Inson kapitalining tor talqiniga ko'ra, inson kapitalini shakllantirish bilim, ko'nikma va malakalarni to'plashga qaratilgani holda, investitsiyalar kiritish orqali insonning butun hayot faoliyati davomida takrorlanib turvchi jarayon sifatida tavsiflanadi. Inson kapitali insonning faol mehnat faoliyati davomida asosan ta'lim va tarbiya sohasi orqali shakllanadi. Umumiy ta'lim va kasb-hunar ta'limi inson kapitali ko'lamini oshirishga yordam beradi, bilim va tajribani faoliyatga tatbiq etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Umumiy (asosiy) inson kapitali ko'pincha yoshlarning ta'lim muassasalarida (maktab, kollej, texnikum, kasb-hunar maktablari, institut va universitet) tahsil olish jarayonlari va oiladagi muhit ta'siri ostida shakllanadi.

COVID-19 dunyo mamlakatlarida mashaqqat bilan qo'lga kiritilgan inson kapitalining o'sishiga halokatli ta'sir ko'rsatmoqda. O'tmishdagi pandemiya va inqirozlarning sabog'i shundaki, ularning ta'siri bevosita aziyat chekkanlargagina emas, ko'pincha aholining barcha guruhlariga va aksariyat vaziyatlarda esa butun boshli avlodlarga ta'sir ko'rsatadi. Hozirda davom etayotgan inqirozdan olingan dastlabki saboq shundaki, dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun inson kapitalini tiklash va uning erishilgan darajasini qo'llab-quvvatlash uchun barcha hatti-harakatlarini birlashtirishlari talab qilinadi. Hayotning muayyan bosqichlarida, asosan, erta bolalik davrida muvaffaqiyatsizliklar - inson kapitalini to'plash borasida ayniqsa halokatli va uzoq muddatli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bolalikda ota-onalarning daromadlari va bolalar salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik ayniqsa kuchli bo'ladi. avvalgi inqirozlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, homilador ayollarning sifatsiz ovqatlanishi va ularning sog'liq darajasining yomonlashishi o'sha davrda tug'ilgan bolalarning katta bo'lganlarida kognitiv qobiliyatlarining yomonlashishi, surunkali kasalliklarga moyilligining ortishiga olib kelgan (Almon and Currie 2011). Hozirda davom etayotgan inqiroz iqtisodiy larzalar bilan birga pandemiyaning o'tkir bosqichida tibbiy xizmat ko'rsatishdagi uzilishlar bilan bog'liq holda tibbiy xizmatlar sifatining yomonlashishida ham o'z aksini topadi. Shu tariqa,

pandemiyaning davomiyligi vaqtinchalik bo'lsa ham, u uzoq yillar davomida o'z salbiy oqibatlarini ko'rsatishi mumkin.

Kambag'al oilalarning farzandlari pandemiya bilan bog'liq inqirozning oqibatlariga nisbatan kurashuvchanligi boshqa oilalarning farzandlariga nisbatan yanada past bo'ladi, bu esa mavjud tafovutni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Pandemiya paytida tug'ilgan yoki hozirda besh yoshga to'lmagan yosh bolalar uchun sog'liqni saqlash tizimidagi muvaffaqiyatsizliklar, tibbiy yordamdan foydalanishning qisqartirilishi va oila daromadining yo'qolishi bolalar o'limi, to'yib ovqatlanmaslik va o'sishdan orqada qolish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu bois o'sishdan orqada qolish va o'qitish natijalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lgani holda, pandemiya bu xil yoshlarni o'qitish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.



6.1-rasm. Insonning hayoti mobaynida inson kapitalining jang'arilishiga pandemiyaning ta'siri.

HCI asosida modellashtirish natijalariga ko'ra, past daromadli mamlakatlarda yosh bolalar inson kapitali darajasini bugungi kunda inson kapitalini COVID-19

mavjud bo'lmagan sharoitdagi darajasidan 1 foizga past bo'lishini kutishlari mumkin.

HCI, bugungi kunda tug'ilgan bolalarning kelgusi 18 yil mobaynida ushbu yosh oralig'idagi bolalar kabi bir xil ta'lim imkoniyatlari va sog'liq uchun xavfga ega bo'lishini taxmin qilib, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi yaxshilanishlarning keyingi avlod ishchilarining samarador-ligiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishga qaratilgan. HCI bolaning tug'ilishdan boshlab to katta yoshga to'lgunga qadar bo'lgan traektoriyasining asosiy bosqichlarini aks ettiradi. Dunyoning eng kambag'al mamlakatlarida bolaning o'z beshinchi tug'ilgan kunini ko'rmaslik borasida katta xaf mavjud. Maktab yoshiga etsa ham, uning maktabga bormaslik xavfi saqlanib qoladi. Hattoki, yuqori daromadli mamlakatlarda ham 14 yillik maktab ta'limi davrining 12 yillik maktab ta'limi davrini tugallashning o'zi ham odatiy holat hisoblanadi. Maktab va o'qituvchilar sifati ham bolaning o'qish davri davomiyligiga turlicha ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Bola 18 yoshga to'lgandan keyin ham, uning bolalikda to'yib ovqatlanmaganligi, salomatlik darajasining zaifligi kabi omillar uning katta bo'lgani sari jismoniy va aqliy qobiliyatlarining cheklanishiga olib keladi.

Xususiy inson kapitalini shakllantirish, uning sifatini yaxshilash orqali korxonalar va tashkilotlarda ishchi-xizmatchilarning kompetentligini oshirish korxonalar va korxonadan tashqarida amalga oshiriladi, bunda korxonalar va tashkilotlar xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga investitsiya kiritishdan yuqori darajada manfaatdor bo'ladilar. Inson kapitali kategoriyasini tavsiflashda har doim birinchi e'tibor umumiy inson kapitali, so'ngra esa xususiy inson kapitaliga qaratiladi. Inson kapitalini o'rganishda umumiy inson kapitaliga nisbatan xususiy inson kapitalini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini umumlashtirgan holda, iqtisodiyotning yetakchi tarmoq va sohalarida ishchi va xizmatchilarni maxsus tayyorlashga investitsiyalar oqimining ko'paytirilishi bilan ham izohlanadi.

Yuqorida bayon etilganlardan va shu bilan bir qatorda inson kapitalini ta'lim, malaka oshirish va ushbu jarayonlarga investitsiya kiritish nuqtai nazaridan o'rganishning dolzarbligini inobatga olgan holda, mazkur ilmiy-tadqiqot ishida "inson kapitalini shakllantirish" tushunchasining tor talqiniga amal qilgan holda ish ko'ramiz.

Bir so'z bilan aytganda, inson kapitali to'g'risida to'xtalar ekanmiz, insonning hayot faoliyati davomida inson kapitali bilan bog'liq bo'lgan ikkita bosqichni ajratib ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi, birinchi bosqichda inson kapitali shakllansa, ikkinchi bosqichda esa, shakllangan va jamg'arilgan inson kapitali ishlatiladi. Inson kapitalining shakllanishi aslida insonning butun hayotiy faoliyati davomida amalga oshadi va o'z navbatida inson kapitali shakllanishining bir nechta bosqichlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi (6.6-jadval).

6.6-jadval.

Insonning hayotiylik tsikli davomida inson kapitalining shakllanish bosqichlari

Inson kapitalini shakllantirish	I bosqich – umumiy inson kapitali			II bosqich – xususiy inson kapitali	III bosqich
	Insonning hayot faoliyati yillari				
	7 yoshgacha	7 yoshdan 17-18 yoshgacha	17-18 yoshdan 20-25 yoshgacha	17 yoshdan 55 -60 yoshgacha (ba'zan undan ham yuqori)	55-60 yoshdan inson umrining oxiriga qadar
Yo'nalish	Oila va mahalla tarbiyasi	Umumiy ta'lim	Kasbiy ta'lim	Mehnat faoliyati	Pensiya davri
Inson kapitalining turlari	Madaniy va axloqiy qadriyatlar, intellektual va tashkiliy qobiliyatlar, ishbilarmonlik ko'nikmalari		Mehnat, intellektual, tashkiliy va tadbirkorlik	Inson kapitalining barcha shakl va ko'rinishlarini takror ishlab chiqarish	
Investitsiya manbalari	Shaxsning o'z mehnati va hatti- harakatlari				
	Uy xo'jaliklarining daromadlari				
				Mulk shaklidan qat'iy nazar korxonalar- tashkilotlarning mablag'lari	
	Homiylarva davlat byudjet mablag'lari				

Inson kapitali shakllanishining birinchi bosqichi – jismonan kuchga to'lish, asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, shaxsning ijtimoiylashuv

davri bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqich o'z navbatida bir necha davrlarni o'z ichiga oladi: tug'ulish (bola tug'ilishidan bolalar bog'chasiga qabul qilishgacha bo'lgan davr); asosiy rivojlanish davri (bolalar bog'chasida tarbiyalanish, umumiy ta'lim maktabida tahsil olish, maktab va maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim olish); o'rta va yuqori kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qish orqali kasbiy bilimlarni egallash.

Ikkinchi bosqichda inson o'z kasbiy pozitsiyasini shakllantirgani holda, o'zining kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishga intiladi, o'z navbatida mazkur bosqich inson kapitaliga investitsiyalarning maksimal rentabelligi bilan tavsiflanadi. Mazkur davrda bir tomondan, kasbiy vakolatlarni egallash, ikkinchi tomondan, ulardan ish jarayonida foydalanish amalga oshadi.

Uchinchi bosqichni tadqiqotchilar keksayish yoki charchash deb atashadi – bunda ijtimoiy, mehnat va ijodiy faoliyatning pasayishi kuzatiladi, ba'zi kasbiy ko'nikmalar va malakalarning yo'qolish xavfi vujudga keladi, pirovardida inson nafaqaga chiqishi lozimligini anglab etadi.

Inson kapitalini shakllantirish va jamg'arishning har bir bosqichida investitsiyalar muayyan bir shaxs, alohida oila, korxon-tashkilotlar va yalpi tarzda davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Inson hayot faoliyatining ilk davrlarida investitsiyalash jarayonida oila va davlat ishtirok etadi, inson kapitalini muttasil rivojlantirish va jamg'arishga bo'lgan intilishning kuchayishi ushbu maqsadlar uchun investitsiyalarni ko'paytirish zarurligini keltirib chiqaradi. Inson o'z mehnat faoliyatini muayyan bir tashkilot yoki korxonada boshlashi va o'z kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga intilishi asnosida korxon-tashkilotlar o'z xodimlariga investitsiya kiritishdan manfaatdor bo'ladilar. Bu o'rinda muammo shunda namoyon bo'ladiki, xodimning keksayish davrida korxon-tashkilotlar tomonidan mazkur xodimlar toifasiga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori kamayib boradi, o'z-o'zidan ayonki, mazkur davrda davlatning faol ijtimoiy siyosati va qo'llab-quvvatlashi talab qilinadi.

Inson kapitalini shakllantirishning dastlabki ikki bosqichi o'zlashtirilgan bilim, tajriba va ko'nikmalar ko'lamining ortishi, ulardan mehnat faoliyati jarayonida keng qo'llanilishi hisobiga inson kapitali qiymatining oshishi bilan tavsiflanadi.

Shuni o'z navbatida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, inson kapitali shakllanishi va undan foydalanishning ikkinchi bosqichining o'zidayoq, allaqachon inson kapitalidan foydalanish va uni ko'paytirishga qaratilgan hatti-harakatlarning bir nechta variantlari paydo bo'ladi. Mabodo inson yuqori mahsuldor aqliy mehnat bilan band bo'lgani holda, korxon-tashkilotlar bunday xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga sarflanayotgan mablag'lar ko'lamini qisqartirmasagina, inson kapitalining qiymati oshishini kutishimiz mumkin bo'ladi, agar bandlik ko'proq jismoniy mehnat bilan bog'liq bo'lsa, u holda mahsulodorlik pasayishi va inson kapitali qiymatining pasayishi kuzatiladi.

Bir so'z bilan aytganda, inson kapitalini shakllantirish faol mehnat faoliyati davrida yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasida amalga oshadi, aynan mana shu davr keyinchalik inson kapitali sifati va samarasini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson hayotiylik tsikli davomida umumiy va xususiy inson kapitalining shakllanishi amalga oshadi.

Birinchi bosqich umumiy inson kapitalining shakllanish davrini o'z ichiga olsa, ikkinchisi bosqichda xususiy inson kapitaliga xos bo'lgan jihatlar shakllanadi va aynan, ikkinchi bosqichdan boshlab, bir tomondan inson kapitalini shakllantirish va boshqa bir tomondan esa undan foydalanish davri birdek boshlanadi (6.2-rasm).

1

Umumiy inson kapitalining shakllanishi

2

Xususiy inson kapitalini shakllanishi

3

Inson kapitalidan amalda foydalanishi

6.2-rasm. Inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish bosqichlari.

Inson hayotiy tsiklining har bir bosqichida inson kapitalining shakllanishiga ta'lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyatlari, ota-onalarning ma'lumot darajasi; bolalar ta'limiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ko'lami; ta'lim-tarbiya, o'quv-uslubiy materiallar va ta'lim dasturlarining sifati; maktabning uzoq yoki yaqinda joylashganligi; oilaviy an'ana va qadriyatlar; ijtimoiy aloqalar; hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat kabi turli-tuman omillarning ta'sir ko'rsatishini kuzatishimiz mumkin.

Xorijlik tadqiqotchi va olimlar ushbu omillar orasida inson kapitalini shakllantirish, undan foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan muhim bo'lgan quyidagi omillarni alohida ajratib ko'rsatishadi:

- **tug'ma individual qobiliyatlar**- Veyker va Tomes, 1979, 1986; Grinvud va Seshadri, 2002 kabi olimlarning fikricha, tug'ma qobiliyat-larning yuqori darajasi kelajakda yangi bilimlarni egallashni tezlashtirishga xizmat qiladi;

- **ota-onalarning ta'lim saviyasi** (ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan ota-onalarning ko'proq bilim, qobiliyatlarga ega bo'lishi tabiiydir, o'z navbatida ular bu bilim va qobiliyatlarni o'z farzandlariga ulashadilar; yuqori ma'lumotga ega bo'lganliklari bois, turli jabhalarda asoslangan qarorlar qabul qila oladilar; o'z

navbatida ularning daromad darajasining boshqalarga nisbatan yuqoriligi ularga sifatli tibbiy yordam va ta'lim xizmatlaridan foydalanishga imkon beradi. Fikrimizning tasdig'i sifatida Coleman, 1966; Xanushek, 1986; Fuchs va Reklis, 1994; Galor va Tsiddon, 1994 va 1997; Xassler va Rodrigues Mora, 2000 kabi tadqiqot-chilarning ilmiy izlanish natijalarini keltirib o'tishimiz mumkin bo'ladi;

6.7-jadval.

Inson kapitalining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar tipologiyasi

Omillar guruhlari	Guruhga kiritilgan omillar
Demografik	- aholi soni; -aholining jins va yosh tarkibi; - tug'ilish paytida umr ko'rish davomiyligi;
Institutsional	- demografik jarayonlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar; - ijtimoiy va mehnat sohasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar; - ijtimoiy va inson kapitalini rivojlantirish borasida davlat siyosati;
Integratsiya	- tashqi dunyo bilan hamkorlik darajasi; - mamlakatda transmilliy kompaniyalarning mavjudligi; - globallasuv jarayonlarining aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;
Atrof-muhit	- umumiy ekologik vaziyat; - sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik va oziq-ovqat xavfsizligi; - tabiiy va iqlim shart-sharoitlari; - ish joylarining sanitar-gigienik holati;
Iqtisodiy	- aholining nominal va real daromadlari; - kambag'allik va qashshoqlik darajasi; - bozorlarda asosiy tovar va xizmatlarning mavjudligi; - inflyatsiya darajasi; - moliya-kredit mexanizmi; - soliq ma'murchiligi; - ixtisoslashuv va kooperatsiya darajasi;
Ishlab chiqarish	-mehnat bozori, ishchi kuchiga talab; -mehnatdan foydalanish shart-sharoitlari; -malaka oshirish; - kadrlarni ijtimoiy rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimi

- **aholining ijtimoiy ahvoli** – o'z navbatida ijtimoiy omillar, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat inson kapitalining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, bu o'z navbatida aholi daromadlarining o'sishiga va inson kapitali shakllanish

jarayonlarining ijobiy tus olishiga zamin yaratadi; bir qator iqtisodchi olimlarning fikricha, iqtisodiy agentlar o'zlarining ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga intilish asnosida inson kapitali rivojlanishining yuqori darajasini talab qiladigan yo'nalishlarni tanlashni va shu yo'nalishlarda ish ko'rishni afzal biladilar;

- **soliq siyosati** - Ben-Poret, 1967; Boskin, 1974; Lukas, 1990 kabi iqtisodchilar daromad solig'ining yuqori darajasi inson kapitalining shakllanishi va undan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini va inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar rentabelligining pasayishiga olib kelishini uqtiradilar;

- **madaniy va mafkuraviy omillar** - madaniy va axloqiy me'yorlar; jamiyat mafkurasi, jamiyat a'zolarining umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati; jamiyat a'zolarining yuksak madaniy saviyasi milliy iqtisodiyotda mehnat unumdorligining o'sishiga, yangi bilimlarni yaratish, ularga asoslangan yangiliklar va mahsulotlar yaratilishining tezlashishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida mamlakatda yillik iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradi;

Inson kapitalining shakllanishiga demografik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnik-texnologik institutsional, madaniy kabi bir qator omillar inson kapitalining shakllanishiga va uning sifatiga ta'sir ko'rsatadi, degan xulosani berishimiz mumkin bo'ladi. Inson kapitalining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning tasnifi 8-jadvalda keltirib o'tilgan.

Inson kapitali shakllanishi va undan foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar guruhiga kiritilgan omillar inson kapitalining shakllanishiga ham ijobiy va ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. V. V. Lojko, V. A. Juk va shu kabi bir qator tadqiqotchilar arzon va sifatli tibbiy yordam, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, taraqqiy etgan ilmiy va innovatsion faoliyat, yuksak madaniy taraqqiyot, yuqori turmush darajasi va sifati, samarali davlat boshqaruvi kabi omillarni inson kapitalining shakllanishi va uning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar guruhiga qo'shishni tavsiya qiladilar.

Inson kapitalining shakllanishi va uning sifatiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar tasniflash belgisi	Inson kapitalining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar
Inson kapitalini shakllantiruvchi subyektlar bo'yicha	- individual; - oila; - korxonalar; - mahalliy davlat hokimiyati idoralari;
Shakllanish sohalari bo'yicha	- ta'lim; - tibbiyoti; - madaniy-ma'rifiy; - mehnat sohasi va boshqalar;
Inson kapitaliga investitsiya kiritish bo'yicha	- aholi, xususiy va davlat investitsiyalari; - ta'lim, tibbiyot va madaniyat darajasini ko'tarishga investitsiyalar; - umumiy va xususiy inson kapitaliga investitsiyalar;
Inson kapitalini shakllantirish bosqichlari bo'yicha	- bolalarni tarbiyalash va voyaga etkazish, madaniy jamiyatga xos bo'lgan me'yorlarni rivojlantirish; - maktabda o'qitish: bolalarning individual qobiliyatlari va yo'nalishlarini aniqlash, tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida asosiy bilimlarni shakllantirish, shaxsni ijtimoiylashuvi, shaxsning o'z huquq va majburiyatlarini to'laligicha anglab etishi; - kasb-hunar ta'limi olish: ish joylarida muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun malaka, kasbiy qobiliyatlarni shakllantirish;
Inson kapitalini shakllantirishga ta'sirining tabiati bo'yicha	- bevosita va bilvosita ta'sir omillari; - ekstensiv (hudud aholisi umumiy soni, iqtisodiy faol aholi soni, ishsizlik darajasi) yoki intensiv ta'sirga ega bo'lgan omillar (ichki resurslar va shaxslarning imkoniyatlarini safarbar qilish);
Inson kapitalini shakllantirish natijalari asosida	- ijobiy natijalar (yuqori bilim va malaka darajasi); - salbiy natijalar (voyaga etmaganlarning huquqbuzar-ligi, jamiyat a'zolarining devitant xulq-atvori).

Bundan tashqari, demografik vaziyat, ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'zgarishi, texnika - texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot (raqamli texnologiyalar, sun'iy intellektning izchil joriy qilinishi, mehnatni masofadan turib tashkil etish), tabiiy resurslardan oqilona, tejamkor foydalanish kabi jihatlar ham inson kapitalining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sirasiga kiradi.

Inson kapitalini shakllantirish va uning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillar guruhiga samarasiz tashkil qilingan kasb-hunar ta'limi tizimi, fan-ta'lim-

ishlab chiqarish integratsiyasining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, korxonatashkilotlarda xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga etarlicha e'tibor qaratil-masligi va bunga mas'ul xodimlarning bugungi kun talablariga javob bera olmasligi, samarasiz ijtimoiy va bandlik siyosati, "aqli boshlarning chiqib ketishi" kabi omillarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatda mavjud institutlar va boshqaruv usul-vositalarining eskirganligi, aholi turmush darajasining pastligi, ta'lim, tibbiyot va innovatsion infratuzilma samaradorligining pastligi kabi omillar ham inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yuqorida tilga olib o'tilgan jihatlarning barchasi bilimlarning qadrsizlanishi, amaliy ko'nikmalarga talabning pasayishiga olib keladi, bu o'z navbatida inson kapitalidan samarali foydalanishni shubha ostiga qo'yadi va uning iqtisodiy-ijtimoiy qimmatini pasaytiradi. Mamlakatda yashirin iqtisodiyot ko'laminin yuqoriligi inson kapitali sifatining pastligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda jamiyatda korrupsion holatlarning kuchayishi, ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatining pasayishi, bir so'z bilan aytganda jamiyatda inqirozli vaziyat vujudga kelishi kuzatiladi.

Yuqorida tilga olib o'tilgan inson kapitalining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimlashtirish, ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashtirib olish, mamlakat hududlarining innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi. Boshqacha aytganda, inson kapitaliga ta'sir ko'rsatuvchi ijobiy omillarni rag'batlantirish asnosida jamiyat a'zolarining savodxonlik darajasi va kasbiy mahoratining oshishi, ijodiy va innovatsion faollikning o'sishi kabi ijobiy jarayonlar kuzatiladi.

Shu bilan bir qatorda, inson kapitali shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillar to'g'ridan-to'g'ri (boy berilgan foyda, yo'qotishlar, qo'shimcha investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj) va bilvosita iqtisodiy xarajatlar (mutaxassislarni tayyorlash sifatining pastligi va boshqalar) ko'laminin ortishiga olib keladi.

Inson kapitali shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar inson hayotiylik tsiklining har bir davrida kuzatiladi. Salbiy omillarning ko'lami bevosita davlat tomonidan amalga oshiriluvchi ijtimoiy siyosatga bog'liqdir. Shu bois, inson kapitalini shakllantirish va ushbu jarayonda davlatning o'rni bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Inson kapitalini shakllantirishning muhim subyekti va jamiyatning asosi sifatida oila inson kapitalini takror ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini sanaladi, unda farzandlar tarbiya topadi, ularni o'qitish va keyinchalik ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoitlar, qobiliyatlarni jamg'arish va rivojlantirish borasida ijobiy muhit yaratiladi.

Neoklassik yondashuv doirasida uy xo'jaligi ichki funktsiyalarining taqsimlanishi "inson kapitali" tushunchasidan foydalanish evaziga yangicha mazmun kasb etadi. Keng ma'noda mazkur tushuncha insonning butun hayoti davomida to'plangan barcha hayotiy tajribalarining umumiylikini ifoda etadi.

Inson kapitalining dastlabki jamg'arilishida nafaqat uy xo'jaliklari, balki davlat ham birdek ishtirok etadi, bunda davlat o'z tashkilot va muassasalari orqali davlat byudjeti hisobidan bepul ta'lim va tibbiyot xizmatlarini ko'rsatadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy xarajatlar ulushi qariyb 60 foizni, ta'lim xarajatlari esa YaIMning 10-12 foizidan oshiqroq ko'rsatkichni tashkil qiladi.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar iqtisodiyot tarmoq va sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi korxonatashkilotlar inson kapitalini shakllantirish va uning sifatini oshirish bilan shug'ullanuvchi subyektlar orasida muhim o'rin tutadi, chunonchi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlar o'z faoliyatlarining natijasi o'laroq, byudjet tushumlarini shakllantirishda soliq to'lovchi sifatida ishtirok qiladilar, o'z navbatida mazkur tushumlar davlat zimmasiga yuklangan ijtimoiy majburiyatlarni moliyalashtirishga sarflanadi.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini keng ko‘lamli qo‘llab-quvvatlash orqali, iqtisodiyot tarmoq va sohalarida ishchi va xizmatchilarga talab yaratiladi va bandlik muammosi yumshatiladi.


Ushbu iqtisodiy munosabat subyektlari bir nechta modellarga - iqtisodiy farovonlikka hissa qo‘shish va mehnat jamoasining ehtiyoj-larini qondirish yoki ijtimoiy investitsiyalarni qisqartirishga (imtiyoz-lar, kafolatlar berish, kasbiy qayta tayyorlash, pensiya va uy-joy sharoitlarini yaxshilash) asoslangan holda inson kapitalini shakllan-tirishda ishtirok etadilar. Ammo, ba’zi bir holatda, iqtisodiy faoliyatning mazkur ishtirokchilari tashqi muhitning beqarorligi, samarasiz korporativ boshqaruv modelidan foydalanish, moliyaviy ahvolning yomonligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning nomutanosibliigi kabi salbiy holatlar tufayli inson kapitalini shakllantirish jarayonida samarali ishtirok qila olmaydilar.

Ba’zi bir holatlarda uy xo‘jaliklari va iqtisodiy faoliyatning boshqa ishtirokchilari inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish borasida etarlicha shart-sharoitlarni ta’min eta olmasliklarini inobatga olgan holda, mazkur jarayonlarni tartibga solishda davlatning islohotchilik vazifasini qo‘llab-quvvatlash lozimligini ta’kidlab o‘tamiz.

Davlatning bu boradagi islohotchilik vazifasi avvalambor, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, loyihalarni investitsiyalash, aholining muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bandlik muammolarini hal qilish, aholi uchun munosib turmush shart-sharoitlarini ta’minlash orqali har tomonlama puxta o‘ylangan ijtimoiy siyosat va inson kapitali sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda o‘z aksini topadi.

Davlat institutlarining samarasizligi, davlat boshqaruvining haddan tashqari byurokratlashganligi sharoitida hukumat inson kapitali sifatini ta’minlash borasida o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to‘laqonli bajara olmaydi, bu o‘z navbatida milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ko‘lamlarining ortishiga olib keladi.

Inson kapitalini shakllantirish va uning sifatini ta'minlash jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish bevosita yoki bilvosita tarzda amalga oshiriladi (6.4-rasm).



6.4-rasm. Inson kapitalini shakllantirishda ishtirok etadigan subyektlar

Hukumatning asosiy maqsadi - aholining munosib turmush darajasi, yuqori ishbilarmonlik madaniyati, samarali bandlik, iqtisodiyot tarmoq va sohaları uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning samarali tizimini yaratish, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Inson kapitalini shakllantirish va uning sifatini yaxshilash nafaqat ta'lim va sog'liqni saqlash, balki oila, nodavlat-notijorat tashkilotlari va tijorat subyektlari bilan bir qatorda, butun bir jamiyatning ta'sirini hisobga olgan holda o'zaro bog'liq jarayonlar tizimini amalga oshirishning pirovard natijasi hisoblanadi.

Inson kapitalini shakllantirish natijasi muayyan bir faoliyat yo'nalishida maqsadga muvofiq tarzda to'plangan bilim va ko'nikmalar majmui hisoblanadi. Inson kapitalining tarkibiy qismi sifatida ta'limdan samarali va maqsadli foydalanish milliy va hududiy darajada iqtisodiy o'sishning sur'ati va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonlarning hayot faoliyati davomida shakllangan bilim va ko'nikmalari ularning amaliy mehnat faoliyatida namoyon bo'ladi. Bunda, ishchi kuchining kasbiy mahoratini oshirish qo'shimcha investitsiyalarni talab qiladi, bu esa o'z navbatida takror ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi bilan birga, yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning ko'payishiga ham olib keladi.

Yakka tartibda inson kapitalidan foydalanish jarayoni mehnat faoliyati samadorligining ortishida ko'zga tashlanadi, shu bilan birga, har qanday tashkilotning missiyasidan ko'zlangan maqsad va vazifalarning amaliy ijrosini ta'minlashda har bir xodimning qo'shayotgan hissasining oshishiga, pirovard natijada esa, milliy xo'jalik miqyosida farovonlikning ortishiga olib keladi. Shu sababli ham, inson kapitalidan samarali foydalanish mehnatga haq to'lashning ko'payishi va aholi turmush sifatining yaxshilanishiga, barqaror taraqqiyotning ta'minlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umumiy tarzda, inson kapitalidan foydalanish jarayonini aholining savodxonlik darajasi va kasbiy salohiyatidan turli faoliyat sohalarida (iqtisodiy, siyosiy va shu kabi) foydalanish bilan bog'liq

bo'lgan jarayon sifatida ta'riflashimiz mumkin bo'ladi, bu makrodarajada mamlakatning barqaror rivojlanishiga, individual darajada esa- mehnat unumdorligi va ish haqining oshishiga olib keladi.

Inson kapitalidan foydalanish jarayonlarini bevosita mehnat faoliyati, shu jumladan jamiyat uchun innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bilan yaqindan bog'liq, deb tasavvur qilishimiz maqsadga muvofiq. Biroq, shuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, inson kapitali nafaqat mehnat faoliyatida, balki iqtisodiyot tarmoq va sohalarida bevosita faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlari, xususan, bola parvarishi, uy xo'jaliklari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar faoliyatini yuritish kabi faoliyat turlarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Inson hayoti mobaynida inson kapitalidan foydalanishda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayoni o'zaro mutanosib tarzda kengayib boradi, aholining ish faolligi o'sadi, insonlarda atrof-muhitni o'z hayot tarzidan kelib chiqqan holda, o'ziga moslashtirish jarayonlari kuchayadi, shu bilan bir qatorda shaxslararo aloqalar mustahkamlanib, insonlarning ijtimoiylashuvi amalga oshadi. Bu o'z navbatida aholi bandligi va daromadlarining o'sishi, korxonatashkilotlar foydasining ko'payishi kabi ijobiy iqtisodiy-ijtimoiy samarani ta'min etadi.

Inson kapitalidan foydalanish jarayonini undan insonlarning dastlabki mehnat faoliyatida foydalanish va to'plangan salohiyatdan mehnat faoliyatining keyingi bosqichlarida keng foydalanish orqali iqtisodiy natijalarni yaxshilash kabi bosqichlarga bo'lish mumkin.

Yuqori ish haqi inson kapitalini ko'paytirishning navbatdagi tsiklini boshlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiy agentlarda aholining savodxonligi va kasbiy mahoratini oshirishga mablag' sarflashga ishtiyoq uyg'otish borasida dastlabki turtkini beradi yoki aksincha, ishtiyoqning susayishiga olib keladi. Inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanishda ishtiyoqning susayishi korxona-

tashkilotlar va davlat tomonidan inson kapitalidan foydalanish jarayonlarini tartibga solish zarurligini anglatadi.

Inson kapitalidan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar tavsifiga ko'ra (ichki/tashqi) foydalanish samaradorligi (samarali/ samarasiz) kabi xususiyatlarga ko'ra tasniflanishi mumkin. Ichki omillar birinchi navbatda aholining individual xususiyatlari bilan, qisman esa bevosita atrof-muhitning ta'siri bilan bog'liq bo'lsa, tashqi omillar hududiy, shahar-tuman darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq (6.9-jadval).

6.9-jadval.

Inson kapitalidan foydalanishga ta'sir qiluvchi omillarning tasnifi

Ta'sir ko'rsatish tabiati bo'yicha	Ta'sir doirasi va samaradorligi bo'yicha	
	Inson kapitalidan samarali foydalanishga hissa qo'shish	Inson kapitalidan foydalanish samaradorligini pasaytiradi
Ichki	Yangicha ish yuritish usullarini yaratishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash; keksa avlodning tajribasidan foydalanish; butun mehnat munosabatlari tizimini tubdan yangilash	Ish vaqtdan ko'ra, bo'sh turib qolishlarning ortiqcha bo'lishi; Rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning bajarilmasdan qolishi; Ish sifatining pasayishi; Xodimlar o'rtasida gorizontal va vertikal ravishda kooperatsiya aloqalarining izdan chiqishi
Tashqi	Kasbiy va hududiy harakatchanlikdagi to'siqlarni bartaraf etish; Yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ilmiy tadqiqotlar; Innovatsiyalarni yaratish uchun zarur muhitni yaratish	Mehnat bozoridagi talab va taklif tarkibining nomuvofiqligi; Bandlikni ta'minlash borasidagi nomutanosibliklar; Tashkilotlarning qoniqarsiz ijtimoiy-iqtisodiy holati

Manba: mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Inson kapitalidan foydalanish jarayonlari ijobiy va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bir tomondan, u ish haqining o'sishi asnosida aholi daromadlarining ko'payishi, korxonalar faoliyati samaradorligining o'sishi, jamiyatda innovatsion faollikning yalpi ortishiga, pirovard natijada

hududlarning innovatsion taraqqiyotini ta'min qilsa, boshqa bir tomondan esa, inson kapitali sifatining etarlicha emasligi iqtisodiyotda turli inqirozli vaziyatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Inson kapitalidan foydalanish jarayonlarini tadqiq qilish asosida quyidagi umumiy xulosalarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. Inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish inson kapitalining takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi, insonning hayotiylik tsikli davomida uzluksiz sodir bo'ladigan o'zaro bog'liq jarayonlar hisoblanadi.

2. Inson kapitalini takror ishlab chiqarish bosqichlari sifatida tug'ilish, farzand tarbiyalash, insonning jismoniy va intellektual jihatdan kuch to'plash davri; kasbiy vakolatlarni shakllantirish va rivojlantirish davri; ijtimoiy, mehnat va ijodiy faoliyatning pasayish davri kabilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Inson kapitalini takror ishlab chiqarish bosqichlari bir-biridan jarayonlarda qatnashuvchi subyektlar, investitsiyalar ko'lami va yo'nalishi bilan farqlanadi.

3. Inson kapitalining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar shakllanish subyektlari, sohalari, bosqichlari, shakllanish jarayoniga ta'sirining tabiati, shakllanish natijalari kabi xususiyatlarga ko'ra tasniflanadi. Ushbu omillar orasida individual qobiliyatlar, ota-onalarning ma'lumotlari, aholining ijtimoiy holati, soliq siyosati, mafkuraviy omillar alohida o'rin tutadi.

4. Inson kapitalidan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar ta'sir ko'rsatish tabiati (ichki / tashqi) va foydalanish samaradorligi (samarali / samarasiz) bo'yicha tasniflandi. Ichki omillar birinchi navbatda aholining individual xususiyatlari bilan, ba'zan esa bevosita atrof-muhit ta'siri bilan bog'liq bo'lsa, tashqi omillar hududiy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir.

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

- Barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning ehtiyojlarining qondirilishini shubha ostiga qo'ymagan holda, bugungi ehtiyojlarning samarali tarzda qondirilishini ifoda etadi.

- Barqaror rivojlanish insonlar va umuman olganda sayyoramizning kelajagiga tahdid soluvchi xavf-xatarlarga qarshi hatti -harakatlarning muvofiqlashtirilishini ko'zda tutadi.

- Barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun uch asosiy tashkil etuvchi: iqtisodiy o'sish, ijtimoiy integratsiya va atrof -muhitni muhofaza qilish masalalarini o'zaro uyg'unlikda hal etish talab etiladi. Mazkur komponentlar bir - birlari bilan uzviy bog'liq bo'lgani holda, alohida insonlar va yaxlit holda jamiyat farovonligini ta'min etishda favqulodda muhim sanaladi.

- Barqaror taraqqiyotni ta'minlashning zaruriy talablaridan biri qashshoqlik va uning barcha ko'rinishlariga barham berish hisoblanadi. Buning uchun, barchaga birdek qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etish, aholi daromadlari darajasi o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy taraqqiyot va integratsiyalashuvga ko'maklashish, aholining bazaviy turmush darajasini oshirish, tabiiy resurslar va ekotizimlardan barqaror foydalanish va ularni oqilona o'zlashtirish imkonini beruvchi keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish talab etiladi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar nimalardan iborat?

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining 193 a'zo -davlatlari barqaror rivojlanish sohasida yangi kun tartibiga ega bo'lgan: "Dunyo qiyofasini o'zgartirish: 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanishning kun tartibi" deb, nomlanuvchi yakuniy hujjat borasida bir to'xtamga kelishdi. Mazkur hujjat 17 maqsad va 169ta vazifadan tashkil topgan.

- Dunyo davlatlari rahbarlari 2016 yilning sentyabr oyida mazkur universal hujjatni qabul qilishdi. Mazkur hujjatning qabul qilinishi keyingi 15 yil ichida, ya'ni 2030 yilgacha bo'lgan muddatda dunyoda barqaror iqtisodiyotni qurish va qashshoqlikka barham berish imkonini beradi.

- Mazkur hujjatning kun tartibida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2000 yilda qabul qilingan Rivojlanishning ming yillik maqsadlari deklaratsiyasini amalga oshirish natijasida erishilgan natijalar yotadi. Rivojlanishning ming yillik

maqsadlari deklaratsiyasining amaliyotga joriy etilishi dunyoda millionlab insonlarning ochlik va qashshoqlik girdobidan qutulishlariga imkon berdi. O'zbekistonning ming yillik maqsadlarning ijrosini ta'min etgan dunyoning sanoqli mamlakatlardan biri sifatida tan olinishi, mamlakatimizda qabul qilingan strategik hujjatlar asosida barqaror rivojlanish maqsadlarini ham O'zbekistonning og'ishmay amalga oshirishiga ishonch uyg'otadi.

- Barqaror rivojlanish maqsadlari barcha manfaatdor tomonlar va insonlarning keng ishtiroki va ularning bu boradagi qarashlarining imkon darajasida hisobga olinishini nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish maqsadlari 193 ta a'zo -davlatlarning barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida bir to'xtamga kelishlari natijasida paydo bo'lgan hujjatdir. Mazkur barqaror rivojlanish maqsadlarini shakllantirishda butun dunyo bo'yicha etti milliondan ortiq insonlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, fuqarolik jamiyati vakillari, parlamentlar a'zolari, ishbilarmonlik doiralarining fikrlari jamlangan. Barqaror rivojlanish maqsadlari kompleksini ishlab chiqishga 2012 yilning iyun oyida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida barqaror rivojlanish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan («Rio+20») konferentsiyasida dastlabki qadam qo'yilgan.

Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar asosida nima yotadi?

- Maqsad va vazifalar keyingi 15 yil ichida insonlar, sayyoramiz, taraqqiyot, tinchlik va hamkorlik borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

- qashshoqlik va ochlikka barham berish, barcha insonlarning birdek hayot kechirishlariga imkon berish asosiy vazifa sanaladi.

- sayyoramizni degradatsiyadan saqlab qolish, uning mavjud tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishlarining oldini olish, kelajakka avlodga sayyoramizning boy va maftunkor tabiatidan va imkoniyatlaridan foydalana olish imkoniyatini berish.

- Iqtisodiy, ijtimoiy va texnik taraqqiyotning tabiat bilan uyg'unlikda kechishi uchun mamlakatlar va insonlarning ravnaqi haqida qayg'urish lozim.

○ Barqaror rivojlanish tinchlik va barqarorliksiz amalga oshmaydi. Qoʻrquv va zoʻravonlikdan holi boʻlgan tinchliksevarlik va adolatga asoslangan jamiyat barpo etishga butun dunyo har qachongidan ham muhtoj.

○ Barqaror rivojlanish maqsadlari kun tartibiga kiritilgan maqsad va vazifalarni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hamkorliksiz amalga oshirib boʻlmasligi bugungi kunda tobora oydinlashib bormoqda.

● Barqaror rivojlanish maqsadlari keng qamrovli boʻlib, barqaror rivojlanishning quyidagi komponentlarini qamrab oladi: iqtisodiy oʻsish, ijtimoiy integratsiya va atrof -muhitni muhofaza qilish. Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ijtimoiy masalalarga alohida urgʻu berilgan.

Bugungi kunda qanday muammolar oʻz echimini kutmoqda?

● 800 mln.dan ortiq inson oʻta qashshoq kun kechirmoqda, 795 million kishi ochlikdan aziyat chekadi.

● 2000-2015 yillar ichida maktabga qatnamaydigan bolalar soni teng yarimga qisqargan boʻlsada, bugungi kunda dunyoda 57 mln. bola boshlangʻich maktabga borish huquqidan mahrum.

● Gender tengsizligi hanuz saqlanib qolayotganligi katta tashvish uygʻotadi.

● Iqtisodiy farovonlik borasida boy va kambagʻal uy xoʻjaliklari oʻrtasida tafovut kattaligicha qolmoqda. Daromadi past uy xoʻjaliklari iqtisodiy neʼmatlardan foydalanishda katta qiyinchilikka duch keladilar.

● Bolalar va onalar oʻlimi ham butun dunyoda katta tashvish uygʻotadi.

Mamlakatimizda yakuniga etkazilgan Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sifatida Taraqqiyot strategiyasining samaradorligini oshirishda bu borada toʻplangan xorij tajribasi, xususan rivojlangan mamlakatlar amaliyotini oʻrganish katta ahamiyat kasb etadi. Biz bu borada Yevropa Ittifoqi, Germaniya Federativ Respublikasi, Frantsiya tajribasi bilan qisqacha tanishib chiqamiz. Dastlab Yevropa Ittifoqi toʻgʻrisida toʻxtalamiz. EIning iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va strategik rejalashtirish ikkita yaqqol koʻzga tashlanuvchi element bilan ajralib turadi. Birinchidan- bu EI ishtirokchi-mamlakatlarning moliyaviy va

tuzilmaviy siyosatlarining muhim ko'rsatkichlari, maqsad va yo'nalishlarini belgilab beruvchi strategik boshqaruvning umumevropa tizimi, EI organlari tomonidan byudjet va iqtisodiy siyosat monitoriningini amalga oshirish tizimi bo'lsa, ikkinchidan -bu boshqaruvning turli darajalarini qamrab oluvchi milliy qonunchilik va rejalashtirish hujjatlari tizimidir. Umumevropa strategik boshqaruv va rejalashtirish tizimining asosiy hujjati bo'lib, 10 yilga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyasi "Yevropa 2020" hisoblanadi. Mazkur hujjat EI tomonidan 2010 yilda qabul qilingan. Uning asosiy maqsadi- EIning barqaror rivojlanishi va inklyuziv iqtisodiy o'sish uchun etarlicha sharoitlar yaratib berishdan iboratdir. Inklyuziv iqtisodiy o'sish deyilganda, iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi jarayonlarga barcha ishtirokchilarning jalb etilishi tushuniladi. "Yevropa 2020" strategiyasida beshta asosiy maqsad shakllantirilgan bo'lib, mazkur maqsadlar butun EIga yoyilgan bo'lib quyidagi sohalarni qamrab oladi:

1. Bandlik: 20 yoshdan 64yoshgacha bo'lgan aholining 75%ining bandligi ta'minlangan bo'lishi lozim;
2. EIning 3% YaIMi tadqiqot va ishlanmalarga investitsiya qilinishi lozim;
3. Iqlim o'zgarishlari va energetik barqarorlik:iqlim o'zgarishi va energetika siyosati sohasidagi maqsadlarga erishish (atrof-muhitning ifloslanishi 30%ga qisqartirilishi zarur);
4. Ta'lim: maktabda o'qishni tashlagan o'quvchilar ulushi 10%dan oshmasligi kerak, oliy ma'lumotli yoshlar soni umumiy yoshlar sonining kamida 40%ini tashkil etishi lozim;
5. Ijtimoiy biquqlik va kambag'allik bilan kurashish: qashshoqlik chegarasiga o'tib qolishi mumkin bo'lganlar sonini qisqartirish, kambag'allik ostonasida bo'lganlarni 20 million kishiga qisqartirish.

Qo'yilgan maqsadlarga erishish maqsadida quyidagi ustivor faoliyat yo'nalishlari ilgari suriladi:

- “Innovatsion ittifoq”. Innovatsiyalarni yaratish va joriy etish uchun hatti -harakatlarni birlashtirish tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda innovatsion g‘oyalardan foydalanishga imkon bergani holda, iqtisodiy o‘shishni va yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta’min etishi lozim.

- “Yoshlar harakati”. Ta’lim sifatini oshirish. Yoshlarni mehnat bozoriga jalb qilish.

- “Yevropada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish”. Iqtisodiyot sohasida raqamli va tezkor internet texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirish.

- “Yevropada resurslardan maqsadga muvofiq foydalanish”. Uglevodorod xomashyosi kam talab etiluvchi iqtisodiyotga o‘tish. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini izlab topish va ulardan keng foydalanish. Transport sektorini modernizatsiya qilish. Iqtisodiyotning resurs sig‘imlilikini kamaytirish.

- Globallashtirishga yo‘naltirilgan “Industrial iqtisodiyot”. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab -quvvatlash. Iqtisodiyotning sanoat bazasini kengaytirish.

- “Qashshoqlikka qarshi Yevropa siyosati”. O‘zaro imkoniyatlarni birlashtirish evaziga butun EI hududida kambag‘allik darajasini qisqartirish.

Mazkur bayon qilingan asosiy faoliyat yo‘nalishlari butun EI mamlakatlari uchun ham birdek taaluqli sanaladi.

So‘nggi 20 yilda Germaniya Federativ Respublikasida boshqaruvning federal, regional va munitsipal darajalarini qamrab oluvchi rivojlanish va rejalashtirishning milliy tizimi tarkib topdi. Germaniya federal hukumat tomonidan 2002 yilda qabul qilingan barqaror rivojlanishning milliy strategiyasi (Perspectives for Germany. Our Strategy for Sustainable Development) ga tayanib ish ko‘rib keladi. Mazkur strategiya hukumatning bir necha bor o‘zgarishiga qaramasdan mazmunan o‘zgarimasdan kelmoqda, strategiyaga oxirgi marta o‘zgartirish 2012

yilning fevral oyida kiritilgan. Germaniyada Strategiyani ishlab chiqish va unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarning amaliy ijrosini nazorat qilib borish maqsadida barqaror rivojlanish bo'yicha Davlat qo'mitasi tashkil etilgan. Mazkur qo'mitaga to'qqizta davlat vazirliklari quyidagi departamentlarga kiritilgan: xalqaro munosabatlar, moliya, ijtimoiy siyosat va sog'liqni saqlash sohasidagi siyosat, ta'lim, fan va ilmiy tadqiqotlar, iste'molchilarni himoya qilish va qishloq xo'jaligi, atrof -muhit, transport, iqtisodiy hamkorlik, iqtisodiy kooperatsiya va rivojlanish.

Milliy taraqqiyot strategiyasi ettita rejali asosnomalar va loyihalar blokidan tashkil topgan:

I. G'oyadan strategiyagacha

II. Barqaror o'sish modeli

III. Strategiya ijtimoiy jarayon sifatida

IV. Maqsad va ko'rsatkichlar

V. Barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy vazifalari

VI. Global javobgarlik

VII. o'zgarishlar va o'lchovlar natijasi. Strategiyani rivojlantirish va monitoring qilish.

Frantsiya ham milliy strategik rejalashtirish sohasida etarlicha boy tajribaga ega sanaladi. Dastlab, 1946 yilda ustivor iqtisodiyot sohalaridan investitsion faollikni oshirishga qaratilgan besh yillik indikativ reja ishlab chiqilgan bo'lsa, milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida qator hududiy va milliy rejalar ishlab chiqila boshlandi. Xususan, 1972 yilda Frantsiyada mudofaa masalalariga bag'ishlangan "Oq kitob" (Le Livre blanc sur la défense de 1972) e'lon qilinadi. Ayni shu davrdan boshlab strategik mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan turli reja va dasturlar qabul qilish davri boshlanadi. 1981 yilda Frantsiya rejalashtirishning raqamli ko'rsatkichlaridan voz kechib, iqtisodiyotni rivojlantirishning stsenariyli va tavsiyali ko'rsatkichlari tizimiga o'tadi. 1998 yildan boshlab Frantsiyada milliy rejalar qabul qilinmaydi. Bu borada asosiy urg'u "dasturiy muvofiqlashtirish"ga qaratiladi.

Strategik rivojlanish yoʻnalishlari maqsadli davlat dasturlari koʻrinishida ishlab chiqiladi va ularning amalga oshirilishini ragʻbatlantirish maqsadida turli moliyaviy imtiyozlar va preferentsiyalar beriladi. Bunday yondashuvga misol tariqasida globallashuv sharoitida Frantsiyaning jahon iqtisodiyotidagi oʻrnini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishga yoʻnaltirilgan yangi iqtisodiy strategiyaning ishlab chiqilishini keltirishimiz mumkin. Mazkur strategiyada bir yoki bir nechta faoliyat yoʻnalishlari boʻyicha maʼlum bir innovatsion loyiha doirasida birgalikda rivojlanishga erishish uchun hamkorlik majburiyatlarini oʻz zimmasiga olgan korxonalar, tadqiqot markazi, taʼlim muassasalarining birlashmalarini ifoda etuvchi raqobatbardoshlik qutblari belgilab berilgan. Bunda toʻrtta asosiy jihatga eʼtibor qaratilgan: maʼlum bir hududni rivojlantirishning global strategiyasiga bogʻliq boʻlgan iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi; innovatsion loyihalar doirasida keng qamrovli hamkorlik qilish; iqtisodiy oʻsish salohiyati yuqori boʻlgan bozorlar uchun moʻljallangan texnologiyalarga barcha eʼtiborni qaratish; xalqaro bozorga chiqish uchun kapital qoʻyilmalarini jamlash va rentabellikni oshirish.

Frantsiyada strategik rejalashtirishning asosiy elementi bu -Byudjet toʻgʻrisidagi Qonun (LOLF) hisoblanadi. Mazkur qonunni amalga kiritish jarayoni 2001 yildan 2006 yilgacha boʻlgan muddatni qamrab olgan. Mazkur Qonunga muvofiq, davlat byudjeti mablagʻlari davlat siyosatining yoʻnalishlari boʻyicha taqsimlanishi joriy etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardan boshlab to 1980 yillarning soʻngigiga qadar Yaponiya dunyo mamlakatlari orasida eng yuqori oʻsish surʼatlarini taʼmin eta olgan sanoqli dunyo mamlakatlaridan biri sanaladi. Biroq, koʻchmas mulk bozoridagi “koʻpik”ning yorilishi va 1990 yillar davomidagi navbatdagi “yoʻqotilgan oʻn yillik” mamlakat iqtisodiyotida ogʻriqli nuqtalar borligini koʻrsatdi. Soʻnggi yillarda “Abenomika”deb nom olgan makro va mikro darajadagi chora -tadbirlar natijasida mamlakat iqtisodiyotida ijobiy siljishlar koʻzga tashlanmoqda. Yaponiya Vazirlar Mahkamasining hisob-kitoblariga koʻra,

mamlakatda YaIMning o'sishi 2013 moliya yilida 2,8%ni tashkil etgani holda, ishsizlik darajasi o'rtacha 4,0%ni tashkil etmoqda. Sindzo Abe kabineti tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy makroiqtisodiy siljishlarga qaramasdan hududlarni barqaror rivojlantirish masalasi Yaponiya hukumati oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mintaqalarni rivojlantirish muammolari sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- milliy iqtisodiyotning bir qutbli va bir o'qlilikka asoslangan tuzilmasi, bunda sanoat va inson resurslari bir nechta yirik megapolislar atrofida joylashgan bo'ladi. Bunday tuzilma atrof qishloq hududlari iqtisodiy faoliyatining depopulyatsiyasi va degradatsiyasiga olib keladi, shaharlarda yashovchi aholi turmush darajasining yomonlashishiga va insonlar hayotining tabiiy va texnogen kataklizmlarga bog'liqligini oshishini keltirib chiqaradi.

- umr ko'rish uzunligining ortib borishi bilan bog'liq bo'lgan aholi o'rtasida demografik inqirozning paydo bo'lishi, buning natijasida farzand ko'rish yoshidagi aholining reproduktivlik ko'rsatikichining pasayishi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakatda 2020 yilga borib keksa yoshdagi aholi soni 30%ni, 2050 yilga borib esa- qariyb 40%ni tashkil etadi. Bundan tashqari, 2020 yilda Yaponiya aholisi 122,74 mln. kishi, 2030 yilda 115,22 mln. kishi, 2050 yilda esa 95,15 mln. kishini tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Hududlarni rivojlantirish muammolarini bartaraf etish maqsadida Yaponiya hukumati tomonidan uzoq muddatli va kompleksli rivojlantirish rejalari ishlab chiqilgan bo'lib, strategik vazifalarni quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

- Sharqiy Osiyoning rivojlanib borayotgan iqtisodiyotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

- Hududlardagi ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlash;

- Jamiyat a'zolarining tabiiy va texnogen kataklizmlarga qat'iy qarshi tura olish immunitetini shakllantirish;

- Tabiiy resurslardan samarali foydalanish va boshqarishni tashkil etish;

- Davlat va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Misol tariqasida oladigan bo'lsak, Yaponiya hukumati tomonidan 2008 yilda tasdiqlangan hududlarni rivojlantirishning Milliy strategiyasi mamlakatni (Okinava va Xokkaydoni hisobga olmagan holda) 8 ta makrohududga bo'ladi: Kanto, Toxoku, Tokay, Kinki, Sikoku, Xokuriku, Chugoku i Kyusyu. Makrohududlarda regional rejalashtirish kengashlari hududlarning rivojlanishiga bevosita javobgar bo'ladilar. 2009 yilda mazkur makrohududlarning har birida 8 ta regional strategiyalar ishlab chiqilib tasdiqlangan. Yaponiya hukumatida funktsiyalar quyidagicha taqsimlangan. Yer, infratuzilma, transport va turizm masalalari bo'yicha vazirlik shahar va hududiy siyosatni amalga oshirish, hududlarni makon nuqtai nazaridan rivojlantirish va rejalashtirishga javobgar hisoblanadi. "Milliy va hududiy rejalashtirish byurosi" vazirliklar o'rtasidagi va shuningdek markaziy va mahalliy hukumatlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtiradi. Yer, infratuzilma, transport va turizm masalalari bo'yicha vazirlik o'z faoliyatini amalga oshirishda "Oziq-ovqat bazasini, qishloq xo'jaligini va qishloq hududlarini rivojlantirish bo'yicha bosh reja"ga amal qiladi. Mazkur reja qishloq hududlarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish, hudud salohiyatidan unumli foydalangan holda qishloq hududlari iqtisodiyotini ko'tarish, qishloq va shahar o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish, qishloq hududlari aholisi turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan. Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va klasterlarni yaratishga javob beradi. Ichki aloqalar va kommunikatsiyalar vazirligi mahalliy hukumatlar ishini boshqarish va ular faoliyatini moliyalashtirish masalalariga mas'ul hisoblanadi. Regional rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish uchun qator me'yoriy-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bu birinchidan, 2005 yilda qabul qilingan "Milliy hududlarni rejalashtirish akti"ga asoslangan holda ishlab chiqilgan va qabul qilingan milliy va regional rejalar hisoblanadi. Ular yer resurslarini, qirg'oq bo'yi, shahar va qishloq hududlarini rivojlantirish, borasidagi uzoq muddatli va kompleks vositalar hisoblanadi, turizm va madaniyatni rivojlantirish, ekologik vaziyatni

yaxshilash, sanoat korxonalari va infratuzilmani joylashtirish masalalarini muvofiqlashtiradi. Bundan tashqari mazkur rejalarda tabiiy kataklizmlarga qarshi tura olish masalalari ham o‘rin olgan. Regional rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish borasida qator institutsional yangiliklar joriy etilgan. Masalan, 2001 yilda “Shaharlar taraqqiyotini tiklash byurosi”, 2002 yilda “Maxsus hududlarni tuzilmaviy isloh qilish byurosi”, 2003 yilda “Hududlarni jonlantirish byurosi”, 2006 yilda shahar ichi hududlarini rivojlantirish maqsadida “Shahar ichi hududlarini rivojlantirish bo‘yicha byuro” tashkil etilgan. 2007 yilda mazkur to‘rtta byuro yagona organ -“Hududiy taraqqiyot bo‘yicha integratsiyalashgan byuro”ga birlashtirilib, uni boshqarish bevosita Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Yaponiyada urbanizatsiya darajasining favqulodda yuqori ekanligi va sanoatning bir nechta yirik shahar aglomeratsiyalarida mujassamlashganligi hukumat uchun eng muhmm muammo hisoblanadi. Bu muammoni hal etish maqsadida “Shaharlarni taraqqiy ettirish Dasturi” ishlab chiqilgan. Yaponiyada regional rivojlantirish strategiyalari innovatsion taraqqiyotga asoslanadi. Innovatsion taraqqiyotni ta‘minlash maqsadida Yaponiya hukumati tomonidan doimiy ravishda grantlar berib boriladi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy o‘shishning aniq texnologik modellari va g‘oyalariga izoh bering?
2. Ilg‘or mamlakatlardagi texnologiyalar boshqa bir davlatlarga nisbatan 2-3 yilga ilgarilab ketishiga asosiy sababini tushuntirib bering?
3. Texnologik rivojlanish nazariyalarini tushuntirib bering?
4. Iqtisodiy o‘shishning endogen nazariyasini tushuntirib bering?
5. Iqtisodiy o‘shishga ta‘sir ko‘rsatuvchi endogen va ekzogen omillar ta‘siri haqida to‘xtalib o‘ting?
6. Inson kapitalining barqaror iqtisodiy rivojlanishni taxmin-lashdagi o‘rni qanday?

Referat mavzulari:

1. 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida

makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasida ko'zda tutilgan vazifalar.

2. Iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish maqsadlari.
3. Ilmiy-texnik taraqqiyot va uning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni.
4. Iqtisodiy o'sishning ekonometrik modellari.
5. Inson kapitali iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida.

Mushohada uchun:

Bugungi kunda iqtisodiyot haqida so'z borsa, iqtisodiyot-bu hamma narsaning hamma narsaga bog'liqligi haqidagi fandir, deb xulosa qilish o'rinlidir. Sizningcha ushbu fikrda jon bormi. Mavzudan kelib chiqqan holda mushohada yuriting?

Masalalar:

1. Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son qarori qabul qilingan. Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar;
- 2022-2026 yillarda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga samarali erishish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi;
- 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi;
- Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tarmoqlararo muvofiqlashtirish va integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlash maqsadida ekspert guruhlarining yangilangan tarkibi.

Xususan, quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- 2030 yilgacha mamlakatda kambag'allik darajasini ikki baravarga qisqartirish;

- Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish, ijtimoiy himoya qilish xizmatlari sifatini oshirish, ijtimoiy himoya qilish choralari doirasiga muhtojlarning barchasi to'liq qamrab olinishiga erishish;

- Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish;

- Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish;

- Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish;

- Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash.

Bu vazifalarni amalga oshirish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni muhimlik darajasi bo'yicha joylashtirib chiqing?

2. Aytaylik, mamlakatda kapitalning chegaraviy unumdorligi 0,25, iste'molga chegaraviy moyillik – 0,8 ga teng bo'lsin. Domar modeliga ko'ra real daromadning o'sish sur'atini aniqlang.

Yechish usuli:

Domar nazariyasiga ko'ra, iqtisodiyotda real daromadning muvozanatli o'sish sur'ati mavjud bo'lib, unda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalaniladi. U jamg'arish me'yori va kapitalning chegaraviy unumdorligiga proporsionaldir:

$$\Delta Y_t / Y_{t-1} = \alpha * s = \alpha * (1-c) = 0,25 * (1-0,8) = 0,05 \text{ yoki } 5\%$$

α – kapitalning chegaraviy unumdorligi,

c – iste'molga chegaraviy moyillik,

s – jamg'arishga chegaraviy moyillik.

Ya'ni bunda real daromad 5% sur'at bilan o'sadi.

3. Aytaylik, mamlakatda kapitalning chegaraviy unumdorligi 0,2, jamg'arishga chegaraviy moyillik — 0,3 ga teng.

Quyidagilarni aniqlang:

a) agar 100 pul birligida investitsiyalar amalga oshirilgan bo'lsa, yalpi taklifning o'zgarish hajmini.;

b) Domar modeliga ko'ra, investitsiyalarning o'sish sur'atini.

Yechish usuli:

a) yalpi taklifning ko'payishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta Y_{as} = \alpha * I = 0,2 * 100 = 200 \text{ pul birligi}$$

α – kapitalning chegaraviy unumdorligi,

I – investitsiyalar.

b) Domar modeliga ko'ra, investitsiyalarning o'sish sur'ati kapitalning chegaraviy unumdorligi va jamg'arishga chegaraviy moyillikning ko'paytmasiga teng:

$$\Delta I / I = \alpha * s = 0,2 * 0,3 = 0,06 \text{ yoki } 6\%$$

s – jamg'arishga chegaraviy moyillik.

Investitsiyalar 6% sur'at bilan o'sadi.

4. Doimiy narxlar darajasida milliy iqtisodiyotda yalpi talab quyidagi funktsiya bilan ifodalanadi:

$$Y_d = C + I.$$

Investitsiyalar funktsiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I = 1000 - 50 \times i.$$

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari quyidagi bog'liqlik bilan ifodalanadi:

$$S = 100 + 0,7 \times Y.$$

Real foiz stavkasi (i) 10%. YaIMning muvozanatli hajmini toping.

Yechish usuli:

Tovarlar bozori muvozanatining keynscha shartidan (iqtisodiyotning muvozanat nuqtasidagi daromadi uning xarajatlariga teng) biz barcha mumkin bo'lgan ekzogen ravishda belgilangan foiz stavkalarida tovarlar bozori muvozanatining barcha nuqtalarini aniqlaydigan tenglamaga ega bo'lamiz:

$$Y_d = C + I$$

$$Y = 100 + 0,7 * Y + 1000 - 50 * i$$

$$0,3 * Y = 1100 - 50 * i$$

$$Y = 3666,667 - 166,667 * i$$

$$i = 10\% \text{ bo'lganda; } Y = 3666,667 - 166,667 * 10; Y = 2000$$

YaIMning muvozzantli hajmi 2000 ga teng.

5. Quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar berilgan, mlrd. dollarda:

1	Individual soliqlar	30
2	Sof xususiy ichki investitsiyalar	45
3	Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	21
4	Transfert to'lovlari	11
5	Ishsizlik nafaqalari	4
6	Eksport	13
7	Korporatsiyalar foydasi	61
8	Import	4
9	Aktsiyalarni sotishdan daromad	10
10	Ijtimoiy sug'urta badallari	20
11	Davlat obligatsiyalari bo'yicha foizlar	7
12	Shaxsiy jamg'armalar	27
13	Asbob-uskunalar amortizatsiyasi	24
14	Binolar amortizatsiyasi	12
15	Korporatsiyalar foydasiga soliq	23
16	Iste'mol xarajatlari	255
17	Ijara to'lovi	16
18	Xususiy firmalarning foiz to'lovlari	15
19	Mulk daromadlari	42
20	Biznesga egri soliqlar	32
21	Dividendlar	17

22	Xorijdan sof omilli daromad	-6
----	-----------------------------	----

YaMM, YaIM, SIM, SMM, MD, ShD, ShTD, iste'mol qilingan kapital hajmi, yalpi investitsiyalar, tovar va xizmatlarning davlat xaridi, sof eksport, ish haqi, davlat byudjeti saldosi aniqlang.

Yechish usuli:

1) Uy xo'jaliklarining shaxsiy tasarrufdagi daromadlari (disposable personal income – DPI)ni topamiz, u shaxsiy iste'mol (ShIs) va shaxsiy jamg'armalar (ShJ)ga bo'linadi.

$$ShTD = Sh_{Is} + ShJ; \quad ShTD = 255 + 27 = 282$$

2) Shaxsiy tasarrufdagi daromad shaxsiy daromad va individual soliqlar o'rtasidagi farq sifatida hisoblanishi ham mumkin. Bundan shaxsiy daromadni topish uchun quyidagi tenglikka ega bo'lamiz: $ShD = ShTD + InS = 282 + 30 = 312$

3) Shaxsiy daromad (personal income – PI) shuningdek, u milliy daromad va uy xo'jaliklari ixtiyoriga kelib tushmaydigan va shaxsiy daromad emas, balki jamoaviy daromadning bir qismi bo'lgan va uy xo'jaliklari daromadlarini oshiradigan, ammo milliy daromadga kiritilmagan barcha narsalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi: $ShD = MD - Ijtimoiy \text{ sug'urta badallari} - Korporatsiyalar \text{ foydasi} + Dividendlar + Transfertlar + Qimmatli \text{ qog'ozlar bo'yicha davlat tomonidan to'langan foizlar} + uy \text{ xo'jaliklari tomonidan to'langan foizlar}$.

Bu erdan, Milliy daromad (MD) – bu iqtisodiy resurs egalarining mulkdorlari tomonidan ishlab topilgan yalpi daromad, degan xulosaga kelamiz:

$MD = ShD + Ijtimoiy \text{ sug'urta badallari} - Korporatsiyalar \text{ foydasi} + Dividendlar - Transfertlar - immatli \text{ qog'ozlar bo'yicha davlat tomonidan to'langan foizlar} + uy \text{ xo'jaliklari tomonidan to'langan foizlar}$.

$$MD = 312 + 20 + 61 - 17 - 11 - 7 + 0 - 358$$

4) Milliy daromadni Sof milliy mahsulot va egri soliqlar o'rtasidagi farq sifatida ham topish mumkin: $MD = SMM - egri \text{ soliqlar}$

Bu erdan, Sof milliy mahsulotni topish mumkin: $SMM = MD + egri \text{ soliqlar} = 358 + 32 = 390$

5) Bundan tashqari Milliy daromad quyidagilar yig'indisiga teng: Ish haqi+ Ijara to'lovi+Foiz to'lovlari+Mulk daromadlari+Korporatsiyalar foydasi:

$$\text{Ish haqi}=358-16-15-42-61=224$$

6) SMM yalpi milliy mahsulot va iste'mol qilingan kapital qiymatining ayirmasiga teng (A):

SMM= YaMM-A; bundan YaMM qiymatini topamiz:

$$\text{YaMM}=\text{SMM}+\text{A}=390+24+12=426$$

7) YaMM va xorijdan sof omilli daromadlar qiymatini bilgan holda, yalpi ichki mahsulot qiymatini topishimiz mumkin:

$$\text{YaIM}=\text{YaMM}-\text{Xsod}=426-(-6)=432$$

8) Sof ichki mahsulot (SIM) yalpi ichki mahsulot va iste'mol qilingan kapital hajmi ayirmasiga teng:

$$\text{SIM}=\text{YIM}-\text{A}=432-(24+12)=396$$

9) Yalpi xususiy ichki investitsiyalar (gross private domestic investment – Igross)ni topamiz. Yalpi investitsiyalar sof investitsiyalar va iste'mol qilingan kapital hajmi (amortizatsiya) yig'indisidan tashkil topadi:

$$\text{I}_{\text{gross}}=\text{I}_{\text{net}}+\text{A}=45+24+12=81$$

10) Sof eksport (net export – NX) eksport daromadlari (export – Ex) va mamlakatning import bo'yicha xarajati farqiga teng va mamlakat savdo balansi qoldig'ini ifoda etadi:

$$\text{N}_x=\text{E}_x-\text{I}_m=13-4=9$$

11) YaIM, yalpi xususiy ichki investitsiyalar, sof eksport va iste'mol xarajatlari (consumption spending – C) qiymatlari ma'lum bo'lgani holda, davlat xaridlari (government spending – G)ni topish mumkin:

$$\text{G}=\text{YIM}_{\text{xar}}-\text{C}-\text{I}_{\text{gross}}-\text{NX}=432-255-81-9=87$$

12) Davlat byudjeti qoldig'i davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida topiladi. Byudjet daromadlari individual soliqlar, korporatsiyalar foydasiga soliq, biznesga egri soliqlar va ijtimoiy sug'urta badallari yig'indisiga teng.

Byudjet daromadlari=30+23+32+20=105

Byudjet xarajatlari davlat xaridlari, transfertlar va davlat obligatsiyalari bo'yicha foizlar yig'indisiga teng.

Byudjet xarajatlari=87+11+7=105

Davlat byudjeti saldosini=105-105=0

Davlat byudjeti muvozanatlashgan.

Keys: Xalqaro reytinglar va indekslar: O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash

Xalqaro reyting va indekslar mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o'rnini va mavqegini belgilab berishga xizmat qiladi. Jahondagi har bir mamlakat xalqaro reyting va indekslarda yuqori o'rin egallashga, mamlakatda olib borilayotgan turli jabhalardagi islohotlarni jadallashtirishga harakat qiladi. Bir so'z bilan aytganda xalqaro reyting va indekslar mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga xolis baho berishga xizmat qiladi.

2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro'sini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini xolis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirildi.

Ko'rilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo'nalishlar bo'yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas-deb, ta'kidlanadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 25 fevraldagi PQ-4210-sonli Qarorida.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijasi jahondagi yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'tirof etilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, dunyodagi nufuzli "Fitch Ratings" va "Standart & Poors" reyting agentliklari birinchi marta mamlakatimizning xalqaro suveren kredit reytingini belgiladi. Ana shu reyting baholari "Barqaror" prognoziga ega bo'lib, bu yaqin 12-18 oy davomida ushbu ko'rsatkichning pasayish ehtimoli kamligini bildiradi. O'zbekiston erishayotgan bunday reyting baholari ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan yuqori ekanini qayd etish lozim. Ushbu reyting agentliklari O'zbekistonda valyuta, savdo va narx siyosati erkinlashgani, davlat boshqaruvidagi institutsional o'zgarishlar, mamlakat oltin-valyuta va byudjet zahirasi etarli ekani, davlat qarzining kamligi singari omillarga alohida e'tibor qaratmoqda.

Jahon banki «Biznes yuritish» xalqaro reytingi doirasida oxirgi bir yil ichida biznes yuritishda engilliklarni nazarda tutuvchi eng ko'p islohotlarni amalga oshirgan 20ta davlatni e'tirof etdi. Bular ichida O'zbekistonda 5ta yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan qadamlar alohida tan olindi. Jahon banki O'zbekistonni oxirgi davrda minoritar investorlarni himoya qilishni mustahkamlagan, soliqlar to'lash tizimini soddalashtirgan, shartnomalar ijrosini amalga oshirishni kuchaytirgan, shuningdek tashqi savdo yo'nalishida sezilarli yangiliklar kiritgan davlat sifatida e'tirof etadi. Jahon banki mediatsiya institutini rivojlantirishga qaratilgan qadamlarni ham e'tirof etib, bu borada yagona huquqiy baza shakllanganini va mediatsiyadan foydalanishni rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilganini ta'kidlagan. Bojxona sohasida esa xavf-xatarni tahlil qilish asosida tekshiruvlarni amalga oshirish tartiblari kiritilganini ham ma'qullagan.

Index of Economic Freedom (Iqtisodiy erkinlik indeksi) - mamlakatlarda iqtisodiy erkinlik darajasini baholashga yo'naltirilgan bir qator ko'rsatkichlardan tashkil topgan reyting hisoblanadi. Amerikaning The Heritage Foundation ilmiy-tadqiqot markazi va The Wall Street Journal gazetasi tomonidan reyting ko'rsatkichlari e'lon qilib boriladi.

Index of Economic Freedom (Iqtisodiy erkinlik indeksi) - 10 ta nazorat ko'rsatkichlarining o'rtacha arifmetik qiymatini aniqlash orqali hisoblab topiladi: 1. Mulk huquqi; 2. Korruptsiyadan holilik; 3. Fiskal erkinlik; 4. Hukumat aralashuvi; 5. Tadbirkorlik erkinligi; 6. Mehnat erkinligi; 7. Monetar erkinlik; 8. Savdo erkinligi; 9. Investitsiyalar erkinligi; 10. Moliyaviy erkinlik.

Har bir ko'rsatkich bo'yicha 0 dan 100 gacha bo'lgan ballar qo'yib boriladi va umumiy natija jamlanadi. O'z-o'zidan ayonki mutloq erkin iqtisodiyotda bu indeks 100 ga teng bo'lgani holda, erkinlik darajasi past bo'lgan mamlakatlarda bu indeks qiymati 0 ga yaqinlashib boradi.

Index of Economic Freedom (Iqtisodiy erkinlik indeksi)ning yakuniy hisobotida reytingga kiritilgan barcha davlatlar to'plagan reyting ballariga ko'ra shartli ravishda beshta guruhga ajratiladi:

1. 80 balddan 100 balgacha to'plagan mamlakatlar-erkin iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatlar;
2. 70 balddan 80 balgacha jamg'argan mamlakatlar- iqtisodiyoti nisbatan erkin bo'lgan davlatlar;
3. 60 balddan 70 balgacha to'plagan mamlakatlar-iqtisodiy erkinligi mo'tadil bo'lgan davlatlar;
4. 50 balddan 60 balgacha to'plagan mamlakatlar- nisbatan iqtisodiy erkinligi past bo'lgan davlatlar;
5. 50 balddan past to'plagan mamlakatlar- mutloq iqtisodiy erkin bo'lmagan davlatlar.

O'zbekiston mazkur reytingda dunyo mamlakatlari orasida 140 -o'rinda qayd etilgan.

The Global competitiveness index (Global raqobatbardoshlik indeksi)- Butunjahon Iqtisodiy Forumi (World Economic Forum) versiyasi bo'yicha mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha tadqiqotlar olib borish va shu asosda ularning reytingini aniqlashni ko'zda tutadi.

Butun jahon iqtisodiy forumi milliy raqobatbardoshlikni o'rta va uzoq muddatli istiqbolda mamlakat va mavjud institutlarning barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash olish layoqati sifatida tushuntiradi. Tadqiqot mualliflari milliy raqobatbardoshlikning yuqori ko'rsatkichlariga ega mamlakatlar o'z fuqarolarining yuksak turmush darajasini ta'min eta oladilar, deb ta'kilaydilar. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va raqobatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida mavjud to'siqlarni bartaraf qilish, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda mamlakatlar Global raqobatbardoshlik indeksidan foydalanishlari tavsiya qilinadi.

Global raqobatbardoshlik indeksi 113 ta ko'rsatkichdan tashkil topgan bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarida bo'lgan mamlakatlarning raqobatbardoshlik darajasini tavsiflaydi. Jami ma'lumotlarning uchdan ikki qismi korxonalar rahbarlari bilan o'tkazilgan so'rovlar asosida shakllantirilsa, ma'lumotlarning uchdan bir qismi esa statistik ma'lumotlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziluvchi tadqiqotlar natijalari asosida shakllantiriladi. Barcha ko'rsatkichlar milliy raqobatbardoshlik darajasini belgilab beruvchi 12 ta nazorat ko'rsatkichlari guruhiga birlashtiriladi:

1. Institutlar sifati;
2. Infratuzilma;
3. Makroiqtisodiy barqarorlik;
4. Sog'liqni saqlash va boshlang'ich ta'lim;
5. Oliy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik;
6. Tovar va xizmatlar bozori samaradorligi;

7. Mehnat bozori samaradorligi;
8. Moliya bozorining rivojlanganlik darajasi;
9. Texnologik taraqqiyot darajasi;
10. Ichki bozor ko'lamini;
11. Kompaniyalarning raqobatbardoshligi;
12. Innovatsion salohiyat.

World Economic Forum: The Global Competitiveness Report 2018 da Markaziy Osiyo davlatlari orasida birgina O'zbekiston mazkur reytingga kiritilmagan. Bugungi kunda Jahon iqtisodiy forumiga O'zbekiston nomidan reytingga kirish uchun xat jo'natilgan.

Boshqa tadqiqotlardan farqli ravishda biznes yuritish (doing business) qulayligi indeksi faqatgina tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritish bilan bog'liq bo'lgan qonunlar, me'yoriy hujjatlarni o'rganishga asoslanadi. Infratuzilma, inflyatsiya, ishsizlik, jinoyat-chilik, biznesning daromadlilik darajasi kabi umumiy jihatlar mazkur reytingni tuzishda inobatga olinmaydi.

BIZNES YURITISH (DOING BUSINESS) QULAYLIGI INDEKSI quyidagi 10 ta indikatorni o'z ichiga oladi:

1. Biznesni boshlash- korxonaga asos solish uchun minimal kapital, vaqt, xarajatlar va bajariladigan amallar
2. Qurilishga ruxsat olish- qurilishga ruxsat olish bilan bog'liq sarf-xarajatlar;
3. Elektr tarmog'iga ulanish- elektr toki bilan ta'minlanish uchun sarf bo'ladigan vaqt va sarf-xarajatlar;
4. Mulkni ro'yxatdan o'tkazish- tijorat mulkini ro'yxatdan o'tkazish uchun sarflanadigan vaqt va sarf-xarajatlar;
5. Kredit olish- yuridik huquqning kuchi, kredit axborotining to'liqligi;
6. Investirlar huquqini himoyalash-moliyaviy ko'rsatkichlarning ochiqqligi, investirlar tomonidan sudga da'vo arizalari kiritishning engilligi, rahbariyatning javobgarligi;
7. Soliqlar to'lash- soliqlar soni, soliq hisobotlari tayyorlash uchun sarflanadigan vaqt, foydadan ulush sifatida to'lanuvchi soliq;
8. Xalqaro savdo- eksport va importni amalga oshirish ketadigan vaqt va kerak bo'ladigan hujjatlar soni;
9. Shartnomalar ijrosini ta'minlash- qarzlarni undirish uchun ketadigan vaqt va bajariladigan ishlar;
10. Korxonani yopish- to'lovga layoqatsiz korxonani yopish uchun ketadigan vaqt va qo'shimcha sarf-xarajatlar.

O'zbekiston 2020 yil reytingida dunyo mamlakatlari orasida 69- o'rinda qayd etilgan. Xususan mamlakatimiz biznesni ro'yxatga olish bo'yicha dunyo mamlakatlari o'rtasida 8-o'rinni band qilgan bo'lsada, qurilishga ruxsat olish bo'yicha 132-o'rinda, mulkni ro'yxatga olish bo'yicha 72-o'rinda, xalqaro savdoni amalga oshirish bo'yicha 152-o'rinda qayd etilganligi bu boradagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish lozimligini ko'rsatadi.

1999 yildan buyon Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti O'zbekistonga kredit reytingini berib keladi. 1999 yildan 2008 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida kredit tavakkalchiligi bo'yicha mamlakatlarning 7 ta guruhi orasida 1 guruhga mansub ko'rilgan bo'lsa, 2008 yilda O'zbekiston kredit tavakkalchiligi bo'yicha mamlakatlar reytingining 6-guruhiga munosib deb topilgan bo'lsa, 2019 yilga kelib, tashkilot mamlakat reytingini 5-darajagacha ko'tardi. Valyuta siyosatini erkinlashtirish, milliy valyutani konvertatsiya qilish, savdo hamkorlari bilan aloqalarni mustahkamlash, tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlarning yaratilishi mamlakat kredit reytingining o'sishiga sabab bo'lgan muhim omillar sanaladi.

The Rule of law index (Huquq ustuvorligi indeksi)-dunyo mamlakatlarida huquqiy mezonlarga tayanilgan holda barpo etilgan huquqiy muhitning qay darajada inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishiga xizmat qilishini ko'rsatib beradi. Mazkur indeks The World

Justice Project, nodavlat tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan uslubiyot bo'yicha hisoblanadi va bunda statistik ma'lumotlar va global miqyosda ekspertlik so'rovlari natijalariga tayaniladi. The Rule of law index 2010 yilda ishlab chiqilgan va u mamlakatlarning huquq ustuvorligini ta'minlash borasida erishgan natijalarini baholash imkonini beradi. The Rule of law index (Huquq ustuvorligi indeksi) 47 ta ko'rsatkichdan tashkil topgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish-ning turli darajalarida bo'lgan mamlakatlarda xalqaro huquq normalariga rioya qilinishini ko'rsatib beradi. Barcha ko'rsatkichlar 8 ta nazorat ko'rsatkichlari guruhiga birlashtirilgan:

1. Hokimiyat institutlari vakolatining cheklanganligi;
2. Korruptsiyaning mavjud emasligi;
3. Jamoat tartibi va xavfsizlik;
4. Asosiy huquqlarning himoya qilinishi;
5. Hokimiyat institutlarining shaffofligi;
6. Qonunlarga rioya qilish;
7. Fuqarolik sudlovi;
8. Jinoyatlarni odil sudlov qilish.

O'zbekiston mazkur reytingda 94-o'rinda qayd etilgan.

Korruptsiyani qabul qilish indeksi (The Corruption Perceptions Index) — bu davlat sektorida korruptsiyaning tarqalganlik ko'rsatkichi-ni o'rganish bo'yicha global miqyosda amalga oshiriluvchi taqdqiqot va shu asosda tuzilgan mamlakatlar reytingi hamdir. Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan taklif etilgan uslubiyot asosida statistik ma'lumotlar va global ko'lamda o'tkazilgan so'rovlarga tayanilib mazkur indeks hisoblanadi va mamlakatning global reytingdagi o'rni aniqlanadi. Mazkur indeks qiymati 0 va 100 oralig'ida joylashgan bo'lib, indeks qanchalik 0 ga yaqinlashsa, bu mamlakatda korruptsiyaning haddan tashqari kuchayganligini ko'rsatadi. Indeksning 100ga yaqinlashib borishi mamlakatda korruptsiya darajasi kamayib borayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston ushbu indeksda o'rnini biroz yaxshilab, 25 ball to'pladi. Mamlakat 180 davlat va hududlar orasida 153-o'rinni egalladi (o'tgan yilgi ko'rsatkich - 158-o'rin).

Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index)- bu dunyo mamlakatlarida inson taraqqiyotini aks ettiruvchi ko'p qirrali ko'rsatkich hisoblanadi. Mazkur indeks har yili BMTning Taraqqiyot dasturi ekspertlari va mustaqil xalqaro ekspertlar ko'magida hisoblab chiqiladi. Tadqiqotlar natijasi har yili BMTning Taraqqiyot dasturi tomonidan turli maxsus ma'ruzalar ko'rinishida chop etib boriladi. Insonning baxtli va uzoq umr kechirishi, tabiat va jamiyat yaratgan moddiy, nomoddiy va ijtimoiy ne'matlardan bahramand bo'lib yashashi Inson taraqqiyoti kontseptsiyasining asosini tashkil etadi. Inson taraqqiyoti indeksi- bu u yoki mamlakat aholisining insoniy taraqqiy etish darajasini ko'rsatadi, shuning uchun ham ko'pchilik holatlarda uni «turmush sifati» yoki «turmush darajasi» kabi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda qo'llashga harakat qiladilar. ITI mamlakat aholisining sog'liq darajasi, ta'lim olish imkoniyatlari va amaldagi daromadlari nuqtai nazaridan mazkur mamlakat erishgan natijalarni o'lchash imkonini beradi va bunda quyidagi uchta indeksdan foydalaniladi:

1. Kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi indeksi;
2. Savodxonlik darajasi indeksi;
3. Yalpi milliy daromad indeksi.

Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) human development index (HDI) ni hisoblash natijalariga ko'ra- ITI o'ta yuqori bo'lgan, ITI yuqori, ITI o'rtacha va ITI past bo'lgan mamlakatlar farqlanadi. 2019 yilda O'zbekiston ITI bo'yicha 190 ta mamlakat orasida 0,71 koeffitsient bilan 105-o'rinda qayd qilingan.

The Democracy index (Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi) — dunyo mamlakatlarida demokratik islohotlarning amalga oshirilishi va bu borada erishilgan natijalarni

aks ettiruvchi reyting ko'rsatkichi hisoblanadi. Mazkur indeks Buyuk Britaniyaning The Economist Intelligence Unit. xalqaro tadqiqot markazi-ning uslubiyoti bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Jahon mamlakatlarining demokratiyasi indeksi 60 ta asosiy ko'rsatkichlardan tashkil topgan bo'lib, mazkur ko'rsatkichlar beshta asosiy guruhga birlashtirilgan. Bu ko'rsatkichlar mamlakat ichidagi demokratik jarayon-larni, xususan: Saylovlar jarayoni va plyuralizm; Hukumat faoliyati; Siyosiy jarayonlarda fuqarolarning ishtiroki; Siyosiy madaniyat; Fuqarolarning huquq va erkinliklarini baholashga xizmat qiladi.

2019 yilda O'zbekiston mazkur indeks reytingida 167 ta dunyo mamla-katlari orasida 157-o'rinni egallagan.

Worldwide Press Freedom Index / Butunjahon matbuot erkinligi indeksi – dunyo mamlakatlarida matbuot erkinligi-ning holati borasidagi vaziyat va uni aks ettiruvchi o'ziga xos reyting hisoblanadi. Matbuot erkinligi va jurnalistlarning haq-huquqlarini himoya qiluvchi Chegara bilmas reportyorlar xalqaro nodavlat tashkiloti (Reporters Without Borders) mazkur reytingni yuritadi. Mazkur xalqaro nodavlat tashkiloti so'z erkinligi va o'zini namoyon qilish borasida muammolarga duch keluvchi jurnalistlar, yozuvchilar va shunga o'xshash shaxslarning huquqlarini himoya qilish va bu borada huquqbuzarliklarni qayd qiluvchi So'z erkinligining ta'minlanganlik holati bo'yicha axborotlar almashishning Xalqaro tarmog'i (Freedom of Expression Exchange Network, IFEX) ning a'zosi hisoblanadi.

Erkin matbuot indeksi barcha turdagi ommaviy axborot vositalari va tashkilotlari jurnalistlarining erkinlik darajasini baholaydi. Bunda u yoki bu mamlakat hukumatining ommaviy axborot vositalari va nashrlariga bo'lgan munosabati, ularning matbuot erkinligini ta'minlashga bo'lgan hatti-harakatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu indeks dastlab 2002 yilda 139 ta mamlakatni qamrab olgan holda tuzilgan va dunyo hamjamiyatiga taqdim etilgan. Tadqiqotlar ekspert baholashlariga asoslangan bo'lib, tashkilot mutaxassislari 43 ta asosiy ko'rsatkichlar asosida u yoki bu mam-lakatda matbuot erkinligining ta'minlanganlik holatiga baho beradilar. Indeks davlatlarni to'plagan ballariga qarab reyting ro'yxatiga kiritadi. Bunda 0 ball-eng yaxshi ko'rsatkich sifatida baholansa va u mamlakatda matbuot erkinligi mutloq ta'min etilganligini ko'rsatsa, reyting ballarining 0 dan ortib borishi mazkur mamlakatda matbuot erkinligi buzilayotganligidan dalolat beradi. Tashkilot ekspertlari mazkur indeks har bir mamlakatdagi matbuot va so'z erkinligini to'liq va aniq aks ettiradi, deb hisoblaydilar.

WORLDWIDE PRESS FREEDOM INDEX / BUTUNJAHON MATBUOT ERKINLIGI INDEKSI reytingida O'zbekiston 2019 yil 180 mamlakat o'rtasida 53,2 ball to'plagan holda 160 o'rinda qayd etildi.

Logistika samaradorligi indeksi (Logistics performance index)ning maqsadi logistika tizimining qulayligini aniqlash yo'li bilan mamlakatlarga savdo logistikasi samara-dorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni aniqlash va ularni hal etish imkoniyatlarini izlab topishda ko'maklashishdan iborat. Mahalliy va xalqaro ekspeditorlik kompa-niyalari operatorlari o'rtasida so'rovga o'tkazishga asoslangan holda, logistika samaradorligi indeksi dunyoning 155 ta mamlakati logistika tizimlarining qulayligini baholaydi. Indeksni aniqlashda ham miqdor va ham sifat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Mazkur indeks mamlakatlar logistika tizimlari o'rtasida o'zaro yaqinlik aloqalarini yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Mazkur indeks logistika xizmatlari zanjirining barcha bo'g'inlari bo'yicha mamlakat logistika tizimiga ham milliy va ham xalqaro darajada baho beradi.

Logistika samaradorligi indeksi- bu oltita asosiy tashkil etuvchilarni o'z ichiga olgan yaxlit ko'rsatkich logistika sektori faoliyati samaradorligining jamlanma ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkichlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1.bojxona organlari ishining samaradorligi;
- 2.infratuzilma sifati;
- 3.xalqaro yuk tashishlarni tashkil etishning osonligi;
- 4.logistika xizmatlarining sifati va kompetentligi;

- 5.yuklarni kuzatib borish imkoniyati;
- 6.etkazib berish muddatlariga rioya etilishi.

O'zbekiston logistika samaradorligi indeksida 2018 yilda 99 o'rinda qayd etilgan.

The UN Global E-Government Development Index (Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ikki yilda bir marta mamlakat fuqarolarining davlat xizmatlaridan qay tariqa samarali foydalana olish imkoniyatiga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida tuzib chiqiladi. Bunda asosiy urg'u davlat xizmatlarini taqdim etish va ulardan foydalanishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasiga beriladi. Mazkur indeksni hisoblashda davlat idoralari tomonidan AKTdan keng foydalanilishiga asosiy e'tibor qaratilgani holda quyidagi uchta tashkil etuvchi indeksni hisoblashning asosini tashkil etadi:

- 1.Internet xizmatlari bilan qamrab olish va ularning sifati;
- 2.AKT-infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi;
- 3.Inson kapitali.

O'zbekiston 2018 yilda mazkur reytingda 190 ta mamlakat orasida 81 –o'rinda qayd etilgan.

Statistik calohiyat- bu mamlakatning o'z aholisi va iqtisodiyoti to'g'risida yuqori sifatli ma'lumotlarni jamlay olish, tahlil qila olish va tarqata olish salohiyatini ifoda etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni monitoring qilish, davlat resurslari va vakolatlarini taqsimlash, xalqaro hamjamiyatni mamlakatda amalga oshirilayotgan dasturlar va siyosat to'g'risida xabardor qilish kabi aniq ma'lumotlarga asoslangan holda, boshqaruv jarayonlarining har bir bosqichida qarorlar qabul qilishda statistik ko'rsatkichlarning sifati alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon bankining statistik salohiyat ko'rsatkichi mamlakat statistika tizimi salohiyatini baholovchi jamlanma ko'rsatkich hisoblanadi. U uslubiyot, ma'lumotlar manbai, ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etilishi va ularning davriyligi kabi sohalarni baholashning diagnostik tuzilmasiga asoslanadi. Mamlakatlar mazkur sohalarga mansub bo'lgan 25 ta mezon bo'yicha tegishli ma'lumotlar asosida baholanadilar. Baholash 0 va 100 oralig'ida amalga oshiriladi.

United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) tomonidan hisoblanuvchi Sanoat raqobatbardoshligi indeksi (Competitive Industrial Performance Index (CIP) dunyo mamlakatlarining raqobatbardoshlik darajasini belgilab beruvchi jamlanma indekslar orasida eng yoshi hisoblanadi. Uning paydo bo'lganiga qariyb 10 yil bo'lganiga qaramasdan, undan mamlakatlar sanoat raqobatbardoshligini baholashda World Economic Forum (WEF) va International Institute for Management Development (IMD) tomonidan ishlab chiqilgan indekslar qatorida foydalanilib kelinmoqda. CIP mamlakatlarning raqobatlasha oladigan darajada qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qila olish layoqatlarini ko'rsatib beradi. UNDP muta-xassislarining fikricha raqobatbardoshlik ko'p qirrali tushuncha va jarayon bo'lganligi sababli u iqtisodiy o'sishga nisbatan iqtisodiyotda bo'layotgan jarayonlarni to'la-to'kis tavsiflab beradi. Raqobatbardoshlik o'rta va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotning ma'lum bir rivojlanish sur'atlarini ta'min eta olish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shu sababli ham sanoat raqobatbardoshligi indeksi asosiy e'tiborni qayta ishlovchi sanoat tarmog'iga qaratadi.

Investitsiyalarning tartibga solinishini cheklanganligi indeksi, dastlab 2003 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan hisoblab chiqilgan bo'lib, u milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlariga investitsiya kiritayotgan xorijiy investorlar uchun milliy qonunchilikda u yoki bu ko'rinishdagi cheklovlar mavjud yoki mavjud emasligini baholash imkonini beradi.

Cheklovlar darajasi va ularning ko'lamidan kelib chiqqan holda baholashlar amalga oshiriladi. Tarmoqlar bo'yicha baholashlar o'tkazilib bo'lingandan so'ng, mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha o'rtacha ball chiqariladi. Bugungi kunda mazkur indeks Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 68 ta a'zo davlatlari uchun ishlab chiqilgan.

Innovatsiyalar global indeksi (The Global Innovation Index)-innovatsiyalarning rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatlarni tadqiq qilish va tadqiqot natijalari asosida mamlakatlar reytingini tuzishni ko'zda tutadi. Mazkur indeks 2007 yildan buyon INSEAD xalqaro biznes maktabi, Kornell universiteti (Cornell University) va Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (World Intellectual Property Organization, WIPO) tomonidan tavsiya etilgan uslubiyot asosida hisoblab kelinmoqda va u bugungi kunda mamlakatlarning innovatsion taraqqiyot darajasini to'raligicha baholash imkonini beradi. Innovatsiyalar global indeksi (The Global Innovation Index) 82 ta o'zaro bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan tashkil topgan bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida bo'lgan mamlakatlarning innovatsion taraqqiyotni ta'minlash borasida erishgan natijalarini baholash imkonini beradi. Tadqiqot mualliflari mamlakatda qanchalik innovatsion taraqqiyotga intilish kuchli bo'lsa, mamlakat shunchalik iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanadi, deb hisoblaydilar.

Governance Matters (Davlat boshqaru-ving sifati) -bu davlat boshqaruving samaradorligi va sifati borasida mamlakatlar ko'rsatkichini o'zida jamlagan tadqiqot va mazkur tadqiqot natijalari asosida tuzilgan reyting hisoblanadi. Davlat boshqaruvi sifati indikatori Jahon banki (The World Bank) uslubiyoti asosida turli manbalardan olinadigan yuzlab ma'lumotlarni tahlil qilish asosida mazkur indikator hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi sifati (Worldwide Governance Indicators)ni tadqiq qilishda davlat boshqaruving turli jihatlarini o'zida aks ettiruvchi oltita turli xil indekslardan foydalaniladi:

1. Aholi fikrini inobatga olish va davlat idoralarning hisobdorligi (Voice and Accountability) indeksi turli siyosiy jarayonlar, fuqarolarning erkinliklari va siyosiy huquqlarining turli jihatlarini o'Ichaydi.

2. Siyosiy barqarorlik va tazyiqlarning yo'qligi (Political Stability and Absence of Violence) indeksi davlat boshqaruvi institutlarining va siyosiy tuzumning barqarorligi, davlat hokimiyatini konstitututsiyada ko'zda tutilmagan yo'llar bilan ag'darishga va mamlakatdagi siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga bo'lgan intilishlarning ehtimollik darajasini o'Ichaydi.

3. Hukumat faoliyatining samaradorligi (Government Effectiveness) indeksi davlat xizmatlarining sifati, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ichki siyosatga aholining ishonchi, davlat apparatining samarali faoliyat ko'rsatishi, davlat xizmatchilarining kompetentsiyalari, ularning turli siyosiy tazyiqlardan holi ekanliklarini baholaydi.

4. Qonunchilik sifati (Regulatory Quality) — xususiy sektorning jadal rivojlanishiga imkon beruvchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish borasida hukumatning qay darajada layoqatli ekanligini baholash imkonini beradi.

5. Qonun ustuvorligi (Rule of Law) indeksi turli subyektlarning o'rnatilgan qonunchilik normalariga nisbatan ishonch bildirishi va shuningdek ularning mazkur me'yorlarga rioya qilishlarini, jinoyatchilik darajasini, jamiyatning jinoyatchilikka bo'lgan munosabatini, huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatining samaradorligini baholaydi.

6. Korruptsiyani jilovlash (Control of Corruption) indeksi hukumat idoralari va keng jamoatchilikning korruptsiyaga bo'lgan munosabatlari, jamiyatda korruptsiyaga qarshi olib borilayotgan tadbirlarning samaradorligini o'Ichashga xizmat qiladi.

Byudjet ochiqligi indeksi (Open budget index) 1990 yilda asos solingan bugungi kunda shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan nufuzli xalqaro nodavlat tashkiloti (International Budget Partnership) tomonidan e'lon qilib boriladi. Bu boradagi tadqiqotlar doimiylik tavsifiga ega bo'lib, har ikki yilda bir marta e'lon qilib boriladi. Byudjet ochiqligi indeksini tuzishda uchta asosiy omil: byudjetga tegishli ma'lumotlardan keng jamoatchilikning xabardorligi; byudjet jarayonlarida keng jamoatchilikning ishtiroki va byudjet jarayonlarini nazorat qilishda rasmiy nazorat idoralari, shu jumladan qonunchilik institutlari va davlat taftish va nazorat idoralari faoliyatining samaradorligiga alohida e'tibor qaratiladi. Byudjet ochiqligiga doir ma'lumotlarni jamlashda 145 ta savolni o'z ichiga olgan anketa so'rovnomasidan foydalaniladi.

O‘zbekistonning xalqaro indeks va reytinglardagi bugungi kundagi o‘rnini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, qaerda aql va ilm talab qilinsa, o‘sha joyda mamlakatimizning o‘rni juda past darajada, yurtimizga ato etilgan bebaho resurslar bo‘yicha esa mamlakatimiz dunyo reytinglarida yuqori pog‘onalarni egallaydi.

Savollar:

O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslaridagi o‘rnini yaxshilash, mamlakatimizning yaqin istiqbolda innovatsion jihatdan taraqqiy etgan mamlakat qatoridan o‘rin olishi uchun birinchi navbatda qanday islohotlarni amalga oshirish lozim, deb o‘ylaysiz?

Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent-“O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘rsida”gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.
3. Abduvohidov A.A. va boshqalar. Innovatsiyalar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma.- T.: “Mumtoz so‘z”, 2020-636 bet.
4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Fisher S. R.Dornbush, R.Shmalenzi., «Экономика». «Delo». - М.: 1993. S.654.
10. Xajiev B.D., Axmedov D.Q., Zaxidov G.E., Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2018. - 428 bet.
11. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосиб. гос.

архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.

12. Xadjiev B.D., Abdullaev S.O., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. – T.: “Zebo yulduzlari MChJ”, 2018. - 417 bet.

13. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 542 b.

14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018

15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.

16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.

17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.

18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018

19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. · 2018

20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.

21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.

22. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi rasmiy sayti.

23. www.stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
24. <https://mineconomy.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti
25. <https://cbu.uz/>- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
26. <https://mf.uz/uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
27. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi
28. <https://uza.uz/uz> - O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti
29. [https://www.worldbank.org/en home](https://www.worldbank.org/en/home)- Jahon banki rasmiy sayti
30. <https://openbudget.uz/ru>
31. https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/Budjet_22_P_uz_11111.pdf

VII BOB. TO‘LIQ BIR TARMOQLI NEOKLASSIK O‘SISH MODELI

Iqtisodiyot- bu shunchaki cheklangan resurslardan foydalanish emas, balki cheklangan resurslardan oqilona foydalanish haqidagi fandir.

Gerbert Saymon.

1. Post keynschilik modellari

2. Neoklassik modellar

3. Iqtisodiy o‘shish modellarida texnik taraqqiyotning aks ettirilishi

Oltin-valyuta zahiralari taraqqiyot xizmatida

Oltin-valyuta zahiralari shakllantirish, optimal darajada tutib turish va zaruratga qarab ko‘paytirish barcha mamlakatlar Markaziy banklari zimmasidagi muhim vazifa hisoblanadi. Oltin-valyuta zahiralari hajmi har bir mamlakat milliy moliya bozorining barqarorligi, mamlakatning xalqaro kapital bozorlaridan kredit jalb qilish imkoniyatlari, tarkibiy islohotlar o‘tkazilishi hamda milliy iqtisodiyot va moliya bozorlari rivojlanishining ta‘minlanganligini ifodalaydi.

Turli mamlakatlarda oltin-valyuta zahiralari tarkibiga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, Xalqaro valyuta jamg‘armasi uning hajmini import bo‘yicha joriy majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash bilan qiyoslashni tavsiya qiladi. Biroq hozirgi sharoitlarda oltin-valyuta zahiralari hajmi va tarkibiga qo‘yiladigan an‘anaviy talablar sezilarli darajada farq qiladi va mamlakatning moliyaviy barqarorligini aniqlash uchun orientir hisoblanmaydi. Masalan, ayrim rivojlangan mamlakatlar o‘z xalqaro zahiralari mos kelmaydigan o‘ta yuqori tashqi qarz ko‘rsatkichlariga ega. AQSh uzoq yillar davomida zahiralarni asosan oltin ko‘rinishida saqlab keladi, bu o‘z valyutasini emissiya qilish imkoniyatini hisobga olgan holda mantiqan to‘g‘ridir. Xitoyda esa vaziyat aksincha, Xitoy yuanining XVJ valyuta savatiga kirishi hamda oltin-valyuta zahiralari va oltin sotib olishning yuqori o‘shish sur‘atlariga qaramay, oltin-valyuta zahiralari tarkibida naqd valyuta va depozitlar ustunlik qilmoqda. O‘zbekiston eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar sirasiga kiradi, oltin ko‘rinishidagi salmoqli zahiralarga ham ega. Keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi barobarida tashqi qarzning ko‘payishi va tashqi savdoda salbiy saldo tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu esa ba‘zan xavotirga sabab bo‘lib, jahonda bugungi tendentsiyalarni hamda mamlakat oltin-valyuta zahiralari zamonaviy funktsiyalaridan to‘liqroq foydalanish imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Asosiy normativ hujjatlarda davlatning xalqaro zahiralari deganda Xalqaro valyuta jamg‘armasi “To‘lov balansi va xalqaro investitsion pozitsiyasi bo‘yicha qo‘llanma”sining “ pul-kredit tizimini boshqarish organlari erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan va ular tomonidan to‘lov balansini moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, valyuta kursiga ta‘sir qilish uchun valyuta bozorlarida intervensiyalar o‘tkazish va boshqa (masalan, valyuta va iqtisodiyotga ishonchni saqlab qolish kabi, shuningdek tashqi qarz olish uchun asos sifatida) tegishli maqsadlarda nazorat qilinadigan tashqi aktivlar” rasmiy ta‘rifi tushuniladi. Mazkur ta‘rifda xalqaro zahiralari kontseptsiyasi asosida to‘lov balansining tarkibi yotadi, “zahira aktivlari” esa davlatning oltin va erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta shaklidagi moliyaviy aktivlari yig‘indisini ifodalaydi. Bugungi kunda XVJ konvertatsiya qilinadigan valyutalar ro‘yxatini yuritmaydi. 1978 yilda XVJ Bitimi moddalariga kiritilgan ikkinchi tuzatish kuchga kirgan bo‘lib, “konvertatsiya qilinadigan valyuta” tushunchasi Bitim moddalarida belgilangan “erkin muomaladagi valyuta” atamasi bilan almashtirildi. Erkin muomaladagi valyuta ta‘rifiga kelsak,

XVJ Bitimining XXX moddasida (f) “erkin muomaladagi valyuta a’zo-davlat valyutasini anglatib, Fond ta’rifiga ko’ra, u chindan ham (1) xalqaro operatsiyalarda to’lovlarni amalga oshirishda keng qo’llaniladi va (2) asosiy valyuta bozorlarida keng ko’lamda muomalada bo’ladi. Hozirda evro, yapon ienasi, funt sterling, AQSh dollari va Xitoy yuani “erkin muomaladagi” sifatida ta’riflanuvchi valyutalar hisoblanadi.

Ko’pgina davlatlarda oltin-valyuta zahiralari tarkibi monetar oltin (quyma va tangalar kabi fizik ko’rinishda), naqd valyuta va Markaziy bankning xorijiy banklardagi korrespondent hisob raqamlaridagi, asosan, AQSh dollari va evro ko’rinishidagi depozitlari, likvid qimmatli qog’ozlar, SDR ko’rinishidagi aktivlar va XVJdagi zahira pozitsiyasini o’z ichiga oladi. Ularning but saqlanishi, likvidligi va serdaromadligining optimal uyg’unligini ta’minlash ustuvor maqsad bo’lib, quyidagi vazifalarni hal qilish uchun zahiralarni maqbul miqdorda saqlashga qaratilgan:

– milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash va himoya qilish, shu jumladan, uning kursini ushlab turish maqsadida intervensiyalar o’tkazish uchun;

– Markaziy bank vakolatiga kiruvchi to’lovlarni (jumladan, tashqi davlat qarziga xizmat ko’rsatish uchun to’lovlarni) xorijiy valyutada amalga oshirish;

– davlat tomonidan o’z xalqaro majburiyatlarini bajarishda barqarorlikni saqlash.

Xalqaro amaliyotda zahiralarning etarililigini tavsiflash uchun quyidagi ko’rsatkichlar qo’llaniladi:

– importni qoplash koeffitsienti (oylarda) bir oylik zahiralarni hajmi va davlat importi hajmining nisbati sifatida hisoblanadi. Zarur bo’lgan minimal qiymat uch oylik muddat sanaladi. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlariga ko’ra, 2021 yil yakunlari bo’yicha zahiralarni hajmi 34 749,4 mln AQSh dollariga teng bo’lgani holda (O’zR Markaziy banki (MB) ma’lumotlariga ko’ra) import hajmi 25 461 mln dollari yoki chorakda 6 365,25 mln dollarni tashkil etgan. Ya’ni, qoplash koeffitsienti tavsiya etilgan minimal ko’rsatkichdan qariyb 5 baravar yuqori;

– intervensiyalarni qoplash koeffitsienti zahiralarni hajmi va bir kunlik intervensiyalar hajmining (o’rtacha, maksimal) nisbati sifatida hisoblanadi. Zarur bo’lgan minimal qiymat, odatda, belgilanmaydi. O’zbekiston MB ma’lumotlariga asosan, 2020 yilda xorijiy valyuta savdosi saldosi 5 235,9 mln AQSh dollarini, 2021 yil yakunlari bo’yicha esa 3 237 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo’lib, bu mavjud zahiralarni hajmi bilan to’liq qoplanadi;

– Grinspen mezoni yoki mamlakatning qisqa muddatli qarzini qoplash koeffitsienti (foizda) zahiralarni hajmi va davlat qarzi nisbati sifatida, shu jumladan, davlat tomonidan (o’n ikki oygacha bo’lgan muddatga) berilgan kafolatlar hajmini ham qo’shgan holda, hisoblanadi. Zarur bo’lgan minimal qiymat – 100% qoplash darajasi hisoblanadi. MB ma’lumotlariga ko’ra, O’zbekistonning davlat tashqi qarzi tarkibida qisqa muddatli majburiyatlar mavjud emas, qarzni olish ko’proq uzoq muddatli kreditlar bo’yicha amalga oshiriladi;

– Gvidotti mezoni yoki tashqi qarzni bo’yicha to’lovlarni qoplash koeffitsienti (foizlarda) yillik davlat tashqi qarzi bo’yicha (yangi tashqi qarzlarni amalga oshirmagan holda) to’lovlar va zahiralarni hajmining nisbati sifatida hisoblanadi. Zarur bo’lgan minimal qiymat – 100% qoplash darajasi sanaladi. O’zbekistonda so’nggi uch yilda tashqi qarzga xizmat ko’rsatishning o’rtacha yillik qiymati 1,2-1,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etganini inobatga olsak, ushbu ko’rsatkich ham mavjud zahiralarning etarli darajada ekanligini tasdiqlaydi;

– Reddi mezoni yoki import va tashqi qarzni bo’yicha to’lovlarni qoplash koeffitsienti (foizlarda) zahiralarni hajmi va import hajmi miqdori (import oylari soni farq qilishi mumkin) va bir yillik davlat tashqi qarzi bo’yicha to’lovlarning nisbati sifatida hisoblanadi. Zarur bo’lgan minimal qiymat – 100% daraja hisoblanib, bu ko’rsatkich bo’yicha ham O’zbekiston talablariga javob beradi;

– pul bazasini qoplash koeffitsienti zahiralarni hajmi va keng ma’noda pul bazasi hajmining nisbati sifatida hisoblanadi. Zarur bo’lgan minimal qiymat – 100% daraja hisoblanadi. MB

ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yil yakunlari bo'yicha pul massasi hajmi 130,5 trln so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich (AQSh dollarining joriy kursini hisobga olgan holda) tavsiya etilgan limitlardan qariyb 3 baravar yuqori ekanini ko'rish mumkin.

Oltin-valyuta zahiralari tarkibining tahlili ularning aksariyat qismi monetar oltindan iborat ekanini ko'rsatdi: 2021 yil oxirida qariyb 61,5%. Oltin qiymatining o'zgarishi asosan uning xalqaro bozorlardagi narxining o'zgarishi natijasidir. Oltin hajmining yuqoriligi asosan oltin narxining oshishi va narx qiymati eng yuqori bo'lgan paytda sotilishi bilan bog'liq. Eksport hajmlari miqdoriy jihatdan unchalik o'zgarmaydi, ularning oltin-valyuta zahiralari tarkibidagi miqdori ham kamaymaydi. Masalan, oltinning ulushi yuqori. Rossiya MDH mamlakatlari orasida eng yirik oltin sohiblari top-20 taligiga kirib, 2 301,64 tonna oltin hajmi bilan 5-o'rinni egallagan, uning oltin-valyuta zahiralari tarkibidagi monetar oltin hajmi 21,7 foizni tashkil qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, Qozog'iston so'nggi yillarda faol oltin xaridori hisoblanib, 2021 yilda eng yirik oltin hajmiga ega davlatlar safidan o'rin egalladi. Qozog'istonning oltin zahiralari oltin-valyuta zahiralari tarkibida 402,38 tonna yoki 68,32 foizni tashkil etadi.

Oltin hajmi va oltin-valyuta zahiralari 2019 yil boshi va 2021 yil oxirida o'tgan vaqt davomidagi ma'lum o'zgarishlarga qaramasdan, oltin hajmi 11,4 mln troy untsiyasi (yoki 353,6 tonna oltin) darajasida saqlanib qoldi. Butunjahon oltin kengashining (WGC) 2021 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston oltin-valyuta zahiralari tarkibidagi oltin hajmi bo'yicha dunyoning top-20 taligi reytingida (Saudiya Arabistoni, Buyuk Britaniya va Liberiya bilan o'zib ketgan holda) oltin-valyuta zahiralari tarkibida 352,7 tonna yoki 59,6 % oltin hajmi bilan 15-o'rinni egalladi. Reytingda birinchi o'rinni uzoq yillardan beri AQSh egallab kelmoqda, uning zahiralari jahondagi monetar oltinning chorak qismiga to'g'ri kelib, oltin-valyuta zahiralari tarkibidagi oltin hajmi 8 133 tonna yoki 66,28 foizni tashkil qiladi (2021 yilning 4 choragi). Germaniya, Italiya, Frantsiya, Gollandiya kabi mamlakatlarda ham oltin-valyuta zahiralari umumiy hajmi o'sish tendentsiyasi shu jumladan Xitoyda ham kuzatilayotgan bo'lib, mazkur davlat 1 948,3 tonna (oltin-valyuta zahiralari tarkibida atigi 3,3 foizni tashkil qiluvchi) oltin hajmi bilan reytingda 7-o'rinni egallagan. Oltin bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha an'anaviy ravishda eng yirik bozor hisoblangan Shveysariya 1 040 tonna oltin hajmi bilan reytingda 7-o'rinni band qilmoqda, uning o'z zahiralari tarkibidagi oltin hajmi 5,44 foizni tashkil etadi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari ham eng yirik oltin sohiblari top-20 taligiga kiradi. Jahonda AQShdan keyin ikkinchi o'rinni 2 814 tonna oltin hajmi bilan Xalqaro valyuta jamg'armasi egallagan. Oltin-valyuta zahiralari tarkibida 504,8 tonna yoki 34,6% oltin hajmiga ega Yevropa Markaziy banki (Rossiya, Xitoy, Hindistondan keyin) 12-o'ringa loyiq topildi. Umumiy hisobda, eng yirik oltin sohiblari 20 taligiga 10 ta iqtisodiy rivojlangan davlat, 3 ta yangi industrial mamlakat va mos ravishda 7 ta rivojlanayotgan davlat kirdi. Tahlillar ko'rsatganidek, oltin-valyuta zahiralari hajmi va tarkibi mamlakatning iqtisodiy ahvoli va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi, u monetar va valyuta siyosatini amalga oshirishda Markaziy bankning ko'p jihatdan moslashuvchan vositasi hisoblanadi. Pirovardida, mamlakat iqtisodiyotining o'sishi oltin-valyuta zahiralari ko'payishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, oltin-valyuta zahiralari holati hamda mamlakat tashqi qarzining o'sishi, ichki valyuta bozori va tashqi savdoning rivojlanish darajasi o'rtasida yaqindan bog'liqlik mavjud.

O'zbekistonning ichki valyuta bozori 2019–2021 yillarda xorijiy valyutaga bo'lgan talabning barqaror o'sishi bilan xarakterli bo'ldi, agar 2020 yilda jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasini sotib olishga bo'lgan talab yuqori sur'atda o'sgan bo'lsa, 2021 yilda korxonalarining ishbilarmonlik va investitsion faolligi tiklanishi natijasida xorijiy valyutani xarid qilish hajmining 82 foizdan ortiq qismi ularga to'g'ri keldi. Valyutaga bo'lgan talabning yuqori o'sish dinamikasi tovarlar va xizmatlar tashqi savdosida salbiy saldoni oshiruvchi importning o'suvchi sur'atlari bilan chambarchas bog'liq.

Inflyatsiyaning o'sish sur'atlari, o'zbek so'mining devalvatsiyasi, tijorat banklaridagi depozitlar bo'yicha real foiz stavkalarining nisbatan pastligi aholining xorijiy valyutadagi uzoq

muddatli jamg'armalarini saqlab turishga intilishini keltirib chiqarmoqda. Shu o'rinda, 2021 yilda so'mni almashtirish kursining 3,5% eng past devalvatsiyasi hamda jismoniy shaxslarning jami depozitlari hajmining o'sishi kuzatilganini ta'kidlab o'tish joiz. Bu, asosan, milliy valyutadagi depozitlarning ko'payishi hisobiga sodir bo'ldi. Jumladan, IV chorakda aholining banklardagi jami depozitlari 13,4%, milliy valyutadagi depozitlar 17,4%, xorijiy valyutadagi depozitlar esa 5,7 foizga oshgan.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda valyuta bozorida xorijiy valyutaning umumiy taklif hajmi 2020 yilga nisbatan 1,6 baravarga o'sib, 22,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Bunda eng katta miqdor (11 mlrd AQSh dollari) xo'jalik yurituvchi subyektlar hissasiga to'g'ri keldi, bu o'tgan yilga nisbatan (6,7 mlrd AQSh dollari) 1,7 baravar ko'p; banklar va jismoniy shaxslar tomonidan 7,4 mlrd AQSh dollari sotib olindi, bu esa 2020 yilga (5,1 mlrd dollar) nisbatan 44 foizga ziyod.

Markaziy bank oltin-valyuta zahiralarning "neytralligi" tamoyiliga amal qilgan holda, ulardan talab va taklif asosida shakllanadigan valyuta kursini saqlab turish uchun foydalanmaydi. MB valyuta vositalarini yil davomida sotib olingan monetar oltinlar chegarasida sotadi. MB tomonidan inflyatsion targetlash bo'yicha olib borilayotgan monetar siyosat pul massasining haddan ortiq o'sishiga yo'l qo'ymaslik tamoyiliga asoslanadi. Shu bois, MB ichki valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirishda pul mablag'larini jamg'arish yoki mavjud oltin-valyuta zahiralardan foydalanish maqsadini ko'zlamaydi.

Bunday yondashuv o'zgarib turuvchi almashuv kursi rejimiga mos keladi, unda Markaziy banklarning ichki valyuta bozorida ishtiroki kuzatilmaydi yoki bu minimal darajadadir.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosining 2021 yil yakunlari bo'yicha tahlili tashqi savdo aylanmasi 16% yoki 5,8 mlrd AQSh dollariga o'sib, 42,1 mlrd dollarni (uning tarkibida eksport – 39,5%, import – 60% ortiq) tashkil etganini ko'rsatdi. Eksport tarkibidagi oltinni hisobga olmaganda, ushbu nisbat mos ravishda 33% va 67 foizni tashkil qiladi, ya'ni import eksportga qaraganda deyarli ikki baravar ko'p, bu esa ichki bozorda xorijiy valyutaga bo'lgan talabning

yanada o'sishiga olib keladi. Oltinni hisobga olmagan holda, tovar va xizmatlar eksportining 34% o'sishi ijobiy tendentsiya hisoblanib, importning o'sish sur'atlarini ortda qoldirdi. Biroq tashqi savdodagi salbiy saldo 8 850,4 mln AQSh dollarini (oltin eksportini hisobga olmaganda – 12 960,2 mln AQSh doll.) tashkil qildi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining yalpi tashqi qarzi 2021 yilning 3-choragi yakunlari bo'yicha 41,6 mlrd AQSh dollariga tenglashib, yil boshiga nisbatan 14,5% yoki 5,3 mlrd dollarga oshgan. Davlat qarzi yalpi tashqi qarzning 41,5% yoki 17 266,6 mln AQSh dollarini tashkil etadi va tamoman uzoq muddatlidir. Moliya vazirligi baholariga ko'ra, 2021 yil yakuni bo'yicha umumiy davlat qarzining YaIMga nisbati 38%, jumladan, tashqi davlat qarzining 34% va ichki davlat qarzining 4 foizni

tashkil etadi. Davlat qarzi o'sishiga qaramay, u "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunda belgilangan davlat qarzining yuqori chegarasidan (YaIMga nisbatan 60%) oshgan emas. Pandemiya davrida davlat qarzining ortishi jahonning deyarli barcha mamlakatlarida kuzatildi, umumjahon davlat qarzi yangi maksimumlarga ko'tarildi va jahon YaIMining 100 foiziga yaqinlashdi. Biroq qarzga xizmat ko'rsatish qobiliyati turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi. O'z bozori shakllanayotgan ko'pgina davlatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar moliyalashtirish borasida anchayin qat'iy cheklovlarni va qarzdorlik vaziyatiga ko'ra zaiflashuv omillarining ortishini boshdan kechirmoqda. Hozirda foiz stavkalari past bo'lsa-da, ularning nogahoniy ko'tarilishi moliyalashtirish shartlarining jiddiy keskinlashishiga va kapital oqimlari yo'nalishidagi salmoqli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotning pandemiyadan keyingi tiklanish davri qo'shimcha moliyaviy resurslar va investitsiyalarni talab qiladi. Shu ma'noda oltin-valyuta zahiralari, qoida o'laroq, tiklanishni

moliyalashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun ishlatilmasligi kerak, u mamlakatning moliyaviy barqarorligini va ichki moliya bozorini kafolatlovchi jamg'arma vazifasini bajaradi. Tahlillarning ko'rsatishicha, bir qator rivojlangan davlatlarning tashqi qarzi YaIM hajmidan ancha ortiq, shu bilan birga, moliya bozori qanchalik ochiq bo'lsa, resurslarni jalb qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ham shunchalik ko'p yaraladi.

Iqtisodiyot barqarorligi, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikning yuqori darajasi asosiy omil bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, XVJ jahon moliyaviy arxitekturasi barqarorligining asosiy tartibga soluvchisi sifatida ikki tomonli standartlarni ham qo'llaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi qarzning o'sishini cheklash bo'yicha tavsiyalar mavjud, rivojlangan davlatlar esa bunda ko'proq qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha ichki iqtisodiyotning imkoniyatlariga tayanadi.

XVJ va Jahon banki 2018 yildan beri mamlakatlarda qarzdorlik vaziyatining qaltirlashuvi omillari o'sishi muammolarini hal qilishda ko'p tomonlama yondashuvni qo'llaydi. COVID-19 bilan bog'liq inqiroz raqamlashtirishga va raqamli pullardan foydalanishga o'tish uchun katalizator vazifasini o'tadi. Ushbu tendentsiya yaqin kelajakda butun xalqaro valyuta tizimini o'zgartirib yuborishi mumkin.

“Экономическое обозрение” jurnali, № 4 (4) 2022

O'qitish maqsadi: Neoklassik iqtisodiy o'sish modellarining iqtisodiy mazmuni va ularning iqtisodiy siyosat vositalarini ishlab chiqishdagi o'rnini aniqlashtirish va bu borada nazariy bilimlarni shakllantirish.

Tayanch iboralar: iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish omillari, texnologik taraqqiyot, neoklassik iqtisodiy o'sish modellari, kapital, mehnat, unumdorlik, chegaraviy mahsulot, o'rtacha ko'rsatkichlar, iqtisodiy taraqqiyot.

7.1. Post keynschilik modellari

Keynschilikdan keyingi o'sish modellari-bu uzoq davrdagi iqtisodiy jarayonlarni tavsiflash uchun qisqa vaqt ichida Keyns taxminlari va iqtisodiy sharoitlarni tahlil qilish usullari qo'llaniladigan modellar.

Iqtisodiy o'sishning keynschilikdan keyingi modellarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda ishlab chiqarish texnologiyasi Leontev ishlab chiqarish funksiyasi orqali doimiy xarajatlarning texnologik koeffitsientlari bilan ifodalanadi (ishlab chiqarish omillarining doimiy o'rtacha unumdorligi): $y = \min\{qN, \sigma K\}$,

Bu yerda: q va σ - mos ravishda mehnat va kapitalning o'rtacha unumdorligi.

Agar $qN < \sigma K$ bo'lsa, ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'ladi, $qN < \sigma K$ holatida esa ishsizlik kuzatiladi. Ikkala ishlab chiqarish omili ham, faqatgina $qN = \sigma K$ holatida qo'llaniladi.

Keynschilikdan keyingi texnologiyalarning o'sish modellarida bir-birining o'rnini bosmaydigan ishlab chiqarish omillaridan foydalanish -bu bevosita narxlarning egiluvchanligi natijasidir.

Xarrod-Domar modeli. U davlatning ishtirokisiz yopiq iqtisodiyot ko'rib chiqiladi, mazkur modelda real sektorning dinamik muvozanati quyidagi tenglik bilan ifodalanadi:

$$\min \{qN_t, \sigma K_t\} = C_y y_t + I_t.$$

Mehnat taklifining o'sishi ekzogen ravishda berilgan aholi o'sishining doimiy darajasi bilan belgilanadi:

$$N_t = (1+n)^t N_0 = e^{nt} N_0.$$

Bu yerda: e – natural logarifm asosi; n – aholining o'sish sur'ati.

Kapital taklifi dinamikasi investitsiyalar hajmi bilan belgilanadi, ushbu holatda $\Delta K_t = I_{t-1}$. Muvozanatlashgan iqtisodiyotda investitsiyalar hajmi jamg'arish me'yori ($s = 1 - C_y$) ning berilgan me'yoridagi jamg'armalar hajmiga teng bo'ladi va real milliy daromadga mutanosib hisoblanadi:

$$\Delta K_t = I_{t-1} = S_{t-1} = s y_{t-1}.$$

Kapitalning o'sishi (ΔK_t) uning berilgan unumdorligi sharoitida yalpi taklifni quyidagi miqdorga ko'paytiradi:

$$\Delta y_t^s = \sigma \Delta K_t = \sigma s y_{t-1} \Rightarrow \hat{y}_t^s = \sigma s.$$

Shunday qilib, ikkita ekzogen ko'rsatkich - kapital unumdorligi va jamg'arish me'yori - yalpi taklifning o'sish sur'atini belgilab beradi. Agar yalpi talabning o'sish sur'ati ham σs ga teng bo'lsa, u holda vaqt o'tishi bilan oshib boruvchi ishlab chiqarish quvvatlari har bir davrda to'liq quvvat bilan ishlaydi. R. Xarrod bunday o'sish sur'atini "kafolatlangan" o'sish deb ataydi, chunki u o'sib borayotgan iqtisodiyotda kapitaldan to'liq foydalanishni kafolatlaydi.

Ammo yalpi talab ham xuddi shunday sur'atja o'sadimi, degan savol tug'iladi. Bu o'z navbatida multiplikativ samaraga bog'liq bo'ladi: $\Delta y_t^D = \Delta l_t / s$.

Chunonchi $y_{t-1}^D = l_{t-1} / s$, u holda $\frac{\Delta y_t^D}{y_{t-1}^D} = \frac{\Delta l_t}{l_{t-1}} \equiv \hat{I}_t$.

O'z navbatida milliy daromadning kafolatlangan o'sishini ta'minlash sharti bo'lib quyidagi tenglik hisoblanadi:

$$\hat{I}_t = \sigma s. \quad (1)$$

Mabodo tadbirkorlar ma'lum bir sabablarga ko'ra, boshqa bir investitsion strategiyadan foydalansalar va $\hat{I}_t \neq \sigma s$, u holda $y_t^S \neq y_t^D$. $\hat{I}_t > \sigma s$ holatida joriy davrda yalpi talab yalpi taklifdan oshiq bo'ladi, bu o'z navbatida tadbirkorlarni o'z ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishga undaydi va investitsiyalar hajmi o'sib boradi, bunda $\hat{I}_t > \sigma s$ tengsizlik kuchayib boradi, ushbu holatda $y_t^S > y_t^D$, holat vujudga kelishi asnosida bozordagi ortiqchalik tadbirkorlarni investitsiyalarni qisqartirishga undaydi, ayni chog'da muvozanatni tiklash uchun ularni ko'paytirish talab qilinadi. Shu tariqa, Xarrod-Domar modelida muvozanat beqaror bo'ladi. Milliy daromadning kafolatlangan o'sish sur'ati o'sib borayotgan kapital miqdoridan to'liq foydalanishni ta'minlaydi. Shuningdek, ortib borayotgan ishchi kuchi ta'minotidan foydalanish bilan bog'liq vaziyat qanday bo'ladi?

Mavjud texnologiyaga mos ravishda ikkala ishlab chiqarish omillaridan bir paytning o'zida to'laqonli foydalanishga $K/N = q/\sigma = \text{const}$ holatida erishiladi. O'z navbatida mehnat va kapitaldan to'liq foydalanish holatida iqtisodiy o'sishga faqatgina ularning bir xil sur'atda o'sishi hisobiga erishish mumkin: $\hat{N}_t = \hat{K}_t$. Mehnatning o'sish sur'ati ekzogen bo'lgani holda, kapital investitsiyalarning o'sish sur'atiga teng bo'ladi va u o'z navbatida σs ko'paytmasiga teng bo'ladi. Shu sababli to'la bandlikni ta'minlash va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'lig'icha foydalanish uchun quyidagi tenglik bajarilishi lozim:

$$\sigma s = n. \quad (2)$$

Ko'rib chiqilayotgan modelda mazkur tenglikning uchchala ko'rsatkichlari qiymati ekzogen ravishda o'rnatilganligi sababli, mamlakat ishlab chiqarish salohiyatidan to'liq foydalangan holda iqtisodiy o'sishga erishish favqulodda tasodifiy hodisa hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy o'sish, mehnat va kapitaldan to'liq foydalanishga asoslangan modelni yaratish uchun jamg'arish me'yorini endogen ravishda aniqlash (Kaldor modeli) kerak bo'ladi yoki ishlab chiqarishning o'zgaruvchan omillariga asoslanuvchi texnologiyani qo'llash talab qilinadi (Solou-Svan modeli).

N. Kaldor jamg'arish me'yorini quyidagi taxminlar asosida endogen o'zgaruvchiga aylantiradi:

- foyda oluvchilar (tadbirkorlar) o'z daromadlarini ish haqi oluvchilarga (ishchilarga) qaraganda ko'proq tejaydilar;

- omillar bozorlaridagi narxlar talab va taklif nisbatiga (mukammal raqobat holati) moslashuvchan munosabatda bo'ladi.

Tadbirkorlar va ishchilarning jamg'arish me'yorini mos ravishda s_b va s_w bilan belgilab olamiz.

$y = \frac{\partial y}{\partial N} N + \frac{\partial y}{\partial K} K$ bo'lganligi bois va mukammal raqobat sharoitida $\partial y / \partial N = w$; $\partial y / \partial K = r$ (bu yerda: w – real ish haqi stavkasi; r – kapitalning real daromadliligi), ushbu holatda $y = wN + rK$ bo'ladi va mamlakatda jamg'armalarning umumiy hajmi quyidagiga teng bo'ladi:

$$S = s_b rK + s_w (y - rK) \Rightarrow s = s_b \frac{rK}{y} + s_w - s_w \frac{rK}{y}.$$

Milliy daromadda tadbirkorlarning ulushini quyidagicha belgilab olamiz: $rK/y = \Omega$. Ushbu holatda milliy xo'jalikda jamg'arish me'yorini tadbirkorlarning milliy daromaddagi ulushining funksiyasi sifatida ifodalashimiz mumkin:


$$s(\Omega) = s_w + (s_b - s_w)\Omega.$$

Endilikda o‘shib borayotgan mehnat resurslaridan to‘liq foydalangan holda milliy daromadning kafolatlangan sur‘atda o‘shish shartini ifodalovchi tenglik (2) quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi: $\sigma[s_w + (s_b - s_w)\Omega] = n$.

Ushbu shart milliy daromadda foydaning ulushi quyidagicha bo‘lganda bajariladi:

$$\Omega^* = \frac{n/\sigma - s_w}{s_b - s_w}$$

7.1-rasmda $s(\Omega)$ chizmasida muvozanatli nuqta qanday topilishi ko‘rsatilgan.



7.1-rasm. Kaldor modelida muvozanatli o‘shishning barqarorligi.

Ishlab chiqarish omillarining moslashuvchan narxlari va endogen jamg‘arish me‘yori ishlab chiqarish funksiyasining turidan qat’i nazar, Kaldor modelida barqaror muvozanatni ta‘minlaydi. Agar $\Omega > \Omega^*$, u holda

$$s > \frac{n}{\sigma} \Rightarrow sy > \frac{ny}{\sigma} \Rightarrow S > nK \Rightarrow I > nK,$$

ya’ni, investitsiyalar hajmi qo‘shimcha xodimlarni qurollantirish uchun zarur bo‘lgan kapital miqdoridan oshadi. Bir-birining o‘rnini bosmaydigan ishlab chiqarish omillarining mavjudligi sharoitida kapitalning ortiqchaligi ishchi kuchiga bo‘lgan talabni va uning narxini oshiradi. Milliy daromadda mehnat ulushining oshishi tufayli jamg‘arish me‘yori pasayadi. $\Omega < \Omega^*$ holatida jamg‘arma barcha qo‘shimcha ishchilarni kapital bilan qurollantirish uchun etarli bo‘lmaydi; kon’yunkturaviy ishsizlikning paydo bo‘lishi tufayli ishchi kuchi narxi va uning

milliy daromaddagi ulushi pasayadi, bu esa tejash me'yorining oshishiga olib keladi.

7.2. Neoklassik modellar

Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellarining asosiy tavsiflovchi jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- Ishlab chiqarish omillarining chegaraviy unumdorligi sharoitida ishlab chiqarish omillarining narxining o'zaro tengligi va narxlarning egiluvchanligini ta'min etuvchi mukammal raqobat holatida iqtisodiyotning amalda bo'lishi borasidagi taxminlar;
- Yalpi talab funksiyasining mavjud emasligi, chunki narxlarning egiluvchan tizimi yalpi talabning yalpi taklif bilan tenglashishini ta'minlaydi;
- Ne'matlar bozorida $I = S$ bo'lganligi bois, investitsiyalar funksiyasining mavjud emasligi;
- Texnologiyalarni doimiy ko'lam samarasi va o'rin almashtiruvchi ishlab chiqarish omillariga ega bo'lgan ishlab chiqarish funksiyasi sifatida tasvirlash.

Neoklassik modellarning asoschilari bo'lib, R.Solou va T.Svan hisoblanadilar.

Solou-Svan modeli. Davlat ishtirokisiz yopiq iqtisodiyotda har bir davr oralig'ida ham mehnat va kapital taklifi keyns post-Keyns modellarida bo'lgani kabi aniqlanadi:

$$N_t = e^{nt} N_0, \quad dK_t = I_t = S_t = sy_t.$$

Mehnat ekzogen ravishda berilgan o'sish sur'ati bilan ortib boradi, kapital o'sishi esa investitsiyalar hajmiga mos keladi; o'z navbatida investitsiyalar jamg'armalarga teng bo'lib, uning hajmi keynscha jamg'arma funksiyasi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi bilan ifodalanadi: $y_t = K_t^\alpha N_t^{1-\alpha}$.

Texnologiya mehnat va kapitalning turli xil kombinatsiyalariga ega tovarlarni ishlab chiqarishga imkon berganligi sababli, har bir davrda ishlab chiqarishning har ikkala omilidan to'liq foydalanish mumkin, hatto ular har xil sur'atlarda o'ssa ham: ishchi kuchining ortiqcha taklifini uning kapital bilan qurollanganlik darajasini pasaytirish orqali bartaraf qilish mumkin bo'lsa. kapitalning ortiqchaligini esa mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasini oshirish yo'li bilan yo'qotish mumkin bo'ladi. Kapitalning ham xuddi shu taxlit o'zgarishi ishlab chiqarish omillari narxining nisbatlariga bog'liq.

Kapital va mehnatdan to'liq foydalanilishiga erishish borasida ko'rib chiqilayotgan modelda mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi qay tarzda o'zgarishini tahlil qilamiz.

Model holatida mehnatning o'sish sur'ati ekzogen ravishda $\dot{N}_t = n$, kapitalning o'sish sur'ati esa jamg'arma me'yori bilan belgilanadi:

$$\dot{K}_t = \frac{dK_t}{K_t} = \frac{sy_t}{K_t} = \frac{sy_t/N_t}{K_t/N_t} = \frac{sq_t}{\psi_t}$$

Shuning uchun berilgan shartlar holatida mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining o'sishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\dot{\psi}_t = \frac{sq_t}{\psi_t} - n$$

Bunda quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$sq^* = n\psi^* \quad (3)$$

Yuqoridagi formulaning iqtisodiy mohiyatini osishga harakat qilamiz.

Xususan, q bir ishchiga to'g'ri keluvchi daromadni ifoda etsa, s^*q ko'paytmasi uning jamg'armalari miqdorini (kapital taklifi) aks ettiradi. $n^*\psi$ ko'paytmasi o'rtacha har bir xodim muayyan bir davr mobaynida ishlab chiqarishga jalb qilingan xodimlarni ψ darajasida kapital bilan qurollantirish uchun qancha miqdorda kapital taklif qilish lozimligini ko'rsatadi. Shu sababli $sq^* = n\psi^*$ sharoitida jamg'armalar hajmi mehnat taklifining n sur'atlarda o'sishi holatida uning kapital bilan qurollanganlik darajasi doimiy tarzda ψ^* ga teng bo'lishi uchun

zarur bo'lgan investitsiyalar hajmiga teng bo'ladi. Ishlab chiqarishga yangidan jalb qilinayotgan ishchilar boshqalar bilan bir qatorda kapital bilan qurollanganlik darajasiga ega bo'lishlari talab qilinadi, chunki ularda bir xil ish haqi va bir xil chegaraviy mehnat unumdorligi bo'ladi; shuni qayd qilish lozimki mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi bir xil bo'lgan sharoitida mehnatning chegaraviy unumdorligi ham bir xil bo'ladi.


Modelda foydalaniluvchi ishlab chiqarish funksiyasini quyidagi tasvirlashimiz mumkin:

$$y = K^\alpha N^{1-\alpha} \Rightarrow \frac{y}{N} = \left(\frac{K}{N}\right)^\alpha \Rightarrow q = \psi^\alpha.$$

Shu sababli (3) tenglik quyidagi holatda bajariladi:

$$s\psi^\alpha = n\psi \Rightarrow \frac{s}{n} = \psi^{1-\alpha} \Rightarrow \psi^* = \left(\frac{s}{n}\right)^{\frac{1}{1-\alpha}}; q^* = \left(\frac{s}{n}\right)^{\frac{\alpha}{1-\alpha}}.$$

Aytaylik, boshlang'ich narxlar tizimida maqbul (eng yuqori foydani ta'min etuvchi) mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi $\psi_1 < \psi^*$ bo'ladi; ushbu holatda $sq^* > n\psi_1$, bu o'z navbatida kapital taklifining ortiqchaligidan dalolat beradi va uning narxi pasayadi. Tadbirkorlar uchun maqbul bo'lgan yangi narxlar tizimida mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi ψ_1 dan bir muncha yuqori bo'ladi. ψ ning o'sishi ψ^* gacha davom etadi. Shunga mos ravishda $\psi_1 > \psi^*$ holatida mehnat taklifining ortiqchaligi tufayli uning narxi va kapital bilan qurollanganlik darajasi pasayib boradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish omillarining texnik o'zaro almashinuvchanligi va moslashuvchan narxlar tizimi dastlabki holat muvozanatda bo'lmagan taqdirda ham, mehnat va kapitaldan to'liq foydalangan holda iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi.



7.2-rasm. Kobb-Duglas texnologiyasida mehnat va kapitalning unumdorligi

Iqtisodiyotning muvozanatli o'sish tomon harakatini tasvirlash maqsadida yuqorida $q(\psi)$ chizmasini keltirib o'tamiz.

Ushbu grafikning istalgan nuqtasini koordinatlar boshi bilan bog'laydigan to'g'ri chiziqning og'ish burchagi kapitalning o'rtacha unumdorligini anglatadi, chunki

$$\frac{q}{\psi} = \frac{y/N}{K/N} = \frac{y}{K} = \sigma.$$

Mehnatning kapital bilan qurollanganligining berilgan darajasida kapitalning chegaraviy unumdorligi xuddi shu nuqtadagi urinma og'ishining tangensiga teng; unga ko'ra:

$$\frac{\partial y}{\partial K} = \alpha K^{\alpha-1} N^{1-\alpha} = \alpha \left(\frac{K}{N} \right)^{\alpha-1} = \frac{dq}{d\psi}.$$

Xususan, $\partial y / \partial K = r$ borasidagi neoklassik kontseptsiyaga muvofiq, $\text{tg} \gamma$ ning ψ_0 ga ko'paytmasi sifatida ab kesma bitta ishlovchi xodimning foydasiga teng, Oa – kesma w mehnatga haq to'lash birligi; shu sababli mazkur kesmalarning nisbati milliy daromadning mehnat va kapital o'rtasidagi taqsimlanish nisbatlarini ifoda etadi. $q(\psi)$ chizmasiga urinma abstsissalar o'qini w/r nuqtasida kesib o'tadi, shu tariqa, II kvadrantdagi to'g'ri burchakli uchburchak katetlarining nisbati r ga, Oa esa 0 ga teng.

Biz optimallik mezoni sifatida har bir davrda ish bilan band bo'lgan kishiga to'g'ri keluvchi maksimal iste'mol hajmini olamiz: $C/N \equiv \bar{c} \rightarrow \max$ va uning

mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasiga bog'liqligini aniqlaymiz.

Tenglamalarni hisobga olgan holda:

$$\frac{C}{N} = \frac{y}{N} - \frac{I}{N}; \quad I = \Delta K; \quad \frac{\Delta K}{N} = \frac{\Delta K}{K} \cdot \frac{K}{N}$$

Iste'molning o'rtacha me'yorini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\frac{C}{N} = \frac{y}{N} - \frac{\Delta K}{N} = \frac{y}{N} - \frac{\Delta K}{K} \cdot \frac{K}{N} = q(\psi) - R\psi.$$

U quyidagi holatda o'zining eng yuqori darajasiga erishadi:

$$\frac{d(\bar{c})}{d\psi} = \frac{dq}{d\psi} - R = 0 \Rightarrow \frac{dq}{d\psi} = \frac{\partial y}{\partial K} = R.$$

Shunday qilib, kapitalning o'sish sur'ati uning chegaraviy unumdorligiga teng bo'lganda, bir ishchiga to'g'ri keluvchi iste'mol hajmi o'zining eng yuqori darajasiga etadi.


Dinamik muvozanatda iste'molning o'rtacha me'yorini maksimalashtiruvchi jamg'arish me'yorini topish uchun \bar{c} ni s bo'yicha differentsiallaymiz. Ya'ni:

$$\bar{c} = (1-s)q(\psi^*) = (1-s)\left(\frac{s}{n}\right)^{\frac{\alpha}{1-\alpha}}, \text{ to } \frac{d\bar{c}}{ds} = \frac{\frac{\alpha}{1-\alpha} s^{\frac{2\alpha-1}{1-\alpha}} - \frac{1}{1-\alpha} s^{\frac{\alpha}{1-\alpha}}}{n^{\frac{\alpha}{1-\alpha}}}.$$

O'z navbatida jamg'arishning o'rtacha me'yorini quyidagi sharoitda eng yuqori bo'ladi:

$$\frac{\alpha}{1-\alpha} s^{\frac{2\alpha-1}{1-\alpha}} = \frac{1}{1-\alpha} s^{\frac{\alpha}{1-\alpha}} \Rightarrow s = \alpha. \quad (4)$$

(4) tenglama jamg'arishning "oltin qoidasi"ni ifodalaydi: *agar jamg'arish me'yorini ishlab chiqarishning kapital bo'yicha elastikligiga teng bo'lsa, u holda doimiy sur'atda o'sib borayotgan iqtisodiyotda o'rtacha iste'mol darajasi mehnat va kapitaldan to'liq foydalanish holatida maksimal darajaga etadi.*



7.3-rasm. Jamg‘arishning “oltin qoidasi”ga to‘g‘ri keluvchi jamg‘arma me‘yori.

Mukammal raqobat sharoitida foydaning milliy daromaddagi ulushi kapital bo‘yicha ishlab chiqarishning egiluvchanligiga teng bo‘lganligi bois, (4) tenglamadan shu narsa ayon bo‘ladiki, “oltin qoida” ga muvofiq barcha foyda real kapitalga investitsiya sifatida kiritilishi kerak.

“Oltin qoida” ga mos keladigan jamg‘arish me‘yorini aniqlashning grafik usuli 7.3-rasmda ko‘rsatilgan.

Har xil jamg‘arish me‘yorlarida ishlab chiqarish omillaridan to‘lig‘icha foydalangan holda barqaror iqtisodiy o‘shish imkoniyati Solou-Svan modelida jamg‘arish me‘yori endogen tavsifga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Jamg‘arishning endogen me‘yorining ikki variantini ko‘rib chiqamiz.

Neoklassik kontseptsiyaga ko‘ra ($s = s(r)$): kapitalning real daromadliligi (chegaraviy unumdorligi) o‘shib borishi bilan jamg‘arish me‘yori ham o‘shib boradi. Ushbu holatda muvozanatli o‘shish sharti quyidagicha ko‘rinish oladi: $s(r)q = n\psi$. Jumladan mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining o‘shishi (pasayishi) sharoitida kapitalning chegaraviy unumdorligi o‘sadi (pasayadi), $\psi \neq \psi^*$ holatida muvozanat ψ ning o‘zgarishi va shuningdek, sq egri chizig‘ining siljishi hisobiga ta‘minlanadi: $\psi < \psi^*$ da sq chizmasi pastga, $\psi > \psi^*$ holatida esa yuqoriga siljiydi. Shu sababli $s = s(r)$ holatida dinamik muvozanatda mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi va unumdorligi $s = \text{const}$ bo‘lgan holatdagiga qaraganda

past bo‘ladi. N.Kaldor kontsepsiyasiga muvofiq, jamg‘arish me‘yori kapitalning unumdorligiga bog‘liq bo‘ladi:

$$s = s_w + (s_b - s_w) \frac{rK}{y}.$$

Shu sababli quyidagi ifoda muvozanatli o‘shishning sharti hisoblanadi:

$$qs_w + (s_b - s_w) \frac{rKq}{y} = \psi n \Rightarrow \sigma s_w + (s_b - s_w) r = n. \quad (5)$$


Solou-Svann modelida N.Kaldorning jamg‘arish me‘yori bilan barqaror muvozanat mavjudligini quyidagi mulohazalar asosida tekshirish mumkin: kichik qiymatlar sharoitida kapitalning o‘rtacha va chegaraviy unumdorligi katta bo‘ladi, shu bois tenglamaning chap qismi (5) n dan katta; katta qiymatlarda kapitalning o‘rtacha va chegaraviy unumdorligi past, shu bois tenglamaning (5) chap qismi n dan kichkina. O‘z navbatida o‘shish sharoitida barqarorligi narxlar-ning moslashuvchanligi bilan ta‘minlanuvchi muvozanat nuqtasi topiladi.

Solou-Svan modelida foydalaniluvchi ishlab chiqarish funksiyasiga muvofiq, mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining o‘shishi kapital unumdorligining pasayishi bilan birga kechadi: $q(\psi)$ egri chizig‘i ordinatalar o‘qiga nisbatan qavariq bo‘ladi. Texnologiyalar rivojlanishining muayyan bir darajasida xarajat-ishlab chiqarishning bunday nisbati mehnat resurslaridan to‘liq foydalanish sharoitida industrial va postindustrial iqtisodiyotlar uchun xosdir. Agrar sohadan rivojlanishning sanoat bosqichiga o‘tayotgan mamlakatlar uchun mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining o‘shishi kapital unumdorligining oshishi bilan o‘zaro uyg‘unlikda kechadi.

Ushbu holatda $q(\psi)$ chizmasi 7.4- rasmda ko‘rsatilgan ko‘rinishga ega bo‘ladi va (3) tenglama 5- a. rasmda ko‘rsatilgani kabi, mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining uch xil qiymatida ham bajariladi.

ψ_2^* holatida o‘rnatiluvchi dinamik muvozanat nobarqaror hisoblanadi: undan har qanday chetga chiqish talab va taklif o‘rtasida shunday nisbatga olib keladiki,


unga ko‘ra, mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasini ψ_1^* darajagacha pasaytiradi yoki ψ_3^* gacha oshiradi.



7.4-rasm. Rivojlanishning agrar bosqichidan industrial bosqichiga o‘tish sharoitida ishlab chiqarish funksiyasi.

Shu sababli, agar mamlakat q_1^*, ψ_1^* qiymatlari sharoitida dinamik muvozanat holatida bo‘lsa, mehnat unumdorligini barqaror tarzda oshirish uchun bir paytning o‘zida katta kapital qo‘yilmalari talab qilinadi: ψ_2^* qiymatdan birdaniga o‘tib ketish imkoni bo‘lmasa, iqtisodiyotning boshlang‘ich holati tiklanadi.

5-b. rasmda ko‘rsatilganidek, “kambag‘allik o‘ramasi”ning paydo bo‘lish sababi sifatida aholi o‘sish sur‘atlarining mehnat unumdorligi va kapital bilan qurollanganlik darajasiga bog‘liqligi maydonga chiqishi mumkin.



7.5- rasm. “Kambag‘allik o‘ramasi”.

ψ_1^* va ψ_2^* o'rtasidagi farqni jamg'arish me'yorini oshirish hisobiga qisqartirish mumkin ($s=(\psi)$ egri chiizig'i tepaga siljiydi). Zero rivojlanishning agrar bosqichidan sanoat bosqichiga o'tish sharoitida mamlakat, odatda yirik kapital qo'yilmalarni amalga oshirish uchun o'z mablag'lariga ega bo'lmaydi, "kambag'allik o'ramasi"dan chiqib olishning ularsiz sira ham imkoni yo'q.

Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Buning uchun modelga davlatning iqtisodiy faolligini kiritish talab qilinadi.

Davlat xarajatlari milliy daromadning muayyan bir ulushi (a)ni tashkil qilsin: $G = ay$ va ularning qat'iy belgilangan qismi (b) xususiy sektor investitsiyalariga qo'shimcha sifatida investitsiyalarga yo'nal-tiriladi: $I_g = bG = aby$. Soliqlar xo'jalik faoliyati, mehnat daromadlari va davlat obligatsiyalari bo'yicha foizlardan yagona (τ) stavka bo'yicha undiriladi: $T = \tau(y + iB)$. Davlat byudjetining umumiy kamomadi (δ) davlat qarzi bo'yicha foiz to'lovlari miqdoriga birlamchi kamomaddan oshadi:

$$\delta = G - T + iB = ay - \tau(y + iB) + iB = (a - \tau)y + (1 - \tau)iB.$$

Xususiy sektor jamg'armalari miqdori soliqlar to'langandan keyin qolgan tasarrufdagi daromadga ko'paytiriladigan jamg'arma me'yor (s) ga teng: $S = s(1 - \tau)(y + iB)$. Agar davlat byudjeti kamomadda bo'lsa, xususiy sektor investitsiyalari byudjet kamomadining miqdoriga jamg'armalardan kam bo'ladi:

$$I = S - \delta = s(1 - \tau)(y + iB) - (a - \tau)y - (1 - \tau)iB.$$

Har bir davrda ishlab chiqarish hajmi $Y = N^{1-\alpha}K^\alpha$ ishlab chiqarish funktsiyasi bilan yoki bitta ishchi-xodim hisobida: $Q = \psi^\alpha$ bilan belgilanadi. Mehnat resurslari ekzogen tartibda berilgan n darajadagi o'sish sur'ati bilan ko'payadi, kapitalning o'sishi esa xususiy va davlat investitsiyalari hajmiga teng bo'ladi:

$$\begin{aligned} dK &= I + I_g = s(1 - \tau)(y + iB) - (a - \tau)y - (1 - \tau)iB + aby = \\ &= [s + \tau(1 - s) - a(1 - b)]y - (1 - s)(1 - \tau)iB. \end{aligned}$$

Mehnat birligiga to'g'ri keluvchi ko'rsatkichlarga ega bo'lish uchun, yuqoridagi tenglikning ikkala qismini N ga bo'lamiz va $B/N \equiv \varpi$ belgilashini

kiritamiz. $y/N \equiv Q = \psi^\alpha$. ekanligini va neoklassik modelda foiz stavkasi kapitalning chegaraviy unumdorligiga tengligini hisobga olib,

$i = \partial y / \partial K = \alpha \psi^{\alpha-1}$, quyidagilarga ega bo‘lamiz: O‘zgartirilgan tenglama $\Psi \equiv K/N$ dan quyidagi kelib chiqadi:

$$\dot{\Psi} = R - N = R - n \Rightarrow d\Psi = R\Psi - n\Psi = dK/N - n\Psi.$$

Endi bo‘lsa, mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining ($d\Psi$) o‘shishini quyidagi tasvirlash mumkin:

$$d\Psi = [s + \tau(1-s) - a(1-b)]\psi^\alpha - (1-s)(1-\tau)\alpha\varpi\psi^{\alpha-1} - n\Psi. \quad (6)$$

Chiziqsiz differentsial tenglama (6) qarab chiqilayotgan model doirasidagi mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasini yoritib beradi; bunda u davlat qarzigaga bog‘liq ekanligiga e‘tiborni qaratamiz.

Davlat qarzi dinamikasini tavsiflovchi tenglamaga ega bo‘lish uchun $dB = \delta = (a - \tau)y + (1 - \tau)\alpha\varpi\psi^{\alpha-1}$ ni hisobga olamiz, keltirilgan tenglamadan $B/N \equiv \varpi$ dan $d\varpi = dB/N - n\varpi$; kelib chiqadi, ushbu holatda:

$$d\varpi = (a - \tau)\psi^\alpha + (1 - \tau)\alpha\varpi\psi^{\alpha-1} - \varpi n \quad (7)$$

Dinamik muvozanat sharoitida $d\Psi = d\varpi = 0$. Shu sababli, (6) va (7) tenglamalarni nolga tenglashtirib, ikkita differentsial tenglamalar tizimidan echim Ψ va ϖ qiymatlarini belgilab beruvchi va tegishlicha muvozanatli o‘shishga mos keluvchi formulaga ega bo‘lamiz:

$$\varpi = \frac{[s + \tau(1-s) - a(1-b)]\psi^\alpha - n\Psi}{(1-s)(1-\tau)\alpha\psi^{\alpha-1}} \quad (8)$$

$$\varpi = \frac{(a - \tau)\psi^\alpha}{n - (1 - \tau)\alpha\psi^{\alpha-1}} \quad (9)$$

(8) tenglama Ψ va μ qiymatlari kombinatsiyalarining barcha to‘plamlarini belgilab beradi, bunja mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi vaqt mobaynida o‘zgarmaydi, (9) tenlama esa - Ψ va ϖ qiymatlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi, ushbu holatda bir ishxi-xodim hisobiga milliy daromaddagi davlat qarzining ulushi o‘zgarmaydi.

7.3. Iqtisodiy o'sish modellarida texnik taraqqiyotning aks ettirilishi

Texnologik taraqqiyot kontseptsiyasi muayyan miqdordagi mehnat va kapitaldan foydalanish asnosida ishlab chiqarishni ko'paytiradigan yoki ishlab chiqarish omillarini kam sarf qilish orqali muayyan miqdordagi tovarlarni ishlab chiqarishga imkon beradigan barcha omillarni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishning an'anaviy "moddiy" omillaridan farqli o'laroq, texnologik taraqqiyot "ko'rinmas" omil sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning soddalashtirilgan modellarida texnologik taraqqiyot ekzogen ravishda o'rnatilgan deb taxmin qilinadi va u modelga ikki yo'l bilan kiritiladi.

Birinchi, texnologik taraqqiyot ishlab chiqarishning uchinchi omili sifatida qaralishi mumkin.

Amaldagi ishlab chiqarish omillari hajmi va funktsiya chiqishi o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha tasavvur qilamiz: $y_t = T_t K_t^\alpha N_t^{1-\alpha}$. Ushbu holatda

$$\hat{y}_t = \hat{T}_t + \alpha \hat{K}_t + (1-\alpha) \hat{N}_t \Rightarrow \hat{T}_t = \hat{y}_t - \alpha \hat{K}_t - (1-\alpha) \hat{N}_t$$


Ikkinchidan, ekzogen texnologik taraqqiyot vaqt o'tishi bilan foydalaniluvchi mehnat va kapital hajmining shartli o'sishi shaklida ifodalanishi mumkin: $y_t = f(A_t N_t, B_t K_t)$. Qavslar ichidagi mahsulotlar real fizik birliklarda emas, balki ularning samaradorligining an'anaviy birliklarida o'lchanadigan mehnat va kapital hajmini anglatadi. Ular texnologik taraqqiyot bo'lmagan taqdirda yt dona mahsulot ishlab chiqarish uchun har bir omilning qancha real birligidan qat'iy (asosiy) unumdorlik bilan foydalanish kerakligini ko'rsatadi.

Agar A_t va B_t ko'paytuvchilar λ va μ doimiy sur'atlar bilan o'ssa, u holda

$y_t = f[(1+\lambda)^t N_t, (1+\mu)^t K_t]$, bo'ladi, mabodo uzluksiz o'sish holati kuzatilsa $y_t = f(e^{\lambda t} N_t, e^{\mu t} K_t)$. ko'rinishga ega bo'lamiz.

Bunday ifodalashning xususiy holatlaridan biri sifatida omillardan bittasi bo'yisa texnologik taraqqiyot natijalarini hisobga olish hisoblanadi: $y_t = f(e^{\lambda t} N_t, K_t)$; $y_t = f(N_t, e^{\mu t} K_t)$.

Mabodoa texnik-texnologik taraqqiyot milliy daromadning mehnat va kapital o'rtasidagi funktsional taqsimotini ($rK/wN = \text{const}$) o'zgartirmasa, bunday taraqqiyot neytral texnologik taraqqiyot deb ataladi. Milliy daromaddagi mehnat va kapital ulushlarining barqarorligi turlicha shart-0 sharoitlar holatida ham saqlanib qolishi mumkin.



7.6-rasm. Xiks bo'yicha neytral texnik taraqqiyot.

Agar $K_t/N_t = \text{const}$ va $r_t/w_t = \text{const}$ bo'lsa, u holda quyidagi o'rinli bo'ladi: $r_t K_t/w_t N_t = \text{const}$. O'z navbatida, agar texnik taraqqiyot mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasining berilgan qiymatida kapital va mehnatning chegaraviy unumdorligi bir xil sur'atlarda rivojlansa quyidagilar o'rinli bo'ladi: $\partial y_t / \partial N_t = w_t$ va $\partial y_t / \partial K_t = r_t$, ushbu holatda milliy daromadning taqsimlash nisbatlari o'zgarmaydi. Texnologik taraqqiyotning bunday ko'rinishi Xiks bo'yicha neytral texnik taraqqiyot, deb yuritiladi va quyidagi funktsiya bilan ifodalanadi: $y_t = (1 + \eta)^t K_t^\alpha N_t^{1-\alpha}$, bu yerda η - texnik taraqqiyotning rivojlanish sur'ati.

Mehnat va kapital o'rtasida milliy daromadni taqsimlash nisbati agar $y_t/K_t = \text{const}$ va $\partial y_t / \partial K_t = \text{const}$, bo'lganda ham o'zgarmaydi, ya'ni texnologik taraqqiyot sharoitida kapital o'rtacha unumdorligining har bir qiymatiga uning chegaraviy unumdorligining o'zgarish qiymati mos keladi. Texnologik taraqqiyotning bunday ko'rinishi Xarrod bo'yicha neytral texnologik taraqqiyot deb ataladi. Matematik ko'rinishda u quyidagi ishlab chiqarish funktsiyasi bilan ifodalanadi:

$$y_t = K_t^\alpha \left[(1 + \lambda)^t N_t \right]^{1-\alpha},$$

Bu yerda: λ - texnik taraqqiyot natijasida mehnat unumdorligining o'sish sur'ati.

O'z navbatida, agar $y_t/N_t = \text{const}$ va $\partial y_t / \partial N_t = w = \text{const}$, ya'ni bunda Texnik taraqqiyot sharoitida mehnatning har o'rtasa unumdorlik ko'rsatkichi qiymatiga uning o'zgarmas chegaraviy unumdorligi ko'rsatkichi to'g'ri keladi. Texnologik taraqqiyotning bunday ko'rinishi Solou bo'yicha neytral texnik taraqqiyot sifatida e'tirof etiladi:

$$y_t = N_t^{1-\alpha} \left[(1+\mu)^t K_t \right]^\alpha,$$

Bu yerda μ - texnik taraqqiyot natijasida kapital unumdorligining o'sish sur'ati.

Umumlashtirilgan shaklda neytral texnik taraqqiyotning ko'rib chiqilgan variantlari uchun asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish yo'nalishlari 7.1-jadvalda keltirilgan.

7.1-jadval.

Neytral texnik taraqqiyotning har xil turlarining xususiyatlari (ko'rsatkich o'zgarmaydi "0", o'sadi "+", kamayadi "-").

Neytrallik	ψ	Q	σ	w	r	w/r
Xiks bo'yicha	0	+	+	+	+	0
Xarrod bo'yicha	+	+	0	+	0	+
Solou bo'yicha	-	0	+	0	+	-

Mehnat va kapitaldan to'liq foydalanish asnosida barqaror iqtisodiy o'sish uchun, nafaqat ularning texnologik almashinuvi, balki unumdorligining muayyan bir nisbatlari ham talab qilinadi, texnik taraqqiyotning barcha ko'rinishlarida ham muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'min etib bo'lmaydi. Agar texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish omillarining shartli o'sishi sifatida aks ettirilsa, u holda barqaror muvozanatli o'sish birgina Xarrod bo'yicha neytral texnologik taraqqiyotga mos tushadi. Bu muvozanatli o'sishda $\hat{y} = \hat{l} = \delta\sigma = \text{const}$ ekanligidan kelib chiqadi. Dinamik muvozanatda jamg'armish me'yori doimiy bo'lganligi bois, kapital unumdorligi ham o'zgarmasligi lozim, bu esa faqat Xarrod bo'yicha neytral texnik

taraqqiyot holatida o‘rinli bo‘ladi. Uni Solou-Svann modeliga kiritish uchun biz quyidagi yozuvlarni kiritamiz:

$$E_t \equiv e^{*t} N_t; \quad q' \equiv y/E; \quad \psi' = K/E,$$

Bu yerda: e – natural logarifm asosi; μ - muayyan bir davr oralig‘ida foydalanilgan mehnat miqdorining shartli o‘shishi bilan ifodalangan texnologik taraqqiyot sur‘ati. U holda:

$$\hat{K}_t = \hat{K}_t - \hat{E}_t = \hat{K}_t - \mu - n.$$

Modelda kapitalning o‘shish sur‘atini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$\hat{K}_t = \frac{dK_t}{K_t} = \frac{sy_t}{K_t} = \frac{sy_t/E_t}{K_t/E_t} = \frac{sq'_t}{\psi'_t}.$$

Shu sababli:

$$\hat{K}_t = \frac{sq'_t}{\psi'_t} - (\mu + n).$$

O‘z navbatida, $sq' = n\psi$ teng bo‘lganda, K/E nisbati barqarorlashadi. Ya’ni, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:


$$q' = \psi^{1/\alpha}, \quad \text{to } s\psi^{1/\alpha} = (\mu + n)\psi',$$

Bundan, quyidagi kelib chiqadi:

$$q_t^{*} = \left(\frac{s}{\mu + n} \right)^{\frac{\alpha}{1-\alpha}}; \quad \psi_t^{*} = \left(\frac{s}{\mu + n} \right)^{\frac{1}{1-\alpha}}$$

$q' \equiv y/e^{*t} N$ va $\psi' \equiv K/e^{*t} N$, bo‘lganligi bois, ularning qiymati $\hat{y}_t = \mu + n$ va $\hat{K}_t = \mu + n$; da ham o‘zgarmasdan qoladi.

O‘z navbatida, qachonki milliy daromad va kapitalning o‘shish sur‘atlari texnologik taraqqiyot tufayli mehnatning o‘shish sur‘atlaridan uning mahsuldorligi oshadigan miqdoridan ustun bo‘lsa va real mehnat unumdorligi va kapital bilan qurollanganlik darajasi $(1 + \mu)$ sur‘atlarda o‘ssa, Xarrod bo‘yicha neytral texnologik taraqqiyot holatida iqtisodiyotda barqaror dinamik muvozanat o‘rnatiladi.



7.7-rasm. Xarrod bo'yicha neytral texnik taraqqiyotda iqtisodiy o'sish.

Xarrod bo'yicha neytral texnik taraqqiyotda jamg'arishning "oltin qoidasi" o'z kuchida qoladi: jamg'arish me'yorining samarali mehnat birligi hisobiga kapital miqdori bo'yicha ishlab chiqarish elastikligiga tengligi sharoitida o'zining eng yuqori darajasiga etadi.

Texnologik taraqqiyot ko'pincha ilmiy tadqiqotlar, ta'lim va ishlab chiqarishni texnik yangilash bo'yicha katta davlat xarajatlari bilan bog'liq bo'lganligi sababli, uning o'zi iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Shuning uchun texnologik taraqqiyot endogen parametr bo'lgan modellar o'sib borayotgan iqtisodiyotning ishlash mexanizmi to'g'risida etarlicha tasavvur beradi.

Endogen omil sifatida texnologik taraqqiyotni hisobga olishga misol sifatida ishlab chiqarish funksiyasi bilan iqtisodiy o'sish modelini ko'rib chiqamiz, bunda mehnat va jismoniy kapitaldan tashqari "inson kapitali" ham ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraladi. Bunday holda, u xodim ishining samaradorligini oshiradigan, ta'lim va malaka olish xarajatlari natijasida olingan maxsus qobiliyatlarini anglatadi.

Aholi va ishchi kuchi taklifining doimiy o'sish sur'atlari (n) ga ega bo'lgan iqtisodiyotda ishlab chiqarish texnologiyasi Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi orqali aks ettiriladi: $y = N^\alpha K^\beta H^\gamma$; $\alpha + \beta + \gamma = 1$,

Bu yerda: H - jismoniy kapital muayyan bir texnikalarning standart ko‘rinishlarida o‘lchangani kabi, “savodxonlik”ning shartli birliklarida o‘lchanuvchi inson kapitali miqdori.

Iqtisodiyot mukammal raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatadi, shuning uchun ishlab chiqarish omillariga ularning chegaraviy unumdorligiga teng narxlarda haq to‘lanadi:

$$w = \frac{\partial y}{\partial N} = \alpha \frac{y}{N}, \quad r = \frac{\partial y}{\partial K} = \beta \frac{y}{K}, \quad h = \frac{\partial y}{\partial H} = \gamma \frac{y}{H}.$$

Uy xo‘jaligi dam olish uchun zarur bo‘lgan vaqtdan ortiqcha vaqtni (T) ish (N) va o‘qish (E) o‘rtasida taqsimlaydi. Shu sababli i -uy xo‘jaligining vaqt byudjeti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$T_i = N_i + E_i. \quad (10)$$

O‘qish davomida olingan inson kapitali miqdori nafaqat shaxs tomonidan ajratilgan vaqtga, balki davlat tomonidan ishlab chiqarilgan ijtimoiy ne‘matlar miqdori (B)ga ham bog‘liq bo‘ladi:

$$H_i = B^{\mu} E_i^{1-\mu}. \quad (11)$$

(11) formula inson kapitalini yaratishning ishlab chiqarish funksiyasi hisoblanadi. Ijtimoiy ne‘matlardan aholi tekin foydalanadi; ularni ishlab chiqarish soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi.

Uy xo‘jaligining maqsadi o‘z vaqtini ish va o‘qish o‘rtasida mehnat va inson kapitalidan maksimal darajada daromad keltiradigan tarzda taqsimlashdan iboratdir.

Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar

Iqtisodiy o‘rta sishning nazariy modellarini qurishdan maqsad o‘zib borayotgan iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi tenglikni va dinamik muvozanatning to‘liq bandlik bilan mosligini ta‘minlovchi shartlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotlar post keynschilik va neoklassik modellarning turli xil dastlabki taxminlariga asoslanadi va muvozanat o'sishining barqarorligi va uning tezligini belgilovchi omillar to'g'risida o'zaro qarama-qarshi xulosalarga olib keladi.

Xarrod-Domar modelidagi iqtisodiy o'sishning beqarorligi uning uchta dastlabki shartlaridan kelib chiqadi: ishlab chiqarish omillarining o'zaro almashinmasligi, ularning narxlarining qat'iyligi va ekzogen ravishda belgilangan jamg'arish me'yori. Kaldor modelida so'nggi ikkita shart yo'qligi sababli, u Leontev texnologiyasi bilan barqaror o'sishga erishadi.

Neoklassik modellarda ishlab chiqarish omillarining o'zaro almashinuvchanligi va narxlarining egiluvchanligi natijasida ekzogen jamg'arish me'yori holatida barqaror o'sish mavjud bo'ladi.

Keynschilikdan keyingi modellardan kelib chiqadiki, mavjud texnika sharoitida iqtisodiy o'sish sur'ati jamg'arishga bo'lgan chegaraviy moyillik bilan belgilanadi va o'z navbatida muvozanatli o'sish to'la bo'lmagan bandlik sharoitida ham ta'minlanishi mumkin. Neoklassik modelda texnologik taraqqiyot mavjud bo'lmagan sharoitida iqtisodiy o'sish sur'ati mehnat resurslarining o'sish sur'ati bilan belgilanadi. Jamg'arish me'yorining o'zgarishi faqatgina kapital bilan qurollanganlik darajasi va mehnat unumdorligini o'zgartirsada, uzoq muddatli vaqt mobaynida muvozanatli o'sish sur'ati doimiy saqlanib qoladi, Texnologik taraqqiyot bo'lmagan taqdirda, jon boshiga iste'molning maksimal o'sishiga jamg'arishga bo'lgan chegaraviy moyillik kapital bo'yicha ishlab chiqarishning elastikligiga teng bo'lganda erishiladi.

Iqtisodiy o'sishning asosiy omili texnologik taraqqiyot bo'lganligi sababli, o'sib borayotgan iqtisodiyotda sodir bo'layotgan jarayonlar uni hisobga oladigan modellar orqali etarlicha namoyish etiladi. Bunga vaqt o'tishi bilan ekzogen yoki endogen ravishda o'zgarib turadigan modelning ishlab chiqarish funksiyasiga qo'shimcha argumentlarni kiritish orqali erishiladi. Iqtisodiy o'sish nazariyasida texnologik taraqqiyot oqibatlarini o'rganishning asosiy vazifalari uning muvozanat

o'sishi bilan mosligi va milliy daromadning funktsional taqsimotiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Ekzogen texnologik taraqqiyot, agar u milliy daromadning funktsional taqsimotini o'zgartirmasa, neytral deb ataladi. Neytral texnologik taraqqiyotning uch turi mavjud. Xiks bo'yicha neytrallikka texnologik taraqqiyotning mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasini va ishlab chiqarish omillarining chegaraviy unumdorligi nisbatlarining o'zgarishiga ta'sir qilmasligi tufayli erishiladi.

Xarrod bo'yicha neytrallik texnologik taraqqiyot rivojlanib borishi bilan kapitalning o'rtacha unumdorligining har bir qiymati uning doimiy chegaraviy unumdorligiga to'g'ri kelishi tufayli ta'minlanadi. Solou bo'yicha neytrallikda texnologik taraqqiyotning jadallashuvi asnosida o'rtacha mehnat unumdorligining har bir qiymatiga uning doimiy chegaraviy unumdorligi to'g'ri keladi.

Harrod bo'yicha neytral texnologik taraqqiyot muvozanatli o'sishga mos keladi. Bu kapital bilan qurollanganlik va mehnat unumdorligi doimiy sur'atlarda o'sib borishi bilan tavsiflanadi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Post keynschilik modellari haqida to'xtalib o'ting.
2. Xarrod-Domar modelining asosiy mazmuni nimadan iborat?
3. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning N. Kaldor kontseptsiyasining asosiy e'tibori nimalarga qaratilgan.
4. Neoklassik modellar to'g'risida tushuncha bering?
5. Solou-Svan modelining asosiy jihatlari nimalardan iborat?
6. Iqtisodiy o'sish modellari va texnik taraqqiyot borasida fikrlaringizni bayon qiling.

Referat mavzulari:

1. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.
2. Iqtisodiy o'sish va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi.

3. Solou-Svann modeli, Xarrod-Domar modeli va ularning o'ziga xos jihatlari.

Mushohada uchun:

Butunjahon oltin kengashining 2021-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston oltin-valyuta zahiralari tarkibidagi oltin hajmi bo'yicha dunyoning top-20 taligi reytingida 15-o'rinni egalladi. O'zbekistonning oltin zahiralari 352,7 tonnani tashkil etadi. Reytingda 1-o'rinni uzoq yillardan beri AQSh egallab kelmoqda, uning zahiralari 8 133 tonnani tashkil qiladi. Sizningcha, O'zbekiston oltin-valyuta zahiralari ko'payishi nimalarga bog'liq, keyingi yillarda mamlakat oltin-valyuta zahiralari o'zgarishi borasida qanday fikrlar bildirasiz?

Masalalar:

1. Texnologik taraqqiyotsiz uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning Solou modelini ko'rib chiqing. Tahlil qilinayotgan iqtisodiyotda daromad solig'i t stavka bo'yicha undirilsan, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi davlat xarajatlari doimiy va g ga teng, bunda davlat muvozanatlashgan byudjetni shakllantirishi majburiy emas.
 - a) Ushbu model uchun muvozanat traektoriyasini tavsiflovchi farq tenglamasini oling. Statsionar holatni toping.
 - b) Soliq stavkasining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va asosiy kapitalga ta'sirini o'rganing. Daromad solig'i stavkasining oshishi natijasida daromadlarning o'sish sur'ati qanday o'zgaradi? (javobni chizma yordamida tushuntiring).
 - v) Davlat xarajatlari miqdorining statsionar holatdagi aholi jon boshiga daromad va kapitalga ta'sirini o'rganing. g o'sishi bilan daromad o'sish sur'ati qanday o'zgaradi?
 - g) Ushbu tasdiqni tahlil qiling: "YaIM o'sish sur'atini oshirish uchun davlat investitsiya uchun resurslarni bo'shatish uchun davlat byudjetining profitsitiga ega bo'lishi kerak."

Yechish usuli:

a) Muvozanatda yalpi taklif (ishlab chiqarish) uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari, xususiy sektor investitsiyalari va davlat xaridlari yig'indisi (yopiq iqtisodiyotda sof eksport nolga teng)dan iborat bo'lgan yalpi talabga teng bo'lishi kerak:

$$Y_t = C_t + I_t + G_t$$

Transfertlar mavjud bo'lmagan sharoitda tasarrufdagi daromadni topamiz:

$$YD_t = Y_t - tY_t$$

Tasarrufdagi daromad jamg'arish va iste'molga sarflanishini hisobga olsak, biz quyidagiga ega bo'lamiz:

$$C_t + I_t + G_t = Y_t = YD_t + tY_t = C_t + S_t + tY_t$$

Biz iste'molini kamaytiramiz va jamg'arish funksiyasiga kiritamiz (jamg'armalar tasarrufdagi daromadda doimiy ulushga ega bo'ladi $S_t = sYD_t$):

$$I_t + G_t = S_t + tY_t = s(1-t)Y_t + tY_t.$$

Yalpi investitsiyalar kapital zahiralarning sof o'sishi va amortizatsiya xarajatlari yig'indisiga teng ekanligini hisobga olsak, muvozanat sharti quyidagicha ko'rinish oladi:

$$\dot{K} + \delta K_t + G_t = (s(1-t) + t)F(K_t, L_t).$$

Biz ushbu tenglamaning ikkala qismini L_t ga bo'lamiz va birinchi darajali F funksiyaning bir xilligini hisobga olgan holda biz quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{\dot{K}}{L_t} + \delta \frac{K_t}{L_t} + \frac{G_t}{L_t} = (s(1-t) + t) \frac{F(K_t, L_t)}{L_t} = (s(1-t) + t)F\left(\frac{K_t}{L_t}, 1\right)$$

Mutloq ko'rsatkichlardan bitta ishchiga to'g'ri keluvchi ko'rsatkichlarga o'tamiz, bitta ishchiga to'g'ri keluvchi kapitalni k bilan belgilaymiz ($k \equiv K/L$), $f(k)$ orqali bitta ishchiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarishni belgilaymiz ($f(k) \equiv F(K/L, 1)$), g orqali bitta ishchiga to'g'ri keluvchi davlat xaridlarini belgilaymiz ($g \equiv G/L$).

$$\frac{\dot{K}}{L} = \dot{k} + kn$$

tenglikdan kelib chiqqan holda, kapital jamg'arishning quyidagi tenglamasiga ega bo'lamiz:

$$\dot{k} = s(1-t)f(k) + (tf(k) - g) - (n + \delta)k.$$


Keling, ushbu tenglama nimani ko'rsatishini tushuntiramiz. O'ng qismidagi birinchi tashkil qiluvchi aholi jon boshiga xususiy jamg'armalarga, ikkinchisi esa davlat byudjeti profitsiti yoki davlat jamg'armalariga to'g'ri keladi. Shunday qilib, agar aholi jon boshiga yalpi jamg'arma zarur investitsiyalardan oshib ketsa, unda bu ortiqcha mablag'lar jon boshiga kapital zahirasi ko'paytirishga imkon beradi.

Ko'rib chiqilayotgan modeldagi statsionar holatni bir ishchiga kapital o'zgarmas bo'lgan holat sifatida aniqlaymiz: $\dot{k} = 0$

Jon boshiga to'g'ri keluvchi statsionar kapital k^* quyidagi shartdan kelib chiqib aniqlanadi:

$$(s(1-t) + t)f(k^*) = g - (n + \delta)k^*.$$

Jamg'arma egri chizig'i va zaruriy investitsiya egri chizig'ining kesishish nuqtasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan statsionar kapital k^* ni aniqlaydi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, modelda aholi jon boshiga ijobiy kapitalga ega bo'lgan ikkita statsionar holat bo'lishi mumkin, ammo ulardan faqat bittasi barqaror bo'ladi (bu rasmdagi k_2 jon boshiga to'g'ri keladigan holat). Kelgusida biz faqat barqaror statsionar holatni ko'rib chiqamiz.




b) Biz soliq stavkasining aholi jon boshiga statsionar daromad va kapitalga ta'sirini o'rganamiz. Daromad solig'i stavkasining oshishi bilan tasarrufdagi daromadning pasayishi hisobiga xususiy jamg'armalar pasayadi, ammo shu bilan birga daromad solig'i hisobiga daromadlarining ko'payishi asnosida davlat

jamg'armalari o'sishini kuzatish mumkin. Natijada, aholi jon boshiga jamg'arma funksiyasining grafigi yuqoriga siljiydi, bu esa aholi jon boshiga kapital $k^1 > k_2$ va aholi jon boshiga yangi statsionar holatdagi mahsulot hajmining oshishiga olib keladi.

Daromad solig'i stavkasi oshgandan so'ng darhol kapitalning o'sish sur'ati aholining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'ladi va biz yangi statsionar holatga yaqinlashganda K va L o'sish sur'atlari yana yaqinlashadi va yangi statsionar holatda kapital va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari o'sib boradi va yana aholining o'sish sur'atiga teng bo'ladi.

Tahlil asosida xulosa qilish mumkinki, daromad solig'i stavkasi mahsulotning uzoq muddatli o'sish sur'atlariga ta'sir qilmaydi, balki statsionar holatga o'tish jarayonida o'sish sur'atlariga ta'sir qiladi.

v) davlat xarajatlari miqdorining statsionar holatga ta'sirini o'rganamiz. Oldingi holatdan farqli o'laroq, davlat xaridlarining ko'payishi byudjet profitsiti pasayishini anglatadi, bu esa jamg'armalarning pasayishiga va shunga mos ravishda aholi jon boshiga asosiy kapital va ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi (grafikda umumiy jamg'arma egri chizig'i parallel ravishda pastga siljiydi).



g o'sishi bilan daromad o'sish sur'ati qanday o'zgaradi? Jamg'armalarning qisqarishi natijasida biz aholi jon boshiga kapital (va daromad) ning keskin pasayishini ko'rishmiz mumkin. Aholi jon boshiga daromadning pasayishi daromadlarning o'sish sur'ati aholi o'sish sur'atlaridan past bo'lishini anglatadi. Aholi jon boshiga daromadning keskin pasayishidan so'ng, bosqichma-bosqich

tiklanish boshlanadi va biz yangi statsionar holatga yaqinlashganda, daromadlarning o'sish sur'ati asta-sekin aholi o'sish sur'atiga yaqinlashadi.

g) ko'rib turganimizdek, Solou modeliga muvofiq, YaIMning uzoq muddatli o'sish sur'atlari (texnologik taraqqiyotsiz) faqat aholining o'sish sur'ati bilan belgilanadi va natijada byudjet profitsiti uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin emas. Qisqa muddatda, biz ko'rib turganimizdek, byudjet profitsitining oshishi (daromad solig'i stavkasining oshishi yoki davlat xaridlarining pasayishi) yangi statsionar holatga o'tishda qo'shimcha mablag'larni investitsiyalashga imkon beradigan va qisqa muddatda o'sish sur'atlarining oshishiga yordam beradigan jami jamg'armalarning ko'payishini anglatadi.

2. Iqtisodiy o'sishning ahamiyati nimada namoyon bo'ladi? Yillik iqtisodiy o'sishning 3% va 3,5% o'rtasidagi farq nima uchun juda muhim bo'lishi mumkinligini tushuntiring?

Yechish usuli:

Iqtisodiy o'sish eng muhim makroiqtisodiy kategoriya bo'lib, u nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining mutlaq o'sishidan, balki iqtisodiy tizimning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va hayot sifatini yaxshilash qobiliyatidan dalolat beradi. Shuning uchun iqtisodiy o'sish iqtisodiy erkinlik, iqtisodiy samaradorlik va boshqalar bilan bir qatorda jamiyatning asosiy maqsadlari qatoriga kiradi.

Iqtisodiy nazariya iqtisodiy o'sishni ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining oshishi va jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi deb tushunadi. Bu ta'rif iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ikki usulini nazarda tutadi. Birinchisi, ushbu mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'liq foydalanish tufayli mumkin. Ikkinchisi ishlab chiqarish imkoniyatlarining o'zini oshirish orqali o'sishni nazarda tutadi.

Shubhasiz, birinchi usul qisqa muddatli o'sishni ta'minlaydi. Mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlari to'liq yuklangach, yanada o'sish mumkin emas. Ikkinchi usul uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. O'sish uzoq muddatli

jarayon bo'lganligi sababli, iqtisodiy o'sish milliy iqtisodiyotning avvalgi ishlab chiqarish imkoniyatlaridan tashqarida muntazam ravishda takrorlanib turishini va uning yangi, yuqori darajaga o'tishini nazarda tutadi.

Shunday qilib, iqtisodiy o'sish asosiy iqtisodiy qarama – qarshilikni-cheksiz o'sib borayotgan ehtiyojlar va ularni qondirish uchun cheklangan imkoniyatlar o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish omili sifatida namoyon bo'ladi.

Endi iqtisodiy o'sishni qanday aniqlash mumkin degan savol tug'iladi. O'sishni tasvirlar ekanmiz, biz ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari yig'indisi ijtimoiy mahsulotni tashkil qilishini e'tiborga olamiz. Binobarin, iste'mol tovarlari hajmining natural va qiymat jihatdan o'sishi iqtisodiy o'sishni tavsiflashi mumkin. Ammo agar ushbu mahsulot umumiy ijtimoiy mahsulot sifatida tushunilsa, unda bu holda oraliq mahsulot hisobiga o'sish ta'minlanishi mumkin. Jamiyat esa pirovard mahsulotlarga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun yalpi milliy mahsulot (YaMM) iqtisodiy o'sishning aniqroq ko'rsatkichi sifatida qaralishi kerak.

YaMMning afzalligi uning pul ko'rsatkichi ekanligida namoyon bo'ladi, iqtisodiy o'sishni natural ko'rsatkichlarda, masalan, ishlab chiqarilgan tovarlar miqdori, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va shunga mos ravishda ishlab chiqarilgan tovarlar nomenklaturasida baholash qiyinchilik tug'diradi.

Narxlarning o'sishi YaMM dinamikasiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun iqtisodiy o'sishni baholash uchun YaMMni doimiy narxlarda hisoblash va real YaMM dinamikasiga e'tiborni qaratish lozim. YaMMning mutlaq qiymati va uning o'sishi iqtisodiyot ko'lami va uning o'sishini baholashga imkon beradi.

YaMM o'zgarishining nisbiy qiymatlari sifatida o'sish koeffitsienti, o'sish sur'ati va YaMM o'sish sur'atlari kabi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Ba'zan iqtisodiyotdagi bir qarashdan ahamiyatsiz ko'ringan o'sish sur'atlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozimligi borasidagi qarashlar iqtisodchilar o'rtasida katta bahslarga sabab bo'ladi. Iqtisodiy o'sishning 3,5% va

3% o'rtasidagi farq haqiqatan ham muhimmi? Ha, albatta, bu muhimdir. Agar mamlakat YaMM i 3 milliard pul birligini tashkil qiladigan bo'lsa, 3% va 3,5% o'sish sur'atlari o'rtasidagi farq 15 million pul birligini tashkil qiladi. Kambag'al mamlakat aholisi uchun iqtisodiy o'sish sur'atlarining yarim foizga pasayishi ham to'yib ovqatlanmaslikdan ochlikka o'tishni anglatishi mumkin.

Bundan tashqari, bir necha yillar davomida o'sish sur'atlaridagi kichik farqlar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Aytaylik, A va B mamlakatlarida bir xil miqdordagi YaMM mavjud. Ammo A mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'ati yiliga 3% ni, B mamlakatda esa yiliga 3,5% ni tashkil etadi. "70ga bo'lish qoidasi" ga muvofiq, A mamlakatda YaMM 23 yil ichida, B mamlakat YaMM esa 20 yil ichida ikki baravar ko'payadi. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishning ahamiyati shubhasizdir.

Keys:Taraqqiyotning o'lchovi

O'tgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi yakuniga etkazildi. Uni amalga oshirish jarayonida tashqi savdo, soliq va moliya siyosati liberallashtirildi, xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kuchaytirildi, iqtisodiyotda yanada yuqori qo'shilganqiyamatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi, mintaqalarni rivojlantirish sa'y-harakatlari jadallashtirildi. Ushbu iqtisodiy yutuqlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga hamda kambag'allikka qarshi kurashishga imkon berdi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasini kamaytirishga, aholi daromadlarini oshirishga, tibbiy va ta'lim xizmatlari sifati hamda aholi turmush sharoitlarini yaxshilashga erishildi.

Gender tengligini ta'minlash maqsadida rahbar lavozimlarga ayollarni tavsiya etish, ularni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda davlat va jamiyat boshqaruviga jalb qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha qo'mita tashkil etildi; O'zbekiston Respublikasi Senati raisi boshchiligida Xotin-qizlar gender tengligini himoya qilish bo'yicha komissiya tuzildi; hududlarda Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari ochildi. Bunday chora-tadbirlarni yana davom ettirishimiz mumkin. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar va jarayonlar natijasi o'laroq, bugungi kunda mamlakatimizda 1500 ga yaqin xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida ishlab kelmoqdalar. 2016 yilda rahbar ayollar soni atigi 7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich salkam 13 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning 48 nafarini xotin-qizlar tashkil qilsa, bu ko'rsatkich Senatda 25 foizga etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 2456 nafar ayollar ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanmoqda. 278 nafar ayollar (Dsc) fan doktori va 1411 nafar ayollar (PhD) falsafa doktori ilmiy darajasiga ega. 1185 nafar xotin-qizlar tayanch doktoranturada, 80 nafar xotin-qiz- asosiy doktoranturada tahsil olayotgan bo'lsa, 964 nafar xotin-qizlar mustaqil tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanmoqdalar. 2019-2021 yillar mobaynida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan xotin-qizlarning innovatsion ishlanmalari va g'oyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 12 mlrd

146 mln 786 so‘m mablag‘ ajratildi. 3 nafar ayollarimizga akademik ilmiy unvoni berilgan bo‘lsa, 16 nafar ayollarimiz mamlakatimizning yuksak mukofoti “O‘zbekiston qahramoni” bilan taqdirlanganlar. Oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olayotgan talabalarning salkam 50 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi. Yurtimiz hududlarida 30272 nafar xotin-qizga kasanachilik bilan shug‘ullanishlari uchun tikuv mashinalari berildi. Ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida har yili 100 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘ ajratib kelinmoqda. O‘tgan yillar mobaynida xotin-qizlarga salkam 7 trln. so‘m kredit mablag‘lari ajratildi. Xotin-qizlar uchun 2017-2021 yillar mobaynida 362635 ta ish o‘rni yaratildi. Qishloq hududlarida 3 mingdan ortiq mini tseklar tashkil qilinib, 28 mingga yaqin xotin-qizning bandligi ta‘minlandi. “Ayollar daftari”ga kiritilgan 900 mingdan oshiq ayollarga har jihatdan ko‘mak ko‘rsatildi.

Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida xotin-qizlarning ishtirokini yanada kuchaytirish, inson kapitali sifatini ta‘minlashning muhim tashkil etuvchilari sifatida xotin-qizlarning turmush shart-sharoitlarini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, Taraqqiyot strategiyasining 4 –ustivor yo‘nalishida, jamiyatda xotin-qizlarning mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida: tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish; ularning huquqiy va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash; xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish; ayollarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish; turar joyga muhtojlarni uy-joy bilan ta‘minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish; og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolganlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash; “ayollar daftari” bilan manzilli ishlash, muammolar o‘z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi vazifalarning belgilab berilishi-ning o‘z yiq, fikrimizning yaqqol isbotidir.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 1 mart kuni jamiyatda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko‘rsatishni besh baravarga kengaytirish, dori-darmon va vitaminlarni bepul etkazib berish bo‘yicha xarajatlarni oshirish, talaba xotin-qizlarning to‘lov-shartnoma pullarini to‘lashlari uchun foizsiz ta‘lim kreditlari ajratish, magistraturada tahsil olayotgan qizlarning to‘lov-shartnoma pullarini davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan to‘liq qoplab berish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan ayollarga soliq imtiyozlari taqdim qilish kabi ustivor vazifalar belgilab berildi. Bunday keng ko‘lamli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda inson kapitali sifatining yaxshilanishiga katta hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda dunyoda pandemik vaziyat barqarorlashayotgan bo‘lsada, sog‘liqni saqlashdan tortib iqtisodiyotgacha, xavfsizlikdan tortib ijtimoiy himoyagacha bo‘lgan barcha sohalarida COVID-19 ning xotin-qizlarga bo‘lgan ta‘siri, ularning jinsi sababli yanada murakkablashdi. Pandemiya iqtisodiy va ijtimoiy zo‘riqishni kuchaytirgani holda, ayollarga nisbatan turli xil salbiy ta‘sirlar (zo‘ravonlik, jinsiy tajovuzlar) soni keskin oshishi kuzatiladi. Bu ta‘sirlarning barchasi beqarorlik, mojarolar va favqulodda vaziyatlar sharoitida yanada kuchayadi.

Ayollarning iqtisodiy faollik darajasi jamiyatda samaradorlik va tenglikni ta‘minlaganligi sababli, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim omil sifatida talqin etiladi. Mehnat bozorida ayollarning faollik darajasining oshishi ikki natija, ya‘ni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ayollarning huquq va imkoniyatlarining kengayishini nazarda tutadi. Bu tenglikning ta‘minlanishi va inson salohiyatidan samarali foydalanish orqali kambag‘allikni qisqartirishi va iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyatlarni kengaytirishi mumkin.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma‘lumotlariga qaraganda, turli davlatlar kesimidaturlicha bo‘lsada, umuman olganda butun dunyoda ayollar va erkaklarning mehnat bozorida ishtirokida katta farqlar saqlanib qolmoqda. 2019 yilda jahon bo‘ylab ayollarning iqtisodiy faollik darajasi

48 % bo'lgan bo'lsa, erkaklarda bu ko'rsatkich 75 %ni tashkil etdi, ya'ni dunyo mamlakatlarida 3,5 mlrd. kishini tashkil etgan ishchi kuchining 5 tadan 3 tasini erkaklar tashkil etayapti. Masalan, Norvegiyada ayollarning iqtisodiy faollik darajasi o'rtacha 61 foizni tashkil qiladi.

Sanoatlashuv va globalizatsiya jarayonlari ta'sirida butun dunyoda ayollarga bo'lgan munosabat o'zgarib borib, ularning mehnat bozoridagi o'rni ham o'zgarib bormoqda. Lekin ijtimoiy-iqtisodiy hayot qanchalik modernizatsiyalashib borishiga qaramay, ayollar mehnat bozori segmenti boshqa segmentlardan farqli o'ziga xos xususiyatlarga egaligi saqlanib qolmoqda. Bandlik darajasining beqarorligi va ishsizlikning yuqori xavfi, mehnatga xaq to'lash darajasidagi farqlar, ishga qabul qilinishi va bo'shatilishidagi mehnat qonunchiligiga rioya etilmaslik kabilar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Tadbirkorlik faoliyatida ayollarning ishtiroki ahamiyatli tarzda oshib bormoqda, amerikalik tadqiqotchilar R.Peterson va K.Vermeyerlar bu fenomenni "Jahon miqyosidagi tinch inqilob" deb atashgan edi. Darxaqiqat, oxirgi yillar davomida butun dunyoda ayollar tadbirkorligi keng tus olib, jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo'shayotganini inkor etib bo'lmaydi. Masalan, AQSh va Kanadada kichik biznesning uchdan bir qismi ayollar qo'lida, Frantsiyada tadbirkor ayollar erkak tadbirkorlardan 3 marotaba ko'p, umuman olganda, rivojlangan davlatlarda tadbirkor ayollar tadbirkorlarning 50,2 - 70,5 % foizini tashkil etmoqda. Shu o'rinda respublikamizda ham ayollar orasida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sohasining rivojiga alohida e'tibor qaratilib, keng imkoniyatlar ochib berilmoqda. Lekin, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik barcha hududlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan deb bo'lmaydi.

Dunyo bo'yicha kambag'al aholining 76,5 % qishloqlarda yashashini inobatga olib, ayollar uchun oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali dunyoda kambag'allik darajasini kamaytirish mumkin. Shuning uchun ham respublikamizda qishloq ayollarining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish va ulardan unumli foydalanish katta strategik ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi

O'tgan asr oxirlaridan boshlab globalizatsiya jarayonlari natijasida ayollarning mehnat bozorida ishtirokining ortishi barcha davlatlarni qamrab oldi. Jahon banki "Gender tenglik aqlli iqtisodiyot sifatida" nomi ostida axborot-tahliliy byulleten nashr etib, unda ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish rivojlanishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi.

Jahon miqyosidagi tadqiqotlarda ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokining turli jihatlari tadqiq etilmoqda. Ayollar ish bilan bandligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ayollar ish bilan bandligi va bu sohada uchraydigan muammolar; mehnat bozorida ayollarning kamsitilishga uchrashining nazariy-uslubiy jihatlari; ayollarning iqtisodiy faollik darajasi bo'yicha hududiy tafovutlar va ularning sabablari; ayollar mehnat bozoridagi ishtiroki va ularning reproduktiv funktsiyalari orasidagi bog'liqlik; ayol ishchi kuchining zamonaviy ish o'rinlari tuzilishi o'zgarishiga moslashuvini oshirish; virtual ish joylarini joriy etishning samarali va tezkor innovatsion yo'llarini ishlab chiqish; kasbiy malakalarni oshirishda ish beruvchilarning talablariga asosan malaka oshirish tizimini tashkil etish, farzandlar tug'ilishi hamda ularning tarbiyasi bilan bog'liq ayollarning hayotiy tsikl modelini e'tiborga olgan holda, qo'shimcha ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash strategiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va boshqalar.

Nobel mukofoti sovrindori S.Kuznets fikricha, iqtisodiy taraqqiyot ro'y bergan sari ishchi kuchi avvaliga qishloq xo'jaligidan sanoatga, so'ng sanoat sohasidan xizmat ko'rsatish sohasiga ko'chadi. Bunday sharoitda ayollarning iqtisodiy faollik darajasi U shaklsimon ko'rinishda yuz beradi. Ya'ni, agrar iqtisodiyotda ayollarning qishloq xo'jaligida ish bilan bandligi yuqori bo'ladi, sanoatlashgan iqtisodiyotda avvalambor, sanoatning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ayollarning ish bilan bandlik darajasi pasayadi va iqtisodiyotda uchlamchi sektor -

xizmatlar sohasi ustunlik qilib borgan sari ayollarning iqtisodiy faollik darajasi yana oshib boradi.

Oila modellari va insonlarning afzalliklarini faqatgina shaxsga yo'naltirilgan tadqiqotlar natijasida aniqlash mumkin. AQSh va Buyuk Britaniyada amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollar uch xil turmush tarzi orasida tanlovni amalga oshiradi, bular – oilaga mo'ljallangan, ishga yo'naltirilgan va moslashuvchan. Bunday taqsimlanish barcha ta'lim darajasiga ega bo'lganlar va barcha ijtimoiy qatlamlar orasida kuzatilgan. Oliy ta'limda boshqaruvchilik yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan ayollar soni ortib borayotganligiga qaramay, faqat ishni afzal ko'radigan ayollar hatto rivojlangan davlatlarda ham kamchilikni tashkil etgan.

Moslashuvchan ayollar oila va mehnat faoliyatini uyg'unlikda olib boradigan toifa bo'lib, ular eng katta guruhni tashkil etadi va ko'plab kasblarda kuzatiladi. Xususan, maktab ta'limi eng qulay kasb bo'lib, noto'liq ish kunida ishlash imkoniyati oila va ish orasida maqbul darajada muvozanatni saqlash imkonini beradi.

Uchinchi guruh bu oila yumushlari bilan band bo'lishni afzal ko'radigan ayollar bo'lib, g'arb dunyosida bundaylarning ulushi deyarli sezilarsiz. Lekin aynan shunday ayollar madaniy kapitalni orttirish imkonini beradigan, ammo yuqori daromad olish salohiyati past bo'lgan san'at kabi ijtimoiy-gumanitar sohalarda ta'lim olishni tanlaydilar.

Afzallik nazariyasi ayollar va erkaklar ish haqidagi farqlarning sababini boshqacharoq izohlaydi. Unga ko'ra, erkaklar ayollarga nisbatan martabasining ko'tarilishi uchun faolroq jon-jahdi bilan harakat qilishadi, ayollar esa ish haqini oshirishdan ko'ra ish vaqtini qisqartirishga qo'proq harakat qilishadi.

Ish bilan bandlik, munosib mehnat bilan bandlik uchun shart-sharoitlarni yaratish har bir hukumat oldida turgan dolzarb masaladir. Mehnat bozorining samarali faoliyat yuritishini tashkil etish, avvalambor, jamiyatda tenglik, hurfiylik, barqarorlik va ijtimoiy uyushqoqlik kabi tamoyillarni mustahkamlashda o'rni beqiyosligi sababli dolzarb. Haq to'lanadigan mehnat bilan bandlik butun dunyoda aksariyat insonlarning yagona daromad manbai ekanligini hisobga olganda, mehnat bozoridagi holat qanchalik muhim ekanligiga shubha qolmaydi.

Xalqaro mehnat tashkiloti va Gallup hamkorligida jahonning 142 ta davlatida 149000 respondent orasida o'tkazilgan "Ayollarning ish bilan band bo'lishiga nisbatan munosabatni aniqlashga qaratilgan" ijtimoiy tadqiqot natijalariga ko'ra, 70 % ayollar va 66 % erkaklar ayollarning ish haqi to'lanadigan mehnat bilan shug'ullanishlarini ma'qullaydilar, 29 % ayollar ish haqi to'lanadigan ishda ishlash, 41 % ish haqi to'lanadigan ishda ishlash va oiladagi vazifalarni uyg'unlikda olib borish va 27 % ayollar uyda qolishni afzal ko'rishlarini bildirganlar. Oiladagi erkaklarning ayollarining ishlashiga munosabati 28% qo'llab quvvatlashi, 20 % uyda qolishini afzal ko'rishi va 38 % ikkalasini olib borishga to'sqinlik qilmasliklari ma'lum bo'lgan. Uyda qolib uy vazifalari bilan band bo'lishni eng ko'p Janubiy Osiyo davlatlari ayollari (42 %) va aksincha eng kam miqdorda Shimoliy, Janubiy va G'arbiy Yevropa davlatlari ayollari (13 %) afzal ko'rganlar.

Ayollar mehnat bozorining o'ziga xosligi tarixan mavjud bo'lib, ayollar va erkaklarning mehnat bozorida ishtirok darajasidagi farqlar asosan, ayollarning reproduktiv funksiyalari, oilada ayol va erkaklarning majburiyatlaridagi farqlar, strukturaviy to'siqlar va madaniy cheklovlar bilan belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda ayollar elkasidagi oilaviy majburiyatlarning yuki erkaklarnikiga qaraganda ancha og'irligi sababli tashqi mehnat bozorida ularning yutuqlari erkaklarnikidan ancha sust. Ayolning oila hayotidagi maishiy vazifalari, farzand tarbiyasi, katta yoshdagilarning parvarishi va boshqalar majburiyatlari bilan bog'liq ravishda ish beruvchi uchun noqulay xodim sifatida yuzaga chiqib, uning mehnat bozorida erkaklarga nisbatan raqobatbardoshligini tabiiy ravishda pasaytiradi. Dunyoning ayrim davlatlarida haq to'lanmaydigan ish uchun bir kunda o'rtacha safrlanadigan vaqtning jinslar kesimida taqsimlanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Avstraliyada ayol bir kunda 5 soat 15 daqiqa,

erkak esa 2 soat 51 daqiqa haq to'lanmaydigan ish bilan mashg'ul bo'lsa, bu ko'rsatkich Kanadada mos ravishda 3 soat 44 daqiqa va 2 soat 28 daqiqa, Frantsiyada 3 soat 44 daqiqa va 2 soat 15 daqiqa, Germaniyada 4 soat 2 daqiqa va 2 soat 30 daqiqa, Hindistonda 5 soat 52 daqiqa va 52 daqiqa, Yaponiyada 3 soat 44 daqiqa va 41 daqiqa, AQShda 4 soat 4 daqiqa va 2 soat 26 daqiqani tashkil qiladi.

Ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, hatto eng rivojlangan davlatlarda ham xalqaro baholarga ko'ra, gender tenglikka u yoki bu darajada erishilgan mamlakatlarda ham, ayollarning oila doirasida haq to'lanmaydigan ishlar bilan bandlikka sarflanadigan vaqt nuqtai nazardan erkaklardan ustunlik qilmoqda. Bu farq kamida ikki barobardan besh-olti barobargacha ekanligi ma'lum bo'lmoqda, ayrim davlatlarda bunday farq o'n barobargacha etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, zamonaviy mehnat bozoriga xos bo'lgan quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajratish mumkin:

- mehnat bozorida ayollarga nisbatan erkaklarning ishtiroki yuqoriligi;
- butun dunyoda so'nggi asrda mehnatga layoqatli yoshdagi ayollarning iqtisodiy faollikdarajasi sezilarli darajada oshdi, lekin so'nggi yigirma yil davomida asta pasayishi xos;
- butun dunyoda ayollar vaqtlarining salmoqli qismini iqtisodiy faoliyat sifatida ta'riflanmaydigan ish faoliyati bilan band holatda o'tkazadilar.

Ayollar va erkaklarning ish haqlarida muayyan farqlarning mavjudligi global miqyosda kuzatiladi. Tadqiqotlarda buning sababi sifatida to'plangan inson kapitalidagi farqlar kabilar ko'rsatilsada, eng asosiy sabab yuqorida ta'kidlanganidek, onalik, ya'ni farzand parvarishlashdagi o'rni bilan belgilanadi. Daniya statistikasi misolida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, 1980 yilda Daniyada ish haqi va daromaddagi gender farqning 40 % onalik bilan izohlangan bo'lsa, 2013yilga kelib 80 %ga yaqini farzandlarni tarbiyalash bilan izohlangan.

O'tgan asrning oxirlarida ham ish haqidagi gender farqning yetakchi omillaridan biri sifatida ta'lim yuzaga chiqqan edi. Bugungi kunda esa ta'limning borgan sari universal xususiyat olishi va ayollar uchun ham ta'lim olishi uchun to'siqlarning bartaraf etilishi ish haqi va daromaddagi gender tafovutning asosiy omili sifatida farzand ko'rish va uni parvarishlash bilan bog'liq holat yuzaga chiqmoqda. Har bir farzand ko'rish bilan bog'liq ravishda ayol muayyan miqdorda sog'liq va vaqtini yo'qotadi. AQSh va Buyuk Britaniya misolida o'tkazilgan tadqiqot natijalari ham onalik ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini keskin pasaytirib, uning ta'siri farzand ko'rgandan so'ng bir necha yil davom etishini ko'rsatdi.

Turli davlatlarda ushbu tafovut turlicha bo'lib, jahon bo'yicha ayollar va erkaklar soatbay ish haqidagi farq 16 % va oylik ish haqidagi farq o'rtacha 22%ni tashkil etmoqda. Misol uchun, AQShda erkaklarning 1\$ lik ish haqiga ayollar ish haqi miqdori 0,84 \$ni tashkil etdi, ya'ni ayollar yillik daromadi erkaklar yillik daromadining o'rtacha 84 %ni tashkil etgan. Rivojlangan Yevropa davlatlarida mehnat bozorida kasaba uyushmalarining o'rni va ta'sir doirasi juda kuchli ekanligini hisobga olib, xususan, yosh farzandi bor ayollar uchun oila va ishni hamohang olib borish uchun tartibga solib turiladigan ish vaqti, farzandlarni parvarishlash uchun davlat tomonidan subsidiyalarning taqdim etilishi kabilar erkak va ayol daromadlari orasidagi farqning uncha katta emasligiga zamin yaratmoqda.

Ayollarning iqtisodiy faolligi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan shuningdek, hech qanday madaniy va an'anaviy to'siqlar mavjud bo'lmagan rivojlangan davlatlarda mehnat bozorida ishtirok, ish haqi va daromaddagi tafovutlarning asosiy manbai farzand ko'rish va uni parvarishlash bilan bog'liq. Lekin ayollarning mehnat bozoridagi haq-huquqlarini himoya qiluvchi, ularning oila va ishni uyg'unlikda olib borishga sharoit yaratuvchi me'yoriy asos bir muncha kuchsiz, iqtisodiyotning norasmiy sektori ustunlik qiluvchi va kichik yoshdagi bolalarni parvarishlash bilan bog'liq davlat xizmatlari va kafolatlari etarli darajada taraqqiy etmagan rivojlanayotgan davlatlarda holat boshqacharoq.

Aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda esa ayollarning norasmiy mehnat bozorida ish bilan bandlik darajasi erkaklarnikiga nisbatan yuqoriligi kuzatiladi. Bu esa ish haqiningpastligi, yoshga

doir pensiya kabi ijtimoiy kafolatlarning mavjud emasligi singari muammolar natijasida qariya ayollar orasida erkaklarga nisbatan kambag'allikka duchor bo'lganlar ulushining ustunligiga sabab bo'lmoqda.

Rivojlangan davlatlarda mehnat bozoridagi ishtirok va ish haqidagi gender tavofutning asosiy omili sifatida ta'limning o'rni sezilarli ravishda pasaygan bo'lsa, ta'limning imkonlilik darajasi, xususan oliy ta'limning ayollar uchun imkonliligi haligacha muammoli bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim bo'lib qolmoqda. Ayni paytda jahon bo'ylab STEM yo'nalishi bo'yicha jami talabalarning atigi 35 % ayollarga to'g'ri kelmoqda, sun'iy intellekt sohasida mutaxassislarining 22 % ayollarni tashkil etmoqda.

Ayollarning oilaviy majburiyatlari ularning boshqaruvchi lavozimlarda ishlashlariga to'sqinlik qiladigan birinchi sabab sifatida ko'rsatiladi. Jahonning ko'plab davlatlarida, ayniqsa rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan xususiyat sifatida ijtimoiy muxofaza tizimiga ko'plab talablarni qo'yayotgan aholining qarish jarayoni ham ayollar mehnat bozoridagi ishtirokiga o'z ta'sirini o'tkazayпти. Yosh bolalardan tashqari oilalardagi taboro soni ortib borayotgan katta avlodni parvarishlash bilan bog'liq majburiyatlar aksariyat hollarda yana ayollar boshiga tushmoqda. Bu esa o'z navbatida ayollarning iqtisodiy faollik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Turli mamlakatlardagi ayollar bilan bog'liq ishsizlik muammosini hal qilish borasidagi tajribalar, ayollar bandligiga ko'maklashish bilan bog'liq an'anaviy yo'nalishlarni kam himoyalanganlar toifasiga kiruvchi ayollar o'rtasidagi ishsizlik muammosiga nisbatan hamma vaqtda ham muvaffaqiyatli ravishda qo'llab bo'lmasligini ko'rsatmoqda.

Bu muammoning samarali echimiga erishish uchun, eng avvalo mazkur toifaga kiruvchi ayollarni qiziqtiradigan ma'lumotlarning, jumladan, odatdagidan tashqari ish tartiblari belgilanishi mumkin bo'lgan ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarning to'liq va ishonarli bo'lishini ta'minlash zarur. Chunki, bolalik ayollarning ko'pchiligi o'rtasida to'liq bo'lmagan ish kuni (45%), o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega ish jadvali (33%), to'liq bo'lmagan ish haftasi (21%) belgilanishi mumkin bo'lgan ish bilan band bo'lishga talab katta ekanligi kuzatilmoqda. Umuman olganda, turli davlatlarda turlicha bo'lishiga qaramay, global miqyosda jahonda so'nggi 25 yil davomida ikkala jins orasida ham iqtisodiy faollik darajasining pasayishi yaqqol kuzatilmoqda. Xususan, 1990 - 2019 yillar davomida ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 50,9 %dan 47,7 %ga tushgan, erkaklarda bu ko'rsatkichning pasayishi 80,2%dan 74,7 %gacha yuz berdi. Eng kuchli pasayish Sharqiy Osiyo va Tinch okeani havzasi, Lotin Amerikasi va Karib havzasi davlatlari guruhida kuzatilmoqda. Lekin ta'kidlash joizki, ikkala mintaqada ayollar orasida iqtisodiy faollik darajasi jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqoridir.

Jahon bo'yicha o'rtacha tendentsiyadan farqli ravishda respublikamizda holat aksincha. 2000-2020 yillar davomida ayollarning iqtisodiy faollik darajasi o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi ko'zga tashlanadi. Ushbu davr mobaynida o'rtacha jahon bo'ylab ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 50,9 %dan 46,9 %ga tushgan, mamlakatimizda esa mos ravishda 50,8 %dan 52.3 %ga etdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichi axborot texnologiyalarining hayotning barcha jabhalariga kirib borishi va ularning shiddat bilan rivojlanishi bilan xususiyatlanib, nomoddiy iqtisodiyot bilan bog'liq ravishda xizmatlar sohasining rivojlanishiga olib kelmoqda. Shunga mos ravishda xizmatlar sohasida ish bilan bandlik darajasi ham ortib bormoqda. Misol uchun, Malayziyada so'nggi 20 yil ichida xizmat ko'rsatish sohasida ayollarning ish bilan bandlik darajasi 53,3 %dan 75%ga, Rossiyada 63,1 %dan 80,7%ga etdi. 2020 yil holatiga BAA da ayollarning 95 %, AQSh va Kanadada 90 % xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston ayollarining 58,7 % xizmatlar sohasida ish bilan band. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, respublikamizda xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun xali juda katta imkoniyatlar mavjudligi aniqlanadi.

So'nggi yillarda respublikada xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarning ahamiyatini e'tirof etgan holda, istiqbolda quyidagi ishlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- Ayollarning aksariyat qismi band bo'lgan sohalar, ya'ni ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida oylik ish haqi miqdorlarini muttasil ravishda oshirib borish. Ushbu tadbir nafaqat ayollarning iqtisodiy faravonligini oshirishga xizmat qilib, balki mamlakat istiqbolini belgilab beradigan milliy inson kapitalini sifatli darajada shakllantirishga asos bo'ladi. Ta'lim tizimidagi ish haqlarining boshqa sohalariga nisbatan pastligi uning malakali kadrlar uchun jozibadorligini keskin pasaytiradi;

- ayollarning, xususan qishloq joylardagi xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatibilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish;

- xotin-qizlarning o'rta maxsus va oliy ta'lim olishlari uchun moliyaviy, hududiy imkoniyatlarni yanada kengaytirish;

- ayollarning 3 yoshgacha farzandni parvarishlash ta'tilidan keyin mehnat bozorida moslashishini osonlashtirish shuningdek, ta'lim va oilaviy majburiyatlarni uyg'unlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bandlik xizmati organlari tomonidan kasb ta'limi va qo'shimcha kasb-hunar ta'limi bo'yicha dasturlarni tashkil etish, jumladan, davlat masofaviy xizmatlarini tashkil etish shaklida ham;

- bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan ayollarni ijtimoiy himoya qilish va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- milliy inson kapitalini shakllantirishda oilaning, xususan onalarning rolini beqiyos ekanligini e'tirof etgan holda, 14 yoshgacha farzandi bo'lgan ish bilan band bo'lgan ayollarning ish vaqtini ish haqini o'zgartirmagan holda 2 soatga qisqartirilgan ish kunini tashkil etish imkonini beruvchi chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Ushbu tadbir farzandli ayollarning mehnat bozorida raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta'sir etishini oldini olish, bunday toifadagi ayollarni ish bilan ta'minlagan ish beruvchilarga nisbatan soliq vaboshqa imtiyozlarni joriy etish tavsiya etiladi.

Savollar:

1. Jamiyatda ayollarning faolligini oshirish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga nisbatan o'z xulosalaringizni bildiring?

2. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda gender tengligi masalalarining o'rni qanday, deb o'ylaysiz?

Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-“Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464 бет.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.

3. Абдувоҳидов А.А. ва бошқалар. Инновациялар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма.- Т.: “Мумтоз сўз”, 2020-636 бет.

4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.

5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Хажиев Б.Д., Ахмедов Д.Қ., Захидов Г.Э., Мамбетжанов Қ.Қ. Иқтисодий ривожланиш назариялари. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2018. - 428 бет.
10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.
11. Хажиев Б.Д., Абдуллаев С.О., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. Дарслик. – Т.: “Зебо юлдузлари МЧЖ”, 2018. - 417 бет.
12. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов тахрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.
13. Дарон Асемоглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асемоглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова- М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).
14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018
15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.

16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.
17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.
18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018
19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. · 2018
20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.
21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.
22. www.cer.uz - Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази расмий сайти.
23. www.stat.uz- Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.
24. <https://mineconomy.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги расмий сайти
25. <https://cbu.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий сайти.
26. <https://mf.uz/uz> - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий сайти
27. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси
28. <https://www.mininnovation.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий сайти
29. <https://uza.uz/uz> - Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий сайти
30. <https://www.worldbank.org/en/home>- Жаҳон банки расмий сайти

VIII BOB. IQTISODIY O‘SISH VA RIVOJLANISHNING SODDA MODELII

“Iqtisodiy tizimlar ichida eng yaxshisi - bu insonlarga ular ko‘proq ehtiyoj sezadigan narsalarni yuqori darajada ta‘min etib beruvchi tizimdir.”

J. Gelbrayt

7.1. Iqtisodiy o‘shish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish

7.2. Iqtisodiy o‘shishning Menkyu-Romer va Shumpeter modellari

7.3. Iqtisodiy o‘shishning toindustrial, industrial va postindustrial tiplari

Raqamli iqtisodiyot milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishtirishning muhim sharti sifatida

Hayotda ham fanda ham, “tovuqxona samarasi” degan tushuncha mavjud. Bu tushunchaning mohiyati shundaki, tovuq katagiga yoki qo‘yxonaga kirib olgan yirtqich hayvonlar oxirgi kuchi qolganicha parranda va qo‘y-echkilarni bo‘g‘izlab, xonadon egalariga katta moddiy zarar keltiradi. Xuddi shu kabi bugungi kunda COVID-19 pandemiyasi ham dunyo mamlakat-larini birma-bir sinovdan o‘tkazmoqda. Bu borada BMT bosh kotibi Antoniu Gutteresh koronavirus pandemiyasi kishilarning jamiyat institutlariga ishonchini pasaytirib yuborishi, hukumatning suiiste‘mol qilinishi, iqtisodiy notenglikning yanada chuqurlashishiga olib kelishi haqida dunyo mamlakatlarini ogohlantirib o‘tdi.

Koronavirus pandemiyasi butun dunyo iqtisodiyoti uchun favqulodda beqarorlashtirishuvchi ta‘sir ko‘rsatdi. Bugungi kunda iqtisodchilar mazkur iqtisodiy inqirozni Ikkinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy inqiroz yoki o‘tgan asrning 30-yillarida AQShda yuz bergan Buyuk depressiya bilan bilan taqqosla-moqdalar. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning ma‘lumot-lariga ko‘ra, joriy yilda jahon iqtisodiyoti 5,2 foiz, AQSh iqtisodiyoti -6,1 foiz, Rossiya iqtisodiyoti – 6 foizgacha qisqarishini, Xitoyda iqtisodiy o‘shish 1 foizgacha pasayib ketishi bashorat qilinmoqda. Albatta dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan “tovuqxona samarasi” O‘zbekis-tonni ham jiddiy sinovlardan o‘tkazmoqda. Xususan, o‘tgan 2019 yilda mamlakatimizda yillik iqtisodiy o‘shish 5,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Jahon bankining bashoratlariga ko‘ra, joriy yilda Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari orasida birgina O‘zbekistonda 1,5 foiz ijobiy o‘shish kuzatiladi. Shunday bo‘lsada, koronavirus pandemiyasi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Eng qattiq qarantin cheklovlar avjiga chiqqan aprel oyida, 2019 yilning shu davriga nisbatan pasayish sanoatda 28%, xizmatlar-39%, eksport-23% ni tashkil qildi. Biroq O‘zbekiston may oyi boshida ishlab chiqarish pasayishining eng past nuqtasini engishga muvaffaq bo‘ldi, iyun oyi o‘rtalarida esa aksariyat xizmat ko‘rsatish sohasidagi eng past pasayish nuqtasini engishga muvaffaq bo‘lindi. Birinchi yarim yillik yakunlari bo‘yicha dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, vaziyat sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2020 yilning birinchi yarim yilligida YaIMning o‘shishi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 100,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich sanoatda - 98,17%, xizmatlar sohasida 102,6%, qishloq xo‘jaligida 103% ni tashkil qildi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, pandemiya investitsiyalar va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi ko‘rsatkichlariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Joriy yilning birinchi yarim yilligida asosiy kapitalga investitsiyalar 12,8 foizga, tashqi savdo aylanmasi esa 18,2 foizga pasaygan.

Koronavirusning iqtisodiyotga salbiy ta‘sirini bunday jadal barqarorlashtirishga bir qator inqirozga qarshi choralarni jadal amalga oshirilishi tufayli erishildi. Buning natijasida o‘tgan uch

oy mobaynida iqtisodiyot tarmoqlariga 2,3 trillion so‘m soliq imtiyozlari berildi va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun Inqirozga qarshi kurashish fondidan 3,6 trillion so‘m ajratildi.

Jumladan, qarantin tadbirlaridan zarar ko‘rgan 59,8 ming kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari 257,1 mlrd. so‘m miqdorida mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan. 328,8 ming mikrofirma va kichik korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12% dan 1% ga (551 mlrd.so‘m) kamaytirildi. Aholini, ayniqsa, kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ishsizlarni jamoa ishlariga jalb etish uchun 279,6 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Ijtimoiy nafaqalar oluvchilar soni 595 mingdan 723 mingga yoki 21% ga oshdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan pandemiya sharoitida moddiy yordam va ko‘makka muhtojlar ro‘yxatiga kiritilgan va a‘zolari 1,7 million nafardan ortiq bo‘lgan 400 mingdan ko‘proq oilalarga respublika byudjetidan bir martalik moddiy yordam puli berilishi va bu maqsadlar uchun respublika byudjetidan qo‘shimcha 380 milliard so‘m ajratildi. Shuni mamnuniyat bilan ta‘kidlash lozimki, mamlakat iqtisodiyoti uchun qiyin bo‘lgan bir vaziyatda davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganlik tavsifi saqlab qolindi. 2020 yilning 1-yarim yilligida davlat byudjeti xarajatlari YaIMning 25,4 foizini yoki salkam 65 trillion so‘mni tashkil etgani holda, mazkur xarajatlarning 53,4 foizi ijtimoiy sohaga yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 9 iyun kuni milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashning dolzarb masalalarini muhokama qilishga bag‘ishlangan yig‘ilishda koronavirus pandemiyasi sharoitida mamlakatimiz milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarini barqaror rivojlantirishning sakkizta 8 ta asosiy yo‘nalishini belgilab berdi. Bunday ustuvor yo‘nalishlar orasida iqtisodiyot tarmoq va sohalarida raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish masalalari alohida ta‘kidlab o‘tildi. Hozirgi dunyoda “o‘zini hurmat qilgan” mamlakatlar taraqqiyotga erishishning olti tashkil etuvchisi: bilimlar iqtisodiyoti, inson kapitali sifatini yaxshilash, “yashil iqtisodiyot”, “sanoatlashtirish siyosati”, integ-ratsion aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish va raqamli iqtisodiyot unsurlaridan izchil foydalanmoqdalar. Shu bois, mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning ayrim jihatlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Ilmiy va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, yangi texnologiyalarni izchil joriy etish hisobiga ishlab chiqarish tuzilmasining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar asnosida iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda (bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning ulushi dunyo YaIMining 10 foizini tashkil etadi). Shu asnoda innovatsion taraqqiyotning turli vazifa va muammolarini hal etish borasidagi qarashlar va yondashuvlar ham o‘zgarib bormoqda. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish global iqtisodiyot asoslarini o‘zgartirish va qayta ko‘rib chiqishga olib keladi, chunki zamonaviy iqtisodiyot ma‘lumotlar bazasini boshqarishga asoslangan iqtisodiyot hisoblanadi. Bu borada jahonning eng nufuzi iqtisodiy nashrlaridan biri The Economist jurnali axborotni – “Fuel of the future” kelajak yoqilg‘isi, deb ataydi.

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida – “raqamli iqtisodiyot” kontseptsiyasi vujudga keldi, mazkur kontseptsiyaning asosini katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sohasini (onlayn xizmatlar, elektron to‘lovlar va boshqalar) rivojlantirish imkonini beruvchi raqamli va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va ularni jamiyat hayotining barcha sohalariga izchil joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatini tashkil etishning o‘ziga shakl va usullari tashkil etadi. Zamonaviy, intellektual iqtisodiyot sari rivojlanish, raqamli iqtisodiyot-ni shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘plab omillarga bog‘liq va ularning ekonometrik tahlili raqamli iqtisodiyotni oqilona boshqarish hamda tartibga solish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga “raqamli texnologiyalar”ni joriy etish bugungi kunda o‘zining potentsial imkoniyatlarini kengaytirish jarayonida bo‘lgani holda, texnik baza, dasturiy

ta'minotning nomukammalligi, aholi kompyuter savodxonlik darajasining pastligi, raqamli texnologiyalar sohasini tartibga solish borasida qonunchilik bazasining bugungi kun talablariga javob bera olmasligi kabi omillar kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish va biznes muhitiga yangi "raqamli texnologiyalar"ni integratsiyalashuviga to'sqinlik qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda davlatning qo'llab-quvvatlovchi siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Mamlakatimiz rahbari joriy 2020 yilning 24 yanvarida mamlakat Parla-mentiga yo'llagan Murojaatnomasida: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda... aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq... Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllan-tirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi"-deb ta'kidlab o'tdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan "Raqamli O'zbekiston-2030" kontsepsiyasida O'zbekistonda bilimlar jamiyatini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni barpo etish, ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli iqtisodiyot sektori tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlardan uy xo'jaliklarining foydalana olishlari uchun etarlicha imkoniyatlar yaratish va ularning turmush farovonligini oshirish, uy xo'jaliklari a'zolarining xabardorlik va raqamli savodxonlik darajasini oshirish, fuqarolar uchun sifatli va arzon davlat xizmatlarini ko'rsatish, mamlakatning barcha hududlarini sifatli va tezkor Internet aloqasi bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yish, uy xo'jaliklari va davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta'minlash kabi masalalar ko'zda tutilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar sohasi mutaxassis-larining fikricha, bugungi kunda jahonda Internetdan foydalanuvchilar soni dunyo aholisining 52 foizini tashkil etadi. Qashshoq uy xo'jalik-larining 20 foizida a'zolarining har o'ntasidan ettitasida uyali telefon mavjud.

Mobil telefonga ega bo'lgan qashshoq uy xo'jaliklarining soni oddiy hojatxona yoki toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniga ega bo'lgan-lardan anchagina ko'pchilikni tashkil etadi.

Jahon banki ekspertlarining fikricha, bugungi kunda butun dunyo mamlakatlari "raqamli inqilob"ni boshidan kechirmoqdalar. Ular bu borada bir qator xulosalarni ilgari suradilar:

1. Internet, uyali aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng taraqqiy etishi raqamli iqtisodiyotning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi;
2. Raqamli iqtisodiyot dunyoning ko'pgina mamlakatlarida jadal taraqqiy etmoqda;
3. Raqamli iqtisodiyot dunyo qiyofasining tubdan ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi.

Shu tufayli mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi va sohani jadal rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgi-landi. Bugungi kunda butun dunyo mamlakatlarida bo'lgani kabi mamlakatimizda ham fuqarolar raqamli iqtisodiyotning avfzalliklaridan kengroq foydalanishni istaydilar. Shu sababli ham raqamli inqilob mamlakatimizda barcha fuqarolarni birdek qamrab olishi uchun sohaga investitsiyalar kirib kelishini faollashtirish, texnologiyalar va innovatsion biznes g'oyalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Bu borada mamlakatimiz rahbari Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida alohida to'xtalib: "O'tgan yili barcha shahar va tuman markazlarini yuqori tezlikdagi Internetga ulash

ishlari yakunlanganini hisobga olib, yaqin 2 yilda barcha qishloq va mahallalarni ana shunday tezkor Internet bilan ta'minlashimiz kerak. Hozirgi kungacha 7 mingdan ortiq sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar yuqori tezlikdagi Internetga ulangan bo'lsa, keyingi 2 yilda yana 12 mingta muassasa tezkor Internetga ulanadi... Kelgusida bu ishlarni tizimli tashkil etishga bosh-qosh bo'lishi uchun hukumatda – Bosh vazir o'rinbosari, vazirlik va idoralarda hamda hokimliklarda esa – alohida o'rinbosar lavozimlari joriy etiladi"-deb ta'kidlab o'tdi.

Raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarning izchil joriy etilishi asnosida milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish sifati yaxshilanadi, yangi ish o'rinlarini yaratish jarayonlari jadallashadi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanadi.

O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiya-larni rivojlantirish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda internet tarmog'idan foydalanuvchi uy xo'jaliklarining a'zolari 20 million kishidan oshiqroqni tashkil etadi

Xalqaro tahlilchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlarda internetdan foydalanuvchi aholining ulushi 2005 yilda 51,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkich 83,1 foizgacha oshgan. Eng yuqori o'sish Afrika davlatlarida kuzatilgan, xususan mazkur mintaqa mamlakatlarida internetdan foydalanuvchilar ulushi 2,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019 yilga kelib 24,4 foizgacha o'sgan-ligini ko'rishimiz mumkin. MDH davlatlari bo'yicha internetdan foydalanuvchilar ulushi 2018 yilda 71,3 foizni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich O'zbekistonda 2019 yilda 64,7 foizni tashkil qilgan. 2019 yilda The Economist Intelligence Unit tomonidan 2017 yildan buyon o'tkazilib kelinuvchi inklyuziv internet indeksi reytingida O'zbekiston 100 ta mamlakat ichida 69-o'rinni egallagani holda, yon qo'shnimiz Qozog'iston mazkur reytingda 49-o'rinda qayd etilgan. Xalqaro ekspertlar internet va raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida O'zbekistonda gender tengligiga erishish lozimligini ta'kidlaydilar.

Mazkur holat mamlakatimizning barcha hududlari va uy xo'jalik-larini internet tarmog'i bilan qamrab olish bo'yicha ishlarni sifat jihat-dan yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mobil aloqa abonentlarining soni yil sayin ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 2013 yilda mobil aloqa abonentlari soni 20,3 milliontani tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib, mamlakatimizda mobil aloqa bilan qamrab olish darajasi 96 foizdan oshgan..

Uy sharoitida internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlari yil sayin o'sib bormoqda. Xalqaro tahlilchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2005 yilda butun dunyoda uyda internetga ulana olish imkoniga ega bo'lgan uy xo'jaliklari 20 foizdan kamroqni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich qariyb 60 foiz uy xo'jaliklarini qamrab olgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, butun dunyoda aloqaning turli shakl va vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yil sayin kengayib bormoqda. Tahlillarga ko'ra, 2021 yilga borib, internetdan foydalanuvchi jismoniy shaxslar 2018 yilga nisbatan 12 foizga oshadi va 57,4 foizni tashkil etadi, keng polosali internetdan foydalanuvchi uy xo'jaliklarining a'zolari 2021 yilga borib 78,9 foizni tashkil etadi. Yuqoridagilarning barchasi jahonda raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot yetakchi kuchga aylanayotganligidan dalolat beradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beruvchi texnologiya-larni jadal joriy etish nuqtai –nazaridan mamlakatlarni quyidagi to'rtta guruhga bo'lishimiz mumkin: yetakchi mamlakatlar; istiqbolli mamlakatlar, o'sish darajasi pasayayotgan va muammoli mamlakatlar.

Yetakchi mamlakatlar yuqori darajada rivojlangan raqamli iqtisod va kuchli rivojlanish dinamikasiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ular o'z mavqelaridan samarali foydalanib, innovatsiyalarni rag'batlantiradilar. Biroq, vaqt o'tishi bilan yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish katta qiyinchilik tug'diradi va ko'pincha innovatsiyalar iqtisodiy ta'sirni kengaytirish uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qila olmaydi. O'z mavqelarini yo'qotmaslik uchun bu mamlakatlar yangi talabni yaratishlari va innovatsion echimlarni ishlab chiqishni

yanada avj oldirishlari talab etiladi. Aks holda, ularning o'sish sur'atlari sekinlashayotgan mamlakatlar toifasiga tushib qolish xavfi yuqorilab boraveradi.

O'sish sur'atlari pasayayotgan mamlakatlar raqamli iqtisodiyotning taraqqiy etganligi bilan ajralib tursada, lekin raqamli iqtisodiyotning o'sish sur'atlari sekinlashishi bilan ajralib turadi. Mazkur mamlakatlar yetakchi mamlakatlardan innovatsion rivojlanishni qo'llab – quvvatlash borasida ular to'plagan boy tajribani o'zlashtirishlari asnosida yetakchi mamlakatlar qatoriga o'tishlari mumkin, aksincha ular muammoli mamlakatlar qatoriga o'tib qolishlari ehtimoldan holi emas.

Istiqbolli mamlakatlar hozirgi kunda raqamlashtirish darajasi past bo'lsada, lekin jadal rivojlanayotganligi bilan alohida ajralib turadi. Barqaror rivojlanish dinamikasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish borasidagi mavjud katta salohiyat investorlarda katta qiziqish uyg'otadi. Mazkur mamlakatlar raqamli texnologiyalarning taraqqiyotiga cheklovchi ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma va institutsional muhitning yomon sifati bilan ajralib turadi. Istiqbolli mamlakatlar eng yaxshi innovatsion echimlarni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion infratuzilma obyektlari va institutlarini barpo qilishga harakat qilishlari lozim.

Muammoli mamlakatlar raqamlashtirishning past darajasi bilan farqlanadi. Raqamlashtirishning past darajasi iqtisodiy taraqqiyot yo'lida qator muammolarni vujudga keltirgani holda, iqtisodiyotning innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga imkon bermaydi. Ba'zi muammoli mamlakatlar infratuzilma tanqisligi, institu-tsional cheklovlar va iste'molchilarning uquvsizligi kabi muammolarni hal etishda o'ziga xos tarzda yondashishga harakat qiladilar. Ular uchun rivojlanish dinamikasini yaxshilashning eng ishonchli yo'li internetdan foydalanishdagi bo'shliqni kamaytirish orqali aholining internetdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashdan iboratdir.

Alohida ta'kidlash lozimki, davlatning qo'llab-quvvatlovchi siyosati raqamli iqtisodiyotning jadal taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy taraqqiyot "oqsoqlanishi"ning oldini olish maqsadida: raqamli innovatsiyalar sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini qonun yo'li bilan tartibga solish; iqtisodiyotda yangi texnologiya va axborot oqimlaridan foydalanishni rag'batlantirish; uy xo'jaliklari a'zolarining raqamli makonda faoliyat ko'rsata olishlarini ta'minlash maqsadida o'quvchi va talabalarning yangicha fikrlashlariga xizmat qiluvchi o'quv dasturlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar sohasi uchun malakali mutaxassis va kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot vositalarini iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlariga keng joriy etishda tijorat banklarining o'rni va ahamiyati juda ham katta. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda banklar faoliyatida ham raqamli transformatsiyalashni amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Banklar faoliyatida raqamlashtirishdan foydalanish – bu eng avvalo yangi bank xizmatlarini ko'rsatish, yangi bozor imkoniyatlariga ega bo'lish maqsadida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda butun jahonda bank amaliyotida amalda mavjud biznes-modellar o'rniga raqamli valyutalar, R2R-servislar, mobil va kontaktsiz to'lovlar tizimidan keng foydalanilmoqda. Aynan shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham bank tizimini raqamli transformatsiyalash va bu borada jahon amaliyotida keng qo'llaniluvchi raqamli texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish birinchi navbatda iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishni ko'zda tutadi. Jahon bankingning "Raqamli dividendlar" nomli tadqiqoti natijalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko'rsatadi. Xususan, internet tezligining 10 foizga o'sishi, mamlakat YaIMni o'sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich, 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan davlatlarda 1,38 foizni tashkil etadi. Demak, internet tezligi 2 barobarga oshadigan bo'lsa, YaIM hajmi ham qariyb 15 foizga oshishiga erishish mumkin. Bundan tashqari, ekspertlarning hisoblashlaricha raqamlashtirish evaziga mahsulot ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish xarajatlari 10-40 foizgacha pasayadi, asbob-uskunalarining bo'sh

turib qolishi 30-50 foizgacha, mahsulot va xizmatlarni bozorga olib chiqish xarajatlari 20-50 foizgacha, mahsulot sifatini yaxshilash va reklama xarajatlari 10-20 foizgacha, ishlab chiqarish zahiralarni saqlash xarajatlari esa 20-50 foizgacha qisqaradi. Raqamli texnologiyalarning izchil joriy qilinishi natijasida Sharqiy Afrikada istiqomat qiluvchilarning 40 foizi bugungi kunda kommunal to'lovlarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirmoqdalar, Xitoyda 8 milliondan oshiq tadbirkorlar (ularning uchdan biri ayollar) elektron tijorat platformasidan foydalangan holda, dunyoning 120 dan ortiq mamlakatlariga o'z mahsulotlarini eksport qilmoqdalar. Aholisi 1 milliard 300 million kishidan oshiq bo'lgan Hindiston aynan raqamli texnologiyalarni amalda izchil qo'llash orqali mamlakatda korrupsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirishga erishdi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosa yasashimiz mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi darajasi kam mehnat, moliyaviy va moddiy resurslarni sarflagan holda yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatini beradi. Xo'jalik yurituvchi iqtisodiy subyektlarining zaruriy axborotlarga egalik qilishi raqobat ustunligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ularga o'z faoliyatlarini bashoratlash aniqligini ta'minlashga va pirovardida moliyaviy savod-xonligini yaxshilashga zamin yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot moliyaviy aktivlar, to'lovlar tizimi, mehnat, tovar va xizmatlar bozorini yangicha tashkil etish, ularni innovatsion asoslarda rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar taqdim etadi.

Tashkilot va korxonalarda hujjatlar aylanishini va bu bilan bog'liq xarajatlarni qisqartiradi.

Milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarida mehnat unumdorligining o'sishini ta'min etadi, mahsulot va xizmatlar sifati yaxshilanishiga va bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratadi.

Birja iqtisodiy gazetasi, #94(2721) 20.08.2020

***O'qitish maqsadi:** iqtisodiy o'sish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish to'g'risida tushunchalar hosil qilish.*

***Tayanch iboralar:** iqtisodiy o'sish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, to'industrial bosqich, industrial bosqich, postindustrial bosqich, innovatsiya, innovatsion tizim, texnologik ukhad, to'rtinchi sanoat inqilobi.*

8.1. Iqtisodiy o'sish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish

Iqtisodiy o'sish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik borasida bir qator qarashlar mavjud.

Ba'zi tadqiqotchilar iqtisodiy o'sish o'ziga xos xususiyatga va dinamik qonuniyatlarga ega bo'lganligi bois, mazkur jarayonni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bir xil emas, deb hisoblashadi. Shunday qilib, kengaytirilgan yoki oddiy takror ishlab chiqarig, intensiv yoki ekstensiv takror ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining takror yaratilishini tavsiflaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi, birinchi navbatda, dinamikaning miqdoriy belgilarini (oddiy, tor, to'liq, ishlab chiqarilgan mahsulotning o'sish sur'atlari doimiy ravishda oshib borishi yoki pasayishi bilan) va shundan keyingina sifat belgilarini (intensiv yoki ekstensiv omillarning ustunligi) o'rganadi.

Shunday qilib, iqtisodiy o'sish muammolarini o'rganishda miqdoriy ko'rsatkichlar, takror ishlab chiqarish muammolarini o'rganishda esa sifat ko'rsatkichlari birinchi o'ringa chiqadi.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilarining fikricha, "iqtisodiy o'sish" tushunchasi "kengaytirilgan takror ishlab chiqarish" tushunchasiga qaraganda birmuncha tor tushuncha hisoblanadi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish sxemalarini ishlab chiqqan K. Marks va V. Leninlar mazkur qarashni yoqlaydilar. Leninning fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sish nazariyasi marksistik nazariyaning ajralmas qismi, yangi tizimning boshlanishi uchun moddiy asosdir. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy o'sish kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning miqdoriy tomoni bilan bog'liq.

Uchinchi guruh olimlar "iqtisodiy o'sish" va "kengaytirilgan takror ishlab chiqarish" tushunchalari bir xil ekanligini ta'kidlaydilar. Ular iqtisodiy o'sishni takror ishlab chiqarishning bir-biri bilan o'rin almashinuvchi tsikllarining uzoq muddatli tendentsiyasi sifatida talqin qiladilar. Ushbu holatda ular tushunchalarni quyidagicha o'zaro bog'lashadi: iqtisodiy o'sish moddiy tashuvchisiga ega (ishlab chiqaruvchi kuchlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi – iqtisodiy o'sish omili), ijtimoiy tarkib (ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish), moddiy natija (yalpi milliy mahsulot) va uning miqdoriy o'lchovi (iqtisodiy o'sish sur'atlari).

Oddiy iqtisodiy o'sish aholi va boylikning ko'payishida ifodalanadi. Iqtisodiy o'sish sifat jihatidan yangi munosabatlarga turtki beradigan rivojlanish jarayoni sifatida qaraladi.

1950 yilgacha ishlab chiqilgan iqtisodiy rivojlanish nazariyalarining asosiy xususiyatlari klassik maktab (A. Smit, T. R. Maltus, D. Rikardo) va neoklassik

maktab vakillari (G. Kassel, J. B. Klark, F. Edjuort, A. Marshall, K. Viksell) asarlarida aks etgan.

Iqtisodiy rivojlanishning bosqichma-bosqich va uyg'un jarayon sifatida talqin qilinuvchi neoklassik g'oyalari Shumpeter tomonidan chippakka chiqarildi. Uning ta'kidlashicha, milliy mahsulotning sezilarli o'sishi mutlaqo yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish natijasida kelishmovchilik va silkinishlar shaklida sodir bo'ladi, bu muqarrar ravishda nisbatan qisqa muddatli farovonlik va tushkunlikning o'zgarishini anglatadi.

Keyingi tadqiqotlarda (XX asrning 50-yillari va 60-yillari boshlari) iqtisodiy rivojlanish istiqbollari optimistik ravishda baholangani holda, u uchta asosiy komponentning o'zgarishi bilan tavsiflanadi: kapital jamg'arilishi, rejalashtirish va sanoatlashtirish.

Biroq, 1960 yildan keyin iqtisodiy rivojlanish aholi jon boshiga daromad (yoki mahsulot) ko'payishini ta'minlaydigan uzoq muddatli jarayon sifatida ta'riflana boshladi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarining ko'plab o'ziga xos bog'liqliklari aniqlandi.

Shunday qilib, zamonaviy nazariyada iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy va noiqisodiy hayotning ko'plab jihatlariga, shu jumladan rivojlanishning o'zaro bog'liqligiga va boshqa maqsadlarga erishish jarayoniga ta'sir qiladi—iqtisodiy o'sish, yangi tovarlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishga yangiliklarni kiritish, yangi bozorni rivojlantirish, yangi bozorga ega bo'lish. xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar manbaiga ega bo'lish, qayta tashkillashtirish.

O'rganilayotgan tushunchalarning farqi shundaki, unga ko'ra iqtisodiy rivojlanish:

– bu nafaqat iqtisodiy o'sish sharoitida, balki uning kelib chiqishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish jarayonida ham amalga oshadi;

- bu tarkibiy o'zgarishlarda, iqtisodiy o'sishga bevosita olib kelmaydigan yangiliklarda o'z aksini topadi;

- pastga yoʻnalishda, yaʼni mahsulot va xizmatlar sifatining pasayishi sharoitida ham yuzaga kelishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanish- kompleks tushuncha hisoblanadi. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilish murakkab boʻlganligi bois, uning tarkibiy qismi sifatida koʻproq iqtisodiy oʻsish tushunchasi tahlil qilinadi.

Shuni eʼtiborga olish lozimki, jadal yoki nol qiymatga yoki salbiy qiymatga ega boʻlgan iqtisodiy oʻsish har doim ham jadal iqtisodiy rivojlanishni, “bir joyda depsinishni” yoki iqtisodiy tanazzul borasida soʻz yuritishga imkon bermaydi.

Keng maʼnoda “iqtisodiy oʻsish” kategoriyasining talqini “iqtisodiy rivojlanish” kategoriyasi talqiniga bir muncha yaqin sanaladi.

“Iqtisodiy rivojlanish” ni turlicha talqin qilish mumkin. Elementar koʻrinishda iqtisodiy rivojlanish-bu iqtisodiy tizimning yuqori oʻsish surʼatlarini saqlab qolishi, iqtisodiy sohada zarur oʻzgarishlarni taʼminlash qobiliyatidir.

Shuning uchun uzoq vaqt davomida u faqat iqtisodiy oʻsish bilan, yaʼni aholining koʻpayishiga muvofiq ishlab chiqarishning koʻpayishi bilan aniqlandi. Rivojlanishni quyidagicha ham talqin qilish mumkin: bu tabiiy oʻzgarishlar, takomillashtirilgan shakllar va yangicha sifat holatiga oʻtish bilan bogʻliq jarayon.

Iqtisodiy rivojlanish-bu iqtisodiy qarama-qarshiliklar, ehtiyojlar va manfaatlar taʼsiri ostida yuzaga keladigan uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy tizimning amalda boʻlish va tadrijiy rivojlanish jarayonidir. Investitsiya, innovatsiya va texnologik omillar iqtisodiy rivojlanishda muhim rol oʻynaydi.

G. Myurdal iqtisodiy rivojlanish nazariyasiga oʻzining katta hissasini qoʻshgan. U “iqtisodiy rivojlanish” va “iqtisodiy oʻsish” kategoriyalarining farqlanishini aniq ajratib koʻrsatadi. Uning fikriga koʻra, rivojlanish jamiyatning barcha aʼzolari ehtiyojlarini qondirish darajasining oshishi bilan bogʻliq boʻlsada, ammo bu uning iqtisodiy oʻsish mavjudligida sodir boʻlishini anglatmaydi.

Myurdal iqtisodiy oʻsishni taʼminlash borasida taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan mexanizmlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun barcha holatlarda ham ish bermasligiga eʼtibor qaratadi. Uning fikricha, aksariyat

aholi qatlamlari hayotining yaxshilanishi bilan yuz bermaydigan o'sish rivojlanish hisoblanmaydi, chunki u aholining katta qismini e'tibordan chetda qoldiradi va aytish mumkinki ularning hisobidan amalga oshiriladi.

Tinbergenning fikriga ko'ra, "iqtisodiy rivojlanish" va "iqtisodiy o'sish" tushunchalarini o'zaro solishtirish mumkin bo'lsada, ular ayni bir xil tushunchani ifoda etmaydi, chunki bunday holatda rivojlanishning asosiy jihati aholi turmush farovonligini oshirish masalasi e'tibordan chetda qoladi. Iqtisodiy o'sish omillarini tahlil qilish asnosida Ya. Tinbergen YaIM o'sishining faqat to'rtidan bir qismi iqtisodiyot samaradorligining oshishi bilan, qolgan qismi esa investitsiyalar oqimi va ishchi kuchi taklifining ko'payishi bilan bog'liqligini aniqlaydi.

L. Baltserovichning iqtisodiy o'sish farovonlikning oshishi va hayot sifatining yaxshilanishi bilan bog'liqligi borasidagi talqini etarlicha e'tiborni jalb qiladi. L. Baltserovich iqtisodiy o'sish "... odamlarning turmush sharoitlarini tizimli, uzoq muddatli va ommaviy ravishda yaxshilash, ya'ni ovqatlanish, uy va xonadonlarni jihozlash va zaruriy xizmat turlari bilan ta'minlash..." bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu esa ayni paytda insonning farovonligi, unga zarur bo'lgan ne'matlarning mavjudligidan boshqa narsa emas.

L. Baltserovich "rivojlanish" tushunchasini pirovardida mehnat unumdorligi o'sadigan, ish bilan bandlar soni ko'payadigan jarayon sifatida tushunishni taklif qiladi. Mehnat faoliyati bilan shug'ullanar ekan inson albatta o'zining yashash shart-sharoitlarini yaxshilashga intiladi.

A. Marshallning "Milliy qiymatlarning sof nazariyasi" kitobida insonning daromadi tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflanishi ko'rsatib o'tiladi. Inson o'z daromadlarini sarflash asnosida o'zining ehtiyojlarini qondiradi. Shu bilan bir qatorda, A. Marshall insonlar o'z daromadlarining bir qismini iste'molga va yana bir qismini jamg'arishga yo'naltirishlarini ta'kidlaydi. Inson kelgusida munosib turmush darajasi va sifatini ta'minlash maqsadida hozirdan daromadning muayyan bir qismini jamg'arib boradi.

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanish – bu jamoaviy va ijtimoiy tuzilmalar, insonlar xulq-atvorining o‘zgarishiga, tengsizlikning kamayishiga, qashshoqlikni yo‘q qilishga, ta’lim darajasining oshishiga, savodxonlikka, ijtimoiy xizmatlarning mavjudligiga, modernizatsiya, taraqqiyot, o‘shish bilan bog‘liq sifat o‘zgarishlariga olib keluvchi jarayondir; bunda iqtisodiy o‘shish mazkur jarayonning ajralmas qismi sanaladi.

Iqtisodiy o‘shish-bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish harakati yo‘nalishi (traektoriyasi) hisoblanadi.

Hayotning etarlicha sifati va farovonligini ta’minlash orqali iqtisodiy rivojlanishning ahamiyati deyarli shubha ostiga olinmaydi. Farovonlik iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo‘lganligi va bu ikki tushuncha o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lganligi sababli, iqtisodiy rivojlanish farovonlikning o‘shishiga ta’sir qiladi va aksincha, aholi farovonligi darajasining oshishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishning yaxlit ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘shishni iqtisodiy rivojlanish sharti sifatida qarab chiqar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, ushbu muammo ustida tahlil yurituvchi aksariyat tadqiqotchilar ularni bir-biridan farqli tushunchalar ekanligini ta’kidlaydilar va bu bizningcha to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilgan ko‘p sonli tadqiqotlar ham bu ikki tushunchaning bir-biridan farqli ekanligini ko‘rsatadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiy rivojlanishning mavjud bo‘lishi uchun faqatgina miqdoriy o‘shish bo‘lishi shart emas, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshirilishi va muayyan bir yangiliklarning yaratilishi sharoitida ham iqtisodiy rivojlanish haqida fikr yuritishimiz mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy iqtisodiy o‘shish-bu hukmron tendentsiyalarning tez o‘zgarishi bilan ajralib turadigan tugallanmagan va uzluksiz davom etuvchi jarayon hisoblanadi, bu esa o‘z navbatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Iqtisodiy o‘shish obyektlari, tuzilmasi, shartlari va strategiyasiga aniqlik kiritamiz.

Iqtisodiyot tarmoq va sohalari, alohida xo‘jalk yurituvchi subyektlar iqtisodiy o‘shish obyektlari hisoblanadi:

Iqtisodiy o‘shishning tuzilmasi ijtimoiy rivojlanish sharoitlariga va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hayotiylik tsikli bosqichlariga qarab farqlanadi.

Real ishlab chiqarish hajmining o‘shish borishi ma‘lum darajada cheksiz inson ehtiyojlarining mavjudligi sharoitida cheklangan resurslardan oqilona foydalanish muammosini hal qilishga imkon beradi.

Barqaror iqtisodiy o‘shish ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiyalar samaradorligini ta‘minlovchi tegishli makro, mezo va mikroiqtisodiy darajadagi shart-sharoitlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiy o‘shishni amalga oshirishning asosiy sharti (sharti) o‘shish potentsiali – yuqori malakali ishchi kuchi, yer, tabiiy resurslarning mavjudligi hisoblanadi. Shu bilan birga, geografik va tarixiy omillarning mavjudligi ham istisno qilinmaydi.

Biroq, potentsialning oshishi har doim ham ijobiy iqtisodiy o‘shishga olib kelmaydi. Shunday qilib, oqimlar kontsepsiyasiga ko‘ra, potentsialning oshishi milliy boylikning ko‘payishi bilan birga keladi; zaxiralar tushunchasiga ko‘ra, bunday o‘shish progressiv o‘zgarishlar bilan birga kelmasa, o‘shish sodir bo‘lmaydi.

Shunday qilib, iqtisodiy o‘shish potentsiali -bu ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar ko‘lamini oshirish va ulardan "raqobatdosh maqsadlarga" erishish uchun foydalanish, shu jumladan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlariga ko‘chirish potentsialidir.

O‘rta va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy rivojlanish maqsadlari muvozanatli, maqbul va barqaror iqtisodiy o‘shish imkoniyatlari asosida shakllantirilishi mumkin.

Iqtisodiy nomutanosibliklar, ishlab chiqarish salohiyatidagi salbiy siljishlarning oldini olishga iqtisodiy o‘shish strategiyasini amalga oshirish orqali erishiladi:

1) xorijiy ilmiy-texnik salohiyatdan foydalanish va innovatsiyalarni milliy iqtisodiyotga o'tkazish strategiyasi;

2) rivojlangan mamlakatlarda yaratilgan yangiliklarni o'zlashtirish strategiyalari;

3) yangi mahsulot va yangi texnologiyalar yaratishga imkon beruvchi mamlakatning o'z ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish strategiyalari.

Sanab o'tilgan iqtisodiy o'sish strategiyalarining barchasi tuzilmaviy, sanoat, ilmiy-texnik, investitsiyaviy va tashqi savdo siyosatida muayyan bir o'zgarishlarga olib keladi.

Shunday qilib, samarali iqtisodiy o'sish obyektiv barqaror asosiga ega bo'lgani holda, umumanolganda u mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasining ajralmas qismi sanaladi.

8.2. Iqtisodiy o'sishning Menkyu-Romer va Shumpeter modellari

Menkyu — Romer — Veyl modeli jismoniy va inson kapitalining kamayib boruvchi qaytimiga ega bo'lgan iqtisodiy o'sishning ekzogen modeli hisoblanadi. Menkyu — Romer — Veyl modeli texnologiyalar o'sishining ekzogen sur'ati uchun xos hisoblanadi. Ushbu modela uchta o'ziga xos jihatlar ajratib ko'rsatiladi. Birinchidan, u Solou modelini takomillashtirish maqsadi asosida yotuvchi inson kapitalini ifoda etadi. Solou modeli jamg'armalar va aholi o'sishi iqtisodiy o'sishga qay tarzda ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beradi. Inson kapitalining parametri davlatlararo taqqoslashlar asosida regressiya tahlilining eng yaxshi natijalarini beradigan o'zgaruvchi hisoblanadi.

Ikkinchidan, model o'rta maktab ta'limi bilan kapitalning cheklanishi, uning darajasini to'g'ridan-to'g'ri davlat xarajatlari bilan baholash bilan tavsiflandi. Mualliflar o'qish tufayli ish haqini ololmaslik ko'rinishidagi bilvosita xarajatlarni va shuningdek, oilaning ta'limga sarflagan xarajatlarini hisobga olish imkonining yo'qligini bunday baholashning kamchiligi sifatida ko'rsatadilar. Ikkinchi muhim tashkil etuvchi bu tibbiyot hisoblanadi, u muayyan bir texnik qiyinchiliklar bois tahlil sohasiga kiritilmasdan qolgan. Ilm-fanga inson kapitalining mumkin bo'lgan

tarkibiy qismi sifatida yondashadigan bo'lsak, mualliflar ilmiy bilimlarning rivojlanishi Solou modeliga muvofiq texnologik taraqqiyot sur'atlarining o'zgarishiga ta'sir qilishini ta'kidlaydilar. Ushbu o'zgaruvchi davlatlar o'rtasida katta farqlarga ega emas deb taxmin qilingan, shuning uchun u tahlilda doimiy qiymatga ega bo'lgan ko'rsatkich sifatida qabul qilingan. Shu tarzda, ilmiy bilimlar inson kapitali chegaralaridan tashqarida deb baholanadi. Inson kapitali o'rta ta'limning cheklanishi ostida bo'lganligi sababli, maktabda o'qiyotgan mehnatga layoqatli aholining ulushi orqali jamg'arish darajasini baholashda maxsus usullardan foydalaniladi.

Uchinchidan, ushbu model inson va jismoniy kapitalning o'ziga xos xususiyatlariga emas, balki umumiy jihatlariga e'tibor qaratadi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: iste'mol birligini jismoniy yoki inson kapitali birligiga nisbati sifatida aks ettiriluvchi kapitalning ikki turini almashtirishning bir xil darajasi, inson va jismoniy kapitalning bir xil eskirish darajasi.

Menkyu — Romer — Veyl modeli inson kapitalini ishlab chiqarish funktsiyasiga jismoniy kapital bilan bir qatorda, alohida resurs sifatida kiritadi. Bu quyidagi tenglama orqali aks ettiriladi: $Y(t)=K(t)^{\alpha}H(t)^{\beta}(A(t)*L(t))^{1-\alpha-\beta}$; Bu yerda $H(t)$ – inson kapitali ko'rsatkichi. Modelni ko'rib chiqar ekanmiz, $\alpha+\beta \leq 1$ ko'zda tutiladi. Shu bois, ishlab chiqarish resurslarining kamayib boruvchi qaytimi haqida gapirishimiz o'rinli bo'ladi. Agar α qat'iy belgilangan bo'lsa, u holda β ko'pgina qiymatlarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, mahsulotni yaratishda va barqaror iqtisodiy holatni ta'minlashda turli xil kapital qo'yilmalari mumkin deb taxmin qilinadi. Menkyu — Romer — Veyl modeli Romer modelining xususiy holati sifatida qaraladi. Romer modeli texnologik taraqqiyotiz jismoniy va inson kapitalining doimiy qaytimi bilan bog'liq iqtisodiy o'sishning endogen modelini aks ettiradi. Ushbu model shuningdek, Solou modeli kengayishining o'sishini tushuntirishda inson kapitalini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, o'sish omili texnologik taraqqiyot, aholining o'sish sur'ati, jamg'arish bilan birga inson kapitalini jamg'arish uchun resurslar ulushining yo'naltirilishi bilan ifodalanadi

deb faraz qilinadi. Bunday holda, mavhum va aniq bilimlar aniq ajratilgan bo'lsada, inson kapitalini tushuntirishda faqat samaradorlikni o'zgartiradigan aniq bilimlar hisobga olinadi.

Romer modelida inson kapitalining bir qancha belgilovchi xususiyatlari ko'zda tutiladi: olingan kasbiy qobiliyatlarning ishchilarning o'ziga xos bilim va ko'nikmalarida namoyon bo'lishi, har bir shaxs tomonidan kapital jamg'arilishi, u tomonidan yangi bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi, inson kapitalining egallangan zahiralari asosida o'sishi, inson kapitalining ikki tomoni, shu jumladan me'ros qilib olingan malakasiz mehnat va maxsus olingan bilimlar evaziga to'plangan ishlab chiqarish ko'nikmalari, inson kapitalini ta'lim olish yillari bo'yicha baholash. Oxirgi ikki tashkil etuvchi yordamida inson kapitali qiymatini hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin: $H(t)=L(t)*G(E)$ Bu yerda $L(t)$ – oddiy (malakasiz) mehnatni o'lchash uchun foydalaniluvchi ishchilarning umumiy soni; $G(E)$ – bitta o'rtacha xodimni o'qitish yillariga bog'liq bo'lgan malakali mehnat funktsiyasi; E – bitta ishchi-xodimning tahsil olish davri, yillarda. Model asosida quyidagi ishlab chiqarish funktsiyasi yotadi: $Y(t)=K(t)\alpha*[A(t)*J(t)]^{1-\alpha}$ Bu yerda: $A(t)$ – mehnat samaradorligi ko'rsatkichi; $H(t)$ – inson kapitali. Ko'rib chiqilgan funktsiyalarga muvofiq, inson kapitalini hisobga oladigan har bir samarali mehnat birligi uchun mahsulotni quyidagicha aniqlash mumkin: $y=Y/(A*G(E)*L)=Y/(A*H)$; Bunda har bir ishchiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish hajmini quyidagicha topish mumkin: $Y/L=A*G(E)*y$ bu yerda $A*G(E)$ – bitta ishchiga to'g'ri keluvchi samarali mehnat birligi miqdori.

Bir necha yillik tadqiqotlardan so'ng inson kapitalini baholash Solou modelini yana boshqa bir jihatdan kengaytirishni ta'minladi. Bu yerda Solou modelida e'tiborga olinmaydigan farqlarni hisobga olish, soddalashtirish haqida gap boradi. Bu ishlaydigan odamlar va mamlakat aholisi o'rtasidagi

farqlanishni aks ettiradi. Inson kapitali o'qish yillari bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ushbu kapitalning to'planishi talabalar soni va ishchilar sonining talabalar soni foydasiga o'zgarishini ta'minlaydi. Romer tenglamasi

mantig'iga ko'ra iqtisodiy o'sish natijalarini baholashda ushbu modelning quyidagi kamchiliklarga e'tibor qaratish mumkin: inson kapitali bilan bog'liq bo'lgan mumkin bo'lgan tashqi omillarni hisobga olmaslik, o'qish yillari davomida inson kapitalini e'tiborsiz qoldirish, ta'lim sifati bilan bog'liq davlatlar o'rtasidagi farqlar. Aytish mumkinki, inson kapitali ishtirokida iqtisodiy o'sish modellari kapital darajasini unumdorlik, davlatning ta'limga sarflagan xarajatlari va ishlab chiqarish faoliyatida qatnashadigan odamlar soni bo'yicha baholaydi. Inson kapitalining to'planishi noishlab chiqarish faoliyatida o'qitish foydasiga sarflangan vaqtni ish bilan band bo'lgan mehnatga layoqatli aholining foiziga o'zgartirish orqali ko'rib chiqiladi.

Shumpeterning iqtisodiy o'sish borasidagi innovatsion nazariyasining asosiy jihatlarini aniqlashtiramiz.

Jozef Aloiz Shumpeter eng avvalo, o'zining 1939 yilda nashr qilingan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asari orqali iqtisodiy o'sish nazariyasiga katta hissa qo'shgan.

Aynan Shumpeter iqtisodiyotga "innovatsiya" tushunchasini kiritgan va iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan tadbirkorlikning o'rnini yangicha talqinda qarab chiqqan.

Shumpeterning so'zlariga ko'ra, boshlang'ich nuqta sof muvozanat yoki iqtisodiyotning barqaror holati hisoblanadi.

Uning nuqtai nazariga ko'ra, "rivojlanish" dvigateli (odatdagi o'sishdan farqli o'laroq) iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar sanaladi. Bunday o'zgarishlar turli sabablar orqali yuzaga chiqsada, iqtisodiy rivojlanishning asosi tadbirkorlik g'oyalari hisoblanadi.

Shumpeter nazariyasida rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi tadbirkor hisoblanadi, tadbirkor esa novator, ijodiy shaxsdir. U tashabbuskorlik, oldindan ko'ra bilish, tavakkalchilikka moyillik bilan ajralib turadi.

Shu ma'noda u oddiy mulkdordan farq qiladi, aksariyat hollarda tadbirkor va mulkdor bir shaxsda mujassam bo'ladi.

Shumpeter tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishda innovatsion faoliyat hisobiga olinuvchi monopol foyda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Bunga faqatgina, ijodiy yondashuv hisobigagina erishish mumkin.

O'z-o'zini namoyon qilish, muvaffaqiyatga intilish, qiyinchiliklarni engib o'tish monopol foyda olishga imkon beradi.

Shumpeter nuqtai nazaridan monopoliya ijobiy narsadir, chunki unga ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalarini amalga oshirish, texnologiyadagi inqilobiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish texnologiyasi, yangi tovarlarni yaratish, yangi bozorlarni rivojlantirish va boshqalar orqali erishiladi.

Shumpeterning fikriga ko'ra, ishlab chiqarish jarayonida, mahsulotni sotish mexanizmidan amalga oshiriladigan doimiy yangiliklar foyda olishning asosiy manbai hisoblanadi. Ammo bozorda "tadbirkorlar olomoni" mavjud bo'lganligi sababli, bu monopol vaziyat (samarali monopoliya) doimiy emas.

Raqobatbardosh bozor mexanizmi avtomatik ravishda boshqa tadbirkorlar tomonidan shunga o'xshash yangiliklarni joriy etilishiga olib keladi (bunga amal qilmaydiganlar shunchaki "o'yindan chiqib ketishadi") va butun iqtisodiy tsiklning "yangi traektoriya"ga o'tishiga olib keladi.

Shumpeterning so'zlariga ko'ra, rivojlanish-bu tadbirkor uchun mavjud bo'lgan ishlab chiqarish resurslaridan yangi kombinatsiyalarni yaratishdan boshqa narsa emas. Shumpeterning so'zlariga ko'ra, yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish beshta holatni o'z ichiga oladi:

1. Yangi mahsulot ("iste'mol ne'mati") yaratish;
2. Yangi ishlab chiqarish usulini joriy qilish;
3. Yangi sotish bozorlarini o'zlashtirish;
4. Yangi xomashyo manbaiga ega bo'lish;
5. Kompaniyani tashkil etishning yangi shaklini yaratish (shu jumladan kompaniyaning bozorda monopol mavqeini ta'minlash yoki boshqa birovning monopoliyasiga putur yetkazish).

U aynan iqtisodiy o'zgarishlarning aniq ko'rinishlarini rivojlanish sifatida baholaydi. Makroiqtisodiyot darajasida rivojlanish tadbirkorlar tomonidan "yangi kombinatsiyalar" ni ommaviy ravishda amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti kredit bozorining rivojlanishi va tadbirkorlar uchun kreditning mavjudligi hisoblanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda kreditning o'rni bilan bog'liq shunga o'xshash g'oyalar nemis tarixiy maktabi, xususan Bruno Gildenbrand maktabi doirasida ilgari suriladi.

Kreditning mavjudligi dastlabki kapitalni jamg'arishdan voz kechishga imkon beradi va shu bilan innovatorlarning g'oyalarni amalga oshirish uchun bozorga kirishini osonlashtiradi.

Shumpeter nazariyasida innovatsiyalar borasida daromadlarning pasayishi kuzatilmasada, ammo shunga qaramay, u o'z nazariyasida farovonlikning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi uzoq muddatli omillarni ko'rib chiqadi.

Ushbu omillar ko'proq darajada ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga bog'liq:

1) korxonaning o'sishi tadbirkorlik funksiyalarini boshqaruv funksiyalari bilan almashtirishga olib keladi, ya'ni ijodkorlikdan ko'ra ma'muriy boshqarish ustun mavqega ega bo'lib boradi. Menejerlar, o'z navbatida, yangilik qilishga kamroq moyil bo'ladilar;

2) ishlab chiqarishning o'sishi umuman o'sishni bir maromda "ushlab turmaydi" va natijada doimiy ravishda yuqori sanoat konsentratsiyasi va yuqori foyda innovatsiyalarni rag'batlantirishni susaytiradi;

3) kapitalizmning rivojlanishi ijtimoiy va oilaviy munosabatlarning qulashiga olib keladi, uning rivojlanib borishi bilan ziyolilar uchun yuk bo'lib qoladi va bundan keyin oilaviy munosabatlarning o'zgarishiga va tadbirkorlar ulushining pasayishiga olib keladi;

4) oxir-oqibat, g'oyalar oqimi tugaydi, bu tsiklik iqtisodiy rivojlanishga, o'sish sur'atlarining pasayishiga va inqirozlarga olib keladi.

Umuman olganda, samarali monopoliya va samarali raqobatning ketma-ket tsikllarining bunday izchil bosqichi rivojlanishning yangi spiralida iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, Shumpeterning iqtisodiy o'sishning innovatsion nazariyasi davlat rivojlanishining yangi manbalarini aniqlashtirib beradi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish nuqtai nazaridan iqtisodiy o'sishning toindustrial, industrial va postindustrial turlari farqlanadi.

Tarixiy jihatdan iqtisodiy o'sishning to industrial turi rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda XIX asrdan oldingi bir necha asrlarni qamrab oladi.

Ba'zi iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakatlar hali ham iqtisodiy o'sishning toindustrial bosqichida qolib ketmoqda. Iqtisodiy o'sishning mazkur turida qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmog'i hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, aholining aksariyati qishloq joylarda yashaydi, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi va YaIMda qishloq xo'jaligining ulushi yalpi ishlab chiqarishning yarmidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Ba'zi asarlarda toindustrial agrar rivojlanish an'anaviy jamiyat bosqichi sifatida tilga olinadi.

Odatda, toindustrial jamiyatda iqtisodiy o'sish sur'atlari juda past ko'rsatkichga egaligi bilan ajralib turadi. O'sha davrlarda statistika deyarli yuritilmaganligi bois, shunday faraz qilish mumkinki, aholining o'sish sur'atlari o'rtacha 0,1 % foizga o'ssa iqtisodiy o'sish sur'atlari taxminan 0,2-0,3 foizgacha o'sadi. Texnika va texnologiya asrlar davomida o'zgarmaganligi sababli, aholi o'sishi bilan YaIM hajmi ham o'zgargan.

Iqtisodiy o'sishning industrial tipiga o'tishda toindustrial bosqich muhim o'rin tutgani holda, mazkur bosqichning yutug'i manufakturaning yaratilishi edi. Manufaktura o'z mohiyatiga ko'ra- mehnat taqsimotiga asoslangan kooperatsiyani ifoda etadi. Manufaktura 16 asrning o'rtalaridan to 19 asrning 70-yillariga qadar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ustun mavqega ega bo'lib keldi. Shu tariqa, toindustrial iqtisodiy o'sishning manufaktura bosqichi deyarli ikki asr davom etdi.

Manufakturaning uch turi farqlanadi.

Geterogen manufaktura. Bu tayyor mahsulot ishlab chiqariladigan ehtiyot qismlarning mexanik tarzda birlashtirilishi (yig'ilishi) bilan tavsiflanadi. Bunday geterogen manufakturalar sirasiga soat, arava ishlab chiqarish kabilarni kiritish mumkin.

Organik manufaktura. Bu tayyor mahsulot bitta predmetda operatsiyalarni ketma-ket almashtirish natijasida ishlab chiqarilishi bilan tavsiflanadi. Misol uchun, igna, ignatugma, shisha ishlab chiqarish kabilarni keltirishimiz mumkin. Ushbu mahsulotlarning har biri yuzga yaqin operatsiyani talab qiladi.

Ishchilarning uy mehnatidan foydalanishni ko'zda tutuvchi **tarqoq manufaktura.**

Uchchala ko'rinishdagi manufakturalarning o'ziga xosligi shundaki, ularning markazida ishchi, inson turadi. Shu sababli, manufakturani ishchi va xodimlar jamlanmasi sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

Shu bilan birga, oddiy kooperatsiya bilan taqqoslaganda, manufakturada jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Asosiy o'zgarish shundaki, manufakturaning alohida ishchisi bir turdagi ish operatsiyasiga ixtisoslasha boshladi. Oddiy kooperatsiyada ilgari bitta hunarmand bir mahsulotni ishlab chiqarish borasidagi operatsiyalarni boshidan oxirigacha bir o'zi bajargan bo'lsa va buning uchun u ko'plab hunarlarni egallashi talab qilingan bo'lsa, endilikda u tayyor mahsulotni ishlab chiqarish borasidagi barcha tsikllarni bir o'zi bajara olmaydi, mehna taqsimoti tufayli ishchi muayyan bir operatsiyani bajarishga ixtisoslashadi. Bu o'z navbatida quyidagi bir qator muhim o'zgarishlarga olib keldi.

Professionallik, muayyan bir oddiy operatsiyani bajarishda mohirlikning o'sishi, oddiy kooperativ xodimiga nisbatan manufaktura ishchisining mahsuldorligini keskin oshiradi.

Xodimlarni o'qitish vaqtini qisqartirish. Agar hunarmand ustaxonasida, qoida tariqasida, ular shogirdlikka 7-8 yoshdan boshlab olishgan bo'lsa va uning o'z kasbining mohir ustasi bo'lib etishishi uchun 10-15 yil talab qilingan bo'lsa,

manufaktura sharoitida esa, xodimni bitta operatsiyani bajarishga o'rgatish uchun sarflanadigan vaqt etarli darajada qisqardi.

Manufakturada odatda muayyan bir operatsiyani bajarish uchun mo'ljallangan maxsus mehnat qurollaridan foydalanish tez sur'atlar bilan o'sishni boshladi. Bu o'z navbatida mashinalarning ixtiro qilinishiga keng yo'l ochib berdi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar nuqtai nazaridan iqtisodiy o'sishning ikkinchi tipi - bu industrial iqtisodiy o'sish hisoblanadi. O'z nomidan ham ko'rinib turibdiki, mazkur turdagi iqtisodiy o'sishning asosiy xususiyati sanoat ishlab chiqarishning jadal o'sishida namoyon bo'ladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishning moddiy asosida tub burilishlar yuz berishini anglatadi.

Milliy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi o'rniga sanoat birinchi o'ringa chiqadi. Iqtisodiy o'sishning toindustrial bosqichining asosi hisoblanuvchi qishloq xo'jaligi ustida to'xtaladigan bo'lsa, u ham o'z navbatida industrial iqtisodiy o'sish yo'liga o'tadi, bu esa oxir-oqibat qishloq xo'jaligi mahsuldorligining keskin o'sishiga olib keladi.

Statistik raqamlarga murojaat qilsak, quyidagilarga guvoh bo'lamiz: 1913 yilda barcha industrial rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida 72,5 million kishi band bo'lgan bo'lsa, 1987 yilga kelib bu ko'rsatkich, deyarli uch barvarga qisqargani holda, sohada bandlar soni 25 million kishini tashkil etgan xolos. 1820 yilda har bir qishloq xo'jaligi ishchisi to'rt kishini boqishga etadigan mahsulotlar ishlab chiqargan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1947 yilda 14 kishin, 1987 yilda 96 kishini tashkil etgan.

Shuning uchun sanoati rivojlangan mamlakatlarda hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi ishchilarining soni mamlakat umumiy aholisining 2-4% dan oshmaydi, ular nafaqat o'z mamlakatini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlaydi, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish borasida ham etarlicha imkoniyatga egalar.

Mehnat unumdorligining keskin oʻsishi natijasida jamiyat mehnat, kapital, tabiiy resurslarni tobora kam sarflagan holda, qishloq xoʻjaligi, sanoat mahsulotlari va xizmatlarni koʻp ishlab chiqara boshlaydi.

Taʼkidlanishicha, toindustrial jamiyatda inson oʻz ehtiyojlari bilan bir qatorda markaziy oʻrinda turgan. Industrial jamiyatda ishlab chiqarish va daromad iqtisodiyotda birinchi oʻrinda turadi, shuning uchun industrial jamiyat uchun nafaqat ishlab chiqarish, balki aholi jon boshiga daromadning oʻsishi ham xosdir.

Zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda sanoat oʻsishi XIX asr boshlaridan to hozirgi kungacha boʻlgan davrni qamrab oladi, yaʼni u ikki asrdan beri muttasil davom etib kelmoqda. Ushbu davrda milliy iqtisodiyotda nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham sezilarli oʻzgarishlar yuz berdi, shuning uchun industrial iqtisodiy oʻsishining butun ikki asrlik bosqichini bir necha kichik bosqichlarga–katta davrlarga boʻlish mumkin.

Iqtisodiy oʻsishning uchinchi, postindustrial turi-bu iqtisodiy oʻsishning shunday turiki, unda oʻz ehtiyojlariga ega boʻlgan inson iqtisodiy tizimning markazida koʻriladi. Uning bugungi kuni va kelajagi butun jamiyatning asosiy tashvishi sanaladi. Shunday qilib, falsafa nuqtai nazaridan yondashadigan boʻlsak, mazkur holatda inkorni inkor qilish jarayoni yuz beradi.

Cheklangan ehtiyojlar doirasiga ega boʻlgan inson toindustrial jamiyatning markazida turgan boʻlsada, industrial jamiyatda ishlab chiqarish, iqtisodiy oʻsish surʼatlari va daromadlar birinchi oʻrinda turadi.

Postindustrial jamiyatda inkorni inkor etish yuz beradi: ishlab chiqarish va daromad iqtisodiy tizimning poydevori sifatida qolsada, industrial tipdagi iqtisodiy oʻsishning industrial turiga qaraganda inson, uning buguni va kelajagi yuqoriroq darajada yana birinchi oʻringa chiqadi.

Iqtisodiy oʻsishning toindustrial, industrial va postindustrial turlarining ketma-ket oʻzgarishi alohida mamlakatlarning ham, butun jahon iqtisodiyotining iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi.

Postindustrial iqtisodiy jamiyat nazariyasining xususiyatlari va mazmunini ko'rib chiqamiz.

Postindustrial iqtisodiy jamiyat sanoat mavjud bo'lmagan jamiyatni ifoda etmaydi, aksincha industrial jamiyatda bo'lgani kabi (bu yerda mehnat unumdorligining oshishi natijasida barcha muammolar hal qilinadi), postindustrial iqtisodiy jamiyatda, sanoat shunday rivojlangan bo'ladiki, u butun jamiyatning yuqori turmush darajasini ta'minlaydi.

Postindustrial iqtisodiy jamiyat nazariyasining rivojlanishiga J. K. Gelbrayt va E. Pestel katta hissa qo'shgan.

Postindustrial jamiyat industrial jamiyatdan endigina o'sib chiqayotganligi bois, postindustrial iqtisodiy jamiyat bosqichiga to'laliligicha o'tib bo'lgan mamlakat hali mavjud emas, shuning uchun faqat mavjud tendentsiyalar asosida postindustrial iqtisodiy o'sish turiga nimalar xos bo'lishini aniqlashtirishimiz mumkin.

Postindustrial jamiyat uchun quyidagilar xos:

1. Xizmat ko'rsatish sohasi va aholining hayot sifati iqtisodiyotda birinchi o'ringa qo'yiladi. Moddiy ishlab chiqarishga kelsak, u tizimning poydevori sifatida baholanadi. Shu bilan birga, sanoat, transport, savdo pozitsiyalari jamiyat va iqtisodiyotda o'z mavqeini yo'qotishi, bozorning o'rni va ahamiyati pasayishi taxmin qilinadi.

2. Sanoat darajasi shunchalik yuqori bo'ladiki, u hatto kambag'allarga ham o'z ehtiyojlarini qondirish uchun etarli moddiy ne'matlarga ega bo'lishga imkon beradi.

3. Yangi ehtiyojlar qancha tez paydo bo'lsa, ularni qondirish imkoniyatlari ham shuncha tez paydo bo'ladi. Mazkur holatda butun mamlakatning barqaror farovonligi ta'minlanishi lozim.

4. Ish vaqti va bo'sh vaqt o'rtasidagi yangicha nisbatlar, adolatli jamiyatni qaror toptirish.

5. Xodimlar va menejerlar o'rtasida ishlab chiqarishda yangi moslashuvchan munosabatlarni shakllantirish.

6. Xodimlarni uzluksiz o'qitish.

7. Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

8. Jamiyatda mavjud bo'lgan qayta tiklanmaydigan asosiy resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.

9. Xavfli texnologiyalardan foydalanishni qisqartirish.

Postindustrial iqtisodiyotning belgilarini qarab chiqamiz.

Globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishga turli omillarning ta'sir mexanizmi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Globallashuv jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi postindustriallashuv, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish, iqtisodiy integratsiya kabi zamonaviy tendentsiyalar bilan chambarchas bog'liq.

Ko'pgina mualliflar postindustrial iqtisodiyotni barqaror shakllantirish bosqichida iqtisodiy dinamikada institutlar va axborotning alohida o'rnini ta'kidlaydilar. Rivojlanishning postindustrial bosqichiga o'tish sharoitida muassasalar sifatiga qo'yiladigan talablar yanada kuchaytiriladi.

Buning sababi shundaki, industrial bosqich bilan taqqoslaganda, postindustrial iqtisodiyotning dinamikasi biroz boshqacha belgilar bilan belgilanadi va bu belgilar, o'z navbatida, institutsional muhit sifatiga ancha talabchanligi bilan ajralib turadi.

Postindustrial iqtisodiyotning belgilariga quyidagilar kiradi:

1) inson kapitali sifatiga qo'yiladigan talablarning ortishi (ta'lim ,sog'liqni saqlash, hayot sifati: shaxsiy xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, ma'lumotlarga egalik qilish, jamiyatga bo'lgan ishonch darajasini oshirish);

2) etarlicha qo'llab-quvvatlash tizimlari (moliyaviy vositalar va biznes xizmatlari, mualliflik huquqini himoya qilish, bozorga kirish xarajatlari pastligi, adolatli raqobat) ni talab qiluvchi iqtisodiyotning innovatsion tabiati;

3) ixtisoslashuv va mehnat taqsimotini yanada mustahkamlash (bu faoliyatni muvofiqlashtirish va tranzaktsiya xarajatlarini kamaytirish mexanizmlariga talablarni kuchaytiradi);

4) iqtisodiy tizimning murakkablashishi va barqaror rivojlanish borasida yangi kompleks xatarlarning paydo bo'lishi (bu xatarlarni ishonchli taqsimlash tizimlarini ishlab chiqishni, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni samarali monitoringini amalga oshirish, davlat va nodavlat subyektlar o'rtasidagi sheriklikni kuchaytirishni nazarda tutadi);

5) axborot va axborot texnologiyalarining rolini kuchayishi, barcha yetakchi muassasalar va tashkilotlar faoliyati to'g'risida axborotga bo'lgan talabni yanada oshirishga olib keladi, ularning shaffofligiga qo'yiladigan talablarni oshiradi, jamiyat hayotining turli jabhalarini demokratlashtirishga bo'lgan talabni kuchaytiradi va turli uyushmalar va maxsus manfaatdor guruhlarni yaratishga yordam beradi.

Yuqoridagi shartlarning birgalikda mavjud bo'lishi postindustrial iqtisodiyotning belgilarini tashkil qiladi.

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Iqtisodiy o'sish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik borasida bir nechta qarashlar mavjud.

Ba'zi tadqiqotchilar iqtisodiy o'sish jarayoni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bir xil emas, zero u o'ziga xos xususiyat va dinamik qonuniyatlarga ega deb hisoblashadi. Shu tariqa, kengaytirilgan yoki oddiy, intensiv yoki ekstensiv ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining takror ishlab chiqarilishini tavsiflaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi, birinchi navbatda, dinamikaning miqdoriy belgilarini (oddiy, tor, to'liq, ishlab chiqarilgan mahsulotning o'sish sur'atlari doimiy ravishda oshib borishi yoki pasayishi) va shundan keyingina sifat belgilarini (intensiv yoki ekstensiv omillarning ustunligi) o'rganadi.

Shu tariqa, iqtisodiy o'sish muammolarini o'rganishda miqdoriy ko'rsatkichlar, takror ishlab chiqarish muammolarini o'rganishda esa sifat ko'rsatkichlari birinchi o'ringa chiqadi.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilarining fikricha, "iqtisodiy o'sish" tushunchasi "kengaytirilgan takror ishlab chiqarish" tushunchasiga qaraganda, bir muncha tor tushuncha hisoblanadi.

Bunday yondashuvni ijtimoiy takror ishlab chiqarish sxemalarini ishlab chiqqan K Marks va V Lenin ilgari suradilar. Leninning fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sish nazariyasi marksistik nazariyaning ajralmas qismi, yangi tizimning boshlanishi uchun moddiy asosdir. Boshqa aytganda, iqtisodiy o'sish kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning miqdoriy tomoni bilan bog'liqdir.

Uchinchi guruh olimlar "iqtisodiy o'sish" va "kengaytirilgan takror ishlab chiqarish" tushunchalari bir xil ekanligini ta'kidlaydilar. Ular iqtisodiy o'sishni takror ishlab chiqarishning bir-biri bilan o'rin almashinuvchi tsikllarining uzoq muddatli tendentsiyasi sifatida talqin qiladilar. Ushbu holatda ular tushunchalarni quyidagicha o'zaro bog'lashadi: iqtisodiy o'sish moddiy tashuvchisiga ega (ishlab chiqaruvchi kuchlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi – iqtisodiy o'sish omili), ijtimoiy tarkib (ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish), moddiy natija (yalpi milliy mahsulot) va uning miqdoriy o'lchovi (iqtisodiy o'sish sur'atlari).

Innovatsiyalar iqtisodiy o'sish va rivojlanish omili sifatida davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining innovatsion jarayonlarda faol ishtiroki orqali ularni milliy iqtisodiy tizimga kiritib borishini nazarda tutadi. Innovatsion jarayonlarni amalga oshirish orqali davlat, birinchi navbatda, innovatsion rivojlanish ziddiyatlarini bartaraf etishga e'tibor qaratadi. Ular quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin: ijtimoiy muhitning yangi bilimlar borasida jadal rivojlanayotgan ehtiyoji va yangi axborot mahsulotlari, ularni amalga oshirishning amaliy tomoni o'rtasidagi ziddiyatlar; iqtisodiy sohaning yangi texnologiyalar, mahsulotlar (innovatsiyalar) borasidagi ehtiyojlari va

innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarning samarasizligi o'rtasidagi ziddiyatlar. Ushbu qarama-qarshiliklarni hal qilish zarurati va milliy iqtisodiyotda innovatsion tizimni rivojlantirishga yordam beradigan rivojlangan institutsional muhitni shakllantirish asosida davlat innovatsion faoliyati nazariyasi va amaliyoti quyidagi kontseptsiyalarga asoslanadi:

Texnologik tizimlar kontseptsiyasi. U texnologiyalarni ijtimoiy munosabatlar va boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashadigan tarkibiy qismlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Bunday holda, texnologiyani muhandislik va texnologik jihatdan ham, ijtimoiy-boshqaruv jihatidan ham ko'rib chiqish mumkin. Yangi texnologiyalar butun ijtimoiy tuzilmaning o'zgarishiga olib keladi, ilmiy va texnologik rivojlanishga turtki beradi va iqtisodiy o'sishga va uning ijobiy ta'siriga olib keladi.

Industrial klasterlar kontseptsiyasi. Bu sanoat tarmoqlarining faoliyat ko'rsatishini yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan har xil turdagi firmalar va tarmoqlarning integratsiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishdan kelib chiqadi. Bu yuqori mahsuldorlik bilan ajralib turadigan tarmoqlarni yaratishga olib keladi. Shu bilan birga, tarmoqlararo o'zaro ta'sirga va sanoat korxonalarining ichki jarayonlariga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni hisobga olish muhimdir.

Milliy innovatsion tizimlar kontseptsiyasi. Bu bilimlarni o'rganish va to'plash jarayonlariga e'tibor qaratish bilan bog'liq. Birinchidan, ta'lim tizimining takomillashuvi, qo'shimcha ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimining rivojlanishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida xodimlarning malaka darajasining o'sishi bilan bog'liq. Bu yerda turli sohalar va faoliyat sohaları innovatorlari o'rtasida uyushgan o'zaro hamkorlik shakllanadi.

Shunday qilib, mikro va makroiqtisodiy darajadagi iqtisodiy faoliyat va ijobiy dinamika innovatsion faoliyatning har xil turlari va yo'nalishlarini rivojlantirish bilan bog'liq hisoblanadi. Innovatsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, milliy iqtisodiyotning barcha

sohalarida yangi texnologiyalarni yaratish va ulardan amalda foydalanishni o'z ichiga oladi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy o'sishning sodda modellari haqida tushuncha bering?
2. Iqtisodiy o'sish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish kategoriyalari o'rtasida qanday bog'liqlik va farlanishlar mavjud?
3. Menkyu-Romer va Shumpeter modellari haqida gapirib bering?
4. Iqtisodiy o'sishning toindustrial, industrial va postindustrial tiplari, ularning o'xshash va farqli jihatlarini tushuntirib bering?

Referat mavzulari:

1. Iqtisodiy o'sish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish
2. Iqtisodiy o'sishga innovatsiyalarning ta'siri.
3. Iqtisodiy o'sishning Romer modeli.
4. Iqtisodiy o'sishning Shumpeter nazariyasi.
5. Iqtisodiy o'sish tiplari: jamiyatning toindustrial, industrial va postindustrial rivojlanish bosqichlari.

Mushohada uchun:

O'zbekiston iqtisodiyotida golland kasalligiga xos bo'lgan jihatlar ko'zga tashlanadi, deb o'ylaysizmi. Fikrlaringizni to'laroq bayon qiling?


Masalalar:

1. Iqtisodiyotning holati inflyatsiyaning oshishi va ijobiy to'lov balansi bilan tavsiflansin. Belgilangan valyuta kursida iqtisodiyotda ichki va tashqi muvozanatga erishish uchun iqtisodiy siyosat bosqichlari ketma-ketligini tavsiflang.

Yechish usuli:

Masala shartidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotning holatini A nuqtada, deb belgilab olamiz:

Vazifalarni taqsimlash borasidagi qoidalardan kelib chiqqan holda, Markaziy bank foiz stavkasini o'zgartirish yordamija tashqi muvozanatni tartibga solishi, Moliya vazirligi esa davlat xarajatlariga tuzatishlar kiritish orqali ichki balansni muvofiqlashtirishi talab qilinadi. Aytaylik, Markaziy bank mamlakatdan kapitalning oqib chiqib ketishini rag'batlantirgan holda, to'lov balansini muvozanatlash uchun R- foiz stavkasini pasaytirsin. (A nuqtadan BB chiziqning C nuqtasiga tomon harakatlanadi). Biroq, bunday chora-tadbirlar ichki balans muammosini hal qilishga imkon bermaydi, aksincha inflyatsiyani yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin.



Jarayonga Moliya vazirligi davlat xarajatlarini ($G \downarrow$) qisqartirgan holda, byudjet-soliq siyosatini qattiqlashtiradi. Chizmada bu C nuqtadan YY egri chiziqning D nuqtasiga harakatlanishni ifoda etadi. Markaziy bank mazkur holatda avvalgi A nuqtadagiga qaraganda bir muncha past bo'lgan tashqi muvozanatning buzilishini aniqlaydi. BB ning ijobiy saldosini foiz stavkasini pasaytirish orqali bartaraf etiladi ($R \downarrow$), bunda kapitalning harakat shetlari holati yomonlashadi (D nuqtadan pastdagi holat). Shundan so'ng jarayonga yana Moliya vazirligi aralashadi va davlat xarajatlarini yanada pasaytiradi. Tadbirlarning bunday ketma-ketlikda amalga oshirilishi iqtisodiyotning holatini E nuqtaga olib keladi, ushbu holatda tashqi va ichki muvozanatga erishiladi.

2. Aytaylik, makro darajada ishlab chiqarish jarayoni quyidagicha ko'rinishdagi ishlab chiqarish funksiyasi orqali ifodalanadi: $Y = AK^{0,3}N^{0,7}$. Uzoq

muddatli davrda ishlab chiqarish omillarining umumiy unumdorligining o'sishi 4 %ni tashkil qilishi ma'lum. Ushbu holatda, mazkur davr oralig'ida bandlar soni 6%, foydalaniluvchi kapital hajmi 3%ga oshgan. Real ishlab chiqarish hajmi qanday o'zgaradi?

Yechish usuli:

Berilgan ishlab chiqarish funksiyasida real ishlab chiqarish hajmi uchta o'zgaruvchining funksiyasi hisoblanadi: texnik taraqqiyot (**A**), mehnat (**N**) va kapital (**K**). Shu sababli uning o'sishini to'liq differentsial formulasi bo'yicha aniqlash mumkin:

$$\Delta Y = K^{0,3} N^{0,7} \Delta A + MPN \Delta N + MPK \Delta K,$$

Bu yerda: $MPN = dY/dN$ - mehnatning chegaraviy mahsuloti, $MPK = dY/dK$ - kapitalning chegaraviy mahsuloti. Mazkur tenglamani $Y = AK^{0,3} N^{0,7}$ ga bo'lib, quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$\Delta Y/Y = \Delta A/A + MPN \times \Delta N/Y + MPK \times \Delta K/Y.$$

Tenglamaning o'ng tomonining ikkinchi hadini **N** ga ko'paytiramiz va bo'lamiz, uchinchi hadni esa **K** ga ko'paytiramiz va bo'lamiz. Natijada, biz texnologik taraqqiyotning o'sish sur'ati, mehnat xarajatlari va kapital xarajatlari bilan real mahsulotning o'sish sur'atlarini o'zaro bog'laydigan tenglikka ega bo'lamiz:

$$\frac{\Delta Y}{Y} = \frac{\Delta A}{A} + [MPN \times \frac{N}{Y}] \times \frac{\Delta N}{N} + [MPK \times \frac{K}{Y}] \times \frac{\Delta K}{K}$$

Ushbu tenglamada qavs ichidagi ifodalar umumiy ishlab chiqarish hajmidagi mehnat va kapitalning ulushini tavsiflaydi. Dlya proizvodstvennoy funktsii: $Y = A \times K^\alpha \times N^{1-\alpha}$ ishlab chiqarish funksiyasi uchun ishlab chiqarish ko'laminin ortishi asnosidagi doimiy qaytim o'rinli bo'ladi, shu bois kapital va mehnatning ulushi 1 ga teng bo'ladi. Shunday qilib, mehnatning ulushi: $[MPK \times K/Y] = \alpha = 0,3, [MPN \times N/Y] = (1-\alpha) = 0,7$ - kapitalning ulushi. O'z

navbatida, ishlab chiqarish hajmining o'sishini quyidagi formula bo'yicha hisoblashimiz mumkin:

$$\Delta Y/Y = \Delta A/A + 0,3\Delta K/K + 0,7\Delta N/N = 9,1\%$$

3. Yanvar oyida bandlar soni 200 mln. kishini, ishsizlar soni esa 27,3 mln. kishini tashkil qildi. Yil davomida har oy o'rtacha band bo'lganlarning 1,25 foizi u yoki bu sabablarga ko'ra, ish o'rnini tashlab ketishgan bo'lsa, ishsizlar orasidan 1,25 foiz ishsizlar ishga joylashganlar.

1) Mamlakatda tabiiy ishsizlik darajasi qanchani tashkil qilgan?

2) Yanvar oyida kon'yunkturaviy ishsizlik darajasi qanday bo'lgan?

Yechish usuli:

1) Ma'lumki, har oy 1,25 foiz bandlar ish o'rnini yo'qotgan bo'lsalar, 1,25 foiz ishsizlar ishga joylashgan. O'z navbatida ishini yo'qotgan bandlarning ulushi: $\delta = \Delta U/N = 0,0125$, ishga joylashgan ishsizlarning ulushi quyidagicha: $\varphi = \Delta N/U = 0,125$.

To'la bandlik sharoitida $\Delta U = \Delta N$. Shu sababli ishsizlikning tabiiy darajasi (u^*) quyidagi formula bilan aniqlanishi mumkin:

$$u^* = \delta \times 100\% / (\delta + \varphi) = 9,1\%.$$

2) Kon'yunkturaviy ishsizlik darajasi-bu haqiqiy va tabiiy ishsizlik darajasi qiymatlari o'rtasidagi farq. Shuning uchun biz birinchi navbatda haqiqiy ishsizlik darajasini hisoblaymiz:

$$u = U \times 100\% / (N + U) = 12\%. \quad U \quad \text{holda:}$$

$$(u - u^*) = 12\% - 9,1\% = 2,9\%.$$

4. Agar, pullarning deponentlash koeffitsienti (C_r) 2,3, majburiy zahiralash me'yori (r_r) 15%, banklarning ortiqcha zahira me'yori (U_r) 5% ni tashkil qilsa, 1) pul; 2) depozit va 3) kredit multiplikatori qiymatlarini toping.

Yechish usuli:

1) Pul multiplikatori pul bazasi bir birlikka o'zgarganda muomaladagi pul miqdori qanday miqdorda o'zgarishini ko'rsatadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$m_M = \Delta M / \Delta H = (1 + cr) / (cr + rr + ur) = 1,32.$$

2) Depozit multiplikatori pul bazasi bir birlikka o'zgarganda depozit o'sishi miqdorini o'lchaydi. Hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$m_D = \Delta D / \Delta H = 1 / (cr + rr + ur) = 0,4.$$

3) Kredit multiplikatori asosida pul bazasi bir birlikka o'zgarganda tijorat banklarining kredit imkoniyatlarini oshirish qiymati o'lchanadi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

$$m_K = \Delta KR / \Delta H = (1 - rr - ur) / (cr + rr + ur) = 0,32.$$

5. Aralash yopiq iqtisodiyotda iste'mol funktsiyasi quyidagi ko'rinishda bo'lsin: $C = 200 + 0,8(Y - T)$. Narxlar darajasi barqaror. Tadbirkorlar tomonidan rejalashtirilgan sof investitsiyalar 260 birlikka teng. Tovar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha davlat xarajatlari 300 birlikni tashkil qiladi. Davlat byudjeti muvozanatlashgan.

1) Tovar va xizmatlar bozorining muvozanati sharoitida tasarrufdagi daromad hajmini toping.

2) Jamg'arishga bo'lgan chegaraviy moyillikning 0,1 qiymatga oshishi sharoitida tasarrufdagi muvozanatli daromad hajmini va uy xo'jaliklarining jamg'armalaridagi o'zgarishni toping.

Yechish usuli:

1) Tasarrufdagi daromad hajmini hisoblash uchun aralash yopiq iqtisodiyotda aylanma muvozanatining ikkita shartining biridan foydalanish mumkin: yoki $Y = C + I + G$, yohud $S_n = I$. Biz ikkinchi holatdan foydalanamiz, unga ko'ra $S_n = S + S_G$. Masala shartidan ma'lumki, davlat byudjeti muvozanatlashgan, ya'ni $S_G = T - G = 0$. O'z navbatida quyidagilarni yozishimiz mumkin:

$$I = S = -200 + 0,2(Y - T) = -200 + 0,2Y^v.$$

Rejalashtirilgan sof investitsiyalarni tenglamaga kiritib, quyidagiga ega bo'lamiz: $-200 + 0,2Y_1^v = 260$.

Bundan: $Y_1^v = 2300$.

2) Jamg'arishga chegaraviy moyillikning o'sishi sharoitida jamg'arma funksiyasi quyidag ko'rinishga ega bo'ladi: $S = -200 + 0,3Y_1^v$, ammo investitsiyalar hajmi o'zgarasdan qoladi. Shu sababli uy xo'jaliklarining jamg'armalari hajmi o'zgarmaydi: $S_1 = I = 260$.

Jamg'armalarning yangi funksiyasini rejalashtirilgan investitsiyalar bilan tenglashtirish orqali tasarrufdagi daromad hajmini topamiz:

$-200 + 0,3Y_1^v = 260$ va quyidagiga ega bo'lamiz: $Y_1^v = 1533,33$, ushbu holatda tasarrufdagi daromad 766,67 birlikka qisqarganini ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib, ushbu muammoni hal etish J. M. Keynsning makrodarajada jamg'arma paradoksi mavjudligi, u qat'iy narx darajasida va investitsiyalarning barqaror hajmida ro'y berishi haqidagi pozitsiyasini tasdiqlaydi.

Keys: Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan

Jahon banki guruhi tomonidan 2022 yilning aprel oyida e'lon qilingan The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan (O'zbekiston uchun ikkinchi tizimli mamlakat diagnostikasi) hisobotida quyidagi fikrlar keltirib o'tiladi: O'zbekistonning o'tish davri muvaffaqiyat qozonishi uchun yuqori o'sish va ish o'rinlarini yaratish borasida to'rtta taraqqiyot yo'li muhim ahamiyatga ega. Agar O'zbekiston 2030-yilga kelib o'rtachadan yuqori daromadli davlatga aylansa, aholi jon boshiga Real YaIM o'sishi yiliga o'rtacha 10 foizni tashkil qilishi kerak bo'ladi, bu esa mustaqil O'zbekiston tarixidagi eng yuqori o'sish sur'atini qayd qiladi. Besh yil ichida qashshoqlik darajasini ikki baravar qisqartirish ish o'rinlarini tezroq yaratishni va iqtisodiy imkoniyatlardan, ayniqsa yoshlar, ayollar va nogironlarni yanada qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Ammo ish o'rinlarini yaratish sur'ati resurslarni yanada samarali va barqaror foydalanish va qayta taqsimlash jarayonlarini tanqidiy baholashga ko'p jihatdan bog'liq. Buning uchun iqtisodiyotga davlatning aralashuvini bozorlarni erkinlashtirish va jadal rivojlanayotgan xususiy sektor foydasiga qisqartirish talab qilinadi. Bundan tashqari, hukumat inson kapitaliga, kuchli xavfsizlik tarmog'iga va yashil o'sish modeliga ko'proq sarmoya kiritishni talab qiladi. Jahon banki bu borada to'rtta rivojlanish yo'lini taklif qiladi: xususiy sektorni rag'batlantirish, davlatning bozorni samarali ishlashini ta'minlash borasidagi o'rnini kuchaytirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va barqaror kelajakni yaratish borasida barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish.

Savollar:

O'zbekistonni yaqin istiqbolda rivojlantirish imkoniyatlarini qanday baholaysiz. Jahon banki guruhi tomonidan 2022 yilning aprel oyida e'lon qilingan The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan (O'zbekiston uchun ikkinchi tizimli mamlakat diagnostikasi) hisoboti bilan tanishib chiqqan holda, o'z fikrlaringizni va takliflaringizni bayon qiling.

Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-“Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
3. Абдувоҳидов А.А. ва бошқалар. Инновациялар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма.- Т.: “Мумтоз сўз”, 2020-636 бет.
4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Хажиев Б.Д., Ахмедов Д.Қ., Захидов Г.Э., Мамбетжанов Қ.Қ. Иқтисодий ривожланиш назариялари. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2018. - 428 бет.
10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.
11. Хажиев Б.Д., Абдуллаев С.О., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. Дарслик. – Т.: “Зебо юлдузлари МЧЖ”, 2018. - 417 бет.
12. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.
13. Дарон Асеомглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асеомглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова-

М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).

14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018

15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.

16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.

17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.

18. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. 2018

19. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.

20. www.cer.uz - Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази расмий сайти.

21. www.stat.uz- Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.

22. <https://mineconomy.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги расмий сайти

23. <https://cbu.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий сайти.

24. <https://mf.uz/uz> - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий сайти.

25. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси.

26. <https://www.mininnovation.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий сайти.

27. <https://uza.uz/uz> - Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий сайти

<https://www.worldbank.org/en/home>- Жаҳон банки расмий сайти

IX BOB. IKKI TARMOQLI VA IKKI TURDAGI IQTISODIYOT

*“Olam ahlining to‘qligi, quvonchi, avvalo, yerga urug‘ sochib, bebaho noz-
ne‘mat etishtiradigan fidoyi insonlar mehnatidandir.”*

Alisher Navoiy.

1. Iqtisodiyotning ikki sektorli modeli

2. Import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o‘shish turlarining uslubiy asoslari

XVJ: O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishadi

13 aprel kuni Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) missiyasi 2022 yil 31 martdan 13 aprelgacha Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan maslahatlashuvlar yakunlari bo‘yicha bayonotini e‘lon qildi. Missiyaning fikriga ko‘ra, O‘zbekiston pandemiyaning ijtimoiy- iqtisodiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha ko‘rilgan qat‘iy chora-tadbirlar tufayli ushbu og‘ir davrni muvaffaqiyatli engib o‘tdi va mamlakat iqtisodiyotining o‘shish sur‘atlari esa 2021 yilda 7,4 foizgacha jadallashib, inflyatsiya 10 foizgacha pasaydi. Biroq XVJ ekspertlari qayd etganidek, “Rossiyaga qarshi joriy qilingan sanksiyalar yangi noaniqlikni keltirib chiqardi”. Shu o‘rinda, O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tashqi risklar hamisha hukumatning diqqat-e‘tibori markazida turganligini ta‘kidlash joiz. Agar Ukrainadagi vaziyat keskinlashuvi fevral oxirida ro‘y bergan bo‘lsa, O‘zbekistonda mart oyi boshidayoq ushbu vaziyat rivojini tezkor nazorat qilish uchun alohida komissiya shakllantirilib, Bosh vazir rahbarligida respublika shtabi va hokimlar boshchiligida hududiy shtablar tashkil etildi. Tijorat banklari to‘lovlarni rublda amalga oshira boshladi. Tashqi transport tashuvlarini barqarorlashtirish uchun temir yo‘l orqali tashuvlarga ichki tariflar qo‘llanila boshladi, xorijiy kompaniyalar esa oziq-ovqat mahsulotlari uchun narxlarning o‘shishini turg‘unlashtirib, ularni birjada sotish yo‘lga qo‘yildi. XVJ missiyasi yurtimizga tashrif buyurgan kuni, ya‘ni 31 martda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishi Ukraina atrofidagi geosiyosiy to‘qnashuvlar tufayli jahon iqtisodiyoti duch kelayotgan yangi tahdid sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va tadbirkorlikni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash masalalariga bag‘ishlandi. Mazkur yig‘ilishda O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan risklar ko‘rib chiqilib, ularning salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar va qarorlar qabul qilindi. Ehtimoliy xavf-xatarlar bilan bog‘liq navbatdagi xuddi shunday yig‘ilish 2022 yil 15 aprel kuni tashkil etilgan bo‘lib, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish va tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali bozorlarda narx barqarorligini ta‘minlashga bag‘ishlandi. XVJ ekspertlari O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘shish sur‘atlari 2022 yilda ilgari bashorat qilingan 6 foizga nisbatan 3-4 foizgacha sekinlashishini taxmin qilmoqda. XVJning bu boradagi kutilmalari boshqa prognozlar bilan ham mos keladi. Chunonchi, Jahon banki 2022 yilda O‘zbekistonda YaIMning o‘shishi 3,6 foizgacha, ETTB esa 4 foizgacha sekinlashishini prognoz qilmoqda, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi baholashlariga ko‘ra, 2022 yilda O‘zbekiston iqtisodiyotida YaIM o‘shishi 3,6 foizga teng bo‘ladi. Shu bilan birga, joriy yilning dastlabki uch oyida O‘zbekiston iqtisodiyoti tashqi tahdidlarga yuqori chidamlilik namoyon etganini ta‘kidlab o‘tish joiz. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda YaIM yanvar – mart oylarida 2021 yilning 1-choragidagi 2,6 foizlik o‘shishga nisbatan 5,8 foizgacha ortdi. Lekin shunga qaramay, yil davomidagi tashqi xavflarning salbiy oqibatlarini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. XVJ prognozida Rossiyadan pul o‘tkazmalari va moliyalashtirish hajmining pasayishi ta‘siriga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu iste‘mol va investitsiyalarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Biroq pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq vaziyat XVJ

ekspertlarining prognozidan yaxshiroq bo'lishi mumkin. Xususan, Rossiyada iqtisodiy vaziyat yomonlashganiga qaramay, 2022 yilning 1-choragi yakunlari bo'yicha pul o'tkazmalari 1 470 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, bu 2021 yilning 1-choragiga (1 420 mln dollar) nisbatan 3 foizga ko'p. Aprelda kelib tushgan pul hajmi esa 1 mlrdni tashkil etdi. Birinchi chorakda yuzaga kelgan investitsion vaziyat haqida ham shunday deyish mumkin. So'nggi 2 yilda kuzatilgan pasayish va uncha katta bo'lmagan o'sish sharoitida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 26 foizga keskin oshdi. Shu bilan birga, markazlashtirilmagan investitsiyalar bo'yicha o'sish dinamikasi 34 foizga teng bo'ldi. Jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) va xorijiy kreditlar hisobidan investitsiyalar hajmi 1,5 baravardan ziyodga, bevosita TTXI hajmi esa 1,7 baravarga oshdi. Shuningdek, korxonalar mablag'lari hisobidan investitsiyalar bo'yicha ham 30 foiz o'sish qayd etilmoqda. Bunda markazlashtirilgan investitsiyalar, aksincha, qariyb 30 foizga, shu jumladan, byudjet investitsiyalari 5 foizga qisqardi. Shuningdek, XVJ missiyasi asosiy sheriklar iqtisodiyotining sekinlashishi ham O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etmoqda. Yil davomida ulardagi vaziyat qay darajada yomonlashishi xali aniq emas, biroq birinchi chorakda O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari bo'lgan mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyat, umuman olganda, barqaror bo'lib qoldi. Qirg'izistonda iqtisodiyot 2021 yilning shu davridagi 9 foizlik pasayishga nisbatan 4,5 foizga o'sdi. Qozog'istonda o'tgan yilning mos davridagi 1,4 foiz tushishga nisbatan iqtisodiy o'sish 4,4 foizni tashkil etdi. Xitoyda YaIM hajmi 2021 yilning 4-choragidagi 1,3 foizga nisbatan tezlashgan holda joriy yil 1-chorakda 4,8 foizga o'sdi. Hozircha Rossiya iqtisodiyoti bo'yicha rasmiy raqamlar yo'q, biroq Rossiya Iqtisodiy rivojlanish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya YaIM o'sishi yanvar-fevral oylari uchun 3,7 foizni tashkil etdi. Bu orada, shirk-davlatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari yaqin oylarda yomonlashishi mumkinligi ehtimoldan holi emas. XVJ ekspertlari O'zbekistonda joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi YaIMga nisbatan 9,5 foizgacha oshishini prognoz qilayotgan bo'lib, ularning fikricha, pul o'tkazmalari hajmining qisqarishi importning kamayishi va xomashyo tovarlari eksportidan tushumlarning ko'payishi hisobiga qisman qoplanadi. Shu bilan birga, birinchi chorak yakunlari ushbu taqchillikni sezilarli darajada qisqartirish mumkinligiga yaqqol guvohlik bermoqda. Tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 1,7 baravar oshib, 7,5 mlrd dollarni tashkil etdi. Eksport hajmi 2,4 baravar, ya'ni 5,8 mlrd dollargacha, oltinni hisobga olmaganda eksport hajmi esa 16 foizga ortdi, bunda nooziq-ovqat xomashyosi eksporti 22 foizga kamayib, import esa birinchi chorakda 45 foizga, ya'ni 7,4 mlrd dollargacha oshdi. XVJ ekspertlari jahon oziq-ovqat va yoqilg'i narxlarining ko'tarilishi tufayli O'zbekistonda **yillik inflyatsiya** joriy yilda 12 foizni tashkil etishini bashorat qilmoqda. Fitch hisob-kitoblariga ko'ra, 2022 yilda inflyatsiya 12,7 foizni tashkil qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, XVJning inflyatsiya bo'yicha prognozi O'zbekiston Markaziy bankining baholashlariga to'liq mos kelib, unga ko'ra inflyatsiya ilgari rejalashtirilgan 9 foiz o'rniga 12 foizga o'sishi kutilmoqda. Agar birinchi chorak natijalari haqida gapiradigan bo'lsak, inflyatsiya tashqi omillar sharoitida chindan ham biroz tezlashdi. Iste'mol narxlar indeksini o'tgan yilning dekabriga nisbatan 2,9 foizga oshdi (2021 yilning birinchi choragida – 2,5 foiz).

Tovar narxlarini ko'tarilishi jadallashishi sharoitidaxizmatlar narxlarini o'sish sur'atining 1,5 foizgacha sekinlashuvi kuzatildi (2021 yil yanvar– mart oylarida xizmatlar narxining o'sishi 2,7 foizni tashkil etgan edi). XVJ ekspertlari o'z bayonotida pul-kredit siyosati oldida inflyatsiyaga qarshi kurashish va iqtisodiy tiklanishni qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdek murakkab vazifa turgani haqida ogohlantirib, inflyatsiya trendlarining tezlashishiga yo'l qo'ymaslik uchun pul-kredit siyosatini yanada qat'iylashtirishga tayyor turishni tavsiya qildilar. Shu o'rinda qayd etish joizki, mart oyi o'rtalarida Markaziy bank tomonidan asosiy stavkaning 14 foizdan 17 foizga oshirilishi valyuta bozori va ayirboshlash kursini barqarorlashtirish, milliy valyutada depozitlardan mablag'lar chiqib ketishining oldini olish hamda ayirboshlash shoxobchalarida talab va taklifni turg'unlashtirish imkonini berdi (aprel oyida ijobiy saldo 396 mln dollarni tashkil etdi). Shunga qaramay, Markaziy bank

tomonidan inflyatsiya monitoringini olib borish va pul-kredit siyosati bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Bundan tashqari, XVJ missiyasi o'z bayonotida kredit portfellari yuqori kontsentratsiya va valyuta risklarini namoyon qilishda davom etayotganini, ayni paytda eng yuqori risklar asosan davlat korxonalari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlab o'tdi va shu sababli banklarning moliyaviy holatini diqqat bilan monitoring qilishni davom ettirishni tavsiya etdi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, joriy yilning 31 mart kuni bo'lib o'tgan selektor yig'ilishida Markaziy bankka bank tizimining likvidlik holati va barqarorligi monitoringini tashkil etish bo'yicha topshiriq berilgan bo'lib, u doimiy ravishda amalga oshirib kelinmoqda va unga ko'ra joriy yil boshidan muammoli kreditlarning iqtisodiyotdagi ulushi 5,3 foizdan 4,9 foizga (143 mlrd so'mga) pasaydi. Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining moliyaviy ahvoli bo'yicha muntazam stress-testlar o'tkazib kelinayotgan bo'lib, u umuman olganda sektorning barqaror holatini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, XVJ ekspertlari iqtisodiyotni qayta tiklash sur'atlarining sekinlashishi sharoitida joriy yil uchun rejalashtirilgan byudjetni konsolidatsiyalash ko'lami qisqarishi mumkinligi haqida ogohlantirdi. Ularning fikricha, byudjet taqchilligini YaIMning rejalashtirilgan 3 foizi o'rniga qariyb 4 foizi darajasida saqlab turish mumkin. Bunda xalqaro zaxiralarning yuqori darajasi va qarz majburiyatlarini so'ndirishning uzoq muddatlarga belgilangani qarz inqirozi yuzaga kelishi xavfini kamaytiradi. Shunga qaramay, hukumat byudjet intizomini mustahkamlash bo'yicha faol choralar ko'rilmogda. Xususan, Prezident Qarorlariga muvofiq, davlat moliyaviy nazorat organlari faoliyati takomillashtirildi, shuningdek, markazlashtirilgan investitsiya dasturlari bo'yicha byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat kuchaytirilib, unda moliyaviy nazoratni amalga oshirish doirasida kundalik monitoring o'rnatilishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, 31 mart kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda yuzaga kelgan sharoitlarda byudjet mablag'larini sarflash samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Hududiy va tarmoq xarajatlarini 10 trln so'mga qisqartirish zarurligi belgilandi. Moliya vazirligi tomonidan hokimliklar, vazirlik va idoralar bilan birgalikda xarajatlarni 3,3 trln so'mga qisqartirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Byudjet xarajatlarini 6,7 trln so'mga qisqartirish bo'yicha qo'shimcha takliflar Moliya vazirligi tomonidan joriy yilning 1 iyuliga qadar taqdim etilishi kerak. Shuningdek, hududlar va tarmoqlarda xarajatlarni kamaytirish, ta'mirlash, avtomobil, mebel va ofis buyumlarini xarid qilish xarajatlarini to'xtatish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Umumiy qiymati 9 mlrd dollarlik 105 ta loyiha bo'yicha (ishlatilmayotgan yoki sekin ishlatilayotgan) mablag'lardan foydalanish samaradorligi masalasi alohida ko'rib chiqilgan bo'lib, har bir loyihani sinchiklab o'rganib, samarasiz loyihalardan voz kechish topshirildi.

Hozirda bunday loyihalar ro'yxati shakllantirilmoqda. XVF ekspertlarining fikricha, byudjet daromadlarini to'ldirish uchun imtiyozlarni bekor qilish hamda soliq va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish orqali daromad yig'imini oshirish mumkin, bu esa 2023 yilda QQS stavkasini reja bo'yicha kamaytirish uchun imkoniyatlar yaratadi. 15 aprel kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishidayoq bu yo'nalishdagi muhim qarorlar qabul qilingan bo'lib, unda 2022 yil 1 iyundan soliq ma'murchiligi va tadbirkorlarni tekshirish tizimini soddalashtirish rejalari e'lon qilindi.

Har xil turdagi ruxsatnomalar berish talablari soddalashtiriladi, tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish maqsadida 22 turdagi tekshirish faqat Biznes-ombudsman ruxsati bilan amalga oshiriladi. Tovar aylanmasi 1 mlrd so'mdan ziyod bo'lgan korxonalariga QQS to'lovchi maqomi dastlabki tahlil va tekshirishlarsiz avtomatik tarzda beriladi, eksportyorlar esa QQSni qaytarishning soddalashtirilgan mexanizmidan foydalanadi: QQSning 80 foizi etti kun ichida qo'shimcha tekshiruvlarsiz qaytariladi. Bundan tashqari, xususiylashtirishdan olinadigan tushumlar zarur mablag'larni to'ldirishning muhim manbaiga aylanishi va undan birinchi yarim yillikda kamida 3 trln so'm tushishi kerak. Shuningdek, Soliq va Bojxona qo'mitalariga joriy yilda byudjet tushumlarini 13 trln so'mga ko'paytirish vazifasi

topshirilgan bo‘lib, Moliya vazirligi esa Jahon bankidan 400 mln dollar miqdorida mablag‘larni jalb qilishga hozirlanmoqda.

XVJ missiyasi bayonotida “xususiy sektorga tayangan holda va ko‘p sonli ish o‘rinlarini tashkil qilish orqali faol o‘shish uchun sharoit yaratish jadal o‘shib borayotgan ishchi kuchi va qaytishi kutilayotgan mehnat migrantlari oqimini mehnat bozorida o‘zlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega” ligi alohida ta’kidlangan. Ushbu yo‘nalishda faol chora-tadbirlar 31 mart va 15 aprel kunlari bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishlarida qabul qilingan qarorlarda ham nazarda tutilgan edi. Banklar tomonidan tadbirkorlar, birinchi galda ekspertyorlar, oziq-ovqat va xalq iste’moli mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga xomashyo xarid qilish va aylanma mablag‘lar uchun qo‘shimcha 10 trln so‘m “revolver” kreditlar taqdim etiladi. Meva-sabzavotchilik (2022 yilda 2 trln so‘m), oilaviy biznes (10 trln so‘m), ipoteka (13 trln so‘m) va ta’limga (1 trln so‘m) davlat dasturlari doirasidagi kreditlar bo‘yicha hajmlar va imtiyozli stavkalar saqlanib qoldi. Hududlarda kichik va o‘rta biznes loyihalarini moliyalashtirishga 300 mln dollar miqdoridagi mablag‘ ajratilmoqda. Ushbu mablag‘lar etti yil muddatga 10 foiz stavka bo‘yicha milliy valyutada banklarga joylashtiriladi. Bunda tadbirkorga taqdim etiladigan kredit bo‘yicha stavka 14 foizdan oshmaydi. Yil oxirigacha soliq ma‘murchiligining yangi mexanizmlari doirasida jarima va boshqa sanksiyalar qo‘llanilmaydi. O‘z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan xomashyo, uskunarlar, ehtiyot qismlarga bojxona imtiyozlarini qo‘llash muddati joriy 6 oydan 1 yilgacha uzaytiriladi. Ekspertyorlarning yuzaga kelayotgan muammolarini zudlik bilan va o‘z vaqtida hal etish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi shtab ta’sis etilmoqda. Yil oxiriga qadar Rossiya, Ukraina va Belorussiyada faoliyat olib boruvchi kompaniyalar debitor qarzdorlik uchun jarimaga tortilmaydi. Ularning bank kreditlari bo‘yicha qarzdorlik muddati uzaytirilishi, jarima va penyalar undirilmasligi borasida qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, Prezidentning 2022 yil 6 apreldagi “Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan, 2023 yil 1 aprelga qadar mahalliy korxonalar qo‘shni davlatlarga eksport qilingan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilishda tashish xarajatlarini 50 foizgacha, EI davlatlariga esa 70 foiz miqdorida kompensatsiya qilish uchun subsidiyalar taqdim etiladi. Mazkur ko‘rsatmalarga muvofiq, qo‘shimcha markazlashtirilgan xarajatlar 15 trln so‘mni (jumladan, biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat byudjetidan – 12 trln so‘m, O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan – 300 mln dollar) tashkil qilishi taklif etilmoqda, bu esa iqtisodiy o‘shishni barqaror qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

“Экономическое обозрение” jurnali, №5. 2022 y.

O‘qitish maqsadi: Iqtisodiyotning ikki sektorli modeli, iqtisodiy o‘shish turlari to‘g‘risida nazariy bilimlar hosil qilish.

Tayanch iboralar: ikki sektorli model, iqtisodiy o‘shish turlari, import o‘rnini bosish, qishloq xo‘jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, sanoat sektori, qishloq xo‘jaligi sektori.

9.1. Iqtisodiyotning ikki sektorli modeli

Dastlab U. Artur Lyuis tomonidan taklif etilgan ikki sektorli model 1954-yilda u tomondan yozilgan “Cheklanmagan mehnat zahiralari sharoitida iqtisodiy rivojlanish” nomli maqolada keltirib o‘tilgan va modelning o‘zi esa Lyuis nomi

bilan atalgan. Ilk marotaba 1954 yil may oyida “Manchester maktabi”da nashr etilgan ushbu maqola va u asosda yaratilgan model iqtisodiy rivojlanish sohasidagi tadqiqotlar borasida muhim poydevor vazifasini o‘tadi. Olim tomonidan ilgari surilgan qarashlar iqtisodiyot fanining taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan tadqiqot sifatida tavsiflanadi.

1. Model rivojlanayotgan iqtisodiyot qishloq xo‘jaligi sohasida ortiqcha samarasiz ishchi kuchi mavjudligini taxmin qiladi.

2. Ushbu ishchilarni bir muncha yuqori ish haqi taklif qilinuvchi, o‘sib borayotgan ishlab chiqarish sektori jalb qiladi.

3. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ish haqi u yoki bu darajada qat’iy belgilangan, deb faraz qilinadi.

4. Ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlar narxlarini qat’iy belgilangan ish haqi darajasidan yuqori belgilaganliklari bois, foyda olishadi.

5. Model ushbu foyda biznesga asosiy kapital shaklida qayta investitsiya sifatida kiritilishini taxmin qiladi.

6. Rivojlangan ishlab chiqarish sektori iqtisodiyotning an’anaviy iqtisodiyotdan industrial jamiyatga o‘tganligini anglatadi.

U.A.Lyuis zaif rivojlangan mamlakat iqtisodiyotini 2 ta sektorga bo‘ladi.

Lyuis ushbu sektorni “iqtisodiyotning takrorlanadigan kapitaldan foydalanadigan va buning uchun kapitalistlarga to‘laydigan qismi” deb ta’riflaydi. Kapitaldan foydalanishni ishchi kuchini yollovchi kapitalistlar nazorat qiladi. U ishlab chiqarish, plantatsiyalar, shaxtalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Kapitalistik sektor xususiy yoki davlat tasarrufida bo‘lishi mumkin.

U ushbu sektorni “iqtisodiyotning takror ishlab chiqariluvchi kapitaldan foydalanmaydigan qismi” sifatida aniqlashtiradi. Uni mahalliy aholi azaldan band bo‘lgan sektor yoki o‘zini-o‘zi band qilish sektori sifatida ham talqin qilish mumkin. Ushbu sektorda aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi nisbatan past, chunki u kapital bilan ta’minlanmaydi. “Ikki tomonlama sektor modeli” - bu rivojlanish nazariyasi hisoblangani holda, unda ortiqcha mehnat an’anaviy qishloq

xo'jaligi sohasidan zamonaviy sanoat sektoriga o'tkaziladi, uning vaqt o'tishi bilan o'sishi ortiqcha ishchi kuchini "yutib yuboradi", sanoat-lashtirishga yordam beradi va barqaror rivojlanishni rag'batlantiradi.

Ushbu modelda natural qishloq xo'jaligi odatda kam ish haqi, ishchi kuchining ortiqchaligi va mehnat sig'imli ishlab chiqarish jarayoni bois unumdorlik darajasining pastligi bilan tavsiflanadi. Aksincha, kapitalistik ishlab chiqarish sektori tabiiy sektorga nisbatan yuqori ish haqi stavkalari, yuqori chegaraviy unumdorlik va ishchi kuchiga talabning yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, kapitalistik sektor kapital sig'imli ishlab chiqarish jarayonidan foydalanadi deb taxmin qilinadi. Shuning uchun ishlab chiqarish sohasida investitsiyalar va kapitalning intensiv tarzda to'planishi vaqt o'tishi bilan amalga oshadi, chunki kapitalistlarning foydasi asosiy kapitalga qayta investitsiya qilinadi. Qishloq xo'jaligi sohasida chegaraviy mehnat unumdorligini oshirish past ustuvorlikka ega deb taxmin qilinadi, chunki gipotetik rivojlanayotgan mamlakat investitsiyalari ishlab chiqarish sohasidagi asosiy kapitalga yo'naltiriladi.

Ikki sektor o'rtasidagi birlamchi munosabatlar shundaki, kapitalistik sektor kengayganda, u natural sektordan ishchi kuchini ajratib oladi yoki jalb qiladi. Bu aholi jon boshiga ishlab chiqarishning ko'payishiga, natural xo'jalikdan kapitalistik sektorga o'tishga olib keladi. Lyuis o'z modelida ishchi kunning haddan tashqari ortiqchaligi kuzatiluvchi iqtisodiyotni nazarda tutganligi bois, u kapitalistik sektorda malakasiz ishchi kuchi taklifi cheklanmaganligini taxmin qiladi. Bu yangi tarmoqlarni yaratish va mavjud ish haqi darajasida amaldagi tarmoq va sohalarni kengaytirish imkonini beradi.

Ortiqcha ishchi kuchi taklifining kattagina qismi ta'minotining aksariyat qismi qishloq xo'jaligida va ishchi kuchi ortiqchaligi seziluvchi boshqa kasblarda, masalan maishiy xizmat, mayda chakana savdo kabilarda kuzatiladi. Lyuis shuningdek, malakasiz ishchi kuchi taklifining ko'payishiga olib keladigan yana ikkita omilni, xususan uy xo'jaligida yumushlar bilan band ayollar va mamlakatda aholining o'sishini hisobga oladi.

Qishloq xo'jaligi sektori mahsulot etishtirish borasida cheklangan miqdordagi erga ega, har bir qo'shimcha fermerning chegaraviy mahsuloti nolga teng deb hisoblanadi, chunki kamayib boruvchi foyda qonuni erga chegaraviy xarajatlarning belgilanganligi bois, u asta-sekin o'zining mohiyatini yo'qotib boradi. Buning natijasida qishloq xo'jaligida chegaraviy unumdorligi nolga teng bo'lgan ishchilar paydo bo'ladi. Hech qanday mahsulot ishlab chiqarmaydigan fermerlarning bu guruhi ortiqcha ishchi kuchi sifatida qaraladi, chunki bu guruhni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasdan boshqa sohaga o'tkazish mumkin

Agar ishchilar natural xo'jalikdan kapitalistik sektorga o'tkazilsa, u holda umumiy farovonlik va unumdorlik sezilarli darada yaxshilanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotining umumiy hajmi o'zgarishsiz qoladi, sanoat mahsulotining umumiy hajmi esa ishchi kuchining qo'shilishi tufayli ortadi, ammo qo'shimcha ishchi kuchi ishlab chiqarish sektoridagi chegaraviy unumdorlik va ish haqini kamaytiradi. Ishchilarning ishlab chiqarish sektoriga oqib o'tishi davom etishi va investitsiyalar asosiy kapitalni ko'paytirishi barobarida kapital to'planishi sababli ishchilarning chegaraviy unumdorligi ortgani holda, qo'shimcha ishchilarning ishlab chiqarish sektoriga kelib qo'shilishi davom etishi asnosida esa chegaraviy unumdorlik pasayib boradi. Natijada, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sektorlaridagi ish haqi darajasi qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning qayta ishlovchi sektorga o'tishlari asnosida tenglasha boradi, bunda mazkur jarayonlar qishloq xo'jaligida chegaraviy mahsulodorlik va va sh haqining o'sishiga olib kelsada, o'z navbatida qayta ishlovchi sanoatda unumdorlik va ish haqi darajasi pasayib boradi.

Ushbu o'tish jarayonining yakuniy natijasi shundaki, qishloq xo'jaligida ish haqi qayta ishlash sanoatidagi ish haqiga, qishloq xo'jaligida mehnatning chegaraviy mahsuloti sanoat ishlab chiqarishidagi mehnatning chegaraviy mahsulotiga tenglashib boradi, bundan buyon qayta ishlash sektorining kengayishi

yuz bermaydi, chunki ishchilarda vaqt o'tishi bilan moddiy rag'bat susayib boradi.

Ortiqcha ishchi kuchidan yangi sanoat investitsiya loyihalarini yaratishda kapital o'rnida foydalanish yoki uni dastlabki bosqichlarda mehnat sig'imli rivojlanayotgan tarmoqlarga yo'naltirish mumkin. Bunday o'sish yashash minimumining oshishiga olib kelmaydi, chunki ishchi kuchi taklifi ish haqiga bo'lgan talabdan oshib ketadi va mehnatni tashkil qilishning takomillashgan usullari hisobiga kapital koeffitsientining pasayishiga olib keladi. Garchi ishchi kuchi ortiqcha deb taxmin qilinsa-da, u asosan malakasiz hisoblanadi. Bu o'sishni sekinlashtiradi, chunki fan-texnika yutuqlariga asoslangan texnologik taraqqiyot malakali ishchi kuchini talab qiladi. Ammo ishchi kuchining ortiqchaligi va kapital darajasining etarlicha emasligi sharoitida mazkur kemptikni ta'lim olish va o'qitish uchun imkoniyatlar taqdim etish orqali to'ldirish mumkin. O'sish maqsadlariga erishish borasida ortiqcha ishchi kuchining navfliligi ayni paytda mavjud bo'lgan kapital miqdoriga bog'liqdir. Agar ishchi kuchi ortiqcha bo'lsa, qishloq xo'jaligi undan etarlicha unumli foydalana olmaydi, shu bois ortiqcha ishchi kuchini qishloq xo'jaligidan boshqa sektorlarga o'tkazish o'zaro manfaatli bo'ladi. Bu qishloq xo'jaligi aholisini ish bilan ta'minlaydi va erna ortiqcha zo'riqishdan xalos qiladi, o'z navbatida sanoat ishchi kuchi bilan ta'minlanadi. Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish uchun ishchi kuchining harakatchanligini oshirish talab qilinadi. Bunday harakat-chanlikni ta'minlash uchun kapitalistik sektor ish haqi va unga qo'shimchalar bilan aniqlanuvchi kompensatsion to'lovni to'lab berishi kerak bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish jarayoni kapitalistik ortiqchalikning o'sishi bilan uzviy bog'liq, ya'ni kapitalistik ortiqchalik o'sar ekan, milliy daromad ham oshadi, bu esa iqtisodiyotning o'sishiga yordam beradi. Kapitalistik ortiqchalikning o'sishi ushbu modeldagi ortiqcha deb taxmin qilinadigan yanada ko'proq ishchi kuchidan foydalanishga bog'liq. Kapital jamg'arishning bu jarayoni haqiqatan ham muayyan bir nuqtada tugaydi.

Bu shunday holat hisoblanadiki, unga ko'ra kapitalning jamg'arilishi aholining o'sishini quvib o'tadi va bundan buyon ishchi kuchining ortiqchaligi kuzatilmaydi. Lyuis real ish haqining o'sishi kapitalistlar foydasining pasayishiga olib kelishini, bunda butun foyda iste'mol qilinishini va investitsiyalar hajmi nolga teng bo'lib qolishi haqida to'xtalib o'tadi.

Bu quyidagi yo'llar bilan yuz berishi mumkin:

1. Agar kapital to'planishi aholi o'sishiga qaraganda tezroq sodir bo'lsa, bu qishloq xo'jaligi yoki natural xo'jalik sektoridagi insonlar sonining kamayishiga olib keladi.

2. Kapitalistik yoki sanoat sektori ko'laming natural xo'jalik sektoriga nisbatan kengayishi savdo shartlarini kapitalistik sektorga qarama-qarshi qo'yishi va natijada kapitalistlarni ishchilarga/xodimlarga doimiy real daromadlarini saqlab qolish uchun o'z mahsulotlarining yuqori foizini to'lashga majbur qilishi mumkin.

3. Natural xo'jalikda yangi va takomillashgan ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarini joriy etish mumkin bo'lgani holda, bu o'z navbatida yashash minimumi darajasi va kapitalistlar ish haqining oshishiga olib keladi. Shunday qilib, kapitalistlarning ortiqchaligi va kapitalning jamg'arilishi ham pasayib boradi.

4. Kapitalistik sektorning mahsuldorligi o'zgarishsiz qolishiga qaramay, kapitalistik sektordagi ishchilar kapitalistik turmush tarzi va uslubiga taqlid qila boshlashlari asnosida ular endilikda ko'proq tirikchilik vositalariga ehtiyoj seza boshlaydilar, bu o'z navbatida yashash minimumini, shuningdek kapitalistik ish haqini oshiradi, natijada kapitalistik ortiqchalik va kapital jamg'arish darajasi pasayadi.

Lyuis modeli rivojlanish darajasi past mamlakatlarning e'tiborini tortdi, chunki u dualistik rivojlanishdagi ba'zi asosiy munosabatlarni ochib beradi. Biroq, u quyidagi sabablarga ko'ra tanqid qilinadi:

1. Iqtisodiy rivojlanish mehnatning muqobil xarajatlari juda past bo'lgan natural sektordan ishchi kuchini "yutib yuborish" tufayli yuzaga keladi. Ammo

muqobil xarajatlarning mavjudligi sharoitida ishchi kunning sanoat sektoriga o'tishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qisqarishiga olib keladi.

2. Lyuis chamasi iqtisodiyotni modernizatsiyalashda undiruvchi tarmoqlarning o'rnini e'tiborga olmaydi, u ochiqchasiga o'z tahlil doira-sidan tog'kon sanoatini chiqarib tashlaydi.

3. Ortiqcha ishchi kuchini o'zlashtirib olish muddatidan oldin o'z yakuniga etishi mumkin, chunki raqobatchilar ish haqi stavkalarini oshirish va foyda ulushini kamaytirishga harakat qiladilar. Misr iqtisodiyotida qishloq joylaridan shaharlarga ko'chish ish haqi stavkalarining 15 foizga oshishi va foydaning 12 foizga pasayishi bilan birga amalga oshgani ta'kidlanadi. Sanoat sektoridagi ish haqi to'g'ridan-to'g'ri kasaba uyushmalarining ta'siri va bilvosita natural xo'jalikdagi unumdorlikning o'sishi hisobiga ish haqini oshirish xaqidagi talablar asosida ko'tariladi. Darhaqiqat, aksariyat kambag'al mamlakatlarda shahar va qishloq joylari o'rtasidagi ish haqi farqini hisobga olgan holda, hozirda shahar va qishloq sohalarida keng ko'lamlilik kuzatiladi.

4. Lyuis modeli tez o'sib borayotgan aholining kambag'al iqtisodiyotga to'liq ta'sirini, ya'ni uning qishloq xo'jaligi profitsitiga, kapitalistik foyda ulushiga, ish haqi stavkalariga va umumiy ish imkoniyatlariga ta'sirini etarlicha baholay olmaydi. Xuddi shuningdek, Lyuis qayta ishlash sanoatining o'sish sur'ati qishloq xo'jaligidagi o'sish sur'ati bilan bir xil bo'ladi, ammo agar sanoat rivojlanishi kapitaldan ishchi kuchiga qaraganda intensiv foydalanishni ko'zda tutsa, u holda qishloq xo'jaligidan sanoatga ishchi kuchi oqimi shunchaki ishsizlikning o'sishiga olib keladi.

5. Lyuis aftidan qishloq xo'jaligi va sanoatning muvozanatli o'sishini e'tiborsiz qoldiradi. Kambag'al mamlakatlarda qishloq xo'jaligining o'sishi va sanoat rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olib, kapitalistlar tomonidan olinadigan foydaning bir qismi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltirilmasa, sanoatlashtirish jarayoni xavf ostida qoladi.

6. Iqtisodiyotdan mumkin bo'lgan yo'qotishlarni Lyuis e'tiborsiz qoldiradi. U kapitalistning tejashga bo'lgan chegaraviy moyilligi biriga yaqin ekanligini taxmin qilsada, ammo iste'molning ko'payishi har doim foyda o'sishi bilan birga yuz berishini, shuning uchun jamg'armalarning umumiy o'sishi foyda o'sishiga qaraganda bir muncha past bo'lishini u inobatga olmaydi. Kapitalistik ortiqchalikning konstruktiv ravishda ishlatilishi yoki ishlatilmasligi 10 foiz boy aholining iste'molni tejash modeliga bog'liq bo'ladi. Ammo faqat kapitalistlar jamiyatning yagona samarali agentlari hisoblanmaydilar. Misrda madaniy ekinlarni etishtiruvchi kichik fermerlar kerakli darajadagi kapitalni tejashga qodir ekanliklarini ko'rsatdilar. Ganadagi dunyodagi eng yirik kakao sanoati butunlay kichik korxonalar tomonidan kapital jamg'arilishiga asoslangan.

7. Malakasiz ishchilarni qishloq xo'jaligidan sanoatga o'tkazish deyarli muammosiz va erkin deb qaraladi, ammo amalda bunday bo'lmaydi, chunki sanoat har xil mehnat turlarini talab qiladi. Muammoni ta'lim va malaka oshirishga sarmoya kiritish orqali hal qilish mumkin, ammo bu jarayonni silliq va arzon kechadi deb aytib bo'lmaydi.

Model sanoatda ratsionallik, to'liq ma'lumot va kapitalning cheksiz to'planishini nazarda tutadi. U amalda deyarli mavjud emas, shu bois undan kamdan-kam hollarda to'liq foydalaniladi. Shunga qaramay, ushbu modeldan rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat bozorini tartibga solishda samarali foydalaniladi.

9.2. Import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o'sish turlarining uslubiy asoslari

O'tish iqtisodiyotining xalqaro savdo munosabatlaridagi milliy mavqeini mustahkamlashda import o'rnini bosishning roli va ahamiyatini tushuntirish borasida uslubiy nuqtai nazardan import o'rnini bosishning: import o'rnini bosuvchi iqtisodiy kategoriya; import o'rnini bosish iqtisodiy jarayon sifatida; import o'rnini bosish davlatning iqtisodiy siyosati sifatida uchta muqobil ta'rifini shakllantirish taklif etiladi.

Importning o'rnini bosuvchi iqtisodiy kategoriya - bu xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi qonunlari va raqobatbardoshlik hamda iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga muvofiq, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va tarkibiy o'zgartirish maqsadida import qilinadigan tovarlarning o'rnini bosishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Davlatning iqtisodiy siyosati sifatida importning o'rnini bosish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishni rag'batlantirish va proteksionistik vositalar yordamida importni bilvosita tartibga solish orqali tovarlar importi hajmini maqbullashtirish va takomillashtirish bo'yicha uzoq muddatli asoslangan davlat siyosatini amalga oshirishni anglatadi.

Import o'rnini bosishning asosiy jihatlar va namoyon bo'lishining shakllarini aniqlash uchun, bizning fikrimizcha, uning ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarini ajratib olishimiz lozim. **Birinchi**dan, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish ichki bozordan import qilinadigan mahsulotlarni qisman yoki to'liq siqib chiqarib yuborishi mumkin. Shu nuqtai nazardan sababli qisman yoki to'liq import o'rnini bosishni farqlash lozim. Qisman import o'rnini bosish, o'xshash import qilinuvchi mahsulotlarni shunday ishlab chiqarishni tashkil etishni ko'zda tutadiki, unga ko'ra import qilinuvchi mahsulot ichki bozordan qisman siqib chiqariladi. Bunday holda, import o'rnini bosish ilgari import qilingan mahsulotlar bilan to'ldirilgan ichki bozorning bir qismini mahalliy tovarlar bilan ta'minlashga imkon beradi. To'liq import o'rnini bosish import tovarlarni ishlab chiqarishni shunday tashkil etishni ko'zda tutadiki, bunda mahalliy mahsulot o'zining raqobat ustunliklari hisobiga import mahsulotlarni ichki bozordan butunlay siqib chiqarib yuboradi. **Ikkinchi**dan, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mahalliy va import qilinuvchi ishlab chiqarish resurslaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil etishda xorijiy ishlab chiqarish omillari (xom ashyo, materiallar va korxonalarining texnik jihozlari)dan foydalanilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, birinchi va ikkinchi darajali import o'rnini bosishni farqlash lozim.

Birinchi darajali import o'rnini bosish deyilganda, chet el (import) ishlab chiqarish omillari (ishlab chiqarish uskunalari, xom ashyo, materiallar, mehnat resurslari va boshqalar) ishlatiladigan import qilinuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish tushuniladi. Ikkinchi darajadagi import o'rnini bosish deyilganda esa, chet el ishlab chiqarish uskunalari, xorijiy xom ashyo va materiallardan foydalanmasdan turib, mamlakatning qiyosiy ustunliklari va ichki ishlab chiqarish omillaridan yuqori unum bilan foydalangan holda, ilgari import qilingan mahsulotlarni mamlakat ichkarisida ishlab chiqarishni tashkil etish tushuniladi. **Uchinchidan,** import o'rnini bosishi tarmoq tavsifiga ega bo'lishi ham mumkin, ya'ni bunda u ilgari olib kirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish amalga oshiriladigan milliy iqtisodiyotning muayyan bir soha va tarmoqlarini qamrab oladi. Bu o'z navbatida sanoat yoki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bo'lishi mumkin. Importni o'rnini bosish milliy iqtisodiyotning barcha muhim tarmoqlarini qamrab olishi mumkin bo'lgan vaziyatni ham ko'zdan qochirmasligimiz lozim. Bu mamlakatni ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasi va qiyosiy afzalliklariga bog'liq. Iqtisodiy adabiyotlarda import o'rnini bosishning tarmoq tavsifiga deyarli e'tibor qaratilmaydi, bu borada e'lon qilingan ilmiy ishlarning aksariyat qismida sanoat mahsulotlari importi o'rnini bosishga urg'u berilgan. Agar import o'rnini bosish sanoatda mavjud bo'lsa, nega bunday strategiya qishloq xo'jaligida, xizmatlarda, qurilishda va boshqalarda kuzatilmasligi mumkin, degan haqli savol tug'iladi. Shunday qilib, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

milliy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi sifatida import o'rnini bosish ilgari import qilingan tovarlarni mamlakatning o'zida ishlab chiqarishni tashkil etishni ko'zda tutadi, buning natijasida bunday tovarlar importidan qisman yohud to'liq voz kechiladi;

ichki bozordan o'xshash import tovarlarni siqib chiqarish darajasi bo'yicha qisman va to'liq import o'rnini bosish farqlanadi;

import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida mahalliy va xorijiy ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasiga ko'ra, birinchi va ikkinchi darajali import o'rnini bosishni ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

tarmoq tavsifiga ko'ra import o'rnini bosish sanoat, qishloq xo'jaligi yoki kompleks (aralash) bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi va bozor munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi bosqichida jamiyat oldida turgan o'ziga xos ustuvor vazifalarni hisobga olgan holda, O'zbekiston sharoitida import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning maqbul turi va uni amalga oshirishning samarali shaklini aniqlashtirish talab etiladi. Bu borada mamlakatimiz rahbari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: "...barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi" -deb ta'kidlaydi.

Pandemiya dunyo miqyosida iqtisodiy o'sish sur'atlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumotlarga ko'ra, koronavirus tufayli 2020 yilda dunyo iqtisodiyotining o'sishi 4,5 foizdan 6,0 foizgacha pasaygan. Shu bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining o'sishi 2021 yilda +2,5%dan +5,2%gacha o'sishi bashorat qilinmoqda. Iqtisodiy o'sishning hozirgi dinamikasida jahon iqtisodiy faolligining qariyb 60 foizi to'g'ri keluvchi rivojlangan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar kamida 2024 yilgacha bo'lgan muddatda o'z imkoniyatlari darajasida faoliyat ko'rsata olmaydilar.

Bir qator iqtisodchilar va mutaxassislarning fikricha , pandemiya tufayli mehnat bozorida yuzaga kelgan nomutanosibliklar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Koronavirus pandemiyasining jahon iqtisodiyotiga ta'siri borasida XVF quyidagi xulosalarni ilgari suradi:

1) aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad hajmi bir necha yil davomida o'zining pandemiyadan oldingi darajasidan past bo'ladi, bu esa o'z navbatida joriy unumdorlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

2) pandemiyaga qarshi kurashish borasida milliy sog'liqni saqlash tizimlariga qo'yiladigan talablar boshqa kasalliklarni samarali davolashga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

3) korxonalarining bankrotligi milliy va global darajada unumdorlikning pasayishiga olib keladi;

4) qarz darajasining oshishi potentsial qarz olish imkoniyatlari va investitsiyalar oqimining cheklanishiga sabab bo'ladi.

XVJ bashoratlariga ko'ra, pandemiya natijasida 2020 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrda global iqtisodiy ishlab chiqarishning yo'qotilishi 28 trln. dollarni tashkil etadi. Birgina turizm sohasida 120 milliondan ziyod ish o'rnini yangidan tiklashning imkoni butunlay yo'qqa chiqadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) bankrotlik tufayli 40 foiz bank aktivlari xavf ostida qolishi mumkinligi haqida ogohlantirmoqda.

Masofadan turib ishni tashkil qilish hisobiga bunday xodimlarning ulushi rivojlangan mamlakatlarda 20 foizdan 25 foizgachani, rivojlanayot-gan mamlakatlarda esa 20 foizgachani tashkil qiladi, bu o'z navbatida jamoat transporti, umumiy ovqatlanish korxonalari va chakana savdo shahobcha-lariga talabning qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Elektron tijoratning jadal rivojlanishi do'kon va restoranlarda kam haq to'lanuvchi ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelgani holda, onlayn-savdo va xizmat ko'rsatish markazlarida yangi ishchi o'rinlariga talabning oshishiga olib keladi.

Qo'yilgan cheklovlarning mehnat bozoriga ta'siri ishchilarni robototexnika bilan almashtirishga undaydi.

Tan olib aytishimiz lozimki, bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti mavhumlik sharoitida rivojlanmoqda. Amerikalik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, pandemiya

sharoitida iqtisodiy pasayishning asosiy omili bu iqtisodiy noaniqlik bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning qay darajada aniqligini belgilash borasida iqtisodiy siyosatning noaniqlik indeksi – Economic Policy Uncertainty (EPU) dan foydalaniladi. Agar 1997 yildan to 2017 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida EPU indeksini tahlil qilsak, dunyo yalpi ichki mahsulotining uchdan ikki qismini ishlab chiqaruvchi dunyoning 18 ta mamlakatida iqtisodiy siyosatning noaniqlik indeksi 150- 300 oralig'ida o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, tahlilchilar pandemiya tufayli iqtisodiy siyosatning noaniqlik indeksi keyingi bir yarim yil ichida 450 punktdan pastga tushmayotganligini aytishmoqda.

Mana shunday noaniqlik hukm surayotgan bir paytda dunyo hamjamiyati mamlakatlari barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish borasida o'z dastur va rejalarini ishlab chiqib, hayotga izchil joriy qilishga intilmoqdalar.

Hozirgi COVID-19 koronavirus infeksiyasi pandemiyasi sharoitida insoniyat huddi shunday murakkab vaziyatni o'z boshidan kechirmoqda. Insonlar, jamiyat va tashkilotlar ushbu inqiroz sharoitida sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalarki, bu holat biologik va raqamli dunyo chegaralarini birlashtirgani holda, to'rtinchi sanoat inqilobini tezlashtiradi. Pandemiya bizni XXI asr texnologiyalari-sun'iy intellekt, internet buyumlar, ijtimoiy media, raqamli o'qitish platformalari, virtual reallik, uchuvchisiz uchish apparatlari va shu kabilarga qanchalik bog'lanib qolganligimizni his etishga majbur qiladi. Bundan tashqari, bunday misli ko'rilmagan shart-sharoit va imkoniyatlar bizni raqamli, biologik va jismoniy texnologiyalarga ko'proq tayanishga va bu istiqbolli texnologiyalarning yangi qadriyatlarni yaratish uchun qanday foydalanish mumkinligi haqida ko'proq bosh qotirishga undaydi.

BMTning global iqtisodiy monitoring bo'limi boshlig'i va yuqorida tilga olib o'tilgan hisobotning asosiy mualliflaridan biri Xamid Rashid:" avvalgi inqirozlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq va pul imtiyozlari har doim ham ishlab chiqarishni kengaytirishga olib kelmaydi. Hukumatlar moliyaviy yordam

olayotgan korxonalarni ishlab chiqarish quvvatlariga sarmoya kiritishga undashi kerak. Bu o'z navbatida etarlicha mehnat shart-sharoitlariga ega bo'lgan ish o'rinlarini saqlab qolish, daromadlar tengsizligining yanada avj olishining oldini olishda muhim o'rin tutadi"-deb ta'kidlaydi. Aksincha, ekspertlarning ta'kidlashlaricha, moliya tizimiga milliardlab mablag'larning kiritilishi aktsiya va obligatsiyalar narxining tezda avvalgi holatiga qaytishiga zamin yaratsada, iqtisodiyotning eng muhim tashkil etuvchisi bo'lgan ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib kelmaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi o'zining tabiiy-iqlim sharoit-lari, iqtisodiy salohiyati, mehnat resurslari soni jihatdan Markaziy Osiyo davlatlari orasida alohida ajralib turadi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonning aniqlangan tabiiy va mineral-xomashyo zahiralari 10 trillion AQSh dollari atrofida baholan-moqda. O'zbekiston jahonda tabiiy gaz qazib olish bo'yicha 14-o'rinda, paxta etishtirish bo'yicha 6- o'rinda, paxta eksporti bo'yicha 3-o'rinda, uran zahiralari bo'yicha 7-o'rinda, oltin qazib olish bo'yicha 7-o'rinda qayd etiladi.

Respublikadagi demografik holat aholining yuqori o'sish sur'atlari bilan alohida ajralib turadi. 1991 yildan 2019 yilgacha aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati o'rtacha 1,7-2,1 foizni tashkil etdi, mamlakat aholisining tarkibida 15 millionga yaqin kishi iqtisodiy faol aholi guruhiga kiradi.

O'zbekistondagi mustaqillik yillaridagi demografik vaziyatdan kelib chiqsak, mehnat resurslari dinamikasi ijobiy tendentsiyaga ega. Mehnat resurslari soni 2005 yilda 12594,0 ming kishidan 2018 yilga kelib 18835,6 ming kishiga ya'ni 149,5%ga o'sgan. O'zbekistonda aholining ish bilan bandlik darajasi 2005 yildagi 72,3 foizdan 2019 yilda 70,4 foizga pasaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorida asosiy muammo bu mavjud mehnat resurslarini to'la samarali inklyuziv bandligini ta'minlash bo'lib hisoblanadi. Bu davrda aholining iqtisodiy faollik darajasi 72,3 % dan 77,7% ga

oshdi. Aholining iqtisodiy nafaollik darajasi 27,7% dan 22,3 % ga tushdi va ishsizlik darajasi 5,4% dan 9,3% ga o'sdi (9.1-jadval).

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti turli moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning kuchayishi, mamlakatlar o'rtasida turli savdo urushlarining avj olishi natijasida dunyo mamlakatlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning cheklanishi kabi jarayonlar bilan tavsiflanadi. Buning natijasida esa, dunyoning ko'pgina milliy iqtisodiyotlarda YaIM o'sishining sekinlashuvi, real daromadlarning pasayishi, ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi va qashshoqlikning ortishi kuzatilmoqda. Mamlakatimiz rahbarining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida mamlakatimizda kambag'allikda kun kechiruvchilar soni mamlakat aholisining umumiy soniga nisbatan 12-15 foizni tashkil etayotganligi birinchi marotaba rasman e'lon qilindi. Yangi O'zbekiston Strategiyasida: "... aholining ma'lum qatlamlari o'rtasida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, degan jo'n fikrlar ham mavjud... kambag'allikni kamaytirish-bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim" -deb, ta'kidlanadi.

Yuqorida tilga olib o'tilganlarning barchasi, bir tomondan, aholi potentsial yalpi talabining juda yuqori ekanligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, bugungi kunda milliy xo'jalikda tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezkor hal etish imkonini beruvchi import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy siyosat strategiyasini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Ayni paytda mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun taklif etilayotgan importning o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy siyosat bir ko'rinishda erishish murakkab bo'lgan qat'iy cheklolarga asoslanishi lozim. Ushbu shartlarni hisobga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi sharoitda

milliy iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga oluvchi, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o'sish turlarining kombinatsiyasi O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishga erishishi borasida ustuvor hisoblanadi.

9.1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining asosiy indikatorlari(yillik o'rtacha)

Ko'rsatkichlar	2005y.	2010y.	2015y.	2018y.	2020 yil	2018 yilga nisbatan 2020 yilda o'zgarish %da
Mehnat resurslari, ming kishi	12594,0	16504,2	17663,1	18835,6	19142,3	+1,6
Iqtisodiy faol aholi soni, ming kishi	10196	12286,6	12850,1	14641,7	14798	+1,1
Aholining iqtisodiy faollik darajasi, % da	72,3	70,7	70,0	77,7	89,5	+11,8
Iqtisodiyotda bandlarning o'rtacha yillik soni, ming kishi	8983,0	11628,4	12223,8	13273,1	13239,6	-0,02
Bandlik darajasi, % da	72,0	66,9	66,6	70,4	66,1	-4,3
Ishsizlar soni, ming kishi	658,2	658,2	626,3	1368,6	1558,4	+13,8
Ishsizlik darajasi, % da	5,4	5,4	4,9	9,3	10,5	+1,2
Iqtisodiy nafaol axoli, ming kishi	3575,6	4439,4	4714,2	4193,9	4344,3	+3,5
Iqtisodiy nafaollik (passivlik) darajasi, % da	27,7	25,5	25,7	22,3	22,6	+0,3

Mamlakatimiz sharoitida iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligi sektorlarini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga oluvchi import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o'sish turlarining kombinatsiyasi eng maqbul hisoblanadi.

Rossiyalik tadqiqotchilar S.G.Azikova, G.A.Bobkov, X.X. Soxrokov-larning tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda agrar soha mahsulotlarining 1 % qo'shimcha o'sishi sanoat infratuzilmasi tarmoqlari mahsulotlarining 2,5% ga, qayta ishlovchi tarmoqlar mahsulotlarining – 1,4%, transport xizmatlarining 0,33%, savdo hajmining esa 2,7% ga o'sishiga olib kelishi aniqlangan.

Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlari uchun asosiy mahsulot va xomashyo etkazib beruvchi tarmoq sanalishi bilan bir qatorda, mamlakatning oziq-ovqat va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlaydi, mamlakatning import oziq-ovqatlariga bo‘lgan qaramligiga barham beradi. Shu bois iqtisodiy nuqtai nazardan oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan olib kirish foydali bo‘lsa ham, rivojlangan mamlakatlar o‘z qishloq xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash borasida turli-tuman vositalardan keng foydalanadilar. Masalan, AQShda davlatning fermerlarga ko‘rsatadigan yordami ular oladigan daromadning 30 foizini tashkil etgani holda, bu ko‘rsatkich Yaponiyada 66 %, Norvegiyada 77%, Shveysariyada esa 80 %ni tashkil etadi. Ayni vaqtda mamlakatimizda davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko‘rsatilayotgan ko‘mak 10 foizni tashkil etgani holda, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha importga qaramlik o‘zining belgilangan me‘yoridan bir necha barobarga ko‘pdir. Xususan, 2021 yilning birinchi yarmida import hajmining o‘shish tendentsiyasi saqlanib qoldi. Mazkur davrda, tovarlar importi 10,3 mlrd dollarni tashkil etib, 15,4 foizga o‘sdı. Import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 2,5 foiz punktga oshib, 12,1 foizga etdi. Bunda, aholi uchun muhim bo‘lgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari importida bug‘doy 27 foizga (1,4 mln tonna), shakar va shakar xomashyosi – 8,2 foizga (295 ming tonna), kartoshka – 39,1 foizga (306 ming tonna) oshgan bo‘lsa, kungaboqar yog‘i – 4 foizga (117 ming tonna) qisqardi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida va oziq-ovqat sanoatida mamlakatimiz aholisining har beshtasidan bittasi band bo‘lsa, mamlakat YaIMida mazkur tarmoqlarning ulushi qariyb 23 foizni tashkil etadi, chakana savdo aylanmasining salkam 51foizi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qishloq hududlarida mamlakatimiz aholisining salkam 50 foizi, shahar atrofi hududlarida 21 foizi istiqomat qilayotgan bir paytda, agrosanoat majmui korxonolari aholi bandligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati qanchalik katta bo‘lmasin, mazkur sohani ekstensiv asosda rivojlantirishning sira iloji yo‘q.

Bugungi kunda mamlakatimizda sug'orma dehqonchilik qilinadigan yer maydonlari 4 million 300 ming gektarni, yaylovlar va pichanzorlar esa 21 million gektardan sal oshiqroqni tashkil etsada, haydaladigan erlar va yaylovlar-ning yaroqlilik darajasi yildan-yilga pasayib borayotganligini kuzati-shimiz mumkin.

Mamlakatimiz rahbarining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida va shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi PF-5614 sonli "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi PF-5621 sonli "Iqtisodiy rivoj-lanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonlarida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishning birdan bir yo'li – bu milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyot soha va tarmoqlarida mahsulot tannarxini pasaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga erishish ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, mamlakatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston Strategiyasi asarida: "... Biz 2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 2,5 baravar ko'paytirish, milliy iqtisodiyot tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga etkazish bo'yicha aniq maqsadli dasturlarni amalga oshiramiz... iqtisodiyot-ni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish uchun bir qator vazifalarni bajarishga asosiy e'tibor qaratiladi" -deb ta'kidlanadi.

Xususan, mamlakatimiz rahbari tomonidan 2020 yil 22 iyulda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yer va suv resurslarining cheklanganligi sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlan-tirishning ustivor vazifalari belgilab berildi. Hozirda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning drayveri bo'lishi uchun, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish, qishloq xo'jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv

resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifa ekanligini tushunib olish muhimdir.

Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish orqali ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan eng muhim vazifalardan sanaladi.

Agrar sohaning yana bir muhim tarmog'i – paxtachilikda olib borilayotgan islohotlar natijasida joriy mavsumda o'tgan yilga nisbatan 422 ming tonna ko'p paxta xom ashyosi etishtirildi. Hosildorlik esa o'rtacha 6,3 tsentnerga oshgani ayniqsa e'tiborlidir.

Bugungi kuchli raqobat sharoitida qishloq xo'jaligi tizimida ham yangicha yondashuv, innovatsiyalar va ilg'or ishlanmalarni, intensiv va resurs tejaydigan texnologiyalarni izchil tatbiq etishni zamonning o'zi taqozo qilmoqda.

Keyingi paytda butun dunyoda bo'lgani kabi mintaqamizda ham yuz berayotgan iqlim o'zgarishlari, suv resurslarining tobora taqchil bo'lib borayotgani, ekologik muammolar sohada ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash naqadar dolzarb ekanini ko'rsatmoqda.

Ana shu omillarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholiga sifatli mahsulotlar etkazib berish, eksport geografiyasini kengaytirishdek ustuvor masalalarda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlariga asoslangan, boshqaruvning mutlaqo zamonaviy shakli bo'lgan klaster tizimi joriy etilayotgani amalda o'zini

to'la oqlamoqda. Ushbu innovatsion tizim agrar sohani rivojlantirishning muhim vositasiga, qishloq aholisining kafolatli daromad manbaiga aylanib bormoqda.

Hozirgi vaqtda yurtimizda barcha yo'nalishlarda 651 ta agroklastler faoliyat yuritib, paxta va g'allaning 100 foizi, meva-sabzavotning 40 foizidan ortig'i aynan ana shunday korxonalar ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Agroklastlerlar qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, sohani sanoatlashtirish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash, pirovardida chetga xom ashyo emas, qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot eksport qilish, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish kabi asosiy vazifalarni samarali amalga oshirmoqda.

Natijada birgina paxtachilikda tolani qayta ishlash ko'rsatkichi 2,5 baravarga oshdi. Hosilning 100 foizi mamlakatimizda qayta ishlanishi tufayli ip-kalava ishlab chiqarish 2 baravarga, tayyor mahsulot hajmi 3 baravarga ortdi. Bu boradagi yillik eksport miqdori qariyb 3 milliard dollarni tashkil qildi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi erlarining unumdorligini oshirish, oborotdan chiqqan ekin maydonlarini qayta foydalanishga kiritish, lalmi erlarni o'zlashtirish ishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. 2020-2021 yillarda 369 ming gektar yer qayta foydalanishga kiritildi. Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan subsidiya ajratish tizimi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, yangi issiqxonalar tashkil etish, oziq-ovqat mahsulotlari tannarxining barqarorligini ta'minlash borasidagi ishlar ham o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Xususan, birgina 2021 yilning o'zida 797 gektar maydonda qiymati 2,3 trillion so'mlik 398 ta zamonaviy issiqxona ishga tushirilib, 11 mingdan ortiq kishining bandligi ta'minlandi.

Bularning barchasi ichki bozor ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda, eksport imkoniyatlarini kengaytirib, qishloq joylarida ko'rkam va qulay bo'lgan savdo, logistika markazlari va qayta ishlash korxonalarini rivojlantirmoqda Xorijiy mamlakatlar bozorlariga yangi istiqbolli yo'nalishlar ochilib, qariyb 1,5 million tonna meva-sabzavot mahsulotlari 65 ta davlatga eksport qilindi.

Bu o'rinda, eksport ko'rsatkichlarida o'tgan yilga nisbatan dukkakli mahsulotlar 122 foizga, uzum mahsulotlari 142 foizga, sabzavotlar 103 foizga hamda yong'oq mahsulotlari 1,8 barobarga o'sganini alohida qayd etish lozim.

Ayni paytda, yangi loyihalar ustida ishlash, bozor mexanizmlari tamoyillarini keng joriy etgan holda mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirish va sifatini yanada yaxshilash, malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalari diqqatimiz markazida bo'lishi lozim. Ana shu talab va mezonlardan kelib chiqqan holda, sohada keng ko'lamli islohotlarni joriy etish rejalashtirilmoqda.

Tabiiy xomashyo resurslarining mavjudligi iqtisodiyotni, xususan sanoatni rivojlantirishda eng muhim omil hisoblanadi. Ma'lumki, mamlakatning tabiiy zahiralarga boyligi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasida katta imkoniyatlarni taqdim qiladi. O'zbekiston Respublikasi nafaqat mintaqada, balki jahonda ham, kimyoviy xomashyo, polimetall va noyob ma'danlar, qimmatbaho metall va toshlarning katta tabiiy zahiralari ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shunday bo'lsada, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat aholi bandlik darajasining pastligi bilan tavsiflanadi.

A.Lyuis tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy o'sishning ikki sektorli modelida aholisi ko'p bo'lgan davlatlar uchun qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirishning nazariy asoslari yaqqol o'z aksini topgan. A.Lyuis modeli ishchi kuchi zahirasini iqtisodiy o'sishning asosi sifatida qarab chiqadi. A.Lyuisning ikki sektorli modeli ishchi kuchining bir qismini qishloq xo'jaligidan sanoatga qayta taqsimlashni va shu tariqa iqtisodiy o'sishni tezlashtirishni ko'zda tutadi. Mazkur modelga ko'ra, sanoatda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning manbai qo'shimcha ishchi kuchi hisoblanadi, ya'ni ushbu holatda iqtisodiy o'sishning ekstensiv tipi nazarda tutiladi. A.Lyuis modeliga muvofiq, qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning asosiy manbai mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi, ya'ni bu o'rinda asosan intensiv iqtisodiy o'sish iqtisodiy haqida gap boradi. Ushbu

model dunyoning bir qator mamlakatlarida ularning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda mohirlik bilan qo'llanilgan.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, tabiiy resurslar va mehnat resurslarining milliy xo'jalikka jalb qilinganligi bo'yicha mamlakatimiz mavjud iqtisodiy resurslarni o'zlashtirishning birlamchi mintaqasiga kiritilishi bois, sanoat sektorida ekstensiv rivojlanish yo'lidan foydalanish fikrimizning tasdig'i hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish potentsialidan foydalanish darajasi mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hisobiga sanoat ishlab chiqarishining o'sishini ta'minlash borasida zahiralar juda katta ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida: "O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o'sish sur'atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatdoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuasini shakllantirishdan iborat. Strategik yo'nalish sanoatning eksportga yo'naltirilgan tarkibini vujudga keltirish va eksportda xom-ashyoga nisbatan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hisoblanadi" -deb ta'kidlab o'tadi.


Ta'kidlash lozimki, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat va qishloq xo'jaligini o'zaro uyg'un holda rivojlantirish talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida: "... sanoat tarmoqlarini uzluksiz xomashyo va zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash zarur. Iqtisodiyotning qator muhim tarmoqlari, jumladan, kimyo, neft va gaz, energetika, elektrotexnika, qurilish materiallari, zargarlik sanoatini xomashyo bilan ta'minlash uchun, avvalo, geologiya-qidiruv sohasini tubdan rivojlantirish lozim... iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarur.

Tarmoqdagi hozirgi o'sish sur'atlari bizni mutlaqo qoniqtirmaydi. Bu borada bozor mexanizmlarini keng joriy etib, fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirmas ekanmiz, biz kutgan sezilarli o'zgarish bo'lmaydi"-deb ta'kidlanadi.

Import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o'sishning asosi sifatida sanoat sektorining rivojini ta'minlash sanoat sohasida barcha turdagi tadbirkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Kichik va o'rta biznesning ustuvor ahamiyati shundan iboratki, ular sanoatning rivojlanishiga dastlabki turtki berishi bilan bir qatorda, bo'sh mehnat resurslarini band qilish orqali mehnat bozoridagi tanglikka barham beradi. Ma'lumki, aynan ushbu sohaning rivojlanishi ko'plab mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanishning o'tish davrida import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o'sishni ta'minlashga zamin yaratib bergan.

Shuni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat Parlamentiga yo'llagan Murojaatnomasida: "... aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish – biz uchun bosh vazifalardan biri bo'lib qoladi. Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi etarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdir. Joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashabbuslarini, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlarga, mikro-moliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo'l ochib beriladi. Bunday choralar orqali odamlarimizda tadbirkor bo'lishga ishtiyoq va ishonch ortadi, ular ko'proq daromad olishga intiladi"-deb ta'kidlanadi". Tadbirkorlik faoliyatini jadallashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmoni katta

turtki beradi. Mazkur farmon bilan har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandiligini taeminlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta‘sis etildi. Shu bilan bir qatorda, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari, Hokim yordamchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi kabi institutlar tashkil qilindi.



9.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi sanoati sektorlarining texnologik tarkibi dinamikasi, %.

Mazkur hujjat asosida ishlarning tashkil qilinishi mahallalar, uy xo‘jaliklari kesimida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash-tirish va ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini manzilli tarzda amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ma‘lumki, 2020 yilda Jahon banki tomonidan e‘lon qilingan “Biznes yuritish” reytingiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi 190 ta mamlakat o‘rtasida 69-o‘rinni egalladi. Shu o‘rinda keltirib o‘tish lozimki, Jahon bankining ma‘ruzasida qayd etilishicha “yangi biznesni qo‘llab-quvvatlash” me‘zoni bo‘yicha O‘zbekiston ayni

paytda global reytingda, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazishda-8, qurilish uchun ruhsatnoma olishda-132, elektr ta'minotiga ulanishda-36, mulkni ro'yxatdan o'tkazishda-72, kreditlar olishda-67, minoritar investorlarni himoya qilishda-37, soliqqa tortishda- 69, xalqaro savdoda-152, shartnomalar ijrosini ta'minlashda-22, qarzdorlikni bartaraf etishda-100 o'rinlarni egallagan. O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkor-lik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan o'rin olgan.

O'zbekiston ilk bor, dunyoning 152 ta davlati orasida 92-o'rinni egallagan holda, raqobatbardosh darajada mamlakat qayta ishlash sanoatining tovarlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qila olish layoqatini o'lchashga xizmat qiluvchi CIP indeksi reytingiga kirdi.

Sanoatning raqobatbardoshlik indeksi (Competitive Industrial Performance Index - CIP indeksi) Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan 2003 yildan beri hisoblab kelinadi. Dunyo mamlakatlarning indeksi borasidagi ma'lumot-lar har 2 yilda, 2 yil kechikish bilan chop qilinadi. CIP indeksi 152 dan ortiq mamlakatning sanoat raqobatbardoshligini baholaydi va taqqoslaydi.

CIP indeksining uchta ko'rsatkichi qiymatida aks etuvchi har bir mamlakatning natijasi o'z navbatida mamlakatda sanoat sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini aks ettiradi: (1) sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish qobiliyati; (2) texnologik chuqurlashtirish va modernizatsiya qilish; (3) jahon bozoriga ta'siri. CIP indeksi sanoat raqobatbardoshligini mamlakatlar o'rtasida o'zaro taqqoslash imkonini beradi. Taqqoslash uchun shuni aytishimiz mumkinki, mazkur reytingda MDH mamlakatlaridan Rossiya Federatsiyasi-32, Belarus-47, Qozog'iston-68, Armaniston-103, Ozarbayjon-120, Moldova-111, Qirg'iziston-122, Tojikiston-129 o'rinda qayd etilgan. Yuqoridagi 1.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz sanoat ishlab chiqarishida past texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi asta-sekinlik bilan pasayib borayotgan bo'lsada, yuqori texnologiyali mahsulotlar

ishlab chiqarish hajmi quvonarli xulosalar yasash imkonini bermaydi. Xususan, 2020 yilda qayta ishlash sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 1,9%, o'rtacha –yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 22,4%, o'rtacha –past texnologiyali tarmoqlar ulushi 40,1% va past texnologiyali tarmoqlar ulushi 35,6%ni tashkil qildi.

Import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishga asoslangan sanoat siyosati shakllarini aniqlashtirishda maqsadli yo'nalishlarni belgilab olish muhim bosqich hisoblanadi. Importning o'rnini bosishning tabiati borasida ko'rib chiqilgan jihatlardan kelib chiqqan holda bir nechta maqsadli yo'nalishlarni aniqlashtirish mumkin: **birinchidan**, ijobiy savdo balansini ta'minlash maqsadida import o'rnini bosish dasturlari amalga oshirilishi mumkin; **ikkinchidan**, u mamlakatning iqtisodiy xavfsiz-ligini mustahkamlash maqsadida hayotga joriy qilinishi mumkin; **uchinchidan**, import o'rnini bosish mahalliy ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishini rag'batlantirish va ularning raqobatdoshligini oshirishga yordam berish maqsadida amalga oshirilishi mumkin; **to'rtinchidan**, importning o'rnini bosish importga bog'liqlik darajasini pasaytirish maqsadida amalga oshirilishi mumkin; **beshinchidan**, import o'rnini bosish mamlakatga qarshi qo'llanilayotgan turli sanksiyalar ostida muayyan tovarlar bilan ichki bozorni to'ldirish uchun favqulodda chora sifatida amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida va COVID-19 pandemiyasi oqibatida kelib chiqqan iqtisodiy inqiroz sharoitida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayib ketishining oldini olish, ichki bozorni sifatli iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, ta'minot zanjirida uzilishlarga yo'l qo'ymaslik kabilarni ham maqsadli yo'nalishlar sirasiga qo'shishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyoti tadrijiy taraqqiyotining ayni ushbu davriga kelib, import o'rnini bosish deyarli barcha rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro savdoning salbiy ta'siridan himoyalanih usuli sifatida xizmat qildi. Bunda, rivojlanayotgan mamlakatlarning katta guruhi import o'rnini bosishni mustaqillik siyosatini davom ettirishning yakuniy maqsadi deb hisoblashadi (bu muqarrar

ravishda o'z-o'zining yakkalanishiga olib kelishi mumkin). Rivojlanayotgan mamlakatlarning yana bir guruhi esa, import o'rnini bosishni iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va uning eksportga yo'naltirilganlik darajasini oshirish vositasi sifatida biladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning birinchi guruhida import o'rnini bosish ko'pincha ilmiy iqtisodiy tahlillarga emas, balki davlatning qisqa muddatli manfaatlariga asoslanadi. Ushbu holatda, import o'rnini bosish siyosatini amalga oshirishda proteksionistik siyosatning turli vositalari-dan keng qo'llanilgan holda, avvalgi davrlarga xos bo'lgan xalqaro mehnat taqsimotining eskirgan amaliyotidan foydalaniladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va ularni keyinchalik eksportga yo'naltirish maqsadida import o'rnini bosuvchi strategiyalarni qo'llovchi, shu bilan bir qatorda uzoq muddatli iqtisodiy o'sish maqsadlarini ko'zlagan rivojlanayotgan mamlakatlar proteksionizmga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tadrijiy taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, ilmiy asoslangan va puxta o'ylangan holda import o'rnini bosish jarayonlarini ichki bozorni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash borasidagi oqilona proteksionistik chora-tadbirlar bilan to'ldirish nafaqat ijobiy iqtisodiy natijalarni ta'min etadi, xalqaro mehnat taqsimotining uzoq muddatli maqsadlariga mos keladi, balki shu bilan bir qatorda, obyektiv tarzda butun zamonaviy jahon iqtisodiy tizimining rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Shunday qilib, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o'sishning uslubiy asoslarini ko'rib chiqishga xulosa yasagan holda, quyidagilarni qayd etishimiz mumkin:

Birinchidan, import o'rnini bosishning uslubiy mazmunini ko'rib chiqish va shu asosda uning shakllarini aniqlash iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida mamlakat uchun uning maqbul yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi. Amalda ishlab chiqarishning uzoq muddatdan buyon davom etayotgan transformatsion inqirozi va mamlakatning importga yuqori darajada qaramligi sharoitida ikkinchi

darajali import o'rnini bosish haqida gapirishga hali erta. Garchi O'zbekistonda ishlab chiqarish resurs va zahiralarning ulkan zahiralari mavjud bo'lsa-da, ulardan foydalanish hanuz o'zining boshlang'ich darajasida. Shu sababli, import o'rnini bosish strategiyasidan foydalanishda xorijiy ishlab chiqarish omillaridan (bu ayniqsa xorijiy ishlab chiqarish uskunalari va texnologiyalarini jalb qilishda yaqqol ko'zga tashlanadi) foydalanishni istisno qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari, proteksionistik choralarsiz import o'rnini bosishni qo'llashning dastlabki bosqichlarini amalga oshirishning imkoni yo'q. Bularga qo'shimcha ravishda, miqdoriy o'sishdan sifat ko'rsatkichlariga o'tib borishni ifoda etuvchi iqtisodiy qonunning ta'sirida import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o'sish keyinchalik intensiv tavsifga ega bo'lib boradi, deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishi-ning hozirgi bosqichida import hajmini qoplash darajasi bo'yicha qisman import o'rnini bosish maqbul hisoblansa, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish bo'yicha esa – birinchi darajali import o'rnini bosish o'rinli hisoblanadi. Bu iqtisodiy islohotlarning avval boshida kuzatilgan turg'unlik va ishlab chiqarish texnika-texnologiyalarining ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirganligi bilan izohlanadi. Bunday sharoitda ikkinchi darajali import o'rnini bosish haqida gapirish mantiqan o'rinli bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi sharoitida import o'rnini bosuvchi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish qishloq xo'jaligini intensiv, sanoatni esa asosan ekstensiv rivojlantirish hisobiga amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shu sababli, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida import o'rnini bosish strategiyasidan foydalanishda, xalqaro standartlarga javob beradigan va mahalliy tovarlarning raqobatbar-doshligini ta'minlashga xizmat qiluvchi eng yangi ishlab chiqarish uskunalari va texnologiyalaridan keng foydalanishni hisobga olish kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida bu haqda alohida to'xtalib o'tilgan: ” ... mamlakatimiz sanoati va infratuzilmalarini modernizatsiya

qilish va rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalar, ilg'or zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini faol jalb etish zarurdir... O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o'sish sur'atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatdoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuasini shakllantirishdan iborat. Strategik yo'nalish sanoatning eksportga yo'naltirilgan tarkibini vujudga keltirish va eksportda xom-ashyoga nisbatan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hisoblanadi”.

Uchinchidan, import o'rnini bosishga kompleks yondashish kengaytirilgan takror ishlab chiqarish hajmi va nisbatlarini belgilab beruvchi takror ishlab chiqarish funksiyasini rag'batlantirishga imkon beradi. Ayni paytda import o'rnini bosish orqali aholining o'sib borayotgan ehtiyojlari qondirilishini rag'batlantirgan holda, ishlab chiqarishni ko'paytirish borasida tegishli shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'kidlash joizki, import o'rnini bosishga kompleks yondashuv asosida takror ishlab chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yish orqali tabiiy va boshqa resurslarni jamiyat iste'mol qiladigan moddiy tovarlarga aylantirilishi ta'minlanadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy jihatdan kompleks import o'rnini bosishdan amaliyotda foydalanish aholi barcha qatlamlarining turmush darajasini oshirishni va moddiy farovonligini yaxshilashni anglatadi. Umuman olganda, import o'rnini bosishning kompleksligi odatda, yangicha sifatga ega bo'lgan iqtisodiy o'sishning ta'min etilishini ko'zda tutuvchi o'zining ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishning aholi turmush farovonligiga uzviy bog'liqligini va mazkur ikki jarayonni o'zaro muvofiqlashtirib borishni taqozo qiladi.

Bob bo'yicha xulosalar

Milliy iqtisodiyotning etarlicha rivojlanmaganligi sharoitida import o'rnini bosish strategiyasini amalga oshirish bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni,

xususan, ishsizlikni qisqartirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanmaslik, tabiiy va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, savdo sharoitlarini yaxshilash va milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

O'tish davri bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish hajmining etarlicha emasligi sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishning yagona va eng to'g'ri yo'nalishi - bu import o'rnini bosuvchi va mahalliyashtirish asoslangan sanoat siyosatini amalga oshirishdir. Ushbu siyosatni amalga oshirishni kechiktirish kerak emas, aksincha, davlat iqtisodiy siyosatning barcha tarkibiy qismlarini takomillashtirish orqali ushbu jarayonni yanada tezlashtirishi talab etiladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'z tabiatiga ko'ra, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishga asoslangan sanoat siyosati yaxlit ishlab chiqarish salohiyatidan to'laqonli foydalanishga tayanadi, asta-sekinlik bilan ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining yaxshilanishiga olib keladi.

Import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o'sishning asosi sifatida sanoat sektorining rivojini ta'minlash sanoat sohasida barcha turdagi tadbirkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Aynan tadbirkorlikning barcha shakllarini rivojlantirish va kengaytirish, band bo'lmagan mehnat resurslarini munosib ish o'rinlari bilan ta'minlashda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi. Bu o'rinda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish alohida o'rin tutadi.

Hozirgi rivojlanish bosqichining muhim vazifasi mamlakatdagi vaziyatga mos keladigan iqtisodiy o'sish modelini ishlab chiqishdir. Strategik maqsadlar nafaqat texnologik darajadagi mavjud bo'shliqni bartaraf etishga, balki iqtisodiy o'sishning yangicha sifatiga – innovatsiyaga o'tishga ham qaratilishi kerak.

Iqtisodiy o'sish muammolarini o'rganishda texnologik uklad tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Rossiyalik iqtisodchi S. Glazev tomonidan taklif qilingan sxemaga ko'ra, iqtisodiyotning rivojlanishi texnologik ukladlarning almashinishi orqali amalga oshadi.

Texnologik ukhad barqaror tuzilma hisoblangani holda, uning doirasida to'liq makroiqtisodiy tsikl amalga oshiriladi. Texnologik ukhadning yadrosi sifat xususiyatlari: texnik va muhandislik echimlari, ishlab chiqarishni tashkil etish tamoyillari va boshqalar o'xshash texnologik jarayonlar to'plamidir.

Glazev beshta texnologik ukhadni ajratib ko'rsatadi, ulardan uchasi industrial tipdagi tuzilmani tashkil qiladi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda beshinchi texnologikka o'tish jadal amalga oshmoqda. U o'tgan asrning 80-yillarining o'rtalarida shakllana boshlaydi, uni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ukhadi sifatida aniqlashtirish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning texnologik tartibga mos keladigan yangi turi paydo bo'lmoqda. Bu moddiy tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishga emas, balki axborot mahsulotlarini yaratish va iste'mol qilishga, shu jumladan moddiylashtirilgan shakldagi yuqori texnologiyali mahsulotlarni yaratishga asoslanadi. Demak, iqtisodiy o'sishning bu turi "xarajat-ishlab chiqarish" muammosi va iste'mol qilinadigan moddiy materiallar va energiya miqdori bilan emas, balki axborot iste'moli darajasi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy o'sishning innovatsion turi asosan endogen tavsifga ega bo'lib, unda bilim moddiy mahsulotni yaratadigan moddiy resurslar bilan birga yangi bilimlarni ishlab chiqaradi.

Innovatsion iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari innovatsiyalardir. Iqtisodiy o'sishning yangi turining qaror topishi institutsional muhitning faol ishtirokida sodir bo'ladi.

Informatsion iqtisodiyot turli xil "o'yin qoidalari", me'yorlar va qonunlar bilan tartibga solinadi. Institutlardagi o'zgarishlar iqtisodiyotning texnologik negizidagi siljishlar natijasida kelib chiqadi, bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati, xulq-atvori, motivatsiyasining o'zgarishiga olib keladi. Eng muhim institutsional omillardan biri bu inson kapitali sanaladi.


O'zbekistonda aksariyat iqtisodiyot tarmoqlarida uchinchi va to'rtinchi texnologik ukladlar salohiyati va imkoniyatlari to'lig'icha foydalanib bo'linganicha yo'q.

Beshinchi texnologik ukladning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi atigi 2 foizni tashkil qilgani holda, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda qariyb 40 foizni tashkil qiladi. Mamlakatimiz korxonalarining innovatsion faolligi juda past hisoblanadi.

Ilm-fan va ta'lim tizimining innovatsion salohiyatidan foydalanish darajasi juda past.

Uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga innovatsion faoliyatni rag'batlan-tirish tizimini yaratuvchi institutsional va tashkiliy yangiliklar orqali erishish mumkin. Institutsional muhitning o'zi nomukammal, shuning uchun yangi texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirish, xatarlarni kamaytirishga qaratilgan innovatsion jarayonlarga davlat aralashuvini kuchaytirish zarur.

Iqtisodiy agentlarning xatti-harakatlarining eng tipik xususiyatlarini aniqlash (agentlarni birlashtirish) va iqtisodiy bozorlar faoliyatining eng muhim shakllarini (bozorlarni birlashtirish) makroiqtisodiy munosabatlarni birlashtirishga, ya'ni makroiqtisodiy bozorlardagi makroiqtisodiy agentlarning hatti-harakatlarini o'rganishga imkon beradi. Bu mahsulot, xarajatlar va daromadlar tsikli modeli yordamida amalga oshiriladi (aylanma oqimlar modeli-model of circular flows). Dastlab, faqat ikkita makroiqtisodiy agentdan-uy xo'jaliklari va firmalardan va ikkita bozordan - tovarlar va xizmatlar bozori va iqtisodiy resurslar bozoridan iborat iqtisodiyotning ikki sektorli modelini ko'rib chiqamiz. Bu model 2-rasmda ko'rsatilgan.



9.2-rasm. Aylanma oqimlarning ikki sektorli modeli.

Uy xo'jaliklari tovarlar va xizmatlar sotib olish orqali tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlariga talab bildiradilar, firmalar esa bozorda taklifni ta'min etadilar. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun firmalar uy xo'jaliklari (iqtisodiy resurslarni taklif qiluvchilar) ga tegishli bo'lgan iqtisodiy resurslar - mehnat, yer, kapital va tadbirkorlik qobiliyatlarini (iqtisodiy resurslarga talab bildiradilar) sotib oladilar.

Moddiy oqimlar pul oqimlari vositasida amalga oshiriladi. Tovarlar va xizmatlarni sotib olayotganda, uy xo'jaliklari ular uchun haq to'laydilar, firmalarni savdo daromadlari bilan ta'minlaydilar, mazkur firmalar esa uy xo'jaliklariga omil daromadlari shaklida to'lovlarni amalga oshiradilar, shu jumladan: ish haqi - mehnat omili uchun; ijara - yer omili uchun; foiz - kapital omili uchun; foyda - tadbirkorlik qobiliyati omili uchun. Olingan uy xo'jaligi daromadi tovar va xizmatlar (yalpi mahsulot) sotib olishga sarflanadi.

Shunday qilib, daromad va xarajatlar aylanma bo'ylab harakatlanadi. Har bir iqtisodiy agentning daromadi sarflanib, boshqa iqtisodiy agentga daromad yaratadi, bu uning xarajatlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xarajatlarning ko'payishi daromadlarning ko'payishiga olib keladi va daromadning ko'payishi xarajatlarni

yanada oshirish uchun zarur shart bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun model oqimlarning aylanma modeli deb nomlandi. Moddiy oqimlar soat yo'nalishiga qarama-qarshi, pul oqimlari esa soat yo'nalishi bo'yicha harakatlanadi. Tovar va iqtisodiy resurslarga bo'lgan talab soat yo'nalishi bo'yicha, taklif esa soat yo'nalishiga qarshi yo'nalishda harakatlanadi.

Iqtisodiyotning ikki sektorli modelini tahlil qilishdan shunday xulosa kelib chiqadiki:


- har bir moddiy oqimning qiymati pul oqimining qiymatiga teng,
- umumiy mahsulot (ishlab chiqarish hajmi) qiymati umumiy (milliy) daromad qiymatiga teng,
- jami xarajatlar (jami talab) umumiy ishlab chiqarish (jami taklif)ga teng,
- jami daromad umumiy xarajatlarga teng.

Uy xo'jaliklari oqilona harakat qilishadi, shuning uchun ular barcha daromadlarini tovarlar va xizmatlarni sotib olishga sarflamaydilar. Ular daromadning bir qismini tejashadi, bunda jamg'arma (S) esa daromad keltirishi kerak. Boshqa tomondan, firmalar ishlab chiqarishni ta'minlash va kengaytirish uchun qo'shimcha mablag'larga, ya'ni kredit mablag'lariga muhtoj. Bu uy xo'jaligi jamg'armalari firmalarning investitsiya resurslariga aylanadigan moliya bozorining paydo bo'lishi zaruriyatini belgilaydi.

Bu ikki yo'l bilan sodir bo'ladi:

- 1) uy xo'jaliklari o'z jamg'armalarini firmalar qarz oladigan moliyaviy vositachilarga (birinchi navbatda banklarga) beradi,
- 2) uy xo'jaliklari o'z jamg'armalarini firmalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishga, ularni bevosita investitsiya resurslari bilan ta'minlashga sarflaydi.

Birinchi holda, uy xo'jaliklari va firmalar o'rtasidagi aloqa bilvosita - pul bozori orqali, ikkinchisida - to'g'ridan - to'g'ri-qimmatli qog'ozlar bozori orqali o'rnatiladi.



9.3-rasm. Moliya bozori ishtirokidagi aylanma oqimlarning ikki sektorli modeli.

Tovar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (C) firmalar tomonidan investitsiya xarajatlari (I) bilan to'ldiriladi. Jami daromadning umumiy mahsulotga tengligi saqlanib qoladi, shuning uchun makroiqtisodiyotda jami (milliy) daromad va jami mahsulot (ishlab chiqarish) Y - harfi bilan belgilanadi. Yalpi mahsulot qiymati umumiy xarajatlar (E) yig'indisiga teng bo'ladi.

Iqtisodiyotning ikki sektorli modelidagi umumiy xarajatlar uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol xarajatlari (C) va firmalar tomonidan investitsiya xarajatlari (I); jami daromad esa - iste'mol (C) va jamg'arma (S) dan iborat.

Umumiy xarajatlar (E) umumiy daromadga (Y) teng bo'lgani uchun, investitsiyalar jamg'armalarga teng.

Investitsiyalar va jamg'armalar iqtisodiyotda turlicha ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar iqtisodiyotga in'ektsiya (injections), tejash esa iqtisodiyotdan olinmalarni (leakages) ifoda etadi. In'ektsiyalar-bu xarajatlarga shu bilan birgalikda daromad oqimini oshiradigan barcha narsalarni ifoda etadi, ta'kidlash lozimki, iste'mol xarajatlari in'ektsiyalarga ham olinmalarga ham tegishli bo'lmaydi. Olinmalar-bu xarajatlar va daromadlar oqimini kamaytiradigan hamma narsa. Investitsiyalarning o'sishi yalpi xarajatlarni (jami talabni) oshiradi, ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha daromad beradi va yalpi mahsulot (ishlab chiqarish) ni oshirishga rag'bat bo'lib xizmat qiladi. Jamg'armalarning ko'payishi umumiy xarajatlarni kamaytiradi va ishlab chiqarishning qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Muvozanat iqtisodiyotida in'ektsiyalar olinmalar bilan bir xil qiymatga ega bo'ladi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. A. Lyuisning ikki sektorli modeli haqida tushuncha bering?
2. Qishloq xo'jaligi sektori va uning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
3. Iqtisodiyotning kapitalistik sektori va uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida tushuncha bering?

Referat mavzulari:

1. Ikki sektorli iqtisodiy o'sish modeli.
2. Qishloq xo'jaligi iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning ustivor yo'nalishlari.
3. Iqtisodiyotning sanoat sektori taraqqiyoti.
4. Sanoatlashtirish siyosati va uning o'ziga xos jihatlari.

Mushohada uchun:

Yaponiyada 2021 yilda tug'ilishlar soni rekord darajada kam bo'ldi. Natijada aholi sonining tabiiy qisqarishi bo'yicha ham antirekord qayd etildi.

O'tgan yili mamlakatda 812 mingga yaqin chaqaloq tug'ildi. Bu ko'rsatkich 1899 yildan beri eng kam tug'ilish bo'ldi. Bir yillik o'lim soni esa qariyb 1 mln 440 mingni tashkil qildi. Bu esa mamlakat aholisi o'sish o'rniga kamayganini anglatadi.

Yaponiya dunyoning eng tez qariyotgan mamlakati hisoblanadi. Aholisining 30 foizini 65 yoshdan oshganlar tashkil qiladi.

Mehnatga layoqatli aholi soni kamayishi koronavirus pandemiyasi sabab yanada tezlashgan. Bu esa mehnat bozori qisqarishiga olib kelishi bilan ham xavotirli.

Yaponiyada erkaklar asosiy diqqat-e'tiborini kasbiy muvaffaqiyatlarga qaratishmoqda. Oqibatda esa oila qurish ikkinchi darajali bo'lib qolyapti. Shuning uchun nikohlar soni ham kamayib boryapti.

O'tgan yili ketma-ket ikkinchi marta nikohlar soni kamayib, 501,1 mingga tushib qolgan. Nikohlar soni qisqarishi pandemiya yillariga to'g'ri kelmoqda. "Agar yoshlar oila qurishmasa yoki buni xohlashmasa, tug'ilish soni kamayib boraveradi", deydi Yapon tadqiqot instituti tahlilchisi Takumi Fujinami.

Qolaversa, oxirgi yarim asrda Yaponiyada oliy ma'lumotli ayollar soni ham oshgan. Cho'ntakbop narxda bola parvarishi bilan shug'ullanadigan xizmatchilarni topish qiyin. Yapon jamiyatida ham ayollar erkaklarga qaraganda uy ishlariga ko'proq mas'ul ekani haqidagi qarashlar saqlangan, shunday sharoitda ko'plab ayollar kareraga ko'proq e'tibor qaratish uchun onalikdan voz kechyapti.

Yaponiya tug'ilish kamayib borayotgan yagona sharq davlati emas. Janubiy Koreya, Xitoy, Tayvan, Singapurda ham tug'ilish ko'rsatkichlari yuqori emas. Bu erdagi chaqaloqlar tug'ilishi kamligiga ham oila qurish istagi yuqori emasligi, maktab ta'limi qimmatligi kabilar sabab.

AQShdagi Tesla kompaniyasi asoschisi Ilon Mask yaqinda Twitter'da Yaponiyadagi demografik trendlar o'zgarib, mamlakat "bora-bora yo'q bo'lib ketishi"ni yozdi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda bahslarga sabab bo'ldi.

Sharhlovchilar Yaponiya yo'q bo'lib ketmasligini, biroq mamlakat kelajagi ko'proq chet eldan keluvchi migrantlarga bog'liq bo'lib qolishi mumkinligini yozishgan.

Yaponiyaning migratsiya siyosati qattiq. Mamlakat kamdan kam hollarda qochqin maqomini beradi. Migratsiya mavzusi o'nlab yillar davomida siyosiy tabu bo'lib kelgan. Chet elliklar oqimi etnik bir xillik va madaniyatni susaytiradi, degan fikrlar bor.

Lekin migratsiya siyosatini yumshatuvchi qarorlar qabul qilish ham boshlangan. 2019 yilda xitoylik ishchi alohida malakaga ega bo'lgani uchun viza olgan birinchi xorijlik sifatida qayd etilgan hamda uning rafiqasi va o'g'liga ham Yaponiyada yashashga ruxsat berilgan. Hozir hukumat qurilish va kemasozlikdan tashqari kadrlar etishmayotgan boshqa sohalar uchun ham qoidalarni yumshatishni rejalashtirmoqda. Natijada ko'proq sonli xorijliklar rezidentlik huquqini ola oladi.

Yaponiyaning uzoq muddatli prognozlarini ko'rsatilgan "yuqori o'sish" stsenariysiga ko'ra, o'rtacha yillik iqtisodiy o'sishni 1,24 foiz ushlab turish uchun 2040 yilga borib xorijlik ishchilar sonini 6,74 mlnga ko'paytirishi kerak. Bu ayni paytda Yaponiyada mavjud 1,72 mln chet ellik ishchidan 300 foizga ko'proq.

Eng tez qarib borayotgan davlat – Yaponiyada nega buncha kam chaqaloq tug'ilyapti?

Yaponiyada o'tgan yili tug'ilish ko'rsatkichi rekord darajada past bo'ldi. Kunchiqar yurt dunyoning eng tez qarib borayotgan mamlakati hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan barqaror Yaponiyadek davlatda odamlarning farzandli bo'lishni xohlamasligiga sabab nima?

Masalalar:

1. Iste'mol quyidagi funktsiya bilan berilgan: $S = 1000 + 0,8u^v$ (u^v - tasarrufdagi milliy daromad), investitsiyalar 2000 shartli birlik, sof eksport – 300 shartli birlik. Agar yaratilgan milliy daromad 10000 shartli birlikni tashkil qilsa, soliqlar davlat xarajatlariga teng bo'lsa va 1200 shartli birlikka teng bo'lsa, iqtisodiyotdagi yalpi talab hajmini toping.

Yechish usuli: Yalpi talab quyidagi formula bilan aniqlanadi: $AD = \text{Iste'mol xarajatlari} + \text{Biznesning yalpi investitsion xarajatlari} + \text{Tovar va xizmatlarning davlat xaridlari} + \text{Tovar va xizmatlarning sof eksporti} = S + Inv + G + X_n$.

Iste'molni topish uchun, dastlab tasarrufdagi milliy daromadni aniqlashtirish lozim. Buning uchun milliy daromadni soliqlardan "tozalaymiz": $10\ 000 - 1200 = 8800$.

Olingan qiymatlarni AD formulasiga qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$AD = (1000 + 0,8 * 8800) S + 2000Inv + 1200G + 300X_n = 11\ 540.$$

2. Iste'mol quyidagi funktsiya bilan berilgan: $S = 2000 + 0,75U^v$ (U^v - tasarrufdagi milliy daromad), investitsiyalar 5200 shartli birlik, sof eksport-700 shartli birlik, tovar va xizmatlarning davlat xaridlari $0,15U$ ni tashkil qiladi. Agar yaratilgan milli daromad 30000 shartli birlikni tashkil qilsa, soliqlar 7500 shartli birlikka teng bo'lsa, iqtisodiyotdagi yalpi talab hajini aniqlashtiring?

Yechish usuli: Dastlab, biz tasarrufdagi milliy daromadni aniqlaymiz, buning uchun iqtisodiyotda yaratilgan milliy daromadni soliqlardan "tozalaymiz": $30000 - 7500 = 22500$. Natijada, iste'mol funksiyasi quyidagi formula orqali ifodalanadi: $C = 5000 + 0,75 * 22\ 500$. Demak, iste'mol 21875 shartli birlikka teng bo'ladi. Shundan so'ng, YaIMga davlat xarajatlarini aniqlashimiz mumkin: $0,15 * 30000 = 4500$ shartli birlik.

Olinga natijalarni AD formulasiga qo'yamiz: $AD = \text{Iste'mol xarajatlari} + \text{Biznesning yalpi investitsiya xarajatlari} + \text{Tovar va xizmatlarning davlat xaridi} + \text{Tovar va xizmatlarning sof eksporti} = S + Inv + G + X_n = 21875S + 5200Inv + 4500G + 700X_n = 32\ 275$.

3. Iste'mol funksiyasi berilgan: $C = 60 + 0,85U$ (S – uy xo'jaliklarining iste'moli, U – milliy daromad). Jamg'arish funksiyasini keltirib chiqaring, agar milliy daromad 500 birlikka teng bo'lsa, jamg'armalar hajmi qanchaga teng bo'ladi?

Yechish usuli: Jamg'arish funksiyasini keltirib chiqarish uchun milliy daromaddan iste'mol funksiyasini ayirish talab qilinadi: $S = U - C = U - (60 + 0,85U) = 0,15U - 60$. Olingan natijani formulaga qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz: $S = 0,15 * 500 - 60 = 15$.

Masalani boshqa yo'l bilan ham hal qilish mumkin: avval biz iste'mol hajmini aniqlashimiz kerak; buning uchun biz milliy daromad qiymatini iste'mol funksiyasiga qo'yyamiz: $C = 60 + 0,85 * 500 = 485$ shartli birlik. Shundan so'ng, milliy daromaddan iste'molni ayiramiz: $500 - 485 = 15$ shartli birlik. Bu qiymat jamg'armalarni tashkil qiladi.

4. Jamg'arish funksiyasi quyidagi ko'rinishda: $S = 0,2U - 100$. Investitsiyalar 300 shartli birlikka teng. Muvozanatli milliy daromad hajmini aniqlang?

Yechish usuli: Muvozanatli milliy ishlab chiqarish sharoitida quyidagi tenglik bajariladi: jamg'armalar investitsiyalarga teng. Qiymatlarni formulaga qo'yib quyidagi natijaga ega bo'lamiz:

$S = Inv; 0,2U - 100 = 300$, bundan $U = 2000$ shartli birlik.

Keys: Jahon banki O'zbekiston uchun 2022 yilning aprel oyida "The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan" diagnostik hisobotini e'lon qildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylanganidan bir necha oy o'tib, O'zbekistonni o'zgartirishga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar dasturi e'lon qilindi. Statizm va nisbiy yopiqlik siyosatidan voz kechgani holda, mamlakat va uning xalqi ochiqlik va xalqaro hamkorlikning yangi davriga kirdi. Islohotlarning dastlabki bosqichida aksariyat narxlar erkinlashtirildi, biznes va savdoni qat'iy tartibga solish bartaraf qilindi, shaxsiy tanlov va iqtisodiy erkinlikni cheklaydigan siyosat yumshatildi. Bir so'z bilan aytganda, fuqarolar iqtisodiy imkoniyatlari va erkinliklari kengayganini amalda his qila boshladilar.

Besh yil ichida keng ko'lamli islohotlar dasturi iqtisodiyot, jamiyat va davlat sektorining deyarli barcha sohalarga ta'sir ko'rsatdi. Garchi O'zbekistonni o'zgartirish hali erta bosqichda bo'lsa-da, quyidagi olti natija mamlakatning rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi quvonarli natijalarni ta'kidlaydi.

1. Eski model doirasida e'tibor qaratilmagan sektorlar hisobiga katta va yanada barqaror iqtisodiy o'sishning ta'minlanishi. COVID-19 pandemiyasiga bo'lgan muddatda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'rtacha sur'atlari 2017 yilgacha bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga qaraganda bir muncha past bo'lgan bo'lsada, eski iqtisodiy modelda e'tibordan chetda qoldirilgan iqtisodiyot sektorlari o'sish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Meva-sabzavot mahsulotlar ishlab chiqarishni erkinlashtirish va eksport qilishni kengaytirishga qaratilgan islohotlarning ta'siri natijasida qishloq xo'jaligi sektori qaytadan o'zini tiklay boshladi, buning natijasida 2020 yilda yalpi ishlab chiqarishning qariyb uchdan bir qismi qishloq xo'jaligi ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, mehnatda bandlarning to'rtidan bir qismi mazkur sohada band bo'lgan. 2019 yilda meva-sabzavot mahsulotlarining eksporti o'zining eng yuqori darajasiga etdi va 1,1 milliard AQSh dollaridan ziyodroqni tashkil qildi. Pandemiya tufayli 2020 yilda eksport qiymati qisqargan bo'lsada, qishloq xo'jaligining barqaror o'sishi evaziga mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari 1,6 foizga ta'minlandi. Ayni paytda, 2020 yilda dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari keskin pasayganligini ta'kidlashimiz lozim. Xuddi shunga o'xshash manzaralar turizm sohasida ham kuzatildi, ushbu o'rinda 2019 yilda viza rejimi keng miqyosda liberallashtirilganidan so'ng, rekord darajadagi sayyohlar ro'yxatga olindi. Turizm eksporti 2016 yildan 2019 yilgacha bo'lgan muddatda qariyb 50 foizga o'sdi va pandemiyagacha bo'lgan umumiy eksport hajmining 10 foizga yaqin qismini tashkil qildi. Pandemiya so'ng turizm keskin pasaygan bo'lsa-da, 2022-23 yillarda global turistik oqimlarning tiklanishi asnosida O'zbekistonda turizm sohasining yana jonlanishi kutilmoqda.

2. Qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligi o'sishini tiklash va ish o'rinlarini yaratish. O'zbekistonda oziq-ovqat va ichimliklar sanoati, shuningdek, to'qimachilik, kiyim-kechak va charm sanoati kabi ko'plab mehnat talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlari O'zbekistonning xalqaro savdodagi hozirgi raqobatbardosh ustunligini namoyish etadi. Ammo ushbu sohalarda, 1996 yildan 2016 yilgacha bandlik va yangi ish o'rinlarini yaratish sezilarli darajada kamaydi, bu o'z navbatida qat'iy savdo qoidalari va sanoat siyosati natijasida ko'proq kapital talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlarini afzal ko'rish natijasi hisoblanadi. Savdo, investitsiya, tartibga solish va mehnat bozori cheklovlarini bartaraf etish ushbu tendentsiyani o'zgartirdi: 2017 yildan boshlab yangi ish o'rinlari yaratish va mehnat unumdorligi oshishi kuzatila boshlandi.

3. Xususiy sektorning ijobiy ta'siri. Xususiy sektorda narxlarni, (ichki va tashqi) savdo va biznes sharoitlarini erkinlashtirish bo'yicha islohotlar yangi korxonalarni, shu jumladan o'z vaqtida litsenziyalashning murakkab shartlari bilan rivojlanishi to'sib qo'yilgan ulgurji savdo kabi sohalarda ro'yxatdan o'tishlar sonining keskin ko'payishiga yordam berdi. Firma ko'lamli va ish bilan ta'minlashdagi to'siqlarni bartaraf etish maqsadida soliq tizimining qayta ko'rib

chiqilishi, shuningdek, aylanmadan soliqqa tortishdan foyda solig'iga o'tish ham yangi korxonalar soni va soliq to'lovchilarni ro'yxatga olishning rekord darajada o'sishiga yordam berdi. Yangi firmalarni ro'yxatdan o'tkazish ham, soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish ham 2019 yilda rekord darajaga etdi va 2021 yilda yuqori darajada o'sdi. Davlat korxonalarini isloh qilishdagi taraqqiyot bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo'lsa-da, davlat ishlab chiqarishining qisqarishi tufayli xususiy sektor uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud. 600 ga yaqin kichik va o'rta davlat korxonalari 2019 yilda boshlangan tizimli chora-tadbirlar natijasida kmi oshdi savdolari orqali sotildi yoki tugatildi.

4. Moliyaviy bozorlaridagi xatoliklarni tuzatish. Islohotning dastlabki yillarida narxlarni nazorat qilish va savdo cheklovlarining aksariyati bekor qilingan bo'lsa-da, moliyaviy resurslarni taqsimlash hali ham rasmiy chegirma stavkasidan ancha past bo'lgan foiz stavkalari bo'yicha davlat tomonidan kreditlash orqali amalga oshirilib kelinar edi. Ajratmalarning aksariyati ustuvor tarmoqlarda davlat korxonalari va xususiy sektor korxonalariga ajratilganligi sababli, ushbu yondashuv umuman iqtisodiyotda rasmiy moliyalashtirish kanallariga kirish va inflyatsiyani cheklashda pul-kredit siyosati samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq, o'shandan beri deyarli barcha imtiyozli kreditlashni tugatishga qaratilgan islohotlar muammoli imtiyozli kreditlar ulushini davlat tijorat banklari kreditlari umumiy hajmining 78 foizidan 41 foizigacha kamaytirdi. Bank moliyaviy ajratmalarining samaradorligini oshirishdan tashqari, imtiyozli kreditlashning pasayishi pul-kredit siyosatining uzatilishini yaxshiladi va inflyatsiyaning barqaror pasayishiga yordam berdi, buning natijasida 2017 yildan boshlangan narxlarni erkinlashtirish siyosatining natijasi o'laroq, inflyatsiya darajasi ilk bor 2022 yilda bir xonali songacha tushdi.

5. Ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligi. Ochiq ma'lumotlar va moliyaviy shaffoflik sohasidagi islohotlar O'zbekistondagi o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash borasida eng muhim qadamlardan biri bo'ldi. 2017 yilda O'zbekiston XVJning umumiy ma'lumotlarni tarqatish standartiga (GDDS) qo'shildi va ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligini oshirish bo'yicha o'zining katta rejalarini e'lon qildi. O'shandan beri statistik ma'lumotlarning mavjudligini yaxshilashda sezilarli yutuqlarga erishildi va deyarli barcha davlat idoralari doimiy ravishda ma'lumot berish uchun yangi tashkil etilgan hukumatning ochiq ma'lumotlar portaliga ma'lumotlarni joylaydilar. Ma'lumotlarning yaxshilanishi qashshoqlik ko'rsatkichlarini modernizatsiya qilish, ijtimoiy dasturlarni yoritish bo'yicha ma'lumotlarni kengaytirish va birinchi navbatda moliyaviy shaffoflik islohotlari kabi boshqa yirik islohotlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2018 yilda davlat xarajatlarining yarmidan ko'pi byudjetdan tashqari-o'n minglab byudjetdan tashqari hisobvaraqlar va maxsus fondlar (shu jumladan milliy farovonlik jamg'armasi) orqali amalga oshirildi. 2022 yilga kelib barcha byudjetdan tashqari xarajatlar hukumatning parlament tomonidan tasdiqlangan yillik byudjetida to'liq birlashtirildi. Qarz ma'lumotlarining shaffofligini oshirish hukumat uchun 2019 yilda belgilangan yangi davlat qarzining yillik nominal miqdorini o'rnatdi va bugungi kunda ushbu ko'rsatkichga amal qilishga intilib kelmoqda.

6. Inklyuzivlikning yuqori darajasi. Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va ijtimoiy ko'makka muhtoj uy xo'jaliklarini o'tish davri silkinishlaridan himoya qilishga islohotlar strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaraldi. 2019 yilda hukumat ichki migratsiya borasida jiddiy cheklov bo'lib kelgan propiska tizimiga barham berdi, buning natijasi o'laroq, mamlakat fuqarolari butun mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Soliq islohotlarining amalga oshirilishi natijasida norasmiy yollanib ishlayotgan fuqarolar rasmiy mehnat shartnomalari orqali ishlash va pensiya hisoblash uchun ish stajiga ega bo'lish imkoniyatidan keng foydalana boshladilar. Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lgan O'zbekistonda oliy ta'limni qamrab olish darajasi 2017 yildan boshlab keskin o'sish tendentsiyasiga ega bo'ldi va bu tendentsiya bugungi kunda ham davom etmoqda. Xotin-qizlar uchun teng imkoniyatlar va teng haq to'lashni ta'minlash, jinsiy zo'ravonlikni kamaytirish va nogironlarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar ham

iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish uchun yanada qulay institutsional sharoitlarni yaratishga yordam berdi.

Kelgusi besh yilga nazar tashlaydigan bo'lsak, hukumat 2030-yilga kelib qashshoqlikni ikki baravar kamaytirish va O'zbekistonni o'rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar safiga olib chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu aholi jon boshiga real milliy daromadni yiliga 9-10 foizga o'sishini talab qiladigan ulkan reja ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

So'nggi 30 yil ichida O'zbekistonda iqtisodiy o'zgarishlar sekin-asta rivojlandi. Rejali iqtisodiyot davrida mavjud bo'lgan institutlardan atigi bir necha institutlar o'zgarishga uchragan. Iqtisodiy faoliyatning muhim qismi hali ham markazlashgan davlat muassasalari tomonidan boshqariladi. Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish hali ham o'zining dastlabki bosqichida. Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulushi 2020 yilda YaIMning 26 foizini tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng katta ko'rsatkichni tashkil qiladi. Ko'pgina rivojlangan iqtisodiyotlarda farovonlik vositasi bo'lgan xizmatlarning ulushi dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri va mintaqadagi boshqa barcha mamlakatlarning ko'rsatkichlaridan ham pastroqdir. O'zbekiston shaharlari boshqa mamlakatlardagi o'xshash shaharlarga nisbatan, ichki mehnat harakatchanligi sur'atlarining dunyo ko'rsatkichlaridan pastligi, urbanizatsiya darajasining sekinlashishi sababli aholi soni va mahsuldorlik jihatdan maqbullik talablariga javob bermaydi. Umuman olganda, O'zbekistonning to'laqonli bozorga o'tishi, mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan o'zgartirishning yakunlanishi haqida gapirishga hali juda erta.

Mamlakatda islohotlarning dastlabki bosqichi Sharqiy Yevropa va Sharqiy Osiyodagi islohotchilarning islohotlarni amalga oshirish borasida amalga oshirgan chora-tadbirlariga rioya qilingan holda amalga oshirildi. Ushbu holatda hukumatlar narx va savdoni erkinlashtirdilar, shu bilan birga barqaror moliyaviy bozorlar, raqobat va shaffof davlat moliyasi uchun huquqiy asos yaratdilar. O'zbekistonda ishlab chiqarish bozorlarini tarkibiy jihatdan qayta qurish, xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirishda jiddiy islohotlarni amalga oshirish talab qilinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatiladi, amalda ko'zlangan natijaga erishish masalasi yoritilmasdan qoladi. Shu bois, hukumat va manfaatdor tomonlar yanada murakkab va keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga kirishganlarida yakuniy natijaga ko'proq e'tibor qaratishlari talab qilinadi.

Kam ta'minlangan aholi toifasini aniqlashtirish borasidagi rasmiy milliy ta'rifdan foydalangan holda aytish mumkinki, mamlakatda qashshoqlik darajasi 2000 yilda 28 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019 yilda 11 foizgacha qisqargan. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, 2018 yilga kelib, mamlakatda qashshoqlikning eng ekstremal shakllariga deyarli barham berildi. Shu bilan bir qatorda, o'rtachadan past daromadli mamlakatlar uchun xos bo'lgan kamabag'allik darajasining chegaraviy ko'rsatkichi mazkur yilda 9,5 foizni tashkil qilgan. Hozirgi kunda o'ta qashshoqlik kamdan-kam holatlarda uchrasada, mamlakatda o'sishning yuqori sur'atlarini hisobga olgan holda, so'nggi o'n yil ichida farovonlikning yuqori standartlariga erishish yo'lidagi taraqqiyot bir muncha sekinlashganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston bilan o'xshash mamlakatlar guruhida milliy kambag'allik chegarasidan quyida yashovchilar soni odatda aholi jon boshiga YaIMning har bir foiz o'sishi sharoitida taxminan 3,3 foizgacha kamayadi. O'zbekistonda 2009 -2014 yillar oralig'ida past daromadli aholi ulushi salkam ikki martaga qisqargan bo'lsa, past daromadli aholi ulushining qisqarish ko'rsatkichi 2015-2019 yillar davomida atigi 1,1 foizni tashkil qilgan. Aholi daromadlarining o'sishi 2017 yildan boshlab tezlashgan bo'lsada, bunday o'sish ko'proq, yuqori daromadga ega bo'lgan aholi daromadlariga tegishli bo'lganligini ta'kidlash lozim. Mamlakatda iqtisodiy o'sish qashshoqlikni kamaytirishda o'z samarasini muttasil tarzda yo'qotmoqda.

So'nggi yigirma yil ichida O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning afzalliklaridan etarlicha foydalanilmasdan kelinmoqda. Bandlik va mehnatga haq to'lash darajasining sekin o'sishi iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. 2010 yildan beri iqtisodiy o'sishning uchdan ikki qismi asosiy kapitalni ko'paytirish, oltin va tabiiy gaz kabi tabiiy

resurslarni eksport qilish isobiga ta'minlanmoqda. Ushbu davrda har bir xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi 50 foizga oshgan bo'lsa-da, bu o'sishning deyarli barchasi tog'-kon sanoati va sanoatga to'g'ri keladi. Yigirma yildan ko'proq vaqt davomida mehnatda band bo'lganlarning asosiy qismi faoliyat ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda unumdorlikning o'sishi Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada pasayib ketdi. 2017 yilda ishchi kuchining milliy daromadidagi ulushi atigi 41 foizni tashkil etdi, bu mintqa bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 55 foizdan ancha past va katta ehtimol bilan yana pasayishi kutiladi. Yangi ish o'rinlarini yaratishning samaradorligi ahamiyatsiz darajada bo'lib qolmoqda, xususan 2010 yildan 2019 yilgacha bo'lgan davrda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot o'sishining atigi 6 foizi yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan xolos. 2010 yildan 2018 yilgacha bo'lgan muddatda ish bilan bandlikning 1 foizga o'sishi YaIMning 5 foizga o'sishini talab qilganligini ko'rishimiz mumkin, bu o'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichidan qariyb ikki barobarga ko'pdir. 2018 yilda yillik ish o'rinlarini yaratish ishchi kuchining o'sishidan 200000 mingtaga kam bo'lgan bo'lsa, va 2020 yilda rasmiy ishsizlik darajasi 10,5 foizni tashkil qildi, bu COVID-19 pandemiyasidan oldingi 2019 yildagiga qaraganda 1,5 foizga ko'pdir. Ushbu muammolarni yanada inklyuziv o'sish modeli orqali hal qilish mamlakatning rivojlanish maqsadlariga erishishi borasida juda muhimdir.

Mabodo, O'zbekiston 2030 yilga kelib o'rtacha daromaddan yuqori mamlakatlar qatoriga kirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, u holda aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi yiliga o'rtacha 10 foizni tashkil qilishi lozim. Keyingi besh yil mobaynida qashshoqlikni teng yarmiga kamaytirish ish o'rinlarini tezroq yaratishni va ayniqsa yoshlar, ayollar va nogironlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. Ammo ish o'rinlarini yaratish sur'atlari ko'p jihatdan resurslardan yanada samaraliroq va barqaror foydalanish maqsadida ularni qayta taqsimlashga bog'liqdir. Bu o'z navbatida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash, xususiy sektorni jadal rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bundan tashqari, hukumatdan inson kapitaliga, kuchli ijtimoiy himoya tizimiga va yashil o'sish modeliga izchil tarzda sarmoq kiritish talab qilinadi. Ushbu jihatdan olganda, Jahon banki quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni jadallashtirishni tavsiya qiladi: xususiy sektorning bozor o'zgarishlariga ta'sirini qo'llab-quvvatlash, bozorlarni rivojlantirish, inson kapitaliga investitsiya kiritish va barqaror kelajak va farovonlikni ta'minlash borasida davlatning o'rni va ahamiyatini kuchaytirish ()).

O'zbekistonda qiyosiy ustunlik sohasida xususiy sektor raqobatidan himoyalangan davlat korxonalarini ustunlik qiladi. Me'yoriy-huquqiy bazaning etarlicha talabga javob bermasligi o'sish borasida yangi imkoniyatlar izlab topish va ularni ishga solishga to'sqinlik qiladi. Yaqin vaqtgacha xususiy sektor ishlab chiqarishning zarur omillari, shu jumladan yer, mehnat va kapitaldan foydalanish borasidagi imkoniyatlari sezilarli darajada cheklangan edi. Davlat nomutanosib ravishda investitsiyalarni ish o'rinlarini yaratuvchi, tez sur'atlarda o'suvchi, ammo shu bilan bir qatorda samaradorligi bir muncha past sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi davlat korxonalariga investitsiyalar kiritadi, ayni chog'da yer va mehnat resurslaridan maqsadga ko'ra fodalani olmaydi. Bularning barchai xususiy sektor uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqaradi. Mintaqalar va daromad guruhlari bo'yicha o'xshash ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mamlakatlar o'rtasida O'zbekistonda yangi firmalar tashkil etish darajasi eng past sanaladi; ishsizlik darajasi yuqori; xususiy firmalar aksariyat hollarda kengayish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolmoqda. O'sish borasida ushbu to'siqlarni olib tashlash davlat korxonalarini sonini sezilarli darajada kamaytirishni, davlat korxonalarini boshqarishni takomillashtirishni va davlat korxonalarining bozor raqobatiga ta'sirini kamaytirishni talab qiladi. Buning uchun bozordagi kemtiklar, korxonalar va odamlar ehtiyojlarini qondirmaydigan davlat investitsiyalari natijasida yuzaga keladigan infratuzilma bo'shliqlarini bartaraf etish talab etiladi. Davlat boshchiligidagi model o'rniga xususiy sektor hisobidan o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan "yashil" texnologiyalarga

o'tish, shuningdek qishloq xo'jaligida hosildorlikni jadal o'stirish kabi ustuvor yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi.

Davlat sektoriga nisbatan aholining ishonchi juda yuqori. Bu davlat uchun biznes, ishchilar va iste'molchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'z rolini o'zgartirish uchun mustahkam asosdir. Ammo tartibga solishning haddan tashqari kuchliligi xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining hatti-harakatlarini keskin cheklaydi. Natijada, mamlakat qonun ustuvorligi va bozor institutlari sifatini ta'minlashda tengdoshlaridan bir muncha orqada qolmoqda. Markazlashtirilgan boshqaruv mahalliy darajada hisobdorlikni pasaytiradi va fuqarolarning rivojlanish jarayonida ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi. Soliq va tartibga solishning notekis yuki iqtisodiy o'sishni to'xtatadi, ishchilarni og'ir ahvolga solib qo'yadi, yirik va samarali xususiy sektorning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Shunday qilib, o'tish davri xususiy sektorda raqobatbardosh va inklyuziv o'sishni ta'minlash uchun davlat va byudjet resurslarining tartibga soluvchi vakolatlarini yo'naltirish imkoniyatini beradi. O'tish davri shaffof, hisobdor va dalillarga asoslangan siyosat yuritishni, shuningdek, fuqarolar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining keng ishtirokini talab qiladi.

Uzoq muddatli farovonlik nafaqat qo'shimcha ish o'rinlari yaratadigan, balki yuqori darajadagi kasblarda ham samaradorlikni oshiruvchi tarkibiy o'zgarishlarni talab qiladi. O'zbekiston yanada gullab — yashnashi va iqtisodiyoti murakkablashishi bilan mamlakat inson kapitaliga — odamlar hayoti davomida to'plangan bilim, ko'nikma va sog'liqqa tobora ko'proq tayanadi va o'sishni rag'batlantiradi. Shunga qaramay, bugungi kunda O'zbekistonda tug'ilgan bola o'z inson kapitali salohiyatining faqatgina 62 foizidan foydalanishga erishishini kutishimiz mumkin. Bo'shliqni yopish iqtisodiy o'sishni jamiyatning eng kambag'al va eng izolyatsiya qilingan a'zolari orasida adolatli daromad o'sishiga aylantirishga e'tibor qaratish orqali salohiyatni oshirish va iqtisodiyotda ishtirok etishni talab qiladi. O'zbekistonning barcha hududlarida - yuqori sifatli ta'lim, samarali sog'liqni saqlash va ishonchli ijtimoiy himoya orqali odamlarga sarmoya kiritish aholining imkoniyatlardan to'liq foydalana olishini ta'minlashi zarur.

O'zbekiston dunyoda suv resurslari va tabiiy gazga eng ko'p qaram bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakat iqlim o'zgarishiga juda sezgir. Shunga qaramay, O'zbekiston suv va energiya iste'moli borasida dunyo iste'molchilari orasida eng samarasiz iste'molchilar hisoblanadi. Asosan samarasiz davlat boshqaruvi tufayli qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishga ko'rsatkichlari qayta tiklanadigan resurslar umumiy hajmining 90 foizidan ortiqni tashkil qiladi. Tabiiy gazdan samarasiz foydalanish chiqindilarni ko'paytiradi va bitta avlod davomida mavjud resurslarning kamayish xavfini keltirib chiqaradi. 2016 yilda o'lchanganida yer maydonlarining keng ko'lamliligi degradatsiyasi YaIMning 4 foiziga teng bo'lgan yo'qotishlarga olib kelishi aniqlangan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, "yashil texnologiyalar"dan keng foydalanishga o'tishning kechikishi mamlakatga qimmatga tushishi va uni qimmatli eksport bozorlaridan mahrum qilishi hech gap emas. Raqobatning kuchayishi va xususiy sektorning ishtiroki resurslardan foydalanish intensivligini kamaytirish, o'tish davrida investitsiyalarni moliyalashtirish va iqlim sharoitlarini hisobga oladigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun muhim bo'lgan unumdorlikni oshirishning asosiy omillari hisoblanadi.

Inklyuziv o'tish jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan kelishilgan hatti-harakatlarni talab qiladi. Ammo davlat o'tishni rag'batlantirish va ta'minlashda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bir nechta asosiy sohalarida davlat bozorning yanada samarali muqobillari foydasiga, ayniqsa resurslarni ishlab chiqarish va taqsimlashda to'g'ridan-to'g'ri aralashuvdan voz kechishi kerak. Kuchli bozor institutlari va sifatni tartibga solish vositalari xususiy sektorning paydo bo'lishi va ravnaq topishining garovi hisoblanadi. Davlat "yashil texnologiyalar", inson kapitali, davlat xizmatlari, ijtimoiy himoya kabi muhim va ustivor soha va tarmoqlarga faol tarzda investitsiya mablag'larini yo'naltirishi lozim.

Zamonaviy dunyodagi deyarli har bir yuqori daromadli mamlakatning rivojlanish traektoriyasi unumli va maqbul darajada foydalanish borasida ishlab chiqarish omillarini

samarali qayta taqsimlash holatiga bog'liq. Bunday taqsimotni amalga oshirishda bozorlarning o'rni beqiyos. Ammo O'zbekistonda bozor mexanizmlaridan ko'ra davlatning markazlashgan qarorlari hali ko'p jihatdan resurslarning iqtisodiyotda qanday taqsimlanishi va ishlatilishini belgilab beradi. O'zbekistonda yer ajratish bo'yicha deyarli barcha qarorlar hali ham davlat organlari tomonidan qabul qilinmoqda. Rasmiy biznesga yuqori soliqlar, mehnat harakatchanligi, malakasi va ish haqini belgilashni qat'iy tartibga solish bilan birgalikda bandlik o'sishini sekinlashtiradi va norasmiy sektorning o'sishiga yordam beradi. Mehnat bozoridagi islohotlar 2017 yildan beri jadal rivojlanmoqda, ammo ishchilarning iqtisodiy erkinliklarini cheklaydigan siyosat ta'sirini engish uchun ko'proq narsa kerak. O'zbekiston moliya tizimida davlat tasarrufidagi banklar hukmron bo'lib, ular davlat korxonalariga nomutanosib ravishda yirik kreditlar beradi.

Ishlab chiqarishda davlatning ustun mavqeini kamaytirish xususiy sektorning tezroq o'sishini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. 2000 dan ortiq davlat korxonalari va boshqa davlat sektori faoliyati natijasida O'zbekiston YaIMining qariyb yarmi yaratiladi, davlat korxonalari ulushiga bandlikning qariyb 18 foizi va eksportning 20 foizi to'g'ri keladi. Davlat aktivlari 15 ta yirik davlat korxonalari orasida to'plangan va 2019 yilda aktivlarning umumiy hajmi ekvivalent hisobda YaIMning 57 foiziga teng bo'lgan. Yirik davlat korxonalari imtiyozli tartibga solishdan foydalanadilar va iqtisodiyotning tog' - kon sanoati, neft va gaz, energetika, kimyo sanoati, aviatsiya, temir yo'llar va telekommunikatsiya kabi muhim tarmoqlarida hukmronlik qiladilar. Ularning aksariyati xususiy sektorda raqobatni tartibga soluvchi qoidalarni shakllantirishda ham faol rol o'ynaydi. 2020-yil yakunlari bo'yicha Davlat banklari O'zbekistondagi jami so'ndirilmagan kreditlarning 88 foiziga egalik qildi va bu imtiyozli shartlarda davlat tomonidan kreditlash natijasida vujudga kelgan. Kredit siyosati va davlat banklarining yomon boshqaruvi iqtisodiyotda samaradorlikni pasaytirish borasida kapitaldan nooqilona foydalanishga turtki beradi.

Davlat qishloq xo'jaligi tizimining roli O'zbekistonning tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatlarini qo'ldan boy berishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektori amaliyotlarni takomillashtirish, o'g'it va suv kabi resurslardan yanada samarali foydalanish, shuningdek, erlarni oqilona taqsimlash orqali qo'shimcha qiymat va hosildorlikni oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bog'dorchilik yuqori mahsuldor va ish o'rinlari yaratish borasida katta salohiyatga ega, unga haydaladigan erlarning atigi 10 foizi to'g'ri kelsada, o'simchilik mahsulotlari qiymatining 50 foizini va qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini beradi. Bugungi kunda paxat va g'alla hukmronligiga asoslangan davlat qishloq xo'jaligi tizimi qaytadan tashkil qilinmoqda, bunda erdan foydalanishning xususiy mulkchilik shakllariga va bog'dorchilikni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilayotganligi ijobiy holdir. Saqlanib qolayotgan cheklovlarni olib tashlashda barqaror taraqqiyot iqtisodiyotdagi resurslar taqsimotini yaxshilashga va pirovardida ko'proq va yaxshi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakat uchun amal qilish oddiy va jo'n bo'lgan, adolatli o'yin qoidalarini belgilab beruvchi mukammal huquqiy va tartibga soluvchi siyosat kerak. Ushbu siyosatni to'g'ri amalga oshirish uchun unga kuchli institutlar ham kerak. Bu xolis, oshkora va qoidaga asoslangan boshqaruv foydasiga davlatning o'rni va ixtiyorini cheklash demakdir. Davlat iqtisodiy ishlab chiqaruvchi bo'lib qoladigan joylarda bu bozor intizomi va raqobatbardosh betaraflikni saqlashga sodiqlikni anglatadi. Shaxsiy investorlarning investitsiyalarga xos tartibga solish muhitidan foyda olish qobiliyati muvozanatsiz va shaffof bo'lmagan o'yin maydonini yaratadi. Ushbu muhit ichki xususiy sektorni ham, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ham cheklaydi.

O'tish jarayonlaridan olingan saboqlar shuni ko'rsatadiki, birgina bozorlarning o'zi doimiy, barqaror va adolatli o'tishni kafolatlay olmaydi. Transformatsiyalashning Bertelsmann indeksining so'nggi natijalariga ko'ra, 2016 yildan buyon O'zbekistonda bozor raqobatini qabul qilish holati yaxshilandi, ushbu holat bevosita ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan

islohotlar natijasi hisoblanadi. Biroq, O‘zbekistonda bozorlarda raqobat darajasi o‘xshash mamlakatlarga qaraganda ancha past. Bugungi kunda O‘zbekiston mintaqadagi qo‘shnilari orasida raqobat sohasida oqsayotganligini tan olish lozim.

Mamlakat qisqa muddatli va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish borasida maqsadli xarajatlardan foydalanish uchun barcha imkoniyatlarga ega, ammo buning uchun davlat investitsiyalarini rejalashtirish va amalga oshirish usullarini takomillashtirish zarur. mazkur resurslardan samarali foydalanish hokimiyatga kelajakka ishonch bilan qarash va inson kapitalini jamg‘arish va tabiiy ofatlar xavfini boshqarish kabi sohalarga investitsiyalar kiritish imkonini beradi. Ammo uzoq muddatli istiqbolda muvaffaqiyatga erishish o‘z navbatida, rivojlanish borasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarga qarshi tura olish borasida, mamlakatning moliyaviy holatini yaxshilash imkonini beruvchi oqilona siyosiy qarorlar qabul qilishni taqozo etadi.

Hukumatning asosiy funksiyalari bilan bog‘liq siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga 50 dan ortiq davlat idoralari mas‘uldirlar. Bundan tashqari, ayrim davlat korxonolari sektor darajasida ishlab chiqarish va siyosatni ishlab chiqishda ikki tomonlama rol o‘ynaydi. Ko‘pgina hollarda institutlar bir-birining funksiyalarini takrorlaydilar va turli tuzilmalarga bo‘ysunadilar. Ma‘lumotlarning muhim bo‘shliqlari strategik rivojlanish ustuvorliklarini tayyorlash, amalga oshirish va monitoringiga to‘sqinlik qiladi. Siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini yanada samarali aniqlash, idoralararo muvofiqlashtirish va monitoring davlat siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2009-19 yillarda davlat investitsiyalari iqtisodiyotdagi umumiy investitsiya xarajatlarining uchdan bir qismini tashkil etdi. Davlat investitsiyalarini moliyalashtirish har biri resurslarni qanday sarflash va davlat investitsiyalarining turli kanallarini o‘zaro muvofiqlashtirish borasida qarorlar qabul qilish tizimiga ega bo‘lgan bir qator kanallar bo‘yicha amalga oshiriladi. Loyihalarning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarini baholash o‘rniga ijobiy pul oqimini yaratishga e‘tibor qaratish inson kapitali va atrof-muhit loyihalari kabi uzoq muddatli qaytimga ega bo‘lgan davlat investitsiya-larini rag‘batlantirishni kamaytiradi. Aktivlarni saqlash va joriy xarajatlar byudjetini rejalashtirishdagi kamchiliklar davlat investitsiyalari sifatini pasaytiradi va uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish xarajatlarini oshiradi.

O‘zbekistonda yuqori darajada markazlashgan boshqaruv, byudjet tuzish va xizmat ko‘rsatish tizimlarini nomarkazlashtirish bu jarayonni tezlashtirishi mumkin. Shuningdek, bu ko‘proq shaffoflikni va fuqarolarning, fuqarolik jamiyati va boshqa nodavlat tashkilotlarning (NNT) davlat hokimiyati organlarini javobgarlikka tortish imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. O‘zbekistonning markazlashgan modeli davlat xarajatlarini mahalliy ustuvor yo‘nalishlarga moslashtirish borasidagi rag‘batlarni kamaytiradi. Gruziya, Qirg‘iziston Respublikasi, Polsha va Ukraina kabi o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari tomonidan amalga oshirilgan maqsadli moliyaviy nomarkazlashtirish harakatlaridan farqli o‘laroq, O‘zbekistonning submilliy moliyalashtirish tizimi sovet davridan beri ozgina o‘zgardi. Rejalashtirish va byudjet tuzishda mahalliy hokimiyat idoralarining ishtiroki cheklangan, mahalliy hokimiyat organlari o‘zlarining sarf-xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag‘ to‘plash imkoniyatiga ega emaslar. Islohotlar byudjetni tuzish jarayonida mahalliy hokimiyat idoralarining vakolatini kengaytirishga imkon berayotgan bo‘lsada, turli darajadagi boshqaruv idoralari bir-birlarining funksiyalarini takrorlaganligi bois, loyihalarni amalga oshirish jarayoni qiyin kechadi. O‘tish davri iqtisodiyotiga ega bo‘lgan boshqa mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mahalliy aholi va fuqarolarning ishtirokini oshirishga qaratilgan nomarkazlashtirish davlat xizmatlarini ko‘rsatishni, jamoatchilik nazoratini va islohotlarni jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishi mumkin.

2017 yildan beri fuqarolar va davlat amaldorlari o‘rtasida shikoyatlarni ko‘rib chiqish va etkazilgan zararni qoplab berish, davlat tashkilotlari va idoralari rahbarlarining virtual qabulxonalari, jamoatchilik bilan teskari aloqa o‘rnatish bo‘yicha onlayn maslahat platformasi, fuqarolarning mahalliy byudjet jarayonlarida ishtirokini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar

kabi ko'plab muloqot kanallari yaratildi. Bugungi kunda mamlakatda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish borasidagi imkoniyatlardan etarlicha foydalanilayotganligi yo'q. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni ta'minlash uchun matbuot erkinligiga e'tibor qaratish va axborot olish huquqini kengaytirishga qaratilgan qonun va qoidalarni mustahkamlash zarur.

O'zbekiston Xitoy va Janubiy Osiyodagi dunyo aholisining deyarli uchdan bir qismiga va jahon savdosining chorak qismini tashkil etadigan bozorlarga yaqin joylashgan. Shunga qaramay, mamlakat mintaqadagi qo'shni mamlakatlarga qaraganda etarlicha kichik miqdorda tovar va xizmatlar eksportini amalga oshiradi. O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lmagan eng yirik davlat-lardan biri bo'lib, muhim savdo to'siqlari eksportga yo'naltirilgan o'sish modeli imkoniyatlarini pasaytirib yubormoqda. Mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga soluvchi kamida 13 turdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Global miqyosdagi ishlab chiqarish-sotish zanjirlarining integratsiyasi avvalgidek, asosan paxta va bog'dorchilik, shuningdek, hukumatning sanoat siyosati doirasida strategik xorijiy investorlar bilan hamkorlik qiladigan tarmoqlar bilan cheklanib qolmoqda. Taqqoslanma ustunlikka ega bo'lgan sohalarda savdo hajmi bir muncha past hisoblanadi, bu o'z navbatida davlat korxonalarining ustun mavqega egaligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston fuqarolariga quloq tutib (Listening to the Citizens of Uzbekistan (L2CU)) so'rovida ishtirok etganlarning yarmidan ko'pi o'z farzandlariga yaxshi ta'lim berishdan tashvishda ekanliklarini bildirishgan. Yaqin vaqtlargacha, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olish darajasi mintaqa mamlakatlari orasida eng past ko'rsatkichga egaligi bilan ajralib turgani holda, kambag'allik darajasining yuqoriligi va aholining jadal o'sishi mazkur muammoni yanada chigallashtirar edi. O'zbekistonda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 16 foizni tashkil etgani holda, mazkur ko'rsatkich o'xshash daromadlarga ega bo'lgan mamlakatlar orasida eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda, oliy ta'limni isloh qilish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan mamlakatda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng past hisoblanadi. Ushbu bo'shliqlarni bartaraf etish hukumat va manfaatdor tomonlarning mamlakatda inson kapitalini mustahkamlash borasidagi eng to'g'ri hatti-harakatlaridan biri hisoblanadi.

2010 yildan 2019 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida O'zbekistonda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi 2,1 yilga uzaygan. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida etarlicha ovqatlanmaslik tufayli o'sishdan ortda qolish ko'rsatkichi 2000 yildagi 29,5 foizdan 2017 yilda 8,7 foizgacha pasaygan. 2009 yildan 2020 yilgacha bo'lgan oraliqda onalar o'limi taxminan 39 foizga, go'daklar o'limi esa taxminan 20 foizga kamaydi. Ushbu yutuqlar ko'zga tashlanayotganiga qaramay, O'zbekiston aholi salomatligi bo'yicha umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi deyarli barcha mamlakatlardan ortda qolmoqda. Umr ko'rish davomiyligi mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan 4 yildan ko'proq orqada qolmoqda; onalar o'limi xavfi mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'p; va garchi bu daromad darajasi bir xil bo'lgan ko'plab mamlakatlarga qaraganda yuqori bo'lsa-da, O'zbekistonda bolalarda o'sishdan ortda qolish darajasi mintaqaviy ko'rsatkichlardan yuqori (masalan, 2020 yilda mazkur ko'rsatkich Polshada 2,3 foizni tashkil qilgan). Tibbiy xizmatdan etarlicha foydalanmaslik va ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatining etarlicha emasligi 2018 yilda 42000 insonning o'limiga sabab bo'lgani holda, ushbu yildagi o'limlarning to'rtidan bir qismini tashkil qilgan. Sifatsiz tibbiy yordam oldini olish mumkin bo'lgan o'limlarning 58 foiziga sabab bo'lsa, qolganlari xizmatlardan etarli darajada foydalanmaslik bilan bog'liq. Shunday qilib, O'zbekistonda aholi salomatligi borasida sezilarli taraqqiyot ko'zga tashlanayotgan bo'lsada, hanuz katta bo'shliqlar saqlanib qolmoqda.

2019 yil uchun uy xo'jaliklari byudjetini o'rganish natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi uy xo'jaliklarining qariyb 63 foizi sifatli ichimlik suvidan, aholining 68 foizi kanalizatsiya tarmog'idan foydalanmoqdalar. Elektr energiyasidan foydalanishda muayyan bir uzilishlar bo'lsada, mamlakat aholisi elektr energiyasidan uzluksiz foydalanish imkoniyatiga egalardir. Ichimlik suvi ta'minoti va sanitariya shart-sharoitlarining etarlicha emasligi bois, O'zbekiston

har yili 635 million AQSh dollari (YaIMning 1,3 foizi) miqdorida mablag' yo'qotadi. Bu muammolar asosan qishloq joylarda yaqqol ko'zga tashlanadi. 2018 yilda Jahon banki so'rovida ishtirok etgan qishloq uy xo'jaliklarining atigi 22 foizi suv ta'minoti xizmatlarini "qoniqarli" baholagan bo'lsa, shahar uy xo'jaliklarining 58 foizi mazkur xizmatni talab darajasida baholashgan. Mahalliy infratuzilmaning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishning dolzarbligini anglashda ham aniq tafovutlar mavjud; qishloq hududlari shahar hududlari bilan taqqoslaganada gaz ta'minoti, suv ta'minoti, qattiq qoplamali yo'llar, bog'lar va sug'orish xizmatlarini yaxshilash bo'yicha bir qator masalalarda ehtiyojlar mavjudligini ta'kidlashadi. Yaxshi tartibga solingan xususiy sektor investitsiyalari etarlicha o'rganilmagan, ulardan foydalanish asosiy davlat xizmatlaridan foydalanish va ularning qamrovini tezda kengaytirishga yordam beradi.

Hukumat kambag'al va ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga ko'proq mablag' sarflashi mumkin. Ijtimoiy yordam uchun barcha xarajatlar 2017 yilda mamlakat YaIMning 0,76 foizini tashkil qilgani holda, bu ko'rsatkich Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng past darajada. Maqsadli ijtimoiy yordam dasturlari qashshoqlikni sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Ammo, so'nggi baholashlarga ko'ra, 2018 yilda kambag'al oilalarning yarmidan ko'pi bunday dasturlardan chiqarilgan. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ko'rsatkichlarni yaxshilashga imkon bergan bo'lsada, ular moliyalashtirishning cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Ishsizlikka qarshi kurashga qaratilgan asosiy tashabbuslar, mehnat bozorida bir-birini takrorlovchi ko'plab dasturlarga qaramay, ularning qamrovi torligicha qolib ketmoqda. Ishsizlik bo'yicha nafaqalar ro'yxatdan o'tgan ishsizlarning atigi 1% dan 5% gacha qismini qamrab oladi, fuqarolar ishini yo'qotgan taqdirda xodimlarga o'zlarini ta'minlashga imkon beradigan ishsizlik bo'yicha sug'urtalashning bazaviy tizimi mavjud emas. Ijtimoiy himoyani, shu jumladan ijtimoiy himoya tizimlarini, pensiyalarni va mehnatni rag'batlantirish dasturlarini modernizatsiya qilish qashshoqlik va ijtimoiy himoyaga muhtojlarni kamaytirishi, shu bilan birga ishsiz va qiyin ahvolga tushib qolgan ishchilarning mamlakat iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradigan ish topishlariga ko'mak berishi mumkin.

O'zbekistonda ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishda sezilarli darajada gender tengsizligi kuzatilmoqda. Shuningdek, ayollarning ovozi va jamiyatdagi o'rni borasida erkaklarga qaraganda sezilarli nomutanosibliklar ko'zga tashlanadi. Gender rivojlanish indeksi O'zbekistonda ilk bor 2013-yilda hisoblab chiqilgan davrlardan boshlab, ayollar umr ko'rish davomiyligi borasida erkaklarga qaraganda yuqoriroq natijani qayd qilib kelmoqdalar. Ishchi kuchi safida ayollarning ishtiroki erkaklarga nisbatan bir muncha past hisoblanadi, bu ko'rsatkichning farqi 2018 yilda 28 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, kasblar orasida ham jinslar bo'yicha ajratishlar mavjud.

O'zbekiston 2021 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qildi va bu yanada integratsiyalashuv sari qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. Konvensiya qoidalarini to'liq bajarish imkoniyati cheklangan shaxslar xizmatlardan foydalanish, imkoniyatlar va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha duch kelayotgan ko'plab muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir. Yaqinda nogironlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatadiki, so'ralganlarning 60 foizga yaqini davlat xizmatlaridan foydalanish oson deb hisoblashadi. Jismonan sog'lom fuqarolarning 99 foizi umumiy o'rta ta'limdan foydalanish imkoniyati mavjudligini bildirgan bo'lsalar, bu borada imkoniyati cheklangan shaxslarning 84 foizi ijobiy baho berishgan, shuningdek nogironligi mavjud bo'lmagan shaxslarning 97 foizi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi olish imkoniyatiga ega ekanliklarini aytishgan bo'lsa, nogironlarning 51 foizi bunday imkoniyatdan foydalana olishlarini bildirib o'tganlar.

Mamlakat energiya va mineral zahiralari, shu jumladan tabiiy gaz, oltin, mis, uran va ko'mir bo'yicha top-30 talik mamlakatlar qatoriga kiradi. O'zbekistonning iqtisodiy modeli tabiiy resurslardagi ushbu qiyosiy ustunlikdan sezilarli darajada foydalanmoqda, ammo bunday yondashuv qimmatga tushdi. Tabiiy resurslardan bunday foydalanish aholining imkoniyatlarini

tobora cheklashi bilan bir qatorda, atrof-muhitga sezilarli darajada og'riqli ta'sir ko'rsatmoqda. Erlarning keng ko'lamlı degradatsiyasi so'nggi baholashlarga ko'ra, 2016 yilda YaIMning 4 foizli yo'qotishlariga olib kelmoqda. Qishloq xo'jaligini yuritishda hanuz eskirgan usullardan foydalanish tufayli, bugungi kunda mamlakat dunyo mamlakatlari orasida suvdan eng samarasiz foydalanuvchi sifatida qolib kelmoqda, buning yaqqol isboti sifatida Orol dengizining deyarli qurib bitishini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

O'zbekiston atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida ilgari o'rinlardan birini egallaydi, shu bilan bir qatorda, YaIM birligiga to'g'ri keluvchi energiya sig'imi ko'rsatkichi bo'yicha ham mamlakat ko'rsatkichi dunyo mamlakatlari ko'rsatkichlaridan ancha yuqori. Chiqindilar miqdorining so'nggi yigirma yil ichida pasayishiga qaramay, O'zbekistonda chiqindilar chiqarish intensivligi Markaziy Osiyo davlatlariga qaraganda qariyb ikki barobarga ko'proqni tashkil qilsa, Yevropa va Markaziy Osiyodagi o'rtacha ko'rsatkichdan esa 18 baravar yuqori. O'zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilarining 79 foizi energetik sektoriga, qishloq xo'jaligiga esa 15 foizi to'g'ri keladi. Ilgari, ikkala soha ham davlat hukmronligi ostida bo'lganligi bois, ishlab chiqarish asosan resurs sig'imli usullar yordamida tashkil qilingan. Bugungi kunda ikkala sohada ham keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirish ko'zlangani holda, bunday islohotlarni amalga oshirishda xususiy sektor muhim ahamiyat kasb etishi lozim.

Shaffof, hisobdor va raqobatbardosh jarayonni ta'minlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratmasdan amalga oshiriluvchi xususiylashtirish jarayonlari korrupsiya va g'arazli manfaatlar ta'siriga duchor bo'lish xavfi ostida qolmoqda. O'tgan davrlarda amalga oshirilgan xususiylashtirish dasturlarining muvaffaqiyatsizliklaridan saboq chiqargan holda, mazkur jarayonlarni amalga oshirishning mustahkam huquqiy asoslarini yaratish talab qilinadi. Aktivlarni aniq va ochiq baholashni ta'minlash va xususiy monopoliyalarni yaratish imkoniyatlarini minimallashtirish borasida o'ta ehtiyotkorlik bilan harakat qilish talab qilinadi. Agar islohot dasturlari vakolatli, hisobdor va moliyaviy jihatdan betaraf subyektlar omonidan amalga oshirilmasa, ular tengsizlikning kuchayishiga va davlat resurslarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Savollar:

1. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga Jahon banki tomonidan berilgan xulosalarga siz qay darajada xayrihohlik bildirasiz?
2. Jahon banki O'zbekiston kelgusida mamlakatda oligarxlar xavfining paydo bo'lishiga duch kelishi haqida ogohlantirmoqda. Bunday xavfni kamaytirish uchun mamlakat hukumat qanday yo'l tutishi lozim, deb o'ylaysiz?
3. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida qanday dolzarb vazifalarni amalga oshirishi lozim, deb o'ylaysiz?
4. Jahon banki butun dunyoda stagflyatsiya yuz berishidan ogohlantirmoqda. Geosiyosiy vaziyat chigallashayotgan bir paytda, O'zbekiston iqtisodiy siyosati qanday tamoyillar asosiga qurilishi maqsadga muvofiq?

Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-“Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
3. Абдувоҳидов А.А. ва бошқалар. Инновациялар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма.- Т.: “Мумтоз сўз”, 2020-636 бет.

4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Хажиев Б.Д., Ахмедов Д.Қ., Захидов Г.Э., Мамбетжанов Қ.Қ. Иқтисодий ривожланиш назариялари. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2018. - 428 бет.
10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.
11. Хажиев Б.Д., Абдуллаев С.О., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. Дарслик. – Т.: “Зебо юлдузлари МЧЖ”, 2018. - 417 бет.
12. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов тахрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.
13. Дарон Асемоглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асемоглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова- М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).
14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018
15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.
16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.
17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.
18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018
19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. 2018
20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.
21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.
22. www.cer.uz - Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази расмий сайти.

23. www.stat.uz- Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси расмий сайти.
24. <https://mineconomy.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги расмий сайти
25. <https://cbu.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий сайти.
26. <https://mf.uz/uz> - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий сайти
27. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси
28. <https://www.mininnovation.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий сайти
29. <https://uza.uz/uz> - Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий сайти
30. <https://www.worldbank.org/en/home>- Жаҳон банки расмий сайти

X BOB. IQTISODIY O‘SISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI, IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH

Adam Smitning “Xalqlar boyligining tabiati va uning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida tadqiqotlar” asarida: “Insoniyat uchun - o‘z foydasini ko‘zlab ko‘lsada - odamlar hayotini o‘zgartiruvchi ulkan kashfiyot qilgan bitta inson, exson tarqatuvchi barcha oliyjanob insonlardan ustundir”-deb, yozilgan. Darhaqiqat, Afrikadagi och bolalarga yordam bergani va boshqa turli ehsonlaridan ko‘ra Bill Geytsning Windows dasturini yaratgani insoniyatga ko‘proq foyda keltirgan.

10.1. Iqtisodiy o‘shning institutsional asoslarini takomillashtirish

10.2. Iqtisodiy o‘shni ta‘minlashda klasterlashtirish siyosati

10.3. Tuzilmaviy siyosat va iqtisodiyotni modernizatsiyalash

10.4. Urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy o‘shga ta‘siri

Xususiylashtirish tomon dadil qadamlar

Dunyodagi hozirgi murakkab iqtisodiy vaziyat, jahon bozoridagi narx tebranishlari milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan barcha resurslardan oqilona foydalanishni taqozo qilmoqda. Tajribadan ayonki, davlat korxonalarini boshqarish sohasida yaxshi menejer hisoblanmaydi, ko‘p hollarda davlatga qarashli korxonalar samarasiz faoliyat yuritadi, ularga berilgan soliq, bojxona va tarif imtiyozlari esa bozordagi raqobat muhitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aynan shu sababli davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini minimallashtirish, unga qarashli aktivlarni esa xususiy tarmoqqa sotish eng maqbul yo‘llardan hisoblanadi. Shuningdek, bu orqali iqtisodiyotga qo‘shimcha mablag‘ yo‘naltirish imkoniyatlari kengayadi. O‘zbekistondagi xususiylashtirish jarayonlari haqida so‘z yuritganda davlat tomonidan mazkur vazifaga kompleks yondashilayotganligini ta‘kidlab o‘tish zarur. Xususan, keyingi yillarda O‘zbekistonda xususiylashtirishning zamonaviy usullari amaliyotga tadqiq etila boshlandi. Pirovard maqsad aktivlarni iloji boricha tez sotib, qutilish emas, balki ularni optimal operatsion holatda, profilli investorlarga, bozor narxlarida yangi egalariga topshirishdir. Bunda har bir aktiv bo‘yicha alohida takliflar ishlab chiqilmoqda. Shu maqsadda “2021–2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish va isloh qilish strategiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda bu borada qilinadigan barcha xususiylashtirish ishlarining asosiy mezonlari belgilab berildi. Unga muvofiq, endilikda xususiy sektor muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotgan va raqobat rivojlangan sohalarda davlatning ishtiroki cheklanadi hamda davlat tomonidan etarli asoslar mavjud bo‘lmaganda, yangi davlat korxonalarini tashkil etilmaydi. Jumladan, eksklyuziv imtiyozlar va preferentsiyalar taqdim etish amaliyoti bekor qilinadi. Shu bilan birga, davlat korxonalarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullari joriy etiladi hamda ularning boshqaruv kengashlariga mustaqil a‘zolar kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-2020 yillar davomida 1,9 mingga yaqin davlatga tegishli ko‘chmas mulk va ulushlar 1,6 trln so‘mga sotilgan. 2021 yilning 10 oyida 4,5 trln so‘mlik 619 ta davlat aktivi yangi egalariga berilgan. 2021 yilning iyunida respublikada 2,5 mingdan ziyod davlat ulushi bo‘lgan korxonalar mavjud bo‘lib, ularning asosiy qismi unitar korxonalar shaklida bo‘lgan. Mamlakat YaIMining qariyb yarmi aynan ular hissasiga to‘g‘ri kelgan. O‘zbekistonda davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki hamon yuqoriligicha qolmoqda va

2021 yilda bu ko'rsatkich 55 foizni tashkil etgan. Solishtirish uchun, Janubiy Koreyada ushbu ko'rsatkich 22%, Germaniyada – 18%, AQShda – 11%, Yaponiyada esa atigi 5 foizga teng.

2017 yildan keyingi davrda mamlakatimizda xususiylashtirish jarayonlari yaxlit reja asosida o'tkazilib, tizimli va mantiqiy asosda davom ettirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 28 oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, ilk marta transformatsiya qilinadigan davlat korxonalari ro'yxati tuzib chiqildi. Chunki davlat korxonalarini transformatsiya qilmasdan turib, investorlar uchun ularning jozibadorligini oshirish juda mushkul. Shuningdek, hujjat bilan davlat obyektlarini "nol" qiymatida sotish amaliyotiga barham berildi. O'tgan yili ham pandemiya tufayli murakkab vaziyatga qaramasdan, xususiylashtirish jarayonlarini faollashtirish bo'yicha bir qator dadil qadamlar qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15 noyabrda "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonunni imzoladi. Unga muvofiq, xususiylashtiriladigan hududlar ro'yxati kengaydi. Endilikda yer uchastkalarini xususiy uy-joy qurish uchun sotib olish mumkin, shuningdek, investorlarga xususiylashtirilgan davlat obyektlari joylashgan erlarni sotib olishga ham ruxsat berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan joriy yil boshida qabul qilinib, kelgusi 5 yilga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham davlatning iqtisodiyotdagi roli va ulushini keskin qisqartirish asosiy besh yo'nalishdan biri sifatida belgilangan.

Rejalarga ko'ra, davlat aktivlarini xususiylashtirish orqali 2026 yilga qadar eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat korxonalarini xususiylashtirish hisobidan 25 dan ortiq faoliyat turlari bo'yicha monopoliyalar tugatiladi, tijorat banklarida transformatsiya jarayonlari davom ettirilib, bank aktivlarida xususiy sektorning ulushi 60 foizga qadar etkaziladi, davlat ishtirokidagi korxonalar soni esa kamida 3 baravar qisqartiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham xususiylashtirish ishlarini yanada jadallashtirishga turtki bo'ldi. Hujjatga muvofiq, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini sotish tartibi soddalashtirildi, ustav kapitalida davlat ulushi 50% va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat ishtirokidagi korxonalar, davlatga tegishli bo'sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyatga oid bo'lmagan boshqa aktivlar aniqlanib, uch oy muddatda bosqichma-bosqich xususiy mulkdorlarga sotish rejalari belgilandi.

Shuningdek, qaror bilan bir qator yirik davlat aktivlarini xususiylashtirish rejalashtirilmoqda. Ular orasida mamlakatdagi yirik mobil aloqa operatorlaridan biri bo'lgan "Universal Mobile Systems" MChJ (2023 yil 1 aprelga qadar), "O'zdonmahsulot" AK tarkibidagi don korxonalari, "O'zagroservis" AJ ko'chmas mulk obyektlari, "Qishloq qurilish bank", "O'zsanoatqurilishbank" va "Asakabank" bankidagi davlat ulushlari, "Xalq banki", "Mikrokreditbank", "Aloqabank", "Agro bank" ATB, "O'zmilliybank"larning aktsiyalari bor.

Bundan tashqari, endilikda investorlarning qiymati 10 mln dollardan ortiq bo'lgan aktivlar bo'yicha takliflari Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ishtirokisiz to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinadi.

Yuqoridagilarga qaramasdan, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022 yil 20 yanvar kuni davlat mulkini xususiylashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda mas'ul idoralarning ushbu yo'nalishdagi ishlari tanqidiy baholandi. Xususan, davlat rahbari tomonidan xatlov natijalariga ko'ra aniqlanib, tarmoq va hududlarda samarasiz ishlatilayotgan 2 mingta obyekt borligi, ba'zi obyektlar yillar davomida sotilmay turgani tanqid ostiga olindi. Shuningdek, hududiy obyektlar va noqishloq erlarni xususiylashtirish orqali yil yakunigacha jami 8 trln so'mdan ziyod tushumni ta'minlash mumkinligi, yo'l, transport, neft-gaz, energetika, avtomobilsozlik tarmoqlariga qarashli 266 ta korxonani alohida yondashuv asosida savdoga chiqarish kerakligiga e'tibor qaratildi.

“Hali ko‘plab tarmoq rahbarlari tizimdagi nosohaviy korxonalarni samarasiz ishlatmoqda. Yirik tarmoqlarda 480 ta korxonadagi davlat ulushini to‘liq xususiy sektorga berish mumkin”, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident tomonidan “Farg‘onaazot”, “Bektemir spirt zavodi”, “Qo‘qon biokimyó”, “Dehqonobod kaliy zavodi”, “Kvarts”, “Hyatt” kabi yirik majmualarga investorlarni jalb qilish, 23 ta AJning aktsiyalarini birlamchi sotish orqali fond bozoriga chiqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Umuman, joriy yil rejalarda 32 ta yirik davlat aktivini sotish, davlat korxonalarining 368 ta nosohaviy va samarasiz aktivlarini savdoga chiqarish rejalashtirilgan, hududlarda 770 ta davlat aktivlarini sotish, bular orqali byudjetga qariyb 10 trln so‘m tushum tushirish ko‘zda tutilgan.

Rejalarga ko‘ra, Rejalarga ko‘ra, 2025 yilga qadar bosqichma-bosqich davlat korxonalari sonining 75 foizi qisqartiriladi. Bu esa bir tomondan davlatning iqtisodiyotdagi ulushi qisqarib, islohotlarni amalga oshirishda zarur bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘lar jalb etilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa xususiylashtirilgan korxonalar bazasida tashkil etiladigan yangi ishlab chiqarishlar va tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, tovar va xizmatlar bozorlarini to‘ldirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishga sezilarli turtki bo‘ladi. Pirovard natijada bularning bari – xalqimiz farovonligi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Iqtisodiy sharh №5 (5) 2022

O‘qitish maqsadi: *iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning institutsional asoslari, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya-lashning ahamiyati borasida tushunchalar hosil qilish.*

Tayanch iboralar: *institut, klaster, iqtisodiy siyosat, modernizatsiya, tarkibiy siyosat, xususiy mulk, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy o‘shish nuqtalari.*

10.1. Iqtisodiy o‘shishning institutsional asoslarini takomillashtirish

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida o‘zgarishlarga erishildi, iqtisodiyotning yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlari – yirik aktsiyadorlik jamiyatlari, xolding kompaniyalar va xususiy mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar tashkil etildi. Shu bilan birga ular faoliyat yuritishi shartlarini belgilab beruvchi rasmiy qoidalar (konstitutsiya, qonunlar, farmonlar va boshqalar) hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va boshqa norasmiy normalarni o‘z ichiga olgan institutsional muhit hamda mamlakat iqtisodiyotining institutsional tarkibi shakllandi.

Shakllangan institutsional muhitning bazaviy tarkibining asosini xalqning turmush tarzini, urf-odatlarini, diniy e‘tiqodlarni hisobga oluvchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, vazirlik va idoralarning normativ-huquqiy

hujjatlar tashkil qiladi. Bu jamiyatda mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlarining bozor iqtisodiyotiga o'tishi, moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan bir qatorda, islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni institutsional rivojlantirish yo'nalishida hal etilishi lozim bo'lgan, o'z echimlarini kutayotgan, yangi O'zbekistonni taraqqiy etishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar, vazifalar mavjud. Gap shundaki, har qanday davlat va jamiyat, uning iqtisodiy agentlari ma'lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritadi va rivojlanib boradi. Vaqt o'tishi bilan o'sha institutlar ichki rivojlanish talablari va tashqi omillar ta'siri ostida "eskiradi", ular taraqqiyotga to'siq bo'lib qoladi. Shunday holatlarda mavjud institutlar va institutsional normalarni takomillashtirish yoki ular o'rniga yangilarini kiritish lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, mamlakatimizda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Farmonlari, Qarorlari orqali institutsional normalar hamda mexanizmlar takomillashtirildi va yangi institutlar joriy qilindi. Shu bilan bir vaqtda xo'jalik faoliyatini yuritish hamda rivojlanishini belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va normalarni o'z ichiga oluvchi yangi institutsional muhit shakllanmoqda. Yangi institutsional muhitda O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishini belgilovchi umumiy institutsional model sifatida mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlariga hamda yangicha boshqarish tizimini barpo etilishiga moddiy, tabiiy, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanish bilan birgalikda iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirmoqda. Natijada mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishi bosqichma-bosqich barqarorlashdi va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda.

Institutsional normalar va mexanizmlar iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar samaradorligini oshirishga asos yaratishi bilan birga, uzoq istiqbolda iqtisodiy o'sishga yanada keng sharoit ochib bermoqda. Institutsional muhitni shakllanishi bilan bog'liq muammolar hamda institutsional cheklovlarni yuzaga kelishi yoki institutsional normalarning "eskirishi" jarayonlari to'xtadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 7 ta yangi qonun qabul qilish, 15 ta amaldagi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali davlat va jamiyat boshqaruviga yangi institutsional – huquqiy normalar kiritilgan ham mavjudlari takomillashtirilgan. Shu bilan bir vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29dekabrida Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "So'nggi to'rt yilda barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha 150 ta qonun, 2 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Lekin joylarda barcha rahbarlar ham ushbu hujjatlar mazmun-mohiyatini tushunib, berilgan imkoniyatlardan foydalanmoqda, aholi va tadbirkorlarga zarur shart-sharoit yaratmoqda, deb ayta olamiz". O'zbekiston Prezidentining ushbu yo'nalishda bildirgan fikrlari Yangi O'zbekiston rivojlanishining muhim ustuvor vazifalaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiyoti institutlarini yanada rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ushbu yo'nalishdagi vazifalarni samarali hal etish, mavjud institutsional muhitni yanada takomillashtirilishiga, amaldagi nazorat tizimini har bir inson o'z hayotida his etishi va sezishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, o'rta va uzoq istiqbolda iqtisodiy rivojlanishning barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish hamda aholi turmush sifatini yuksalib borishga ijobiy ta'sir etuvchi iqtisodiy rivojlanishning yangi jihatlari namoyon bo'lishini bilish muhim hisoblanadi. Shularni hisobga olganda mamlakatimizda shakllangan institutsional muhit sifatini iqtisodiy rivojlanishga hamda institutsional o'zgarishlarni iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi institutsional normalarni takomillashtirish o'ta dolzarb va yangi iqtisodiy rivojlanish nuqtalarini topish va modernizatsiyalashni kengaytirish uchun zarur hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mavjud institutsional normalar va mexanizmlarni bir – biri bilan o'zaro bog'liqligi, ular o'rtasida yuzaga kelgan nomutanosibliklar,

uzilishlarni aniqlash va yangi yoki tarkibiy jihatdan takomillashgan institutlar, institutsional qoidalar va mexanizmlarni amalga kiritish zarur hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, hozirgi kunda ayrim shakllangan, kundalik hayotda foydalanilayotgan, ammo takomiliga etmagan, nisbatan murakkab bo'lgan institutlar mamlakatimizni yanada barqaror rivojlanishiga halaqit berayotgan to'siqlardan hisoblanadi, qaysikim ular orqasida yashirinib turgan aniq tarkibga ega, mutanosib, qarama-qarshiliklarsiz institutlar mavjud, ana shunday institutlarni amalga kiritish iqtisodiy o'sishga yangi turtki beradi hamda o'zaro iqtisodiy munosabatlarni tezlashtiradi va soddalashtiradi, xalqaro maydonda O'zbekiston obro'sini yanada oshiradi.

Ammo har qanday yangi institut yoki institutsional normalar, qoidalar tezda paydo bo'lmaydi, yoki ularni amalga kiritish birdan yuz bermaydi. Aksincha, ayrim institutlar qanchalik jozibali bo'lmasin, ularni qonunchilikka kiritish hamisha ham maqsadga muvofiq hisoblanmaydi, yoki bunday harakat rivojlanishga to'siq bo'lib, mavjud institutsional mutanosiblikni buzishi mumkin. Shularni hisobga olganda, O'zbekistonda islohotlarni bosqichma–bosqich amalga oshirish tamoyiliga amal qilgan holda, o'zini oqlagan institutsional norma va mexanizmlarni rivojlantirishning strategik maqsadlariga muvofiq takomillashtirish talab etiladi.

Shularni inobatga olganda, institutsional iqtisodiyot rivojlanishini belgilab beruvchi usullar va amaliy vositalar zarur va ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- yangi institutlar shakllanishi tamoillari, jamiyatdagi rasmiy va norasmiy institutsional-huquqiy normalarni muvofiqlashtirish hamda institutsional tahlil qilish usullari;

- institutlar va ularning jamiyat hamda iqtisodiyot rivojlanishidagi roli va mexanizmlari;

■ iqtisodiy munosabatlarda shartnomalarning turlari hamda ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan transaktsiya xarajatlarini tahlil qilish va kamaytirish usullari;

■ xufiyona iqtisodiyot kelib chiqishining institutsional sabablari, ularni turlari va baholash usullari;

■ xususiy mulkchilik va mulkdorlar huquqlarining institutsional nazariyasi va tahliliy usullari;

■ ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) korxonasini boshqarishda topshiriq beruvchi ("printsipial") va topshiriqni bajaruvchi ("agent") o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosini yechish usullari, korxonalar turlari va ular institutlarini rivojlantirish yo'nalishlari;

■ institutsional tashkilot sifatida davlatning mulkchilik huquqlarini himoya qilish, axborot tarmoqlarini rivojlantirish, o'lchash standartlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, huquqni muhofaza qilish, sof ijtimoiy farovonlikni ta'minlash vazifalari va ularni baholash usul va me'zonlari;

■ oila va uy xo'jaligi institutlarining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish, institutsional va rivojlantirish funktsiyalarini takomillashtirish yo'llari;

■ innovatsion rivojlanishning institutsional nazariyasi va innovatsiyalar yaratuvchi subyektlarning qiyosiy tahlili usuli;

■ institutlarning vaqtga ko'ra o'zgarishini asosiy qoidalari va O'zbekiston iqtisodiyotini va ijtimoiy munosabatlarni institutsional-huquqiy rivojlantirish yo'nalishlari.

Shuni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzalari va asarlarida belgilab qo'yilgan barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning ustuvor vazifalarini amalda ijrosini ta'minlash bilan bog'liq yo'nalishlarda izchil ishlar bajarilmoqda.

Institutsional rivojlanish nuqtai nazardan, davlatning asosiy funktsiyalaridan biri – bu xususiy mulk huquqini himoya qilish hisoblanadi.

Xususiy mulk – iqtisodiy raqobatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hamda iqtisodiy o‘rinishni, yangi ish o‘rinlarini yaratishning samarali mexanizmidir. Shu nuqtai nazardan mulkchilik munosabatlarida yuzaga kelayotgan muammoviy holatlarga iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida institutsional normalar ta‘sirini baholash, xususiy mulk huquqini himoya qilish va shartnomalar bajarilishiga davlat kafolatining institutsional mexanizmlarini takomillashtirish zarurdir.

Tadbirkorlik korxonalarini ayniqsa, kichik biznesni himoya qilish, ular rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish me‘zonlari bo‘yicha institutsional normalar hamda mexanizmlar shular jumlasiga kiradi.

Islahotlarning hozirgi bosqichida O‘zbekiston iqtisodiyotining institutsional tarkibi va uning iqtisodiy o‘rinish uchun zaruriy sharoitlar (imkoniyatlar) yaratishdagi rolini baholash, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta‘sir etayotgan institutsional cheklolarni aniqlash muhim hisoblanadi. Shuni hisobga olib, yirik korporativ tuzilmalar (korxonalar) rivojlanishida institutsional omillarni tahlil qilish, va institutsional cheklolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish zarur.

Raqobat sharoitida iqtisodiy o‘rinish ko‘p jihatdan transaksiyalar bajarilishiga va ular uchun sarflanayotgan xarajatlarga bog‘liq hisoblanadi. Ushbu muammo yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar nazariy tasnifga ega bo‘lib, ular iqtisodiy rivojlanishning transaksiya xarajatlarining amaliy jihatlarini hisobga olmagan. Shu nuqtai nazardan, bozor tuzilmalarida transaksiya xarajatlarini optimallashtirishning yo‘llari va institutsional mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ustuvor mavqega ega. Shuni hisobga olib, kichik biznes faoliyatini, ayniqsa, uning oila tadbirkorligi shaklini institutsional rivojlanish bosqichlari samaradorligini baholash hamda ularni istiqbolda iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashdagi

rolini oshirishning institutsional – huquqiy normalari va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarini kengaytirish lozim.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shishning barqaror sur‘atlarini ta‘minlashning o‘tgan yillarda to‘plangan tajribalaridan kelib chiqib, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida institutsional normalarni takomillashtirish va shu orqali mehnat unumdorligini oshirish zarur.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda, YaIM hajmini oshirishning prognoz variantlari tashqi sharoitlarga bog‘lanmasligi, inertsiya xususiyatga emas, balkim innovatsion-investitsion tavsifga ega bo‘lish hamda tegishli davlat va nodavlat institutlari ishi samaradorligining asosiy mezoniga aylanishi kerak.

Shuningdek, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, ayniqsa sanoat va qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘shishni resurslardan foydalanishni kengaytirish hisobiga emas, balkim sifat jihatda takomillashtirilgan institutsional norma va ishlab chiqarish omilari hisobiga erishish lozim.

O‘zbekistonda institutsional muhitni hozirgi holati, uning tarkibiy tuzilishi hamda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini kutilgandan ortda qolishining institutsional sabablarini aniqlash, shuningdek, yangi qiymat yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni YaIM o‘shish sur‘atlari va samaradorligining statistik bog‘liqligini ekonometrik modellarga institutsional omillarni kiritish orqali baholash talab etiladi. Shu bilan bir vaqtda, ijtimoiy – iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishining asosiy omili sifatida inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish, professional ta‘lim institutini rivojlantirish normalarini ishlab chiqish lozim.

Xususiy mulk azal azaldan insonlarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarini oshirishda ko‘makchi va yanada faolligini oshirishda muhim rag‘bat sifatida qaraladi. Mulkdorning kayfiyati, intilishi, ish yuritishi, o‘z faoliyatiga, umuman, hayotga munosabati boshqacha bo‘ladi. Mulk egasi o‘z ishini yaxshilashga, mulkiga mulk qo‘shishga harakat qiladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy

demokratik davlat barpo etishda mulkdorlarning o'rnini nihoyatda katta. Zero, ular jamiyatdagi o'zgarishlarga bevosita daxldor bo'lgan qatlamdirlar.

Shu sababli ham iqtisodchi olimlarimiz tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarga qaraydigan bo'lsak, mamlakatimizda yangi O'zbekistonni qurish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun avvalo bozor iqtisodiyotining negi asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratish zarurdir. Shuni hisobga olib mamlakatimizda «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonun qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, har qanday mamlakatda tarixan xo'jalik yuritishning turli shakllari mavjud bo'lib, ularni iqtisodiyot namoyondalari ishlab chiqarish usullari deb nomlashgan. Mamlakatda ustunlik qilayotgan xo'jalik yuritish uslubi ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini tavsiflaydi. Tegishli ijtimoiy munosabatlar bilan birgalikda ko'rib chiqiladigan xo'jalik yuritish usullari ukladlar deb nomlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'satmoqdaki, hozirgi vaqtda O'zbekistonda mulkning ko'p ukladli shakllari mavjud. Ular iqtisodiy asos sifatida xizmat qiluvchi xo'jalik yuritish turli usullarini belgilab beradi. Shulardan eng asosiylari quyidagilar:

- tabiiy resurslarga umumxalq mulkchiligi;
- ta'lim, sog'liqni saqlash va qator boshqa ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish resurslariga davlat mulkchiligi;
- tabiiy monopoliya resurslari va mahsulotlariga davlat – korporativ mulkchilik;
- kichik biznes sohasida turli xildagi xususiy shakldagi mulkchilik.

Ta'kidlash lozimki, bular mulkning iqtisodiy shakllari bo'lib, barcha mulk huquqlarining shakllanishini belgilab beradi.

“Mulk” va “mulk huquqi” tushunchalari bir – biridan farq qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda “mulk” deganda ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlarining muayyan shaxslarga – insonlar yokiular guruhiga tegishliligi tushuniladi.

Mulk tushunchasi ikkita fan: iqtisodiyot va huquq fanlarining chegarasida turadi. Har qanday jamiyatda mulk munosabatlari yuridik jihatdan konstitutsiya, qonunlar va ko‘p sonli boshqa huquqiy hujjatlar (farmonlar, qarorlar, farmoyishlar) bilan tartibga solinadi.

Mulk – huquqi bir tomondan – subyektiv ashyoviy huquq. O‘z mazmuniga ko‘ra mulk huquqi barcha ashyoviy huquqlar ichida eng keng huquqdir: mulkdor o‘z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega.

Mulk tushunchasi obyektiv tarzda uchta o‘lchovga ega: egalik qilish, foydalanish va boshqarish. Mulkdor rasman mulkdan olinadigan ne‘matlardan foydalanish va mulk obyektini boshqarish mutlaq huquqiga ega.

O‘zbekistonda mulk huquqining asosiy manbai qonunchilik hisoblanadi va mulk munosabatlarini tartibga soluvchi me‘yoriy huquqiy hujjatlarning qat’iy pog‘onasi mavjud. Ularning asosiy manbalariga quyidagilar kiradi.

I. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi; O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi; Soliq Kodeksi va boshqalar.

II. “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi; “Mulk to‘g‘risida”gi; “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi; “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi; “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi; “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi; “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarinng kafolatlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari va boshqalar.

III. “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi; “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi; “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi; “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi; “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari va boshqalar.

Ushbu qonunchilik hujjatlarida mulk shakllarining teng huquqliligi, mulkdor huquqining kafolati va himoyalanganligi, turli tashkiliy – huquqiy shakllardagi

xo‘jalik yurtuvchi subyektlar (aktsiyadorlik, mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar, xususiy va qo‘shma korxonalar, fermer va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan dehqon xo‘jaliklari va boshqalar)ni tashkil etish va ular faoliyat ko‘rsatishi mexnizmi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tamoyillari va tizimi kabi me‘yorlar o‘z aksini topdi. Ushbu qonunlar bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida mulk munosabatlarini huquqiy tartibga solishning asosiy belgilarini mustahkamladi.

Hozirgi vaqtda mulk huquqini himoyalash masalalari muhim hisoblanadi. Boshqaruv tizimidagi xatolar mulkdorlar huquqlarining tez-tez buzilib turilishi bilan kuzatiladi.

Mulk huquqi – milliy huquqiy – institutsional tizimni rivojlantirishning “tayanch nuqtalari”dan biri hisoblanadi. Mulk huquqining institutsional rivojlanishiga iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy, ekologik va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatadi. Fan – texnika taraqqiyoti va yangi axborot texnologiyalari (intelektual mulk institutining rivojlanishi) mulk huquqining rivojlanishiga alohida ta’sir etadi.

Turli mulk shakllarining tarkibi va mulk huquqi tizimi bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda iqtisodiyotning ikkita asosiy sektori – xususiy (shu jumladan korporativ) va umumiylikdagi mulk sektorlari (davlat va munitsional mulk) shakllanmoqda va ularning har biri o‘z mulk shakllariga asoslanadi. Iqtisodiyotning ushbu sektorlari va mulk shakllari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va iqtisodiy raqobat munosabatlari o‘rnatilgan.

Turli mulk shakllarining rivojlanishi bozor munosabatlarini huquqiy tartibga solishning boshqa soxalari evolyutsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda xususiy mulk shakllarining xilma-xilligi mehnatni tashkil qilishning mulkdor va hodim o‘rtasidagi huquqiy aloqalar bilan farq qiluvchi turli shakllarini keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda.

Mulk shakllarining tabaqalanishi mulk huquqi institutining demokratlashuviga (subyektlar doirasining kengayishiga) olib kelmoqda.

Mulk huquqi ikkita asosga ko'ra tabaqalanishi mumkin: obyekt bo'yicha va subyekt bo'yicha. Turli mulk shakllarini tashkil etish asosida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish yotadi. Mulk huquqi davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida cheklanishi mumkin. Ommaviy huquqiy manfaatlarda mulk huquqini suiite'mol qilish va undan foydalanish ommaviy manfaatlarga dahldor bo'lgan o'z mulkini yo'q qilishga haqli emas. Mulk huquqining amalga oshirilishi atrof muhitga ziyon etkazmasligi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzmasligi shart. Mulk huquqi institutida ommaviy-huquqiy asoslarning ko'payishiga ishlab chiqarishni umumlash-tirish jarayoni kabi omil ham ta'sir ko'rsatadi. Mulkning aktsiyadorlik shakli roli ortib bormoqda. Ushbu mulk shakli o'z tabiatiga ko'ra jamoaviy xususiyatga ega. Uning shakllanishida xususiy sarmoya bilan bir qatorda davlat sarmoyasi ham ishtirok etmoqda.

Xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkning daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy negizi hisoblanadi. Har bir tadbirkor, avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. Shuning uchun ham tadbirkorlar o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston mustaqilligi yillarida xususiy mulkni himoya qilish, uning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha keng -miqyosli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mulkiy munosabatlar amaldagi bir qancha qonun hujjatlari va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Bunday qonunchilik hujjatlarida xususiy mulk va mulkdorlarning huquqlari, ya'ni o'z mulkiga egalik qilishlari, undan erkin foydalanishlari, uni tasarruf etishlari, o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi hamda shu kabi bir qator

huquq va erkinliklari belgilangan. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan xususiy mulk va mulkdorlar huquqlarining amalga oshirilishi, manfaatlariga rioya qilinishining ta'minlanishi, albatta, davlat tomonidan kafolatlanishi zarur.

Mulk huquqi institutining rivojlanishida ko'p asrlik an'analarga tayanish, O'zbekiston davlatchiligi va jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda davlat va xususiy mulk shakllarini optimal nisbati chegarasini ishlab chiqish zarur. Bunday nisbat har qanday huquqiy davlatga ustuvor hisoblangan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning qulay holatini ta'minlaydi. Qachonki mulk huquqi instituti ijtimoiy yo'naltirilgan me'yorga aylansa, ana shunda uning qadri oshadi. Chunki xususiy mulk-iqtisodiy raqobatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi.

10.2. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda klasterlashtirish siyosati

Raqobat ustunliklarini shakllantirish va rivojlantirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga, aholi farovonligini oshirishga, hududning resurs salohiyatidan yanada samarali va oqilona foydalanishga hissa qo'shganligi sababli raqobatbardoshlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning, shu jumladan mintaqaviy tizimlarning barqarorligini ta'minlashning asosiy shartiga aylanadi.

Hududiy rivojlanishning yuqori darajasiga ikki yo'l bilan: tashqi qo'llab-quvvatlash va markazlashgan mablag'larni hududlar o'rtasida qayta taqsimlash va ichki zahira va imkoniyatlarni to'laligicha safarbar qilish asosida erishish mumkin. Raqobat qo'yilgan maqsadlarga erishish borasida qo'shimcha ichki kuchlarni safarbar qilish va faollashtirishning eng muhim omili hisoblanadi.

Hudud miqyosidagi raqobat o'ziga xos jihatlarga egaligi bilan ajralib turadi, bunda turli darajadagi subyektlarning gorizontaal va vertikal aloqalari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning hozirgi bosqichida gorizontaal va vertikal aloqalar turlicha turlicha ko'rinish kasb etadi. Bu xil aloqalar ba'zida shiddatli raqobat tusini olsa, ba'zi holatlarda esa hamkorlik va sherikchilik ko'rinishini oladi.

Bizning fikrimizcha, raqobat shubhasiz inson kapitalining bilim va qobiliyatlaridan yuqori darajada samarali foydalanishni ta'min etadi. Insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan ne'matlarning asosiy qismi o'zaro musobaqalashuv orqali yaratilgan. Shu nuqtayi nazardan olganda, bugungi kunda jahon xo'jaligida raqobat kurashi tobora shiddatli tus olayotgan bir paytda, hududlar va o'z navbatida mamlakat iqtisodiyoti, xususan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirishda, mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish, bilim va tajribani ishga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda raqobat tushunchasining mazmun va mohiyatini aniqlashtirish borasida turli yondashuv va qarashlar mavjud. Turli mualliflar haqli ravishda raqobat bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi, "bozorning mavjud bo'lishi va faoliyat ko'rsatishining asosi", "kapitalning mavjud bo'lish shakli", "raqobat- zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh harakatlantiruvchi kuchi" ekanligini ta'kidlaydilar. Bugungi kunda klasterlarni tashkil etish va ularning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish borasida etarlicha boy nazariy va amaliy tajribalar to'plangan. 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida yashab, ijod qilgan iqtisodchilarning ilmiy izlanishlari orqali klaster nazariyasiga asos solingan. Bu borada ma'lum bir hududda joylashgan korxonalarining o'zaro mujassamlashuvidan tarkib topuvchi sanoat rayonining o'ziga xos jihatlarini ochib bergan Alfred Marshallning hissasi beqiyosdir. O'tgan asrimizning 90-yillaridan boshlab, ishlab chiqarishni hududiy jihatdan tashkil etishning o'ziga xos yangi shakli sifatida klasterlarga alohida e'tibor qaratila boshlandi va mazkur masalalar M.Porterning ilmiy ishlarida nazariy jihatdan asoslab berildi.

Klasterlarni turlicha talqin qilish va klasterlarning turli modellarining mavjudligi klasterga bir-biri bilan o'xshash jihatlari ko'p bo'lgan turli xil ta'riflarni keltirib chiqargan. Masalan I.N.Goretov agrosanoat klasterini "qo'shilgan qiymat yaratishning texnologik zanjiriga kiruvchi va agrosanoat majmuining turli sohalarini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosida tashkil

etilgan, innovatsion yo‘naltirilgan va tarmoqli tashkillashtirish elementlariga ega hududiy-lokal integratsion tuzilma” sifatida ta’riflaydi.

V.A. Kundius i N.A. Golovinlar esa agrosanoat klasterini “innovatsion faoliyatni faollashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida savdo-ishlab chiqarish faoliyati bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va ma’lum bir hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning o‘zaro uyg‘unligi” sifatida talqin qiladilar. Umuman olganda bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish – agrosanoat majmuidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Agrosanoat majmuidagi klasterlarni tashkil etish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Xususan, O‘zbekistonda klasterlarni tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkiliy masalalari A.Bekmuradov, N.Yo‘ldoshev, M.Boltabaev, Sh.Madjidov, D.Mirzaxalilova, D.Kurbanova, G.Zaxidov kabilar tomonidan atroflicha yoritib berilgan.

Hozirgi bosqichda raqobatni har bir insonning ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish yo‘li bilan tanlangan bozorda o‘z mavqeini saqlab qolish va uni mustahkamlash uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar sifatida qarab chiqish, bizningcha eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Tanlangan bozorda faoliyat ko‘rsatishning barqarorligini ta’minlashga intilish xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning transformatsiyalashuviga olib keladi. Iste’molchi va uning ehtiyojlarini qondirish borasida kurashda xo‘jalik yurituvchi subyektlar bozordagi o‘z xulq-atvor taktikasi va strategiyalarini o‘zgartiradilar. Ular keskin raqobat kurashidan raqobatchilar bilan uzviy hamkorlik qilishga asta-sekinlik bilan o‘tib borishni ma’qul ko‘radilar. Shunday qilib, zamonaviy raqobat kurashining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unga ko‘ra raqobat o‘zaro kurash (bellashish) va hamkorlik (sharikchilik)ning ziddiyatli yaxlitligini ifoda etadi.

Bizning fikrimizcha, raqobatning mohiyati quyidagi raqobat ustunligi (past tannarx, taniqli savdo markasi, ishlab chiqarilgan tovarning yuqori sifati, yangi o‘ziga xos mahsulot, yangi texnologiyalardan foydalanish, yuqori malakali

personal va shu kabilar), raqobat strategiyasi, raqobat salohiyati kabi tushunchalar orqali to‘laligicha ochib beriladi va bir muncha takomillashgan raqobatbardoshlik kategoriyasiga o‘tib boradi. Raqobatbardoshlik o‘z navbatida aniq bir subyektning ichki xususiyatlarini to‘laqonli aks ettiradi va shu bilan bir qatorda ushbu subyektning umumiy bozor munosabatlari tizimidagi o‘rnini ko‘rsatib beradi.

Hududiy raqobatni rivojlantirish borasidagi nazariy yondashuvlarni tadqiq qilish jarayonida uning amaliy ahamiyati quyidagilarda o‘z aksini topishini aniqlashtirdik.

Birinchidan, raqobat mahalliy davlat hokimiyati organlarini raqobatchilar va ehtimoliy hamkor-sheriklar bilan o‘zaro bog‘liqlik va aloqalarni, o‘z hududining holatini tahlil qilishga undaydi.

Ikkinchidan, hudud resurslari iste‘molchilarining maqsadli guruhlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Bunday o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘z profilining strategik yo‘nalishini tanlash raqobatbardoshlik omillarini rivojlantirish va iste‘molchilarni saqlab qolish yoki qo‘shimcha guruhlarini jalb qilish muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi.

Uchinchidan, hudud raqobatbardoshligini baholash hududning tashqi muhitdagi strategiyasini belgilash va uning o‘rnini bosqichma-bosqich mustahkamlash monitoringini amalga oshirishning muhim unsuri hisoblanadi.

To‘rtinchidan, alohida viloyatlar va tumanlar o‘rtasidagi raqobat munosabatlarini rivojlantirish amalda mamlakatning raqobat salohiyati-ni oshiradi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Ammo buning uchun, eng avvalo, markaziy hukumat va mahalliy davlat hokimiyati idoralari tomonidan hududiy tashkillashtirishning barcha subyektlari uchun erkin va teng raqobat borasida zaruriy shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Shuni yana alohida qayd etish lozimki, hududlar o‘rtasidagi raqobat o‘z ichiga ularning siyosiy, qonunchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy tizimlari, strategiyalari va hududlarning muvaffaqiyatlari borasidagi o‘zaro

bellashuvlarni qamrab oladi. Bunda maqsadli guruhlarning turli manfaatlari muayyan hududlarning o'ziga xos jihatlari bilan o'zaro uyg'unlikda raqobatni baholash, aniqlashtirish va uni oshirish yo'nalishlarining ko'p qirrali va ayni chog'da murakkab hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda klaster siyosatining mohiyatida yuqori monopollashgan O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy muammolarini ya'ni mintaqaviy va mahalliy bozorlarni, iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Birinchidan, klaster siyosatining markazida raqobatbardosh bozorni rivojlantirish, raqobatni kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi hamda asosiy omil sifati xizmat qiladi.

Shu bilan birga, klaster siyosatidagi davlat tashabbusi birinchi navbatda kuchli va ijodiy kompaniyalarni qo'llab-quvvatlashga va samarador muhitni yaratishga qaratilgan, bu esa o'z navbatida, zaif va qayta ishlaydigan firmalarning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, klaster siyosati mikroiqtisodiyotga katta e'tibor beradi - mahalliy bozorlarni va noyob bo'lmagan (tabiiy resurslar va boshqalar) asosida kompaniyalarni tahlil qilish va birinchi navbatda ishlab chiqarish omillari (yuqori malakali ishchi kuchi, qulay infratuzilma va boshqalar) yaratildi.

Klaster siyosatidagi mikroiqtisodiy yondashuv rivojlanishning mahalliy xususiyatlarini inobatga olib, xususan, paxtachilik-to'qimachilik, farmatseptika kabi tarmoqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish va raqobatdoshligini oshirish bo'yicha samarali maqsadli dasturlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Uchinchidan, klaster siyosati davlat va mahalliy hokimiyat organlari, biznes va ilmiy va ta'lim muassasalari o'rtasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining innovatsionligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun o'zaro hamkorlikni tashkil etishga asoslangan.

Nihoyat klaster siyosatini amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda kam rivojlangan

kichik va o'rtta biznesning innovatsion salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Davlatning klaster siyosatini yuritishda to'rtta roli mavjud:

1) moliyaviy klaster siyosati. Davlat manfaatdor tomonlarni (masalan, xususiy kompaniyalar va tadqiqot tashkilotlari) birgalikda loyihalarni taqdim etganda loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy ko'makni ta'minlaydigan klaster siyosatida;

2) klaster siyosatini qo'llab-quvvatlash. Klasterlarni rivojlanishiga rag'batlantirish uchun mintaqaviy infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va shu kabi investitsiyalarini qo'llab-quvvatlashda;

3) davlatning qo'llab-quvvatlovchi funksiyasi. Klasterlarni rivojlan-tirish orqali mintaqaviy ixtisoslikni o'zgartirishga qaratilgan maxsus dasturlar bilan to'ldirilganda;

4) Hukumat o'zining siyosat funksiyasi. Klasterlarning kelgusida rivojlanishi va transfer, subsidiyalar, cheklashlar yoki tartibga solish, shuningdek, klasterdagi firmalarning faol nazoratini ta'minlash bo'yicha mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan faol klaster siyosatini yuritish tashkil etadi. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida shiddatli, sifat jihatdan yangi tarkibiy va erkin bozor munosabtlarini qaror toptirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ustuvorliklari tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda, iqtisodiyotni haqiqatda harakatga keltiruvchi quvvatga ega bo'lgan iqtisodiy o'sishning yangi, amaliy drayverlari joriy etilmoqda. Eski, o'z ahamiyatini yo'qotgan institut va iqtisodiy regulyativ vositalar iqtisodiyotga ta'sir etishning yangi innovatsion va samarali shakl hamda usullariga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda.

10.1-jadval.

Klasterlashtirish siyosatini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari.

Ishlab chiqarish korxonasi shakli	Manzili	Siyosatni o‘tkazuvchi davlat organlari	Siyosatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari	Siyosatni amalga oshirish shakli
Kengaytirilgan klasterlar	Mamlakat	Davlat boshqaruvi organlari	Raqobatni qo‘llab-quvvatlash, umumiy ta‘lim va ekologik standartlarni oshirish; klaster kompaniyalarining tashqi bozorlarda manfaatlarini ilgari surish	Qonun ijodkorligi, xalqaro shartnomalar
Hududiy ishlab chiqarish komplekslari	Hudud yoki bir necha hududlar	Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan - hududiy ishlab chiqarish komplekslari loyihalarini	Yangi foydali qazilmalarni qazib olish; yangi o‘zlashtirilgan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish; mavjud MIKni kengaytirish	Hududiy ishlab chiqarish komplekslarini davlat xususiy sherikchilikga oid qonunchilik bazasi bilan mustahkamlash
Klasterlar geografiyasi	Mamlakat, viloyat, tuman	Hududiy mahalliy davlat hokimiyati	Mahsulotlarni O‘zbekiston va tashqi bozorlarga olib chiqish; mintaqaning «brendini» yaratish; hokimiyat, universitetlar tadqiqot institutlari, texnoparklar va xususiy kompaniyalar o‘rtasidagi aloqalarni faollashtirish,	Davlat-xususiy sherikligi; huquqiy tartibga solish; klasterni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish
Klaster tashabuskorligi	Mahalliy hokimiyat	O‘z-o‘zini boshqarish mahalliy davlat hokimiyati	Tegishli quyi tarmoqlarda kompaniya tarmoqlarini rivojlantirish; hokimiyat, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, texnoparklar va xususiy kompaniyalar o‘rtasida aloqa tarmoqlarini yaratish; mahsulotlarni O‘zbekiston va tashqi bozorlarda ilgari surish	Davlat-xususiy sherikchiligi; davlat xaridlarini amalga oshirish; kompaniyalarni faoliyatini diversifikatsiya qilish

Dastlab agrosanoat majmui qishloq xo‘jaligi va sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarini o‘z ichiga qamrab oladi, deb hisoblangan va mazkur majmua tomonidan ishlab chiqariluvchi mahsulotlar qatoriga oziq-ovqat mahsulotlari, teri, tekstil, tamaki va shu kabi mahsulotlar kiritilgan. O‘tgan asrimizning 80-yillarida agrosanoat majmuasining tarmoq tuzilmasi borasida ilmiy izlanishlar olib borgan N.E. Smetanina, V.A. Tixonova, M.Ya. Lemesheva kabi rossiyalik tadqiqotchilar agrosanoat majmuasini uchta sohaga ajratishni taklif qilganlar:

-xizmat ko'rsatuvchi soha (turli mashinasozlik korxonalari, qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, kadrlar tayyorlash va boshqalar);

- qishloq xo'jaligi (o'simchilik va chorvachilik);

- oziq-ovqat sanoati.

Shu tariqa, ASM favqulodda keng ko'lamli va ko'p qirrali tizim sifatida namoyon bo'ladi. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i agrar sektor bilan uzviy bog'liqlikda faoliyat ko'rsatsada, biroq bugungi kunda davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan yagona yaxlit agrosanoat majmui mavjud emas.

Biz bu o'rinda, mazkur sohadagi holatni zudlik bilan o'zgartirish tarafdori emasmiz, chunonchi bu boradagi shoshma-shosharlik haddan ziyod murakkab boshqaruv tizimining paydo bo'lishiga olib keladi, zero mazkur sohada turli ishlab chiqarishlarni tashkil etish haqiqatdan ham tarmoqlararo tavsifga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Rossiyalik tadqiqotchilar S.G. Azikova, G.A. Bobkov, X.X. Soxrokovlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda agrar soha mahsulot-larining 1 % qo'shimcha o'sishi sanoat infratuzilmasi tarmoqlari mahsulotlarining 2,5%ga, qayta ishlovchi tarmoqlar mahsulotlarining – 1,4%, transport xizmatlarining -0,33%, savdo hajmining esa 2,7%ga o'sishiga olib kelishi aniqlangan.

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlari uchun asosiy mahsulot va xomashyo etkazib beruvchi tarmoq sanalishi bilan bir qatorda, mamlakatning oziq-ovqat va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi, mamlakatning import oziq-ovqatlariga bo'lgan qaramligiga barham beradi. Shu bois iqtisodiy nuqtai nazardan oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan olib kirish foydali bo'lsa ham, rivojlangan mamlakatlar o'z qishloq xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash borasida turli-tuman vositalardan keng foydalanadilar. Masalan, AQShda davlatning fermerlarga ko'rsatadigan yordami ular oladigan daromadning 30 foizini tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Yaponiyada 66 %, Norvegiyada 77%, Shveysariyada esa 80 %ni tashkil etadi. Ayni vaqtda mamlakatimizda davlat tomonidan qishloq

xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko'rsatilayotgan ko'mak 10 foizni tashkil etgani holda, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha importga qaramlik o'zining belgilangan me'yoridan bir necha barobarga ko'pdir.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida va oziq-ovqat sanoatida mamlakatimiz aholisining har beshtasidan bittasi band bo'lsa, mamlakat YaIMida mazkur tarmoqlarning ulushi qariyb 23 foizni tashkil etadi, chakana savdo aylanmasining salkam 51foizi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq hududlarida mamlakatimiz aholisining salkam 50 foizi, shahar atrofi hududlarida 21 foizi istiqomat qilayotgan bir paytda, agrosanoat majmui korxonalarini aholi bandligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz agrosanoat majmui uchun xos bo'lgan muammolar uning potentsial imkoniyatlari va investitsion jozibdorligining sezilarli darajada pasaytirib yubormoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda masalaning ushbu jihati etarlicha batafsil qarab chiqil-ganligi bo'lsada, quyida mamlakatimiz agrosanoat majmui uchun xos bo'lgan ba'zi bir jihatdar ustida to'xtalib o'tamiz.

1. Kuchli raqobat muhiti. Bir xil tabiiy-iqlim sharoitlarida faoliyat ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining natijalari bir-biridan unchalik ham katta farq qilmaydi.

2. Yaxshi hosil olishning to'liq kafolatlanmaganligi. Hattoki serhosil erlarda ham noqulay ob-havo tufayli yaxshi hosil olinmasligi mumkin (bu vaziyat keyingi yillarda iqlim o'zgarishlari bois ko'p kuzatilmoqda).

3. Mavsumiylik, texnologik jarayonning uzoqligi, tushumlarning kechikishi.

4. Ko'pi bilan uchtagacha qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirishga mo'ljal olish. Bunday yondashuv doimiy bir xillikka ega bo'lgan texnikalardan foydalanishni, bir xil iste'molchilar bilan ish olib borishni ko'zda tutsada, o'zgaruvchan bozor sharoitida bunday yondashuv o'zini oqlamaydi.

5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tovarlilik darajasining pastligi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlaridan biri shundaki,

ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ma'lum bir qismi takror ishlab chiqarish maqsadlarida qishloq xo'jaligining o'zi tomonidan iste'mol qilinadi.

Integratsiya mahsulot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash va sotishning yopiq tsiklini tashkil etish, ishlab chiqarish jarayoniga malakali mutaxassislarni jalb qilish va unda ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish, shuning bilan bir qatorda mahsulotlarning tovarlilik darajasini oshirish, mahsulotlarni vositachilarsiz sotish imkonini beradi.

Agrosanoat majmuida faoliyat ko'rsatuvchi mahalliy va xorijiy korxonalar uchun bir turdagi mahsulot komponentlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalarining o'zaro qo'shilishida namoyon bo'luvchi vertikal integratsiya ham xosdir. Ushbu holatda korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari izchil birlashtirilgani holda, integratsiyalashgan tuzilma ishtirokchilarining transaksion xarajatlari qisqartirilishiga erishiladi. Klasterli yondashuvdan foydalangan holda vertikal integratsiyalashgan korxonalar faoliyati samadorligini yanada oshirishimiz mumkin.

Korxonalar va tashkilotlarning geografik jihatdan konsentratsiyasi klaster kontsepsiyasining yadrosini tashkil etadi. Klaster tarkibiga kiruvchi kompaniyalar axborot, texnologiyalar, tovar va xizmatlarni o'zaro ayriboshlaydilar, ular jamoaviy brend va yaxlit savdo tarmog'idan birgalikda foydalanadilar. Klaster tizimini joriy etish- bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'li bo'lib qolmasdan, balki mamlakat va mahalliy darajada korxonalarining innovatsion faolligini oshirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, hududning geografik joylashuvi, tabiiy-iqlim sharoitlari va agrosanoat ixtisoslashuvi bilan bog'liq bo'lgan raqobat ustunliklarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Alohida shaxslarga tayanuvchi yangi bilimlar nazariyasiga muvofiq, yangi bilimlar va tajribalar ilmiy maqolalar yoki qo'llanmalar yordamida emas, balki shaxsiy muloqot yo'li bilan aniq bir mutaxassislarning amaliy tajribalarini o'zaro muhokama qilishlari orqali samarali tarzda yoyiladi. O'z navbatida o'zaro aloqada bo'luvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar bevosita bir-birlari bilan yaqin masofada

joylashishlari talab etiladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning geografik jihatdan lokalizatsiyasi amaliyotda ham yaqqol o‘z tasdig‘ini topganligini ko‘rishimiz mumkin, xususan Daniya, Finlyandiya, Norvegiya va Shvetsiya sanoati bugungi kunda to‘liq klaster tizimi asosida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Klasterda raqobatning mavjudligi klasterning iqtisodiy jihatdan zaif ishlab chiqarishlarni qo‘llab-quvvatlashini anglatmaydi, klasterda ishtirok etish uchun korxonalar ma‘lum bir talablarga javob berishi lozim.

Yuqorida bayon etilganlar asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va boshqa korxonalar –tashkilotlarning integratsiyalashgan tuzilmasini barpo qilishda agrosanoat majmuidagi faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlardan biri tashabbuskor bo‘lishi lozimligini ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Bu o‘rinda integratsion tuzilmani tashkil etish tashabbuskori yoki tashabbuskorlar guruhining mahalliy hokimiyat idoralari, ilmiy hamjamiyat va oliy ta‘lim muassasalarining vakillari bilan o‘zaro yaqindan hamkorligi talab etiladi. O‘z navbatida hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish maqsadida quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni taklif etamiz:

1. Integratsiyalashgan tuzilmani tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh tuzish, ishlarni amalga oshirish tartibi, muddatlari va moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirib olish. Ishchi guruh quyidagi variantlardan birini ifoda etishi mumkin:

– ekspertlar sifatida mahalliy hokimiyat idoralari mutaxassislari va tarmoq korxonalar vakillaridan iborat bo‘lgan ishchi guruh;

– ma‘lum bir xizmatlar ko‘rsatish maqsadida tuzilgan shartnomalar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi konsalting kompaniyalari, oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va mahalliy hokimiyat idoralari vakillari;

– ta‘sischilaridan biri mahalliy hokimiyat idoralari bo‘lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot.

2. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash Strategiyasi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish Strategiyalari va mazkur yo‘nalishlarda

ishlab chiqilgan Dasturlarda ko'zda tutilgan vazifalar ijrosini e'tiborga olgan holda integratsiyalashgan tuzilmani tashkil etishning maqsad va vazifalarini asoslash.

3. ASM tarmoqlari va korxonalari o'rtasida iqtisodiy jihatdan asoslangan, istiqbolli texnologik va ishlab chiqarish aloqalarini aniqlashtirish.

4. Integratsion tuzilmaning boshqaruvchi organini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

5. integratsiyalashgan tuzilmaning ehtimoliy ishtirokchilari tarkibi va ularning vazifalarini aniqlashtirish.

6. Birlashmaning tashkiliy-huquqiy shaklini tanlab olish.

7. Integratsion tuzilmaning ehtimoliy ishtirokchilari uchun talablarni ishlab chiqish.

8. Integratsion tuzilma ehtimoliy ishtirokchilarining ishlab chiqarish va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftishdan o'tkazish.

9. Integratsion tuzilmaning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi va unga to'sqinlik qiluvchi omillar va shart-sharoitlarga oydinlik kiritish, mavjud to'siqlarni engib o'tish yo'llarini izlab topish.

10. Integratsion tuzilmani tashkil etish, shu jumladan sinergetik samaraga erishishning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish.

11. Integratsion tuzilma faoliyati samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish.

12. Korxonalar va tashkilotlarning integratsion jarayonlari sxemasini aniqlashtirish.

13. Integratsion tuzilma ishtirokchilarining o'zaro aloqalarining tartib-tamoyillarini mustahkamlovchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish.

14. Mahalliy hokimiyat idoralari bilan integratsion tuzilmaning o'zaro munosabatlari mexanizmini shakllantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga aniqlik kiritish.

15. Monopoliyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlar xulosasini olish.

16. Integratsion tuzilmani tashkil etish borasida shartnomalar loyihasini ishlab chiqish, uni atroflicha muhokama qilish va imzolash.

Har bir hudud doirasida integratsion tuzilmalarni barpo etish bo'yicha uslubiy ishlanmalarni ishlab chiqish orqali yuqorida keltirib o'tilgan savollarga osonlik bilan javob topishimiz mumkin bo'ladi.

10.3. Tuzilmaviy siyosat va iqtisodiyotni modernizatsiyalash

Davlat va hukumat idoralarining milliy iqtisodiyotning eng samarali nisbatlarini shakllantirish va ta'minlash bilan bog'liq faoliyati tarkibiy siyosat deb ataladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning turli jihatlari o'rtasidagi mutanosiblik va munosabatlar obyektiv bo'lib, ular ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi, milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotiga qo'shilish darajasi, ilmiy, texnik va ijtimoiy jarayon qonunlari, tsikllarning tabiati va inqirozlar bilan belgilanadi.

Davlat milliy iqtisodiyotning nisbatlariga ma'muriy-huquqiy usullar va bozorga xos bo'lgan vosita va dastaklar orqali o'z ta'sirini o'tkazadi.

Davlat tomonidan tartibga solish usullarining mazmuni iqtisodiyot, tartibga solish obyektlarining o'zi, ya'ni nisbatlarning o'ziga xos turlari, shuningdek tarixiy omillar va odamlarning o'ziga xos yashash sharoitlari bilan belgilanadi.

Milliy iqtisodiyotning nisbatlari quyidagicha guruhlanadi: umum iqtisodiy (makroiqtisodiy), tarmoq va mintaqaviy (mezoiqtisodiy), tarmoq va ishlab chiqarish ichidagi (mikroiqtisodiy), davlatlararo, xalqaro (mega-iqtisodiy). Nisbatlarning barcha turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq, yaqin birlikda va o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotni tashkil etishda asosiy rolni umumiy iqtisodiy nisbatlar o'ynaydi: tovarlarga talab va taklif, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ishlab chiqarish, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, qoplash, iste'mol va jamg'arish fondlari nisbati, tarmoq va mintaqaviy majmualar o'rtasidagi nisbatlar.

Ayni paytda mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi, bunday sharoitda milliy iqtisodiyotning ikki yirik tarmog'i - davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlar va aloqalar alohida ahamiyatga ega.

Davlatning milliy iqtisodiyot tuzilishini tartibga solishdagi faoliyati tashqi va ichki, hal qilinayotgan muammolarning teranligiga ko'ra - strategik va taktik faoliyat turlariga bo'linadi.

Strategiya-bu davlatning keng ko'lamli milliy iqtisodiy muammolarni har tomonlama hal qilishga qaratilgan uzoq muddatli yo'nalish hisoblansa, taktika esa -strategik rejalar va vazifalarni hal qilish usullari va vositalari to'plami hisoblanadi.

Tarkibiy siyosatning eng asosiy maqsadi iqtisodiyotning muvozanatiga erishish, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jalik aloqalariga organik qo'shilishi asnosida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi nisbatlarni ta'minlashdan iboratdir.

Yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning o'sishi milliy iqtisodiyot muvozanati va tarkibiy siyosat samaradorligining obyektiv mezonini hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash turlarini aniqlashtirgan holda, ularning mazmunini ochishga harakat qilamiz.

Olimlar jahon iqtisodiyotining tarixi umuman olganda modernizatsiya tarixi degan qarashni ilgari suradilar. Ushbu jarayonning rivojlanishi doirasida modernizatsiyalashning turli xil ko'rinishlari qaror topdi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

- **rivojlanayotgan (inqilobiy yoki kashshof) modernizatsiya**, nafaqat ma'lum bir mamlakat uchun, balki umuman jahon iqtisodiyoti uchun texnologiya va ba'zan faoliyat turlari bo'yicha tubdan yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi boshlanishini aks ettiradi.

Rivojlanuvchi modernizatsiyani odatda, taraqqiy etgan mamlakatlar amalda keng qo'llaydilar, modernizatsiyalashning muvaffaqiyati pirovardida ularni dunyoda yetakchilik mavqeiga olib chiqadi. Mamlakatning rivojlanayotgan

inqilobiy modernizatsiyani amalga oshirish qobiliyati uning jahon iqtisodiyotida yetakchi mavqega ega bo'lishi borasidagi zaruriy shartlardan biridir;

- **cheklangan modernizatsiyalash**, bunda iqtisodiyotning tadrijiy rivojlanishi tufayli muayyan bir mamlakat davlat aralashuvisiz yoki davlat aralashuvining eng past darajasida taraqqiy etgan mamlakatlarda bo'lgani kabi, o'z hududida eng ilg'or tarmoqlar va faoliyat turlarining paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Cheklangan modernizatsiyalashni odatda tubdan yangi tarmoqlarning paydo bo'lishini ta'min etish imkoniyatiga ega bo'lmagan mamlakatlar qo'llaydilar. Organik modernizatsiya jarayonida mamlakatda inqilobiy, rivojlanayotgan modernizatsiyani amalga oshirish uchun sharoitlar rivojlanishi mumkin;

– **quvib yetuvchi modernizatsiyalash**, bunda mamlakat o'z sa'y-harakatlari bilan qo'shni mamlakatlar tomonidan bosib o'tgan yo'lni qisqa muddatda bosib o'tadi va iqtisodiyotning barqarorligini ta'min etadi.

Modernizatsiyalashni amalga oshirish natijasida mamlakat iqtisodiyoti mustaqil tarzda, davlatning muhim aralashuvisiz texnologik rivojlanishni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lsa, ya'ni uning natijasida mamlakatning jahon taraqqiyotining yetakchilari orasida o'z mavqeiga ega bo'lishi borasida zaruriy shart-sharoitlar yaratilsagina, quvib etuvchi modernizatsiyalashni muvaffaqiyatli amalga oshirilgan deb hisoblashimiz mumkin.

Tarkibiy siyosatni ustuvor iqtisodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar shakllanadigan, milliy ishlab chiqaruvchilar va mahsulotlarning tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishga qaratilgan sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va samaradorligini oshirish strategiyasining bir turi sifatida qarash lozim, Tarkibiy siyosat shu bilan bir qatorda, mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

O'zbekistonda faol sanoat siyosatini amalga oshirish mafkuradan holi bo'lishi va amaliy- konstruktiv ruhga ega bo'lmog'i lozim. Shu bilan birga, sa'y-

harakatlar iqtisodiyotning aniq muammolarini samarali hal etishga yo‘naltirilgan haqiqiy boshqaruv texnologiyalarini izlashga yo‘naltirilishi kerak.

Tarkibiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- faoliyatning barcha turlarini emas, balki muayyan bir faoliyat turlarini tanlab olishi lozim;

- muhim ijobiy tashqi ta’sirlarni beradigan va boshqa omillar bilan yaqin aloqada bo‘lgan faoliyatni tanlash;

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda selektiv yondashuv.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida O‘zbekiston rivojlanishining hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari ikkita tendentsiya bilan tavsiflanadi – O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi va postindustrial jamiyat tomon harakatlanishi. Bu esa tarkibiy siyosatni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

O‘z-o‘zidan ayonki, mehnat unumdorligi bilan taqqoslaganda aholi real daromadlarining o‘sish sur‘atlarining yuqoriligi mamlakatni iqtisodiy jihatdan qoloqlikka etaklashning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi. Iqtisodiy inqiroz sharoitida yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarimiz har qachongidan ko‘ra dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qanchalik hayratomuz tuyulmasin, ijtimoiy xarajatlarning o‘sishi uzoq muddatda tadbirkorlik faolligini cheklaydi, ishlab chiqarish faoliyatini rag‘batlantirishni kamaytiradi va boqimandalik kayfiyatini yuzaga keltiradi, bularning barchasi iqtisodiyotning rivojlanishini ortga suradi.

Iqtisodiy tanglikning kuchayishi, byudjet xarajatlarining hadda tashqari o‘sib borishi sharoitida mazkur ko‘rinishdagi byudjet siyosatini amalga oshirish imkonsiz bo‘lib qoladi, ushbu holatda birdan-bir to‘g‘ri yo‘l mavjud resurslardan oqilona foydalanish, “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash va ijtimoiy infratuzilmaga manzilli va maqsadli mablag‘larni yo‘naltirish hisoblanadi.

Shu tariqa, tarkibiy siyosat mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya-lashning muhim vositasi hisoblanadi. Tarkibiy siyosatni amalga oshirish maqsadlarni to‘g‘ri

belgilashni, tanlangan maqsadlarga erishish yo'llari va vositalarini tanlashni, tarkibiy siyosatni o'tkazish mexanizmini ishlab chiqishni, tarkibiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan tarkibiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash uchun quyidagi mezonlarni taklif qilish mumkin.

Birinchidan, ma'lum bir faoliyat sohasida raqobatbardosh ustunliklarning mavjudligi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishlar va tarmoq mahsulot va xizmatlariga samarali talabning (ichki va tashqi) o'sishi istiqbollari.

Uchinchidan, umuman iqtisodiyot yoki muayyan bir tarmoq/ishlab chiqarishga multiplikativ samaraning sezilarli ta'sirining mavjudligi.

Tarkibiy siyosatning xomashyo omilini yuqori texnologiyalar foydasiga o'zgartirish mumkin, ammo buning uchun daromadlarning muayyan bir qismini fundamental fanni rivojlantirish, ilg'or texnika va texnologiyalardan keng foydalanishga yo'naltirish talab qilinadi.

To'rtinchidan, biznes faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan institutsional muhitni rivojlantirish.

Institutsional sohada eskirgan va istiqbolsiz tarmoqlardan resurslarni qayta taqsimlashni, shuningdek tabiiy resurslarni zamonaviy ishlab chiqarish va texnologik tizimlarga eksport qilishdan olinadigan yuqori foydani zamonaviy ishlab chiqarish-texnologik tizimlarga yo'naltiruvchi iqtisodiy tizimni barpo qilish vazifasi muhim sanaladi, Bunda asosiy e'tibor ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish hisobiga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustivor yo'nalish hisoblanadi.

Rivojlanish institutlarini shakllantirish, nochor korxonalarni qayta qurish, xususiylashtirish dasturi, tashqi savdoni tartibga solish, davlatning ilmiy, texnik, sanoat va moliyaviy siyosati ushbu vazifani hal qilishga bo'ysunishi kerak.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashni amalga oshirish, birinchi navbatda, milliy iqtisodiy tizimning tarkibiy o'zgarishiga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tarkibiy siyosatni amalga oshirish tarmoq tuzilmasining mavjud nomutanosibliklarini yo‘q qiladi va jarayonga yangi yuqori mahsuldor tarmoqlarni olib kiradi, ularning rivojlanishi iqtisodiy o‘shishning innovatsion turini shakllantirishni anglatadi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va tarkibiy qayta qurish aholining hayot sifatini yaxshilashning zaruriy shartidir va aholi daromadlari o‘shishining multiplikativ tebranishlari butun iqtisodiy tizimga katta ijobiy turtki beradi.

Tarkibiy siyosat ustuvorliklarini aniqlashning yuqoridagi mezonlariga rioya qilish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning samarasiz yo‘llarini tanlash ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

10.4. Urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy o‘shishga ta’siri

“Urbanizatsiya” so‘zi lotin tilida shahar ma’nosini anglatib, mamlakat (mintaqa) aholisi tarkibidagi shahar aholisining salmog‘i orqali o‘lchanadi. Urbanizatsiya jarayonlarining asosiy natijalari quyidagilar bilan bog‘liq:

- barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash;
- aholi turmushining sifati yaxshilash va darajasini ko‘tarish;
- uy-joy, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob’yektlari qurilishini keng miqyosda amalga oshirish;
- yer uchastkalaridan samarali foydalanish;
- shaharlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda kompleks rivojlantirish;
- industrial-innovatsion rivojlanishning ustuvor vazifalarini hal etish va raqamli iqtisodiyotni qo‘llash;
- katta, o‘rta va kichik shaharlar rivojlanishini maqbullashtirish;
- shahar aglomeratsiyalari orqali ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning samarali shakllarini tatbiq etish;
- shaharlarda sanoat zonalari, texnoparklar, innovatsiya markazlari tashkil etish.

Urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish bo'yicha jahon amaliyotining tahlili va undan chiqadigan xulosalar shuni ko'rsatadiki, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Singapur, Hindiston va boshqa mamlakatlarda aniq maqsadga yo'naltirilgan urbanizatsiya siyosati faol sanoatlashuv, shaharlarni kompleks rivojlanishini rag'batlantirish, mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, aholi turmush sharoitini izchil oshirib borish, doimiy va barqaror ish o'rinlarini yaratish, yer islohotlarini amalga oshirish va yer uchastkalari bozorini shakllantirish kabi qator chora-tadbirlar bilan uyg'unlikda olib borilgan. Ko'pgina boshqa mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo'lgan urbanizatsiyaning barqaror rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya darajasining 1 foizga ortishi aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichining Xitoyda 10 foizga, Hindistonda esa 13 foizga o'sishini ta'minlagan.

BMT prognoz hisob-kitoblariga ko'ra, jahonda shahar aholisining ulushi 2018 yildagi 55,3 foiz o'rniga, 2030-yilga borib 60,4 foizga etadi. Shahar aholisining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatiladi. Mazkur mamlakatlarda bu jarayon asosan qishloq aholisining shaharlarga ko'chishi va shahar aholisi tabiiy o'sishi bilan bog'liq.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda shaharlar rivojlanishi bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Shahar aholisining salmog'i 1991-yildagi 40,3 foiz o'rniga 2018-yilga kelib 50,6 foizga o'sdi. Bunday o'sish sur'atlariga asosan ma'muriy o'zgarishlar, ya'ni 2009-yilda mingga yaqin qishloq aholi punktlarining shahar posyolkalariga aylantirilishi hisobiga erishildi.

Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayonlarida qator nomutanosibliklar kuzatilmoqda:

- urbanizatsiya darajasi bo'yicha mamlakatimizning jahonda tutgan o'rnini past. BMT xalqaro reyting ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston 2018-yilda ushbu yo'nalishda 233 mamlakat orasida 155-o'rinni egalladi. Vaholanki, bu sohada

dunyodagi o'rtacha ko'rsatkich 55,3 foiz bo'lib, u Rossiyada 74,4 foizni, Turkiyada 75,1 foizni, Qozog'istonda 57,4 foizni, Turkmanistonda 51,6 foizni tashkil etadi;

- oxirgi 10 yil mobaynida (2009-2018-yy.) mamlakatimizda urbanizatsiya darajasi 51,7 foizdan 50,6 foizga kamaydi. Xorazm (33,3%), Surxondaryo (35,5%), Buxoro (37,4%) va Samarqand (37,4%) viloyatlarida urbanizatsiya darajasi ayniqsa past;

- 2012-yildan hozirga qadar shaharlar soni o'zgarmadi (119 ta) va ularda 10,1 mln. kishi istiqomat qiladi. Mamlakat shaharlar tarmog'ining asosini kichik shaharlar (jami shaharlar tarkibidagi ulushi 68,4 foiz) tashkil qiladi va ularning jami shahar aholisidagi ulushi 20,5 foizga teng. Shaharlar rivojlanishining o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, shahar aholisining deyarli $\frac{1}{4}$ qismi (24,2%) poytaxt - Toshkent shahrida istiqomat qiladi. O'tgan davr ichida 6,4 mln. kishi (38,7%) istiqomat qiladigan shahar posyolkalari soni 1065 tadan 1071 taga ko'paydi. Shahar posyolkalari sonining juda ko'pligi ham O'zbekistonda shaharlar tarmog'ining o'ziga xos jihati sifatida talqin qilinishi mumkin;

- ko'pgina kichik shaharlar va shahar posyolkalari ma'muriy usullar orqali tuzilgan bo'lib, ular shaharsozlik talablariga to'la javob bermaydi. Amalda aholi qishloq xo'jalik mehnati bilan band, ularning turmush tarzi esa qishloqqa xos. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday toifadagi shaharlar uchun ularning ma'lum bir sohaga chuqur ixtisoslashganligi, ishsizlikning yuqori darajasi, ishlab chiqarish va infratuzilma obyektlarining eskirganligi, transport kommunikatsiyalari va xizmat ko'rsatish sohalari holatining qoniqarsizligi, moliyaviy mablag'lar va malakali xodimlarning etishmasligi kabilar xosdir;

- 2012-2018-yillarda shahar aholisi soni 1,4 mln. kishiga yoki 9,2 foizga ortdi (shu davrda qishloq aholisi mos ravishda 1,7 mln. kishi va 11,9 foizga ko'paydi). Aholining tabiiy harakati (102,0%), migratsiya (-13,4%) va ma'muriy-hududiy o'zgarishlar (11,4%) shahar aholisi soni o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Yurtimizda urbanizatsiyaning mazkur holatda shakllanishiga quyidagilar sabab bo'lgan:

- asosan qazib chiqaruvchi sanoatga yo'naltirilgan yirik investitsiya loyihalari shaharlar sanoatlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatgani yo'q;

- qishloq aholisi harakatchanligining pastligi va tashqi mehnat migratsiya darajasining yuqoriligi;

- shaharlarni kompleks va barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli urbanizatsiya siyosatining mavjud emasligi;

- shaharsozlik sohasida ishlab chiqilayotgan hujjatlar va me'yoriy-huquqiy bazaning zamon talablariga mos kelmasligi;

- sanoat va infratuzilma obyektlari barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun mahalliy moliyaviy resurslar va shahar hokimliklari vakolatlarining cheklanganligi;

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yuqori malakali mutaxassislar va ishchilarning etishmasligi;

- har bir shahar bo'yicha uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining mavjud emasligi;

- mahalliy hokimiyat organlari tomonidan shahar aholisining talab va ehtiyojlarining e'tiborga olinmasligi.

- investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish chog'ida alohida toifadagi shaharlar uchun xos bo'lgan xususiyatlarni etarlicha hisobga olinmasligi;

- shaharlar, ayniqsa katta va yirik shaharlar aholisi sonini hisobga olish bo'yicha statistik hisobotlarda xatoliklarning mavjudligi va h.k.

Barqaror rivojlanishni ta'minlashning yangi omili sifatida mavjud nomutanosibliklar va tizimli muammolarni bartaraf etish, urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatimizda urbanizatsiya darajasini 2030-yilgacha 60 foizga etkazish vazifasini strategik maqsad sifatida belgilab berdi. Ushbu vazifani

bajarish uchun mamlakatda davlat tomonidan urbanizatsiyani maqsadli tartibga solish va shaharlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar va kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi (2019-yil 10-yanvar).

Mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish asosida urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish, bunda aholi punktlarining muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalar bilan ta'minlanganligiga e'tibor qaratish; jismoniy va yuridik shaxslar uchun turar joy va noturar joy bino va inshootlar ostidagi yer uchastkalariga egalik qilish huquqini amalga oshirishni kafolatlash, yer uchastkalarini fuqarolik muomalasiga kiritish uchun shart-sharoitlar yaratish; migratsiya jarayonlarini ma'muriy tartibga solish tizimini takomillashtirish yo'li bilan aholining qishloq joylardan shaharlarga erkin harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; aglomeratsiyalarning afzalliklaridan foydalanishni nazarda tutgan holda o'rta shaharlarni, shu jumladan, tuman markazlarini boshqarishda ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish; yo'ldosh-shaharlar tarmog'ini kengaytirish, yirik shaharlarning markaziy qismida sanoat va boshqa zonalar hududlarini qisqartirgan holda ishbilarmonlik va xizmat ko'rsatish zonalari hududlarini kengaytirish urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida qayd etildi.

Tabiiyki, urbanizatsiya siyosatini samarali qo'llash uchun uning aniq mexanizmlari va amalga oshirish yo'llari ishlab chiqilishi zarur. Bunda eng avvalo, ushbu yo'nalishda yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ("Noqishloq xo'jalik ahamiyatidagi yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun loyihasi) ishlab chiqish hamda Yer, Shaharsozlik, Uy-joy Kodekslari va boshqa mavjud qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayonining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini va o'ziga xos murakkabliklarini e'tiborga olib, bu jarayonlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ular hukumat

tomonidan qabul qilinishidan avval umumxalq muhokamasiga qo'yish ko'zda tutilgan. Shu o'rinda bir muhim jihatni e'tiborga olmoq zarur bo'ladi. Buni shoshma-shosharlik bilan qilib bo'lmaydi, etti marta o'lchab bir marta kesish kerak. Qaror qabul qilingunga qadar, bino va inshootlar ostidagi hamda ularga yaqin joylashgan yer uchastkalarining bozor qiymatini aniqlash va xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rganish va tahlil qilish lozim bo'ladi.

Faol urbanizatsiya siyosatini amalga oshirish maqsadida quyidagi asosiy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish ko'zda tutilgan:

- O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga qadar urbanizatsiya Konsepsiyasini ishlab chiqish;

- strategik rejalashtirish, mamlakat, mintaqalar va shaharlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari, aholini joylashtirishning Bosh sxemasi, infratuzilma ob'yektlarini joylashtirish va rivojlantirish Sxemalari, shaharlarning bosh rejalariga oid hujjatlar to'plamini yagona tizim sifatida ishlab chiqish;

- urbanizatsiyani tartibga solish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, alohida yo'nalishlar bo'yicha shaharlarning kompleks rivojlanishiga mas'ul turli vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat organlari, jumladan ilmiy va loyiha-tadqiqot ta'minoti bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida urbanizatsiya agentligini tashkil etish;

- urbanizatsiya jarayonlarida yetakchilik bo'ladigan istiqbolli qishloq aholi punktlari, shahar posyolkalari va kichik shaharlarni (xatlab) hamda mintaqalar iqtisodiyoti barqaror rivojlanishida o'sish nuqtalari bo'la oladigan o'rta va yirik shaharlar aniqlash;

- urbanizatsiya jarayonlari uy-joy qurilishi bilan bog'liq bo'lishi bilan birga, raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda shaharlarni industrial-innovatsion rivojlantirishga e'tibor qaratiladi, shaharlarda sanoat korxonalarini ularning

salohiyatidan kelib chiqib oqilona joylashtirish, alohida toifadagi shaharlar kesimida investitsiya dasturlari va loyihalar aniqlashtirish;

- shahar aglomeratsiyalari shakllanishini tartibga solishga yo'naltirilgan Toshkent shahri, viloyat markazlari atrofida yo'ldosh-shaharlarni barpo etish mo'ljallangan;

- eng istiqbolli shaharlarga - iqtisodiy rivojlanishning yyetakchisi mavqeini berish va ular uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'yektlarni joylashtirish uchun qulay investitsiya muhiti va shart-sharoitlarni yaratish, yer uchastkalari bozorini shakllantirish, maqsadli moliya mablag'larini yo'naltirish;

- shaharlar barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan, byudjet va byudjetdan tashqari manbalardan hamda yangi tashkil etilgan urbanizatsiya jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanish evaziga shahar hokimliklari mustaqilligi va mas'uliyatini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish;

- urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish maqsadida mavjud va tashkil etish ko'zda tutilayotgan erkin iqtisodiy zonalar, ayniqsa kichik sanoat zonalarini imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

- xalqaro standartlar va reytinglar bilan uyg'unlashtirgan holda shahar aholisi sonining statistik hisobini yuritishni takomillashtirish kabilar.

Umuman, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish iqtisodiy rivojlanishning yangi manbalari va imkoniyatlarini ochib beradi, aholi turmush sharoitining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi.

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Bir muddat tuzilmaviy (sanoat) siyosatiga e'tibor susaygan va dunyo miqyosida unga bo'lgan qiziqish susaygan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda iqtisodiyotga davlat aralashuvining mazkur ko'rinishiga bo'lgan talab yana o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Sanoat siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantirishdagi o'zni borasida ko'p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgani

holda, mazkur tadqiqotlarning mualliflari sanoat siyosatining asosiy belgilari va o'ziga xos jihatlari borasida deyarli bir-biriga o'xshash fikrlarni ilgari suradilar:

1. maqsadga yo'naltirilganlik-davlat tomonidan amalga oshiriluvchi hatti-harakatlar iqtisodiyotda ijobiy o'zgarishlar yasashga va siljishlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi;

2. yangi tadbirlarni boshlash va yoki tezlashtirish yohud kengaytirish;

3. ochiq yoki yashirin ko'rinishda ustivorlik berish - rag'batlantiriluvchi sektorlar yoki faoliyat turlarini ajratib olish;

4. iqtisodiyot va jamiyatga navf keltirishga urg'u berish;

5. o'z tabiatiga ko'ra -iqtisodiyot taraqqiyotini oldindan belgilab berish;

6. uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda, o'rta muddatga mo'ljal olish;

7. jahon bozoriga chiqishni ko'zlash.

Shu bilan birga, sanoat siyosatining muhim xususiyatlariga oid qarashlarning nisbiy umumiyligi bilan bir qatorda, bugungi kunda ushbu tushunchaning umume'tirof etilgan ta'rifi yo'q. Mazkur tadqiqot ishida quyidagi ta'rifdan foydalanamiz:

Sanoat siyosati-davlat aralashuvi mavjud bo'lmagan shart-sharoitlarga nisbatan iqtisodiy o'sish va jamiyat farovonligini yaxshilash borasida qulay shart-sharoitlarni ta'min etuvchi biznes muhitini yaxshilash va (yoki) iqtisodiyot sektorlari va texnologik sohalarda iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat tomonidan amalga oshiriluvchi chora-tadbirlar majmuidir.

Xususan, turli mamlakatlar uchun bir xil ta'riflanishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy siyosatdan farqli o'laroq, sanoat siyosati har bir mamlakat uchun o'ziga xosligi va vaqt omiliga nisbatan ta'sirchan ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu tashqi shart-sharoitning doimiy o'zgarishi, hal qilinayotgan vazifalarning xilma-xilligi, shuningdek, sanoat siyosati davlat boshqaruvining turli usullari bilan tavsiflanuvchi turli chora-tadbirlarning "to'plami" ekanligi bilan bog'liq.

Hozirgi kunda sanoat siyosati va uni amalga oshirish borasida o'zgarishlarning uch xil ko'rinishini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchidan, ham ilmiy, ham ekspertlar hamjamiyati va hamda milliy hukumatlar darajasida sanoat siyosatiga bo'lgan munosabatda sezilarli o'zgarish ko'zga tashlanmoqda. Agar o'n besh yigirma yillar oldin sanoat siyosatiga bo'lgan munosabat "sovuq" va uning "klassik"- vertikal ko'rinishida – qayta industriallashtirish, barqaror innovatsion rivojlanish, milliy innovatsion tizimlarni takomillashtirish va tizimli muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan gorizontaal siyosatga barqaror talab mavjud bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda turli agentlar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro aloqalarni rivojlantirish, barqaror o'sishning yangi manbalarini izlash, ta'lim sektorining iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasini oshirish bilan bog'liq texnologik sanoat siyosatiga o'tish borasida aniq intilishlar ko'zga tashlanmoqda.

Ikkinchidan, sanoat siyosatini amalga oshirish asnosida muhim o'zgarishlar yuz bermoqda:

- iqtisodiyotning inson va uning ehtiyojlariga yo'naltirilganligi ortib bormoqda, iqtisodiy jarayonlarda yakuniy ite'molchining o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Natijada aholi, uning e'tiqodlari va hissiyotlari bilan hisoblashish siyosatni amalga oshirishning muhim vosi-tasiga aylanmoqda;

- to'rtinchi sanoat inqilobining boshlanishi haqida gapirish imkon beruvchi ko'plab sanoat va faoliyat sohalaridagi texnologik o'zgarishlar, nafaqat uzoq muddatli, balki o'rta muddatli istiqbolda ham yuqori noaniqlikni va kelajak qiyofasining mavhumligini keltirib chiqarmoqda;

- avlodlarning o'zgarishi nafaqat iste'molda, balki xulq-atvorda, qiymat yo'nalishlarida va hokazolarda ham muhim rol o'ynamoqda;

- davlat, jamiyat va biznesning muayyan sohalarga qiziqishi va natijada mablag'lar oqimi, mehnat resurslari va tadbirkorlikni faollashtirish tobora ko'proq muayyan tarmoqlar va faoliyat sohalarining istiqbollari haqidagi ustun g'oyalarni aks ettiruvchi "moda" bilan belgilanadi;

- urbanizatsiya turli xil iqtisodiy agentlar “zichligi”ning oshishiga olib keladi, bu hamkorlik va kooperatsiya uchun yangi imkoniyatlar, shuningdek, yangi muammolar va tahdidlarni keltirib chiqarmoqda.

Uchinchidan, sanoat siyosatining o‘zi ham sezilarli darajada o‘zgarmoqda:

- sanoat va innovatsion siyosatning o‘zaro yaqinlashuvi amalga oshib, innovatsion siyosat sanoat siyosatining muhim tashkil etuvchisiga aylanib ulgurdi. 2008-2009 yillardagi inqirozdan so‘ng, sanoat siyosati aksariyat holatlarda davlat siyosatining tizimli, muvofiqlashtiruvchi tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etib kelinmoqda;

- sanoat siyosatining eng muhim unsurlaridan biri- bu sanoatning tashkiliy jihatlari (kompaniyalarning bozordagi mavqei, firmalarning maqbul ko‘lami, qiymat zanjirlari) bilan bog‘liq siyosatdir. Bu o‘z navbatida tabiiy monopoliyalar mavqeini qayta ko‘rib chiqish, texnik jihatdan tartibga solishni rivojlantirish bilan bog‘liq;

- sanoat siyosati yanada murakkablashmoqda, “aqlli” vositalarga talab ortib bormoqda, ularni qo‘llash katta kuch va salohiyatni talab qiladi. Bu o‘rinda fan sig‘imli tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni tashqi tahdidlardan himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Butun dunyoda va shuningdek, milliy hukumatlar va turli milliy iqtisodiyotlarda mahalliy hokimiyatlar tomonidan sanoat siyosatiga tobora ehtiyoj ortib bormoqda. Industrial jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar inqirozdan keyingi davrlarda uning yordamida barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini oshirishga intilayotgan bo‘lsalar, rivojlanayotgan mamlakatlar esa- o‘rta daromadlar tuzog‘ini engib o‘tish yoki undan qochish, shu bilan bir qatorda, bir qator tarmoqlarni texnologik jihatdan yangilash maqsadida sanoat siyosatidan foydalanmoqdalar. Xususan, Fors ko‘rfazi mamlakatlari sanoat siyosatini milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash vositasi sifa-tida e‘tirof etsalar, qator Afrika mamlakatlari qashshoqlikka qarshi kurashishda sanoat siyosatining ahamiyatini yuqori baholaydilar.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillar bilan bir qatorda, zamonaviy sanoat siyosatining muvaffaqiyatini sezilarli darajada belgilaydigan uchta holatga alohida e‘tibor qaratish lozim, ular nisbatan kamdan-kam hollarda davlat va ekspertlarning diqqat markazida bo‘ladi.

Birinchi, sanoat siyosati muvaffaqiyatining muhim sharti bo‘lib, birinchi navbatda uni amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi organlar shaxsida davlatning tashkiliy imkoniyatlari va vakolatlarining hozirgi darajasiga mos kelishi hisoblanadi. Aks holda, hatto sanoat siyosatini chuqur tahlil qilinishi va uning “aqlli” dizayni ham davlat boshqaruvining etarlicha sifat muammosini hal qila olmaydi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va tarmoqlarni yaratish, ko‘pincha yangi yondashuvlar, mexanizmlar va echimlarni ishlab chiqishni talab qiluvchi murakkab siyosat davlat boshqaruvi tizimiga sezilarli darajada yuqori talablar qo‘yadi.

Ikkinchi, sanoat siyosati-hatto taniqli texnologiyalar va echimlarga asoslangan nisbatan oddiy ko‘rinishlarda ham, har doim noto‘g‘ri hisob-kitob va xatoliklar bilan amalga oshadi. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan sanoat siyosatlarining hech biri shunchaki silliq kechmagan. Shu bilan birga, davlat har qancha imkoniyat va vakolatlarga ega bo‘lmasin, siyosatning murakkablashib borishi asnosida muvaffaqiyatsizliklar ehtimoli ortib boraveradi.

Sanoat siyosatini amalga oshirish asnosida davlat xatoliklardan xulosa chiqarib borishi, amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar va dasturlarga o‘z vaqtida tegishli tuzatishlar kiritib borishga tayyor turishi lozim. Buning uchun o‘z navbatida, siyosatni amalga oshirishning borishini kuzatish va erishilgan natijalarni baholash talab etiladi. Bunday baholash borasidagi eng yaxshi amaliyotlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- amalga oshirilgan chora-tadbirlarning bevosita natijalari bilan bir qatorda bilvosita ta’sirlarni, kechiktirilgan natijalarni, shuningdek iqtisodiy agentlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni aniqlash va tahlil qilish;

- mabodo hozirgi siyosat amalga oshirilmagan taqdirda amalga oshmaydigan o'zgarishlar va ta'sirlarni aniqlash.

Uchinchidan, muvaffaqiyatli sanoat siyosatini amalga oshirishning shart-sharoitlari mamlakatlarning rivojlanish darajasiga qarab o'zgaradi. Xususan, past daromadli mamlakatlarda o'rta ta'lim va siyosiy institutlar sanoat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim hisoblansa, o'rta daromadli mamlakatlarda texnologik rivojlanish va oliy ta'lim muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Umuman olganda, u yoki bu mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoat siyosatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan mamlakatda tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, davlatning qo'llab-quvvatlovchi siyosati kabi ko'pgina omillarga bog'liqligini ta'kidlashimiz lozim. Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda, quyidagi xulosalarni ilgari suramiz:

1. Vaqt o'tishi bilan sanoat siyosatiga bo'lgan ehtiyoj susaymaydi, bunda u turli mamlakatlarda turlicha vazifalarni hal qilishda foydalaniladi, ushbu holatda qo'llaniluvchi yondashuvlar, vositalar va asoslovchi omillar ham o'zgarishga yuz tutadi. 2008-2009 yillardagi inqirozdan so'ng, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi borasidagi qarashlar sezilarli darajada o'zgardi, bunda davlat tomonidan "aqlli" vositalardan keng foydalanishga e'tibor qaratila boshlandi.

2. So'nggi yillarda sanoat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish shart-sharoitlari borasida progressiv o'zgarishlar yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Shunday qilib, bir qator sektor va tarmoqlarda boshlangan texnologik o'zgarishlar yuqori darajadagi noaniqlikka olib keladi va sanoat siyosatini amalga oshirish jarayonida ishtirok etuvchi asosiy ishtirokchilar: davlat, biznes, ilm-fan va jamiyat o'rtasida axborot assimetriyasining oshishi bilan o'zaro uyg'unlashadi. Innovatsiyalarning keng tarqalgan "shov-shuvli" modeli fonida, taraqqiyotning shiddatli kechishi kutilayotgan sohalarda "ko'pik" vujudga kelishi xavfini oshiradi. Iqtisodiyotni insonga, uning talab va ehtiyojlariga yo'naltirishning kuchayishini hisobga olgan holda, jamiyatda hukmron g'oyalar omili tobora muhim ahamiyat

kasb etmoqda; shunga ko'ra, jamoatchilik fikrini boshqarish, ommaviy fobiyalar yaratish va shu kabi tahdidlar boradi.

3. So'nggi yillarda aksariyat sanoati rivojlangan va yangi industrial mamlakatlarda raqamlashtirish dasturlari milliy darajada amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturlarning aksariyati Germaniya Sanoat 4.0 dasturining o'ziga xos analogi hisoblanadi. Odatda, bunday dasturlar keng ishtirokchilar doirasiga, ularni muvofiqlashtirish, namoyish ta'si-riga erishish, biznes mablag'larini jalb qilishga yo'naltirilgan bo'lib, milliy darajada nisbatan kam mablag'lar saflanishini ko'zda tutadi.

4. Sanoat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdagi tsikllilik odatda, siyosiy tsikllar bilan bog'liq holda yaqqol ko'zga tashlanadi— bu rivojlanayotgan (Braziliya) va sanoati rivojlangan mamlakatlar (Frantsiya, Germaniya) uchun ayniqsa xosdir. Shu bilan birga, yangi dasturlar va tashabbuslar deyarli har doim yangi e'lon qilingan vazifalar va qiyinchiliklarga qaratilgan bo'lib, avvalgi dasturlarni amalga oshirish mantig'i va natijalariga nisbatan kamroq darajada bog'langanligi bilan tavsiflanadi.

5. Odatda boshqa mamlakatlarda yoki boshqa sohalarda ishlab chiqilgan tayyor echimlar, yondashuvlar va texnologiyalarga asoslangan oddiy sanoat siyosati variantlari nisbatan kamroq xatarlarni o'z ichiga olsada, sanoat sohasidagi dunyoviy yoki mahalliy yetakchilarga etishish borasida nisbatan kamroq yutuqlarni va'da qiladi. Yangi echim va texnologiyalarni ishlab chiqishni talab qiluvchi yanada murakkab siyosat katta muvaffaqiyat-larni ta'minlasada, ayni paytda u katta xavflarni o'z ichiga oladi va davlat boshqaruvi tizimiga nisbatan ancha jiddiy talablarni qo'yadi.

6. Tabiiyki, sanoat siyosati o'zining nisbatan oddiy variant-larida ham muqarrar tarzda sinov va xatoliklar yordamida amalga oshiri-ladi. Ayniqsa, yangi yondashuvlar va echimlarni qidirish va sinash bilan bog'liq sanoat siyosatini amalga oshirishda davlat har qanday muvaffaqiyatsizliklarga tayyor turishi lozim. Shu bilan birga, siyosatni mustaqil tahlil qilish va monitoring qilish talab qilinadi.

O‘z vaqtida aniqlangan xatolik va nuqsonlar amalga oshirilayotgan harakatlarga tuzatish va qo‘shimchalar kiritish, shu bilan bir qatorda kelajakdagi tashabbuslar uchun qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi.

7. Sanoat siyosatini amalga oshirish borasidagi mavjud ijobiy va salbiy tajribalarni hisobga olgan holda mavjud shart-sharoit, imkoniyat va cheklovlar, qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, sanoat siyosatining o‘ziga xos dizaynini ishlab chiqish talab qilinadi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar jarayoni to‘g‘risida fikrlaringizni bayon qiling?
2. Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda institutlarning o‘rnini qanday baholaysiz?
3. Iqtisodiy o‘shish “nuqtalari” nimani anglatadi. O‘zingiz yashab turgan hudud uchun qanday faoliyat turlari “o‘shish nuqtasi” bo‘lib xizmat qilishi mumkin?
4. Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda klasterlashtirishning o‘rni nimalarda namoyon bo‘ladi?
5. Tarkibiy siyosatning mazmun va mohiyatini yoritib bering?

Referat mavzulari:

1. Iqtisodiy o‘shishning institutsional asoslari.
2. Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda mahallabay ishlash tizimi.
3. O‘zbekistonda klasterlashtirish siyosati: muammolar va istiqbollari.
4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning jahon tajribasi.
5. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tarkibiy siyosat va uning o‘ziga xosliklari.

Mushohada uchun:

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati to‘rtinchi sanoat inqilobi tomoni jadal harakatlanmoqda. To‘rtinchi sanoat inqilobining o‘ziga xosligi sun‘iy intellektdan

keng foydalanish bilan izohlanadi. Bu borada olimlar sun'iy intellektning insoniyat uchun kelgusida katta xavf tug'dirishidan ogohlantirishmoqda. Siz bu masalaga qanday munosabat bildirasiz. O'z mulohazalaringizni batafsilroq tushuntirib bering?

Masalalar:

1. Iqtisodiyotga davlat xarajatlari 5000 pul birligini tashkil qiladi, soliq tushumlari 7000 pul birligiga teng. Aholiga transfert to'lovlari 1100 pul birligini tashkil qiladi. Davlat qarzi 9000 pul birligini tashkil qilgani holda, davlat har yili uning 10 foizi miqdorida xizmat ko'rsatadi. Davlat byudjetining holatini aniqlang.

Yechish usuli: Davlat byudjeti-iqtisodiyotdagi daromadlar va xarajatlar jamlanmasini ifoda etadi. Daromadlarning asosini soliqlar tashkil etadi (7000), xarajatlarga davlatning iqtisodiyotga sarflari, transfertlar, davlat qarzi bo'yicha foizlarni to'lash kiradi ($5000 + 1100 + 0,1 * 9000 = 7000$). Byudjet holati daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farqni tavsiflaydi. Ushbu holatda, xarajatlar daromadga teng.

2. 2006-yilda X mamlakatda 35 mln. shartli birlik miqdorida soliqlar yig'ildi, bojxona to'lovlari 12 mln. shartli birlikni, byudjetga soliqdan tashqari daromadlar 20 mln. shartli birlikni tashkil etdi. Xuddi shu yili davlat tomonidan tovarlar va xizmatlarni sotib olish 38,4 mln shartli birlikka teng bo'ldi, transfertlar 14,7 mln shartli birlik, davlat qarzi bo'yicha foizlar 17,6 mln. shartli birlikni tashkil qilgan. Davlat byudjetining holatini aniqlang.

Yechish usuli: Dastlab, byudjet daromadlari aniqlaymiz: $35 + 12 + 20 = 67$ mln shartli birlik. So'ngra, byudjet xarajatlari hisoblanadi: $38,4 + 9,7 + 17,6 = 65,7$ mln. shartli birlik. Daromad fa xarajatlar o'rtasidagi farq: $67 - 65,7 = 1,3$ mln. shartli birlik, demak byudjet ortiqchaligi mavjud.

3. Mamlakatning o'zini-o'zi band qilgan aholisi 200 million kishini tashkil etadi. Tabiiy ishsizlik darajasi 6% bo'lgan sharoitda, haqiqiy ishsizlik darajasi 10%. Mamlakatdagi kon'yunkturaviy ishsizlikni aniqlang.

Yechish usuli: Ishsizlik darajasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi: $U_{\text{haqiqiy}} = \frac{\text{Amaldagi ishsizlar soni}}{\text{o'zini-o'zi band qilganlar}} * 100 \%$. Raqamlarni o'z o'rniga qo'ysak, ishsizlar soni 20 million kishini, shundan 12 million kishi tabiiy ishsizlarni, 8 million nafari esa kon'yunkturaviy ishsizlikni tashkil qiladi (4%).

1. Iqtisodiyotdagi pul massasi 780 dan 940 shartli birlikka, YaMM esa shu davrda 10 foizga o'sdi. Pul aylanish tezligi o'zgarishdan qoldi. Iqtisodiyotda narx darajasi qanday o'zgarishini aniqlang.

Yechish usuli: masalani yechish uchun ayriboshlashning miqdoriy tenglamasidan foydalanamiz: $M * v = P * YaMM$. Pul taklifining o'sishi quyidagiga teng $(940 - 780) / 780 * 100 \% = 20,5 \%$. Tenglik bajarilishi uchun narx darajasi $1.205 = P * 1.1$ ga oshgan bo'lsa, bu yerda $P = 1.095$, ya'ni narx darajasi 9.5% ga oshgan.

2. Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyoti milliy mahsulot hajmi 8800 pul birligiga teng bo'lganda muvozanatga erishadi. Iste'mol chegaraviy moyillik 0,8 ga teng. Akselerator koeffitsienti 2 ga teng. Xarrod modeli bo'yicha "kafolatlangan" o'sish sur'atini aniqlang.

Yechish usuli: Xarrod modeli bo'yicha "kafolatlangan o'sish" sur'ati quyidagiga teng bo'ladi: $(\Delta Y / Y_{t-1}) = s / (v - s) = 1 - c / (v - (1 - c)) = (1 - 0,8) / 2 - (1 - 0,8) = 0,111$ yoki 11,1%. Bu yerda: s – jamg'arishga chegaraviy moyillik, v – akselerator, c – iste'molga chegaraviy moyillik.

Keys: "AQShning ilmiy va innovatsion rivojlanish modeli"

Qo'shma Shtatlar eng yirik ilmiy-texnik salohiyatga ega. ITTKIga butun jahonda sarflanayotgan xarajatlarning 50%i AQSh hissasiga to'g'ri keladi. AQShning jahon iqtisodiyotidagi yetakchiligi ko'p jihatdan ilmiy-innovatsion sohaning samarali rivojlanishi bilan ta'minlanadi. 1950-70-yillarda ITTKIda davlatning ishtiroki tadqiqotlarni amalga oshirish va ularni moliyalashtirish, ta'limni qo'llab-quvvatlash va milliy tadqiqot markazlarini tashkil etishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotlarning aksariyati idoraviy laboratoriyalar doirasida va xususiy kompaniyalar bilan shartnomalar asosida amalga oshirildi. ushbu davrda ITTKIga sarflangan jami xarajatlarning 50-67% davlat ulushiga to'g'ri kelar edi. 1980-yillarning boshlaridan boshlab davlat ma'muriy, huquqiy va moliyaviy vositalardan foydalanishda, xususiy sektorda tadqiqotlarni rag'batlantirishda va yangiliklarni yaratish va tarqatishda to'siqlarni olib tashlashda faol siyosatni amalga oshirdi. Federal hukumat ITTKIning asosiy investori va ijrochisi bo'lishni to'xtatdi va ushbu davrga kelib ularni moliyalashtirishda xususiy sektorning ulushi 90 % dan

oshdi. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish uchun ilmiy yutuqlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Davlat organlari, korporatsiyalar, kichik biznes va universitetlar faoliyatini integratsiya qilish orqali milliy xavfsizlik, axborot texnologiyalari, nanotexnologiya va energiya echimlari sohasida keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Raqobatbardoshlik bo'yicha milliy Kengashning tavsiyalariga amal qilgan holda, AQSh hukumati uch asosiy soha: ta'lim tizimini takomillashtirish-yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xorijiy professor va eng iqtidorli talabalarni jalb qilish; aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi ta'lim dasturlarini amalga oshirish (hozirgi kunda Milliy ilmiy fond 48 ta'lim dasturlarini amalga oshirmoqda);ITTKI va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish borasida investitsiyalarni ko'paytirish- ayniqsa fizika, bio va nanotexnologiya, axborot va eksperimental texnologiyalar, ilg'or energiya manbalarini izlab topish va rivojlantirish borasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish; infratuzilmani yaratish va innovatsiyalarga qulay muhit yaratish- ITTKIning moddiy- texnik bazasini takomillashtirish, laboratoriyalarni yangilash, yangi tadqiqot markazlarini qurishga o'z diqqat-e'tiborini qaratgan. Shunday qilib, AQShning zamonaviy innovatsion tizimi: yetakchi universitetlar- yuqori texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlash, texnologik ishlanmalar yaratish va ularni tijoratlashtirish (1980 yilda olimlarni o'z ixtirolari bilan bozorga chiqish, o'z kompaniyalarini tashkil qilish yoki texnologiyalar bo'yicha litsenziyalarni boshqa firmalarga sotishlarini rag'batlantirish, ya'ni universitetlarda o'z tadqiqotlarini real daromadga aylantirish borasida ishtiyoq uyg'otuvchi Beya-Doul qonuni qabul qilindi; qonun qabul qilingunga qadar Amerika hukumati akademik tadqiqotlarning 60%ini moliyalashtirgan va 28 ming patentga egalik qilgan bo'lsa, qonun qabul qilinganidan so'ng, real ishlab chiqarishda foydalanilayotgan patentlar soni 10 barobarga ortdi, universitetlar bazasida texnologiyalarni tijoratlashtirish bo'yicha 2 mingdan ortiq kompaniyalar tashkil qilindi, AQSh byudjeti buning natijasida yiliga 40-50 mlrd. dollar mablag' olish imkoniga ega bo'ldi); milliy laboratoriyalar-davlat buyurtmalarini amalga oshirish; innovatsion klasterlar yoki texnoparklar - ma'lum bir hududda tadqiqot markazlari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning mujassamlashishi. Dunyodagi texnoparklar umumiy sonining 50% dan ortig'i Qo'shma Shtatlarda (150 texnoparklar) joylashgan. Ular alohida shaxslar va xususiy tashkilotlarning tashabbuslari yoki shtatlar hukumatining ko'rsatmalari asosida tashkil qilingan. Eng taniqli va samarali faoliyat ko'rsatuvchi texnoparklar birinchi turga kiradi. Bular qatoriga Kaliforniya shtatining Santa-Klara shahridagi Stenford universiteti yaqinida joylashgan "Silikon vodiysi texnoparki"; Massachuset texnologiya universiteti va Garvard universiteti yaqinida joylashgan "Boston yo'li 128" texnoparki ; Dyuk universiteti, Shimoliy Karolina universiteti, va Shimoliy Karolina davlat universiteti yaqinida tashkil etilgan Shimoliy Karolinadagi "uchburchak Park" kiradi.

Qo'shma Shtatlardagi zamonaviy innovatsion tizimning o'ziga xos xususiyati-soliq imtiyozlari, boshlang'ich kapital yoki yangi g'oya uchun grant shaklida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kichik innovatsion biznesni rivojlantirishdan iboratdir. Davlat innovatsion bozor infratuzilmasining shakllanishiga hissa qo'shadi va federal hukumatning mulki bo'lgan byudjet tadqiqotlari jarayonida patentlangan ixtirolardan tijoriy foydalanish uchun litsenziyalarni bepul berish amaliyotidan foydalanadi. Qo'shma Shtatlarda kichik innovatsion korxonalarini moliyalashtirishga qaratilgan bir qancha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda, ular AQSh kichik biznes adminstratsiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Shunday qilib, Qo'shma Shtatlarda ilmiy va innovatsion rivojlanish modeli fundamental va amaliy ilm-fan, turli moliyalashtirish tuzilmalari va innovatsiyalarni tijoratlashtirishning yo'lga qo'yilgan tizimining o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. AQShning innovatsion rivojlanish strategiyasi takomillashib, hal etilishi ko'zda tutilgan vazifalar chuqurligi va ko'lami, dasturiy maqsadlarni amalga oshirish mexanizmlari bilan boyib bormoqda, bu esa AQShga keyingi o'n yilliklarda yuqori texnologiya mahsulotlari bozorida yetakchi bo'lib qolishga imkon beradi.

Savollar:

1. Ilmiy-innovatsion soha AQShning iqtisodiy rivojlanishiga va uning jahon iqtisodiyotidagi mavqeiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Davlat fan va ishlab chiqarishning o'zaro aloqasini qanday ta'minlaydi?
3. Nima uchun AQShda texnoparklar universitetlar yaqinida tashkil qilingan?
4. Amerika Qo'shma Shtatlarida ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishda kichik biznesning o'rni qanday?

Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-“Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
3. Абдувоҳидов А.А. ва бошқалар. Инновациялар иқтисодиёти. Ўқув кўлланма.- Т.: “Мумтоз сўз”, 2020-636 бет.
4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Хажиев Б.Д., Ахмедов Д.Қ., Захидов Г.Э., Мамбетжанов Қ.Қ. Иқтисодий ривожланиш назариялари. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2018. - 428 бет.
10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост : учеб. пособие / А. В. Корицкий ; Новосибир. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.
11. Хажиев Б.Д., Абдуллаев С.О., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. Дарслик. – Т.: “Зебо юлдузлари МЧЖ”, 2018. - 417 бет.

12. Инсон таракқиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов тахрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.
13. Дарон Асеомглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асеомглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова- М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).
14. «Технологии Четвертой промышленной революции : [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018
15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.
16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.
17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.
18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018
19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. · 2018
20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.
21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.
22. www.cer.uz - Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази расмий сайти.
23. www.stat.uz- Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.

24. <https://mineconomy.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги расмий сайти

25. <https://cbu.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий сайти.

26. <https://mf.uz/uz> - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий сайти

27. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси

28. <https://www.mininnovation.uz/>- Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий сайти

29. <https://uza.uz/uz> - Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий сайти

<https://www.worldbank.org/en/home>- Жаҳон банки расмий сайти

XI BOB. IQTISODIY O‘SISHNI TUSHUNISH

O‘shish masalasi - bu yangilik emas, balki iqtisodiyotni doimo qiziqtirgan va o‘ylantirib kelayotgan bugun va kelajak o‘rtasidagi kurashni aks ettiruvchi azaliy muammoning yangicha ko‘rinishidir.

Jeymes Tobin

11.1. Iqtisodiy o‘shish sifati, ko‘rsatkichlari hamda o‘lchamlari

11.2. Iqtisodiy o‘shishni aniqlash borasidagi nazariy yondashuvlar

11.3. Iqtisodiyotda golland kasalligining namoyon bo‘lish shart-sharoitlari va omillari

Xalqaro reyting agentliklarining O‘zbekistonga bergan bahosi

“S&P” agentligi tomonidan O‘zbekiston suveren kredit reytingi bahosi tasdiqlandi

Shu bilan birga, agentlik tomonidan O‘zbekiston tashqi iqtisodiy shok va noaniqliklarga bardosh berishiga va kelgusi yillarda o‘shish sur‘atlari (2023-yilda — 5 foiz, kelgusi yillarda — o‘rtacha 5,5 foiz) tiklanishiga ishonch bildirilgan.

Joriy yilning 3 iyun kunida “S&P” xalqaro reyting agentligi tomonidan e‘lon qilingan hisobotga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi suveren kredit reytingi bahosi “BB-” (barqaror kutilma) darajasida tasdiqlandi.

Agentlik O‘zbekistonning suveren kredit reytingini yilda ikki marta qayta baholaydi. Baholash jarayonida tegishli vazirlik va idoralar bilan respublikadagi makroiqtisodiy holat va amalga oshirilayotgan islohotlar batafsil muhokama qilinadi.

Qayd etish lozimki, 2022- yil yanvar-may oylarida xalqaro reyting agentliklari tomonidan 20 ta mamlakatning reyting bahosi yoki reyting kutilmasi pasaytirilgan.

Hisobotga ko‘ra, O‘zbekiston kredit reytingi bo‘yicha “barqaror” kutilmaning saqlab qolinishi nisbatan mustahkam fiskal va tashqi zahiralari mavjudligi tufayli respublika iqtisodiyoti kelgusi 12 oy davomida tashqi shoklarning salbiy ta‘sirini kamaytirish imkoniyatiga egaligini aks ettiradi.

Agentlikning hisob-kitoblariga ko‘ra, hukumat likvid aktivlari YaIMga nisbatan 22,5 foizni, foydalaniladigan xalqaro zahiralari YaIMga nisbatan 38,8 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga, mamlakatning sof tashqi kreditor pozitsiyasi va sof davlat qarzi yukining mo‘‘tadilligi respublika kredit reytingini qo‘llab-quvvatlovchi omillar sifatida keltirilgan.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi, monetar siyosatning moslashuvchanligi, hisobdorlik va institutlarning rivojlanish darajasi respublika suveren kredit reytingini hozirgi vaqtda cheklovchi omillar sifatida sanab o‘tilgan.

Hisobotda tashqi savdodagi uzilishlar, pul o‘tkazmalari va moliyalashtirish manbalarining qisqarishi iqtisodiy o‘shish va fiskal konsolidatsiyani sekinlashtirishi sababli 2022 yil uchun real yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘ati 3,5 foizgacha pasayishi prognoz qilingan.

Shu bilan birga, agentlik tomonidan O‘zbekiston tashqi iqtisodiy shok va noaniqliklarga bardosh berishiga va kelgusi yillarda o‘shish sur‘atlari (2023 yilda — 5 foiz, kelgusi yillarda — o‘rtacha 5,5 foiz) tiklanishiga ishonch bildirilgan.

Hisobotda amalga oshirilayotgan investitsiya dasturlari va davlat korxonalarini isloh qilinishi, shu jumladan xususiy sektorning rivojlanishi va biznes muhitining yaxshilanishi iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashga yordam berishi qayd etilgan.

“ S&P ” xalqaro reyting agentligi 2017 yildan buyon hukumat islohotlar va iqtisodiy modernizatsiya bo‘yicha o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarida sezilarli ravishda ildamlaganini qayd etgan.

Xususan, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar — sud hokimiyati mustaqilligining mustahkamlanishi, so‘z erkinligiga qo‘yilgan ta‘qiqnlarni olib tashlanishi, hisobdorlikning oshishi, korrupsiyaga qarshi kurashish, iqtisodiy ma‘lumotlar ochiqligi, savdo va valyuta kursi liberalizatsiyasi, davlat korxonalari islohoti va xususiylashtirish rejalari alohida e‘tirof etilgan.

Hisobotda davlat qarzi o‘rta muddatda barqarorlashishi va, asosan, imtiyozli kreditlardan tashkil topganligi hisobiga davlat qarzi xarajatlarining pastligi keltirib o‘tilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning monetar siyosati ta‘sirchanligining keyingi yillarda oshib borayotganligi va bu boradagi eng muhim islohotlardan biri sifatida valyuta kursi liberalizatsiyasi bo‘lganligi e‘tirof etilgan.

“ S&P” reyting agentligi hisobotida O‘zbekistonning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi va islohotlar iqtisodiy o‘shish salohiyati, fiskal hamda tashqi zahiralarning oshishiga xizmat qilishini respublika kredit reytingini oshiruvchi omillar sirasiga kiritilgan.

Respublika kredit reytingini pasaytiruvchi omillar sifatida quyidagilar qayd etilgan:

tashqi savdo va pul o‘tkazmalari kamayishi sababli agentlik kutilmalariga nisbatan O‘zbekistonning fiskal va tashqi zahiralari zaiflashsa;

davlat va moliya sektorining tashqi qarzlari o‘shish sur‘atlarining mo‘‘tadil darajada saqlanishi bo‘yicha agentlik kutilmalaridan farqli o‘laroq, mazkur qarzlilar tez sur‘atlar bilan o‘shishda davom etsa;

iqtisodiyotdagi dollarlashuv darajasi sezilarli darajada oshsa;

yirik davlat korxonalari moliyaviy holatining zaiflashuvi natijasida davlat shartli majburiyatlari amalga oshsa (ya‘ni, hukumat davlat korxonalarining qarzlilarini to‘lashni boshlasa).

<https://www.spot.uz/oz/2022/06/06/economy-growth/>

[murojat sanasi 05.06.2022 y]

O‘qitish maqsadi: Iqtisodiy o‘shishning talqini, iqtisodiy o‘shishning turli mamlakatlarda namoyon bo‘lishi borasida tushunchalar hosil qilish.

Tayanch iboralar: barqaror rivojlanish maqsadlari, global muammolar, iqtisodiy o‘shish, iqtisodiy o‘shish sifat.

11.1. Iqtisodiy o‘shish sifati, ko‘rsatkichlari hamda o‘lchamlari.

BMTga a‘zo davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan 2030-yilgacha barqaror rivojlanish yo‘l xaritasi 2017-yilda tasdiqlangan va 15 yil ichida erishilishi kerak bo‘lgan 244 global ko‘rsatkich bo‘yicha baholangan 17 ta rivojlanish maqsadlarini o‘z ichiga oladi. Biroq, global ko‘rsatkichlarning yarmidan ko‘pi belgilangan baholash uslubiga ega emas yoki ma‘lumotlar mamlakatlar tomonidan to‘planmaydi, bu esa ushbu maqsadlarga erishish natijalarini baholashni qiyinlashtiradi.


Iqtisodiy o'sish iqtisodiyot nazariyasida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining (iqtisodiy tizimdagi (mamlakat, mintaqa, jahon) ishlab chiqarish omillari hisobiga yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sishi) yoki aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning ko'payishi sifatida aniqlanadi. Sifatli iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish omillari sifatini yaxshilashga (intensiv o'sish), miqdoriy o'sish - doimiy sifatli ishlab chiqarish omillari sonini ko'paytirishga (ekstensiv o'sishga) asoslanadi.

Iqtisodiy o'sishni o'lchash uchun bir qator umumiy qabul qilingan ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- YaIM yoki milliy daromadning o'sish sur'ati (MD). Sanoat uchun yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi (YaQQ), mintaqa uchun – yalpi hududiy mahsulot (YaHM);

- aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati (MD, YaHM) - iqtisodiy faollik darajasi va aholining hayot sifatini aks ettiradi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiyotda asosan o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Biroq, oxirgi yillarda zamonaviy jahon iqtisodiyoti o'sish sur'atlarining sekinlashishi bilan tavsiflanadi, bu o'zaro savdo qarama-qarshiliklari (AQSh va Xitoy o'rtasidagi "savdo urushi", Eron, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Birma, Belarusiya va boshqa bir qancha davlatlarga nisbatan sektorli iqtisodiy sanksiyalar) va 2020 yildan boshlab - yangi SARS CoV-2 koronavirus infeksiyasining pandemiyasi, energiya narxlari va Rossiya bilan Ukraina o'rtasidagi inqiroz eksport hajmini qisman qisqarishiga hamda valyuta oqimini kamayishiga ta'sir ko'rsatdi.



11.1-rasm - Aholi jon boshiga xarid qobiliyati pariteti bo'yicha O'zbekistonda YaIM, ming AQSh dollarida.

11.1 - jadval ma'lumotlariga ko'ra xarid qobiliyati pariteti bo'yicha YaIM hajmi faqat 1992 yil va 1994 yil bo'lgan davrda pasaygan. Bunga sabab mustaqillikning ilk yillarida milliy iqtisodiyotimizda chuqur tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq qayta qurilish jarayonlari bilan izohlash mumkin. Keyingi yillarda barqaror o'sish kuzatilgan. Umuman olganda, iqtisodiyotda o'sish chastotasi 65 % ni, bazis yilga nisbatan sekinlashuv chastotasi 27% ni tashkil etgan. Iqtisodiy o'sishni pasayish chastotasi 6,8 % ga teng. Bu yo'lga qo'yilgan "o'zbek" modelining uzoq muddatli samarasi deyishimiz mumkin. Ushbu yillarda mamlakatimizda bozor mexanizmlari yanada mustahkamroq shakllanib bordi.

**Xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha O‘zbekiston YaIM dinamikasi, ming AQSh dollari
va 1990-2021 yillardagi o‘shish xususiyatlari.**

Yillar	YaIM, mlrd dollarda	Yillar bo‘yicha mutloq farq, mlrd dollarda	O‘shish mavjudligi	Yillar	YaIM, mlrd dollarda	Yillar bo‘yicha mutloq farq, mlrd dollarda	O‘shish mavjudligi
1990	54,553	-	-	2009	143,516	11,698	sekinlashuv
1991	56,12	1,567	O‘shish	2010	156,219	12,703	O‘shish
1992	50,97	-5,15	Pasayish	2011	171,483	15,264	O‘shish
1993	50,978	0,008	O‘shish	2012	180,491	9,008	sekinlashuv
1994	49,359	-1,619	Pasayish	2013	190,612	10,121	O‘shish
1995	49,941	0,582	O‘shish	2014	199,767	9,155	sekinlashuv
1996	51,72	1,779	O‘shish	2015	209,082	9,315	O‘shish
1997	55,382	3,662	O‘shish	2016	216,467	7,385	sekinlashuv
1998	58,414	3,032	Sekinlashuv	2017	221,561	5,094	sekinlashuv
1999	61,805	3,391	O‘shish	2018	239,03	17,469	O‘shish
2000	65,61	3,805	Sekinlashuv	2019	257,189	18,159	O‘shish
2001	69,841	4,231	O‘shish	2020	264,752	7,563	sekinlashuv
2002	73,765	3,924	Sekinlashuv	2021			
2003	78,315	4,55	O‘shish	O‘shish chastotasi			0,655
2004	86,414	8,099	O‘shish	O‘shish sekinlashuvi chastotasi			0,275
2005	95,298	8,884	O‘shish	Pasayish chastotasi			0,068
2006	105,498	10,2	O‘shish				
2007	118,595	13,097	O‘shish				
2008	131,818	13,223	O‘shish				

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni bilan belgilangan maqsadlari barqaror rivojlanish maqsadlarining barcha yo‘nalishlarini o‘zida qamrab oladi (11.2-jadval). Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 7 ta ustuvor yo‘nalishlarda 100 maqsadlardan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish mamlakatimizda istiqbolda iqtisdiy taraqqiyotini belgilab beradi.

**2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini
amalga oshirish asosiy ko'rsatkichlari.**

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash maqsadlari	2022-2026 yy.
1	2
Aholi jon boshiga YaIM hajmini oshirish, barobarda	1,6
YaIM da sanoat ulushini oshirish, barobarda	1,4
Iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirish, % da	20
Havoga chiqariladigan zararli gazlarni hajmini kamaytirish, % da	10
Raqamli iqtisodiyot hajmini oshirish, barobarda	2,5
Dasturiy mahsulotlar eksportini oshirish, marta	10
Investitsiyalarni jalb etish, mlrd, dollarda	120
Fond bozori hajmini oshirish, mlrd, dollarda	6,8
Eksport hajmini mlrd dollarga etkazish	30
YaIM da xususiy sektor ulushini % ga etkazish	80
Ishsizlik darajasini tushurish, barovarda	2
Dehqon va fermerlar daromadini oshirish, barovar	2
Qishloq xo'jaligini yillik o'sishini % ga etkazish	5
Chorvachilik ozuqasini ishlab chiqarishni ko'paytirish, marta	1,5-2
Hududiy iqtisodiyotni oshirish, marta	1,4-1,6
Mahalliy sayyohlar sonini oshirish, mln., nafar	12
Bank tizimida xususiy sektor ulushini oshirish, % da	42
Meva-sabzavotchilik eksportini salohiyatini oshirish, mlrd., dollar	1

Milliy loyihalar (dasturlar) maqsadlariga erishish muvozanatli, barqaror va inklyuziv (aholining barcha qatlamlari uchun) iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy o'sishni baholash uchun bir qator muqobil ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi:

- “yashil” YaIM (ekologik xarajatlarni hisobga olmaganda YaIM);
- haqiqiy taraqqiyot ko'rsatkichi – daromad va xarajatlarning tengsizligini; uzoq muddatli tovarlar va ijtimoiy infratuzilmalar, volontyorlik va uy ishlari ta'sirini hisobga olgan holda YaIMga tuzatish kiritishdir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan mezonlardan biri urbanizatsiya jarayonida qishloq xo'jaligi erlarini yo'qotish ko'rsatkichi bo'lib, gektariga qishloq xo'jaligi erlarining qiymatini baholash asosida aniqlanadi;
- tuzatish kiritilgan sof jamg'arma ko'rsatkichi;

- inson taraqqiyoti indeksi - turmush darajasi, savodxonlik, ta'lim va uzoq umr ko'rish darajasini tahlil qilish imkonini beruvchi integral ko'rsatkich;

- inklyuziv rivojlanish indeksi - yalpi ichki mahsulotdan tashqari yana 11 ta parametрни, shu jumladan, Jini koeffitsientini hisobga oladi;

- baxt indeksi - olti omilni, jumladan, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM), ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'lami va boshqalarni hisobga oladi. The World Happiness Report xalqaro tashkilotining 2021 yilgi hisobotlariga ko'ra O'zbekiston MDX davlarida birinchi o'rinni hamda jahonda (6,179 ball) 42 o'rinni egallagan.

- texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq indekslar - ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (ITI) xarajatlar (ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi), rezidentlar tomonidan patentga berilgan talabnomalar soni.

Iqtisodiy o'sishni baholash ko'rsatkichlarining kengayishi nafaqat transchegaraviy raqamli faoliyatning rivojlanishi natijasida iqtisodiyot tarkibidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda statistik ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini takomillashtirish zarurati bilan, balki iqtisodiy o'sishning miqdoriy ko'rsatkichlaridan atrof-muhitni, ijtimoiy ta'sirni, texnologik jarayonlarni baholash kabi uning sifat komponentlarini baholashga bosqichma-bosqich o'tish bilan ham izohlanadi.

Ba'zi subyektiv yondashuvni hisobga olmaganda, muqobil indekslarlar atrof-muhitning ifloslanishi, aholining sog'ligi, o'rtacha umr ko'rish, bo'sh vaqtlarga ega bo'lishi, mobillik holati va boshqalarni ham ko'rib chiqadi.

Zamonaviy dunyoda, oltinchi texnologik muhit sharoitida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish muammolariga e'tibor ortib bormoqda. Nobel mukofoti sovrindori R.Solou "texnik taraqqiyotni tezlashtirishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va umuman, intensiv iqtisodiy o'sishga olib keladigan bunday ishlab chiqarish omillarini aniqlashni asosiy vazifa" deb hisoblaydi. Solouning o'sish modeli shuni ko'rsatadiki, "asosiy mablag'larni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish jadal iqtisodiy o'sishga olib keladi". Dinamikada O'zbekiston


Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi 2-11 chizmalarda keltirilgan..

Xususan, 2000 yilga nisbatan YaIM hajmi 5 marta o'sdi (11.2-rasm). Aholi jon boshiga bu kompleks ko'rsatkich 2021 yilda 1 983 AQSh dollarini tashkil etdi (bazis yiliga nisbatan o'sish 3,5 baravardan ko'proqni tashkil etdi). Ammo 2017-2020 yillarda o'rtacha yalpi ichki mahsuloti pasayishi kuzatilgan.

Qishloq xo'jaligi ham dunyoning yetakchi davlatlari (AQSh, Kanada, Yevropa Ittifoqi va boshqalar) bilan solishtirganda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning past darajasiga qaramasdan, hamda, fan va fan-texnika yutuqlarining nisbatan ozligiga qaramay, mahalliy agrosanoat kompleksi ancha yuqori sur'atlarda rivojlandi. Tahlil qilinayotgan davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari (qiymat ko'rinishida) 218,1 barobar oshdi (11.3-rasm).




11.2 – rasm. 2000 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hajmi.




11.3 – rasm. 2000 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so‘m.

Demografik ko‘rsatkichlar 2000 – 2021 aholi sonining barqaror o‘sib borishi (11.4-rasm) va aholi sonining xorijdan ko‘chib kelgan kishilar soni 34,6% ga qisqarishi bilan tavsiflanadi (11.5-rasm). Boshqa tomondan, aholining tabiiy o‘sish ko‘rsatkichi 28 % ga oshgan. Shu bilan birga, band aholi soni o‘sib borish tendentsiyasini ham kuzatishimiz mumkin.




11.4 – rasm. 2000 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston aholisi, ming kishi.

11.4 - rasmda keltirilgan ma’lumotlardan respublikamiz aholi soni barqaror o‘sib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, aholi soni 2021 – yilda 2000 – yilga nisbatan 1,44 barobar oshgan.



11.5-rasm. 2000 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston aholisining iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishi ko'rsatkichlari.

Respublikamizda 2000 yil va 2021 yillar oralig'ida aholi soni migrantlar hisobiga o'sishi kamayib, tabiiy o'sish esa ortib borgan (11.5-rasm).




11.6-rasm - 2010 yildan 2021 yilgacha O'zbekistonda iqtisodiy faollik


ko'rsatkichlari, mlrd so'mda.

Asosiy vositalarni ishga tushirish 13,03 baravar (11.6-rasm) tez sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Chakana tovar ayirboshlash va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish bazis (2010 yil)ga nisbatan sezilarli darajada o'sdi. Tashqi savdo

aylanmasi importni o'sish sur'atlarini 2,7 barovar oshgani hisobiga 1,8 baravarga o'sdi. O'zbekiston aholisining asosiy toifalarining jon boshiga daromad ko'rsatkichlari o'sdi (11.7-rasm).




11.7-rasm - 2000 yildan 2018 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston aholisining asosiy toifalari jon boshiga o'rtacha daromad ko'rsatkichlari.




11.8-rasm - 2007 yildan 2020 yilgacha O'zbekistonda xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari.

Tadqiq etilgan davrda transportning yuk aylanmasi 15% kamaygan. Yo'lovchi aylanmasi 13 % ga o'sgan. Sezilarli o'sish uy – joy qurilishida kuzatilib 45 % ni tashkil etgan (11.7-rasm).



11.9-rasm. 2018 yildan 2021 yilgacha O‘zbekistonda moliyaviy faoliyat ko‘rsatkichlari.


Asosiy kapitalga investitsiyalar 1,97 barovar yoki 97 % ga o‘sgan (11.9-rasm). Byudjet xarajatlari daromadlariga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda o‘sib borga. Shu bilan birga byudjet defitsiti 2018 – yil -637,1 mlrd so‘mdan, 2021 yilga kelib -23953,6 mlrd so‘mga oshgan. Moliyaviy hisob salbiy saldosini muntazam oshib borib 4,4 barovarga teng bo‘lgan.



11.10-rasm - 2000 yildan 2018 yilgacha O‘zbekistonda inflyatsiya ko‘rsatkichlari.


Inflyatsiya (11.9-rasm) ko‘rsatkichlari barqaror sur‘atlarda saqlangan va tashqi iqtisodiy faoliyat (11.10-rasm) ko‘rsatkichlari ijobiy tendentsiyaga ega.

Mehnat bozori holati band bo‘lganlar sonining 18 foizga, pensionerlar sonining 24 foizga o‘shishi, ishsizlar sonining deyarli 41 barovar ortishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, mamlakatda ishsizlar soni 1,5 million kishiga yaqinlashmoqda (11.5 - rasm). Aholining turmush darajasi aholi sonining o‘shish sur‘atlariga bog‘liq, chunki aholi sonining o‘shishi aholi jon boshiga YaIM miqdorini kamaytiradi. Real iqtisodiy o‘shish yalpi ichki mahsulotning o‘shish ko‘rsatkichlari aholining o‘shish sur‘atlariga nisbatan yuqori bo‘lganda nomoyon bo‘ladi.




11.11-rasm - 2000 yildan 2021 yilgacha O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari, mln AQSh dollarida.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning real va eng yuqori o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati Yaponiyada kuzatilgan (11.12-rasm va 11.13-rasm). Bu mamlakatda ko‘rib chiqilayotgan davr boshida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 842 AQSh dollarini (1985 y. dollarda), davr oxiriga kelib esa 16144 AQSh dollarini tashkil etdi. O‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati 3% ni tashkil etgan.




11.13-rasm. Yaponiya, Kanada, Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniyaning aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsuloti 1870-yilda, AQSh dollarida.




11.13-rasm - Yaponiya, Kanada, Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya uchun aholi jon boshiga real YaIM 1990 yilda, AQSh dollarida

Braziliya, Kanada, Germaniya (o'sish sur'ati bo'yicha) yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan. Bu mamlakatlarda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2 foizdan oshgan. Braziliya - 2,39%; Kanada - 2,15%; Germaniya - 2,07%.




11.14-rasm. 1990-yilda Braziliya, Xitoy, Meksika, Argentina, Indoneziya, Pokiston, Hindiston, Bangladeshda aholi jon boshiga real YaIM, AQSh dollarida.



11.15 – rasm. Bangladesh, Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Argentina, Meksika, Xitoy, Braziliyada real YaIM aholi jon boshiga, 1987 – yil, AQSh dollarida.

11.12-15-rasmlarda keltirilgan ma’lumotlar turli mamlakatlarda aholi daromadlarining o’zgarishi to’g’risida ma’lumot beradi, bu esa mamlakatlarning iqtisodiy notekis rivojlanishini tasdiqlaydi. Shunday qilib, agar Yaponiyada o’rtacha yillik o’sish sur’ati (1890-1990) 3% bo’lsa, Hindiston, Bangladesh va Pokistonda - 1% dan kam (1900-1987 yillar). Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, aholi jon boshiga real YaIM bo’yicha eng yuqori natija - ko’rib chiqilayotgan davr oxirida AQShda erishilgan bo’lib, u 18 258 AQSh dollarini tashkil etgan.

Mahalliy va xorijiy nashrlarni ko’rib chiqish bizga o’sish sifatini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning o’ziga xos xususiyatlari va maqsadlarini aks ettiruvchi; oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo’jaligi xom ashyosining sifat o’zgarishi; iqtisodiy o’sishning intensiv turi, ishlab chiqarish tuzilmasi va dinamikasi jamiyat ehtiyojlariga mos kelish darajasi; o’sishning ijtimoiy yo’naltirilganligi kategoriyasi sifatida aniqlash imkonini beradi (11.16-rasm).



11.16 – rasm. Iqtisodiy o'sish sifatini aniqlashga asosiy yondashuvlar.

Taqdim etilgan yondashuvlarning har biri iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanishni xususiyatlarini aniqlash bilan uni faqat ma'lum bir jihatlarinigina ko'rib chiqadi.

Masalan, N.P.Kuznetsova iqtisodiy o'sish sifati tushunchasining mazmuni ijtimoiy takror ishlab chiqarishda, maqsad esa xalq farovonligida ekanligini ta'kidlaydi.

I.M.Tenyakov iqtisodiy o'sish sifat kategoriyasi mazmunida ishlab chiqarish omillari sifati o'rtasidagi bog'liqlik, yakuniy mahsulot sifatini ta'minlash, xo'jalik yurituvchi subyektlar va ularning tovar mahsuloti raqobatbardoshligini oshirish kabi muhim xususiyatlarni alohida ta'kidlab, ijtimoiy insitutlar va iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasida sifat o'zgarishlarni ushbu kategoriyada tarkibida ko'radi. Shuningdek, u ekologiya va kishilarning hayotdan qoniqishi nuqtai nazaridan iqtisodiy o'sish sifatini ko'rib chiqishni taklif qiladi.

Mintaqa darajasida V.I.Senkov, N.V.Senkovalar iqtisodiy o'sish sifatini mintaqalarning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish jarayonlari va investitsiya muhitini shakllantirish bilan bog'laydi, iqtisodiy hodisalarni baholashning metodik va metodologik yondashuvlarini taklif qiladi, har bir mezonni hisobga olgan holda hududlar tizimida mintaqaning profilini yaratadi.

Boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda B.D. Babaev va S.P. Dubrovskiyalar farovonlik mezonini iqtisodiy o'sishning asosiy xususiyatiga kiritishgan. Ular ijtimoiy mahsulot kategoriyasini ijtimoiy farovonlik kategoriyasiga

transformatsiyalash to'liqligi prizmasi orqali iqtisodiy o'sish sifatini baholash pozitsiyalarida turadilar.

T.I.Buxtiyarova, M.D.Bocharovalar ta'kidlashicha, "iqtisodiy o'sish sifati o'zgarishlarni boshqarishning yangi sifatini talab qiladi, bu esa o'z navbatida: boshqaruv xodimlarining malakasini, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishni anglatadi.

Mamlakatimiz olimlari orasida modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o'sishni muhim omillari ekanligini (Pardaev M.Q., Mamasoatov T.X.), mamlakatlarda farovonlikning jiddiy farqlanishini iqtisodiyot samaradorligining turlicha bo'lishini (O'lmasov A., Vaxobov A.), iqtisodiy o'sishni texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat asosida oshirish masalasiga e'tibor qaratgani xolda, ijtimoiy jixatdan yo'naltirilganlik darajasini asosiy o'ringa qo'yishgan (Madraximov U).

Iqtisodiy o'sish sifatining tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq va a'loqadordir. Umuman olganda, iqtisodiy o'sish sifatini integral ko'rsatkich bilan, iqtisodiy o'sish sifatining o'zgarishi esa - bazaviy yoki standartdan og'ish sifatida baholanishi mumkin (11.3-jadval).

Iqtisodiy o'sish sur'atlari va uning sifati o'rtasida teskari a'loqa yuzaga keladi: o'sishning yuqori sur'atlarida - o'sish sifatining yomonlashishi; past (salbiy) o'sish sur'atlarida - mahsulot sifati tufayli iste'molchilarning qoniqish darajasini oshishi; barqaror jamiyatda – yuqori bo'lmagan (yiliga 2-3%) va sifatli iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari; chuqur pasayish - maksimal iqtisodiy o'sish sifati; optimal o'sish sur'atlari - makroiqtisodiy muvozanat.

Resurslardan (tabiiy, mehnat, kapital) oqilona foydalanish iqtisodiy o'sish sifatini ta'minlashning moddiy asosini tashkil etadi. Resurslardan samarali foydalanish, fan va amaliyotning zamonaviy yutuqlari, prinsipial yangi texnologiya va innovatsiyaga yo'naltirilgan texnologiyalarni yaratishda ijobiy siljishlar, turli mahsulot va tovarlar ishlab chiqarishda yangi materiallardan foydalanish, tarmoq va mintaqaviy nisbatlarda muammolarni hal etish asosida mumkin.

Iqtisodiy o‘rsh sifatini baholash ko‘rsatkichlari.

Iqtisodiy o‘rshning tarkibiy unsurlari	Ko‘rsatkichlar
1	2
Ishlab chiqarish omillarining sifati	Samaradorlik ko‘rsatkichlari: texnik (natural birliklarda hosildorlik) va texnik-iqtisodiy (mehnat unumdorligi, fond qaytimi, kapital qaytimi, moddiy materiallar qaytimi, energiya qaytimi, birlamchi resurslar mahsuldorligi).
Oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi xom ashyosining sifati	Mahsulotlarning texnik xususiyatlari va iste‘mol xususiyatlari, ularning raqobatbardoshligi.
Iqtisodiyotning tarmoq tarkibidagi o‘zgarishlar	Yalpi ichki mahsulot (YaHM) tarkibida tarmoqning ulushi, tarmoqlar o‘rtasidagi nisbat, iqtisodiyot tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi, ularning yakuniy mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi, ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlarning umumiy xarajatlardagi ulushi, qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar soni, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi.
O‘rshning ijtimoiy yo‘naltirilgan-ligi va natijaviyligi	Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dinamikasi, aholi turmush darajasi va sifatining o‘rsh, aholining daromadlari bo‘yicha tabaqalanishi (desil koeffitsientlari, Jini indeksi), shaxsiy iste‘mol va daromadning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, atrof-muhit sifati, oziq-ovqat xavfsizligi, ishlab chiqarishning ekologik tozaligi, aholining savodxonlik, ta‘lim olish va sog‘lomlik darajasi ko‘rsatkichlari, uy-joy bilan ta‘minlanganligi, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni (avtomobillar, kompyuterlar, maishiy texnika va boshqalar) xarid qilish hajmi va boshqalar.

Shu bois qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘rsh sifatini ta‘minlash: xo‘jalik yuritishning zamonaviy usullarini, ilmiy-texnik va ilmiy-texnologik yutuqlarini joriy etish, robototexnika, kompyuter va resurslarni tejoychi texnologiyalarni qo‘llash, jarayonlarni raqamlashtirish; yuqori qo‘shimcha qiymatga ega yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish; oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi xom ashyosi sifatini oshirish; bularning barchasiga erishilganda ekologik toza muhitni saqlash hisobiga amalga oshirilishi zarur.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy o'sish sur'atlarini sifat komponenti ulushini oshirish ustuvor maqsad qilib qo'yilgan zamonaviy yo'nalish - aholining turmush tarzi sifati va darajasini oshirish ijtimoiy - iqtisodiy samarasiga erishish imkonini beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, iqtisodiy o'sish sifati ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining innovatsion rivojlanishi bilan belgilanishini ta'kidlashni zarur deb hisoblaymiz. Shuning uchun ham biz qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sish sifatini qishloq hududlarini rivojlantirishda va aholining hayotdan qoniqishida ijtimoiy natijaviylikka olib keluvchi, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmining ko'payishida, oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi xomashyosining sifati va raqobatbardoshligi oshishi, ishlab chiqarish omillaridan samarali va ekologik muvozanatli foydalangan holda innovatsion asosda tarmoq iqtisodiy tizimidagi progressiv o'zgarishlar sifatida qaraymiz.

11.2. Iqtisodiy o'sishni aniqlash borasidagi nazariy yondashuvlar

Iqtisodiy o'sishning nazariy jihatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Y.Shumpeterning iqtisodiy rivojlanish nazariyasiga to'xtalmaslikning sira iloji yo'q. Uning nazariyasining asosiy qoidalari shundan iboratki, iqtisodiyotning rivojlanishi va yuksalishini yangi texnologiyalar, zamonaviy va ilg'or texnikalar, samarali ish uslublar va metodlaridan foydalanmasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

Uning iqtisodiy o'sishga doir tadqiqotlarida xo'jalik tarkibiy qismiga, iqtisodiyotning real sektoriga joriy qilinadigan, iqtisodiy o'sishni aniqlab beruvchi asosiy omillar - innovatsiyalarga urg'u beriladi. Aynan ular va ularning ta'siri sababli ham iqtisodiy o'sishi mumkin bo'ladi.

J.Shumpeter, yangi ishlab chiqarish sohalari va turlarining paydo bo'lishi – bu yangi ish o'rinlarini yaralishi, tovar ayirboshlash hajmini ortishi, pirovardida ishchilar va xodimlarning farovonligini oshirishga olib keladigan haqiqiy yo'l deb hisoblaydi. D.Rikardo kontseptsiyasidan farqli o'laroq, Shumpeter o'z nazariyasi doirasida aholi o'sishi bu ne'mat deb hisoblab, asosiy rolni tadbirkorga

(zamonaviy ma'noda kompaniyalarga) yuklagan. Uning nazariyasida innovatsiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq iqtisodiy tsikllar alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, tsikl o'zaro bog'liq bo'lgan besh bosqichdan iborat bo'lib, ular doirasida u yoki bu yangilik yaratiladi va amalga oshiriladi. Beshinchi fazaga yetganda, undan keyin tsikl "qayta boshlanmaydi", vaqtinchalik turg'unlik paydo bo'ladi (bozor to'yingan, omborlarda likvid bo'lmagan aktivlar mavjud, tovarlar sotilmaydi). Bunda "ijodiy halokat" tushunchasi doirasida eskisini yo'q qilib, yangi texnologik tuzumni qurishni ta'minlaydigan mexanizmlar zarur bo'ladi. Y.Shumpeter alohida xavfni tashqi kuchlar - ekstremal omillar (urushlar, tabiiy ofatlar) ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozli hodisalarda ko'rdi. Uning iqtisodiy rivojlanish kontsepsiyasining kamchiliklari shundan iboratki, u jamiyatni tanazzulga yuz o'girishi imkoniyatini inobatga olmagan holda faqatgina progressivligi jihatidan ko'rib chiqadi; uning iqtisodiy nazariyasi mamlakatlararo kuchli raqobatni hisobga olmaydi; nazariya jamiyatning ayrim xatti - harakatlarining irratsional bo'lishi mumkinligini ham hisobga olmaydi.

Shu bilan birga, Y.Shumpeter nazariyasining kontseptual qoidalarining muvaffaqiyatli qo'llanilishini Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya iqtisodiyoti misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, ilm-fan yutuqlarini joriy etish va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishgan.

Shumpeter kontsepsiyasi klassik iqtisodiy nazariyani uyg'un ravishda to'ldiradi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish dinamikasini, bir qator tadqiqotchilarning fikricha, iqtisodiy o'sishning Shumpeter-Kondratev nazariyasi doirasida ilmiy asosli tahlil qilish mumkin. Innovatsion-tsiklik iqtisodiy o'sish asosidagi strategik rivojlanish, innovatsiyalarni joriy qilishni strategik rivojlanishning hal qiluvchi omili deb hisoblashga asoslanadi. Ushbu iqtisodiy jarayonlar N.D.Kondratevning tsikli - to'liqlar nazariyasi doirasida ham bayon etilgan. Y.Shumpeterning fikricha, iqtisodiy amaliyotga kiritilgan innovatsiyalar "uzun to'liq" ning paydo

bo‘lishiga sharoit yaratadi (Kondratev bo‘yicha). Bunda innovatsiyalar “iqtisodiy yuksalish lokomotivi” vazifasini bajaradi.

Innovatsion rivojlanish va iqtisodiy inqirozlarga oid yana bir muhim kuzatuv shundan iboratki, G.Mensh (nemis tadqiqotchisi) birinchilardan bo‘lib iqtisodiyot “pasayish to‘lqinlari” davrida, ya’ni aynan inqiroz davrida bozorga kirib innovatsiyalarga aylanuvchi yangiliklarga eng ta’sirchan bo‘lishini aniqladi. Inqiroz bilan boshlangan bunday jarayon notekis va tsiklikdir, lekin ayni paytda innovatsiyalar klasterlarining shakllanishi bilan yakunlanadi.

Bunday vaziyatda, K.Frimanning bunday klasterlash “bog‘lanish” va “diffuziya” jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu innovatsiyalarning yagona klasterini yaratishga olib kelishi to‘g‘risidagi tadqiqotlari natijalarini misol qilib keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mavjud iqtisodiy o‘shish nazariyalari turli darajada mamlakatlar o‘rtasidagi aholi jon boshiga daromad va mehnat unumdorligidagi farqlarni, iqtisodiy o‘shishning tezlashuvi yoki turg‘unligi sabablarini va o‘shish barqarorligi darajasini asoslab beradi.

Neoklassik nazariya doirasida quyidagilar yaratilgan: Solou modeli, Ramsey-Kass-Kupmans modeli, Mankyu-Romer-Veyl modeli va boshqalar. R.Solou modeli yalpi milliy mahsulot, ishlab chiqarish fondlari va mehnat resurslari hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni (u tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy o‘shish nazariyasi doirasida) aks ettiradi.

R.Solouning kengaytirilgan modeli Mankyu-Romer-Veyl modeli hisoblanadi, u kapital kontseptsiyasiga inson kapitalining kiritilishi bilan tavsiflanadi, u mamlakatlararo aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot va uning o‘shish sur‘atlaridagi farqlarni rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga inson kapitalini sezilarli darajada yuqori bo‘lishini tushuntiradi.

Ramsey-Kass-Kopmans modelining (ekzogen iqtisodiy o‘shish modeli) o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu modelda jamg‘armaning ekzogen normasi o‘rniga iste’molchining vaqtinchalik foydalilik funksiyasi kiritilgan. Model

iste'molchilarning qarorlari orqali jamg'arma normasini shakllantirish mexanizmini ko'rsatdi.

Barcha neoklassik modellar shartli tez o'sib borayotgan konvergenstsiya mavjudligini taxmin qilishgan. Biroq amaliyotda bu sodir bo'lmaydi, sodda qilib aytganda "o'rnini qoplash samarasi" ishlamaydi.

"Kapitalning keng talqiniga asoslangan endogen o'sish modellari" ham ma'lum. Masalan, Uzava-Lukas modeli inson kapitalidan kelib chiqadigan tashqi samaralar bilan tavsiflanadi (u ilmiy-texnik taraqqiyoti tezligiga ta'sir qiladi). Bunday modelda iqtisodiy o'sishning barqarorligi iqtisodiyotda bilimlarni tarqatishning tashqi ta'siri bilan kuchayadigan, ta'lim darajasini oshirish shaklida inson kapitalining to'planishiga asoslanadi.

Iqtisodiy o'sishning turli nazariyalari va modellarini tahlil qilib (yondashuvlarning xilma-xilligi va ko'pligini hisobga olgan holda) yuqoridagi muammolarni o'rganishni quyidagi tarzda guruhlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi guruhga omilli tahlil doirasida olib borilgan tadqiqotlarni kiritamiz. Stsenariyli yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni prognoz qilish yo'nalishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni ikkinchi guruhga, uchinchi guruhni - iqtisodiy o'sishni optimallashtirish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot ma'lumotlari va xulosalaridan shakllantiramiz.

O'tkazilgan omilli tahlillar doirasida "iqtisodiy rivojlanishning bir qator dualistik nazariyalarini", jumladan, iqtisodiyotning real sektorlari o'rtasidagi munosabatlarni, agrar-oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga kelsak, ularni ekzogen va endogen omillar ta'sirida innovatsion rivojlantirish mexanizmlari va modellarini, shahar va qishloq aholisining hayot sifatidagi farqlarni bartaraf etish zaruriyati va xususiyatlarini ajratib ko'rsatish zarur. Shu nuqtai nazardan, V.A.Lyuis modeli ilmiy qiziqish uyg'otadi, unda iqtisodiyotning ikki sektorini (qishloq xo'jaligi va sanoat) taqqoslash asosida, agrar iqtisodiyotda daromadlar o'sishi manbai bu - innovatsion rivojlanish ekanligini, iqtisodiy rivojlanish esa mehnat resurslarini qayta taqsimlash bilan bog'liqligi isbotlagan. Qishloq

aholisining qishloqdan shaharga ko‘chishi sabablarini o‘rganuvchi M.Todaro modelida shahar va qishloqlardagi daromadlar darajasidagi farqni agrar islohotlar va qishloq xo‘jaligiga ajratmalarni ko‘paytirish orqali kamaytirish mumkinligi aytib o‘tgan.

Iqtisodiy o‘shishning asosiy nazariyalari

Nazariya	Model	Xususiyati	Haqiqatdan og‘ishi
1	2	3	4
1.Maltus nazariyasi		Yer aholisining sonini geometrik ravishda o‘shib boradi va yer resurslari esa cheklangan, shuning uchun agar aholi soni o‘shishi cheklanmasa, resurslar hamma uchun etarli bo‘lmay qoladi	
2. Keynscha nazariya	Xarrod – Domar modeli	“katta turtki” tushunchasi davlat investitsiyalariga asoslangan sanoatlashtirishni nazarda tutadi, buning uchun mablag‘lar fiskal va pul-kredit siyosati orqali to‘planadi	Rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu kontseptsiyaning amalda tatbiq etilishi fiskal siyosatning zaif imkoniyatlarini, yordam hajmi va ichki investitsiyalar o‘rtasida bog‘liqlik yo‘qligini ko‘rsatdi
3. Neo-klassik nazariya	3.1 Solou modeli	R.Solou o‘z modelida R.Xarrod va E.Domarning yondashuvlarini birlashtirgan. Modelda ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanilganda, biroq to‘liq bandlik bo‘lmaganda “kafolatlangan o‘shish sur‘ati” kontseptsiyasini kiritadi.	Turli mamlakatlardagi foiz stavkalarini solishtirish modelning real ma‘lumotlarga mos kelmasligini ko‘rsatdi.
	3.2 Ramsey-Kass-Kopmans modeli	Model jamg‘armaning ekzogen normasi o‘rniga iste‘molchining vaqtinchalik foydalilik funksiyasi kiritilgan. Model iste‘molchilarning qarorlari orqali jamg‘arma normasini shakllantirish mexanizmini ko‘rsatdi.	Modelning kamchiligi “doimiy iste‘molchi” ning mavjudligidir.

	3.3 O‘zaro kesishuvchi avlodlar modeli	“Har bir inson o‘zi olgan narsalarni, harajatlarning vaqtlararo foydaliligini maksimal darajada oshirib, yoshlikda iste‘mol qilish yoki qarilikda jamg‘arma va iste‘mol qilishni tanlaydi va ajratadi”. O‘zaro kesishuvchi avlodlar modelida “kapitalning ortiqcha to‘planishi bilan dinamik samarasiz muvozanat yuzaga keladi, bu esa uni yanada realroq qiladi”.	Rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalning ortiqcha to‘planishi odatiy muammo emas.
	3.4 Mankyu-Romer-Veyl modeli	u kapital kontseptsiyasiga inson kapitalining kiritilishi bilan tavsiflanadi, u mamlakatlararo aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot va uning o‘shish sur‘atlaridagi farqlarni rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga inson kapitalini sezilarli darajada yuqori bo‘lishini tushuntiradi.	“Kambag‘al mamlakatlar ularda jismoniy yoki inson kapitali etishmaganligi yoki samarasiz texnologiyalardan foydalanganliklari uchun kambag‘aldir”
	3.5 Neoklassik modellarda konvergentsiya	Barcha neoklassik modellar shartli konvergentsiyaning mavjudligini taxmin qilishgan, ya’ni, tarkibiy parametrlarda o‘xshashlik va etarlicha yuqori tezlikdagi konvergentsiya bo‘lgan sharoitda kambag‘al mamlakatlar boy mamlakatlarga qaraganda tezroq o‘shishi kerak[222].	Haqiqatda bu sodir bo‘lmaydi
4. “Kapitalni keng talqin qilish asosida	4.1. “Faoliyat jarayonida ta’lim modeli”	“O‘shish iqtisodiyotdagi kapitalning umumiy zaxirasidan tashqi ta’sirlarga asoslanadi, buning natijasida kapital zahirasi ko‘payganda kapitalning marjinal unumdorligi pasaymaydi. Modeldagi texnologik taraqqiyot ishchilar mehnati jarayonida bilimlari oshishi natijasi sifatida talqin qilinadi, bilim to‘planishi esa kapital to‘planishi bilan birga	Empirik tadqiqotlardan kapitalning tashqi ta’sirini ahamiyatsiz darajada kamligi yoki umuman mavjud emasligi aniqlandi

endogen		keladi”.	
o‘shish modellari”.	4.2. Udzavi – Lukas modeli	“Tashqi omillar inson kapitalidan kelib chiqadi - fan-texnika taraqqiyoti sur‘ati ta‘lim sohasida band bo‘lgan mehnat resurslari ulushiga, iqtisodiyotdagi o‘rtacha ta‘lim darajasiga bog‘liq”. Iqtisodiy o‘shishning barqarorligi ta‘limning yuqori darajalari ko‘rinishidagi inson kapitalining to‘planishiga asoslanadi, bu esa iqtisodiyotda bilimlarning tarqalishining tashqi ta‘siri bilan kuchayadi.	Tadqiqotlar “inson kapitalining tashqi ta‘sirining umumiy ishlab chiqarishga zaif ta‘sirini” ko‘rsatdi.
	4.3.AK-modeli	“Kapital” tushunchasi iqtisodiy o‘shishning doimiy sur‘atlarini ta‘minlash imkonini beradigan jismoniy va inson kapitalining kombinatsiyasi sifatida talqin etiladi. Model soliqlarni oshirishning iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi.	Modelning kamchiliklari uning soliq stavkasi o‘zgarishiga kuchli sezgirligidir.
	4.4. “Kapitalni keng talqin qilish asosida endogen o‘shish modellarida konvergentsiya”	“O‘shish sur‘atlari ishlab chiqarishning o‘shishi bilan kamaymaydi, demak, kambag‘al mamlakatlar boy mamlakatlarga etib ololmaydi”.	Xulosa pessimistik va empirik tasdiqlanmagan.
5. “Monopolistik raqobatga asoslangan endogen o‘shish modellari”		“Kapital” tushunchasiga turli xil faoliyat turlari kiradi: jismoniy kapital, inson kapitali, ta‘lim, yangi mahsulotlarni yaratish, bu modellarda texnologik taraqqiyot aniq ko‘rinishda yo‘q.	“Kapital” o‘zgaruvchisiga turli tushunchalarni birlashtirish modelning cheklangan xususiyatiga olib keldi.

	5.1. “O’sib borayotgan mahsulot xilmaxilligi modeli”	“Aniq ko‘rinishdagi yangi tovar turlarini ishlab chiqarish xarajatlari va foydasini aks ettiradi. Iqtisodiy o‘shish - bu individlarning qarorlari oqibati bo‘lib, u vosita bilan bo‘lmagan (kapitalning umumiy darajasi orqali).	Kamchilik - mamlakatlar o‘rtasida texnologiya transferining yo‘qligi.
	5.2. Texnologiyalar tarqalishi modeli	“Yetakchi davlat yangi texnologiyalarni ishlab chiqadi, ergashuvchi davlat esa yetakchidan olingan texnologiyalarga taqlid qiladi. Modelga ko‘ra, ergashuvchi mamlakatda foiz stavkasi va mahsulot ishlab chiqarishning o‘shish sur‘atlari yetakchi mamlakatga qaraganda yuqori bo‘lishi kelib chiqadi”.	Rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlarnikiga qaraganda foiz stavkasi yuqoriroq, lekin asta-sekin pasayib boradi. Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda foiz stavkasi barqaror bo‘ladi.
	5.3. Agion - Hovvitt modeli	Iqtisodiy o‘shish oraliq tovarlar sonining ko‘payishi hisobiga sodir bo‘ladi. “Modeldagi muvozanat ishlab chiqarish va tadqiqot sohalarida ish haqi tengligi shartida erishiladi”.	“Agar mavjud firmalarning egalari kuchli siyosiy nufuzga va iqtisodiy siyosatga ta’sir o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lsa, ularning manfaatlarini himoya qilish iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining sekinlashishiga olib keladi”.
6. Yagona o‘shish nazariyasi	“Ushbu nazariya shuni ko‘rsatadiki, insoniyat tarixining turli davrlarida texnologik taraqqiyot sur‘ati aholi sonining o‘shish sur‘atlariga etib ololmagan. Biogeografik, madaniy va institutsional xususiyatlarda farqlar kuzatilgan, bu esa turli mamlakatlarda turg‘unlikdan o‘shishga o‘tishning turli sur‘atlariga va natijada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning farqlanishiga olib kelgan”.		

Iqtisodiy o'sishni o'rganishning ikkinchi guruhi (stsensariy yondashuvlar va prognozlash bilan bog'liq) agrosanoat kompleksining davlat organlari, vazirlik va idoralar, akademik muassasalar va universitetlarning ilmiy maktablari, shuningdek, alohida davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladigan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ko'plab strategiyalari va tsenariylarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, tadqiqotning ikkinchi guruhi (misol sifatida) O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli 2022 — 2026-Yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmonini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy ko'rsatkichlar va indikatorlarni o'z ichiga oladi, bu inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash, Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu soxani tubdan islox etish va yangi bosqichga olib chiqish, Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan xolda echim topish; Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qishloq aholisining turmush tarzi afzalliklari asosida qishloq aholisining turmush sifati va darajasini barqaror yaxshilashni ta'minlash uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Strategiyani amalga oshirish mexanizmlari O'zbekistonning davlat dasturlari va hududlar ta'sis subyektlarining davlat dasturlari hisoblanadi. Strategiyaning maqsad va vazifalari maqsadli ko'rsatkichlar bilan belgilanadi (11.5 – jadval).

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy ko‘rsatkichlar va indikatorlar.

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Asos (2018-y.)	2021-yilga maqsad	2025-yilga maqsad	2030-yilga maqsad
1.	Qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymatning yillik o‘shishi	117,3 trln so‘m (14 mlrd AQSh doll.)	3%	5%	5%
2.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ida ish o‘rinlari sonining o‘shishi: Qishloq xo‘jaligi Oziq-ovqat sanoati To‘qimachilik sanoati	3 671 300 91 420 140 200	2% 3% 3%	1% 4% 4%	1% 5% 5%
3.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi	2,3 mlrd AQSh doll.	3,5 mlrd AQSh doll.	10 mlrd AQSh doll.	20 mlrd AQSh doll.
4.	Aholi o‘rtasida to‘yib ovqatlanmaydiganlar ulushi	6,3%	5%	3%	0
5.	Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish (bir nafar ishchiga bir yilda dollarda)	3 960 AQSh doll.	4 300 AQSh doll.	5 200 AQSh doll.	6 500 AQSh doll.
6.	Qishloq xo‘jaligidagi issiqhona gaz chiqindilarini kamaytirish	15 740 gigagramm (2016-yil)	10%	30%	50%

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan hamda amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi etib belgilangan. Strategiyani o‘z vaqtida va samarali ijro etilishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari zimmasiga yuklatilgan.

Bizning tadqiqotlarimizdagi izlanishlarimiz, turli darajadagi strategik hujjatlar va dasturlar, konsepsiya va strategiyalar, yo‘l xaritalari, hududiy rejalashtirish sxemalari va boshqa manbalar tahlilidan shuni aniqladikki, bunday ko‘p, turli xil yo‘nalish va kontseptual strategik yondashuvlar amaldagi davlat boshqaruvi tizimini, shu jumladan, ASM ni boshqarishni deyarli imkonsiz qilib

qo'yadi. Strategik hujjatlarning aksariyati tarqoq, idoralararo yagona muvofiqlashtirish yo'q, belgilangan vazifalar va ustuvor yo'nalishlarda bir-birini takrorlash, ayrim hollarda qarama-qarshilik mavjud. Strategik vazifalarni amalga oshirish byudjetga asoslangan bo'lib, bunday turdagi ko'plab hujjatlarni amalga oshirish qiyin va samarasiz.

Shunday qilib, biz ushbu bo'limda iqtisodiy o'sish sifatini o'rganishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini umumlashtirdik, uning hozirgi rivojlanish bosqichida innovatsion asosini asosladik va qishloq xo'jaligi sohasiga nisbatan o'z ta'rifimizni keltirdik. Iqtisodiy o'sish muammolarini o'rganishning asosiy yo'nalishlarini guruhlab va tartibga solib chiqdik.

11.3. Iqtisodiyotda golland kasalligining namoyon bo'lish shart-sharoitlari va omillari

Empirik dalillar shuni ko'rsatadiki, neft, gaz va boshqa tabiiy resurslarga boy mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari, bunday resurslar cheklangan yoki mavjud bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan past darajada bo'ladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Eron va Venesuelada 1965 yildan 1998 yilgacha bo'lgan davrda aholi jon boshiga YaIMning o'rtacha yillik pasayish darajasi 1%, Liviyada-2%, Iroq va Quvaytda-3%, Qatarda esa 1970 yildan 1995 yilga bo'lgan davrda 6% ni tashkil etgan. Umuman olganda, OPEK a'zolari uchun aholi jon boshiga YaIM o'tgan 30 yil davomida o'smagan, aksincha yiliga taxminan 1,3% ga kamaygan. bu holat faqat OPEK davlatlari uchungina xos emas. Shu tariqa, o'tgan 20 yil davomida, tabiiy resurslarga boy deb hisoblanuvchi, 65 ta mamlakat orasidan faqat, to'rt davlat (Botsvana, Indoneziya, Malayziya va Tailand) yalpi ichki mahsulotda asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushini 25 %gacha etkazish va aholi jon boshiga YaIMni yiliga kamida 4%gacha o'sishini ta'minlashga erishgan. Ta'kidlash joizki, ularning orasida faqatgina Indoneziyada neft zahiralari mavjud. Shu bilan birga, resurslarning bunday boy zahiralarga ega bo'lmagan boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya va Tayvan) iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini namoyon qilishdi. Iqtisodiyot fani tabiiy resurs zahiralarning hajmi va iqtisodiy o'sish o'rtasida teskari

bog'liqlikning mavjudligi borasida bir qator tushuntirish yoki mexanizmlarni taklif qiladi.

Iqtisodiyotda "Golland kasalligi" tashxisi ilk bor Gollandiyada qo'yilgan bo'lsada, biroq mamlakat tez orada bu kasallikdan qutulgan. Shunga qaramay, "Golland kasalligi" epidemiyasi dunyo bo'ylab tarqalishda davom etmoqda va hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'lmoqda.

"Golland kasalligi" biz o'ylaganimdek, oddiy tushuncha emas. Golland kasalligi tushunchasi birinchi marotaba 1977 yilning noyabr oyida Economist jurnalida keltirib o'tiladi. Mazkur tushunchaga izoh berilar ekan, Gollandiyada tabiiy gaz qazib olishning ko'payishi iqtisodiyotning boshqa sohalari ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishiga olib kelganligi aytib o'tiladi. Hamma gap shundaki, Sloxterendan uncha uzoq bo'lmagan Groningen provintsiyasida "zangori olov"ning yirik koni ochiladi. Aynan, shu sababli ham mazkur tushunchaning "Groningen samarasi" degan boshqa nomi ham mavjud.

Biroq iqtisodiyotning "Golland kasalligi" bizni uzoq XVII asrning boshlariga Gollandiya (Niderlandiya) davlatiga o'ziga xos "sayohat" qilishga etaklaydi. O'sha davrda Gollandiyada aholining aksariyat qismi lola etishtirish bilan shug'ullanar edi. Bu paytda Yevropada lolaga talab kun sayin o'sib borar, uning yangi navlari narxni yana ham o'sishiga sabab bo'lar edi. Buning natijasida lola biznes boshqa bizneslarga nisbatan bir muncha foydali bo'lib qoldi, ba'zi hollarda, lola piyozi Gollandiyalik fuqaroning o'rtacha yillik daromadidan qariyb olti marotaba yuqori narxlarda sotilar edi. 1636 yilda lola piyozlari mamlakatning turli shaharlarida birjalarda sotila boshladi. Ammo 1637 yilning kirib kelishi bilan vaziyat mutlaqo boshqacha tus oldi. Lola va lola piyozlari qiziqish so'ndi va shuning bilan bir qatorda lola piyozlari mayda zararkunandalar ziyon etkazib, tovar sifati pasayib ketdi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodiyoti uchun jiddiy ziyon keltirdi: iqtisodiyotning ko'plab sohalari o'z holiga tashlab qo'yilgani oqibatida, ularni oyoqqa turg'azish uchun jiddiy bosh qotirish kerakligi ayon bo'lib qoldi.

1960-yillarda Niderlandiyaning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinganda eksport qiymati yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan sezilarli darajada kamayganligi aniqlangan. Gaz eksportining muttasil o'sishi nafaqat sanoat tovar va xizmatlari eksportini siqib chiqardi, balki umumiy eksport hajmining qisqarishiga olib keldi. Tabiiyki, nafaqat eksport, balki butun sanoat tuzilmasining mumkin bo'lgan tanazzuli borasida katta xavotirlar paydo bo'ldi. Biroq, "kasallik" uzoq davom etmadi. 1960-yillar oxiriga kelib, yalpi eksportda tovar va xizmatlarning ulushi 40% dan 60% gacha oshdi. 1970-yillarning o'rtalari va 1980-yillarning boshlarida neft narxining ko'tarilishi Saudiya Arabistoni, Nigeriya va Meksikada ham shunga o'xshash holatlarni keltirib chiqargan.

Niderlandlar qisqa muddat "kasal" bo'lgan bo'lsa-da, "Golland kasalligi" atamasi iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy hayotda qattiq o'mashib qolgan. Iqtisodiy doiralarda hali "Golland kasalligi" ning aslida kasallik yoki kasallik emasligi haqida bahslar juda ko'p. Ba'zi olimlar ushbu holatda iqtisodiyotning faqat bitta sektori mamlakat va uning aholisi uchun hech qanday jiddiy makroiqtisodiy oqibatlarisiz boshqasi hisobiga daromad oladi degan pozitsiyani himoya qilsalar, boshqa bir guruh olimlar esa, aksincha, mamlakat iqtisodiyotining resurslari turli tarmoqlar o'rtasida nomutanosib ravishda taqsimlangani uchun bu holatni nosog'lom holat sifatida e'tirof etishadi. Ya'ni resurslar yuqori texnologiyali tarmoq va sohalardan past texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlariga oqib o'tadi. Shunga qaramay, hozirgi kunda jahon bozorida talab katta bo'lgan foydali qazilmalar zaxiralariga ega davlatlar, odatda, hokimiyat va mulkning yuqori darajada kontsentratsiyasi va zaif fuqarolik jamiyati bilan ajralib turishi oddiy aksioma hisoblanadi.

"Golland kasalligi"ning rivojlanish mexanizmini tushuntirish uchun ayriboshlanmaydigan ne'matlar narxiga nisbatan real valyuta kursi tushunchasiga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi: bu yerda e- ayriboshlanmaydigan ne'matlar narxi, E -nominal valyuta kursi (bir birlik xorijiy valyutaga to'g'ri keluvchi milliy valyuta birliklari soni) – xorijiy valyutada ayriboshlanadigan ne'matlarning jahon narxi.

Iqtisodiyotning undiruvchi sektoridagi shok natijasida eksport daromadlarining oshishi mamlakatga xorijiy valyutaning qo'shimcha oqib kelishiga olib keladi. Natijada milliy valyutaning nominal kursi o'sib, chet el valyutasi kursi tushadi (E pasayadi). Shu tariqa, real valyuta kursi (e) o'sib boradi, ya'ni milliy valyutaning qadri mustahkamlanadi. Bundan tashqari, daromadning keskin o'sishi ayriboshlanadigan va ayriboshlan-maydigan tovarlarga qo'shimcha talabni rag'batlantiradi. Ayriboshlanadigan tovarlar xalqaro raqobatda ishtirok etganligi sababli, ularning ichki bahosi jahon darajasida qat'iy (mamlakat jahon iqtisodiyotiga nisbatan kichik bo'lishi sharti bilan) belgilanadi. Shuning uchun qo'shimcha talab ayriboshlanadigan tovarlar narxiga ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq ayriboshlanmaydigan tovarlar narxi ichki bozordagi muvozanat (talab va taklif tengligi) bilan belgilanadi. Shuning uchun unga bo'lgan talabning keskin oshishi narxlarning oshishiga olib keladi. Bu jarayonlarning natijasida inflyatsiyaning oshishi va real valyuta kursining yanada mustahkamlanishi sodir bo'ladi.

Milliy valyutaning real qadrining oshishi mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini pasaytiradi, bu esa bir qator salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Jumladan, qayta ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi va eksporti qisqarib, ishsizlikning oshishiga, importning ko'payishiga, sof eksportning qisqarishiga va pirovardida yalpi ichki mahsulotning hajmining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Uzoq muddatli istiqbolda "Golland kasalligi" resurslarning qayta ishlab chiqarish sektoridan undiruvchi sektor tomon harakatlanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida iqtisodiyotda yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmining kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, iqtisodiyotning tabiiy resurslar eksportiga nisbatan uzoq muddatli qaramligi qayta ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni yaratish uchun rag'batlarni zaiflashtiradi. Bunda, bu ishlab chiqarish omillarining mujassamlashuvi emas, balki aynan texnik taraqqiyot uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishning asosi ekanligini unutmashimiz lozim.

“Golland kasalligi” iqtisodiy tanazzulning boshlanishini ko‘rsa-tuvchi bir qancha “alomatlar” bilan ajralib turadi. Ulardan biri milliy valyuta qadrining xalqaro valyuta bozorida qadrining oshishi bilan bog‘liqdir. Biroq “Golland kasalligi” o‘z milliy valyutasiga ega bo‘lmagan mamlakatlarda ham kuzatilishi mumkin. Gap shundaki, bunday mamlakat-larda tabiiy resurslarning mavjudligi va ularga jahon bozorida talabning yuqoriligi ishchilarga yuqori ish haqi to‘lash hamda yuqori foiz stavkasini saqlab qolish imkoniyatini beradi, bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotning boshqa sektorlariga nisbatan ushbu tarmoqning raqobatbar-doshligini pasaytirib yuboradi. Bu muammo, ayniqsa, ish haqi darajasini shakllantirishda undiruvchi tarmoqlar faol ishtirok etadigan davlatlarda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ko‘pchilik iqtisodchilar boy tabiiy resurslarning mavjudligi iqtisodiy o‘shishni belgilab beruvchi bir qator o‘zgaruvchilarga ta’sir ko‘rsatishi borasida o‘xshash fikrlarni ilgari suradilar. Bahs va munozalarning asosini o‘zgaruvchilar va ta’sir ko‘rsatish mexanizmini o‘rganish tashkil qiladi. Tabiiy resurslarning mavjudligi va iqtisodiy o‘shishning sekinlashuvi o‘rtasidagi munosabatlar borasida iqtisodchilar tomonidan aniqlangan bir qator mexanizmlar mavjud.

Milliy valyuta qadrining mustahkamlanishi bilan bog‘liq tabiiy resurslar eksporti o‘shishining salbiy ta’sirining yuqorida bayon etilgan omillaridan tashqari, ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanmaydigan bir qator mexanizmlar ham mavjud.

Tabiiy resurslarning nisbatan ko‘pligi bilan bog‘liq ikkinchi o‘rinda ammo katta salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan yana bir omil borki, u ham bo‘lsa renta uchun kurashdir. Gap shundaki, odatda rivojlanayotgan mamlakatlar nisbatan nomukammal bozorlar, belgilangan mulkiy huquqlarning noaniqligi va mulkiy huquqlarni himoya qilish tizimining mo‘rtligi, shuningdek, boshqa bir qator institutsional muammolar bilan ajralib turadi. Bunday holatda, noyob turdagi tabiiy resurslarning katta zaxiralari mavjudligi turli xil iqtisodiy, siyosiy va jinoiy guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlardan tortib, fuqarolik urushigacha olib kelishi mumkin (misol tariqasida Afrika davlatlaridagi fuqarolik urushlarini keltirib o‘tishimiz mumkin, bunda urushayotgan tomonlar olmos konlarini nazorat

qilishga urinishadi). Boy konlarning mavjudligi sharoitida asosiy vazifasi bu konlarni chegaradosh qo'shni davlatlar bosqinidan himoya qilish bo'lgan katta armiyani saqlash mojarolarni tinch yo'l bilan hal etishning asosiy garovi hisoblanadi. Biroq, bu onda -sonda uchraydigan misoldir. Renta uchun kurashning yanada taraqqiy etgan va zamonaviy ko'rinishi - bu siyosiy va iqtisodiy hokimiyatning kichik guruhlar qo'lida jamlanishini ifoda etadi. O'z mavqeini saqlab qolish uchun bu guruhlar mavjud resurslarning kattagina qismini unumsiz va maqsadsiz sarflaydilar.

Tabiiy resurslar ustidan nazorat o'rnatishning bundan ham zamonaviyroq bo'lgan ko'rinishida tabiiy resurslar ustidan nazorat davlat qo'lida bo'lib, u mustaqil ravishda ushbu resurslardan foydalanish huquqini taqsimlaydi. Iqtisodiy samaradorlik tabiiy resurslardan foydalanish huquqining tanlov va auktsionlar kabi raqobatbardosh mexanizmlar asosida taqsimlanishini talab qiladi. Aslida esa, aksariyat mamlakatlarda bu huquqlarning taqsimlanishida rasmiy mezonlarga ko'p ham amal qilinavermaydi. Korruptsion holatlarning kuchayishi sharoitida bu holat renta uchun kurash borasida qulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Shu bois, mamlakatimizda ham tabiiy resurslardan foydalanish borasida kuchli davlat va jamoatchilik nazoratini o'rnatish asnosida bozor mexanizmlarini izchil joriy qilish muhim o'rin tutadi.

Renta uchun kurashning yana bir boshqa tomoni ichki talabni qondirishga qaratilgan milliy iqtisodiyot tarmoqlariga nisbatan proteksionizmdir. Ko'pincha bunday choralar milliy valyutaning real kursining nisbiy o'sishiga javob bo'lib xizmat qiladi, ammo bunday chora-tadbirlarning tashabbuskorlari va lobbistlari yirik korxonalar yoki boshqa mamlakatlarning importi bilan raqobatlashishga majbur bo'lgan butun bir tarmoqlar hisoblanadi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy ishlab chiqarishning umumiy hajmida undiruvchi tarmoqlar ulushi bilan import bojlari miqdori o'rtasida statistik jihatdan sezilarli ijobiy bog'liqlik mavjud. Boshqacha qilib aytganda, xomashyo eksportiga mo'ljal olgan mamlakatlar odatda import bojlarining yuqori stavkalarini o'rnatishga moyil bo'ladilar. bunday hatti-harakatlarning natijasi o'laroq, savdo

hajmi va iqtisodiyotning ochiqlik darajasi kamayadi va katta ehtimol bilan aytish mumkinki, importning kamayishi hisobiga milliy valyutaning qimmatlashuvi iqtisodiyotda tarkibiy nomutanosibliklarning saqlanib qolishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib keladi.

Yuqorida bayon etilgan muammo inson psixologiyasi bilan ko'proq bog'liq. haqiqatdan ham, kuzatishlarning ko'rsatishicha, insonlar o'z mehnatlari orqali topgan mablag'laridan ko'ra, shunchaki mehnatsiz topilgan mablag'larni hech bir o'ylanmasdan sarflashga moyil bo'ladilar. Ajablanarli tomoni shundaki, mana shunday holatni davlat miqyosida ham kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, statistik ma'lumotlarga ko'ra, tabiiy resurslar zahirasi katta bo'lgan mamlakatlar ko'proq boshqa davlatlardan moliyaviy yordam so'rab murojaat qilishadi va nisbatan ko'proq miqdorda tashqi qarzga ega bo'lishadi. Iqtisodiy xavfsizlikning jahonda qabul qilingan me'yorlari bo'yicha mamlakat milliy daromadining tabiiy resurslarni sotish evaziga shakllanadigan qismi 20 foizdan oshadigan bo'lsa, bu mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan.

Tabiiy resurslarning katta zahiralaridan foydalanishda teng huquqlilik tamoyiliga amal qilinmasligining yana bir salbiy oqibati ijtimoiy tengsizlikning o'sishidir. Bu yerda sabab-oqibat bog'lanishi yaqqol ko'zga tashlanadi: xususan, davlat hokimiyati tuzilmalaridagi aloqalar yoki pora berish orqali konlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan guruhlar katta boylik orttirish manbalarini qo'lga kiritadilar. Demokratik qadriyatlar nuqtai nazaridan bunday rentaga ega bo'lish manbalari yo'q bo'lgan va mamlakat fuqarolarining faqat o'z qobiliyatlariga tayanishi lozim bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyoti ijtimoiy jihatdan adolatli sanaladi. Mamlakat ichidagi tengsizlikning o'sishi tabiiy ravishda ijtimoiy kapital sifatini pasaytiradi, bu esa iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotda undiruvchi tarmoqlarning ulushi bilan jamiyatda tengsizlik darajasini ko'rsatuvchi Djini koeffitsienti o'rtasida statistik jihatdan sezilarli to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Mamlakat iqtisodiyotining faqatgina, xomashyo eksportiga yo'naltirilib ham xavflidir, chunki bunday holatlarda fuqarolik urushlari va ichki qurolli nizolarning boshlanish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Iqtisodchilar Pol Kollierg'Paul Coullier va Anke Xefflerg'Anke Hoeffler asosiy eksport moddalari sifatida foydalaniluvchi bir yoki ikkita tabiiy resurs zahiralarga ega bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiyoti diversifikatsiya-langon mamlakatlarga qaraganda fuqarolik urushining boshlanish ehtimoli besh marta yuqori ekanligini aniqlashgan.

Tabiiy resurslarning mo'lligi va o'z navbatida ularni eksport qilishdan mo'may daromad topilishi aholida xavfsizlik borasida yolg'on tasavvur uyg'otishi, ularda iqtisodiy siyosatning erkin savdo, byurokratik apparatning samaradorligi kabi muhim unsurlariga nisbatan beparvolik hissini keltirib chiqarishi mumkin.

Boshqacha aytganda, hukumatga tabiiy resurslar hisobiga boylikni oshirish ancha oson bo'lib tuyuladi, chunki bu to'g'ri yo'lga qo'yilgan va izchil iqtisodiy siyosatga nisbatan ancha kam mablag' va kuch talab qiladi. Xomashyo eksportidan keladigan daromadlarning ko'pligi xususiy va davlat muassasalarida u yoki bu darajada jamg'arma yaratishga bo'lgan rag'batning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Jamg'arma kelajakdagi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgani bois, ularning keskin kamayishi tabiiy ravishda iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining sekinlashuviga olib keladi.

Tabiiy resurslarning nisbiy ortiqchaligi va iqtisodiyotning o'sishi o'rtasidagi salbiy bog'liqlikni tushuntiruvchi to'rtinchi mehanizm undiruvchi sektor ko'laminin aholining savodxonlik darajasi va inson kapitalining jamg'arilishiga salbiy ta'siridir. Birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanishdan olinadigan daromadlarning aksariyati ish haqi bilan bog'liq emas. Tabiiy resurslardan amaldagi qonunchilik asosida foydalanishda daromadlar asosan dividendlar, ijtimoiy va soliq imtiyozlari va boshqalar ko'rinishida kelib tushadi. tabiiy resurslardan yarim legal foydalanishda daromad manbalari avvalgidek bo'lsada, ammo bu o'rinda korrupsiya, poraxo'rlik natijasida olinadigan daromadlarning ulushi ortib boradi. Umuman olganda, ta'lim darajasi va haq to'lash darajasi

o'rtasida qat'iy bog'liqlik mavjud emas, bu o'z navbatida inson kapitaliga yo'naltiriluvchi investitsiyalarga bo'lgan rag'batni susaytiradi.

Ikkinchidan, odatda undiruvchi tarmoqlar fan sig'imli hisoblanmaydi va va yuqori malakali ishchi kuchini talab qilmaydi. undirish borasida texnologiyalar allaqachon yaratib bo'lingan va bu boradagi texnologiyalarda inqilobiy o'zgarishlar juda kam uchraydi. bu borada baliq ovlash va o'rmon kesishni misol sifatida keltirishimiz mumkin. bundan 100 yillar oldin ham baliqchilar baliq ovlashda baliq to'rlaridan, o'rmon kesuvchilar esa arradan foydalanishgan bo'lsalar, bugungi kunda ular bir muncha takomillashdi xolos. Bunday vaziyatda undiruvchi tarmoqlar o'ziga xosligidan kelib chiqib, ilmiy izlanishlarga qiziqmaydi, bu ayni paytda boshqa tarmoqlarga nisbatan ijobiy tashqi samaraning cheklanishiga olib keladi (sir emaski, ayrim tarmoqlardagi ITTKIlarining natijalari boshqa tarmoqlarda ham keng qo'llaniladi).

Yuqorida sanab o'tilgan omillardan tashqari, undiruvchi tarmoqlarda band bo'lgan mehnat va kapital chuqur ixtisoslashganlik tavsifiga ega bo'lgani holda, ulardan boshqa tarmoqlarda foydalanib bo'lmaydi. Masalan, neft qazib olishda band bo'lgan yuqori malakali ishchilar ham tegishli tayyorgarliksiz engil sanoatga o'ta olmaydilar. Iqtisodiyot miqyosida mehnat va kapitalning bunday o'ziga xosligi resurslarning sektordan sektorga erkin oqib o'tishida jiddiy cheklovlarni keltirib chiqaradi va ularni taqsimlashning samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatda normal ta'lim darajasini ta'min-lashda (hech bo'lmaganda boshlang'ich) davlat yetakchilik vazifasini o'z qo'lga olishi lozim. Shu bois, aholi savodxonlik darajasining pastligi borasida undiruvchi tarmoqlarning ulushi kattaligini sabab qilib ko'rsatish ko'p jihatdan o'rinli bo'lmaydi. Bu eng avvalo, davlat siyosatining o'ziga xos nuqsonlari natijasi hisoblanadi. Biroq, tabiiy resurslarning mo'lligi bilan ilmiy-texnikaviy taraqqiyot o'rtasida salbiy bog'liqlikning mavjudligi, barchaga birdek ayon.

Yana bir mexanizm investitsiya va kapital jamg'arish jarayonlari bilan bog'liq hisoblanadi. Foydali qazilmalarni qazib olish va keyinchalik sotish, odatda, juda yuqori rentabellikka darajasiga egaligi bilan ajralib turadi. Aslida, tabiiy

foydali qazilmalardan foydalanish huquqlarini taqsimlash jarayonida davlatning asosiy vazifasi- mazkur resurslardan foydalanish borasida undiruvchi korxonalariga nol darajada iqtisodiy foyda olishni ta'min etuvchi to'lovlar tizimini tanlashdan iboratdir, bu o'rinda soliq to'lovlari, bojxona stavkalari, litsenziya narxi va boshqalar haqida so'z boradi. Agar davlat, u yoki bu sabablar tufayli, mazkur resurslardan foydalanganlik uchun haq to'lashni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasa, undiruvchi tarmoqlarning rentabelligi milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarining o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori bo'ladi. Undiruvchi tarmoqlar kiritilgan sarmoyalar bo'yicha katta qaytimni ta'min etgani holda, ular yuqori foiz stavkalarida kredit olish imkoniga egadirlar. Bu esa iqtisodiyotdagi foiz stavkasining oshishiga va boshqa tarmoqlardan investitsiyalarning siqib chiqarilishiga olib keladi. Bundan tashqari, kapital jamg'arish jarayonlari jadallashsada, ular asosan undiruvchi tarmoqlarda jamlanadi, bu esa iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosiblik-larni yanada kuchaytiradi xolos.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda undiruvchi tarmoqlarga kapital oqimlarining ko'payishi moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishiga ham ma'lum darajada to'sqinlik qiladi. Gap shundaki, sanoatning zaif rivojlanganligi sharoitida undiruvchi tarmoqlar kapitalning asosiy iste'molchilari hisoblanadi. Agar qazib olingan resurslarni sotishdan tushayotgan chet el valyutasi tarmoqning kapitalga bo'lgan ehtiyojlariga javob bersa, moliya tizimini rivojlantirish borasida rag'batlar kamayadi. Bu esa aholi jamg'armalarini investitsiyalarga aylantirishni qiyinlashtiradi, iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini kamaytiradi va pirovardida iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar tabiiy resurslarning katta zahiralari, albatta, milliy iqtisodiyot uchun mutlaq salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi degani emas. Boshqa shart-sharoitlarning mavjudligi sharoitida, u yoki bu tabiiy zahiralarga egalik qilish milliy iqtisodiyot uchun ko'pgina yaxshi imkoniyatlarni ta'min etadi. Tabiiy resurslar milliy iqtisodiyot uchun katta xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi va o'ta sinchkovlik bilan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni talab qiladi. Darhaqiqat, tabiiy resurslarning nisbatan ko'pligining iqtisodiy o'sishga salbiy

ta'sirining barcha mexanizmlari davlatga bog'liq yoki hech bo'lmaganda u davlat tomonidan nazorat qilinishi mumkin. Chunonchi empirik tadqiqotlar tabiiy resurs zahiralarning mavjudligi davlat tomonidan amalga oshiriluvchi siyosat natijalari hisoblanuvchi ta'lim, byurokratiya va korrupsiya darajasi, ijtimoiy va huquqiy institutlarning rivojlanganligi kabi unsurlarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatishidan dalolat beradi.

Amaliy topshiriqlar:

Muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy o'sish tushunchasini yoritib bering.
2. Iqtisodiy o'sishni qanday o'lchash mumkin ?
3. Iqtisodiy o'sishni YaIM bilan o'lchash kamchiliklarini yoriting.
4. Ekstensiv va intensiv o'sishlar farqini yoriting?
5. Respublikamizda iqtisodiy o'sishni o'lchashni o'ziga xos xususiyatlari ?

Referat mavzulari:

1. YaIM va YaMM iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari sifatida.
2. Raqamli transformatsiya jarayonlari va iqtisodiy taraqqiyot.
3. Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirish istiqbollari.
4. Iqtisodiy o'sish muammosi va yechimlari
5. Ishlab chiqarish omillari va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri.
6. Iqtisodiy o'sishda davlatning pul – kredit va fiskal siyosati

Mushohada uchun:

1. Iqtisodiy o'sishni aniqlashga yondashuvlarni bir biri bilan solishtiring, o'z fikringizni bildiring.
2. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarni qaysilarini muximroq deyish mumkin ?
3. Iqtisodiy o'sishni baxolovchi qanday tashkilotlarni bilasiz ?
4. Keltirilgan iqtisodiy o'sish modellarini haqiqatni qay darajada aks ettirishi mumkin deb o'ylaysiz ?
5. Iqtisodiy o'sishni o'z modelingiz bo'lganida u qanday omillarni o'z ichiga olar edi ?

Masalalar:

1. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida YaIMni o'sishida ekstensiv va intensiv omillar ulushini aniqlang va ularni keyingi jadvalga joylashtiring.

1-jadval

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020 y	2021 y	O'sish sur'ati, %
Iqtisodiyotda bandlar	Ming, kishi	8885	8983	
Mexnat unumdorligi	Ming, so'm	239.6	246.5	
YaIM xajmi	Mlrd, so'm	2128.8	2214	

2 – jadval.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Mutloq o'sish	Mutloq o'sish ulushi, %
YaIM o'sishi	Mlrd, so'm		
Shuningdek,			
Bandlar soni o'sishi xisobiga	Mlrd, so'm		
Mexnat unumdorligi o'sishi xisobiga			

Yechish usuli:

1 – jadval.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020 y	2021 y	O'sish sur'ati, %
Iqtisodiyotda bandlar	Ming, kishi	8885	8983	101.1
Mexnat unumdorligi	Ming, so'm	239.6	246.5	102.9
YaIM xajmi	Mlrd, so'm	2128.8	2214	104.0

2 – jadval.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Mutloq o'sish	Mutloq o'sish ulushi, %
YaIM o'sishi	Mlrd, so'm	85.2	100
Shuningdek,			
Bandlar soni o'sishi xisobiga	Mlrd, so'm	23.4	27.4
Mexnat unumdorligi o'sishi xisobiga		62	72.6

2 – masala.

2. Daromaddagi kapital xissasi 40%ni tashkil qiladi. Ishlab chiqarish omillarining umumiy unumdorligi bir yilda 3%ga, ishchilar soni esa 1,3%ga

usayapdi, iqtisodiy o'sish yiliga 6%ni tashkil etayapdi. Kobb-Duglas funktsiyasi asosida kapitalning bir yillik o'sish sur'atini aniqlang.

Yechish usuli:

Berilgan:

$$\frac{\Delta Y}{Y} = 6 \%$$

$$\frac{\Delta A}{A} = 3 \%$$

$$\frac{\Delta L}{L} = 1,3 \%$$

$$\alpha = 40 \%$$

$$\frac{\Delta K}{K} = ?$$

Echimi:

$$\frac{\Delta Y}{Y} = \alpha \frac{\Delta K}{K} + (1 - \alpha) \frac{\Delta L}{L} + \frac{\Delta A}{A}$$

Shuning uchun:

$$\frac{\Delta K}{K} = \frac{\Delta Y}{Y} - (1 - \alpha) \frac{\Delta L}{L} - \frac{\Delta A}{A}$$

$$6\% - 1,3\% * 0,6 - 3\% = 2,22\%$$

3. Iqtisodiyotdagi YaIM 104%ga, ishchilar soni 1,1%ga, kapital xajmi esa 1,0% o'sdi. Daromaddagi mexnat xissasi 60% tashkil etadi. Iqtisodiy o'sishda ekstensiv va intensiv omillarni o'sishini aniqlang.

Yechish usuli:

$\frac{\Delta A}{A}$ Iste'mol omillarga texnologik taraqqiyotni ta'minlaydi.

$$\frac{\Delta A}{A} = \frac{\Delta Y}{Y} - (1 - \alpha) \frac{\Delta L}{L} - \alpha \frac{\Delta K}{K}$$

Bu yerda $\frac{\Delta K}{K} = 4 - 0.6 * 1.1 - 0.4 * 1.0 = 2.94$

Intensiv omillar ulushi: $2.94/4*100=73.5\%$

Ekstensiv omillar ulushi: $100-73.2=26.5 \%$

4. Iqtisodiyotda daromaddagi kapital xissasi 50%ni tashkil etadi. Boshlang'ich (dastlabki) kapital bilan ta'minlanganligi kapitalning 16 birligini tashkil qiladi, daromadning 25%i jamg'ariladi, kapitalning xizmat qilish o'rtacha muddati - 20 yil. Dastlabki va mustahkam (barqaror) xolatdagi bir ishchiga to'g'ri

keladigan mexnat unumdorligi, iste'mol va investitsiya xajmini, xamda kapital bilan ta'minganlikning barqaror darajasini aniqlang.

Yechish usuli:

Berilgan :

$$\alpha = 50 \% = \frac{1}{2}$$

$$S = 0.25$$

$$k = 16$$

$$\sigma = \frac{100}{20} = 5 \% = 0.05$$

$y - ?$, $c - ?$, $i - ?$, $k^* - ?$, $y^* - ?$, $c^* - ?$

$\alpha = \frac{1}{2}$, shuning uchun Kobba – Douglas funktsiyasi ko‘rinishi:

$$Y = K * L \text{ yoki } y = \left(\frac{K}{L}\right) = \sqrt{k} = \sqrt{16} = 4$$

$$s = 25\% \text{ bo'lgani uchun, } s = 0.75y = 0.75 * 4 = 3$$

$$i = 0.25 * 4 = 1$$

Barqaror holatda:

$$i = \sigma k * \text{ yoki } sf(k) = \sigma k, \text{ bu yerda } f(k) = y * = \sqrt{k} * \text{ shuning uchun } s\sqrt{k}$$

$$= \sigma k * \text{ yoki } \frac{k *}{\sqrt{k}} = \frac{s}{\sigma}$$

$$k * = \left(\frac{s}{\sigma}\right)^2 = \left(\frac{0.25}{0.05}\right)^2 = 25$$

$$y * = \sqrt{k *} = 5$$

$$c * = 0.75 * 5 = 3.75$$

$$i * = 0.25 * 5 = 1.25 \text{ (yoki } 5 - 3.75 = 1.25)$$

5. Mamlakatdagi YaMMning real o'sishi yiliga 4%ni tashkil etadi. Asosiy fondlarning umumiy qiymati YaMMdan uch barobar ko'prokdir. Bir yilda kapitalning ishdan chiqib ketishi YaMMning 15%ini tashkil etadi. Umumiy daromadagi mexnatning xissasi 60%ga teng. Jamgarma soxasida iqtisodiy siyosatning choralari aniqlang.

Yechish usuli:

Berilgan:

$$\Delta Y = 4\% = 0.04, \frac{K}{Y} = 3 \text{ yoki } K = 3Y, \sigma k = 0.15Y, \quad \alpha = 0.4$$

1. R.Solou modeliga asosan YaMM o'sishi axoli soni o'sishi (n) va texnologik progress (g) xisobiga ta'minlanadi. Shuning uchun $n+g=0.04$

$$2. \sigma = \frac{\sigma K}{K} = 0.15, \frac{Y}{3Y} = 0.05$$

3. Agar daromad tarkibida mehnat ulushi 60 % bo'lsa, kapital uchun 40% - 0.4Y (MPK*K) bo'ladi. Shuning uchun $0.4 = (MPK*K)/Y=3MPK$, $MPK=0.133$
 $MPK - \sigma = 0.133 - 0.05 = 0.083$ yoki 8,3%. Masala shartiga ko'ra $n + g = 4\%$, ya'ni $(MPK - \sigma) > (n + g)$. Demak kapital zahiralari "Oltin qoida" darajasidan past. Shuning uchun jamg'arma normasini oshirishni rag'batlantirish siyosati zarur.

Keys:AQShda inflyatsiya 40 yil ichida eng yuqori ko'rsatkichga chiqdi

May oyida AQShda iste'mol narxlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,6 foizga o'sdi, bu 1981 yil dekabridan beri eng yuqori ko'rsatkichdir.

Aprel oyidagi biroz pasayishdan so'ng, AQShda iste'mol narxlarining o'sishi yana tezlashdi va 40 yildan ortiq vaqt ichidagi eng yuqori darajaga etdi. Vashingtondagi Mehnat vazirligining 10 iyun, juma kuni ma'lum qilishicha, may oyida inflyatsiya yillik hisobda 8,6 foizni tashkil etdi, bu 1981 yil dekabridan beri eng yuqori ko'rsatkichdir. Aprel oyida u 8,3 foizni, martda 8,5 foizni tashkil etdi.

Qo'shma Shtatlarda oxirgi marta 1981 yil dekabrda inflyatsiya may oyida qayd etilgan qiymatdan oshib ketgandi, o'shanda uning darajasi 8,9 foizni tashkil etgan. May oyida energiya tashuvchilar narxlarida eng katta o'sish kuzatildi, narxlar 2021 yilning shu oyiga nisbatan 34,6 foizga oshdi. Oziq-ovqat 10,1 foizga qimmatlashdi, bu 1981 yil martidan beri eng kuchli o'sishdir.

Inflyatsiyaning o'sishi bir vaqtning o'zida tovarlar va xizmatlar narxi keskin oshishini bashorat qilgan tahlilchilar prognozidan ham oshib ketdi, deb ta'kidlaydi AFP. Reuters tomonidan so'ralgan ekspertlar ko'rsatkichlar turg'un bo'lishini kutganini bildirdi. Hauck Aufhäuser Lampe banki tahlilchisi Bastian Xepperle fikricha, yaqin kelajakda inflyatsiya juda yuqori darajada qoladi. O'z navbatida, Germaniyaning LBBW banki eksperti Dirk Klenx AQSh federal zahira tizimi pul-kredit siyosati kursini qat'iyashtirishga ishonch bildirdi.

Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab mamlakatlarida inflyatsiyaning yuqori darajasi qayd etilmoqda. Ukrainada urush boshlanganidan buyon narxlar, birinchi navbatda, energiya tashuvchilar va oziq-ovqat mahsulotlarining narxi oshib bormoqda. Evropadagi eng rivojlangan davlat - Germaniyada may oyida inflyatsiya darajasi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 7,9 foizni tashkil qiladi.

Savollar:

1. Bugungi kunda butun dunyoda global inflyatsion bosim kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablarini nimada, deb o'ylaysiz?

2. Tahlilchilar dunyo iqtisodiyotini oziq-ovqat va energetika inqirozi xavfidan ogohlantirishmoqda. Ehtimoli katta bo'lgan inqirozdan chiqib ketishning yo'llari haqida fikr yuriting?

Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-“Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
3. Абдувоҳидов А.А. ва бошқалар. Инновациялар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма.- Т.: “Мумтоз сўз”, 2020-636 бет.
4. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.
5. Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
6. Анисимов А.А. Макроэкономика. –М.: Юнити-Дана, 2016.– 600 с.
7. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
8. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.
9. Хажиев Б.Д., Ахмедов Д.Қ., Захидов Г.Э., Мамбетжанов Қ.Қ. Иқтисодий ривожланиш назариялари. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2018. - 428 бет.
10. Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост: учеб. пособие / А. В. Корицкий; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.
11. Хажиев Б.Д., Абдуллаев С.О., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. Дарслик. – Т.: “Зебо юлдузлари МЧЖ”, 2018. - 417 бет.
12. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.
13. Дарон Асемоглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асемоглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова-М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).
14. «Технологии Четвертой промышленной революции: [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис»: Эксмо; Москва; 2018
15. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения : сборник материалов Международной научной конференции, 13–14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 896 с.
16. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.
17. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.

18. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018
19. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. · 2018
20. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.
21. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. – 11th ed.
22. www.cer.uz - Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази расмий сайти.
23. www.stat.uz- Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси расмий сайти.
24. [https://mineconomy.uz/-](https://mineconomy.uz/) Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги расмий сайти
25. [https://cbu.uz/-](https://cbu.uz/) Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий сайти.
26. <https://mf.uz/uz> - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий сайти
27. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси
28. [https://www.mininnovation.uz/-](https://www.mininnovation.uz/) Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий сайти
29. <https://uza.uz/uz> - Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий сайти
30. <https://www.worldbank.org/en/home>- Жаҳон банки расмий сайти

GLOSSARIY

Aktivlar (assets) - iqtisodiy faoliyat subyektlarining pul va moliyaviy mablagʻlari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

Amortizatsiya (depreciation) - foydalanish jarayonida ask uskunlar qiymatining eskirgan sayin mahsulot hisobiga oʻtkazish jarayoni. Asosiy jamgʻarmalar isteʼmol narxini toʻla yoki qisman tiklash uchun amortizatsiya orqali amalga oshiriladigan narxini toʻlatishi zarur.

Alternativ variantlardan tanlov (trade off) - tanlab olingan variantni alternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qarorni qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy terminlar doirasida iqtisodiy terminlar siyosatni chora tadbirlarini ishlab chiqish jarayonida u yoki bu gʻoyalarni tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning oʻsishi va inflyatsiya jadalligi, foydaning oʻsishi yoki ish xaqining olishi orasidagi tanlov muammosi.

Amortizatsiya ajratmalari (depreciation allowances)– asosiy vositalarning bir qismini ularni tiklash uchun ajratmalar.

Antimonopol siyosat (antitrust policy)–tovar ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida ishlab chiqarishni monopollashuviga qarshi va raqobatni rivojlantirish boʻyicha davlatning chora-tadbirlar tizimi. Asosiy jamgʻarmalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarini tayyorlanayotgan mahsulotga ketgan sarfni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamgʻarmalarning amortizatsiyasini tashkil etadi. Asosiy jamgʻarmalarning amortizatsiyasi mahsulot tannarxini oʻz ichiga oladi, bu korxonalar, tashkilotlarga asosiy jamgʻarmalarning moddiy va maʼnaviy sarfini qoplash uchun mahsulotlarni sotish orqali mablagʻ tulashlarga imkon beradi.

Asosiy narx (base price) - xalq xoʻjaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda, indekslarni hisoblash va toʻlashgacha hisoblangan narx.

Aholining bandligi (employees) - ijtimoiy ishlab chiqarishni fuqarolik sektorida band boʻlgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan aniqlangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

Bandlik darajasi (rate of employees) - bandlarni umumiy sonini mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga nisbati.

Bank krediti (banking credit) - daromad (%) ko‘rinishida olish maqsadida bank tomonidan qarzga pul berish.

Bank rezervlari (reservers) - bankda saqlanayotgan naqd pullarni, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlarni o‘z ichiga oladi.

Bartaraf etilgan inflyatsiya (eliminated inflation)- boshqariladigan yoki tabiiy, qo‘yilgan narxlarni boshqarishga bo‘lgan iqtisodiyot doirasida inflyatsion jarayonlarning o‘ziga xos ko‘rinishi.

Direktiv tarzda belgilangan narxlar darajasi saqlangan holda inflyatsiya muomaladagi pul miqdorini ko‘payishi va uni sotib olish qobiliyatini qadrsizlanishi orqali namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari shularning natijasida, ta’siri ostida keskin talabni oshib borishi hamda tovar va xizmatlarning defitsitini o‘sib borishi, aholini vaqtinchalik qondirilgan talabini ko‘paytirish orqali namoyon bo‘ladi.

Baho, narx (prise) - tovar qiymatning pul orqali ifodalashi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni va foydani ko‘rsatadi.

Belgilangan almashuv kursi (fixed exchange rate) - milliy valyutaning chet el valyutalariga

nisbatan an’anaviy tarzda belgilanadigan va o‘zgarmas bo‘ladigan tizim.

Bozor narxi (market price) - iqtisodiyotda jami talablarning o‘zgarmas holda qoluvchi narxlar.

Bozor munosabati (market clearing) - bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo‘lmasa, bozor

muvozanati izdan chiqqan bo‘ladi.

Bozor mexanizmi (market mechanism)– bozor iqtisodiyotining faoliyatini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan dastak va vositalar.

Byudjet soliq siyosati (fiscal policy) - byudjet siyosatida davlat o'z istagi bilan byudjet xarajatlari va daromadlarini shakillantirgan holda 3 xil byudjet siyosati yuritadi. Byudjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilmagan qimmatbaho qog'ozlarning sotilishidan va byudjet tomonidan ma'lum qismi markaz tomonidan banki emmissiyasi hisobiga yopilishidan. Shunga ko'ra davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali byudjet siyosati yuritiladi.

Byudjet taqchilligi (budget deficit) – Davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi byudjet taqchilligi deb ataladi.

Valyuta kursi (exchange rate)- mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Giperinflyatsiya (hyper-inflation) - haddan tashqari inflyatsiya, narxning shuddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilshning minimal darajaga kelishi bilan tavsiflanadi.

Davlatning tashqi qarzi (external debt of the state) – davlatning boshqa davlatlar, fuqarolar va korxonalariga bo'lgan qarzi

Davlat xarajatlari (government spending)– davlat tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilishga sarflanadigan xarajatlar

Davlat tomonidan bozorni tartibga solish (market regulation)– Faoliyat ko'rsatyotgan bozor mexanizmlariga davlatning ma'muriy, iqtisodiy aralashuvi.

Daromad (income) - ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda).

Daromadning mavjud miqdori (disposable income) - sarf xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlarning qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar. Daromadlar va to'g'ri soliqlar orasida farq bilan aniqlanadi.

Devalvatsiya (devaluation) - mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

Deflyatsiya (deflation) - inflyatsiya davrida chiqarilgan muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul- kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Depozitlar (deposits) - omonat asrab qo'yilgan: 1) bank va omonat kassalarga qo'yilgan omonatlar: 2) bank daftardagi yozuvlar: 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatbaho qog'ozlar (aktsiya va obligatsiya).

Dividend (dividend) - hissadorlik jamiyatlari foydasini bir qismi bo'lib, aktsiyaning soni va turiga qarab har yili hissadorlar orasida taqsimlanadi.

Diskont (dicount) - markaziy bank tomonidan tijorat banklarga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.

Doimiy, davomiy inflyatsiya (cronic inflation) - nisbatan yuqori yoki past inflyatsiya darajasi uzoq muddat davomida ushlab turiladigan iqtisodiy vaziyat. Barqarorlikka erishgunga qadar davomli yuqori inflyatsiya darajasiga xos bo'lgan mamlakatlarga misol qilib, Braziliya, Isroil, Meksika, Peru Argentinani keltirish mumkin.

Yopiq iqtisodiyot (closed economy) - tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.

Jami talab (aggregate demand) - mamlakatni real sotib olish qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich. Jami xarajatlar deb ham ataladi. Unga davlatning iste'mol xarajatlari, xususiy sektor iste'moli, jami investitsiyalar va eksport-import xarajatlar savdosi kiradi.

Jami taklif (aggregate suply) - mamlakatda ishlab chiqilgan hamma tovar va xizmatlarni jami qiymati, shuningdek, milliy mahsulot deb ham ataladi.

Jamg'arishga moyillik (propensity to save) - daromadda jamg'arma hissasi qanchani tashkil etishi.

Izokvanta– ishlab chiqarish omillari xarajatlarining ishlab chiqarish funksiyasida turli xil joylashuvining grafik tasviri

Indeksatsiya (indexation) - iqtisodiyotdagi narxlarni o'rtacha darajasini o'zgarishiga bog'liq ravishda ish xaqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish tizimi.

Inflyatsiya (inflation) - pulning kadsizlanishi, muomiladagi pulning qadsizlanishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Inflyatsiya tovar bahosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasi (rate of inflation)- ma'lum vaqt ichida (oy yil) narx darajasining foiz o'zgarishi.

Iqtisodiy tsikl – ishlab chiqarish rivojlanishida va ishbilarmonlik faolligi darajasida iqtisodiyotdagi takrorlanuvchi ko'tarilishlar va pasayishlar.

Iqtisodiy o'sish – iqtisodiyot faoliyat ko'rsatishidagi natijalarning o'zgarishi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi – ishlab chiqarish eng zamonaviy ishlab chiqarish omillari, texnologiyalari hisobidan mahsulot ishlab chiqarishning ortib borishi.

Iqtisodiy o'sishning ekstensiv turi – ko'p miqdordagi ishlab chiqarish omillaridan foydalanish hisobidan moddiy ne'matlar va xizmatlar hajmini oshirishga olib keluvchi iqtisodiy o'sish.

Iqtisodiy rivojlanish – ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o'sish – YaMM (IMM, SMM, MD) miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatning yaxshilanishida ifodalanadi.

Iqtisodiy tsikl – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inkirozidan ikkinchisi boshlanguniga qadar takrorlanib turuvchi harakati.

Ishsizlik– ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lib, aholining faol qismi o'ziga ish topa olmasligi.

Ishlab chiqarish imkoniyati – berilgan texnologik rivojlanishda va barcha mavjud resurslardan to'liq va samarali foydalangan holda jamiyatning iqtisodiy ne'matlar ishlab chiqarish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarish omillari – tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun foydalaniladigan iqtisodiy resurslar: mehnat, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyati

Ishsizlikning darajasi (unemployment rate) - ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga bo‘lgan nisbati.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment)- real va potentsial yalpi milliy mahsulotni o‘sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davr oraliqlariga xos bo‘lgan ishsizlik darajasi. U shuningdek iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko‘rsatkichlarining yig‘indisi sifatida hisoblanishi mumkin.

Ish haqi (wage, nominal) - pul, qiymat shaklidagi ish haqi.

Import (import) - mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U xalq xo‘jaligi, vaqtni tejash, xalq ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko‘maklashadi.

Investitsiya (investment) - ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Iste‘mol narxlar indeksi (consumer price index) - o‘rtacha oila tomonidan odatda iste‘mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o‘zgarishini o‘rtacha darajasini aks ettiradigan ko‘rsatkich, inflyatsiya ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index) - bazis davri oralig‘ida xom ashyo materiallar va oraliq tovarlari narxini o‘zgarishini o‘rtacha darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkich. YaMMni maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o‘tkazishda ishlatiladi.

Indekslar- YaMM deflyatorlari (GNP deflators) - YaMM ko‘rsatkilarini solishtirma narxlarda aks ettirish uchun ishlatiladigan indekslar guruhi, bularga

narxlarni agregat indeksi, YaMM deflyatori narxlari indeksi, iste'molchi narxlar indeksi, shunigdek, maxsus tashkil qilingan indekslar kiradi.

Iste'mol (consumption) - kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab- chiqarish jarayoning oxirgi fazasi.

Ist'emol xarajatlari - makroiqtisodiyotda iste'mol xarajalari uy xo'jalik xarajatlari, qurilish xarajatlarini qamrab oladi.

Iqtisodiy o'sish - real milliy daromadning yoki real milliy daromadni (mahsulotni) aholi jon boshiga o'sishi sifatida aniqlash mumkin.

Import qilishga moyilik (propensity to import) - daromadda importga yo'naltirilgan xarajatlar hisyasi.

Investitsiyalarga bo'lgan moyillik (propensity to invest) – investitsiya xarajatlarning daromaddagi hisyasi.

Iste'mol qilishga moyillik (propensity to consume) - iste'mol xarajatlarining daromaddagi hisyasi.

Ishlab chiqarish funksiyasi (production function) - mahsulot ishlab chiqarish uchun mazkur korxonaga zurrur bo'lgan barcha kishilar va mehnat qurollari harakatlarining majmui.

Ishchi kuchi (labour force) - odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida u ishga soladigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

Ishchi kuchi hisyasi (labour force rate) – odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida u ishga soladigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

Ish vaqti (hours of work) - ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining ishlagan vaqt hajmi.

Ish vaqtining umumiy soatlar soni (total hours of work) - o'rtacha statistik ishlovchi band bo'lgan ish vaqtini o'rtacha soatlar soni.

Ishlab chiqaruvchilar narxi (producers price) - o'z ichiga tovar va xizmatning bazis narxini, soliqlarni qamrab oladi va subsidiyalar olib tashlanadi.

Ichki iste'mol uchun mo'ljalangan tovarlar (nontraded goods) - tashqi bozorda sotishga mo'ljallanmagan, ichki iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar (ko'chmas mulk, xizmatlarni ayrim turlari.)

Kapital eksporti - tijorat maqsadda amalga oshirish.

Keynschilik – davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi zarurligi va mohiyatini asoslovchi Dj.M.Keynsning iqtisodiy nazariyasi

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi (expected rate of inflation) - mavjud ijtimoiy iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Likvidlik (liquidity) - turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati.

Narxlar indeksi (price index) - ikki har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanatini o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Nominal YaMM (nominal GNP) - joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi milliy mahsulot.

Nominal almashuv kursi (nominal exchange rate) - milliy valyuta va chet el valyutalari birliklarini odatda mavjud bo'lgan nisbati. Ushbu nisbat ham qat'iy belgilangan, ham chayqalib turuvchi asosda amalga oshirilishi mumkin.

Nominal foiz stavkasi (nominal interest rate) - ma'lum davr ichida (oy, yil) qarzga olingan pul birligiga to'langan pul miqdori.

Markaziy bank (Central bank) - Mamlakatlarning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatbaho qog'ozlar emissiyasini monopoliya huquqida amalga oshiradi.

Mehnat umumdorligi (labour productivity) - mehnatning mahsulotligini, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi umumlashma ko'rsatkichlardan biri.

Milliy daromad (national income) - milliy ishlab chiqarishda olinadigan daromad, yoki iqtisodiyotning barcha turdagi daromadining bahosi.

Moliya bozori – moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlardir.

Mulk (property) - qiymatga ega bo'lib, biron bir shaxsga narsasiga qarashli bo'ladi.

Mutloq ustunlik – mamlakatning boshqa mamlakatlarga nisbatan kam xarajatlar bilan tovarlar ishlab chiqarishi.

Ochiq iqtisodiyot (open economy) - tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo'lgan iqtisod.

Potensial YaMM (potential GNP) - mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchi hisobiga erishishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

Ratsional kutishlar (rational expectations) - ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'zlarida mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar asosida eng ratsional tarzda o'z iqtisodiy xulq atvorini rejalashtiradilar deb ta'kidlovchi nazariya.

Real almashuv kursi (real exchange rate) - ikkala mamlakatdagi narxlar darajasining o'zaro nisbati, munosabatini hisobga oluvchi almashuv kursi. Solishtirilayotgan mamlakatlardagi nominal almashuv kursini narxlari indekslarini o'zaro nisbatiga bo'lishi orqali hosil bo'ladi.

Real YaMM (real GNP) - solishtirma doimiy narxlar orqali aks ettirilgan YaMM. U joriy narxlarda hisoblangan YaMMni narxlarning o'zgarishi ko'rsatkichi (inflyatsiya)

Revalvatsiya (revaluation) - mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish.

Resurslar – iqtisodiyotdagi ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha zahiralar va texnologik omillarning real oqimlaridir.

Savdo balansi (merchandise trade balance) - bunda eksport va importdan keladigan tushumlar va to'lovlar o'z aksini topadi. Savdo bitimida ko'zda tutilgan, ammo joriy davrda amalga oshirilmaydigan to'lovlar va tushumlar balansda o'z aksini topmaydi.

Savdo balansining difitsiti (trade deficit) - hisob davrini oxiriga kelib import bo'yicha qilingan jami xarajatlarni eksport daromadlardan ustun kelish vaziyatigacha iqtisodiy templarning o'sishi bilan xarakterlanadi.

Savdo balansini ijobiy saldosi (trade surplus) - hisobot davrining oxiriga kelib eksport bo'yicha jami daromadlar import bo'yicha xarajatlardan ustun kelishi vaziyati.

Sanoat tsikli (business cycle) - hozirgi davr iborasida iqtisodiyotni doimiy bo'lmagan holda qaytarib turuvchi iqtisodiyotni turli rivojlanish bosqichlari. Umumiy ishbilarmonlik faolligini oshishi va tushumlaridan, pasayishlaridan iborat.

Sarf-xarajat balansi (spending balance) - makroiqtisodiyotda YaMM ni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlari va yaratilgan yalpi milliy mahsuloti oxirgi iste'mol maqsadida ishlatilishi orasidagi balans.

Cof milliy mahsulot (net product) - makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u YaMMni va amortizatsiya ajratmalarini jami miqdorini ayirmasi hisoblanadi.

Soliq siyosati - soliq siyosati rivojlantirish uchun kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda "majburiy jamg'armalar" tashkil qiluvchi asosiy omillardan biridir.

Soliqlar (taxes) - milliy daromadni taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq byudjet va byudjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Solishtirma afzallik (comparative advantages) - ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlarga evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada solishtirma afzalliklar printsipli ishlab chiqarish va eksportni samarali strukturasi shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Solouning iqtisodiy o'sish modeli – texnik taraqqiyot darajasiga bog'liq iqtisodiy o'sish nazariyasi.

Tarkibiy ishsizlik (structural unemployment) - iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni, eskirgan tarmoq va kasblarni bartaraf etilishi, ishchi malakasi pastligi yoki umuman yo'qligi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko'rinishi.

Tashqi dunyo - shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

Transfert to'lovlari (transfer payment) - o'tkazma to'lovlar, ya'ni davlat byudjetidan aholiga va xususiy sektorga beriladigan to'lovlar.

To'lov balansi (balance of payment) - Bu shunday iqtisodiy tushunchaki, u orqali mamlakatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlarining holatini, xalqaro miqyosida to'lovga qobilligini bilishi mumkin. To'lov balansi - bu shunday hujjatki, bunda mamlakatlarning xorijiy davlatlarga - ulashgan va xorijiy davlatlardan kelgan barcha to'lovlarni va tushumlarining haqiqatdagi summasi aks ettiradi. Shartnomalarda ko'zda tutilgan, ammo hali kelib tushmagan to'lovlar yoki tushumlar summasi o'z aksini topadi.

Fan-texnika taraqqiyoti – ishlab chiqarishda fan va texnika erishilgan so'nggi yutuqlarni qo'llash jarayonidir

Filips egri chizig'i (phillips curve)- inflyatsiya darajasi dinamikasi va ishsizlik dinamikasi yoki real YaMMni potentsialidan og'ishi orasidagi o'zaro bog'liklikni tafsiflaydi va chizmada ifodalab beradi.

Faktor daromad (factor income) - ishchi kuchi kapital mulk, ishlab chiqarish omillarining qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan daromad.

Xarrod- Domarning iqtisodiy o'sish modeli – model iqtisodiy o'sishni kapital bilan qurollanganlik va jamg'arishga bo'lgan moyillik koeffitsientlarini o'zgarmas sharti bilan qarab chiqadi.

Xususiylashtirish (privatization) - davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirilishi. Xususiylashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin tadbirkorlikka yo'l ochish, bozor iqtisodiyoti rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ekzogen o'zgaruvchilar – tashqi o'zgaruvchilar bo'lib, ular oldindan beriladi va modelga kiritiladi.

Endogen o'zgaruvchilar – modelning o'zigagina, model ichida shakllanuvchi o'zgaruvchilar.

Elastiklik – biror o'zgaruvchining bir foizga o'zgarishi natijasida boshqa bir o'zgaruvchining ma'lum foiz miqdorga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich.

Yalpi ichki mahsulot – Mamlakat miqyosida ma’lum davrda ishlab chiqarilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning bozor baholaridagi qiymati.

Yalpi ichki investitsiyalar – joriy yilda ishlab chiqarilgan barcha ishlab chiqarish vositalarining umumiy qiymati hamda tovar-moddiy zahiralarni to‘ldirishga sarflangan xarajatlar

Yalpi milliy mahsulot - YaMM (gross national product - GNP) - iste’molchilarning yil davomida mahsulot yaratish uchun qilgan xarajatlari qiymatini jamlash orqali, ya’ni, mahsulotni umumiy pul qiymati aniqlanishi orqali hisoblanadi.

YaMM darajalardagi farqlar (GNP gap) - potentsial va real YaMM darajalari orasidagi farq.

TESTLAR

№1. Iqtisodiy o'sishga berilgan ta'riflardan qaysi biri to'g'ri?
barcha javoblar to'g'ri.
ishlab chiqarishni takomillashtirish, iqtisodiyotda progressiv o'zgarishlar va qayta qurishlarning muhim shart-sharoitidir.
aholining moddiy faravonligini oshirish vositasi hisoblanadi.
to'liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o'sishidir.
№2. Barqaror iqtisodiy o'sish bu ...
uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan o'sib borishidir.
to'liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o'sishidir.
qisqa vaqtda katta o'sishga erishish.
uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni bir nuqtada ushlab turish.
№3. Mikroiqtisodiy o'sish bu ...
korxonalar, xo'jalik firmalar va tarmoq doirasidagi o'sishdir, shu doiradagi mehnat qiluvchilar iqtisodiy aniqrog' I guruhli faoliyatning natijasidir
butun jamiyat miqyosidagi, masalan, mamlakat miqyosidagi iqtisodiyotni o'sishidir
uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan o'sib borishidir.
qisqa vaqtda katta o'sishga erishish.
№4. Makroiqtisodiyot nazariyasi va jahon amaliyoti ko'rsatishicha mamlakatlarni yillik YAIMni o'sish sur'ati 7% dan kam bo'lmasa YAIMning hajmi 10 yilda necha marta ko'payadi?
2 marta
3 marta
4 marta
1,5 marta
№5. Jahon Banki qaysi omil(lar) yangi industrial mamlakatlar iqtisodiy yutug'ining sababi deb ta'kidlagan.
barcha javoblar to'g'ri

siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish
inson resurslariga investitsiyalar
tashqi bozorga yo'naltirilganlik.
№6.“Boylik orttirish ehtiyoji yo‘lidagi to‘siq, investorlangan capital sifatida uning ishlab chiqarishda qo‘llanishiga muqarrar xizmat qilishi lozim”. Bu so‘zlar kimga tegishli.
M. Veber
D. Nore
K. Marks
M. Lyuter
№7.Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tovarlarini iste‘mol qilinishi chegaralangan bo‘lib, bu aholi jonboshiga daromadlarning o‘sishi bilan iste‘mol talabi tarkibidagi oziq-ovqatga qilinadigan xarajatlar ulushi kamayishini anglatadi. Bu qonun kimga tegishli.
Engel birinchi qonuni
Engel ikkinchi qonuni
K. Klark
M. Veber
№8.Sug‘urtalash, banklar tomonidan taqdim qilinadigan kredit va boshqa xizmatlar qaysi xizmat turiga misol bo‘ladi?
moliyaviy xizmatlar
maxsus bilimlarni talab qiluvchi intellectual xizmatlar
aloqa vositalari
to‘g‘ri javob yo‘q.
№9.An’anaviy fikrlash tarsi va ishlab chiqarish shaklini o‘zgartirish, jamoatchilik va inson faoliyatining barcha sohalarida yangi metod va modellarni qo‘llash. Bu modernizatsiyaning qaysi tamoyiliga tegishli?
Ratsionalizm
iqtisodiy rejalashtirish.
tenglik.
to‘g‘ri javob yo‘q.

№10. Qaysi ta'rif noto'g'ri.
iqtisodiy rivojlanish odatda biror bir aniq son bilan ifodalanuvchi aniq bir qiymatga masalan, yalpi ichki mahsulot (yalpi qo'shilgan qiymat)ga "bog'lab" qo'yilgan bo'ladi.
iqtisodiy rivojlanish esa – farovonlikning o'sishi bilan uyg'unlashadi
iqtisodiy o'sishga iqtisodiy jihat (oraliq tavsifga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish) xos.
iqtisodiy o'sish ko'proq yalpi ichki mahsulotning o'sishi bilan uyg'unlashadi.
№11. Kuzatuvchi tomonidan farovonlik me'zonining iqtisodiy o'sish tamoyili bo'yicha tasniflanishi mumkin bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlar jarayoni bu
iqtisodiy o'sish sifati
Sifat
iqtisodiy o'sish tavsifi
iqtisodiy rivojlanish sifati
№12. Ijobiy jarayonlarni maksimallashtirish va salbiy jarayonlarni minimallashtirishning transformatsiyasi nimani ijtimoiy farovonlikka aylantiradi
Ijtimoiy mahsulotni
Iqtisodiy o'sishni
Iqtisodiy rivojlanishni
Yalpi ichki mahsulotni
№13. Qanday usul orqali milliy valyutalarning xarid qilish pariteti aniqlanadi
BMT va Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro taqqoslashlar uslubi. Buning asosida o'z ichiga turli guruhlardagi iste'mol tovarlari, xizmatlar va investitsion tovarlarni oluvchi "iste'mol savatini" baholash yotadi.
milliy valyutalarning valyuta kurslari nisbatlari bo'yicha turli mamlakatlarning YAIM qayta qiyosiy baholash.
ma'lum turkumlardagi tovarlar va xizmatlarni baholash milliy valyutalarda, bu bir valyutani boshqa valyutaga almashish koeffitsiyentini toppish orqali aniqlanadi.
to'g'ri javob yo'q
№14. Xalqaro taqqoslashlarni tashkil qilish uchun barcha mamlakatlar

uchun bir xil “iste’mol savati” tuziladi va bunga qaysi variant kiritilmaydi?
to‘g‘ri javob yo‘q
iste’mol tovarlari va xizmatlar
investitsion tovarlar
qurilish ishlari
№15. 1971-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan amerikalik mashhur iqtisodchi fikriga ko‘ra, iqtisodiy o‘shishning 3 ta asosiy belgisi bor. Bu iqtisodchini toping.
S. Kuznets
A. Lyuis
R. Xarrod
R. Solou
№16. - bu odamlar kelajakdagi xaridlari, kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish uchun jamg‘ariladigan pul daromadlarining bir qismidir.
jamg‘arma
iste’mol
Kredit
Daromad
№17. – bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulotlar, buyumlar, ne’matlar, tovarlar, xizmatlardan foydalanish, ularni iste’mol qilishdir.
iste’mol
Kredit
jamg‘arma
Foyda
№18. Yangi keynscha nazariya ilmiy maktabi vakillarini toping?
R.Xarrod, Ye.Domar
R.Solou, J.Mid
E.Denison, R.Barro
R.Lukas, P.Romer
№19. Iqtisodiy o‘shish manbalari – investitsiyalar, ish kuchi soni va texnika taraqqiyotidir. Bu qaysi nazariyaning mohiyatidir.

empirik nazariya
yangi keynscha nazariya
endogen o'sish nazariya
yangi klassik nazariya
№20. M q $\frac{\Delta Y_{aIM}}{\Delta I}$ bu formula orqali nima aniqlanadi?
investitsiya multiplikatori
iqtisodiy o'sish
akselator samarasi
xarid qobiliyati
№21. "Akselator samarasi" ni birinchilardan bo'lib qaysi iqtisodiy olim o'rgangan.
D. M. Klark
E. Xansen
R. Xarrod
Dj. M. Keynes
№22. Quyidagi tenglamalardan qaysi biri E. Domar tomonidan tuzilgan?
barcha javoblar to'g'ri
talab tenglamasi
taklif va talab tengligini ifodalovchi tenglama
taklif tenglamasi
№23. Taklif tenglamasini toping.
$\Delta QqI\beta$
$\Delta Y = \Delta I \frac{1}{\alpha}$
$\frac{\Delta I}{I} = \alpha\beta$
To'g'ri javob yo'q
№24. Neokeynschilik o'sish modellaridan qaysi birining asosida akselerator nazariyasi tashkil etadi?

R. Xarrod modeli
ye. Domar modeli
R. Solou modeli
barcha modellarning asosini bu nazariya tashkil etadi
№25. – bu texnik taraqqiyot turiga bog‘liq texnik kattalik
akseleratsiya koeffitsiyenti
multiplikator
asosiy capital
to‘g‘ri javob yo‘q
№26. $G_w cr = s$ Bu qaysi tenglama formulasi?
kafolatlangan o‘shish sur‘atlari tenglamasi
amaldagi o‘shish sur‘atlari tenglamasi
haqiqiy o‘shish sur‘ati tenglamasi
to‘g‘ri javob yo‘q
№27. Neoklassik maktabn azariyotchilari o‘shishning keynschilik nazariyalarini qaysi punkt bo‘yicha tanqid qilishdi.
barcha javoblar to‘g‘ri
ular capital koeffitsiyenti s ning o‘zgarishligidan kelib chiqqan. Neoklassik modellar esa 2 xil ishlab chiqarish omillari (capital va mehnat) ni hisobga olib va ularning o‘zaro almashinuvini inobatga olib bu koeffitsiyent o‘zgarishi mumkinligini ta’kidlaydilar
ular o‘shishning asosiy omili sifatida- capital jamg‘arilishiga e’tiborni qaratganlar. Neoklassiklarning fikriga ko‘ra esa ishlab chiqarishning o‘shishiga yangi ishchilarni jalb etish hisobiga ham erishish mumkin.
ular bozor mexanizmining avtomatik ravishda muvozanatni tiklay olish qobiliyatini to‘g‘ri baholashmagan. Neokeynschilardan farqli ravishda ular faqat raqobatli bozor iqtisodiyoti iqtisodiy o‘shishning muvozanatligini ta’minlay oladi deb hisoblashgan.
№28. Dj. Mid tomonidan keltirib chiqargan barqaror dinamik muvozanat qobilligi tenglamasini toping.

$Y q\alpha RQ L Qr$
$sf(R1)q(dQnQg)R1$
$Yqf(K,L,E)$
$\Delta Y/Yq\Delta L/Lq\Delta K/Kqnn$
№29. A. Lyuis modeli qanday davlatlar uchun qo‘l keladi
aholi zichligi yuqori, kapital tanqis, haqiqiy resurslar esa cheklangan
Rivojlangan
aholi zichligi past, resurslari esa ko‘p
davlat kapitali yuqori
№30. Bevosita jamg‘arish summasining butun milliy daromad hajmiga nisbati bilan nima aniqlanadi?
jamg‘arish normasi
investitsiya normasi
jamg‘arish hajmi
daromad hajmi
№31. Jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi muvozanatning klassik modeliga ko‘ra foiz stavkasining ortib borishi investitsiya hajmiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
kamayib boradi
ortib boradi
muvozanatda qoladi
foiz stavkasining investitsiyaga ta‘siri yo‘q
№32. Uy xo‘jaliklarining bevosita daromadi
tovar va xizmatlarni, ishlab chiqarish omillarini sotish
davlat, korxonalar tomonidan uy xo‘jaligiga tekin asosda to‘lab beriluvchi daromad
barcha javoblar to‘g‘ri
xo‘jalikning o‘zini takomillashtirishi
№33. Uy xo‘jaliklarining samaradorligini oshirishga erishishimiz uchun qanday chora-tadbirlarni qo‘llashimiz kerak?
xo‘jalikning o‘zini takomillashtirish borasidagi chora–tadbirlar
tartibga solishning bozor mexanizmini takomillashtirish borasidagi chora–tadbirlar
davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirishga oid chora–tadbirlar
barcha javoblar to‘g‘ri
№34. Korxonalar baholardan tashqari raqobatda tovarning qaysi jihatlariga e‘tibor beradilar va evaziga firmaning bir tekis rivojlanishiga erishadilar?

barcha javoblar to'g'ri
tovarning texnik jihatdan yangiligi, uning avtomatlashtirilishi
tovarlarning tejamliiligi, ixchamligi,energiya resurslarni kamroq xarajati
o'xshash tovarlarga nisbatan ishlab chiqarilayotgan tovarning chidamli, ishonchliligi, sifatining yuqorilik darajasi
№35. Raqobatbardoshlik bu
nisbiy tushuncha, chunki bir turdagi bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatlashuvchi tovar boshqa bozorlarda umuman raqobatbardosh bo'lmaydi.
birinchi galda mamlakatning jahon bozorida mavqeini tavsiflovchi, shuningdek, tovar va tovar ishlab chiqaruvchining hamda tarmoqning raqobatbardoshligini birlashtiruvchi umumiy ko'rsatkich xisoblanadi.
o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish maqsadida turli mamlakatlarda faoliyatning turli ko'rinishlarini joylashtirish
barcha javoblar to'g'ri
№36. Qaysi omil raqobatbardoshlikka ta'sir ko'rsata oladi?
raqobatchi firmalar soni
bozordagi talab hajmini o'rganish
bozorga kirib kelish va uning darajasi
barcha javoblar to'g'ri
№37. O'zbekiston raqobatbardoshligining ustun jihatlari qaysilar?
temiryo'l va aholini boshlang'ich va o'rta ta'lim bilan qamrab olish
turizm va transport
xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligining rivojlanganligi
sanoat va ta'lim tizimi
№38. O'zbekistonda kuchli raqobat mavqeiga ega bo'lgan tarmoqlar qaysilar?
barcha javoblar to'g'ri
rangli metallurgiya
neft - gaz, og'irsanoat
paxtani qayta ishlash
№39. Ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi. Bu qanday iqtisodiy o'sish turi
ekstensiv iqtisodiy o'sish
intensiv iqtisodiy o'sish
erkin iqtisodiy o'sish
to'g'ri javob yo'q
№40. Investitsiya nima?
ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma

kapitalga pul shaklidagi qo'yilmalar
investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha qilinadigan amaliy harakatlar
investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs
milliy daromad (foyda) investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi
№41. To'lovga qobillik bu
pul va qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishiga imkon beruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy holati
boshqaruv tizimi tomonidan ishlab chiqiluvchi, boshqarish tusidagi ko'rsatmalar.
ma'lum bir usul va vositalardan foydalanish asnosida tovarlar harakatini tashkil etish va tovarlarni sotishda parallel ravishda yoki ketma-ketlikda bajariluvchi operatsiya va amaliyotlarning umumiyliigi
to'g'ri javob yo'q
№42. Davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi ilmiy asosda birinchi marta A.Smit tomonidan qaysi asarida ko'rib chiqilgan?
“Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida”
“Tinch qo'yish”
“Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi”
“An'anaviy agrar sohasining transformatsiyasi”
№43. Dotatsiya bu -
byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta'minlash uchun ajratilgan pul mablag'laridir.
qat'i maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo'lib, foydalanish sharti buzilganda uni qaytarib olish mumkin.
bu pul yoki natura ko'rinishidagi yordam turi bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko'rsatiladi
kapital qo'yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag'lar, egri subsidiyalar soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va hokazolardir.
№44. Subvensiya bu-
qat'i maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo'lib, foydalanish sharti buzilganda uni qaytarib olish mumkin.
byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta'minlash uchun ajratilgan pul mablag'laridir.
kapital qo'yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag'lar, egri subsidiyalar soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va hokazolardir.
bu pul yoki natura ko'rinishidagi yordam turi bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko'rsatiladi
№45. Subsidiya bu -
bu pul yoki natura ko'rinishidagi yordam turi bo'lib, byudjet va byudjetdan

tashqari fondlardan ko'rsatiladi.
qat'i maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo'lib, foydalanish sharti buzilganda uni qaytarib olish mumkin.
kapital qo'yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag'lar, egri subsidiyalar soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va hokazolardir.
byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta'minlash uchun ajratilgan pul mablag'laridir.
№46. Nodiskretsiyon fiskal siyosat deyilganda nimalar tushuniladi?
soliq tizimining mustaqil barqarorlashtiruvchi bir qator layoqatlari, ya'ni uning mamlakatdagi iqtisodiy faollikni qandaydir boshqaruvchi organlarning bevosita aralashuvlarisiz tartibga solish imkoniyatini beruvchi ayrim xususiyatlari tushuniladi.
bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish, bandlik darajasini ushlab turish va inflyatsiya ustidan nazorat o'rnatish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliqlar bilan birga, davlat xarajatlarini ongli ravishda manipulyatsiya qilish tushuniladi
bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish va byudjet tizimining mustaqil barqarorlashtiruvchi bir qator layoqatlari
bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish, bandlik darajasini ushlab turish
№47. Diskretsiyon fiskal siyosat deyilganda nimalar tushuniladi?
bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish, bandlik darajasini ushlab turish va inflyatsiya ustidan nazorat o'rnatish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliqlar bilan birga, davlat xarajatlarini ongli ravishda manipulyatsiya qilish tushuniladi
soliq tizimining mustaqil barqarorlashtiruvchi bir qator layoqatlari, ya'ni uning mamlakatdagi iqtisodiy faollikni qandaydir boshqaruvchi organlarning bevosita aralashuvlarisiz tartibga solish imkoniyatini beruvchi ayrim xususiyatlari tushuniladi.
bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish, bandlik darajasini ushlab turish
bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish va byudjet tizimining mustaqil barqarorlashtiruvchi bir qator layoqatlari
№48. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining nechanchi moddasida muallifga – ijodiy mehnati bilan asar yaratgan shaxs, deb ta'rif berilgan.
3-moddasida
4-moddasida
5-moddasida
6-moddasida
№49. Alohida shaxsning inson kapitali bu-
uning salomatligi, sog'lig'i, qobiliyati, bilimi va ko'nikmalaridan iboratdir

hozirgi vaqtda savdo belgisi, personal va yangi texnologiyalar sifatidagi nomoddiy aktivlar alohida rol o‘ynaydi
ijtimoiy, siyosiy kapitalni, milliy intellektual ustuvorliklarni, milliy raqobat ustunliklarini va millatning tabiiy salohiyatini qamrab oladi
muhofaza qilgan tijorat huquqlari, intellektual mulk hamda boshqa nomoddiy aktivlar va firmani yangilanishga qodirligini ta’minlaydi
№50. Korxonaning inson kapitali bu-
hozirgi vaqtda savdo belgisi, personal va yangi texnologiyalar sifatidagi nomoddiy aktivlar alohida rol o‘ynaydi
uning salomatligi, sog‘lig‘i, qobiliyati, bilimi va ko‘nikmalaridan iboratdir
ijtimoiy, siyosiy kapitalni, milliy intellektual ustuvorliklarni, milliy raqobat ustunliklarini va millatning tabiiy salohiyatini qamrab oladi.
muhofaza qilgan tijorat huquqlari, intellektual mulk hamda boshqa nomoddiy aktivlar va firmani yangilanishga qodirligini ta’minlaydi
№51. Milliy inson kapitali bu
ijtimoiy, siyosiy kapitalni, milliy intellektual ustuvorliklarni, milliy raqobat ustunliklarini va millatning tabiiy salohiyatini qamrab oladi.
muhofaza qilgan tijorat huquqlari, intellektual mulk hamda boshqa nomoddiy aktivlar va firmani yangilanishga qodirligini ta’minlaydi
uning salomatligi, sog‘lig‘i, qobiliyati, bilimi va ko‘nikmalaridan iboratdir
hozirgi vaqtda savdo belgisi, personal va yangi texnologiyalar sifatidagi nomoddiy aktivlar alohida rol o‘ynaydi
№52. Ijtimoiy-madaniy inson kapitali bu -
bu kapital xodimlar madaniy sifatlari va qobiliyatlarining integratsiyalashishi va kooperatsiyalashishini, ijtimoiy takror hosil qilish tarkibida doimiy axborot, ilmiy, ta’lim, texnologik oqimlar mavjud bo‘lishini aks ettiradi;
sotsial normalar, ishonch va hokazolar uning unsurlari xisoblanadi
muhofaza qilgan tijorat huquqlari, intellektual mulk hamda boshqa nomoddiy aktivlar va firmani yangilanishga qodirligini ta’minlaydi
hozirgi vaqtda savdo belgisi, personal va yangi texnologiyalar sifatidagi nomoddiy aktivlar alohida rol o‘ynaydi
№53. Inson kapitali nazariyotchilaridan inson kapitali tushunchasini birinchi bo‘lib kim mikroarajada qo‘llay boshladi?
G. Bekker
A.Smit
T. Shuls
P.Romer
№54. Ushbu fikr kimga tegishli “bugungi iste’mol bilan ertaga qilinadigan iste’molni kengaytirish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan bilimlar o‘rtasida ayriboshlash mavjuddir”
P.Romer
R.Lukas
T. Shuls
G. Bekker

№55. “Integrallashgan baholash modelida” (IAM) qaysi olimga tegishli?
U.Nordxaus
P.Romer
R.Lukas
T. Shuls
№56. Innovatsiya termini qaysi tildan olingan va qanday ma’noni anglatadi?
inglizcha va yangiliklarni joriy etish
inglizcha va yangiliklarni cheklash
inglizcha va texnologiyalarni yaratish
ruscha va yangiliklarni joriy etish
№57. Innovatsiyalarni ta’riflashga qanaqangi yondashuvlarni ajratib ko’rsatish mumkin?
jarayonli va Obektli yondashuv
jarayonli yondashuv
obektli yondashuv
ta’limiy va ilmiy yondashuv
№58. Yangiliklarni joriy etish bilan bog’liq muammolarni tadqiq qilgan iqtisodchi olimlar o’rtasida qaysi olim alohida o’rin tutadi.
G.Mensh
A.Smit
T. Shuls
P.Romer
№59. Bazisli innovatsiyalar bu
bu yangi ilmiy tamoyillarga asoslangan ilgari ma’lum bo’lmagan yangi mahsulot va jarayonlarga yo’l ochib beruvchi yirik ixtirolar bazasida vujudga kelgan innovatsiyalardir
bu kichik, ammo mahsulot, servis va jarayonlarning muhim bo’lgan takomillashuv innovatsiyadir
bu mahsulot yoki jarayonlarning iste’mol tavsiflarini o’zgartirmagan holda, ularning tashqi ko’rinishlarini o’zgartirishdir
bu tizimning ichida amalga oshadigan va tizim amalda bo’lishining o’zgarishiga sezilarli ta’sir ko’rsatmaydigan innovatsiyadir
№60. Takomillashtiruvchi innovatsiyalar bu
bu kichik, ammo mahsulot, servis va jarayonlarning muhim bo’lgan takomillashuv innovatsiyadir
bu yangi ilmiy tamoyillarga asoslangan ilgari ma’lum bo’lmagan yangi mahsulot va jarayonlarga yo’l ochib beruvchi yirik ixtirolar bazasida vujudga kelgan innovatsiyalardir
bu mahsulot yoki jarayonlarning iste’mol tavsiflarini o’zgartirmagan holda, ularning tashqi ko’rinishlarini o’zgartirishdir
bu tizimning ichida amalga oshadigan va tizim amalda bo’lishining o’zgarishiga sezilarli ta’sir ko’rsatmaydigan innovatsiyadir
№61. Psevdoinnovatsiyalar bu
bu mahsulot yoki jarayonlarning iste’mol tavsiflarini o’zgartirmagan holda,

ularning tashqi ko‘rinishlarini o‘zgartirishdir
bu kichik, ammo mahsulot, servis va jarayonlarning muhim bo‘lgan takomillashuv innovatsiyadir
bu yangi ilmiy tamoyillarga asoslangan ilgari ma’lum bo‘lmagan yangi mahsulot va jarayonlarga yo‘l ochib beruvchi yirik ixtirolar bazasida vujudga kelgan innovatsiyalardir
bu tizimning ichida amalga oshadigan va tizim amalda bo‘lishining o‘zgarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan innovatsiyadir
№62. Intensiv iqtisodiy o‘shish deganda nima tushuniladi?
ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish avvaligi texnik asoslar evaziga amalga oshadi
texnika va texnologiyani takomillashtirish evaziga ishlab chiqarish saloxiyati kengayadi
foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi va texnika - texnologiyaning takomillashuvi xisobiga ishlab chiqarish taraqqiy etadi
YaIMning usishi va uning tarkibini takomillashishi foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillarining sifat jihatdan takomillashishi texnika-texnologiyaning mukammallashuvi inson va intellektual kapital mavkeining ortishi evaziga sodir bo‘ladi
№63. Ekstensiv iqtisodiy o‘shish deganda nima tushuniladi?
texnika va texnologiyani takomillashtirish evaziga ishlab chiqarish saloxiyati kengayadi
ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish avvaligi texnik asoslar evaziga amalga oshadi
foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi va texnika - texnologiyaning takomillashuvi xisobiga ishlab chiqarish taraqqiy etadi
YaIMning usishi va uning tarkibini takomillashishi foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillarining sifat jihatdan takomillashishi texnika-texnologiyaning mukammallashuvi inson va intellektual kapital mavkeining ortishi evaziga sodir bo‘ladi
№64. Aralash iqtisodiy o‘shish deganda nima tushuniladi?
foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi va texnika - texnologiyaning takomillashuvi xisobiga ishlab chiqarish taraqqiy etadi
YaIMning usishi va uning tarkibini takomillashishi foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillarining sifat jihatdan takomillashishi texnika-texnologiyaning mukammallashuvi inson va intellektual kapital mavkeining ortishi evaziga sodir bo‘ladi
texnika va texnologiyani takomillashtirish evaziga ishlab chiqarish saloxiyati kengayadi
ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish avvaligi texnik asoslar evaziga amalga oshadi
№65. Innovatsion iqtisodiy o‘shish deganda nima tushuniladi?
YaIMning usishi va uning tarkibini takomillashishi foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillarining sifat jihatdan takomillashishi texnika-texnologiyaning

mukammallashuvi inson va intellektual kapital mavkeining ortishi evaziga sodir bo‘ladi
texnika va texnologiyani takomillashtirish evaziga ishlab chiqarish saloxiyati kengayadi
ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish avvaligi texnik asoslar evaziga amalga oshadi
foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi va texnika - texnologiyaning takomillashuvi xisobiga ishlab chiqarish taraqqiy etadi
№66. Innovatsion investitsion talabni shakllantirishning nazariy – uslubiy tamoyili bo‘lgan samaradorlik deganda nima tushuniladi?
xarajatlar va natijalarni maqbullashtirish
xo‘jalik – ishlab chiqarish faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, innovatsion investitsiyalar uchun ustivor bo‘lgan yo‘nalishlarni ajratib olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishiga erishish
bilim, axborot, texnologiyalar va shuningdek ularni amalda qo‘llash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish, tashkiliy – iqtisodiy, moliyaviy va boshqa turdagi innovatsion investitsiyalar talabning ajralmas unsurlari bo‘lib hisoblanadi
innovatsion investitsiyalar maqsadlarini ro‘yobga chiqarishning institutlar tizimining mavjudligi
№67. Innovatsion investitsion talabni shakllantirishning nazariy – uslubiy tamoyili bo‘lgan yaxlitlik deganda nima tushuniladi?
xo‘jalik – ishlab chiqarish faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, innovatsion investitsiyalar uchun ustivor bo‘lgan yo‘nalishlarni ajratib olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishiga erishish
innovatsion investitsion tavakkalchilik va xavf- xatarlarni taqsimlashda investitsion jarayon ishtirokchilarining javobgarligi
bilim, axborot, texnologiyalar va shuningdek ularni amalda qo‘llash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish, tashkiliy – iqtisodiy, moliyaviy va boshqa turdagi innovatsion investitsiyalar talabning ajralmas unsurlari bo‘lib hisoblanadi
innovatsion investitsiyalar maqsadlarini ro‘yobga chiqarishning institutlar tizimining mavjudligi
№68. Innovatsion investitsion talabni shakllantirishning nazariy – uslubiy tamoyili bo‘lgan innovatsion deganda nima tushuniladi?
bilim, axborot, texnologiyalar va shuningdek ularni amalda qo‘llash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish, tashkiliy – iqtisodiy, moliyaviy va boshqa turdagi innovatsion investitsiyalar talabning ajralmas unsurlari bo‘lib hisoblanadi
xo‘jalik – ishlab chiqarish faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, innovatsion investitsiyalar uchun ustivor bo‘lgan yo‘nalishlarni ajratib olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishiga erishish
innovatsion investitsion tavakkalchilik va xavf- xatarlarni taqsimlashda investitsion jarayon ishtirokchilarining javobgarligi

innovatsion investitsiyalar maqsadlarini ro'yobga chiqarishning institutlar tizimining mavjudligi
№ 69. Innovatsion investitsion talabni shakllantirishning nazariy – uslubiy tamoyili bo'lgan institutsionallik deganda nima tushuniladi?
innovatsion investitsiyalar maqsadlarini ro'yobga chiqarishning institutlar tizimining mavjudligi
bilim, axborot, texnologiyalar va shuningdek ularni amalda qo'llash bilan uzviy bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, tashkiliy – iqtisodiy, moliyaviy va boshqa turdagi innovatsion investitsiyalar talabning ajralmas unsurlari bo'lib hisoblanadi
xo'jalik – ishlab chiqarish faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, innovatsion investitsiyalar uchun ustivor bo'lgan yo'nalishlarni ajratib olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishiga erishish
innovatsion investitsion tavakkalchilik va xavf- xatarlarni taqsimlashda investitsion jarayon ishtirokchilarining javobgarligi
№ 70. Konvengersiya qaysi tildan olingan va uning ma'nosi:
lotincha “yaqinlashish”
grekcha “yaqinlashish”
lotincha “uzoqlashish”
grekcha “uzoqlashish”
№ 71. Iqtisodiy o'sishning neoklasik nazariyasi ekzogen usuli kimni nomi bilan bog'liq:
R.Solou
P.Romer
F.Larren
Dj.Saks
№ 72. Iqtisodiy o'sishning neoklassik nazariyasi endogen usuli kimni nomi bilan bog'liq:
P.Romer
F.Larren
R.Solou
Dj.Saks
№ 73. Beta konvergensiya-bu:
“boy” rivojlangan mamlakatlarga qaraganda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot bo'yicha quyi darajaga ega bo'lgan mamlakatlarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashi
rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida aholi jon boshiga milliy daromad ko'rsatkichini bosqichma-bosqich tenglashishi
rivojlanayotgan mamlakatlarning mehnat va kapitaldan foydalanishda teng nisbatlari sharoitida yuqorii qtisodiy o'sish sur'atlari va ushbu nisbatlarning rivojlangan mamlakatlarning statsionar holatiga yaqinlashgan sari o'sish sur'atlarini pasayib borishi

togʻri javob yoʻq
№ 74. “Osiyo yoʻlbarlari” deb nomlanuvchi davlatlar:
Gonkong, JanubiyKoreya, Tayvan, Singapur
Malayziya, JanubiyKoreya, Xitoy, Singapur
Gonkong, Indoneziya, Tayvan, Yaponiya
Vietnam, JanubiyKoreya, Tayvan, Makau
№ 75. Divergensiyaqaysitildanolinganvauningmaʼnosi:
lotincha “uzoqlashish”
grekcha “yaqinlashish”
lotincha “yaqinlashish”
grekcha “uzoqlashish”
№ 76. Takror ishlab chiqarish mezonlari -bu:
sanoatni modernizatsiyalash va sanoat “sakrash” lari imkoniyatlarini baholash-yalpi ishlab chiqarish vositalarini yangilash va mehnat unumdorligini tubdan oshirish, texnika va texnologiyalarning yangi avlodlarini yangilash hisobiga YAIM hajmini oshirish boʻlib hisoblanadi
ushbu mezonlar yordamida iqtisodiyotning texnologik mukammal mosligini baholash mumkin
ushbu mezonlar iqtisodiyotni texnologik modernizatsiya qilishni eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish imkoniyatlaridan dalolat beradi.
ushbu mezonlarning oʻrni - innovatsion tadbirkorlik sohasida bozor mexanizmlarini rivojlantirish darajasi, va ularning ijobiy tarkibiy tuzilmaviy oʻzgarishlarga taʼsirini aniqlash.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. IQTISODIY O‘SISH.....	9
1.1. Iqtisodiy o‘shning mazmuni va turlari	11
1.2. Iqtisodiy o‘shning ko‘rsatkichlari va omillari	24
1.3. Iqtisodiy o‘shni o‘lchash	29
Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.....	32
Amaliy topshiriqlar:.....	35
Referat mavzulari:	35
Mushohada uchun:.....	36
Masalalar:	36
Keys:Bashariyat oldidagi tanlov muammosi	39
Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	41
II BOB. SOLOU MODELI.....	44
Taraqqiyotning ildizi ta’limda.....	44
2.1. Solouning iqtisodiy o‘sh nazariyasi modeli	47
2.2.R.Solouning neoklassik modeli	49
2.3.Kapital va mehnat tushunchalari	50
2.4. Solouning neoklassik iqtisodiy o‘sh modeli.....	50
Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.....	58
Amaliy topshiriqlar:.....	60
Referat mavzulari:	61
Mushohada uchun:.....	61
Masalalar:	61
Keys:Singapur mo‘jizasi	64
Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	68
III BOB. TUTASH AVLODLAR IQTISODIY O‘SISH MODELI.....	70
Tashqi qarz muammosi: tahdid va imkoniyatlar	70
3.1. Tutash avlodlar (OLG) modelining iqtisodiy mazmun-mohiyati	74
3.2. Tutash avlodlar (OLG) modelidan amalda foydalanish	77
3.3. Inson omili va inson kapitali	83
Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.....	98
Amaliy topshiriqlar:.....	100
Referat mavzulari:	100
Mushohada uchun:.....	101
Masalalar:	101
Keys: Oziq-ovqat xavfsizligi- erkinlik va farovonlik asosi sifatida	104
Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	106
IV BOB. IQTISODIY O‘SISH NEOKLASSIK MODELLARINING EMPIRIK QO‘LLANISHI.....	109
O‘zbekiston uglerod neytralligini ta’minlash yo‘lida	109
4.1. Neoklassik o‘sh modellarining asosiy mazmuni	111
4.2.Neoklassik modellarning empirik talqini	118
Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.....	131

Amaliy topshiriqlar:.....	136
Referat mavzulari:	137
Mushohada uchun :.....	137
Masalalar:	137
Keys: Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish asoslari	139
Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	145
V BOB. DAVLATNING BYUDJET-SOLIQ (FISKAL) SIYOSATI	148
Islohotlar shiddati tobora oshmoqda	148
5.1.Davlat byudjeti va uning iqtisodiy mazmuni	154
5.2. O'zbekistonda byudjet tuzilishi va byudjet tizimi.....	163
5.3. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi	172
Bob bo'yicha qisqacha xulosalar.....	184
Amaliy topshiriqlar:.....	186
Referat mavzulari:	187
Mushohada uchun:.....	187
Masalalar:	187
Keys: Hududda import o'rnini bosish siyosatini amalga oshirish mexanizmi ..	192
Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	196
VI BOB. O'SISH DVIGATELI	199
O'zgarishlar shamolini his qilgan odam, shamoldan panalishi kerakmas, aksincha u shamol tegirmoni qurishi lozim	199
6.1. Iqtisodiy rivojlanish omillari tasnifi	203
6.2. Iqtisodiy rivojlanishni aks ettiruvchi asosiy modellar	211
6.3. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatorlari	215
6.4. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish tahlilining ekonometrik modellari	223
6.5 . Inson kapitali iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi kuch sifatida	227
Bob bo'yicha qisqacha xulosalar.....	246
Amaliy topshiriqlar:.....	256
Referat mavzulari:	256
Mushohada uchun:.....	257
Masalalar:	257
Keys: Xalqaro reytinglar va indekslar: O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash.....	263
Mavzuni o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	270
VII BOB. TO'LIQ BIR TARMOQLI NEOKLASSIK O'SISH MODELI	273
Oltin-valyuta zahiralarini taraqqiyot xizmatida	273
7.1. Post keynschilik modellari	277
7.2. Neoklassik modellar.....	282
7.3. Iqtisodiy o'sish modellarida texnik taraqqiyotning aks ettirilishi.....	292
Bob bo'yicha qisqacha xulosalar.....	297
Amaliy topshiriqlar:.....	299
Referat mavzulari:	299
Mushohada uchun:.....	300
Masalalar:	300

Keys:Taraqqiyotning o‘lchovi	306
Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	312
VIII BOB. IQTISODIY O‘SISH VA RIVOJLANISHNING SODDA MODEL	315
Raqamli iqtisodiyot milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishtirishning muhim sharti sifatida	315
8.1. Iqtisodiy o‘shish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish.....	320
8.2. Iqtisodiy o‘shishning Menkyu-Romer va Shumpeter modellari.....	327
Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.....	339
Amaliy topshiriqlar:.....	342
Referat mavzulari:	342
Mushohada uchun:.....	342
Masalalar:	342
Keys: Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan	347
Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	348
IX BOB. IKKI TARMOQLI VA IKKI TURDAGI IQTISODIYOT	351
XVJ: O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishadi	351
9.1. Iqtisodiyotning ikki sektorli modeli	354
9.2. Import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o‘shish turlarining uslubiy asoslari	361
Bob bo‘yicha xulosalar	382
Amaliy topshiriqlar:.....	389
Referat mavzulari:	389
Mushohada uchun:.....	389
Masalalar:	391
Keys:Jahon banki O‘zbekiston uchun 2022 yilning aprel oyida “The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan” diagnostik hisobotini e‘lon qildi	393
Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	402
X BOB. IQTISODIY O‘SISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI, IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH	405
Xususiylashtirish tomon dadil qadamlar	405
10.1. Iqtisodiy o‘shishning institutsional asoslarini takomillashtirish.....	407
10.2. Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda klasterlashtirish siyosati	418
10.3. Tuzilmaviy siyosat va iqtisodiyotni modernizatsiyalash	430
10.4.Urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy o‘shishga ta‘siri	435
Bob bo‘yicha qisqacha xulosalar.....	441
Amaliy topshiriqlar:.....	448
Referat mavzulari:	448
Mushohada uchun:.....	448
Masalalar:	449
Keys:“AQShning ilmiy va innovatsion rivojlanish modeli”	450
Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	452
XI BOB. IQTISODIY O‘SISHNI TUSHUNISH	455

Xalqaro reyting agentliklarining O‘zbekistonga bergan bahosi	455
11.1. Iqtisodiy o‘shish sifati, ko‘rsatkichlari hamda o‘lchamlari	456
11.2. Iqtisodiy o‘shishni aniqlash borasidagi nazariy yondashuvlar	475
11.3. Iqtisodiyotda golland kasalligining namoyon bo‘lish shart-sharoitlari va omillari	486
Amaliy topshiriqlar:.....	496
Referat mavzulari:	496
Mushohada uchun:.....	496
Masalalar:	497
Keys:AQShda inflyatsiya 40 yil ichida eng yuqori ko‘rsatkichga chiqdi.....	500
Mavzuni o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar:	501
GLOSSARIY	503
TESTLAR	515
MUNDARIJA.....	531